



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI**



**O'ZBEKISTONDA XIZMAT KO'RSATGAN MADANIYAT
XODIMI, O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
A'ZOSI, FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI,
PROFESSOR NO'MONJON RAHIMJONOV
TAVALLUDINING 80 YILLIGI MUNOSABATI BILAN**

**“O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING
DOLZARB MASALALARI”**

**MAVZUSIDA XOTIRA XALQARO
ILMIY-NAZARIY ANJUMAN**



**Digital object
identifier**



**Google
Scholar**



OpenAIRE

**O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, filologiya fanlari
doktori, professor No'monjon RAHIMJONOV tavalludining
80 yilligiga bag'ishlangan**

**O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB
MUAMMOLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya
MATERIALLARI TO'PLAMI

Toshkent, O'zbekiston

2024-yil 30-may

**O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB
MUAMMOLARI**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya

MATERIALLARI TO'PLAMI

Toshkent, O'zbekiston

COLLECTION OF MATERIALS

from the international scientific and practical conference

CURRENT ISSUES OF UZBEK LITERARY STUDIES

Tashkent, Uzbekistan

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

международной научно-практической конференции

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ УЗБЕКСКОГО
ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЯ**

Ташкент, Узбекистан

**NO'MONJON RAHIMJONOV TAVALLUDINING 80 YILLIGI MUNOSABATI BILAN
"O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI"
mavzusida xotira xalqaro ilmiy-nazariy anjuman**

O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari / –Toshkent. – 2024. – 530 b.

Ushbu to'plamga 2024-yil 30-may kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tomonidan o'tkazilgan "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari kiritilgan.

Maqola va tezislar mazmuni, uslubi va imlosiga, keltirilgan ma'lumotlarga mualliflarning o'zlari mas'ul.

Mas'ul muharrir

Marhabo Qo'chqorova
Filologaiya fanlari doktori (DSc), yetkchi ilmiy xodim

Taqrizchilar

Ulug'bek Hamdam,
filologiya fanlari doktori, professor
Rahmatullo Barakayev,
filologiya fanlari nomzodi, professor

Tahrir hay'ati

Sanobar To'laganova
Suvon Meliyev
Ergash Ochilov
Burobiya Radjabova
Gulnoz Sattorova
Anvar Allamberganov
Qodirjon Ergashev
Maqsud Asadov
Manzura Otajonova
Barchin Shukurova
Farhod Kenjayev
G'ulom Atadjanov

Maqolalarni to'plab, nashrga tayyorlovchi

Marhabo Qo'chqorova

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti XX asr o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon bo'limining 2024-yil 10-yanvar kuni bo'lib o'tgan 2-sonli majlis qarori bilan o'tkazishga tavsiya qilingan

БАДИЙ МАҲОРАТ ЖОЗИБАСИГА ДОИР

Қурдош Қахрамонов,
филология фанлари доктори

Истиқлол даврига келиб ўзбек адабиётшунослиги ва танқидчилиги ҳар томонлама такомиллашди. Бу даврда адабиётшунослик шўро даврига хос бўлган бирхилликдан, ҳоким мафкура ғояларига қарамликдан қутилиб, бадий асарни баҳолашда ҳурфикрликка юз бурди. Адабиёт жараён тенденцияларишга, бадий асарга турли рақуслардан ёндашила бошланди. Таҳлилларда ижодкор шахсига, ижод психологиясига эътибор кучайди. Буни жаҳид адабиёти номаяндалари ижодига оид, шўро даври ёхуд мустақиллик даври адабиётига оид тадқиқотларда ҳам кўришимиз мумкин.

Шу жиҳатдан таникли адабиётшунос олим Нўъмон Раҳимжоновнинг истиқлол йилларида амалга оширган илмиш изланишлари эътиборга молик. Муаллифнинг бу даврда чоп этилган “Мустақиллик даври адабиёти”, “Бадий асар биографияси” каби китобларида Иззат Султон, А.Орипов, Рауф Парфи каби бир қатор ижодкорлар ижодига бағишланган кузатишлари характерлидир.

Албатта, сўнгги давр ўзбек адабиётшунослиги ва танқидчилигига назар ташласак, ижодкор ҳаёти ва ижоди, муайян бадий асарларнинг яратилиш тарихи ёки тақдирига оид кузатишлар тадқиқида биографик методдан самарали фойдаланилаётганига гувоҳ бўламиз. Н.Раҳимжонов “Бадий асар биографияси” номли китобда турли тарихий даврларга оид ижодий жараёнларни яхлит бир ҳодиса сифатида ўрганишга киришаркан, нафақат атоқли адиб И.Султон ижоди, умуман, ХХ аср ўзбек адабиётида акс этган образли тафаккур типлари, уларнинг эволюцияси, турғунлик ҳолатлари тадқиқотчилар эътиборидан четда қолганини тўғри таъкидлайди. «Ваҳоланки, адабий матн яхлит бадий бутунлик, шу билан баробар, асарнинг юзага келиш тарихини кўз-кўз этувчи гўзаллик ҳодисаси ҳамдир. Унга тор ва биқик бир нарса сифатида, санъаткор деб аталмиш инжиқ кимсанинг хархашалари тариқасида қарамаслик лозим. У ижодкор туйғулари ва дунёқарашнинг маълум шаклга кирган кўринишидир»¹.

Китобда адиб ва олим Иззат Султоннинг адабий-эстетик қарашларига таянган ҳолда унинг шахсияти, асарларининг яратилиши тарихи воситасида муҳит ва давр муаммолари ёритилади. Олим бадий асар психологияси таҳлиliga киришганда ёзувчининг ана шу асарни ёзиш жараёнидаги дунёқарашини асос қилиб олиб, образли тафаккур маданиятини ойдинлаштиришга ҳаракат қилади. Қўлланманинг «Ижодкор шахси» деб

¹ Раҳимжонов Н. Бадий асар биографияси.-Т.: Фан, 2008. –Б.10

номланган боби беихтиёр Сент-Бёв услубини ёдга солади. Н.Раҳимжонов дараматургнинг онги шаклланган жараёнларни - болалик даврини унинг ўз тилидан айтган хотиралар воситасида «тиклайди». Ёзувчининг таржимаи ҳолига доир тафсилотлар унинг ижодига, конкрет асарларининг яратилишига замин ҳозирлаганини тадқиқотчи кўплаб воқеалар ва улардан келинган хулосалар орқали далиллаб кўрсатади.

Тадқиқотнинг услуби, мундарижаси ўзига хослигига қарамай, маданий-тарихий метод асосида Иззат Султон шахси, ижодий принциплари у яшаб ижод этган давр муҳити, шарт-шароити «Алишер Навоий», «Имон», «Донишманднинг ёшлиги», «Кўрмайин босдим тиканни», «Қакнус», «Ойдин кеча асрлигида», «Янги одамлар» сингари асарларининг бадиий ғоя тарзида туғилиши жараёнлари билан боғлиқ равишда батафсил ёритилади. Адибнинг «Тотли ва эзгин хотиралари» (73-бет), тадқиқот муаллифининг кўплаб саволлари, ёзувчи билан мулоқотлари, кузатишлари бутун бир маданий-тарихий жараённинг Иззат Султон шахси ва фаолияти билан боғлиқ саҳифаларига ойдинлик киритади. Энг муҳими, Н.Раҳимжонов адиб асарлари яратилган, чоп этилган, саҳналаштирилган даврдаёқ тарихий шахслар ҳаёти талқини билан боғлиқ масалаларга бугунги кун талабларидан келиб чиқиб ёндашади ва уларга қониқарли жавоблар беради. Хусусан, «Алишер Навоий» драмасининг яратилиш тарихи ҳақида сўз юритганда асар муаллифининг иқрорларини баён этади. Бу баённомалардан Н.Раҳимжоновнинг келган хулосаси шундай: «Аслида, ўзбек адабиётини яхлит ва бус-бутун жараён сифатида ўрганишга, эстетик ўзлаштиришга интилаётган эканмиз, унга башарий қадриятлар нуқтаи назаридан ва жаҳон контекстидан ёндашишга ҳаракат қилаётган эканмиз, бир неча минг йиллик адабиётимиз намуналарини «дунёвий» ёки «диний» адабиёт тарзида бўлак-бўлақларга ажратиб қараш ўрганиш бир ёқламалиқдир. Ундан шўро мафкурасининг социалистик реализм ижодий методининг синфийлик принципи ҳиди келади»².

Тадқиқотда маданий-тарихий метод етакчилик қилса-да, унда бадиий асарга ёхуд муайян ижодкор ҳаёти ва фаолияти таҳлиliga системали ёндашганда қўлланиладиган биографик метод, комплекс ўрганиш, қиёсий-тарихий, социологик методлар, психологик ёндашув усулларидан ҳам ўз ўрни ва меъёрида фойдаланилган. Бу тариқа системали ёндашув масаланинг турли-туман қирраларини асосли ёритишга омил бўлган. Назаримизда, маданий-тарихий метод адабиётимиз тарихининг, атоқли ижодкор шахси ва ижодининг теран ва кўламли таҳлил ва ютуқларига кенг йўл очади ва замонавий ўзбек танқидчилигининг етакчи методларидан бири сифатида методологиядан муқим

² Раҳимжонов Н. Бадиий асар биографияси.-Т.: Фан, 2008. –Б. 92.

ўрин эгаллайди. Шу нуқтаи назардан қараганда, мазкур қўлланма нафақат талабалар учун, балки бадий таҳлил муаммолари билан қизиқувчи ҳар бир тадқиқотчи учун ҳам муҳим амалий аҳамиятга эгадир.

Олимнинг «Мустақиллик даври ўзбек шеърияти» номли китобидаги бир қатор мақолаларда ҳам мустақиллик даври адабиётига хос томайиллар хусусида фикр юритилади. Муаллиф Асқад Мухтор, Абдулла Орипов, Абдулла Шер каби шоирлар ижоди таҳлили орқали шеъриятдаги фалсафийликнинг чуқурлашуви, одам ва олам муносабатларидаги янги ёндашувлар юзага келаётганини урғулайди. А.Ориповнинг «Ҳаж дафрати» тадқиқи орқали шеъриятида юз очётган диний-маърифий мотивлар, шоир ижодидаги шайтон образининг янги талқинлари билан танишамиз.

Олимнинг атоқли шоир Рауф Парфи ижодига бағишланган таҳлилларида бадий маҳорат масалалари етакчилик қилади. Китобдаги «Иймон асри (Рауф Парфи шеърияти ва моҳиятига бир назар)», «Бадий дид ва эстетик савия» номли мақолаларда Рауф Парфи шеъриятининг ўзига хос поэтик қирраларини таҳлил қиларкан, мунаққид истиқлол даври ўзбек шеъриятининг янгиланиш тамойилларига янгича танқидий тафаккур билан ёндашади. «Рауф Парфи XX аср ўзбек поэзиясида фикр билан кечинманинг синтезини бадий санъат даражасига кўтарган соф туйғунинг табиий оқимини, қабарик мажозий ифодасини омухталаштирган бетакрор услуб яратди. Бу – XX аср ўрталаридан эътиборан XXI аср ўзбек шеърияти тараққиётида алоҳида йўналиш касб этди. Мустақил бадий идрок ва ифода маданияти сифатида шаклланди»³, деб ёзади Н. Раҳимжонов.

Муаллиф китобида ўтган аср охири ва XXI аср бошлари истиқлол даври шеъриятида рўй берган бадий-эстетик янгиланишлар бадиият ҳақидаги қарашларни, умуман, ижтимоий-сиёсий оламга хос стереотипларни, қолипга айланиб қолган қоидаларни синдириш эвазига юзага чиққанини таъкидлайди. Шеърият борасидаги тушунча ва тасаввурларнинг қоқоқлиги, эстетик мезонларнинг жўнлашиб кетгани тубдан янгиланаётган адабий жанрларни, шеърий санъатларни, дадил бадий тажрибаларининг вақтида ўз муносиб баҳосини олмаганини уқтиради.

Мунаққид А. Мухтор, А. Орипов, Э. Воҳидов, С. Саййид сингари бир қатор атоқли ва таниқли ижодкорларнинг ижоди, конкрет асрлари таҳлили мисолида сўнги давр шеъриятидаги сифат ўзгаришларни кашф этишга ҳаракат қилади. Хусусан, Рауф Парфи ижодини унинг шахсияти билан бир бутунликда текширади. Мунаққид фикрича, Рауф Парфи - сир шоирдир. Унинг

³Раҳимжонов Н. «Мустақиллик даври ўзбек шеърияти» - Т.: «Фан». 2007- Б.96.

шеърятининг зоҳирий томонларинигина талқин этиш мумкин, лекин ботиний маъно-мазмунни кашф этиш ҳаммага ҳам насиб қилавермайди. Шоир шеърларининг салмоғини белгилаб турган энг муҳим жиҳат – шахс эрки, ватан ёди, бутун туркий дунёнинг бирлиги каби мавзулардир.

Шоир ушбу мавзуларнинг шеърий талқинида фақат рост сўзлайди, мажоз воситасида ҳақиқатни куйлайди. Нўъмон Раҳимжонов шоир эстетик тамойилларини белгиларкан, унинг шеърлятидаги ростгўйлик моҳияти турли хил рамзий образлар, поэтик тимсоллар, метафорик бирикмалар орқали ифодалаганлигини, бадий сўзнинг маърифий-эстетик қиммати руҳни покловчи ижтимоий-фалсафий категориялар даражасигача кўтарганлигини «Дилимда бир сўз бор эди» сатри билан бошланувчи шеъри таҳлили орқали кўрсатиб беради.

Мунаққид фикрича, Р.Парфи эстетик қарашларининг илдизлари Шарқ ва Ғарб бадииятининг мумтоз намуналаридан сув ичади. Шу боисдан ҳам, унинг шеърларида ҳақ ва ҳақиқат куйланади, ёлғонга қарши исён руҳи етакчи тамойил даражасига кўтарилади.

Р.Парфи шеърлятида ватан туйғуси, Турон, Туркистон мавзуси турли хил поэтик тимсоллар, рамзлар орқали ифодаланганлигини мунаққид қуйидагича шарҳлайди: «Шоирнинг кўнглини, ижодини билмоқчи бўлсанг, унинг она юртини бориб кўр, деган ҳикмат бор. Шоирнинг ватани бу унинг сеҳрли, пурҳикмат маъноларни ўзига сингдирган сирли қиёфалар дунёси. Р. Парфи лирикасидаги Сўз, Кўз, Қушча, Булоқ, Дарахт, Чироқ, Хаёл, Нур сингари образлар тагдор, пурмаъно мазмун ифодалашига кўра тимсолга айланаётир. Улар Туронзамин, Туркистон халқларининг тарихий ҳаёти саҳифаларини суратлантиради. Туркий халқлар тақдиридаги фожеали воқеалар моҳиятини акс эттиради. Миллат тақдирида ўчмас из қолдирган ва айни кейинги юз йилликларда мудраган жўмардлик, жангарилик, қаҳрамонлик руҳини қайта тирилтириш, оёққа кўйиш, фаолликка даъват Р.Парфининг Турон-Туркистон мавзуидаги шеърларининг етакчи хусусиятларидан биридир»⁴.

Биз бу ўринда олимнинг Р.Парфи шеърляти талқини билан боғлиқ кузатишларига кенгроқ тўхталганимизнинг боиси шундаки, ушбу кузатишларда, биринчидан, бу новатор шоир ижоди собиқ шўро даврида ноўрин танқидларга учрагани, шеърлари ўз вақтида муносиб баҳосини олмаганига эътибор қаратилади. Иккинчидан, Р. Парфи ижоди замонавий ўзбек поэзиясида янги йўналишни бошлаб берди. Шоир ўзининг дадил ижодий тажрибалари билан ҳам шакл ва мазмун жиҳатидан шеърлятнинг тубдан янгилашишига улкан ҳисса қўшди. Унинг ижодий тажрибалари ўзбек

⁴ Раҳимжонов Н. «Мустақиллик даври ўзбек шеърляти» - Т.: «Фан». 2007- Б.

шеърятининг кейинги авлодини жиддий изланишларга илҳомлантирди. Қолаверса, Р.Парфи ижоди таҳлили ва талқини жараёнида олимларимиз ҳам ўзининг янгича таҳлил усулларини «синовдан» ўтказди, ўзгаришларга юз бурган танқидий тафаккур ўзининг янгича таҳлил принциплари намоён эта борди.

Таниқли олим Нўъмон Раҳимжонов илмий мероси бунинг яққол далилидир.

ШЕЪРИЯТ ИДРОК ЭЛАГИДА
(Профессор Н. Раҳимжоновнинг “Мустақиллик даври ўзбек шеърияти”
номли китоби бўйича)

Улуғбек ХАМДАМ

Аннотация: мақолада профессор Н. Раҳимжоновнинг Истиқлол даври адабиёти, хусусан, шеърияти тадқиқига бағишланган “Мустақиллик даври ўзбек шеърияти” номли китобига кирган турли мақолалар илмий жиҳатдан ўрганилиб, керакли хулосалар чиқарилган. Унда давр шеъриятининг ўзига хос жиҳатлари, парвоз ва тушишларига илмий баҳо берган олим қарашлари таҳлилга тортилган.

Калит сўзлар: мустақиллик даври ўзбек шеъриятини идрок қилиш, бадиий-эстетик тафаккур, бугуннинг қаҳрамони, адабий чиқинди, раҳимжоновона баҳо, чинакам ва сохта адабиёт, фикр ва туйғу, мафкура, адабиётнинг бош вазифаси.

Ушбу китоб билан танишар эканман, мамнуният ила иқдор бўлган илк нарсам шуки, яқин ўтмиш адабиётимиз, жумладан шеъриятимиз идрок этилмоқда. Адабиётимиздаги тамойиллар, майллар, йўллар сарҳисоб қилиниб, таснифланмоқда. Бу дегани шуки, адабиётшунослик илми куни кеча босиб ўтган адабий йўлимизга жиддий бир тарзда мушоҳадаю мулоҳаза назарини бошламоқда, уни тушунишга, тушунтиришга, ўзига хос белгиларию қонуниятларини аниқлаб олишга уринмоқда. Бу нарсанинг исталган миллатнинг илмий-назарий тафаккур босқичида қандай аҳамият касб этишини таъкидлаб ўтиришнинг ҳожати йўқ, албатта.

Китоб мутолаасига киришиб кетар экансиз, профессор Нўмон Раҳимжонов дунёқарашининг нақадар кенг эканлигига амин бўласиз. Унда Н. Раҳимжонов нафақат олим-адабиётшунос бўлиб, балки икки аср оралиғида яшаб, ўзининг тийрак нигоҳини шу юзликларнинг оғриқли муаммоларидан узмай келаётган, энг муҳими, ёниб ижод қилаётган куюнчак зиёли ўлароқ намоён бўлади. Олимнинг шеърият воситасида инсон, инсон орқали кишилиқ жамиятини таҳлил этишидаги мезонларининг баландлиги, тўғриси, менинг ҳам ҳавасимни келтирди. Адабиётимизни, унинг тарихи, бугуни ва келажagini ўрганишга йўналтирилган маърифат даражасига меҳрим тушди. Ана шу даражадан туриб қаралганда, чинакам ва сохта адабиётнинг ўртасидаги оддий кўзга кўп ҳам чалинавермайдиган, лекин хитой деворидек қалин, мустаҳкам тўсиқ борлиги фарқланади. Мазкур китобга кирган талайгина мақолаларда олим ана шу деворнинг белгиларини кўрсатишга, энг муҳими, чинакам адабиёт ва адабий чиқиндининг ҳам ўзига хос сифатларини аниқлашга ҳаракат қилган. Пировардида эса олим ҳақиқий, баланд адабиёт учун овоз беради.

Китобнинг хусусиятларидан яна бири - ажойиб мушоҳадалар, гўзал ва ибратли мулоҳазалардир. Улар таҳлил этилаётган шеърларнинг кайфияти билан уйғунлашиб, бирикиб кетади. Натижада шеърнинг инсон ҳаёти билан узвий,

чамбарчас боғлиқ эканлиги, баъзан ҳаёт силсиларидан шеър, баъзан эса шеърдан ҳаёт пайдо бўлиб, бир-бирларини тўлдириб, бойитиб боришини англаймиз.

Халқ тилининг тенгсиз товланишларидан, айниқса, фразеологизмдан мўл-кўл истифода этишлик тўпламга жамланган талай мақолаларнинг ўқишлилик даражасини орттирган. Чунончи, “Кўнгил эркинлиги - боқий қадрият” мақоласида ҳурмат, эътиборга бўлган инсондаги интилиш моҳиятини англашга уриниб олим ёзади: “Нима учун одамлар эл-юрт иззат-икромини қозониш учун ўзини ўтга, сувга уради? Жонини жабборга беради? Ёзғириб, ёниб куйиб яшайди. Бир тутам тириклигини бедард беташвиш ўтказса, дўпписини яримта қилиб, тарелло бедод юраверса, узатган оёғини йиғиштирмай, лунжидаги қуртини шимиб ётаверса бўлмайдими? Унинг кўрсатган ҳурмати нимаю топган эҳтироми кимга керак?.. Бу, аввало, одамнинг ўзлиги учун сув ва ҳаводек зарур. Боиси, ҳиссиётнинг ана шу тахлит рангин қирраларидан бебаҳралик оқибатида инсон беш юз ёшга кирса ҳам ғурур тоғининг тузларидан тотмай, ғурур дарёсидан сув ичмай, ғурур боғларининг мевасидан узиб емай, ном нишонсиз йўқлик қаърига сингиб кетавериши ҳеч гап эмас”. Эътибор беринг, шапалокдек келадиган ушбу парчадаги жумлаларнинг деярли ҳар бирининг маъно қатларига шимилиб кетган фразеологизмлар олим фикрлари салмоғини нақадар ошириб юборган. Ёки А. Орипов шеърини кучини кўрсатиш учун биргина иборани қўллайди ва ўқувчига таъриф этилаётган назм тафтини етказа билади: “Шоир шеърларида сўзлар бамисоли олов, чўғдек ловуллаб туради”.

Профессор Н. Раҳимжоновнинг аксарият ишларига хос фазилатлардан яна бири шундан иборатки, у асарни таҳлил қиларкан, тарози палласини мувозанатда тутишга уринади. Айтиш жоизки, асосан мақсадига эришади ҳам. Яъни муайян шеърини асар бир томондан ҳаёт ҳақиқатини қай даражада бадиий акс эттира билгани кўра текширилса, бошқа томондан шеър замонавий поэзиянинг юксак талабларига қанчалик жавоб беришига қараб тадқиқ этилади. Соддароқ айтадиган бўлсак, бадиий асар ҳам ҳаёт позициясидан, ҳам чинакам адабиёт манфаатлари нуқтаи назаридан туриб ўрганилади. Олим ҳатто шеърини санъатларнинг ҳаётга яқинроқ бўлишини, у билан узвий қариндошликда яшашини истайди. Мана шу ракурстан туриб тадқиқ этилганда, шеър кимники бўлишидан қатъи назар, ўзининг **раҳимжоновона** баҳосини олади. Албатта, унга қўшилиш ҳам, қарши чиқиш ҳам мумкин. Муҳими, бу эмас. Муҳими, олимнинг адабиёт борасида ўзи суянган, мустаҳкам, асрлар синовидан ўтган, тобланган тоғдек қарашлари системасининг мавжудлиги.

Китобнинг моҳияти “Бугуннинг қахрамони ким?” деган мақоладан бошланади. Назаримда, бу бежиз эмас. Чунки ушбу масала адабиёт учун,

адабиёт илми учун, китобхон-ўқувчи учун, алалоқибат, миллат ва унинг санъатни тушуниш салоҳияти учун ғоят муҳим саналади. Агар биз ҳам айрим олимлару ижодкорлар илгари сураётганидек, атайин бош қаҳрамон ролига фақат ишбилармону тадбиркорларни кўрсатиб, уларнинг номзодини байроқ қилиб олсак, адабиёт илмида орқага кетган бўламиз. Шу даражада орқагаки, ундан кейиннинг ўзи йўқ. Ахир адабиётнинг қаҳрамони масаласи минг, икки минг йил бурун юнонларда тўғри ҳал этилгани баробарида биз ҳалигача нималар устида бош қотиряпмиз? Нималарни муҳокама этяпмиз? Адабиёт ва санъатни муайян мафкуранинг измига солишга уриниш собиқ шўролар даврида қандай аянчли ҳолларга олиб келганини наҳотки шунчалар тез унутган бўлсак?.. Албатта, тадбиркору ишбилармон ҳам одам. Улар ҳам худди этикдўз, фаррош, ишчи деҳқону, ўқитувчи академик ёки сисатчи арбоб янглиф асарларнинг қаҳрамони этиб сайланишга шоён. Бироқ Н. Раҳимжонов таъкидлаганидек, мақсад улар амалга ошираётган оламшумул юмушларни тараннум этиш эмас, балки зиддиятларга тўла қалбини кашф этиш бўлмоғи даркор. Бу ўринда бадиий адабиёт билан публицистикани бир-бирига қориштириш ярамайди. Қаҳрамоннинг қўллари нима иш билан машғул бўлмасин, ўқувчини унинг қалби сари бошламоқ, у ердаги талотўплар ва зилзилалар билан таништирмақ бадиий адабиёт учун бирламчи саналади, ахир. Чинакам замонавий бадиий адабиёт учун яланғоч танадан кўра қалбни ялонғочлаш, қаҳрамонлар юрагини босиб ётган қат-қат курумлар бағрини сўкиб, ичкарига кириб бориш, моҳиятни англаш ва ҳис қилиш муҳимроқ бўлиши керак. Мана шу масалада ўз қарашларини исботлаш учун олим антик оламнинг забардаст драматурги Эсхилнинг “Форслар” трагедиясини таҳлил қилиб беради. “Ғолиблар эмас, жангда енгилган форслар драманинг бош қаҳрамони” дея қайта-қайта уқтираркан, бу билан адабиётнинг қаҳрамони нафақат музаффарлар, балки мағлублар ҳам бўлиши жуда ҳам мумкинлигига эътиборни тортади. “Адабиётнинг бош вазифаси бу инсонни ҳимоя қилиш, инсонни улуғлаш, ундаги ғайриинсоний иллатлар ва одамийлик фазилатларини кашф этиш. Инсоннинг кўнглидаги раҳмон билан феълидаги шайтоннинг сир-синоатларини, қилмиш-қидирмишларини очиб бериш. Шундай экан, тадбирор ё шифокор, косиб ё носкаш, фермер ё фазогир бўладими, ана шу турфа тоифадаги феъл-атворни юзага келтирган жамият психологияси билан ўша одамлар руҳиятини ўрганадиган ФИКР ва ТУЙҒУ бош қаҳрамон бўлса, ажабмас. Академик ё вазир бўладими, тиланчи-гадой ё ўғри-каззоб бўладими, ғар-фоҳиша ёки мўлтони-фирибгар бўладими, ОДАМ деб аталмиш бекарон оламни фалсафий-психологик ўрганадиган, нима учун сирли ва мўъжизага кон, деган саволларга бадиий жавоб излайдиган, сабабларни фалсафий-эстетик

тадқиқ этадиган ТАФАККУР билан КЕЧИНМА бош қаҳрамон бўлса, не ажаб”, деб ёзади олим ўз қарашларида янада теранлашиб.

Адабиётни ғоялаштиришга, уни ҳукмрон мафкуранинг дастёрига айлантиришга уриниш қандай оқибатларга олиб келганини яхши биламиз. Албатта, бу ҳақда кўп ёзилди, гапирилди. Шунинг учун олим маълум гапларни такрорлаб, ўқувчининг ғашига тегишни ният қилмайди. У ана шундай ҳолатларнинг қайтиб келиб, адабиётимиз равнақига тўсиқ бўлиб қолишини истамагани учун ҳам мафкуралаштириш адабиётни не кўйларга солиши мумкинлигидан огоҳлантиради: “Шўро мафкурасининг шеъриятни халққа яқинлаштириш оммавийлаштириш учун олиб борган сиёсати салбий оқибатларга олиб келди. Унинг савияси тушириб юборилди... “Ишчи мавзуи”, “Хотин қизлар мавзуи”, “Комсомол ёшлар ҳаёти”, “Қишлоқ ҳаёти”, “Кўриқ ва бўз ерларни ўзлаштириш мавзуи” сингари социал буюртмалар поэзиямизнинг эстетик савиясини хашакилаштириб юборди”.

Олим мана шу тарзда шеъриятимиздаги нотўғри тамойиллар учун юраги ачишиб, куйиниб фикр юритади ва унинг қайтадан қанот боғлаб учишига, мумтоз Шарқ поэзияси даражасига кўтарилишини орзулайди. Аслида, профессор Н. Раҳимжоновнинг мазкур тўпламдан жой олган аксар мақолалари пировардида бугунги ўзбек назми савиясини юксалтиришга йўналтирилган некбин муолажалар десак, муболаға бўлмайди. Чунки уларда замонавий шеъриятимиздаги умидбахш, ҳаётбахш тамойиллар гўзал таҳлиллар асосида рағбатлантирилгани ҳолда ундаги (олим назарича) нуқсонлар танқид тиғи билан очиб кўрилади, “касаллик” сабабларини даражаси аниқланади.

Китобдан янада ўзига хос услуб ва оҳангда ёзилган мақолалар ҳам ўрин олган. Бундайлар сирасига “Иймон асири” ва гарчи номланиши андак ғайритабиий туюлса-да, “Бахтим ўпай десам, пешонаси йўк”, “Ҳиссий тафаккур табиатига доир” каби мақолалар киради. Олимнинг салоҳияти, шеърият ва умуман, адабиёт ҳақидаги тушунчаларини қарашларининг қаймоғи айниқса, “Иймон асири”да яққол намоён бўлган дейиш мумкин. Сабаби, бирламчи, ўзининг тадқиқ хусусиятига кўра Рауф Парфидек сирли шоир ҳақида назаримда, ҳозиргача эълон қилинган биографик характерга эга мақолалар ичида энг батафсили, қизиқарлисидир. Иккиламчи, мақола ҳассос шоир поэзияси моҳиятини очиб беришга қаратилган салмоқли тадқиқот сифатида эътиборга молик. “Асл шоирларнинг таржимаи ҳоли ниҳоятда қисқа, тақдирлари эса ғоят узун бўлади. Туғилишу сўнгги нафас оралиғида кечган умр, бу - ёруғ қисмат, аччиқ кўргилик. Тун билан кунларнинг, шом билан тонгларнинг ўрин алмашилиши, бу - табиат силсиласининг шунчаки одатий бир кўриниши эмас, ҳолати эмас. У - эзгулик билан ёвузлик, мутелик билан

эркин нафас, яхшилик билан ёмонлик, адолат билан ёлгон риё, нур билан зулмат ўртасида, кечадиган азалий ва абадий кураш, муҳораба жараёнлари. Қисмат - бу шеърият". Олим мақолаларида кўрсатиб беришча, чинакам шоирлик - ана шундай оралиқларда кечадиган умр, тинимсиз кураш ва беҳоловатликдир. Шунинг учун ҳам шоирликни қисмат, ёзуқ, деб атайди.

Аммо шеърият ҳақида баланд пардаларда фикр юритган олим, кези келганда, унинг қулоғидан тортиб, танбеҳ беришни ҳам унутмайди. Бу ҳол "Шеър кўп, шоир кўп, аммо..." номли мақоласида анча ёрқин акс этган. Кейинги ўн беш - йигирма йил мобайнида ёзилган кўплаб яхши шеърлар қаторида қораланган яроқсиз шеърлар ҳақида куйиниб сўз айтаётган олимнинг куйидаги фикрларига қўшилмай иложингиз йўқ: "...на туйғулар талқинида, на фикр ифодасида янгилик бор. Бу тахлит оғзи гапирса, бурни эшитадиган, минғирлаган шеърлар тўзони матбуот саҳифаларини тутиб кетди. Эса қоларлик поэтик образ зиммасига юкланган бадий талқин маънолари етишмайди. Ўлдим, куйдим, ёндим, кул бўлдим, қабилидаги йиғлоқи шеърлар бир-бирига ўхшаган ёмғир томчиларини эслатади... шеърларда хархаша кўп, сув кўп. Шовқин-суронга айланган сўзлар тўзони кўзларни ачиштиради". Дарҳақиқат, олим ҳақ. Мана шундай шеър машқлари ўқувчи онгию қалбини заҳарламайди, деб ким кафолот бера олади. Ана шунда "озуқа-шеърлар" билан «маънавий меъдаси» банд бўлган мухлис ўз юрагидан чинакам санъат асарларига жой топиб бера олармикан? Бундай шеърнусха машқларни мен ҳеч иккиланмай АДАБИЙ ЧИҚИНДИ деб атаган бўлардим. Ва ҳақиқий, баланд санъат аҳллари адабий чиқинди микроблари билан оғриб қолмаслик чораларини, тадбирларини олаётган ҳар қандай ЗИЁЛИнинг ёнида бўлишга чақирардим. "Эндиликда, шеърнинг ҳам, шеърхоннинг ҳам савиясини Навоий даражасига, мумтоз Шарқ поэзияси даражасига (Яссавий, Румий, Бедил ва ҳ.к.) кўтаришимиз керак. Бу нарса буюк меросимизга таяниб, жаҳон миқёсларига кўтарилишда замин ҳозирлайди" деб яхши ният қилади олим. Гарчи наинки барчани, балки ҳатто хос шеърхонни ҳам Румийю Навоий даражасига кўтариш ғоят мушкул эса-да, мўлжални барибир ана шу мақсад сари олаверган маъқул. Чунки бу ҳаракат пировардида миллат савиясини ўстиришга хизмат қилади.

Умуман олганда, халқимиз Истиклолга эришгандан буён ўтган фурсат унчалик катта эмас. Аммо дўппини олиб қўйиб разм солсак, мустақилликнинг илк йилида туғилган ўғил-қизимизнинг ёши бугун ўн еттига тўлибди, улар мустақил ҳаётга қадам қўйибди. Демак, ўтган фурсат унчалик кичик ҳам эмас экан. Ана шундай – ҳам кичик, ҳам катта бўлган вақт мобайнида Истиклол даври санъати, адабиёти, жумладан, шеърляти деган ҳодиса ҳам дунёга келиб, улғайиб, сафларга яраб қолибди. Профессор Нўмон Раҳимжоновнинг

“Мустақиллик даври ўзбек шеърияти” номли мазкур китоби ана шу ҳодисанинг илдизларини, моҳият кўринишларию товланишларини тушуниш сари отилаётган шу янглиғ жиддий тадқиқотларнинг биттаси сифатида баҳоланишини истардим. Шу ўринда яна бир нарсани алоҳида таъкидлаб айтмоқчиман: Истиқлол даври адабиёти ҳам, шеърияти ҳам осмондан учиб келиб олдимизга кўнган сайроқи куш эмас. Асло. Унинг ўқ томирлари ўтмиш асрларга - мозийга қараб кетганлигига шак келтириб бўлмайди. Бироқ ҳар қанақасига айлантириб қарамайлик, мустақиллик даврида яратилган адабиётнинг салаф даврларникидан ажратиб турадиган ўз қиёфаси борлиги ҳам очиқ ҳақиқат. Бас, шундай экан, Истиқлол даври шеърияти моҳиятини ўрганишга бағишланган ушбу китоб ўзбек миллати бадиий-эстетик тафаккури занжирида битта зарурий ҳалқа сифатида дунё юзини кўраётган бўлса, ажаб эмас.

ЎЗБЕК ШЕЪРШУНОСЛИГИНИНГ ГАВҲАРИ ДОНАСИ

Дилрабо Қувватова,

*Бухоро давлат университети
профессори, филология фанлари
доктори (DSc)*

Замонавий ўзбек адабиётшунослиги тараққиётини филология фанлари доктори, профессор Нўъмон Раҳимжонов ижодисиз тасаввур этиб бўлмайди. Олим ижоди ниҳоятда серқирра ва серқўлам. Бинобарин, адабиётшунос Шухрат Ризаев «Истиклол ва бугунги адабиёт» номли китобга ёзган сўзбошисида Н.Раҳимжоновни зукко ва фаҳмли синчи дея таърифлайди: «Профессор Н.Раҳимжонов қирқ йилдан ортиқроқ ижодий фаолияти, орттирган билим ва тажрибаси туфайли ана шундай синчи бўла олди». Зеро, ўзбек поэмаси назариясига бағишланган «Лирик поэма», «Ўзбек совет адабиётида поэма», «Ўзбек поэмасининг ривожланиш хусусиятлари»; замонавий шеъриятимизга хос хусусиятлар ўрганилган «Ҳозирги ўзбек шеъриятининг тараққиёт тенденциялари», «Мустақиллик даври ўзбек шеърияти»; ижодкор дунёси ўрганилган «Шоир ва давр», «Асқад Мухтор поэтикаси», бутунлай янги йўналишдаги «Бадий асар биографияси»; замонавий наср ва лирика муаммолари хусусидаги «Тарихий қиссалар ҳақиқат излайди», «Истиклол ва бугунги адабиёт» каби залворли тадқиқотларининг ўзиёқ устоз адабиётшуноснинг адабиёт илмидаги беқиёс мавқеини кўрсатиб туради. Шу билан бирга олим фаолиятидаги муҳим хусусиятлардан яна бири ХХ аср ижодкорлари асарларининг «Сайланма»сини тайёрлаб нашр этганлиги билан боғлиқ. Хусусан, бу йўналишда амалга оширилган кейинги ишлардан бири олимнинг Рауф Парфи ижодидан сараланган «Сакина» китобидир. Н.Раҳимжонов китобга Р.Парфи ижодига хос муҳим жиҳатларни акс эттирувчи адабий портрет характеридаги сўзбоши ҳам ёзган. Шу билан бирга, устоз сўнгги йилларда Чўлпон Эргаш асарларини йиғиш, тадқиқ этиш ва нашрга тайёрлаш устида қизғин иш олиб борди.

Маълумки, дoston ўзбек шеъриятининг муҳим жанрларидан бири. ХХ асрда воқеликка айланган бу жанр генезиси, шаклланиш хусусиятлари, табиати сингари масалалар тадқиқи илк бор яхлит тарзда Н.Раҳимжонов томонидан амалга оширилди. Дастлаб олим бу йўналишда «Лирик поэма» номли номзодлик диссертациясини ҳимоя қилди. Шу силсиладаги изланишларини давом эттириб «Ўзбек совет адабиётида поэма» номли монография яратди. Моҳиятан В.Кикансининг «Замонавий поэма» китобига яқин турувчи бу китобда ўзбек адабиётида янги типдаги поэманинг туғилишини бир неча омилларга

боғлаб таҳлил этган: мумтоз адабиётимизда лирик йўналишда ёзилган «Қутадғу билиг», «Ҳибатул ҳақойиқ», «Ҳайратул аброр» сингари дostonлар, нома жанрида ёзилган «Муҳаббатнома», «Саёҳатнома» асарлари, шунингдек мухаммас, мусаддас, мусамман сингари жанрларнинг мавжудлиги. Синчков адабиётшунос поэма генезисини юқоридаги асарларга боғлар экан, бунда у мазкур асарларни бирлаштириб турувчи муҳим жиҳат: «шоирнинг қайноқ ҳистуйғулари, фикр-ўйлари, эмоционал дунёси» нинг акс эттирилганлигига диққатини қаратади. Поэма дунёга келишидаги кейинги омилни олим жаҳон адабиёти саҳифаларидан излайди: бунда жаҳон адабиётидан ўзбек тилига ўгирилган қатор поэмаларни мисол қилиб келтиради. Шу тарзда адабиётшунос поэманинг ўтган асрнинг 30-йилларида шаклланганлигини асослайди. Мазкур тадқиқотнинг яна бир фазилатли жиҳати шундаки, олим дастлабки поэмаларни лирик ва лиро-эпик поэмаларга бўлиб тасниф этади ҳамда хусусиятларини ойдинлаштиради.

Китобнинг «Ҳозирги поэмачилигимизда жанр ва шакл изланишлари» деб номланган бобида ўтган асрнинг 50-60 йилларидан 80-йилларига қадар ёзилган поэмалар таҳлил этилади. Хусусан, лирик поэма хиллари, уларда лирик ва эпик асос уйғунлиги, жанр табиатидаги сифат ўзгаришлари, драматик поэманинг вужудга келиши сингари илмий муаммолар ёрқин мисоллар орқали таҳлил ва тадқиқ қилинган. Хусусан, олимнинг поэма ҳақидаги қуйидаги фикри ниҳоятда аҳамиятли: «Поэма шоирдан катта бир қалб кудратини, интеллектуал теранликни, эмоционал жамғармани талаб қилади». Ҳақиқатан, XX аср адабиётида поэма жанридаги асарлар шундай фазилатлари билан роман янглиғ мавқе эгаллай олди.

Таниқли адабиётшунос истиқлол йилларида самарали ижод қилди. Юқорида таъкидлаганимиз – «Мустақиллик даври ўзбек шеърляти», «Истиқлол ва бугунги адабиёт» сингари китоблар фалсафий теранлик чуқур мушоҳада, юксак илмий тафаккур меваси сифатида алоҳида эътирофга сазовор. Истиқлол даврида ижод қилган шоирларнинг шеърларини яхлит тизим шаклида ўрганилган «Мустақиллик даври ўзбек шеърляти» деб номланган монографияси мана шу жиҳатдан долзарблик касб этади.

Адабиётшунос Улуғбек Ҳамдам китобдаги «Шеърлят идрок элагид» сўнгсўзида бир нарсани ўринли таъкидлайди: «Н.Раҳимжонов нафақат олим-адабиётшунос бўлиб, балки икки аср оралиғида яшаб, ўзининг тийрак нигоҳини шу юзликларнинг оғриқли муаммоларидан узмай келаётган, энг муҳими, ёниб ижод қилаётган куюнчак зиёли ўлароқ намоён бўлади». Ҳақиқатан, шеър таҳлилига бағишланган ушбу китоб шеър янглиғ ўқилади ва китобхонни зериктирмайди. Энг муҳими, унда истиқлол даврида яратилган шеърларнинг

тагмаънолари бадиий назокат билан илганган. Олимнинг кўп йиллик илмий кузатишлари натижаси ўлароқ дунёга келган бу китоб теран назарий фикр ва умумлашмаларга бой.

Айтиш жоизки, “Мустақиллик даври ўзбек шеърияти” тўғрисида жуда керакли ва баланд савияда бўлган тадқиқот. Гўзал жойлар, чуқур ўринлари бисёр. XX аср шеъриятига жуда катта мезонлар билан ёндашилган. Р.Парфи ва ёшлар шеърияти тадқиқига бағишланган фасллари ғоят қизиқарли, ибратли. Яна – тадқиқотчининг ўзи баъзан шоир бўлиб, носир бўлиб қалам тебратади. Жуда жозибали кузатишлар, сеҳрли манзаралар бор.

Китоб икки катта қисмдан иборат. Аввало, унда шу давр шеъриятининг етакчи тамойиллари очиб берилган. Жумладан, кечинмаларнинг фикрчан суратларини чизиш, рамзлар, тимсоллар орқали мушоҳада юритиш, турли шеърий шаклларнинг фалсафий мазмунни ифодалашда асосий восита бўлиб хизмат қилаётгани бугунги шеъриятимизнинг муҳим хусусиятлари сифатида ифода этилади. Албатта, бу тамойиллар барча давр шеъриятида у ёки бу шаклда юз кўрсатган. Адабиётшунос ана шу мезонга таянган ҳолда шеъриятимиз саҳифаларига назар ташлайди ҳамда мустақиллик даври поэзиясининг бошқа даврлар жараёнидан фарқли ва муштарак жиҳатларини очишга чоғланади.

Маълумки, истиқлол йилларида адабиётимизнинг тўнғич авлодига мансуб Зулфия, шеър майдонига ундан сал кейинроқ кириб келган Асқад Мухтор ҳам қизғин ижод билан шуғулланди. Адабиётшунос устоз санъаткорлар Зулфия ва Асқад Мухторнинг шу даврда яратган асарлари оламига саёҳат қилади. Бинобарин, «Хотирам синиклари» лирик достони атрофидаги таҳлиллар ниҳоятда бетакрор мазмунга эга. Олим шоиранинг лирик қаҳрамони қалбида кечаётган турли руҳий жараёнларни хассослик билан очиб берган: «Достондаги тахайюллар табиати шундан иборатки, лирик қаҳрамон хотирасида тикланган – синган тақдирлар мисолида ўз юрти, миллати бошига тушган зўравон тузум кўргуликларига қарши бош кўтарган нолаларини сатрларга тизади». Зеро, Зулфия ҳаётининг энг қайноқ йиллари мустабид тузум даврида ўтди. У умрининг сўнгги йилларинигина истиқлол тузумида яшади. Достон узок давр мобайнида шоиранинг қалби қатида яшириниб ётган дардлардан, изтиробли кечинмалардан сўзлайди. Истиқлол кўнгил қатидаги дардларни очиш имкониятини берди. Энг асосийси, ҳаётнинг аччиқ ҳақиқатларини қалб-қалбдан хис этган ижодкоргина шундай дарднок мисралар битиши мумкин. Адабиётшунос кузатишлари орқали шу хулосаларга келиш мумкин.

Монографиядаги ҳар бир боб ва улардаги қисмлар мантиқий изчил ва ўзига хос бутунликни ташкил этади. Бинобарин, «Шоир – миллатнинг маънавий муаллими» деб номланган қисмдаги мулоҳазалар ҳам шеършунос

олим мушоҳадаларининг кўламдорлиги, сермазмунлигини ўзида намоён этади. Унда адабиётшунос бадий-эстетик тафаккурда вужудга келаётган ўзгаришларни назардан ўтказди. Бунда истиқлол даври шеърлятида мажозий образлилик орқали поэтик фикрни бадий ифодалаш майли кучайганлиги алоҳида таъкидланади; А.Орипов ва Шукрулло шеърлятида қўлланган шайтон поэтик образининг маъно қирралари очиб берилади.

Маълумки, XX аср ўзбек адабиётида шайтон образи кўп қўлланади ва ўзига хос хаёлий-фантастик моҳият касб этади. Бироқ А.Орипов яратган шайтон образи рамзий мазмун ташиди. Яъни у «аниқ белгиларга, чизгиларга, аломатларга эга бўлган одамнинг иккиламчи қиёфаси»ни ифодалаб келади. А.Ориповнинг «Шайтон», «Икки ғаним», «Оқлар ва қоралар», «Сирли олам» сингари шеърлар таҳлили жараёнида шайтоннинг тимсолий маънолари ёритилади. Зеро, шайтон поэтик образи орқали А.Орипов умумбашарий ахлоқий муаммони кўтариб чиқади. Шу асосда шайтон одамлар ботинида яшаб келаётгани ўнганмас фожиа сифатида талқин этилади.

Поэтик тимсолларнинг рамзий моҳиятини очиш, адабий жараёндаги ўзгаришларни кузатиш асосида адабиётшунос истиқлол даври шеърляти хусусида умумлашма хулосалар қилади. Бинобарин, мажозий, тимсолли образлилик ижодкорга ҳақ сўзни айтиш имконини берганлиги, истиқлол шеърляти XX аср классикаси, қолаверса, Шарқ ва Ғарб, Лотин Америкаси, япон, ҳинд, инглиз шеърляти бадий-эстетик тажрибаларидан озикланиши унинг уфқларини кенгайтираётганлиги, шу асосда лирикамизда анъанавий жанрлар: ғазал, мухаммас, мусаддас, рубоий, фард, лиро-эпик дoston такомил топганлиги, янги поэтик жанрлар ва шакллар: учлик-хокку, танка, октава, бешлик олтилик кабиларнинг юз кўрсатганлиги илмий асосланади. Айни пайтда диний сарчашмаларга таяниш тамойили кучайиб бораётганлиги шеърлятнинг мазмундорлиги ва халқчиллигига хизмат қиладики, бу жиҳат ҳам адабиётшунос назардан четда қолмаган.

Китобнинг «Иймон асири», «Бадий дид ва эстетик савия» номли мақоласида Рауф Парфи ижоди назардан ўтказилади. Энг асосийси, Улуғбек Ҳамдам ўринли қайд этганидай, ушбу мақолалар Р.Парфининг сирли ижоди ҳақидаги энг батафсил илмий кузатишлардир. Ёхуд «Бадиият қирралари»да Э.Воҳидов, «Дил манзиллари»да С.Саййид, «Бахтим ўпай десам...»да Фарида Афрўз, «Кўнгилга очилган йўл»да Икром Отамурод каби эл аро танилган шоирларнинг шеърй оламига саёҳат қилинади. Саҳифадан саҳифага ўтгани сайин адабиётшуноснинг илмий нигоҳи ўткирлашиб, теранлашиб боргани кузатилади. Айтиш мумкинки, бу мақолалар ижодий портрет жанри мезонларига мос келади. Бинобарин, Э.Воҳидов маҳорати мустақиллик

йилларида тўртлик, ғазал, саккизлик, эртақ, латифа, ривоят, мухаммас, чистон, рубоий каби поэтик жанр ва шаклларда гўзал бадиият намуналарини яратишда намоён бўлганлиги ёритилади. Ёхуд Фарида Афрўз лирикасидаги бадиий тимсоллар моҳияти очиб берилади. Хусусан, кўз ёши поэтик тимсоли ташиган кўламдор рамзий маънолар, шоира шеърлятидаги рангларнинг эстетик маънолари ёрқин мисоллар ёрдамида ёритилади. Сирожиддин Саййид шеърлари хусусида фикр юритилар экан, унинг ижодида Ф.Фулом, А.Орипов шеърлятининг яхши анъаналари давом эттирилаётганлиги алоҳида таъкидланади. Ватан манзаралари шоир шеърлярида ўзгача ранг ва оҳангларда чизилади. Шоирнинг бетакрор бадиий топилмалари борки («Мен ватанни момоларнинг юзидаги харитадан ўрганганман» сингари), булар С.Саййид ижодий дунёқарашининг чегара билмас сарҳадларини, кучли тафаккур қирраларини ўзида намоён этади. Адабиётшунос миллатнинг фидойи шоири С.Саййиднинг навқирон қиёфасини шеърхонга шу тарзда таништиради ва унинг шеърлятига хос бетакрор фазилатларни очиб беради.

Китобнинг иккинчи боби «Шеър кўп, шоир кўп, аммо...» деб номланади. Унда истиқлол даври шеърлятининг ноқис нуқталари бир қатор шоирлар ижоди мисолида қаламга олинади. «Шоир юрагида очилмаган гул» дейилишининг ўзиёқ олим фикрини китобхонга аён этади. Унда А.Муҳаммадиев, У.Жўраев, И.Тўхтамишев, Ж.Сувонова, М.Омон, Р.Исоқов сингари шоирлар ижодидаги кемтикликлар хусусида фикр юритилган. Айниқса, Ватан ва унинг ҳурлигига бағишланган шеърлар куруқ мадҳиябозликдан бошқа нарса эмаслиги, ҳиссиз, ҳароратсиз сатрлар эканлиги, уларда бадиий мантиқ етишмаслиги жонкуярлик билан тўғри таъкидланган. Ш.Содиқ, М.Тоиров, С.Ҳаким каби шоирлар ижоди мисолида кейинги пайтда тақлидчилик авж олиб бораётганлиги очиб берилган. Адабиётшунос юқорида номлари қайд этилган шоирлар ижодида Р.Парфи, А.Орипов шеърлятига тақлидчилик руҳи илдиз отганлигини асослайди. Достончиликдаги изланишлар хусусида мулоҳаза юритилганда, О.Холдор, С.Ҳаким, Т.Али каби шоирларнинг шу жанрдаги асарлари мисол қилиб келтирилган. Шу асосда Т.Алининг «Учинчи хона» номли драматик достони, С.Ҳакимнинг «Олис юлдуз» поэмаси таҳлилга тортилган. Бу асарлар истиқлол даври адабиётининг намунаси сифатида эътироф этилса-да, уларда эпик тасвир, тафаккур теранлиги, тахайюл кенглиги етишмаслиги таъкидлаб ўтилган.

Умуман, ушбу монография мустақиллик даври шеърлятининг бадиий-эстетик тамойилларини ўрганишда муҳим аҳамият касб этади. Китоб олимнинг жаҳон бадиий-эстетик тафаккурининг юксак мезонлари асосида ўзбек шеърлятига ёндашувни ўзида ифода этган янги йирик тадқиқоти сифатида қимматлидир. Қолаверса, у истиқлол даврида ижод этган А.Орипов, Э.Воҳидов,

Р.Парфи, С.Сайид, Ф.Афрўз, И.Отамурод каби етук шоирлар шеърятининг ўзига хос хусусиятларини тадқиқ этишда ҳам назарий манба вазифасини ўтайди. Китобнинг тили жудаям ширали. Хусусан, сарлавҳалар тимсолий мазмун касб этади. Уларда адабиётшунос айтмоқчи бўлган фикрнинг қаймоғи акс этган.

«Истиклол ва бугунги адабиёт» олим ижодий илмий изланишларида муҳим ўрин тутди. Бир қарашда «Мустақиллик даври ўзбек шеъряти» китобининг мантикий давоми сифатида таассурот қолдиради. Китоб мундарижаси адабиётшуноснинг бадиий тафаккур кенгликлариға ниҳоятда закийлик билан нигоҳ ташлаганини кўрсатиб туради. Айниқса, монографиянинг «Истиклол ва маънавият» деб номланган боби назарий фикрларға жуда бой. Бунда жаҳон адабиёти намуналари мисолида адабиётнинг умумбашарий қадрият сифатидаги аҳамияти теран ёритилган. Адабиётшуноснинг қуйидаги фикри эътиборли: «Истиклол адабиёти деганда 1991 йилдан кейинги йилларда юзага келган асарларнигина тушунмаслик лозим. Бу – Мунавварқори, Чўлпон, Фитрат, Абдулла Қодирий, Элбек, Ботулар тамал тошини қўйган, шахс эрки, миллат хуррияти, Ватан мустақиллиги ғоялари билан суғорилган кўнгил адабиёти демакдир». Бинобарин, олим ҳақ. Чунки истиклол, «эрк уларнинг тилагида бор эди». Шу боисдан Нўмон Раҳимжонов аср бошидаги адабиёт намуналаридан бугунгача бўлган ғоят улкан даврга ўз диққатини қаратади ва, айтиш мумкинки, турли бухронлар, тазйиқлар, қарама-қаршилиқлар ичида яшаб, ўз эътиқодига собит қолган ижодкорлар қаламидан тўкилган бадиият дурдоналари замонавий адабиётшунослик мезонларида баҳоланган.

Китобнинг «Истиклол ва ҳозирги адабий жараён» деб номланган бобида танқидий тафаккур ва эстетик мезонларнинг янгиланиши, адабий дид ва эстетик туйғу такомили сингари муаммолар замонавий наср ва шеърят намуналари мисолида ўрганилган. Айниқса, чўлпоншунослик фитратшуносликка муносабат, адабий-танқидий фикр такомили, И.Ғафуровнинг бадиалари таҳлили билан алоқадор саҳифалар адабиёт илмида айтилган янгича қарашлари сифатида ўқувчида илиқ таассуротлар уйғотади.

“Адабий-эстетик тажрибалар ва бадиий қадриятлар» деб номланган боб монографиянинг салмокли қисмини ташкил этади. Адабиётшунослигимизда Ойбек, М.Шайхзода, Ҳ.Олимжон, Миртемир сингари шеърятимиз устунлари ҳақида қўплаб мақола ва китоблар ёзилган. Н.Раҳимжонов бу тадқиқотларни инкор этмаган ҳолда, юқорида номлари зикр этилган ижодкорлар фаолиятини жаҳон адабиёти мезонларида текширади. Хусусан, Ойбекнинг бадиий кашфиётлари, поэмаларидаги инсонпарварлик ғоялари, шоир шеърятидаги гул поэтик тимсоли ташиган ҳаётий фикрлар олимона идрок ва эстетик гўзаллик

нуқтаи назаридан ўрганилган. Ёхуд М.Шайхзода шеърятига хос чуқур фалсафа, инсоний жиҳатлар эссе услубида таҳлил этилган. Устоз адабиётшуноснинг М.Шайхзодага муҳаббати жуда баланд. Шунинг учун таҳлиллар давомида ҳаётини лавҳаларга мурожаат этади: «Ҳар бир дарахт белгилайди ўз соясини. Зеро, қийқириқ куй эмас, кўпиклар сой эмас. Нур асло завол топмас. Зах деворнинг ковакларидоги чаёнлар ҳам ундан қувват олади. Офтоб мунчалар саҳоватли, ҳимматли? Илонлару капалакларга ҳам баб-баравар нур таратади. Яхшилик ҳам шунақа. Гўзаллигу эзгулик ҳам оламни гулга, нурга чулғайди...» Шайхзода ижоди мутолааси олимни фалсафий фикрлар айтишга ундаганлиги юқоридаги парчада кўриниб турибди. Айни чоғда «Мирзо Улуғбек» трагедияси хусусидаги фикрлар ҳам ниҳоятда оҳорли. Айниқса, шох ва олим Мирзо Улуғбек фожиасининг илдизлари ёрқин бадий парчалар орқали ойдинлаштирилади. Шу билан бирга ушбу бобдаги Ҳамид Олимжоннинг ойдин ҳисларга тўла самимий шеърятини, Миртемирнинг халқона лирикаси хусусидаги янгича таҳлил ва талқинлардан ХХ аср ўзбек адабиётининг бетакрор сиймолари асарлари юксак бадий қадриятлар сифатида баҳоланганлиги кўзга ташланади.

Китобнинг муҳим фазилати яна шунда кўринадикки, устоз адабиётшунос нафақат жаҳон шеършунослиги ютуқларидан, балки дунё фалсафаси ва эстетикаси намояндалари асарларидан чуқур хабардор. Бу нарса китоб саҳифаларига ёрқин ёғдулар таратиб туради. Эҳтимол шундандир, китобнинг кўп қисмлари бадий асар янглиғ ўқилади.

Нўмон Раҳимжонов ниҳоятда сермахсул олим, ижодкор. Адабий жараёнда бўладиган ўзгаришлар ҳамини унинг эътиборида. Олим кўп йиллар Рауф Парфи ижоди устида самарали изланди. Дастлаб улуғ шоир ҳақида мақолалар ёзди. Кейинчалик уларнинг қамровини кенгайтириб, адабий портрет даражасидаги асарга айлантира олди. Бу олимнинг Рауф Парфи сайланмасини тайёрлаши жараёнида тўлиша борди. Рауф Парфи ҳаётлигида бундай сайланмани тартиб беришни бошлаган ва уни «Сакина» деб номлашни кўнглига тўккан эди. Н.Раҳимжонов улуғ шоир бошлаган ишни самарали давом эттирди. 2013 йилда олимнинг катта ҳаракатлари билан Р.Парфининг «Сакина» китоби дунё юзини кўрди. Китобдан шоирнинг турли йилларда нашр этилган тўпламларидаги энг сара асарлар ўрин олган.

Умуман олганда, устоз адабиётшунос битикларини мутолаа қилар эканман, буюк Абдулла Қодирийнинг «Сўз танлашда узоқ андиша керак» деган фикрлари беихтиёр ҳаёлимдан ўтди. Сабаби, Нўмон Раҳимжонов тадқиқотларини шу фазилат беаб туради. Устоз сўзга «узоқ андиша» билан муносабатда бўлган ҳолда тилимиз бойликларидан, гап қурилишидан усталик

билан фойдаланиб, қисқа, лўнда жумлалар орқали илмий фикрни ўз китобхонига етказди.

Ўзбек адабиётшунослиги, қолаверса, шеършунослигининг юксак билимдонларидан бири, талабчан устоз ва муаллим, элу юрт ардоғида бўлган беназир инсон Нўмон Раҳимжонов қолдирган адабий мерос даврлар оша адабиёт илмига хизмат қилади ва маърифатли, маънавиятли авлодни тарбиялашда муҳим дастур бўлиб хизмат қилишда давом этади. Устознинг руҳлари шод бўлсин!

АДАБИЁТШУНОСЛИКДАГИ ЯНГИЧА ЁНДОШУВ

Шоира Ахмедова,
БухДУ профессори, филология
фанлари доктори

***Аннотация.** Ушбу мақолада профессор Н.Раҳимжоновнинг “Бадий асар биографияси” деб номланган тадқиқоти ва унда ижодкор, адабиётшунос Иззат Султон ҳаёти ва ижоди, асарларининг яратилиши, йирик олимнинг адабиёт, бажзий ижод ҳақидаги кузатишлари янгича ёндошув асосида талқин қилинганлиги ҳақида фикр юритилади. Олимнинг бу тадқиқоти адабиётшуносликда янгича тамойиллар, қарашлар шаклланиб бораётганлигини кўрсатади.*

***Калит сўзлар:** адабиётшунослик, адабий танқид, тамойил, биография, ижодкор назари, тафаккур, И.Султон.*

Кириш. Истиқлол даврига келиб, адабиётшуносликнинг турли соҳаларини кенгайтиришга эътибор кучайгани ёрқин кўринмоқда. Бадий асарга онтологик, герменевтик, психологик таҳлил, тарихий-биографик ва ҳ.к. ёндашувлар асосида сўз санъатини баҳолаш, талқин этишнинг имкониятлари очилаётганлиги истиқлол даври адабиётшунослигининг тараққиётидан далолат беради. Шулардан бири тарихий-биографик ёндашув адабий танқиднинг етакчи йўналиши бўлиб, у ёзувчининг таржимаи ҳоли, ҳаёти ва ижоди, асарларини ўз даври, муҳити билан уйғун ҳолда ёритишга асосланади. Ғарб ва Европа адабий танқидчилиги тарихида бу ёндашув XIX аср бошларидан эътиборан кенг тараққий этган. Бу борада Ш.Сент-Бьёв, А.Веселовский, А.Моруа, М.Бахтин, М.Храпченко, Л.Тимофеев, В.Шкловский, И.Андронников сингари олимлар бой илмий-ижодий тажриба тўплаганлиги маълум. Бой меросга эга ўзбек адабиётшунослиги тарихига назар солинса, бу борадаги тажрибалар анча илгари – XV аср ва ҳатто ундан ҳам олдин пайдо бўлганлиги аёнлашади. Бу ёндашувда ижодкор ҳаёт йўлига муносабат кўлами муҳим роль ўйнайди. Баъзан бу кўлам ғоят тор – биографик далиллар айрим таҳлилий унсурларга едилса; баъзан кўлам бир қадар тор, лекин биографик далиллар тизими устувор ва яна баъзида кўлам кенг, биографик далиллар ижодкор шахси ва муҳит ҳамда замон билан уйғунликда таҳлил қилинади. Бунда хотиралар, ёзувчининг иқрори, асарнинг ёзилиш сабаби, тарихига оид мулоҳаза ва айрим асарлар таҳлилидан ҳам фойдаланилади.

Тарихий-биографик ёндашувда ҳаётий далил ва илмий-назарий умумлашмалар адиблар ижодий эволюциясини тўғри англаш, бадий ижоднинг ўзига хос томонларини ҳаққоний таҳлил этиш, ёзувчи ҳаёти ва ижодининг кадри, адабий жараён, халқ ўртасидаги ўрни юзасидан тўғри хулосалар чиқаришда муҳим ўрин тутиши, унинг илмий биографиясига оид янги тарихий-маърифий кузатиш ва қарашларнинг илгари сурилишида асосий омил бўлиб

хизмат қилади. Тарихий-биографик йўналиш табиати адабий-танқидий асарларда ёзувчи илмий-биографиясига оид далил ва илмий хулосаларнинг изчиллиги ҳамда тадрижий жараённинг мукаммаллашиб боровини тақозо этади.

Биографик йўналишга француз мутафаккири Шарль Сент-Бьёв асос солган. “Бу методга кўра бадиий асарда ёзувчи биографиясига тааллуқли кўп масалалар мавжуддир. Аввало, асар ғоясининг, концептуал асосининг пайдо бўлиши ёзувчи ҳаётидаги бирон масала билан боғланиб кетади. Иккинчидан, ёзувчи билибми, билмайми (ғайри-шуурий ҳолда) юраги қаъридаги туйғуларни, хотирасига сингиб қолган воқеа, шаклларни асарига кирита бошлайди. Учинчидан, асарнинг ёзилиши жараёнидаги ҳолатлар, манзаралар, ҳодисалар табиий ҳолда асар структурасига сингиб боради” [Расулов А. 2005: 19]. Кўринадики, бу йўналиш ёзувчи ҳаёти ва ижоди, асарларининг яратилиши жараёнини чуқур билишга кенг йўл очади. Ўзбек адабиётшунослигида бу йўналишда кўплаб асарлар яратилган. Истеъдоди олим Б.Каримовнинг “Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин” китоби ҳам ана шундай янгича йўналишдаги тадқиқотлардан биридир. Унда ҳам А.Қодирий асарларининг “биографияси” илмий-назарий жиҳатдан ўрганилган. Шу билан бирга бадиий асарнинг биографиясини муаллиф ва унинг хотиралари, иқдорлари билан боғлаб ўрганишнинг бутунлай янгича усуллари вужудга келиши мустақилликнинг ижодкорларга берган имкониятларидан биридир.

Асосий қисм. Шу жиҳатдан қараганда мустақиллик даври адабий жараёнининг фаол кузатувчиларидан бири, истеъдодли адабиётшунос Н.Раҳимжоновнинг “Бадиий асар биографияси” деб номланган тадқиқоти айти шундай янгича йўналишда ёзилганлиги билан диққатни тортади. Тадқиқотнинг ўзига хослиги нимада кўринади? Маълумки, “биография” сўзи таржимаи ҳол маъносини билдиради. Мазкур йўналишнинг асосий хусусиятини англамоқ учун, энг аввало, “биография” сўзининг луғавий маъносига эътибор қаратиш керак бўлади. “Биография сўзининг луғавий маъноси грекча “bios”- турмуш, “grapho”- ёзаман сўзидан олинган бўлиб, кишиларни туғилган кунидан бошлаб ўтган ҳаётидаги воқеаларни изчиллик билан билан баён этишдир” [Ҳотамов А.1983: 120]. Шунга асосланган биографик усул эса “адабиётшуносликда адабиётни ўрганиш воситаси бўлиб, ёзувчининг таржимаи ҳоли ва шахсиятига ижоднинг алоҳида жараёни сифатида қарайди” [ЛЭС, 1987:123]. Шу кунгача адабиётшуносликда ёзувчи биографияси деб аталган истилоҳ кенг қўлланилар ва у **адибнинг таржимаи ҳоли** ҳақида маълумот берар эди. Бу тадқиқот эса **бадиий асарнинг таржимаи ҳолига** бағишланган. Айти шу жиҳат унинг илмий янгилиги ва аҳамиятини кўрсатади.

Китобнинг сарлавҳасиёқ ўқувчи диққатини торта олувчи код вазифасини ўтай олган. Ҳақиқатан ҳам бадий асарнинг ҳам таржимаи ҳоли бўлар эканми? Бўлар экан. Бунинг учун профессор Нўмон Раҳимжоновнинг “Бадий асар биографияси” асари билан танишишингиз керак. Уни ўқир экансиз, бундай йўналишдаги тадқиқотларда ижодкор лабораториясига кириш, унинг ижод жараёни билан чуқур танишиш, асар ғоясининг туғилиши, яратилиши, нашр этирилиши тарихи билан батафсил танишиш имконияти катта эканлигидан хабардор бўласиз. Бунда адибнинг ўз иқдорлари муҳим роль ўйнайдик, адабиётшунос Н.Раҳимжонов тадқиқоти айнан шу томондан ҳам қизиқиш уйғотади. Масалан, И.Султоннинг ўзи шундай ёзади: “...Шунинг учун айтадиган гапни айтиб қолишга шошилиш керак. Ўйлайманки, менга ўхшаш - ҳам инқилобни кўрган (етти яшар эдим), ҳам шўро даврини бошдан кечирган, ҳам мустақиллик даври воқеаларига гувоҳ бўлган кишининг ҳаётий тажрибалари келажак авлодга сабоқ бўлса керак” [Раҳимжонов Н., 2008: 5].

Тадқиқотда адабиёт илмининг дарғаларидан бири, драматург Иззат Султоннинг ҳаёти ва ижоди билан боғлиқ лавҳалар, тафсилотлар, муҳим жиҳатлар батафсил ёритилган. Бунда олимнинг кўп йиллар И.Султон билан бирга бўлганлиги катта ёрдам берган. Унинг таъкидлашича, Иззат Султондек бағри кенг олим, аллома ижодкор билан бирга ишлаш, унинг мактабида чархланиб, неча йиллар ҳамфикр бўлиш бу асарнинг яратилишига замин бўлган. Олим устози билан бўлган кўпчилик воқеаларни, иш жараёнида ва бошқа пайтларда ўтказилган суҳбатларни хотира сифатида ёзиб борган. Бу эса бугун ана шундай янгича йўналишдаги асарнинг пайдо бўлишида олимга жуда кўл келган ва шу билан бирга асарнинг ўқимишли чиқишини таъминлаган.

Рус адабиётшунослигида тарихий-биографик ёндашув асосида яратилган асарлар анчагина. Масалан, В.Закруткиннинг “Ҳаворанг гул” асари ўзига хослиги билан ажралиб туради. “Китобнинг поэтик сарлавҳасидан кўриниб турибдики, у академик тадқиқот эмас, ёзувчининг ҳаёт ва ижод йўлининг танқидий- биографик обзори эмас, балки у ҳақдаги жонли ҳикоячилик, адабий манзарадир. Худди шундай: “Ҳаворанг гул” – М.Шолоховнинг ҳаёт ва ижод йўлининг муҳим босқичларидаги ёзувчилик, фуқаролик ва оддий инсоний қиёфасининг асосий қирраларини акс эттирувчи ёзма-тавсиф ва манзара-эпизодларнинг занжиридир” [Глушков Н., 1969: 178]. Закруткин Шолохов ҳақида билганларининг ҳаммасини бир бошдан айтиб ўтирмайди. Ёзувчи ҳақида ўзининг эсида қолган энг ёрқин хотираларни тутиб олади, Шолохов ижодининг ўзи учун энг яқин жиҳатлари ҳақида эҳтирос билан ёзади. Агар шу жиҳатларини ҳисобга оладиган бўлсак, бу асарда ёзувчининг ҳаёт ва ижодий

йўли кўпинча тадрижий изчилликда берилади, унинг ҳаёти ва ижодидаги муҳим жиҳатлар албатта, қаламга олинади.

Ана шу нуқтаи назардан Н.Раҳимжонов тадқиқотига баҳо берадиган бўлсак, унда ҳам “Ҳаво ранг гул”даги кўп хусусиятлар мужассам. Аммо унинг ўзига хослигини таъминлаган ягона бир фазилати борки, у бевосита асари қаҳрамони – мумтоз адабиёт, халқ оғзаки ижоди, “XX аср бадий сўз маданияти, жаҳон адабиётини ниҳоятда нозик, фасоҳатли, заковатли билимдони” И.Султон билан мулоқот, адабий суҳбатлар асосида яратилган, унинг хотиралари асосида босиб ўтган йўлига назар солиниб, асарларининг яратилиш жараёнига оид китобхонлар оммасига маълум бўлмаган янги-янги кузатишлар, маълумотлар ўртага ташланган.

Тадқиқотда асосан, драматург И.Султоннинг ўз даврининг жуда машҳур асари “Алишер Навоий” драмаси, “Имон”, “Донишманднинг ёшлиги”, “Кўрмайин босдим тиканни” каби бир қатор асарларининг дунё юзини кўриши, тақдири, ижоднинг ниҳоятда сирли жараён эканлиги очиб берилган. Асарда академик Иззат Султон билан қилинган суҳбатлар, баҳсларга кенг ўрин берилганки, улар ҳам мунаққид мақсадини бир қадар ёрқинлаштиришга хизмат қилган. Масалан, халқимиз орасида машҳур бўлиб кетган “Алишер Навоий” драмасининг ёзилишига туртки бўлган воқеани кўпчилик китобхонлар билишмайди. Аслида бу асарни опера шаклида ёзиш мўлжалланган экан. И.Султоннинг ўзи бу ҳақда шундай деган: “Алишер Навоий” пьесаси шоир юбилейи муносабати билан майдонга келди. Ҳар бир ёзувчи ушбу улуғ айёмга ўз муносабатини билдиришга киришган эди. Мен ҳам излана бошладим. Бир куни Семёнов деган шарқшуноснинг мақоласини ўқиб қолдим. У китоб бозорида ноёб, қадимий қўлёзмаларни ахтариб юриб, Хондамирнинг “Равзатус сафо” асарини кўриб, ўша заҳоти айтилган нархга сотиб олади. Шу ““Равзатус сафо”нинг ҳошиясига “Гули билан Навоий” халқ афсонаси ёзилган экан. Шуни топиб, 1922 йилда таржима қилиб. Матбуотда эълон қилган экан. Ўқидим, қарасам, операбоп, либреттобоп бир асар деган фикр ҳаёлимга ўрнашиб қолди. Диалоглар, монологлар қўйма. Шоир билан Гули муносабатлари чуқур очилган, суҳбатлари ёрқин ёритилган халқ афсонаси” [Раҳимжонов Н., 2008: 78]. Кейин Ҳамид Олимжоннинг таклифи билан опера эмас, драма ёзилган экан. И.Султон хотираларининг аҳамияти шундаки, у ўзи гувоҳ бўлган воқеалар, одамлар ҳақида объектив гапиради. Масалан, драмани уч киши И.Султон, Уйғун, Ҳ.Олимжон билан биргаликда ёзишни бошлаганлар. Шу орада Ҳ.Олимжон бир ойлик сафарга кетиб қолади. У келганда, драма тугалланган бўлади. Шунда Ҳ.Олимжон “мен келгунимча кўп иш қилибсизлар, шу боис мен ҳаммуаллифликдан чиқаман” деб айтган эканки, бир шу эпизод 44 ёшида ҳалок

бўлган истеъдодли ўзбек шоирининг қиёфасининг бир қиррасини ёрқин тасаввур қилишимизга ёрдам беради.

Ёки И.Султон устози Фитрат ҳақидаги хотираларини айтиб берар экан, китобхон бу қомусий олимнинг беҳад ростгўй ва эркин фикрга эга мутафаккир бўлганлигидан хабардор бўлади [Раҳимжонов Н., 2008: 72].

Олим Иззат Султон ҳақида гапирар экан, ҳар бир асарга тўхталиш асносида унинг қиёфасини, портрети чизгиларини ҳам беришга ҳаракат қилади: “Устоз тотли ва эзгин хотиралардан бир зум тин олгандек бўлади. Сукутга чўмади. Дарҳақиқат, инсон тақдирида ҳеч нарса беиз ва бесамар ўтиб кетмас экан, деган ўй кўнгилдан кечади. Сийратинг сувратингда аён деганларидек, пешонага тушган, манглайга тортилган ажинлар, кўнгилга қават-қават бўлиб тугилган тугунлар - барча-барчаси инсон учун тириклик сабоқлари, нурли ва қоронғу, эзгин ва маҳзун, эзгу ва мунгли тажрибалар. Булар инсоннинг юриш-туришларию ўйлашида, босган изларию айтилган сўзларида ўз аксини қолдиради. Томчидан уммон, бошимиздан кечгани кўзда ифодалангани мисол” [Раҳимжонов Н., 2008: 73]. Танқидчининг илмий-эстетик тафаккури мевалари бўлган бу сатрларни ўқиганда В.Катаевнинг “Хаёл чечаклари” асари эсга тушади. Истеъдодли рус ижодкорлари Бунин ва Маяковскийга бағишланган асарни худди бадий асар ўқигандек ўқийсиз. “Хаёл чечаклари”ни ўқиган китобхон адабий танқидга бутунлай янгича кўз билан қарай бошлайди. “Чунки асар тағматнида кўзга кўринмас кўшиқ, куй, оҳанг яширинган. Бу оҳанг гоҳ китобхон қалбини ўз йўналишига мос тебрантиради, гоҳ ўзига кўшиб куйлатади, гоҳ ўз дарёсига оқизиб кетади ва буларнинг бирортаси учун биздан рухсат сўрамайди”. Худди шундай, “Бадий асар биографияси”ни ўқир экансиз, асар тағматнида олимни тарбиялаган муҳит, ҳаётда орттирган тажрибалари, ҳис-туйғулари, ҳаётни, одамларни дилдан ҳис этганлари, онгу тафаккуридаги ўзгаришлар худди кино кадрларидек кўз олдингиздан ўтади. Шуниси эътиборлики, танқидчи ижодкор ҳар бир адабий ҳодисага устоз муносабатини илмий-эстетик таҳлил, хотираю, иқдорлар билан уйғун ҳолда олиб боради. Кўпроқ И.Султонни биринчи планга чиқариб, ҳар бир ижтимоий, адабий ҳодисага унинг нигоҳи остида баҳо беради. Шу тариқа асарни ўқиш жараёнида олимнинг ўз устозига бўлган юксак эҳтироми ҳар бир сатрдан сезилиб туради: “Устоз ўзининг доно лутфи, закий суҳбати билан ҳар қандай давранинг гулига айланар эди”. Ёки “Устоз Ғарб ва Шарқ бадииятининг ғоят теран билимдони эди. Ҳар бир фикрини улкан адиблар ёки олимлар асарларидан намуналар келтириш билан тасдиқлашни хуш кўрарди”.

Китобда Иззат Султон, энг аввало, бағри кенг устоз, билим қамрови кенг, мушоҳадакор олим, истеъдодли драматург, ўзбек адабиёти, драматургияси

ривожида муҳим ўрин эгаллаган ижодкор сифатида бўй кўрсатади. Шунинг учун тадқиқотда кўпроқ И.Султоннинг драматурглик фаолиятига кенг ўрин берилган.

Олимнинг илмий-танқидий асарлари, уларнинг яратилиш жараёнига ҳам тўхталинса, назаримда, китобнинг мукамаллиги янада ошар эди. Чунки XX асрнинг 60-йилларида ўзбек адабиётшунослигида Абдулла Қодирий ҳақида ҳақиқатни биринчилардан бўлиб жасорат билан айтган адабиётшунос ҳам Иззат Султон эди. Бу ҳақда Б.Карим шундай ёзади: “ Абдулла Қодирий ижоди юзасидан узоқ жимликдан кейин Иззат Султоновнинг “Ёзувчи Абдулла Қодирий ҳақида” деган мақоласи “Қизил Ўзбекистон” газетасининг 1956 йил 28 октябрь сонида босилиб чиқди. Муаллиф мақоласида янгича талқинлар нафаси сезилади, адиб тўғрисидаги хулосалар жиддий ўзгаргани аниқ кўринади. Абдулла Қодирийнинг ўзбек адабиётидаги ўрни хусусида янгича ёзаётган адабиётшунос олим имкони борича ёзувчи шахсига, асарларига илман холис ёндашувга интилади. “Агар ёзувчи ҳақиқатан талантли ва соф кўнгил бўлса, у ўз социал муҳитининг бор синфий манфаатлари доирасидан чиқиб, ҳаётни ҳаққоний тасвирлайдиган ва ижтимоий тараққиётга хизмат этадиган асарлар яратаолади”. Бу назарий гапни жаҳон адабиёти гигантлари Лев Толстой, О.Бальзак каби адиблар мисолида исботлайди ва ўринли равишда Абдулла Қодирийни ҳам шулар қаторига кўяди” [Каримов Б., 2006: 75].

Тўғри, Н.Раҳимжонов китобида ҳам И.Султоннинг Абдулла Қодирий ижоди, асарлари ҳақидаги мулоҳазаларига ҳам ўрин берилган. Масалан, И.Султон эстетик идеал ҳақида фикр юритар экан, кўпинча А.Қодирий асарларига таянишини кўрсатади: “ Устоз Иззат Султоннинг таъкидлашига кўра Абдулла Қодирий “Муштум” журнаliga келган муаллифлар асарларига жавоб ёзаркан: “Сиз тасвирлаган воқеликда шеърят йўқ”, деб уқтираркан. Бу эстетик идеал йўқ деганидир, аслида...Демак, асарда биз айтадиган фикр гоямиздан қатъи назар, яна поэзия бўлиши ҳам шарт экан” [Раҳимжонов Н., 2008: 182]. Бундан ташқари драматург 80-йилларнинг охирида Абдулла Қодирий ҳақида “Абдулла Қодирийнинг ўтган кунлари” драмасини ёзди. Жаҳон адабиётидаги мавжуд тажрибалардан самарали фойдаланиб, асар ичида асарнинг берилиши, муаллиф ва қаҳрамон муносабатларининг янгича кўринишларини ифодалаш драмага ўзига хослик бағишлаган. Абдулла Қодирий билан “Ўткан кунлар” асарининг драмада бош қаҳрамон қилиб олиниши ҳам унинг оригиналлигини таъминлаган. Н.Раҳимжонов бу драма атрофидаги баҳсу мунозараларга ҳам тўхталади. Лекин негадир мавзу доирасидан чиқиб, бу фаслда бошқа асарларнинг биографиясига кўпроқ тўхталинади.

Китобнинг “Иззат Султоннинг адабий-эстетик қарашларига оид” деган фаслида адибнинг “эстетик идеали, гўзаллик, адолат, эзгулик ва ҳ.к. умумбашарий қадриятлар мазмуни билан тўйинганлиги учун қадри, нажибдир”, - деб ёзади Н.Раҳимжонов. И.Султон ҳаётдан гўзалликни ахтариш ва гўзалликни тасдиқлаш ёзувчиларнинг вазифаси деб ҳисоблайди. Шу билан бирга гўзаллик ҳақидаги тасаввур ва тушунчалар даврлар ўтиши билан ўзгаришини таъкидлайди. Бу ўринда ҳам И.Султоннинг мулоҳазаларидан кейин муаллиф айни шу муаммога драматургнинг “Ойдин кеча асирлигида” пьесасини талқин этиш орқали ёндашади. Ўзининг болалик хотираларини ҳам эсга олади. Шосолиҳ қори бобо исмли боғбон чолнинг кийиккўз бону деб аталган гул ҳақидаги хотираларини келтириб, гўзалликни шу гулга ўхшатади. Адабиёт ҳамиша гўзаллик мудофаасида кўкси қалқон. Ўзи ҳам шуни ҳимоя қилишга мажбур. Масалан, айтайлик, Отабек рус босқинчиларига қарши курашда ўлган, демак, у янги идеални, мухторият идеалини, мустақиллик идеалини ҳимоя қилган. Бу ҳам гўзаллик. Ушбу тушунчанинг турли психологик тайёргарликка эга бўлган одамлар фаолиятидаги талқинлари ҳам шунчалар хилма-хил. Устоз ва шогирднинг бундай мулоҳазалари, ўзаро суҳбатлари ўқувчини адабиёт оламига янада яқинлаштиришга хизмат этади. Ва бу тарзда - адабиёт ҳақидаги мулоҳазалар эркин мулоқотга, хотира ва иқрорларга таяниб айтилаётганлиги жиҳатидан ҳам китобхон диққатини торта олиш кучига эга.

Иззат Султон китобда кўпни кўрган, тажрибали, кекса олим сифатида адабиётимиз олдида турган вазифалар ҳақида ҳаққоний гапиради: “Менимча, адабиётимиз олдида ҳозир бир-бири билан боғланган икки вазифа турибди. Бири (биринчиси эмас) – яқин ўтмишимиз, шўро даври ҳодисаларига холис ва чуқур баҳо бериш. Бу вазифаларнинг яна бири (иккинчиси эмас) мустақиллик даври ҳодисаларини бутун тарихий аҳамияти билан чуқур тушуниш ва бугунги ҳаётий жараёнга ҳамоҳанг, мададкор бўла оладиган асарлар яратиш. Бу икки вазифани адо этиш жараёнида, адабиётимизда ва, демакки, ўқувчилар оммаси онгида бир муҳим фикр маҳкам ўрин олиши керак; мустақиллик даврида ҳаётимиз азалий ва абадий изларга қайтди. Инсоният минг йиллар мобайнида ривожланиб келган қонунлар асосида янги тараққиёт ўзанига тушди”. Китобдан ана шундан ибратомуз мулоҳазалар, ҳикматли қарашлар ўрин олган, улар ўқувининг адабиётга бўлган қизиқишини оширишга ёрдам беради.

Яна бир мисол: Иззат Султон умридан, мураккаб замонда яшаганидан чиқарган иккинчи хулосасини бундай баён этади: “...инсон қаердаки хор бўлса, ўша жойда тараққиёт сўнади. Ёки орқага кетади. Бош мезон - бу инсон. Ҳозир озод юртимизда инсон мавқеи баланд кўтарилаяпти. Ҳозирча инсоннинг бунёдкорлик салоҳиятини тўла-тўқис амалга ошира олганимиз йўқ. Аммо

инсоният салоҳияти учун зарур бўлган икки шарт бизда мавжуд: *имон азизлиги ва мулк азизлиги...* Мана ҳозирги жамиятимиз тараққиётида Инсон, Имон, Мулк муқаддас бўлди. Бу нарсага ҳали кўникканимизча йўқ”.

Академик И.Султон мулоҳазаларида ҳаётимиздаги, адабиётимиздаги нуқсонларни кўрсатиш, уларга барҳам бериш йўллари белгиланганлиги ҳам эътиборлидир. Шу жиҳатдан китобдан ўрин олган “Тонглар - ёруғлик энагаси” деб номланган суҳбат ҳам катта аҳамиятга эга.

Иззат Султоннинг адабиёт илми йўналишларини қамраб олган тадқиқотлари, XX аср бадиий эстетик тафаккур тараққиётига бағишланган адабий танқидий мақолалари, бадиий сўз санъаткорлари тўғрисидаги танқидий биографик йўналишдаги илмий ишлари ҳам шу жараёнда талқин этиш мазкур китобга янада ўзига хослик бағишлар эди. Ёки унинг мустақиллик йилларида - кексайган чоғида жасорат билан ижод этганлиги ҳақида батафсил фикр юритиш ёшларга ибрат мактаби бўла олиши мумкин. Ўйлаймизки, Н.Раҳимжонов устози ҳақидаги китобини яна давом эттирса, унинг илмий меросига ҳам тўхталиб, олимлик қиёфасини чуқур очиб берса, нур устига аъло нур бўлур эди.

Хулоса. Бундай йўналишдаги асарларнинг аҳамиятли жиҳатлари кўп: биринчидан, китобхон мазкур илмий-танқидий асарни зерикмай, қизиқиб ўқийди, иккинчидан, йирик олим Иззат Султон шахси, ижоди, у яшаган давр, муҳит билан янада яқиндан танишади, учинчидан, ижод онлари, ҳар бир асарнинг дунё юзини кўриши мураккаб жараён эканлигини англаб етади, тўртинчидан, китоб муаллифининг қиёфаси ҳам билан чуқурроқ танишади.

Хуллас, бу китобни ўқиш орқали шогирднинг устозга бўлган ҳурмати, эътиборидан ҳам ёшлар ўрнатқолсалар арзийди, чунки шу сирадаги асарлар баркамол авлод маънавиятини бойитишга кўмаклашади. Мустақиллик имкон берган бундай тадқиқотларнинг кўпайиши адабиётшунослигимизни юксакликка олиб чиқувчи пиллапоялардан бўлса ажаб эмас.

Адабиётлар:

1. Akhmedova, Shoira, and Sofiya Mahmudova. "ABU ALI IBN SINA ON A CRITICAL BIOGRAPHICAL ESSAY." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.7 (2022): 795-799.
2. NEMATOVNA, AKHMEDOVA SHOIRA, KADYROVA NASIMA SAIDBURKHONOVNA, and KURBANOVA OLTINOY BEKMURODOVNA. "METHODOLOGY AND SKILLS PROBLEMS." *The journal of contemporary issues in business and government* 27.5 (2021): 778-784.
3. Nematovna, Akhmedova Shoira. "GENRE OF LITERARY PORTRAIT IN THE WORKS OF ALISHER NAVAI." *SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА*: 127

4. Axmedova, Shoir. "THE ROLE OF THE JADID PRESS IN THE FORMATION OF UZBEK LITERARY CRITICISM." Конференции. 2021.
5. Ахмедова, Ш. Н., & Назарова, Д. (2021). АДАБИЙ ПОРТРЕТ ЖАНРИНИНГ НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ ХУСУСИДА. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(3).
6. Ахмедова, Шоира Нематовна. "ЎЗБЕК ВА ФРАНЦУЗ АДАБИЁТШУНОСЛИГИДА ПОРТРЕТНАВИСЛИК ТАРАҚҚИЁТИ." МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА 3.6 (2020).
7. Ахмедова Ш. Н. ХУРШИД ДАВРОННИНГ АДАБИЙ-ЭСТЕТИК ҚАРАШЛАРИ: Ахмедова Шоира Нематовна, БухДУ ўзбек адабиёти кафедраси профессори, ф. ф. доктори //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 6.2. Махсус сон. – С. 20-28.
8. Ахмедова, Шоира Нематова. "ПРОГРЕСС ПОРТРЕТОПИСАНИЯ В ПЕРИОД ГЛОБАЛИЗАЦИИ В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ." Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (2019): 12-14.
9. Ахмедова, Шоира Нематовна, Лосеева-Танем Бахтияри, and Насима Саидбурхановна Кадирова. "О Творческой Специфике Литературной Критики." Miasto Przyszłości 42 (2023): 326-329.
10. Глушков Н.И. Очерковые формы сов.литературе. – Изд. Ростовского университета. 1969. – С.178.
11. Davronova S. Eastern and western literary tradition in the modern uzbek novels //World science. – 2016. – Т. 4. – №. 5 (9).
12. Литературный энциклопедический словарь. – М.: Сов. энциклопедия, 1987. – С. 123.
13. Назаров Б.,Расулов А.,Ахмедова Ш.,Қахрамонов Қ.Ўзбек адабий танқиди тарихи. Дарслик.Тошкент."Тафаккур қаноти".2012, 10-бет.
14. Расулов А.Тунда чақнаган юлдуз // Жаҳон адабиёти. – Тошкент, 2005, май.
15. Раҳимжонов Н. Бадиий асар биографияси. Тошкент. Фан, 2008. 5- бет
16. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча - ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 120

NU'MON RAHIMJONOV HAQIDA XOTIRALARIM

Rahmatulla Barakayev,
professor

1980-yil oktyabrida Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti Bolalar adabiyoti bo'limiga ishga kirganman. 4-qavatda yonma-yon xonalarda XX asr o'zbek adabiyoti va Bolalar adabiyoti bo'limlari joylashgan. Biz, bolalar adabiyoti bo'limi xodimlaridan 4 kishi: fan nomzodi Sohiba Irisxo'jaeva, laborantlar – Hasan Qayumov, Qurdoq Qahramonov, Oydin Nazirova (Hakim Nazirning qizi) va men bir xonada o'tiramiz. XX asr o'zbek adabiyoti bo'limi xodimlari biz uchun osmon, ularning deyarli barchalari taniqli olimlar. Ularning xonalariga qadam bosishga ham jur'at qilmaymiz.

XX asr o'zbek adabiyoti bo'limi ilmiy xodimlari, ayniqsa, erkaklar bilan qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilinganimizda nisbatan yaqinroq tanishganmiz. Nu'mon Rahimjonov bilan ham shu jarayonda tanishganman. U kishi yosh bo'lsa ham o'sha paytlardagi partkom a'zosi, yoshlarni qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilishda ma'muriyat tomonidan jamoatchilik tashkiloti vakili sifatida bosh-qoshlardan biri. Lekin u paytda shunchaki salom-alik bo'lganmiz, xolos. U kishining o'zidan ko'ra asarlari bilan yaqinroq tanishman.

1987-yillar o'rtalari edi. "Yulduzcha" nashriyotida muharrir bo'lib ishlaydigan To'liq Alimov (taniqli tarjimon) menga telefon qilib: "Rahmatulla, bir tarjima kitob nashr qilinyapti. Shunga 4-5 bet hajmda so'ngso'z yozib bera olasizmi?" - deb so'rab qoldilar. Bunaqa ajoyib taklifga kim yo'q deydi?! Darrov: "Men avval asliyat bilan tanishib chiqay, keyin fikrimni aytaman" - deb javob berdim. Asliyatni olib keldim. Qarasam, taniqli rus bolalar yozuvchisi Anatoliy Aleksinning o'smirlarga mo'ljallangan bir qator qissalari ekan. Juda ta'sirchan bu qissalarni, to'g'risini aytganda, ko'zlarimdan yosh chiqib o'qidim hamda yozuvchi hayoti va ijodiga bag'ishlangan 4-5 betlik so'ngso'z yozib berdim. Kitob "Tilab olingan bola" sarlavhasida o'zbek tilida chiqdi. So'ngso'z muallifi sifatida menga ham bir nusxa kitob berishdi. Endi qissalarning o'zbek tilidagi tarjimalarini o'qiy boshladim va beixtiyor ruscha asliyatini bilan qiyoslashga tushdim. Ne ko'z bilan ko'rayki, tarjimon Nu'mon Rahimjonov ekan. Ana shu kitob bahonasida Nu'mon akani nafaqat olim, balki mohir tarjimon sifatida ham kashf etdim desam, zarracha mubolag'a bo'lmaydi.

Nu'mon aka bilan yaqinroqdan tanishganimiz 90-yillar o'rtalariga to'g'ri keladi. 1994-yil maydan meni Institut ilmiy kotibligiga tayinladilar. Nu'mon aka yangi tashkil qilingan Hozirgi adabiy jarayon bo'limining boshlig'i. Turli hisobotlar bilan u kishini tez-tez bezovta qilib turaman. U kishining kamtar, kamsuqum insonligi, o'z ishiga nihoyatda e'tiborliligi, Institut ilmiy kengashi va Ixtisoslashgan ilmiy kengash

a'zosi sifatida yig'ilishlarda o'z fikrini dadil ayta olishi va fikrida qat'iy tura olishi kabi sifatlariga, ayniqsa, shu davrlarda ko'p martalab guvoh bo'lganman.

Institut faoliyatining davlat byudjetidan ta'minlanishi tugatilib, grant tizimiga o'tilgach, muammolarga to'la davr boshlandi. Odatda, grant loyihalarimiz mas'ul davlat tashkilotlarida tasdiqlanadi. Biz so'ragan mablag'ning yarmiga yaqini beriladi. Buning ustiga, bir yilda ikki marta mamlakat Prezidenti Farmoni bilan maosh oshiriladi. Bizga yillik maosh fondi ajratilganda, yilning birinchi yarmida oshiriladigan maosh ko'zda tutiladi, yilning ikkinchi yarmida oshiriladigan maosh esa byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshirilishi belgilanadi. Til va adabiyot instituti singari ijtimoiy-gumanitar institutlarda byudjetdan tashqari mablag' qaerdan bo'lsin?! Ilmiy xodimning esa bundan xabari yo'q, Prezident Farmoni chiqdimi, u oyligi oshirilishini kutadi. Barcha og'irlik Institut rahbariyatining yelkasida, u har qanday qilib bo'lsa-da, xodimlar oyligi oshirilishini ta'minlashi kerak. Yo'l bitta, dunyodan o'tganlarning o'rniga boshqa odam olinmaydi, u qadar ko'ngildagiday faoliyat ko'rsata olmayotganlarning nafaqa yoshiga yetishi intizorlik bilan kutiladi va maqtovlar bilan xayrlashiladi.

Nu'mon aka ana shu og'ir paytlarda ikki marta amaliy tadqiqot loyihasi olib, ishladi. Loyiha uch beriladigan maosh ko'pi bilan uch kishiga yetadi. Lekin mas'uliyatni nihoyatda jiddiy his qiladigan olim har ikkala ilmiy loyiha bo'yicha ham belgilangan vazifani muddatida bajarib, "Mustaqillik davri o'zbek she'riyati" va "Istiqlol va bugungi adabiyot (nasr)" degan ikkita kitobni chiqardi. Afsuski, uchinchi marta loyiha olish Nu'mon akaga nasib qilmadi.

O'sha paytda bo'limlar ham birlashib, "XX asr o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon" deb nomlangan. Bo'lim mudiri va loyiha rahbari Naim Karimov, Nu'mon Rahimjonov esa yetakchi ilmiy xodim. U kishi ko'pchilik qatori "Abdulla Qodiriy qomusi"ni yaratishda ishtirok etishga majbur bo'ldi. Yil oxirida dastlabki yil natijalari muhokama qilinganda loyiha rahbari, professor Naim Karimov (adashmasam, u paytda Naim aka hali akademik bo'lmagan edi) Nu'mon Rahimjonov bajargan ishlardan ko'ngli to'lmay, qattiq norozilik bilan "bu ish qomus talablariga javob bermaydi" deb turib oldi. Ana shu muhokamada Nu'mon akaning naqadar oriyatlik inson ekanligi yana bir karra namoyon bo'ldi. U kishi: "Naim aka, ehtimol, mening ishim sizning qomusingizga to'g'ri kelmas, lekin men uni alohida kitob qilib chiqaraman, shu bir yil olgan maoshimni oqlayman" dedi va shu bilan keyingi yildan ishdan bo'shab ketdi. Nazarimda, u kishi bir umr ishlagan, shu yerda fan nomzodi, fan doktori, professor bo'lgan ishxonasidan nihoyatda norozi bo'lib ketdi. Shungacha, Institutga kelsa, albatta mening xonamga kirar, ancha ko'ngildan suhbatlashib o'tirar edik. Shundan keyin esa hatto menga biror marta telefon ham qilmadi. Holbuki, men u kishining "Limonariy" tomondagi uylariga turli yaxshi

sabablar bilan, o'g'illarining to'ylariga bir necha marta borganman, xonadonlarida tuz-nasib bo'lganman. Munosabatlarimiz ham, nazarimda, ancha samimiy edi.

Nu'mon akaning kenja o'g'illari Masrur bilan Sharqshunoslik institutida bir necha yil bir kafedrada birga ishlaganmiz va aka-ukadek bo'lib qolgan edik. Nu'mon aka "hech bo'lmasa bir farzandim izimdan borib, adabiyotshunos olim bo'lsa" deb orzu qilib, Masrurga mavzular berib, uning dissertatsiya himoya qilishini ko'p yillar kutgan edilar. Yaratganga shukurki, Masrur ota orzusini amalga oshirib, falsafa doktori ham bo'ldi, otasining ruhini shod qildi.

Shu orada "pandemiya" degan bir bemaza davr kelib qoldi. Hammamiz karantinga tushib, uylarimizga qamalib qoldik. Bir-birovimizdan xabar ham ololmadik. Nu'mon akaning boshlariga ketma-ket og'ir kunlar tushib, avval turmush o'rtoqlaridan, keyin bir o'g'illaridan ajralib qoldilar. Bu yo'qotishlarga bardosh berish har kimning ham qo'lidan kelmaydi. "Bandaning boshi – Oллоhning toshi" degan hikmat bor xalqimizda. Qalbi naqadar pok bo'lsa, shu qadar nozik Nu'mon akaning qalbi bu yo'qotishlarga bardosh berolmadi. Bo'lmasa, Nu'mon aka 80 yoshga yaqinlashib qolgan bo'lsa-da, jismonan sog'lom, baquvvat inson edi. "Kosa to'lsa, paymona to'lsa, boshqa narsalarning hammasi bahona-yu sabab" deydi dono xalqimiz. Endi bizning qo'limizdan Nu'mon akaning yaxshi sifatlarini eslab, ruhlarini shod qilish va haqlariga duoi fotihalar qilish, "joyingiz jannatda bo'lsin!" deyish keladi, xolos.

Har bir kishining umrini Yaratganning o'zi belgilab bergan. Umr poyoniga yetgach, har bir odamdan qoladigan narsalar bor. Yo'qlab duo qiladigan farzandlar, nevaralar, evaralar bularning bir qirrasini. Olim odamdan qoladigan narsalar esa bulardan tashqari yaratgan kitoblari-yu, yetishtirgan shogirdlari ham. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, filologiya fanlari doktori, professor Nu'mon Rahimjonovdan u kishi boshlagan yo'lni davom ettiradigan yaxshi o'g'il qoldi; o'nlab yaxshi kitoblar qoldi, ular bugun oliy o'quv yurtlarining asosiy o'quv qo'llanmalari; o'nlab yaxshi shogirdlar qoldi, bugun ulardan uchtasi fan doktorlari, professorlar, o'ndan ortig'i fan nomzodlari, ularning asosiy qismi ilm olamida o'z o'rniga ega bo'lgan mutaxassislar. Ayniqsa, filologiya fanlari doktori Marhabo Qo'chqorova sadoqatli shogird sifatida domlasi tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan xotira-ilmiy anjuman tashkil qildi, yugurib-yelib, viloyatlardagi qanchadan qancha shogirdlarining ushbu anjumandagi ishtirokini ta'minladi va shu bilan domlasining ruhini shod qildi, men esa ushbu anjumanni olib borish baxtiga musharraf bo'lganimdan behad xursandman.

ҚИБРАЙДАН ЧИҚҚАН ЯГОНА АДАБИЁТШУНОС ОЛИМ

Мархабо Қўчқорова,
Нуъмонжон Раҳимжоновнинг
севимли шогирди

Кеча Устозим филология фанлари доктори, профессор Нуъмонжон Раҳимжонов оламдан ўтди. Ҳеч кутмаган эдим. Чунки, Янги йил куни домлага телефон қилиб, байрам билан табрикладим. Анча гаплашдик. Руҳи тетик, овози ҳам янгроқ эди. Янги йилдан сўнг, телефон орқали бир хабарлашдим. Албатта, уйларига ўтмоқчи бўлаётганим, ишим кўпайиб кетгани ҳақида, яна нималардир ҳақида гаплашдик. Очиғи, Домла соғлом бўлгани учун бу хабарни эшитиб, шокка тушдим. Нега, мен домлани бориб, суҳбатини олмадим, деб анча ўзимни кечира олмадим. Кеча таъзияга Гулистон давлат университетидан ф.ф.н. Қобул Қўбаев, ф.ф.н. О.Файзуллаева, ф.ф.н. Гулчеҳра Қўйлиева ва деканлари келишибди. Биз аёллар ичкарида домлани эслашдик. Домланинг саксонга кирган Опаси ва яна иккита синглиси “жигаримнинг шогирдлари билан ўтираман, дуо қиламиз”, деб биз билан анча суҳбатлашди. Опа “укам эмас, мен ўлишим керак эди”- дедилар, мен бундан таъсирланиб кетдим. Катта бўлиб, укаси ундан олдин у дунёга кетганидан хижолатда эди, назаримда. Синглиси “Жигарим, акам бизни ташлаб кетди. Ҳар куни бомдодга турганимда, акамнинг деразасига қарардим. Чироқлари ёниб турган бўлса, кўнглим хотиржам тортарди. Акам ижод қиляптилар, деб кўярдим. Биз кўп ҳам илмга тушунмаймиз. Аммо акам фақат китоб ўқиб, китоб ёздилар. Энди мени сўраб турадиган, ҳол-аҳволимни сўрайдиган акажоним йўқ. Биз оилада 5 та қиз, 1 ўғил бола акам эди. Биласизми, акам Қибрайдан чиққан ягона доктор олим эканлар. Тошкент вилояти, Қибрай туманидан ҳозирча бошқа доктор олим чиқмаган. Акам ягона доктор олим эдилар” -деди. Ниҳоятда, мутассир бўлдим. Ҳа, Олим битта бўлади. Минглаб, миллионлаб одамлар ичидан биттагина Катта Шахс, Олим етишиб чиқади.

Ҳозир бўлиб ўтганларни ёзяману, томоғимга нимадир тикиляпти. Янги 2022 йил Ўзбек илм фани учун ниҳоятда оғир жудоликлар билан бошланди. Ф.ф.д. Шоира Дониёрова январь ойи бошида ўтиб қолди. Ундан кейин академик Бахтиёр Назаров, ундан сўнг, ф.ф.д., проф. Умарали Норматов, тилшунос Ёрмат Тожиев домла, дугонам Илми билан Дунёни забт этган тарихчи Гулчеҳра Султонова эса 46 ёшида оламдан ўтди. Тинимсиз йўқотишлар бўляпти. Ўзбек илм фанининг катта-катта дарғалари қулади. Қолганлар омон бўлсин!!!

Устозимга қайтадиган бўлсам... Нуъмон Раҳимжонов ниҳоятда юмшоқ табиатли, мулойим одам эди. Доим кулиб турарди. Илк бор Тил ва адабиёт институти аспирантурасига ҳужжат топширганимда, Наим Каримовга шогирд тушаман, деб Хоразмдан келгандим. Нуъмонжон Раҳимжоновни танимасдим. Аммо Наим Каримов домла тошкентлик Нилуфар Мирсаидова деган қизни шогирд қилиб олди. Маъмурият мендан сўраб ҳам ўтирмасдан, илмий раҳбарим сифатида Нуъмонжон Раҳимжоновга буйруқ чиқаришган. Мен бундан хабарсиз эдим. Шаддодроқ эканманми, ёки шаккокрок... нега мени Нуъмонжон Раҳимжоновга берасизлар, Мен Наим Каримовга шогирд тушмоқчи эдим, деб маъмуриятдагиларга айтганман ҳам. Домла бу гапларимни эшитган. Ўшанда Раҳматилла Баракаев Раҳимжонов ёш, энди элликдан ошди. Сизга яхши, айна кучга кирган олимга шогирд бўляпсиз, деган гапларни айтди. Домла билан учрашмай юрдим. Охири хоналарига кириб, Домла билан танишиб, гаплашиб чиққанман. Домла гапларимни эшитганини билганим учун кечирим сўрадим. Домла менга “Эссе жанри”ни ишласангиз қалай бўлади? – деб сўраганларида. Менга проза бўлса бўлди, прозани таҳлил қилишни ёқтираман, деб шу мавзуда Домланинг раҳбарлиги остида номзодлик диссертациямни ёқладим. Докторлик ишим ҳам Нуъмонжон Раҳимжонов раҳбарлиги остида ёқланди.

Домла ниҳоятда кўп ўқирди. Мутоала доираси кенг эди. Қушлар ҳақидаги, асаларилар ҳақидаги китобларни ҳам хижжалаб ўқиб чиқарди. Ҳатто боғдорчиликка алоқадор китобларни ҳам ўқиб ўрганганидан хабарим бор. Катта боғбонлар билан дўст эди. Мен домладан хабар олай деб, уйларига ўтиб қолсам, эринмасдан, ўқиганлари, нималар ўқиётганию, қанақа китоблар устида ишлаётгани ҳақида гапириб берарди. Ҳатто бир куни домла “ҳовлига Қора анжир экмаслик керак”, деб қолдилар. “Нега”- дедим. “Қора анжир, қора райҳон илон чақирар экан. Мен буни Ибн Синонинг китобида ўқидим”-деб қолдилар. Домланинг ҳовлисида қора анжир бор эди. Борганимда, анжир еганим эсимда. Домла Ибн Синонинг китобини ўқигач, қора анжирларни олиб ташлабдилар. Ҳовлисига доим райҳон экардилар. Қора райҳон ҳам экмай кўйибдилар.

Ҳовли уйда яшаганлари учун хурмо, узум, райҳон, бошқа сабзавотлар экиб етиштирарди. Кейин яна хоббиси, кўй боқарди. Ҳар йили иккита кўй боқиб, юрганларидан хабарим бор. Кўй боқиб юриб, адабиётни, илмни ўйлаб, ижодий хаёлларига бериларди. Умуман, оиласида кўй боқишни анъанага айлантиришган экан. Синглиси таъзияга борганимизда, акам “кўйинг яхшими?” деб сўраб турардилар. Синглиси “Ака кўйимни сўрамасангиз, хафа бўлардим. Ўзимдан ҳам олдин кўйимни сўранг” -деб ҳазиллашар экан.

Домла фақат ақл кишиси эмас, жисмоний меҳнат кишиси ҳам эди. Домла Раҳимжоновлар оиласининг ягона эркак фарзанди эди. Ўзларидан бир этак фарзандлар, неваралар қолдириб кетди. Яна Ўзбек адабиёти илмига битмас туганмас хазина қолдирди. Нуъмонжон Раҳимжоновнинг “Шоир ва давр”, “Илмий тафаккур жилолари”, “Мустақиллик даври ўзбек шеърляти”, “Истиклол ва бугунги адабиёт”, “Қодирийшунослик қирралари”, “Бадий асар биографияси”, “Адабий суҳбатлар”, “Бадий сўз эстетикаси”, “Ўзбекистон олимлари тазкираси” каби 15 га яқин илмий монография, рисола ва адабий портретлари адабий жараёнда катта воқеа бўлди. Бу китоблар филология йўналишларида талабалар ва мутахассислар томонидан тинимсиз ўқилипти. Домла яна илмий ва бадий таржимачилик билан ҳам шуғулланди. Болалар учун қиссалар, Жирмунскийнинг бир илмий мақоласини рус тилидан ўзбек тилига маҳорат билан таржима килди.

Нуъмонжон Раҳимжонов учун академик Иззат Султоннинг ҳаёти ва ижоди эстетик идеал эди. Домла устозининг ижодий анъаналарини давом эттириб, ҳам илмий ижодда, ҳам бадий ижодда қалам тебрлатди. Домланинг “Жимжит жолалар” номли илк қиссаси “Шарқ юлдузи” журналида чоп этилди. Журнал вариантни ўқиб, домлага танқидий фикрларимни билдирдим. Домла ҳеч хафа бўлмадилар. Шундан сўнг, қиссани қайта ишлабдилар. Қисса китоб бўлиб чиқди. Кейинги пайтларда домла болалар учун адабий эртаклар ёза бошлагандилар.

“Бадий асар биографияси” китобини қайта тўлдириб ишлаётганини айтганди. “Абдулла Қодирийнинг адабий-эстетик қарашлари” номли каттагина илмий монографияси тайёр эди. Аммо нашр қила олмади. Домла ижодкорлар билан жуда яқин дўст эди. Рауф Парфи, Асад Дилмурод ва бошқалар билан. Рауф Пафи шеърларининг вариантларини, кундаликларини домлага берган. Домла ана шу материаллар асосида Рауф Парфи шеърляти ҳақида ёзилган 50 саҳифалик комментария билан “Сакина” номли китобини чоп эттирди.

Бир куни борганимда “Қуръони карим”нинг ўзбекча нашрларини солиштириб, ўқиганлигини айтиб қолдилар. Умуман, домланинг уйларига ўтганимда кўп илмий ижодий гаплар айтган. Лекин мен уларни ёзиб олмабман. Хато қилибман. Фақат бир марта 2 соатлик суҳбатимизни телефонимга ёзиб олдим. Вақти келиб, чоп этарман.

Домла 70 йиллик юбилейлари арафасида Тил ва адабиёт институтидан ишдан кетдилар. Бунга кўпгина сабаблар бўлди. Домла конфликтга киришиб, ёқаллашиб-жанжаллашиб, яшашни, ишлашни истамас эди. Яхшиси, енгилиб қўя қоларди.

Нуъмонжон Раҳимжонов Республикамизнинг нуфузли олийгоҳларида бугунги кунда фаолият олиб бораётган тадқиқотчиларга илмий раҳбарлик қилди. Домланинг раҳбарлиги остида Хуршид Дўстмуҳаммад, Тоҳир Қахҳор, Дилрабо Қувватова, Гулбаҳор Саидғаниева, Қобул Кўбаев, Обида Файзуллаева, Гулчеҳра Қўйлиева, Шириин Алдашева, Насиба Жуманиёзова, Саида Қурбонова ва бошқа мен билмайдиган бошқа шогирдлари ҳам кўп. Шулардан Дилрабо Қувватова ва мен докторлик ишимизни ҳам Н.Раҳимжонов раҳбарлигида ҳимоя қилдик.

Афсус, домланинг ижодий режалари ҳали жуда кўп эди. Кеча кўзим тушди. Хайриятки, домла ўн йиллар заҳмат чеккан “Ўзбекистон олимлари тазкираси” ниҳоят нашрдан чиқибди. Шунисиға ҳам шукр!!!

Нуъмонжон Раҳимжонов умрини китоб ўқиб, китоб ёзиш билан, фикрлаш билан, дунёнинг илмини эгаллаш билан ўтказди. Мен домланинг олдида ўзимни денгизга чўкиб кетаётгандек ҳис этардим. Чунки, билим доираси ва қизиқишлари КАТТА ОЛИМ эди. Афсуски, кўп ҳам домланинг қадрига етмадик. Домла кўпинча мендан ўз сафдошлари ҳақида сўраб турарди. Курсдош дўсти, илмий раҳбари Бахтиёр Назаров ҳам бугун оламда йўқ. Икки дўст кетма-кет боқий дунёга кетишди. Улар бир-биридан қандайдир майда гаплар туфайли хафа бўлган бўлса ҳам бир-бирини кечирган эди. Чунки, мен ҳар икки Устознинг уйлариға ўтганимда, Бахтиёр Назаров “Нуъмоннинг ўғли ўтиб қолдими?” – деб ҳамдардлик билан гапиргани эсимда. Нуъмон ака эса “Унга нима бўлибди?” – деб Назаровнинг соғлиги ва аҳволини сўраб-суриштирганида мен буни тушунганман.

Устозимиз Нуъмонжон Раҳимжонов ўзининг одамийлик вазифаларини сидқидилдан бажариб, у дунёга пок бўлиб кетдилар. Чунки, Устоз илм билан шуғулланди, ортидан фарзандлари, авлоди қолди. Яна шогирдлари ва илмий-бадий, публицистик китоблари, таржималари қолди. Домланинг руҳлари шод бўлсин!!!! Нур ичида ётсинлар!! Шогирдлар дуодамиз!!

“ЖИМЖИТ ЖОЛАЛАР”ДАН ТОМГАН ИНЖУЛАР

Дармоной Ўраева

Бухоро давлат университети

профессори, филология фанлари доктори

Нўъмон Раҳимжонов адабий фаолиятининг муҳим қирраси - бадиий ижод билан боғлиқ. Унинг қисса, адабий эртақ жанридаги асарлари, фақат олим ижодигагина хос бўлган дилбитиклари фикримизни тасдиқлаб туради. Унинг рамзий-гимсолий тасвирларга бой “Жимжит жолалар” қиссаси мазмуни, композицияси билан алоҳидалик касб этади. Таъкидлаш керакки, бу асар бадиий ижоднинг назарий асосларини, фалсафий-методик ва руҳий қирраларини пухта билган етук адабиётшунос, нозиктаб олим томонидан яратилган. Асар олимнинг айни камолот ёшида дунё юзини кўрди.

Ўз кечинмаларини, фикр-туйғуларини “Жимжит жолалар” асари бағрига сингдиришга чоғланган устоз олим бадиий ижодкор сифатида майдонга тушар экан, аввало, танланган мавзусининг долзарб нуқталарига эътиборни тортади. Унда ҳозирги пайтда Россияга пул топиш илинжида ишлашга кетиб, соғлиғини йўқотиб келаётган юртдошларимиз тақдирига ачиниш, ортиқча орзу-ҳавасга берилиб, ёш оилалар парокандалигига сабабчи бўлаётган худбин ва молпараст қайноналар, наркотик ва одам савдоси муаммолари, шу масалада Эмират, Истамбул, Урумчи шаҳарларига қатнаётган “учарлар”нинг кирдикорлари, турмуш қийинчиликларига дош беролмай, ичкиликбозлик иллатига берилаётган эркалар фожиаси, бозор иқтисодига асосланган ҳаёт ва бозор муҳити бирида тасвирда, бирида талқинда ифода этилган.

“Жимжит жолалар” асари муаллиф томонидан қисса деб кўрсатилган бўлиб, унга “Кулни хаёл ўлдирар” деган халқ мақоли эпиграф сифатида танланган. Асар таркибидан ўн олтита катта-кичик ҳикоялар ўрин эгаллаган. Уларнинг ҳар бири алоҳида-алоҳида ҳикоялар бўлса-да, барчаси бош қаҳрамон Тўракул ҳаётига дахлдор воқеаларни қамраб олгани жиҳатидан ягона сюжетни ҳосил қилиб, яхлит бир асар сифатида тасаввур уйғота олади. Барча ҳикоялар мазмунан бири иккинчисини тўлдириб боради ва асар қаҳрамони Тўракул сиймосини, унинг тақдир фожиасини тўлалигича ҳис этиш сари йўл очади.

Асарда қаҳрамон исми рамзий бўлиб, у орқали муаллиф ўз юртининг тўраси эмас, кули бўлиб яшашга мажбум бўлаётган инсон дардини ёритишга интилгани сезилади. Шунинг учун адиб халқимизнинг фарзандга исм қўйиш анъаналарини ёдга олиб, “Исмниям билиб қўйиш керак экан-да” дея китобхонларни миллий қадриятларимизни ардоқлаш сари хушёрлантиради.

Назаримда, муаллиф бу асари орқали айтмоқчи бўлган асосий фикр айнан ана шу жиҳат – миллий анъана ва кадриятларимизга нописадлик, уларга кўр-кўрона муносабатда бўлиш юртимизда инсон фожиаси ортишига сабаб бўлганини таъкидлаш ва тасвирлаш билан боғлиқ. Бу, айниқса, асардаги “Йўқчилик курсин” ҳикоясида қайнонанинг келини келтирган сепдан ҳамда тўйдан кейин бажариладиган айрим ортикча удумлардан кўнгли тўлмагани туфайли юзсизларча жанжал кўтариши, аёл боши билан келиб эркак қудага ҳар хил аччиқ-тизиқ гапларни андишасизларча гапириб кетиши, энг ёмони, келинига аёвсиз озор бериши, қулдай муомалада бўлиши, бунга чидай олмаган ёш келинчакнинг эса ўз жонига қасб қилиши тасвирланган. Асарда “Жанжал йўқлов деган даҳмазадан чиққанди. Келин-куёнинг етти кунлик кичик чилласидан, қирқ кунлик катта чилласидан кейинги йўқловлар юборилмаганидан бошланганди” дея таъкидлаб ўтилади. Қайнона қудаларига нисбатан худди машҳур ўзбек адиби Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги Ўзбек ойм каби “анди” сўзини ишлатади: “Эсим оғмаса, шайтон йўлдан урмаса, сан андиларникига қулликка келаманми-я?!” Ҳаҳ, шўр бўлмай ўғлимни пешонаси курсин!”

Гирт ношукрлик ҳиди аниқиб турган бу фикр қайнонанинг нечоғлик кўзи оч, яламирлигини акс эттириб турибди. Лекин чироқ ўз соясини кўрмас деганларидек, аксинча, қайнона келинини “яламир” ҳисоблайди. Хуллас, шу жанжал сабаб келин ўз жонига қасд қилади. У ўзини ўзи осиб ўлдиради. Бунинг аламига чидолмаган ота ҳам ғам-алам билан ёруғ дунёдан кўз юмади. Ўз аёлининг, жуфти ҳалолининг қадрини билмаган куёвбола эса уялмай-нетмай хотини майитини кўмиш учун қайнота эшигига жўнатадики, бу ҳол Абдулла Қаҳҳорнинг “Даҳшат” ҳикоясидаги виждонсиз Олимхододхонинг пасткашлигини ёдга солади.

Агар асардаги анъанавийлик қирраларига диққат қаратилса, унда яна Абдулла Қаҳҳорнинг “Бошсиз одам” ҳикояси, Хуршид Дўстмуҳаммаднинг “Бозор” романидаги тасвир ва талқинга хос бадиий-эстетик тажрибалардан анъана сифатида фойдаланилгани сезилади. Шунингдек, унда гавдасиз бошнинг думалаб қочиши мотиви “Қувқалла” номли ўзбек халқ афсонасида учрайдиган шундай анъанавий эпик мотивни ёдга солади. Асарда “Соя серкепак бошни қўлтиғига қисганча қочиб борарди” дейилади.

Асар қаҳрамони Тўрақул аслида ғурури ва нафсонияти баланд ўзбек йигити. Лекин маҳалласидагилар уни “нон емас”, “эл бўлмас”, “қайнатса қони қўшилмас”, “писмиқ”, “одамови” ва яна нима балолар дейишмайди. Унинг ўзи шундай бўлиб қолишига ичидаги “қўрқув ҳисси” сабаб деб билади ва бунга хотини олдида рўй-рост икром бўлади. Рост, Тўрақул анойилардан эмас.

Сиртдан кўй оғзидан чўп олмагандек лаванги, лапашанг кўрингани билан ер остида илон қимирласа билади. У “ота тийиғини кўрмаган, она йўриғига юрмаган”. Хуллас, ёшлигидан етим бўлиб қолган, ота-она тарбиясини тўлиқ кўрмаган, бошига тушган кетма-кет фожиали кўргуликлар рухий таъсири сабаб ҳаётдан кўнгли қолади. Ўзини ўзи боқишдек мураккаб иш бошига эрта тушганлигидан оч қолиш кўркуви олдида эсанкирайдиган бўлади. Тўракул яна ўзи сезмаган ҳолда хаёлчан, зикна, шафқатсиз бўлиб қолади. У ўзини англолмайди. Ўзлигини йўқотиб, сояга ўхшаб яшайди. Бир ўринда у ифвогар қиёфасида намоён бўлади. Тўракул ҳатто яқин қўшнилари устидан ифво хатлар ёзади. Уларнинг ота-онасини ҳам хатга қистириб ўтади.

“Бир ҳовуч ушоқ”да намозхон қилиб кўрсатилган Тўракулнинг ичувчи қиёфасида берилиши унинг ҳали ўзлигини белгилаб олмаганидан яна бир даракдир. Қиссадаги “Ўзимни ушлаб турибман” ҳикоясида тасвирланганидек, баъзи эркаклар бошига мусибат тушса, ғамни кўтаролмай, иродасизлик қилиб, бирор чекимлиқ (сигарет ёки носвой) ёхуд ичимликка ружу кўйиши айтиладики, бу ҳам ҳаётгий далилдир. Ёки “Пешона тери” ҳикоясида одамзотнинг қийинчилик билан топилган пулини арзимаган ичкиликбозлик йўлига ачинмай сарфлашига ачиниш, “Бир томчи сув” ҳикоясида пул топишнинг машаққатлари, пулга берилишнинг иллатлари ҳақида ёзувчининг мулоҳазалари, фалсафий фикр-ўйлари баёнига дуч келиш мумкин.

“Бақатерак” ҳикоясида “Тортиб тортиб есанг той ортади, кўркиб-кўркиб есанг кўй ортади” деган мақол орқали Тўракулнинг зикна феъли ёритилади. Айниқса, “Бир ҳовуч ушоқ” ҳикоясида унинг зикналиги янада бўрттириб тасвирланган. У хотинини дастурхонни қоққани учун аёвсиз савалайди.

“Бақатерак” ва “Орзу, хаёл, хаёл...” ҳикояларида Тўракулнинг пулга муносабати акс эттирилади. Унинг тилидан пул топиш илинжида чиқинди титувчилар, бозорларда арава тортувчилар кўпайиб кетганидан нолиш мотиви келтирилиши ҳам аслида ҳозирги ҳаётгий муаммолардан биридир.

Асарда ёзувчи халқ тилидаги сўзлардан ниҳоятда ўринли ва кенг фойдаланган. Унда халқ тилига хос эвош, яламир, шумшук, баҳаннови каби сўзлар, русча ходовой, раз сингари жумлалар учрайди. Айниқса, асарда “Борники бежоғлик, йўқники ночорлик”, “Кар ўзини овулар, қўлтиғини совулар”, “Ёртимаган қиз ёлчимаганга тушар”, “Ўлмаган қулнинг кўргилиги тугамас”, “Оталик етим – қул етим, оналик етим гул етим”, “Етим қизга елпиғичнинг нима ҳожати бор”, “Тотли хаёл шартаки шапалоқдан яхшироқ”, “Шафқатсиз ҳақиқатдан кўра ширин ёлфон дармон”, “Ўлимлик умрингизга умр сўрайди”, “Кўтир отни емга ўргатсанг тўрва тешади”, “Қашшоқнинг машшоғи кўп бўлар”, “Оч баччағардан қоч баччағар” каби жуда кўп халқ мақоллари

келтириб ўтилган. Ҳатто буъзи ўринларда халқ мақолларининг мазмуни сақланиб, шакли сал ўзгартирилган. Масалан, асарда Тўракулнинг тилидан “Қаловини топсанг қор ёғар” мақоли “Қалови кўлимда, қорни ҳам ёкиб, қоронғи йўлларингизни ёритиб бераман” тарзида ишлатилгани кузатилади. Ҳатто ёзувчи “Текиннинг шўрваси татимас” мақолини қисса таркибидаги ҳикоялардан бирига сарлавҳа сифатида танлаган.

Шунингдек, асарда халқ ибораларидан ҳам ниҳоятда усталик билан фойдаланилганлигига гувоҳ бўлиш мумкин. Жумладан, “Соясига салом бермоқ” иборасининг моҳияти асосида “Соя” ва “Соянинг хиёнати” ҳикояларида ўзига хос тасвирлар яратилган. “Соянинг хиёнати” ҳикоясида “Бошга тушганни кўз кўрар” мақоли келтирилиши баробарида халқ орасида бошга нисбатан ишлатиладиган “хом калла”, “пўкак бош” “қовоқ бош”, “шовир-шувур кути”, “чала чипқон” ибораларидан фойдаланиб, бош сифатланган.

Қиссада “Қарғиш” сарлавҳали қисм ҳам бор. Унда сағир Қумри эри Тўракулни ноҳақ урганлиги туфайли “шумшук ўлгур”, “кўкармай кўк йўталга чалингур” дея оғриниб қарғаши тасвирланади. Яна асар таркибида қайнонанинг келинини, Қумрини боқиб олган Холбу теракнинг Қумрини қарғаши келтирилганки, бу билан муаллиф асар тилини халқ тилига яқинлаштиришни, қисса тасвири реаллигини кучайтиришни кўзда тутгани аниқ. Қолаверса, қисса таркибида қарғишлардан ташқари уларга мазмунан ва моҳиятан зид бўлган олқишлар ҳам келтирилган. Жумладан, асарда келин қилиб ўзга хонадонга узатилаётган Адол опага айтилган “Борган жойингда туп кўйиб, палак ёзгин! Серфарзанд, сердавлат бўлгин! Қўшгани билан кўша қаригин!” олқиши, “Бировнинг кўлига қаратгулик қилмасин, Худойим ҳар кимнинг ўзига берсин, зуваласини ортиқча қилсин” эзгу нияти бу жиҳатдан эътиборлидир.

Қисса таркибидаги мўъжазгина “Дарахтлар тик туриб ўларкан...” ҳикояси халқнинг эътиқодий кузатувлари асосида айтиладиган ҳикмат билан боғлиқ. Айтишларича, мевали дархтлар эгаси – боғбон ўлса, қурир экан. Бунда шунга ишора бор. Шунинг учун ўлик чиққан хонадонда, одатда, мевали дархтларга латта боғлаб чиқиш одати ҳозиргача сақланган.

“Жимжит жолалар” бағрида яна бир қатор фольклоризмлар учрайдики, улар насрда қўлланган бу каби адабий ҳодисаларни ўрганишда манба бўлиб хизмат қила олади. Масалан, Тўракул болалигида бобосидан эшитган ва доимий хиргойи қилиб юрадиган “Ҳей-ё, хо, ёронлар” кўшиғи, эккан бақатерагининг худди эртак қаҳрамонлари сингари соат ва кун сайин ўсиши тасвири, “Оқ теракми – кўк терак, биздан сизга ким керак”, “оқизоқ”, “ланка”, “зув-зув”, “бекинмачоқ” сингари болалар халқ ўйинлари талқини, туш мотиви келтирилганки, улар орқали нафақат асарнинг бадий таъсирчанлиги ортишига,

балки унинг халқчиллиги ошишига ҳам эришилган. Шу асосда қисса таркибидан ўрин олган, ўйин жараёнида айтиладиган “Топган топалоқ, тополмаганга кўйдан қумалоқ”, ўйин якунида айтиладиган “Уй-уйига, тепа тўйига” айтимлари халқимиз турмуш тарзи билан боғлиқлиги, миллий бўёқдорлиги билан эътиборни тортади.

Шунингдек, асарда келтирилган дастурхончи ва гўянда Ҳожар хола образи ҳам халқчиллиги орқали алоҳида диққатни тортади.

Асарда “Йўқчилик курсин” ҳикоясидаги “Одамхўр ботқоқ бу – қашшоқлик экан”, “Ишончининг ўлими” ҳикоясидаги “Кўнгли ҳувиллаган ҳамёнидек бўм-бўш” деган ўзига хос ўхшатишлар, “Мечкай” ҳикоясидаги қорнидан бошқа ғами йўқ “шкаф-одам” деб сифатланган беўхшов киши тасвири бетакрорлиги билан эътиборни жалб этади.

“Соя” ҳикоясида сажъдан фойдаланилган. Шу ҳикояда соя ҳақидаги халқ топишмоғи асосида соя “Урса – урилмаса, тепса – тепилмаса. Қопга солиб сувга чўктираман деса ҳам чўкмайди. На отилади, на йўқолади” тарзида сифатланган. Соя – семиз соя – серсоқол семиз соя тарзида ҳам сифатланиб, аллитерация ва тадриж санъатлари уйғунлигида тасвир этилган.

Н.Раҳимжоновнинг “Жимжит жолалар” китоби шу номдаги қиссадан ташқари “Синган умр синиқлари” деб номланган эсселар туркумини, бир неча замонавий эртакларни ва ёзувчи ёшлигиданоқ бобо-бувиси, ота-онасидан эшитиб, ўз кўнглига нақшлаб келаётган ҳикматомуз, мақолнома ўғитлар – дилбитикларни ҳам таркибига қамраб олган. Шу асосда мазкур китоб тўрт қисмдан ташкил топган.

“Синган умр синиқлари” эсселар туркуми қайси бир жиҳатлари билан шоира Зулфия Исроилованинг “Хотирам синиқлари” достонига ҳамоҳанглик касб этади. Эҳтимол, номи биландир, балки қатағон воқеалари билан туташлиги жиҳатидандир?! Негаки, туркумдаги “Аллоҳнинг қаҳри” ҳикояси қатағон даври сиёсати туфайли отасидан ажраган, уруш кулфати сабаб гулдек йигитлик даври завқидан маҳрум бўлган, ёш боши билан ҳадсиз-ҳисобсиз азобларга гирифтор этилган, қанчадан-қанча бегуноҳ инсонларнинг фожиали қисмати, аянчли ўлимини ўз кўзи билан кўрган, босқинчи мустабид тузумнинг адолатсизликларига тилсиз гувоҳ бўлган Нажиб отанинг тилидан баён этилган.

Китобнинг “Замонавий эртаклар” қисми бир неча эртак ва масаллардан таркиб топган. Улардан бири бўлган “Шажара илдизлари” ҳикоясида халқ эртакларига хос эврилиш мотивидан ижодий фойдаланилган бўлса, “Эгри ва Тўғри” шу номдаги эртакдек гўё. Лекин у ўзига хослиги билан фарқланиб туради. Унда Эгри ва Тўғри билан бир қаторда Олов ва Сув ҳам бош қаҳрамон сифатида талқин этилган.

“Момақалдиروقнинг ўғил-қизлари” эртаги афсонага ўхшатиб ёзилган. Чунки у эртак сингари “Бир бор экан, бир йўқ экан” тарзидаги бошлама билан эмас, афсоналар каби “айтишларича” деган таъкид билан ибтидо топган. Мазкур асар Чимён бобо ҳақида бўлиб, у худди афсонавий улкан одам – Одами Од янглиғ боши булутларга етган кўринишда тасвир этилган.

Китобнинг сўнгги саҳифалари “Дилбитиклар” номи билан туркумланган “Туш – тимсол”, “Томчилар, томчилар”, “Тупроқ иси” қисмларидан иборат. “Туш – тимсол” қисмида муаллиф ўзининг, онасининг, синглиси Заҳронинг ҳамда ўғли Масрурнинг тушларини келтирган ва улардаги тимсоллар талқинига алоҳида эътибор қаратган.

Дилбитикларнинг “Томчилар, томчилар” қисмида муаллифнинг ота-онасидан мерос бўлиб қолган ақлни чархловчи “қайроқ фикрлар” ўқувчилар эътиборига ҳавола қилинган. Қимматлилиги, таъсирчанлиги билан ёддан чиқмайдиган бу каби дилбитиклар, одатда, кўпчиликка мерос бўлиб қолган, лекин шуларни ҳафсала қилиб қоғозга туширадиганлар кам топилади. Бу ҳам аслида ота-онага, аجدодларга ҳурмат ва садоқатнинг ўзига хос бир кўриниши, деб биламан. Халқ мероси таркибидан ўрин олишга арзигулик бу каби ҳикматлар ҳар бир инсонни уйғоқликка, ҳушёрликка чорлаши билан қадрли ва баҳосиздир. Шунини инобатга олиб, Н.Раҳимжоновнинг бу дилбитиклари ҳақида биздан олдин фикр юритган Хуршид Дўстмуҳаммад уларни “авлодлар занжирининг олтин халқачаларини янада мустаҳкамлашдир” дея гўзал эътироф этган.

Хуллас, Н.Раҳимжоновнинг “Жимжит жолалар” асари ўзбек халқ эртакларида “Кулса – гул, йиғласа – дур” дейилганидек, жола бўлса-да, инжу янглиғ. Шунинг учун уни ўқиган китобхон кўнгли бойийди.

ИЛМНИНГ ҚЎЙНИДА ЯШАГАН ИНСОН

Кубаев Қобил Умарович
Ренессанс таълим университети
Филология фанлари номзоди, доцент
Tel: 94-221-86-67

**Ҳар қадамда учрар минг одам,
Минг қадамда учрар бир инсон.**

Бу фоний дунёда ҳамма нарса ўткинчи: орзу ҳавас ҳам, мол-дунё ҳам, истак ва хоҳишлар ҳам ўзининг интиҳосига эга. Яъни бугун муҳим деб қараладиган масалалар бир кун келиб ўз долзарблигини йўқотиши табиий. Бугунги қаҳрамонимиз ҳаёти вақт синовидан ўтгач тарих номини олишга мажбур. Ҳатто, инсон деб аталмиш олий мавжудот ҳам ўз умрининг чегарасига эга. Демак, одамдан, бу фоний дунёни тарк этгач, фақат хотира, қилган улўғ амаллари ва яхши номи қолади, холос. Бироқ инсоннинг ёди боқий, қадри улўғдир. Халқимизда шундай нақл бор: “Ҳар қадамда минглаб одамлар учраши мумкин, бироқ, минг қадамда бир инсон учрайди”. Авлодлар шундай инсонларни эсласа, хотирласа, уларнинг шаънига яхши гап айтгудек бўлса, ҳамиша хайрлидир. Зеро, Мир Алишер Навоий бобомиз айтганидек:

**Кимки бир кўнгли бузукнинг хотирин шод айлагай,
Онча борким Каъба вайрон бўлса, обод айлагай.**

яъни, кимки бир меҳрга муҳтож, кўнгли ўксик одамга ёрдам берса, ёки ўтганларни хотирласа, вайрон бўлган Каъбани қайта тиклаб, уни обод қилишдек улкан савобни олади дейди.

Ана шундай инсонлар ҳақида сўз кетганда мен алоҳида меҳр ва муҳаббат, ҳурмат ва эҳтиром билан эслайдиган азиз кишиларимдан бири – филология фанлари доктори, профессор Нўмон Раҳимжонов. Бугун домламизни ёд этаётганларнинг ҳаммаси ҳам ана шундай савобдан баҳраманд бўлаётир десак, айни муддао.

Мен ҳам домла билан чорак аср устоз-шогирд бўлиб, бир биримизга анча яқин, синашта бўлиб қолганмиз ҳақида, қисқача, ўз хотираларимни қоғозга туширишга қарор қилдим. Шу йиллар мобайнида одамзоднинг қандай камтар, камсуқум бўлишини, шунингдек, шогирдларига, илм аҳлларига, илмга, оиласига фидойи бўлишини шу одамда кўрганман, десам хато бўлмаса керак.

ЎҚИТУВЧИЛИКДАН ИЛМГА

1993 йили Гулистон давлат университети Илмий кенгашининг қарори билан Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академиясининг Тил ва адабиёт институтига стажёр-тадқиқотчиликка жўнатиладиган бўлдим. ГулДУдаги устозларим у ердаги шарт-шароит ва илмий жамоатчилик, устоз домлалар ҳақида ўзларининг фикрларини айтишиб, мени улар билан таништиргандай бўлишди. Боргандан кейин, албатта, расмий ҳужжатларни тайёрлаб, сўнг асосий иш – илм билан шуғулланиш, асосий кучни шунга қаратиш лозимлигини қайта-қайта уқдиришди. Албатта, Марказдаги катта олимлар, илмий муҳит ҳақида эндигина институтни битириб, икки йил нари-берисида ишлаган ёш ўқитувчи учун буларнинг бари баланд тоғнинг чўққисидек бир гап эди. Кўч-кўронни йиғиштириб, қайдасан Тошкент, деб марказга қараб йўл олдим.

КАТТА ИЛМ ДАРГОҲИДА

Институтга келиб, биринчи учрашган одамим устоз Нўъмон Раҳмижонов бўлган. Қаерга киришни билмай, ҳар бир эшикка қараб, адашган одамга ўхшаб юрган бўлсам керак рўпарамдан келаётган одам: “Кечирасиз, кимнидир қидиряпсизми?” – деб сўради. Мен, бир оз довдираганнамо оҳангда, шу ерга стажировкага жўнатишганимни айтдим. Иккинчи қаватдан у киши мени тўртинчи қаватга бошлаб чиқди. Хонага киргандан сўнг, қаердан келганимни, қанақа мавзуда илмий иш олиб бораётганимни, илмий раҳбарим кимлигини сўради. Илмий раҳбаримнинг исми шарифини айтишим билан Нўмон аканинг кайфияти кўтарилгандай бўлди. Кейин билсам, иккаласи ТошДУ (ҳозирги Миллий университет) Филология факултетининг бир гуруҳида таҳсил олишган экан. Домла хотиралари ҳақида бир оз гапириб бергач, қайси бўлимда стажировка ўташимни сўради. Мен бу даргоҳда қанақа бўлимлар борлигини билмаслигим, диссертациямнинг мавзуси қайси бўлимга тўғри келса, ўша бўлимда ўташимни айтдим. Гулистон давлат университетининг мавзу тасдиғи тўғрисидаги Илмий Кенгаш қарори ва тегишли ҳужжатларни ҳам тақдим қилдим. Устоз пешиндан кейин, институт раҳбариятига айтган бўлса керак-да, дарров бўлимларнинг қўшма йиғилишини ташкил қилишди. Йиғилишда республика адабиётшуносларининг дарғалари: Наим Каримов, Ғаффор Мўминов, Абдуқодир Ҳайитметов, Ҳафиз Абдусаматов, Азиз Қаюмов, Эрик Каримов, Нўъмон Раҳимжонов (ўтганларининг охиратлари обод бўлсин) каби яна бир қатор таниқли олимлар иштирок этишди. Кўрилатган масала фақат менга тегишли эди. Йиғилишда

Нўмон ака сўзга чиқиб, илмий ишим, ишлаётган таълим муссасам, илмий раҳбарим ҳақида, ҳаммасини олдиндан билгандай, маъруза қилди. Яна уч тўртта олим муҳокамага қўшилишди. Шундан сўнг қарор қабул қилиниб, менинг бундан кейин қайси бўлимда фаолиятимни давом эттиришим ва диссертациям мавзусининг тасдиғи ҳам бир пасда ҳал бўла қолди.

Стажёр-тадқиқотчиликни Нўмон Раҳимжонов ишлаётган бўлимда бошладим. Бир йиллик режа қилдик. Уларни бажариш бўйича аниқ вақтни белгиладик. Ишлар бошланиб кетди. Домла ҳар чоршанба куни мендан, бажарилган ишлар юзасидан, ҳисобот талаб қилади. Режа асосида, ҳаммаси яхши бажариляпти. Тез орада, деярли, ҳамма устозлар билан танишиб олдим. Институтимиз аспирант ва стажёр-тадқиқотчилари билан ҳамкорлик қила бошладик. Илмий раҳбарим Гулистонда. Тез-тез бориб, раҳбар билан учрашишга имкон йўқ. Келиб кетишга техника кам. Иқтисодий аҳвол ҳам ўзига яраша. Ўша пайтларда менга, вилоятдан келган тадқиқотчига, аниқ йўл-йўриқ кўрсатиб турадиган устоз керак эди. Шунда Нўмон Раҳимжонов ана шундай масъулиятни уз зиммасига олган эди. Домла ҳамма шогирдларига бир хил талаб: вақтни беҳуда ўтказмай қаттиқ ишлаш кераклигини қайта-қайта уқтирарди. Энг асосийси, илмда нималарга қаттиқ амал қилиш кеаклиги, мавзу юзасидан, режа асосида, боблар устида қандай ишлашни эринмасдан ўргатар эди. Шу давр мобайнида домла мени катта илмий муҳитга олиб кирди. Илмда тизимли ишлашга ўргатди, шунингдек, энг асосийси, илмнинг одами қандай бўлиши кераклигини уқдирди.

Бир йил ҳаш-паш дегунча ортда қолди. Диссертация ҳам бир оз шаклланиб қолди. Бу орада номзодлик имтиҳонларини топширдим. Мен устозга: "Мени Гулистон давлат уиверситетида очилган аспирантурага чақиришаяпти", - дедим. Домла ишни тез орада яқунлаб, олиб келишимни айтди ва оқ йўл тилаб, кузатдилар.

АСПИРАНТУРА САБОҚЛАРИ ВА УСТОЗ ЎГИТЛАРИ

Аспирантурада ўқиб юрган кезларим Нўмон акани Гулистон давлат уиверситетига, ўзига яқин бўлган дўстлари, "Ўзбек адабиёти" кафедраси аъзолари, танлов фанидан маъруза ўқишга таклиф қилишди. (Ўша пайтдаги кафедра мудиримиз, таниқли адабиётшунос олим - Умрзоқ Ўлжабоев марказнинг нуфузли олимларини кафедрамизга, маъруза ўқиш учун, тез-тез таклиф қилиб турар эди). Бу таклифни домла бажонидил қабул қилди. Чунки бу ерда устознинг курсдошлари, таниқли олимлар: Акрам Тошбекович Каттабеков, Умрзоқ Ўлжабоев (жойлари жаннатдан бўлсин), шунингдек,

шогирдлари ҳам бор эди. Мен эса шу кафедранинг аспиранти эдим. Домла ҳафтасига бир марта келиб, Замонавий ўзбек шеърляти ва прозасидан машғулотлар олиб борар эди. Устознинг дарсларига кириб кузатиш асносида кўп нарсаларни ўрганар эдик. Ҳар қандай мавзунини домла енгил тушунтирар, талабаларда тушунмаган ўринлар қолмагани учун ҳам саволлар, деярли, бўлмасди. Дарсдан кейинги суҳбатлар шогирдлар билан давом этарди. Илмий ишимдан анча хабардолиги боис устоз кўплаб маслаҳатларини берган. Ҳатто, диссертациямнинг хомаси нусхасини ўқиб, тартибга солиб ўам берган. Ўша пайтда кафедра аъзоларидан: Обида Файзуллаева, Гулчеҳра Қўйлиева, Маҳмуджон Суяров ва Дилноза Тўраевалар домланинг илмий раҳбарлигида ишлаётган тадқиқотчилар эди. Домланинг самарали меҳнатлари туфайли шогирдлар бирин-кетин фан номзодлари бўлишди. Ҳозирда улар Сирдарё илмий муҳитини яратаётган, белгилаб бераётган етакчи олимлар ҳисобланишади.

Нўмон Раҳимжонов ўзини: “Мен Гулистон давлат университетининг профессориман”, - дер эди. Ҳақиқатан ҳам устоз ГулДУда маърузалар ўқиб юрган кезларида кафедрадан хужжатларини тўплаб ОАКга жўнатишган. Натижали илмий-тадқиқотлар олиб борганлиги, кафедра профессорлиги, кўплаб фан номзодлари етиштириб чиқарганлигини ҳисобга олиб профессор илмий унвонига лойиқ, деб топишган.

Шунинг учун Нўмон Раҳимжоновнинг узок йиллик ўқитувчилик фаолияти Гулистон давлат университетининг “Ўзбек адабиёти” кафедраси билан боғлиқ, деб бемалол айтишимиз мумкин.

НОМЗОДЛИК ҲИМОЯСИ – КАТТА ИЛМГА СТАРТ

Диссертациямни ўзим ишлаган ГулДУнинг “Ўзбек адабиёти” кафедрасида муҳокамадан ўтказиб, яна Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академиясининг Тил ва адабиёт институтига келдим. Илмий раҳбарим Акрам Каттабеков вафот этган. Ҳимояга илмий раҳбарсиз чиқяпман. Шунда институт раҳбарияти: “Иккинчи раҳбар қилиб Умрзоқ Ўлжабоевни қўйсангиз бўлади”, - дейишди. Шундай қилдик ҳам. Институт директори Тўра Мирзаев: “Ҳозир ҳамма жойда кенгашлар ўз ишини , вақтинча, тўхтатган. Улар иш бошлагунча, сиз илмий семинарлардан ўтиб келаверинг”, - деди. Ҳамма устозларнинг қўллаб-қувватлашлари билан иш тез орада ҳимояга чиқадиган бўлди. Нўмон Раҳимжоновни Кенгаш бир овоздан илмий ишимга эксперт қилиб тайинлабди. Яхши хулоса олингач, ҳимоя куни белгиланди. Халқимиз: “Улкан дарахт катта

соя беради”, - деганларидек, катта олимларнинг ҳам бағрикенг бўлар экан. Мен улардан, бир умр, миннатдорман.

Ҳимоя мувафақиятли ўтди. Шунда устоз ёнимга келиб: “Катта ишни бирга давом эттирамиз, раҳбарингиз Акрам Тошбековичнинг ҳам руҳлари шод бўлади”, - деди. Бир оз муддат ўтгач, домла менга “Мустақиллик даври ўзбек адабиётида эпик жанрлар типологияси” мавзусини тавсия қилди. Манбаларни ўрганиб чиққач, рози бўлдим. Диссертация режасини биргаликда ишлаб чиқдик. Иш бошланиб кетди. Тўғриси айтиш керак, менинг ўзим бу борада анча сусткашликка йўл қўйдим. Бирин-кетин вояга етган фарзандларимнинг ўқиши, оила қуриши, уйли-жойли бўлиши, ҳар хил раҳбарлик лавозимлари – ишнинг пайсалга солинишига сабаб бўлди. Албатта бундай гаплар дангаса одамнинг баҳонаси, деса ҳам бўлади.

Домла шундай кунларнинг бирида кўнғироқ қилиб, тайёрлаган материалларимни олиб келишимни айтди. Иш анчайин тўхтаб қолган, домлага нима ваз кўрсатаман, деб айтган нарсаларини олиб келдим. Домлага учрашсам, салом аликдан кейин даб-дурустан: “Сизни Тошкентга олиб келиб ишлатмасам, бўлмайди, шекилли. Кўздан нарида дангасалашиб кетяпсиз”, - дедилар. Олиб келган материалларим ва домланинг битикларини қўшиб, китоб тайёрладик. Китобни Сирдарёнашриётга берганмиз, Сирдарё шаҳри Гулистон билан Тошкентнинг ўртасида жойлашган. Домланинг кўнгли тўлмади шекилли, “Нашриётга бориб, китобни қайта ўқиб чиқамиз”, - дедилар. Учрашдик, меҳмонхонага жойлашиб, икки кун, мутахассисларни жалб қилиб, хатоларини тузатдик. Устознинг кўнгли тўлди, шекилли: “Бу қилган ишимиз бошқача бўлди. Агар китоб хатоликлар билан нашр қилинганда биз, филологларни ўқувчи кечирмас эди. Сиз ҳар доим мана шу гапларни ёдда тутинг ва ҳеч қачон эринманг, амал қилинг”, - деган гапларни айтгани ҳамон қулоғим остида жаранглаб тургандай бўлади.

Шундай қилиб, устоз билан ҳаммуаллифликда “Тарихий қиссалар ҳақиқат излайди” номли монографиямиз 2005-йил “Адолат” нашриётининг грифи билан Сирдарё шаҳридаги нашриётларнинг бирида чоп этилди. Катта ишлар ҳам анча силжиб қолди.

МОСКВА САФАРИ ТААССУРОТЛАРИ

Домла бир иш бошласалар, албатта, унга сидқидилдан, масъулият билан ёндашар эдилар. Мавзу танлаб, китоб ё мақола ёзмақчи бўлса мавзуга алоқадор манбаларни (у қаерда бўлишидан қатъий назар) тўплаб, уларни синчиклаб

тахлилдан ўтказиб, якуний қарорга келиб кейин ёзишга ўтирар эдилар. Шундан бўлса керак устознинг ёзганлари, ҳамиша, ўқимишли ва залворли бўлар эди.

Бир куни устоз: “Мен иккита китоб ёзишни мўлжаллаяпман. Бунинг учун Москвага – Россия Федерациясининг миллий кутубхонаси, Максим Горький номидаги илмий-текшириш институти ҳамда Москва давлат университетига илмий сафар билан бормоқчи бўляпман”, - деб қолди. Менинг ҳам бориш ниятим борлигини айтдим. Фикримиз бир жойдан чиқиб, бирга борадиган бўлдик. Хужжатлар расмийлаштирилди, хатлар тайёрланди. Хуллас, домла билан Москвадамиз. (Боришимиздан бир ҳафта олдин мен уларни огоҳлантириб қўйгандим) Бизни мезбонлар кутиб олишди. Домланинг кайфияти кўтарилиб, “Баланд йигитлар экан мезбонларимиз”, - деб қўйди. Улар бизни олиб бориб жойлаштиришди ва нима керак бўлса, бемалол мурожаат қилишимизни айтишди. Ўша куни дам олдик.

Эталаб: “Устоз, ишни нимадан бошлаймиз, режа тузиб олайлик”, - дедим. Биргаликда Москва давлат университетига борадиган бўлдик. У ерда бизни “Халқаро муносабатлар” проректори кутиб олди. Биз билан танишгач, ёрдамчиларини чақирдида, бизга нима керак бўлса ҳаммасига рухсатнома тайёрлашларини, ётоқхонадан жой ажратишларини айтди. Университет, факултетлари кутубхоналарига кириб ишлаш учун шароит қилиб беришди. Ҳамма хужжатлар пешингача тайёр бўлди. Ишни бошлаб юбордик. Кечқурун қайтишда домла болаларча хурсанд булиб: “Яхши ният билан келган эдик, биринчи кунданок ишларимиз юришиб кетди, илмнинг қудратини кўрдингизми?”, - дедилар. Албатта, менинг ҳам бошим осмонда эди.

Эртаси куни Россия Федерациясининг миллий кутубхонасига бордик. Қўлларимиздаги хатни кўрсатишимиз билан, дарров, рухсатнома тайёрлаб беришди. Ичкарига кирдик. Маҳобатли кутубхона. Кўриб кўзинг қувнайди. Одамларининг кириб-чиқишини кўринг, кети узилмайди. Нўъмон ака иккинчи қаватга кўтарилаётиб, бироз тўхтаб қолди. Кейин: ”Кўряписизми, Қобилжон миллатнинг даражаси мана шу билан белгиланади”, - деди, китобга ташна одамларни кўрсатиб. Кўнглимда бир орзиқиш пайдо бўлди. Бу ерда ҳам ишлар юришиб кетди. Қай тахлит унумли ишлаш кераклигини ўргатдилар.

Учинчи куни Максим Горький номидаги илмий-текшириш институтига бордик.. Сўнгги даврда нашр қилинган илмий асарлардан харид қилдик. Устознинг танишлари билан суҳбатлашдик, ташрифимиздан мақсадни айтдик. Домла шу ерда ҳам, илмий жамоатчилик билан, кўп нарсаларни режалаштирдилар. Ҳафтасига бир маротаба келиб туришга ваъда бериб, бу ердаги кўнгиллаган ишларимиз ҳам ижобий ечим топди. Қилинажак ишлар шу тахлит, режа асосида, давом этди.

Якшанба кунларини Катта шаҳарни айланиб, маданий ҳордиқ чиқариш, янги-янги таассуротлар олиш, китоблар харид қилишга ажратадиган бўлдик. Домла оилада ёлғиз ўғил бўлганиданми, рўзғор ишларига унчалик аралашмаган, уйлангандан сўнг ҳам, домла кўпроқ илм билан машғул бўлган. Харид ишлари билан янгам (биз томонларда шундай аташади) шуғулланган эканлар. Шу билан устознинг бемалол ўз ишлари билан машғул бўлишлари учун шароит яратиб берган, бўлса керак.

Якшанба кунларининг бирида домла: “Кеннойингиз дазмол олинг, деган эди. Танлашга ёрдам бериб юборасиз”, - деди. Танлашга имконият катта. Қанақасидан олишимизни айтсам ”Кеннойингиздан бир сўрай”, - деб Тошкентга кўнғироқ қилдилар. Салом-алиқдан сўнг: “Қобилжонга тушунтиргин”,- деди. Янгам раҳматли: “Кўрдингизми, домлангиз Москвада туриб ҳам мендан маслаҳат сўрайдилар”, - деб ҳазиллашдилар. Дазмол, янгам айтганидай харид қилинди. Устоз: “Бу ишимиз кўнгилдагидай бўлди”, - дедилар, хурсанд бўлиб.

Китоб харид қилиш учун дўконларга кирсак, камида икки соат, қолиб кетардилар. Мен ҳазиллашиб: “Китоб танлашда янгамдан маслаҳат олмадингизку”, - десам домла: “Бу масалада кеннойингиз мендан ўргансин”, - дер эди мийғида кулганича.

Сафаримиз қариб, қайтаётганимизда иккалаимизда ҳам бир қопдан қоғозимиз бор. Аэропортдагилар қопда нима борлигини сўрашганида, домла шундай тушунтирдик (тўғриси, мен бироз нарида бўлганлигим учун уларнинг гапларини эшитмадим), назоратчилар қўлларини кўксига қўйиб, мамнуният билан, бизга оқ йўл тилашди.

СЎНГГИ МАНЗИЛГА КУЗАТИШ

Тошкентга йўлимиз тушса, шогирдлар биргалашиб, домлани кўргани уйига борамиз. Ташрифимиздан устознинг бошлари осмон қадар юксалади. Янгамизнинг эса доимо қозонида овқати, тандирида сомсаси тайёр туради. Биргаликда гурунг қиламиз. Кимнинг қандай муаммоси бўлса, баҳоли қудрат, ҳал қиладилар. Яхши таассуротлар билан қайтамиз.

Сўнгги йилларда домла кўп айрилиқларни бошидан ўтказдилар. Албатта, бундай нохуш ҳолатлар домланинг соғлигига ҳам таъсир қилмай қолмади. Шундай пайтларда ҳамкасблар ва шогирдлар билан устознинг ёнида бўлишга ҳаракат қилдик. Оқибатда домланинг ўзлари ҳам вафот этдилар. Сўнгги йўлга кузатаётганда, масжид ёнида устознинг тобути олдида туриб, азиз инсонимизни йўқотганимизга ўкиниб, жойлари жаннатдан бўлишини Янаргандан сўрадик.

Домламиз ҳаёт бўлганларида кутлуғ **80** ёшлигини нишонлаётган бўлар эдик. Афсуски бу улуғ инсон энди орамизда йўқ. Лекин бизга таскин берадиган бир нарса борки, устознинг битиклари, илм аҳлининг, қалбида мангу яшайди. Охиратлари обод бўлсин.

USTOZ IZIDAN ZIYO ISTAGAN SHOGIRDLAR

Qo'zliyeva Gulchehra Nazarqulovna,
Guliston davlat universiteti
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent
Tel: 91 103 68 76
E-mail: kuylieva.g@mail.ru

Oliy dargohdagi talabalik davrimga ham anchagina yillar o'tib qo'yibdi. Adabiyotga bo'lgan mehr, yangi chiqqan badiiy asarlarga tashnalik maktabdayoq shakllanib ulgurgan edi. Adabiyot o'qituvchimizning maroqli dars o'tishi va she'rlarni ifodali o'qishi qiziqtirgani, uyimizda opa-akalarimiz o'qigan badiiy asarlarni yashirincha o'qishga harakat qilganlarimizmi, balki qattiqqo'l onajonimning "ko'chada ertadan-kechgacha sakrab, o'yindan bo'shamasdan, qo'lingga kitobingni ol" degan gaplari kor qilibmi, o'qishga tutinganimiz sabab bo'lib, kitobga bo'lgan mehr tobora muhabbatga aylanib ulgurgan bo'lsa ne ajab. Filologiya sohasida o'qishga topshirganimga sabab, bu yo'nalishda katta opamning ham o'qiyotgani turtki bo'lgan deb o'ylayman. Keyinchalik oliy dargohdagi mutaxassislik bo'yicha mustaqil o'qiladigan adabiyotlarni paydar-pay o'qishlarimiz bizga inson bo'lib shakllanishimizda eng kerakli bo'lgan sabr-bardoshni, rostgo'ylik, chidamlilik, eng asosiysi, hayotga muhabbat va undan zavqlanib, yaxshilik izlab yashashni o'rgatgan ekan aslida. O'qib chiqqan asarimizni kursdoshlar o'rtasida qizg'in muhokamaga bo'ishi, tortishib - bahslashish, har bir talaba asar haqida o'z mustaqil fikrini ayta olishga ega bo'lishni o'rgatgan ustozlarimizga shogird sifatida minnatdorligimni aytishni istardim.

O'qishni bitirishda yozgan diplom ishinni ustozlar yuqori baholashgan edi. Shu sababli unga yaqin mavzu tanlash va ilmiy rahbar tayinlashda mendan bir kurs yuqorida o'qib, aspiranturani bitirib, o'zbek adabiyotida tarixiy qissalar mavzuida nomzodlik ilmiy ishini himoya qilgan, Guliston davlat universitetining ko'zga ko'ringan adabiyotshunosi, dotsent Qobil Ko'bayev bilan maslahatlashib, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi o'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti professori, filologiya fanlari doktori, No'monjon Karimovich Rahimjonov huzuriga 2009 -yil avgust oyida keldik. Ustoz bilan suhbat asnosida shuni bildimki, domla har qanday soha, ayniqsa, o'zbek adabiyotining barcha yonalishlari, janrlarida yaratilgan va yaratilayotgan asarlardan boxabarligi, tadqiq qilinmagan yonalish – o'zbek adabiyotida epik asarlardan tarkib topgan romanlar uchligi – trilogik asarlar ustida ish boshlashim ma'qul bo'lishini, bu mavzuda izlanishlar olib borilmayotganligi, hali qanchadan - qancha asarlar tadqiqotchilarini kutib yotganligini gapirdilar. Ilm qilishning mashaqqatlari haqida, bu yo'lda sabrli bo'lishni maslahat berish bilan birga ko'plab jahon va rus, o'zbek adabiyotining

ko'zga ko'ringan olimlarining ilmiy va nazariy asarlarini o'qib-o'rganishimni tavsiya qildi.

Dunyo adabiyotida mashhur asarlar yuzasidan qilingan shu mavzudagi izlanishlar, bu sohada qaysi adiblar asarlariga ko'p murojaat qilinganligini tekshirish va ishni eng avvalo xalq og'aki adabiyoti tarixiga bog'lab tekshirish, epic asarlarning ildizi eposlarga, xalq dostonlariga borib taqalishini va ishning nazariy qismini pishiq yozishim uchun nazariyani mustahkam o'rganishim maqsadga muvofiqligini qayta-qayta ta'kidalganlari ko'z oldimdan hozirgidek o'tib turibdi. Dissertatsiya ishimda ham "...eposlardagi mavjud turkumlilik xususiyatining ba'zi poetik unsurlari trilogiya tarkibidagi bu kabi jihatlarda ham ko'zga tashlanishi uning ildizlari eposlar mazmun-mohiyatida mavjudligini anglatadi" kabi xulosalarga kelishimizga asos bo'ldi.

No'monjon Karimovich menga dissertatsiyamning nazariy qismi bo'lgan birinchi bobdagi ikki faslini pishiq qilib yoritishda XVIII asrning ma'rifatparvar shoiri, jahon adabiyotining ko'zga ko'ringan adibi, nemis faylasufi Y.V.Gyotening "G'arbu Sharq" devonini o'qishni va u haqidagi adabiyotshunoslarning tanqidiy, ilmiy-nazariy asarlarini chuqur o'rganishim kerakligini ta'kidladi. Nemis yozuvchisining necha yillar oldingi asarida islom dinini ulug'lagani, dinlararo, madaniyatlararo, millatlararo bag'rikenglik, Sharq va G'arb sivilizatsiyasi, umuminsoniy maqsadlarning uyg'unligini ta'minlashga qoshgan hissasi deb qabul qilish mumkin. Shoirning islom dini va sharq she'riyatiga ergashib, undan hayratlanib va shu yo'ldagi rivoyatlar asosida go'zal turkum doston yaratganiga guvoh bo'ldim. Bu asarni g'arb yozuvchisi yozgan deb emas, balki sharqlik adib qalamiga mansub deb hisoblaysiz. Ustozimiz No'mon Rahimjonov domla bekorga bu asarni tavsiya qilmaganligini va ustozning jahon adabiyotida yaratilgan asarlarni chuqur bilishini va tahlil qilishini tushunib yetdim. Gyote asarlarini tarjima qilgan olima Yanglish Egamova ta'biri bilan aytganda "Olmon adabiyotida Gyotedan oldin ham, keyin ham unga teng keladigan ijodkor hali dunyoga kelmagan" ligini, uni bejiz Hofiz va Sa'diylar ijodi, Sharq falasafasi namda islom olami maftun etmaganligining guvohi bo'lamiz:

Allohga itoatdur Islom degan so'z asli,
Islomda yashab hamma, o'lajakmiz islomda.

Dissertatsiya ishimga o'bekt qilib olingan P.Qodirovning "Yulduzli tunlar", "Humoyun", "Akbar" romanlarini haqida yozuvchi bilan ikki marotaba uchrashuv va suhbatlar uyushtirib, ularning tarixiy roman va romanchilik, trilogiya va tetralogiya haqidagi fikr-mulohazalari, menga bergan ma'lumotlari, anketa savollarga olgan javoblarim – barchasi ustozim No'mon Rahimjonovning yordami va maslahatlari tufayli amalga oshdi deb hisoblayman. Adabiy suhbat-muloqotlarimizdan biri

kasalxonada kechdi, suhbatimiz soʻngida Primqul Qodirov ilmiy ishim rivojida menga oq yoʻl tilab, duo qilganlari kechagina boʻlgandek koʻz oldimda turibdi.

Ustozning shogirdlari juda koʻp edi. Birgina Guliston davlat universitetida faoliyat yuritgan va yuritayotganlardan filologiya fanlari nomzodi, dotsent Q.Koʻbayev, filologiya fanlari doktori O.Fayzullayeva, dotsent G.Qoʻyliyeva, dotsent D.Toʻrayevalarni aytishimiz mumkin. Domla shogirdlarini yaxshi koʻrardi, yoʻqlab borsak, boshi koʻkka yetib, quchoq ochib kutib olardi. Mehmondoʻst, shirinkalom, samimiy, bilimli adabiyotshunos olim bilan soatlab gurung qilar edik. Hanuz shunday diltortar suhbatlarini qoʻmsab, domlani eslab-eslab turamiz. Shogirdlar ustozning suhbatini, maslahatlarida koʻp boʻldik, ularga amal qilib, izidan yurib, ilm choʻqqilarini egallashga harakat qilib, yoʻlda davom etmoqdamiz.

Domla vaqtning qadriga yetadigan, undan toʻligʻicha foydalanadigan ijodkor edi. Shunday band boʻlar ediki, vaqtni qizgʻanib, ijod qilishiga, oʻqib-izlanishiga halal beradi deb hatto mobil telefon ishlatmas edi. Bu xotiralarni yozyapmanu, ustozning bu olamni tark etganiga ishongim kelmaydi.

Filologiya fanlari doktori, professor Noʻmon Rahimjonovdan “Shoir va davr”, “Istiqlol va bugungi adabiyot”, “Tarixiy qissalar haqiqat izlaydi” (Q.Koʻbayev bilan hammualliflikda), “Badiiy asar biografiyasi” kabi monografiyalari, “Nur boqiylikdir”, “Falsafiy lirika” kabi risolalari chop etilgan va bitta “Jimjit jolalar” nomli qissa yaratishga ulgurdi.

Ustozning oxiratlari obod boʻlsin, biz kabi koʻplab shogirdlariga bergan ilm ziyosi qabrini nurga toʻldirib, yoritib tursin!

ЭЗГУЛИКНИНГ КЕЧИ ЙЎҚ

Гулбаҳор Саидганиева,
*Ўзбекистон Республикаси Олий
Мажлиси Қонунчилик
палатаси депутаты, филология
фанлари номзоди, доцент*

Агар кимнингдир ҳақида эзгу сўз айтиш керак бўлса, у ҳеч қачон кеч эмас. Устозимиз, забардаст олдим, ф.ф.д., проф. Нўъмон Раҳимжонов ҳақида эзгу сўз айтишнинг ҳам вақти ва чегараси йўқ. Аслида юқоридаги жумла бизга устозимиздан мерос қолди.

Узоқ йиллар олдин фан номзоди илмий даражаси учун диссертация ёзишда ф.ф.д., проф. Б.Саримсоқовдан маслаҳатлар олдим. Домла устозлик қилдилар, адабиётлар тавсия этдилар, йўл-йўриқлар кўрсатдилар, лекин ҳали мавзу эълон бўлмасидан соғликлари ёмонлашиб оламдан ўтдилар. Анча вақтни ўтказиб, бошим қотиб, диссертациямни кўтариб Нўъмон Раҳимжоновнинг олдиларга Тил ва адабиёт институтига бордим ва “устозим ўтиб қолдилар, ҳали мавзуни ҳам расман эълон қилмаган эдик, анча вақт ўтиб қолди”, дедим. “Эзгуликнинг кечи йўқ, ишни олиб чиқамиз!”, - дедилар домла.

Бир-икки йилда диссертация тайёр бўлди. Ишни ёқладим. Бу орада устозим Нўъмон Раҳимжоновнинг уйларига бир марта дугоналарим билан айрим хужжатларга имзо қўйдириш учун боришимга тўғри келди. Домла бизни кўнмаганимизга қўймай тўрига ўтирғизиб, ўзлари пойгакда ўтириб чой қуйиб узатдилар. Қайтаётганимизда дугоналарим: “Устозингиз жудаям камтар, кичиккўнгил, самимий эканлар, айрим устозлар олдида гапира олмасдик ҳам, шунақа ҳам яхши инсон бўладими!” – деб хайратланишди. Фахрланиб қўйдим. Домла туфайли уларга шогирд бўлган кўплаб олималар билан танишганимдан бугун миннатдорман.

Шеършунос олимлар бисёр, лекин Н.Раҳимжонов ҳақиқий шеършунос олим эди. Менга ҳам: “Сиз шеърнинг ичига кириб олинг, шеър ичида яшанг, ташқаридан туриб таҳлил қилиб бўлмайди”, - дердилар. Сухбатлар жараёнида билдимки, устозим жудаям-жудаям кўп адабиётлар кўрган, Шарку Ғарб адабиётшунослигининг билимдони эдилар. Бироқ шунақанги камтар, бу билан мақтанмас, керакли ўринда илмий ишларида фойдаланардилар. Ҳаётда эса айримларни кўрдикки, озгина нарса ўқиб қўйган бўлса, бировларни менсимай, шу ўқиганини мақтаниб ҳаммага уқтириб ётадилар. Биз шогирдлар Н.Раҳимжонов сиймосида илмдан ҳилм ҳосил қилган ҳақиқий зиёлини кўрганмиз.

Домланинг синиккўнгил, бировга ёмон гапирмаслиги, ёмонлик қилмаслигидан кўплар ўзи учун фойдаланди. Устоз билан ишимни ёқлагунимча босиб ўтган “саргузаштларимиз”, яъни айримларнинг оёқдан чалмоқчи бўлганию, ёқлаганимдан кейин диплом олгунимча кўрган кунларимиз бир олам жаҳон. Буларга айримларнинг устозимизни кўра олмагани сабаб бўлган экан. Устозини деб шогирдидан алам олиш тенденцияси, афсуски, бор. Устоз эса ҳеч кимга ёмонлик қилмадилар, тилларида эзгу сўз билан илмий асарларни ёзишда давом этавердилар.

Устоз фақат илмий соҳадагина эмас, ҳаётнинг бошқа жабҳаларида ҳам устоз, намуна бўлар экан. Ана шу “Эзгуликнинг кечи йўқ” деган ибора билан қанча-қанча ишларга илҳомлантириб, биз шогирдларни ўзимизга ишонч билан яшашга, катта ишларга жазм қилишга ундаб яшадилар. Устоз туфайли “Ўзбек адабиётшунослари” китобига номим кирди.

Йиллар ўтиши билан “Эзгуликнинг кечи йўқ” деган ибора остида инсон ҳеч қачон умидсизликка тушмаслиги, ҳеч қачон иродаси синиб қолмаслиги кераклиги, эзгулик барибир ёмонлик устидан ғалаба қозониши, ҳою ҳавас, кин-адоватларнинг барчаси ўткинчию, инсондан фақат эзгу амалларгина қолишини теранроқ англадим. Бугун устоз орамизда йўқлар, шогирдлар устозларини фақат эзгу сўз орқалигина йўқлай оладилар. Зеро, эзгуликнинг кечи йўқ.

УСТОЗЛАР ЁДИ: ИБРАТ МАКТАБИ

Обитжон Каримов,*Наманган давлат университети
доценти, филология номзоди,
Ўзбекистон халқ таълими аълочиси*

Мен ҳар сафар филология фанлари доктори, профессор Нўъмон ака Раҳимжонов номини тилга олганимда 40 йил аввалги хотиралар кўз олдимга келаверади. Ўшанда мен бошқа иш билан пойтахтга боргандим. Мен борадиган жой Ўзбекистон Фанлар академияси Тил ва адабиёт институти ёнгинасида экан. Узоқ йиллар орзу қилган даргоҳга келиб қолганимга ишонмадим. Секин хоналарни айлана бошладим. Лекин вақтли келганим учунми, кўп хоналар берк эди. Залда кута бошладим. Бир оз вақт ўтгач, истараси иссиқ, 40 ёшлар чамасидаги инсон менга қараб кела бошлади. Салом бериб, ўзимни четга олдим. Салом-алиқдан сўнг бирданга “Наманганлар тинчми?” деб менга кулиб қаради. Мен “Раҳмат!” деёлдим, холос. Мен устозни аввал кўрмаган эдим, лекин наманганлик эканимни билгани кўп ўйлантирди. Кейин билсам, шевам орқали билиб олган экан. Бу ўша устоз Нўъмон ака Раҳимжонов эди. Нўъмон акадаги самимийлик, камтарлик, сермушоҳадалик домлага бўлган қизиқишимни янада оширди. Қисқа танишув жараёнида мен Наманган давлат университети ўзбек адабиёти кафедрасида ишлашимни, устоз Салоҳиддин Мамажонов (марҳум, академик) билан таниш эканимни айтдим. Кези келганда домлага шогирд бўлмоқчилигимни, мен ҳам илмий иш қилмоқчи ва ҳозир синовда эканимни ҳам яширмадим. Устоз барча ишларимга хайрихоҳлик билдирди.

Салоҳиддин ака менга бирор шоирнинг янги тўпламига тақриз ёзиб келишни топширган эди. Мен Ўзбекистон халқ шоираси Ҳалима Худойбердиеванинг “Муқаддас аёл” китобини таҳлил қилаётганимни айтдим. Устоз Нўъмон ака менинг фикримни маъқуллаб, ишни масъулият билан ёзишимга йўналтирди. Устоз ўзлари ҳам шоира ижоди ҳақида китоб ёзганликларини суҳбат давомида айтиб ўтдилар. Шундан сўнг биз хайрлашдик. Олим билан бўлган тасодифий учрашув менда адабиётга бўлган қизиқишимни янада ошириб юборди. Ёзган тақризим устозга маъқул келди. Вақт ўтиб, мен аспирантурага кириб кетдим. Устозим Салоҳиддин ака раҳбарлигида илмий иш бошладим. Ҳар гал устозим олдига борганимда Нўъмон акамни кўриб кетардим. Нўъмон ака узоқ йиллар Тил ва адабиёт институтининг Адабиёт назарияси ва адабий танқид тарихи булимида илмий фаолият олиб борди. Ишга келган йилларида машҳур назарийчи олим, драматург Иззат Султон бошлиқ

эди. Пиримкул Кодиров, Махмудали Юнусов, Бахтиёр Назаров, Жамол Камол, Уммат Туйчиев, Тўлқин Расулов сингари етакчи олимлар билан ишлаш баробарида ўзи ҳам соҳаси бўйича кўплаб монография ва рисолалар ёзди. Шогирдлар етиштириб, ўзига хос мактаб яратди. Олимнинг 20 дан ортиқ шогирдлари Республикамизнинг нуфузли олий ўқув юртларида фан доктори ва профессор лавозимларида ишлаб келмоқдалар. Қувонарлиси, профессор Дилрабо Қувватова, Хуршид Дўстмуҳаммад, Марҳабо Қўчқорова каби устоз раҳбарлигида илмий иш қилганлар бугун ўзлари ҳам кўплаб шогирдлар тайёрлашга улгуришди, яъни шогирдлари ҳам устоз мақомига эришдилар.

Олимнинг “Давр ва ўзбек лирикаси”, “Шоир ва давр”, “Шеър сеҳри”, “Фалсафий лирика”, “Илмий тафаккур жилolari”, “Асқад Мухтор поэтикаси”, “Ҳалима Худойбердиева лирикаси” (Ҳаммуаллифликда), “Нур боқийликдур”, “Тарихий қиссалар ҳақиқат излайди” (Ҳаммуаллифликда), “Мустақиллик даври ўзбек шеърляти”, “Бадий асар биографияси”, “Истиклол ва бугунги адабиёт”, “Қодирийшунослик қирралари”, “Бадийят – бош мезон (Адабий суҳбатлар)”, “Бадий сўз эстетикаси: Иброҳим Ғафуровнинг адабий-эстетик қарашлари”, “Ўзбек адабиётшунослиги ҳозирги босқичда”, “Ўзбекистон адабиётшунослари” каби монография, рисола, адабий портрет ва эсселари, катта тазкира китоби нашр этилган.

Устоз томонидан яратилган 30 га яқин монография ва рисолалар, 500 дан ортиқ илмий мақолалар, 20 дан ортиқ портрет жанридаги тадқиқотлари, рус ва жаҳон адабиёти дурдоналаридан маҳорат билан қилган таржималари, яна академ дарслик ва қўлланмалари Нўмон ака номини кўплаб илм шайдоларига таништирди. Ишонч билан айта оламизки, олим тадқиқотлари кўп йиллар соҳа мутахассисларига хизмат қилади. Қолаверса, мунаққид ижоди бўйича тадқиқотлар ўз эгаларини кутиб турибди.

Олимнинг “Бадий асар биографияси” рисоласи олий ўқув юртларининг филология йуналиши талабалари учун ўқув қўлланма сифатида тавсия этилган. Мазкур ўқув қўлланма ўзбек адабиётшунослик илмида энг кам ўрганилган, эътибордан четда қолиб келаётган сўз санъаткорларининг ижодий лабораториясига, асарларининг ғоявий ният сифатида юзага келиши ва бадий талкин хусусиятларига бағишланган. XX аср ўзбек адабиётининг ёрқин намояндаларидан академик-адиб Иззат Султоннинг “Алишер Навоий”, “Имон”, “Донишманднинг ёшлиги”, “Кўрмайин босдим тиканни”, “Қақнус”, “Ойдин кеча асирлигида”, “Янги одамлар” сингари асарларининг бадий ғоя тариқасида тутилиши ва ёзилишидек сирли-сеҳрли жараёнлар ҳақида, бадий идрок ва ифода маънолари, эстетик қарашлари хусусида. Ўқув қўлланма таниқли адабиётшунос олим Нўмон Раҳимжоновнинг устоз Иззат Султон

билан олиб борган кўп йиллик мулоқотлари, суҳбатлари, кузатишлари самарасидир. Унинг ифода шакли ҳам ўзига хос. Ҳикоя биринчи шахс тилидан олиб борилади. Академик-адиб ўз эътирофи орқали дил кулфини очади, ижодий дунёси сирларидан воқиф этади. Олимнинг бундай китоблари жуда кўп...

Бешафқат ўлим серқирра, захматкаш олим, меҳрибон ва мулойим устоз Нўмонжон ака Раҳимжоновни орамиздан олиб кетган бўлса ҳам, кўплаб нодир китоблари ва шогирдларига кўрсатган яхшиликлари билан яқинлари, кўп сонли чинакам адабиёт ихлосмандлари қалбида ҳамиша сақланиб қолади. Ҳа, бундай ўз соҳаси учун жонларини фидо қилган инсонлар ҳақида қанча ёзсақ оз. Уларнинг яхшиликлари асло унутилмайди. Улар ҳамма вақт кейинги авлодга чинакам ибрат намунаси бўлиб қолишаверади:

*Ўлди, кетди деманглар, эслаганда тирикмиз,
Яхши-ёмон кунларда мададкормиз, шерикмиз.
Вужудимиз тупроқдир, гул руҳимиз ҳавода,
Бизни эслаганларнинг умри бўлсин зиёда.*

NO'MONJON RAHIMJONOV ADABIY SUHBATLARI XUSUSIDA

Rahimova Bekposhsha Bahodirovna,
UrDU dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiyotshunos-munaqqid N.Rahimjonovning "Badiiyat - bosh mezon" kitobidagi adabiy suhbatlar, ularning mavzu doirasi, ilmiy-adabiy uslubi tahlilga tortiladi

Kalit so'zlar: adabiy suhbat, munaqqid, badiiyat, adabiy jarayon, mavzu, she'r va shoirlik, nasr tahlili.

Mustaqillik davri adabiy jarayonida qator publisistik asarlari, tarjimalari, adabiy-tanqidiy maqolalari, esse va mansuralari, adabiy suhbatlari bilan sermahsul ijod qilayotgan adabiyotshunos va munaqqidlardan biri No'monjon Rahimjonovdir. Ayniqsa, istiqlol yillarida munaqqidning "Ilmiy tafakkur jilolari" (1991), "Asqad Muxtor poetikasi" (2003), "Nur boqiylikdur" (2004), "Mustaqillik davri o'zbek she'riyati" (2007), "Badiiy asar biografiyasi" (2008), "Istiqlol va bugungi adabiyot" (2012), "Qodiriyshunoslik qirralari" (2015), "Jimjit jolalar" (2016), "Badiiyat - bosh mezon" (2016) kabi qator asarlari chop etildi. Ko'rinadiki, No'monjon Rahimjonov ilmiy qiziqishlari hozirgi adabiy jarayon, XX asr o'zbek she'riyati va dostonchiligi, adabiy tanqid va adabiyotshunoslik masalalari tadqiqiga qaratilgan.

Munaqqid adabiy suhbat janriga alohida e'tibor bilan qaraydi, o'zining aksariyat kitoblarida bu janrga maxsus o'rin ajratadi. Adabiy suhbat – tanqidchilikning faol janri bo'lib, mavzusi, mazmun-mundariyasi jihatidan benihoya serqirradir. "Agar adabiyotshunoslar orasida o'tgan muloqotlar ko'proq adabiy jarayon yoxud muayyan nazariy masalalar yuzasidan bo'lsa, ijodkor-munaqqid suhbatlari markazida o'sha ijodkorning bugungi adabiyot, umuman, badiiy ijod haqidagi fikrlarini yoritish maqsadi ustuvorlik qiladi. Suhbatning o'ziga xos ustunlik jihati shundaki, unda qator masalalar yuzasidan qarashni eksklyuziv tarzda ifodalash imkoni mavjud. Gap shundaki, ehtimol, o'sha suhbatdoshlar bu masalalarga o'z faoliyatlari davomida qayta murojaat etmas, lekin ular haqidagi qarashlari suhbatda aksini topib, ommalashib qoladi. Suhbat jarayonida suhbatdoshlarning bir-birini to'ldirishi, fikrlarini aniqlashtirishi masalaning mohiyatiga chuqurroq nazar tashlash imkonini yaratadi"[Rahmonov B. 3:12.].

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, adabiy suhbat janrining imkoniyatlari ancha keng bo'lib, keyingi yillarda U.Normatov, I.G'afurov, N.Jabborov, U.Hamdani, X.Do'stmuhammad, U.Jo'raqulov, E.Ochilov kabi qator adabiyotshunos, munaqqid va ijodkorlarning adabiy suhbatlarida bugungi adabiy jarayon, adabiyotshunoslik va tanqidchilik muammolariga bag'ishlangan qator suhbatlar e'lon qilinmoqda. Uning Izzat Sulton, Matyoqub Qo'shjonov, Omon Matjon, Muhammad Ali, Erkin Samandar kabi qator adabiyotshunos, munaqqid va adiblar bilan bo'lgan suhbatlarida

adabiyotning asl mohiyati, soʻz sanʼati, yozuvchi va muhit munosabati, joriy adabiy jarayon xususiyatlari, sheʼriyat, badiiy adabiyot vositasida inson, inson orqali esa jamiyatni tahlil qilish mezonlari kabi muhim masalalar oʻrtaga tashlanadi, bahs yuritiladi, muhokama qilinadi.

Noʻmonjon Rahimjonovning “Badiiyat – bosh mezon” asari 2016-yilda nashr qilingan boʻlib, unda turli ijodiy avlodga mansub shoir, yozuvchi, olimlar bilan adabiy suhbatlari jamlangan. Zero, suhbat adabiy tanqidning eng qiziqarli janrlaridan biridir. Bu janr koʻp asrlik anʼanalarga ega boʻlib, uning ildizlari Suqrot, Aflotun suhbatlari rivojlangan qadimgi yunon adabiyotiga borib taqaladi. Gʻarbda ham bu janrga eʼtibor bilan qarashgan.

“Badiiyat – bosh mezon” kitobidagi suhbatlarda oʻzbek adabiyotshunosligi, sheʼriyati, davr nasri, dramaturgiyasi, kitobxon olami, tarix va badiiy adabiyot haqidagi qarashlar jamlangan boʻlib, ularda soʻz sanʼatkorlarining tabiat-jamiyat-inson oʻrtasidagi uzviylikni badiiy ifoda etishdagi oʻziga xos qarashlari tahlilga tortiladi. Asar samimiy va qiziqarli uslubda yozilgan, har bir adabiy suhbatda insonni toʻlqinlantiradigan fikrlar, adabiyotning hayot bilan haqqoniy qiyofasi, adabiy jarayondagi yutuq va kamchiliklar yorqin koʻrsatiladi. Turli mavzudagi adabiy suhbatlar munaqqid Noʻmonjon Rahimjonovning hozirgi adabiy jarayonga faol munosabat bildirishga intilib kelayotgan, tafakkur ufqlari keng ijodkor ekanligini koʻrsatadi. Kitobdagi adabiy suhbatlarni mavzu jihatdan quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Adabiy jarayon va adabiyotning mohiyati toʻgʻrisidagi suhbatlar.
2. Sheʼr va shoirlik haqidagi adabiy suhbatlar.
3. Oʻzbek nasri xususidagi suhbatlar.
4. Adabiy tanqidchilik masalalari haqidagi bahslar.
5. Badiiylik va badiiy did, tarix va badiiy adabiyot borasidagi suhbatlar.

Asardagi “Tonglar – yorugʻlik enagasi” mavzusidagi adabiy suhbatda N.Rahimjonov akademik-adib Izzat Sulton bilan suhbatlashadi. Adabiy suhbatda munaqqid istiqlolning dastlabki yillaridagi adabiy jarayon, badiiy adabiyot va uning zimmasiga yuklangan maʼnaviy-axloqiy, ijtimoiy-estetik maʼno mohiyati xususida olim bilan fikr almashadi. Maʼlumki, azal-azaldan adabiyotning bosh mavzusi va oʻrganish obyekti Insondir. Inson hamma davrlarda ijtimoiy-siyosiy, madaniy voqeliklar koʻzgusi boʻlib kelgan. Insonning aqliy, axloqiy turmush tarzidan u mansub jamiyatning mohiyati va dunyoqarashi toʻgʻrisida maʼlum tasavvur-tushunchalarga ega boʻlamiz. Shu bois ham munaqqid Izzat Sulton bilan mustaqilligimizning dastlabki yillari – oʻtish davri murakkabliklari va bunda adabiyotning oʻrni, zamon qahramoni oʻy-kechinmalari, dunyoqarashi, xarakter-xususiyatlari toʻgʻrisida suhbatlashib, ushbu davr adabiy jarayonidagi ijobiy va salbiy

jihatlari borasidagi tahlillarga to'xtaladi. Izzat Sulton 90-yillar mamlakatimizda murakkab bir davr ekanligini ta'kidlab, "Bir qaraganda adabiyotimizda turg'unlik paydo bo'lgandek ko'rinadi. Chunki ko'zga ko'ringan, yirik, e'tiborni jalb etuvchi asarlar paydo bo'lmayapti. Zamonamiz masalalariga javob tariqasida yozilgan asarlar yuzaga kelganicha yo'q. Masalan, nimadan kehdik va qayoqqa ketyapmiz? Tanlagan yo'limiz to'g'rimi? Ya'ni biz bozor iqtisodiga ko'chayapmiz. Qonun ustuvorligiga asoslangan fuqarolik jamiyati quryapmiz. Lekin bu jamiyat qanaqa bo'ladi? Zero, uning hozirgi ba'zi alomatlari bizni ancha cho'chitadi. Bozor va inflyatsiya...bozor va ma'naviyat masalalari ko'pchilikni o'ylantirib qo'ydi. Ahloqiy, falsafiy va ijtimoiy muammolarga bag'ishlangan filmlar ham ko'rinmayapti. Odamlar yengil adabiyotni o'qish bilan ovora, o'zlarini shu vaqtgacha man etilgan ahloqsiz chet el adabiyotiga urmoqda. Xatto o'zimizda ham chet el adabiyotiga taqlidan asarlar paydo bo'lyapti. Bu nafaqat davrga, xatto ma'naviyatimizga ham ziddek ko'rinyapti"[Rahimjonov N. 2:47]. Darhaqiqat adibning bu fikrlari juda ham o'rinli sanaladi. Suhbatdan xulosa shundayki: adabiyotimiz qaytadan tug'ilish va ko'tarilish arafasida turibdi. Uning yangi davrdagi salohiyatini ko'ra bilish, yutuqlariga madad berish lozim. Oramizda tarvuzi qo'ltig'idan tushib, ikkilanib o'tirganlar ham yo'q emas. Bu tanlov davri. Kimki yangi mustaqillik davri mafkurasini tubdan tushunmasa, uni qalbining haroratiga aylantirmasa, adabiyotdan tushib qolaveradi. Bunga afsuslanish ham kerak emas. Chunki adabiyotimizning salohiyati zo'r. Unda zamonlar sinovidan o'tganlar bor. U yangi kurtaklarga, qobilyatli shaxslarga boy. Bu davr adabiyoti jamiyatni sog'lomlashtirish, inson ruhiyatini yanada kamol toptirishga xizmat qilish yo'lida har qachongidan ham ilgarilashi lozimligini uqtiradi. Buning uchun esa, avvalo, milliy qadriyatlarimiz, diniy-madaniy-adabiy merosimizga suyanish, ularni chuqur o'rganishning ahamiyati katta ekanligini ta'kidlagan.

N.Rahimjonovning O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali bilan "Tarix tafakkur oftobi", "Moziy – haqiqat chirog'i" nomli adabiy suhbatlari tarix va davra adabiyoti, she'riyatda tarixiy siymolar obrazining yaratilishi, tarixiy haqiqat va badiiy talqin masalalariga bag'ishlanadi. Ma'lumki, istiqlolning dastlabki yillarida tarixiy mavzuga alohida e'tibor qaratildi. Zero, mustabid tuzum davrida butun adabiyotimiz tarixdan uzib qo'yilgan, tarixga murojaat qilish imkoniyatlari kesib tashlangan, shoir va yozuvchilar mafkura tazyiqi tufayli bu mavzuda qalam tebratishga cho'chib qolishgan edi. Mustaqillik baxsh etgan ijod erkinligi tarixiy mavzuda she'riy, nasriy, dramatik asarlar yaratishga imkon berdi. Zero, Tarix xotirasining muhtasham imoratiga ilk g'ishtlarni Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, Maqsud Shayxzoda singari allomalarimiz qo'ygan, asos solgan edi. N.Rahimjonov yozuvchi bilan bo'lgan suhbatda tarix va badiiy adabiyotning bog'liqligi, badiiy asarda tarixiy haqiqat va talqin muammosi tahliliga urg'u beriladi. Ma'lumki, yozuvchi Muhammad

Ali tarixiy mavzuda qator asarlar yaratdi. Ayniqsa, adibning Amir Temur shaxsi, temuriylar tarixi haqidagi izlanishlari, sarbadorlar harakati haqidagi qator tarixiy manbaalarni mukammal o'rganganligi va bu asosda maydonga kelgan "Sarbadorlar" asarini ta'kidlash o'rinlidir. "Tarix – tafakkur oftobi" nomli suhbatda Muhammad Ali "Sarbadorlar" asarining yaratilishi va aynan sarbadorlar harakati bilan Amir Temur faoliyatining bir-biriga zid qo'yilishi xususidagi munozarali fikrlarga aniqlik kiritadi. Suhbatda yozuvchi munaqqidning bu boradagi savollariga alohida to'xtalib, Amir Temur ham, sarbadorlar ham bir zaminning farzandlari bo'lib, ularning asosiy niyati ona zaminni mo'g'ullar istilosidan xalos etish ekanligini ta'kidlaydi.

N.Rahimjonovning yozuvchi Muhammad Ali bilan "Moziy – haqiqat chirog'i" deb nomlangan ikkinchi adabiy suhbat ham ajoyib mushohadalar, ibratli mulohazalarga boyligi bilan ajralib turadi. Suhbatda tarixiy manbaalar, tarixiy kitoblarning o'tmishni badiiy kashf qilishdagi o'rni, ahamiyati va bunda badiiy talqin, fakt va to'qima munosabati, badiiy til masalalari borasida fikr yuritiladi. Ayniqsa, istiqlol davri adabiyotida olis o'tmish mavzusi, tarixiy shaxslar, xalq qahramonlarining ibratli hayotini adabiyotning barcha tur va janrlarida badiiy yoritishga e'tibor ancha ortgani quvonarli jihatlardan biridir. Muloqatda N.Rahimjonov suhbatdoshi ijodining (shu bilan birga adabiyotshunoslikning, she'riyatning) bilimdoni sifatida ikkala suhbatga alohida mavzu, yo'nalish tanlaydi va har bir suhbat adabiy jarayonning muayyan muammolari doirasidagi mavjud bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi. Suhbat tarixning insoniyat uchun katta saboq, hikmat xazinasini ekanligini uqtirish bilan bir qatorda, ajdodlarimiz yo'l qo'ygan noahillik, kelishmovchilik va boshqa xatolar kelgusi avlodlar uchun ibrat bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Asardagi "Badiiyat – bosh mezon" deb nomlangan adabiy suhbat akademik M.Qo'shjonov bilan bo'ladi. Adabiy suhbatning asosida badiiylik, uning mezonlari mavzusi yotadi. Zero, badiiylik adabiyotshunoslikning azaliy va abadiy masalasi sanaladi. Munaqqid ta'kidlaganidek, "Aristotel, Gegel, Belinskiylardan tortib to hozirgi kungacha adabiyotdan talab qilinadigan bosh vazifa – bu badiiyat. O'sha ko'hna zamonlarda yaratilgan jild-jild romanlardan ham, kuni kecha e'lon qilingan to'rt satr she'rdan ham tanqidchilik yuksak badiiyatni izlaydi. Shuningdek, san'atkorlardan eng ko'p talab qilinadigan narsa ham badiiyatdir. Ma'lumki, M.Qo'shjonov mahoratshunos munaqqid sifatida adiblar ijodini tahlil qilar ekan, ularning asarlaridagi badiiy mahorat, yozuvchining obraz yaratishdagi o'ziga xos jihatlari, badiiy til xususiyatlari masalalariga e'tibor qaratadi. Munaqqid talqinida, "Badiiyat juda keng tushuncha. Hayot haqiqati ham, xalq dilidagi dardni, muammolarni ko'tarib chiqish ham, obraz yaratish va tilga sayqal berish ham, kompozitsion yaxlitlik va xilma-xil sujet usullarini topa bilish ham, hayotdagi

ziddiyatlarni tabiiyligicha bera bilish ham badiiyatga kiradi". Shu bilan birga badiiy asar o'qishligini ta'minlovchi asosiy vosita ham badiiylik sanaladi. Bu borada M.Qo'shjonov suhbatda juda qimmatli fikrlarni bayon qiladi. Ayniqsa, munaqqidning badiiy asar tahlili, adabiy didni tarbiyalash, yozuvchi badiiy niyatini teran anglash borasidagi mulohazalari alohida e'tiborga loyiqdir. M.Qo'shjonov tanqidchining badiiy asarni o'rgana olishini tabiblarning bemor qon tomirini ushlab ko'rib tashxis qo'ya bilish qobiliyatiga o'xshaydigan murakkab va og'ir ishga qiyoslaydi. Badiiy asarda qalamga olingan asosiy masalani, yozuvchining nima demoqchi ekanligini topa bilish eng muhim vazifa ekanligini alohida ta'kidlaydi. Suhbatda munaqqid va adabiyotshunoslarning bosh vazifasi adabiy asar mohiyatini tushunish va uni tushuntirish jarayonida kitobxon dididni tarbiyalashdan iborat ekanligini uqtiradi. Mazkur adabiy suhbat adabiyotshunoslikning nazariy masalalari va adabiy tanqidchilikdagi muhim muammolarga aniqlik kiritgani bilan alohida dolzarblik kasb etadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, "Badiiyat – bosh mezon" asaridagi adabiy suhbatlar qariyb yigirma yildan ortiqroq davr davomida qog'ozga tushirilgan bo'lib, bu orada davrlar almashinuvi yuz berib, ilmiy-badiiy tafakkur va adabiy mezonlar yangilanishi davom etmoqda. Kitobdagi adabiy suhbatlar esa barcha davrlar uchun zarur bo'lgan adabiyotning turfa mavzulari xususida qimmatli ma'lumotlar berib, adabiyot ixlosmandlari, filolog-tadqiqotchilar uchun zarur manba bo'lib xizmat qilishi bilan qadrlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedova Sh. Adabiy-tanqidiy suhbat genezisi. "Sharq yulduzi", 2015, 11-son.
2. Rahimjonov N. Badiiyat – bosh mezon. – Toshkent, Akademiya nashri, 2016.– 222 b.
3. Rahmonov B. O'zbek adabiy tanqidchiligi. – T.: "Fan", 2004. b-12.

BADIIY ASAR BOIGRAFIYASI BILIMDONI

To'rayeva Dilnoza Nematullaevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Guliston davlat universiteti

E-mail: dilnozatorayeva1983@yandex.ru

***Annotatsiya.** Maqolada badiiy ijod jarayoni, adabiy asarlarining ijodiy niyat sifatida yuzaga kelishi va badiiy talqin xususiyatlari bevosita ijodkor shaxsiyati bilan bog'liqligi alohida adabiy hodisa ekanligi istiqloq davri o'zbek adabiyotshunosligining yetakchi xususiyatlaridan biri sifatida ochib berilgan.*

***Tayanch so'z va iboralar:** estetik ideal, milliy nasr, obraz, psixologizm, ijodiy laboratoriya, majoziylik, badiiy g'oya, ijodiy niyat, badiiy uslub.*

Badiiy so'zda hikmat, ma'rifat, ta'lim-tarbiya, ma'naviy-axloqiy madaniyat va hayot falsafasi umumlashgan bo'ladi. "So'z boqiy, suhbat boqiy, boisi – so'z qarimaydi, so'z eskirmaydi, deganlaricha bor. Ellik yil ko'rishmagan tanishimizni ko'zlari bilan so'zlaridan tanib olamiz. O'y-fikrlarimizni, his-tuyg'ularimizni o'z bag'riga olib ardoqlaganligi uchun ham so'zlar shunaqa qadrli. Hikmat, mexr, sehr, qahr ma'nolarini yashiringanligi boisidan ham so'zlar aziz va ardoqli" [<https://telegra.ph/1:1>]. So'zning boqiyliigi va uning nechog'li ardoqli ekanligini aytgan olim No'mon Rahimjonovning ham har bir aytgan so'zi o'git edi. Samimiy, mehribon ustozning ibratli, mag'zi to'q gaplari hamon qulog'imizda jaranglaydi, qalblarimizda esa mangu yashaydi. Ohangini mayinligi har bir insonning qalbidan joy olardi. Ularning suhbatlarida bir bo'lgan kishi yana o'sha suhbatni qo'msardi. Ustozni xotirlar ekanmiz, ko'z oldimizda domlani nim tabassum qilib turgan samimiy chehralari namoyon bo'ladi. Ustoz ham jahon, ham o'zbek adabiyotini bilimdoni sifatida o'z so'ziga, o'z yo'li, yo'nalishiga ega olim edi. Ustoz ko'p so'zlamasdi. Oz so'zida ham ma'no, mantiq bo'lardi. Adabiyotshunos sifatida qaysi mavzuda gapirmasin, shu masalani bilimdoni sifatida qat'iy nazariy to'xtamga ega fikrlarini ayta oladigan haqiqiy olim edi. Ular shunday ite'dodga ega edilarki, suhbatlari asnosida bir vaqtning o'zida bir qancha qimmatli nazariy qarashlarni aytib ketardilar. Ilm yo'lini tanlagan har bir shogirdiga jonkuyarlik bilan munosabatda bo'lar edilar.

Badiiy tafakkur madaniyatining burchi, mas'uliyati, vazifalari nechog'li zalvorli ekanini ustoz filologiya fanlari doktori, professor Rahimjonovning ilmiy qarashlari yana bir karra yodimizga soladi, olim yaratgan har bir ilmiy asar milliy istiqloq manfaatlaridan kelib chiqib, umumbashariy ma'naviy-intellektual qadriyatlar, ilmiy tadqiqotlar yaratishga da'vat etadi. Adabiyotshunos olimning tadqiqotlaridagi qimmatli narzariy qarashlari adabiyotshunoslikning dolzarb muammolariga bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi.

Dunyo adabiyotshunosligida badiiy ijod jarayoni, tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga muallifning g'oyaviy-hissiy munosabati, obrazlar tizimining tanlanishi va

qo'yilgan muammoni ular vositasida poetik idrok etishi-yu, chiqargan badiiy hukmi, estetik ideali, dunyoqarashi, madaniy-ma'rifiy darajasi, hayotiy tajribasi, malakasi, iste'dod va salohiyatining quvvati, estetik talqin muammolari, umuman olganda, yozuvchi ijodiy laboratoriyasining o'ziga xos jihatlari izchil o'rganilgan. Har bir davr adabiyotshunosligida badiiy asarning yuzaga kelishi bilan bog'liq ijodiy jarayonni o'rganilishi lozim bo'lgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblangan. Jumladan, asarning g'oyaviy niyatdan ibtidolanishi hamda badiiy talqin xususiyatlari, ayni adabiy hodisalarni chuqur bilish, uning estetik vazifalarini aniqlash va bu orqali adabiyotshunoslik erishgan yutuqlar mohiyatini ochib berish zaruratini yuzaga keltiradi. Hayotiy voqea-hodisalar ijodiy laboratoriyadan ibtidolanib, ijodkor qalbi, dunyoqarashi va ruhiy olami bilan bog'liq ravishda shakllanadi. Badiiy asar g'oyasining paydo bo'lishi, uning tugal holatga kelishi, yozilish jarayonida yozuvchi ko'nglida kechgan po'rtanalarning barchasi ijodiy laboratoriyaning o'ziga xos, individual hodisa ekanini ko'rsatadi. Shuning uchun, badiiy ijod jarayonda tug'ilgan yangi voqelik, xususan, epik nasrning hikoya, qissa va roman janrlari namunalari ham konkret adib ijod laboratoriyasi asrorlari negizida xolis tadqiq etilishi mumkin.

Jumladan, olimning "Badiiy asar biografyasi" nomli tadqiqotida so'z san'atkorlarining ijodiy laboratoriyasiga, asarlarining g'oyaviy niyat sifatida yuzaga kelishi va badiiy talqin xususiyatlariga bag'ishlangan. Aniqrog'i, XX asr o'zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri akademik-adib Izzat Sultonning shaxsi va u yaratgan asarlarning badiiy talqini sinchkovlik bilan tadqiq etilgan. Unda ijodkorning bolalik bog'laridan taqdir so'qmoqlariga nazar tashlagan olim, estetik ongning shakllanishi va badiiy tuyg'u evrilishlarini taftish etadi. Badiiy g'oya sehri bilan sirlashar ekan, ijodiy niyatning yuzaga chiqish omillarini o'rganadi. Adibning "Alisher Navoiy" dramasi yaratilish tarixini, "Imon" pyesasining sahna talqinlarini, "Oydin kecha asirligida" asarida ma'naviy-axloqiy masala qirralarini tadqiq etadi. Bunda olim badiiy asar maydonida hayot haqiqati va badiiy to'qimaning nechog'li o'rni katta ekanligini ta'kidlab o'tadi. Izzat Sultonning adabiy-estetik qarashlariga oid bu qimmatli fikrlari bilan adib shaxsi va ijodi bilimdoni sifatida namoyon bo'ladi. Bu tadqiqotda Izzat Sulton asarlarining badiiy g'oya tariqasida tug'ilishi va yozilish jarayonlari haqida, badiiy idrok va ifoda ma'nolari, estetik qarashlari xususida baxs yuritiladi. Bunda adabiyotshunos olimning ustoz Izzat Sulton bilan olib borgan ko'p yillik muloqotlari, suhbatlari, kuzatishlari asosida yuzaga keladi. Bu tadqiqot akademik-adibning o'z e'tiroflari orqali ijodiy dunyo sirlaridan xabardor etadi.

Asrlar davomida shakllangan adabiy ijod va ijodiy jarayonning turfa xil xususiyatlari haqidagi qarashlarda bu tushunchaning o'ziga xos murakkabligi mujassamlashgan. "Badiiy adabiyot alohida yozuvchilarning ijodlaridan tarkib

topadi. Shuning uchun adabiyotni tadqiq qilar ekanmiz, ma'lum asarlarni konkret yozuvchilar qanday yaratganligini o'rganmasdan va umumlashtirmasdan turib nazariy xulosalarga kelolmaymiz" [Адабиёт назарияси.1:92]. Badiiy asarning yuzaga kelishi bilan bog'liq jihatlar u haqidagi qarashlarni yanada oydinlashtiradi. Asar mohiyati sari yo'l ochadi. Ijodiy niyatning tug'ilishiga turtki bo'lgan turli omil, uning badiiy g'oyaga aylanishi, umuman, badiiy asarning maydonga kelishiga qadar bo'lgan jarayon yozuvchi ijodiy laboratoriyasini tashkil qiladi. "Ijodkor shaxsiyati va iste'dod qirralari, asar va shaxs munosabatlari, badiiy g'oya urug'ining ko'ngilga tushishi, kurtak tugishi, nish urib, barg yozishi, barq urib gullashi – o'zi bir go'zal va jozibali jarayon. Ilmda ijodkor laboratoriyasi deb ataluvchi bu sehrli olam adabiyotshunosligimizda nisbatan kam o'rganilgan. U mutaxassislarni ham, keng kitobxonlar ommasini ham doimo qiziqtirib keladi" [Раҳимжонов N. 2:4], – deb ta'kidlaydi adabiyotshunos N.Rahimjonov. Demak, adabiyotshunoslik ilmida yozuvchi ijodiy laboratoriyasini o'rganish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri ekan, uni atroflicha tadqiq qilishga zarurat bor. Bu jarayon bilan bog'liq jihatlariga e'tibor berish badiiy asar mohiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Badiiy asarni o'qish kitobxonga estetik zavq bag'ishlasa, uning yaratilish davridagi jarayon yozuvchidan juda katta ijodiy mehnat va izlanish talab qiladi. Bu jarayonni amalga oshirishda yozuvchi ijodiy imkoniyatini ishga soladi. Badiiy ijod jarayonida yozuvchining iste'dodi, ilhomi, mehnati, dunyoqarashi va fantaziyasi muhim o'rin tutadi. Yozuvchi ijodiy laboratoriyasini o'rganish shu omillarni bilishdan boshlanadi. Ijod qilish turfa adabiy omillar – badiiy g'oyaning tug'ilishi, ijodiy reja, yozishga kirishish, qahramon tanlanishi, kutilmagan holatlardan unumli foydalanishdan iborat. "Har bir asar qog'ozga tushmasdan oldin yozuvchining ko'nglida, o'ylarida ma'lum bir yetilish davrini o'taydi. Shu sababli ijodiy jarayonning hamma tadqiqotchilari ilk rejaning tug'ilishini haqli ravishda yozuvchining ichki dunyosiga bog'liq ravishda o'rganadilar" [Адабиёт назарияси.1979.1:92]. Demak, badiiy asar tugal holatga kelishidan oldin adib ko'nglida yetilar ekan, ijodiy jarayonga xos jihatlarni dastlab uning ichki dunyosiga bog'liq ravishda o'rganish maqsadga muvofiq. No'mon Rahimjonov "Badiiy asar biografiyasi"da Izzat Sultonning badiiy adabiyot, san'at, adabiyot ilmiga doir adabiy-estetik hamda, ma'rifiy qarashlarini bayon etadi. Akademik-adbning badiiy ijod jarayoni, adabiy asarlarining ijodiy niyat sifatida yuzaga kelishi va badiiy talqin xususiyatlari bevosita ijodkor shaxsiyati bilan bog'liqligi alohida adabiy hodisa ekanligi istiqlol davri o'zbek adabiyotshunosligining yetakchi xususiyatlaridan biri sifatida ochib beriladi. Shu bilan birga, adabiyotshunos olim badiiy asarda tasvirlangan voqea-hodisalarga muallifning g'oyaviy-hissiy munosabati, obrazlar tizimining tanlanishi va qo'yilgan

muammoni ular vositasida poetik idrok etishi hamda badiiy hukm chiqarishi yozuvchi ijodiy laboratoriyasining asosi ekanligini ta'kidlab o'tadi.

Umuman olganda, adabiyotshunos No'mon Rahimjonov badiiy asar takomilida adib estetik ideali, dunyoqarashi, madaniy-ma'rifiy darajasi, hayotiy tajribasi, malakasi, iste'dod va salohiyatining quvvatiga asoslangan ijodiy jarayonning o'rni muhimligini Izzat Sulton asarlari tahlili asnosida tadqiq etadi. Ularda badiiy g'oya, ijodiy tasavvur va estetik talqin masalasini tadqiq etishda adib ijodiy "men"i, fikr-qarashlari strukturasi, yozuvchi va badiiy asar juftligi, ijodkor poetik olami va ma'naviy-ruhiy dunyosi yaxlit adabiy jarayon kontekstida o'rganadi. Olimning adabiyotshunoslikda badiiy asar biografiyasi bilimdoni sifatida o'rni katta ekanligini alohida qayd etish lozim.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Адабиёт назарияси. II жилдлик. (М.К.Нурмухаммедов тахрири остида), – Т.: Фан, 1978-1979. – 416 б, – 445 б.
2. Раҳимжонов Н. Бадий асар биографияси. – Т.: Фан, 2008. – 262 б.
3. Раҳимжонов Н. Бадий сўз эстетикаси. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодтй уйи, 2017. – 233 б.
4. Turaeva, D. PROCESS OF FICTION CREATIVITY AND WRITER'S SKILL. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych, 70.
5. Nematullaevna, T. D. (2019). THE PROCESS OF LITERARY CREATIVITY AND AESTHETIC INTERPRETATION. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 8(3), 49-53.
6. Nematullaevna, T. D. (2022). THE WRITER'S WORLD VIEW AND ARTISTIC IDEA. Open Access Repository, 9(12), 163-174.

NEVARA SHOGIRDLIKDAN TUYILGAN FAXR

O'roqova Nafosat Yoriyevna

*Buxoro davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor No'mon Rahimjonov bilan shaxsan tanishganimga sal kam yigirma yil bo'ldi. Zamonaviy adabiyotga, xususan she'riyatga muhabbatim bois talabalikning ilk yillaridanoq shoir Ikrom Otamurod ijodi, uning noan'anaviy dostonlari e'tiborimni tortgan edi. Imkon qadar shoir dostonlarini tahlil qilib, vaqtli matbuotda o'z so'zimni aytishga urinar edim. O'sha yillarni eslab, hanuz sog'inaman, qo'msayman. Chunki har bir kunim kutubxona bilan bog'liq, har daqiqam she'riyatga oshno edi. Darsdan so'ng kun ora Yozuvchilar uyushmasining shoir Ikrom Otamurod faoliyat yuritadigan "Sharq yulduzi" jurnali tahririyat bo'limi tomon chopardim. Bir kuni meni respublikada taniqli, o'z yo'liga ega adabiyotshunos olim, nuqtadon she'rshunos No'mon Rahimjonov bilan tanishtirib qo'yidilar. Keyin bilsam, u kishi ham shoir ijodiga, ayniqsa, uning dostonlariga befarq emas ekanlar. Ikki adabiyot vakili, she'r oshuftasi bilan birlikda oradan ancha vaqt o'tganini sezmay qolibman. O'sha kungi juda chiroyli va foydali suhbat ruhimni sarbaland etdi.

Shundan so'ng O'zRFA O'zbek tili va adabiyoti institutiga ham serqadam bo'lib qoldim. Har borganimda ustoz mening oldimga katta jildli kitoblarni qo'yar va ularni o'zlashtirishimni tavsiya qilardilar. Olimalik yo'li ham sharafli, ham mashaqqatli ekani, shuni bo'ynimga olsamgina, bu yo'lga kirishim lozimligini ta'kidlardilar. Institutga bir borganimda, ustoz boshchiliklarida navbatdagi doktorlik himoyasida ishtirok etdim. O'sha kun ilk marta buxorolik olim, ustozim – professor Dilrabo Quvvatova bilan tanishish baxtiga muyassar bo'ldim.

Shu tariqa ilm izlash maqsadida bir necha yillarni poytaxtda kechirdim. Ne tongki, bu zalvorli yillar shamoli meni Buxoroga qayta olib keldi. Masofani inobatga olib, poytaxtdagi ustozlarim o'z ota makonimda ilmiy faoliyatimni davom ettirishimni maslahat berib, ortimdan duo qildilar. Yo'nalishimiz yaqinligi bois dostonshunos olim, ustozim Dilrabo Quvvatova bilan ilmiy ishimni davom ettirdim. Dissertatsiyani yozish jarayonida ustozimning ustozlari bo'lmish professor N.Rahimjonovga bir necha bor murojaat qildik, kerakli tavsiya va maslahatlarni oldik.

2019-yil Toshkentda malaka oshirish safarini o'tadim. Bir kuni ustozim D.Quvvatova telefon qildilar. Professor N.Rahimjonovning uylariga birgalikda "ilm ziyoratiga" boradigan bo'ldik. Ustozning uylari biroz shahar chekkasida edi. Bizni ko'rib, ustozning nurli chehralari yanada yorishib ketgani sezildi. Katta kutubxonasi

bor uyga olib kirdilar. Bu uy dunyodagi eng chiroyli, eng boy uy edi, nazirimda. Chunki bunda dunyoning butun ma'naviy xazinasini to'plangan edi go'yo. Ustozning kitoblarini birma-bir nazardan kechirdik. Jonli suhbatlarini sog'ingan ekanman, nevara shogird sifatida bergan har bir maslahatlarini telefonga yozib oldim. Ayrimlarini qog'ozga muhrladim. Ilmiy ishim mavzusi juda muhim ekanligi, shoir Ikrom Otamurod uslubi orqali mustaqillik davrida yaratilgan noan'anaviy dostonlarga munosabat bildirishim, istiqlol davri she'riyatining muhim estetik tamoyillari xususida fikr aytishim kerakligini uqtirdilar. Orada o'zlarining o'zbek adabiyoti rivoji uchun bajarayotgan ishlarini tilga olib, millat oldidagi burchlarini shu tarzda ado etayotganlariga ishora qildilar. Professor N.Rahimjonovning shoir Rauf Parfi asarlarini to'plab, uni adabiy jamoatchilik e'tiboriga taqdim qilishdek baxtga sazovor bo'lganliklari quvonarli holdir. Suhbat davomida shunday kitoblardan biri – "Sakina"ni menga dastxat yozgan holda esdalik tariqasida berganliklari cheksiz surur baxsh etdi. Uzoq suhbatdan so'ng, biz xohlamaygina orqaga qaytishga majbur bo'ldik. Ammo olam-olam bilimlar biz bilan hamroh bo'ldi.

Shu yil yakunida ustoz N.Rahimjonov maslahatlari, yo'l-yo'riqlariga amal qilib, ilmiy rahbarim D.Quvvatova rahnamoligida "Zamonaviy dostonlarda ijodkor uslubi va individualligi (Ikrom Otamurod va Usmon Qo'chqor ijodi misolida)" nomli dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qildim. Ilm yo'lidagi ushbu parvozim, olimalik yo'lidagi ibtido odimim uchun ustozim professor D.Quvvatova hamda ustozimning ustozlari, talabaligimdan ilmga katta rag'bat uyg'otgan nuqtadon olim, professor N.Rahimjonovdan cheksiz minnatdorman.

Ustozimning so'ng bor ko'rganim nurli chehrasi, yorqin nim tabassumi, hassos qalbi, o'zbek adabiyoti rivoji yo'lidagi jonkuyarlik aks etgan donishmandona teran qiyofasi xotiramda bir umrga muhrlangan... Oxiratingiz obod bo'lsin!..

СЕРМУЛОЗАМАТ УСТОЗ ҚИЁФАСИГА ЧИЗГИЛАР

Шоира Ахмедова,
БухДУ профессори

Ҳаётда шунлай одамлар бўладики, улар билан илк марта гаплашганингиздаёқ қалбидаги илиқлик чехрасидаги нур, зиё билан уйғунлашиб, сизни ўзига тортиб туради. Бундай инсонлар билан суҳбатлашганингизда қалбан яқинликни, хайрихоҳликни сезмай илож йўқ. Филология фанлари доктори, профессор Н.Раҳимжонов ана шундай нурли, зиёли устозлардан бири эди.

Устоз билан биринчи учрашувим кафедрага ишга келган йилларимда эди. Устозим, профессор С.Алиев (кафедра мудирини эдилар) кафедранинг Тил ва адабиёт институти бўлимлари билан тузилган шартномани имзолатиб келинг, шу билан бирга илмий иш бошладингиз, Тошкентдаги катта устоз олимлар, адабий муҳит билан танишиб келасиз деган мақсадда мени илмий сафарга йўллаган эдилар. Адашмасам, бу XX асрнинг 856- 87 йиллари эди.

Тўғриси, республикамиздаги энг йирик ва айтиш мумкинки, буюк олимлар И.Султон, Ҳ.Ёқубов, У.Тўйчиев, А.Ҳайитметов, С.Мирвалиева, Т.Мирзаев, Н.Каримов, Ғ.Мўминов, Б.Саримсоқов, Б.Назаров, Н.Раҳимжонов, И.Ҳаққулов каби устозлар жам бўлган (барчаларини Оллоҳ раҳматига олсин!) Алишер Навоий номидаги (ўша пайтда А.С.Пушкин номида эди) Тил ва Адабиёт институти жуда машҳур эди. Бунинг устига уларнинг барчаси менга - илмга эндигина кириб келаётган ёш олимага эътиборини кўриб, лол қолганман. Сабаби шундаки, 1984 йилда Бухоро давлат педагогика институтига ишга келганман, негадир ўша пайтларда биздаги бир неча расмий ташкилотларда бўлганимда, ёки ўзимизнинг институтда ҳам бундай мулозамат кам сезиларди. Тошкентга келиб, бутунлай бошқа манзарага дуч келгандим. Қайси бўлимга кирмай, бўлим бошлиқлари - катта олимлар мени мулозамат билан қарши олишар, эринмай тинглашар, ёрдам кўлини чўзишарди. Уларнинг кўпчилиги китобларини ўқиганим юртимиздаги катта олимлар эдилар. Эсимда, кимнидир кутиб коридорда турганимда, профессор, йирик навоийшунос олим А.Ҳайитметов келиб, "Қизим, ишингиз битдими?" деб сўраганларида хайрон қолган эдим.

Профессор Нўмон Раҳимжонов ҳам ана шундай сермулозамат, эътиборли устоз сифатида хотирамда қолганлар. Яна бир нарсани айтишим лозим, бу муқаддас даргоҳнинг аспирантурасида ўқиган, "Баён қилиш ва индивидуал услуб масаласи (Абдулла Қаҳҳор ва Ойбек ижодлари асосида) мавзусида номзодлик диссертациясини ёқлаган дадажонимни (Оллоҳ раҳмат қилсин!) кўпчилик олимлар яхши танир эдилар, ҳар гал келганимда уларга дадамнинг саломларини етказар эдим. Улар хурсанд бўлиб, қайта-қайта сўрашар эди. Н.Раҳимжонов ҳам дадамни яхши танир эдилар ва доим салом айтиб юборардилар. Аммо баъзи устозлар ҳатто дадамдан салом айтмасам ҳам хайрихоҳлик билан муомала қилишар эди.

Кейинчалик илмий ишим юзасидан, баъзан конференциялар ва бошқа ишлар билан Тошкентга келганимда бу устозларнинг суҳбатларидан бахраманд бўлиб, қалбим зиёга тўлиб қайтар эдим. Н.Раҳимжоновнинг кабинетларини тақиллатиб, кирганимда, табассум билан мени қарши олар, ўрниларидан туриб, менга пешвоз чиқадиган Устозни кўрмасдан кетмасдим.”Саид Аҳмад ҳажвиётида бадий маҳорат” мавзусидаги номзодлик диссертациямни ҳимоя қилган пайтларим (1991- 94 йиллар) домла Илмий кенгаш котиби эдилар. Илмий кенгаш раиси эса академик И.Султон эдилар. Иккалалари ҳам биздек вилоятлардан келадиган тадқиқотчиларга хайрихоҳ, маслаҳатларини аямасдилар. Кейин докторлик диссертациямга ҳам эксперт сифатида холислик билан камчиликларимни кўрсатиб, тақриз ёзиб берганлар, устознинг қўлёзмалари ҳали ҳам шахсий архивимда сақланади.

Йиллар ўтди, кафедрадошим, ҳамкасбим Дилрабо Қувватова домла илмий маслаҳатчилигида докторлик диссертацияси устида ишлай бошлади. Ҳар гал шогирдларидан салом олиб келганимда, нурли қиёфалари янада ёришиб кетар эди, устоз шогирдларини ўзгача меҳр билан қадрлар эдилар. Бирга Тошкентга келганимизда устознинг уйларига бориб, мароқли суҳбатларини, маслаҳатларини олиб қайтганмиз.

Устоз Н.Раҳимжонов ўзбек адабиётшунослигида ҳассос мунаққидлардан бири сифатида илмимиз учун, адабий танқид учун қимматли асарлар ёзиб қолдирдилар. Айниқса, улар орасида менга жуда ёққани, янгича шакл ва мазмунга, қарашларга бой асарлари “Бадий асар биографияси” китоби эди. Чунки адабиётшунослигимизда ижодкор билан суҳбатлар, адабий жараён, хотиралар асосида унинг ижоди, асарларининг яратилиши билан боғлиқ жараёнлар ҳақида бу йўналишдаги тадқиқотлар яратилмаган эди. Мазкур асарни ўқир экансиз, буюк назариётчи олим, “Навоийнинг қалб дафтари” китоби билан қалбимизда ўзгача ҳурмат уйғотган академик И.Султоннинг илмий, ижодий, маънавий олами, инсоний қиёфаси кўз олдингизда яққол намоён бўладики, бунда муаллиф –зуқоо мунаққид Н.Раҳимжоновнинг илмий-адабий тафаккурининг кенглиги, маҳорати, Устозга ҳурмати бугунги ёшлар учун Ибрат мактаби бўла олади.

Устоз Н.Раҳимжонов айни илм ва ижод палласида шиддат билан ишлаётган бир маҳалда Ҳаёт билан хайрлашдилар. Оллоҳ қабрларини нурга тўлдирсин! Илм ва ижодни маҳкам тутган, ҳамиша табассум қилиб, Сизни кутиб оладиган сермулозамат, ёш олимларга хайрихоҳ, сийрати ва сурати нурга, зиёга бурканган филология фанлари доктори, профессор, Устоз Нўмон Раҳимжоновнинг хотираси доим қалбимизда яшайди. Яратган асарлари, тадқиқотлари эса Адабиётга муҳаббат уйғотиш йўлида давом этаверади.

ОТА ҚАДРДОН НЎЪМОНЖОН РАҲИМЖОНОВНИ ХОТИРЛАБ

**Абдусаттор Муминов,
Алишер Муминов,
Нозим Муминов**

Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими, Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси, филология фанлари доктори, профессор Нўъмонжон Раҳимжонов таваллуд тошганига 80 йил тўлди.

Нўъмонжон ака Раҳимжоновни адамиз Гаффор Муминовнинг ҳамкасби сифатида анча аввал таниган эдим. Кейинчалик бу муносабатлар нафақат бир институтда узоқ йиллар давомида биргаликда фаолият юритаётган одамлар, балки ҳамфикр инсонларнинг замонавий адабиётшунослик масалаларини кўп жиҳатлари юзасидан қарашлари бир-бирига мос тушиши ёки яқин бўлганлигини ҳам англадим.

Нўъмонжон ака Марказ-1 даги уйимизга тез-тез келиб турар, ада билан узоқ суҳбатлашар эдилар. Ниҳоятда мазмунли бўларди бу суҳбатлар. Уларнинг мулоқотларини, назаримда ака-уканинг суҳбатларига қиёс қилса бўлади. Биз ҳам Нўъмонжон акани ака сифатида билиб, акага бўлган ҳурматни қилар эдик.

Адамиз билан Нўъмонжон аканинг шундай ижодий ҳамкорлигининг самараси сифатида адабиётшуносликка оид кўплаб китоб, рисоалар, илмий материаллар, янгиликлар, мақолалар юзага келди.

Адамиз Гаффор Муминовнинг 2006 йилда нашр этилган “Изланишларимдан қатралар. Адабий-танқидий мақолалар” тўпламини тайёрлаш ва чоп этилиш жараёнида Нўъмонжон аканинг Тошкент катта халқа йўлинингташқарисида “Лимонарий” деб номланадиган маҳалладаги ҳовлиларига кўп маротаба борганмиз. Нўъмонжон ака тўпламни қисм-қисм қилиб ўқиб ўз фикрлари ва мулоҳазаларини баён этиб берардилар. Ушбу суҳбат Нўъмонжон аканинг сўлим ҳовлиларида бўлиб ўтарди. Нўъмонжон ака боғда меҳнат қилишни яхши кўрардилар. Адамиз билан уйларига борганимизда кўпчилик ҳолларда боғда бирон-бир иш қилиб юрган бўлардилар. Қўлларида ток қайчи, елкаларида оқ чит рўмол, самимий кулгу билан кутиб олардилар. Ўша ҳовлида адамиз Нўъмонжон ака билан бирга ўтириб суҳбатлашишарди. Суҳбат тайёрланаётган тўплам борасида бўларди. Нўъмонжон ака ушбу тўпламни нашр этилишида масъул муҳаррир, ҳамда тўпламга “Қалб саҳовати” номли мақолалари билан кириш сўзи билан қатнашганлар.

Нўъмонжон аканинг адамизга бўлган ҳурматининг яна бир намунасини отамиз бандаликни бажо келтирган сўнг уларнинг хотираларига бағишланган китобни тўплаб, нашрга тайёрловчилардан бири бўлганлиги, унга “Хотиралар –

умр зийнати”, “Қалб саҳовати”, “Зиёли маънавияти. Фикри ёруғ олим”, “Илмий кизиқишлар миқёси” деб номланган тўртта мақола ёзиб берганлигида ҳам кўриш мумкин. Мақолаларнинг номланишининг ўзида Нўмонжон аканинг адамизга бўлган муносабатини тушуниш мумкин. Хотира китобини тайёрлашда Нўмонжон аканинг алоҳида хизматларини жумладан, мақолаларни тўплаб, уларни бирма-бир ўқиб чиқиб китоб ҳолатига келтирганликларини айтиш зарур.

Хотира китоби адамизнинг 80-йиллига арафасида, чоп этилди. Фанлар Академиясининг Тил ва адабиёт институтида шу санага бағишлаб конференция ўтказилди, ош берилди. Шундан кейин ҳам Нўмонжон ака билан алоқани узмадик. Улар фарзандларимиз тўйларида иштирок этдилар. Илмий фаолиятим, тайёрлаган мақолаларим юзасидан учрашиб, яхши маслаҳатлар олдим, кўпидан фойдаландим. Нўмонжон ака билан шу йўсинда учрашиб, ҳамкорликни давом эттирамиз деб ўйлаган эдим, афсус бевақт ўлим уларни қаторимиздан олиб кетди. Нўмонжон акадан яхши ном, ёрқин хотиралар ва албатта, ижодий мерос қолди.

Чамаси икки йиллар аввал Нўмонжон аканинг фарзандлари билан учрашиб қолдим. Улар менга адалари томонидан тайёрланган “Ўзбекистон адабиётшунослари” китобини тақдим қилди. Шу кунларда эса фарзандлар адаларига бағишлаб хотиралар китобини тайёрлашаётган экан, ишларини хайрли қилсин. Ниятлари ижобат бўлсин!

Нўмонжон аканинг илмга қилган хизматлари, атрофдагиларга берган меҳрлари охиратларини обод қилсин!

НЎМОНЖОН РАҲИМЖОНОВНИНГ 80-ЙИЛЛАРДАГИ ЙИРИК ТАДҚИҚОТИ

Дехқонова Махсума Шавкатовна,
филология фандари бўйича фалсафа
доктори, ФДУ адабиётшунослик
кафедраси катта ўқитувчиси
Тел: 90-407-61-84

***Аннотация:** Нўмонжон Раҳимжонов ўзбек лирикасини чуқур тадқиқ этган етук олимлардан бирidir. Ушбу мақолада олимнинг “Давр ва ўзбек лирикаси” номли монографияси ва ундаги назарий хулосалар таҳлил этилган.*

***Калит сўзлар:** давр, шеърият, шоир лирикаси, фалсафий лирика, фикрий шеърият, фалсафий мушоҳадакорлик.*

80-йиллар шеърияти бўйича махсус тадқиқот олиб борган адабиётшунос Нўмонжон Раҳимжоновнинг “Давр ва ўзбек лирикаси”¹ монографиясида лирика тараққиётининг характерли хусусиятлари тадқиқ этилган. Монографияда давр ва шеърият, маҳорат масалалари тадқиқ этилган. Адабиётшуносликдан маълумки, унинг ўрганиш объекти инсон ва жамият, унинг турли даврлардаги силсиласи ва тараққиётidir. Ушбу монографияда ҳам шу давр лирикаси ва унда инсон муаммосининг турлича талқинлари тадқиқ этилади. Бу муаммолар шеъриятда тарих ва инсон, инсоннинг тарихдаги ўрни, инсоннинг ўтмиши ва бугунини қиёслаш, тириклик мазмуни каби жиҳатларда ўзини намоён этаётгани қайд этилади. Ўз фикрларини Мақсуд Шайхзода шеърияти билан изоҳлайди. “М.Шайхзода лирикасига назар ташлайлик. Унинг 60-йиллардан кейинги лирикасида давр ва инсон талқини ХХ аср ўрталаридаги ижтимоий-сиёсий воқелик билан, унинг тараққиёт тенденциялари билан, инсон ва инсоният тақдир билан боғлиқликда кўркам кўриниш касб этади... Жавобгармиз бу дунёга, инсониятга, Жавобгармиз биз бу кунга, эртанги кунга. Ойга, кўкка, китобларга, маданиятга, Ўрмонларга, уммонларга, тонгга, тўлқинга” [Раҳимжонов Н.9.].

Шоир ушбу шеърида инсонни бу дунё учун масъулият билан қарашга чақиради. Бу чақириқида келажак авлодга дунёни тоза ва соф, гўзал тарзда қайтариш туйғуси шоирни қамраб олганди. Унинг бу орзуси инсониятга қанчалик масъулият билан қараганини ифодалайди. Олимнинг ўрганишича, шоир шеъриятида давр образи етакчи мавқега эга. У давр лирикасини баҳолар экан, лириканинг устун жиҳатларини асослашга ҳаракат қилади. Ҳақиқатан, лирика шоир туйғуларини, давр шиддатини, даврнинг образини гавдалантириб берувчи муҳим воситадир. Асқад Мухтор шеърларини таҳлил қилар экан, унда

¹ Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – 189 б.

хам айни инсон мавзуси бўй чўзгани кўзга ташланади. Бундан ташқари, вақт образининг марказда туриши, шеърларида замондошларига хос маънавий-интеллектуал ҳаётнинг фалсафий талқини акс этишини юқори баҳолайди. “А.Мухтор ижодий кредоси мана шу фикрни ўзида тажассум этган... Ўтиб борар, зулмлар ўтиб борар, Бири – буюк, қай бири – оддий. Бири учар мангуликка қараб, Бири вазмин ва қарийб моддий. А.Мухтор вақт, ҳаёт, гўзаллик, мангулик сингари боқий мавзуларга тез-тез мурожаат этаркан, уларни инсон умрининг моҳияти, мазмуни нуқтаи назаридан туриб ёритади” [Раҳимжонов Н.24.]. Олим таҳлилларидан шундай хулоса қилиш мумкинки, 80-йилларга келиб лирикада инсон ва унинг жамиятдаги ўрни, инсоннинг мукаммаллашуви, онги ва шуурининг ривожланиши каби шеърлар шоирлар ижодининг асосий мавзусига айланди. Бу борада, Н.Раҳимжоновнинг “сўнгги йилларда адабиётшунослигимизда “фалсафий лирика” ўрнида “фикрий шеърият” сингари ибора тез-тез қўлланиб турибди. Бу ибора фалсафий лирика табиатини кўп жиҳатдан таърифлай олади. Зотан, фикрни ҳиссий тарзда жўшқинлик билан ифодалаш ушбу турнинг бош ва етакчи фазилатидир” [Раҳимжонов Н.29.] каби хулосалари ҳам мавжуд.

Эркин Воҳидов шеърлари таҳлилида ҳаётдаги иллатларни, қораликларни, қусурларни инкор қилишда гўзаллик энг яхши қурол экани айтилади. Олимнинг таъкидича, инсоннинг ақлий салоҳиятини мадҳ этиш ва бу орқали ҳаёт гўзаллигини тасдиқлаш шоирнинг бош эстетик принциpidир. Шоир шеърларида тасвирда мусиқийлик, инсон руҳиятининг психологик таҳлили теранлашади. Монографиянинг кейинги бўлими лирикада табиат ва жамият аксланишига бағишланади. Шеъриятдаги барча лирик жанрларда табиат тасвири (пейзаж) кенг ўрин эгаллайди. Табиат тасвири шоирнинг мақсади, фалсафаси, ҳис-туйғусини ифодалаш учун хизмат қилади. “Шу маънода пейзаж лирикада инсоний ҳис-туйғу ва кечинмаларнинг эркин тажассум топиши учун фон ва айни вақтда органик хужайра вазифасини ўтайди. Ана шундай кезларда табиат ўзининг мутлақ ва барҳақ қонунлари билан намоён бўлмайди. У инсон сингари қувонади, бўзлайди, йиғлайди, тушкунликка тушгандек оғир ва маъсум сокинликка чўмади. Булар бежиз эмас, албатта” [Раҳимжонов Н.56.]. Олим таъкидлаганидек, пейзаж шоирнинг мақсади йўлида хизмат қилади Лирик қаҳрамон кайфиятига монанд табиат ҳодисалари ҳам ўзгаради. Унинг жўшқин ҳислари барқ урган гуллар, нур сочган қуёш билан ифодаланса, руҳиятидаги тушкунлик эса хазон бўлган барг, шивирлаган ёмғир, қаҳратон совуқ орқали юзага чиқарилади. Биламизки, инсоннинг ҳис-туйғуларига энг катта таъсир этувчи куч – бу табиатдир. Албатта, бу ҳар бир инсоннинг индивидуал характериға қараб ўзгаради. Шу кунгача сир-асрорға тўла бўлган инсон

рухияти табиатдан турлича завқланади. Кимнингдир лирик қаҳрамони оддий елдан завқ олса, яна кимнингдир қаҳрамони кавсар сувидан завқланади. Бу шоирнинг ўзига хос феъли ва сажиясига қараб белгиланади. Ҳ.Олимжоннинг “Бахтлар водийси” шеърини таҳлилига назар солсак, унда табиат тасвири орқали ўша давр одамлари, уларнинг ўй-мушоҳадаларидан хабар берилади. Миртемирнинг “Булут” шеъриси эса пейзаж инсоний рух, дард, севинчи ифодалашга хизмат қилган. Шоир ўз шеърисида инсоннинг ички дунёсини очиқ берган. *“Кўк юзида нага булут – оқ булут.../ Бир қарасанг – осмон тўла оққувлар,/ Бир қарасанг – баланд қорли чўққилар,/ Бир қарасанг – кўз илгамас оқ барқут...// Кўк юзида ёруғ, оидин бир рўё.../ Уста рассом чизмиш ажиб манзара...”* Маълумки, пейзаж лирикада шоир ниятларига бўйсундирилган тобе функцияни ўтайди. Миртемир ҳам булут тасвирига кенг ўрин берар экан, ўз мақсадларидан келиб чиқиб, ўқувчи қалбида психологик ассоциацияларни уйғотади, айти вақтда, она ўлкамизнинг табиати учун характерли бўлган жонли картиналарни ҳам яратади” [Раҳимжонов Н.60.]. Олимнинг таҳлилларидан кўринадикки, пейзаж тўла равишда шоир кайфияти, нияти, туйғуларини ифодалаш учун хизмат қилган. Бизнинг фикримизча, пейзаж, ҳақиқатан ҳам, лирик қаҳрамон, яъни шоир мақсадларини кўрсатиб берган. Шу билан бирга, табиат тасвири шу қадар гўзалки, Миртемир ундан илҳомланиб, ушбу сатрларни қоғозга муҳрлаган. Назаримизда, пейзаж орқали шоир бадиий ниятининг ифодаси айти бу шеърда кўринмайди. Чунки, шеърда ғоявий мақсад ҳам, пейзажни тобелантириш ҳам учрамайди. Шунчаки, кўкка боқиб табиат гўзаллигидан илҳомланган шоирнинг соф туйғулари қоғозда ўз аксини топган. Бизга маълум бўлганидек, пейзаж шоир нияти ва мақсадини ифодалашга хизмат қилади. Бу қоида барча шеърга ҳам тааллуқли эмас. Чунки илҳом келган пайтда, мақсад ҳам, ният ҳам чекинади. Олимнинг таъкидича, бу даврдаги шеърларда табиат, меҳнат, гўзаллик каби тушунчалар муштарак ҳолда ифода этилган. Айтиқса, бу жиҳат Зулфия шеърларида яққолроқ намоён бўлган. “Мен чизолмаган сурат” шеъри шоиранинг эстетик кредосини маълум даражада инкишоф этган. Қишлоқларни кездим, борлиғим Жарангли дам сеҳрига мафтун, Ватандош, сен бахтиёрлигим, Сенсиз на куй, на ҳаёт бутун. Қаҳрамонни чақирдим, ёндан, Товуш берди колхозчи аёл. Еллар ювган юзида илҳом – Мен ёзажак куйдан баркамол...Ўз бахтидай вазмин бу зотда... Шоира лирикасидаги ана шу маслак, эътиқод ўзбек аёлининг тақдири ва Ватан тақдири, аёл бахти ва инсоният иқболи, аёл қадри ва она-сайёра қадри аспектларида тажассум топади” [Раҳимжонов Н.77.]. Олим таъкидлаганидек, Зулфия ижодида ўзбек аёлларининг турлча тақдири, меҳнати эвазига омонлик, бахт топган заҳматкаш аёллар тасвирига кенг ўрин берилган. Юқоридаги

шеърга эътиборимизни қаратадиган бўлсак, шоира аёлнинг “ел ювган юзи”ни жуда аниқ тасвирлайди. Меҳнатдан бош кўтармаган бу аёлнинг юзи еллар эпкин таъсирида зоғора нон каби ёрилган, қуруқшаб кетган. Зулфия эса бу юзни шу даражада чиройли тасвирлайдики, китобхоннинг онгида “ел ювган юзли” гўзал пайдо бўлади. Шу ҳолида ҳам у бахтли, ўтган кунидан, меҳнатидан мамнун. Ҳақиқий ўзбек аёлининг сиймосини чиза олган Зулфия ижоди фалсафий мушоҳадаларга бойлиги билан доимо ажралиб турган. Монографияда шоира Саида Зуннунова шеърлари ҳам таҳлил қилинган. Унда қайд этилишича, Саида Зуннунова шеърятининг асосий моҳияти “садоқат”. Бу – Ватани ва халқига, яъни барҳақ ҳаёт ва муаззам диёр қиёфасини ўзгартириб юбораётган қудратли халқининг яратувчанлик меҳнатига, ёшлик ва муҳаббатга садоқатдир, она ва оналик туйғуларига, табиат гўзаллиги ва инсоннинг қалб кўрки ва маънавий чиройига садоқатдир. Олим таъкидлаганидек, Саида Зуннунова – ҳар бир ҳодисадан завқ ола билган шоира. Ижодида қайси мавзу қаламга олинса, (дўстлик, ёшлик, ватан, муҳаббат) шунинг завқини туйган ва уни шеърига ҳам юқтирган. Энг асосийси, барча шеърларида лирик қаҳрамон садоқати акс этиб туради. Нўмонжон Раҳимжонов фикрича, шу йиллар М.Шайхзода, Миртемир, Зулфия, А.Мухтор, Шукурулло лирикасида фалсафий мушоҳадакорлик яққол кўзга ташланган. Улар шеърятининг ҳажми турлича бўлса-да, маънавий-ахлоқий муаммоларни ҳал этиш жиҳатидан бир хил ижтимоий характер касб этган. Шу билан бирга, етук, бадиий жиҳатдан пухта асарларнинг кўп эмаслиги ҳам таъкидлаб ўтилади.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, олимнинг ушбу монографиясида 80-йиллар лирикаси ва унинг ўзига хослиги чуқур таҳлил этилган. Тадқиқотдаги назарий қарашларва талқинлар адабий танқидчиликнинг тараққиётига ҳисса қўшган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Адабиёт назарияси. Икки томлик. Иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1978. –237 б.
2. Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – 189 б.

УСТОЗНИНГ ИЛМ ВА ҲАЁТ МАКТАБИ

Дилрабо Қувватова,
*БухДУ профессори, филология
фанлари доктори*

Устозлик – улуғ мақом. Бу рутбага муносиб бўлиш ҳам саодат, ҳам машаққат. Машаққат чекиб, саодатга эришган устозларга ҳамиша ҳавас билан боқамиз. Адабиёт илмига иштиёқ уйғотган, ҳамиша ҳайрихоҳ бўлган устозларимга таъзим қиламан. Дарвоқе, сўзимни бежизга устоз ҳақидаги фикрлар билан бошламадим. Таъбир жоиз бўлса, ўзбек шеършунослиги илми дарғаларидан бири, юксак инсоний фазилатларни ўзида жам этган забардаст олим, беназир инсон Нўъмон Раҳимжонов Илм ва Ҳаёт сўқмоқларида катта заҳмат чекиб, саодатга эришган мухтарам устозлардан бири эди.

Устознинг ўзбек адабиётшунослигига оид катор тадқиқотларини ўқиганман. Домлани танишим номзодлик ҳимояси олди семинар билан боғлиқ. Номзодлик ишимни ўқиб, унга илиқ муносабат билдиргандилар ўшанда. Шу шу устоз китобларини кўрсам, мақолаларига кўзим тушса, эътиборсиз қолдирмайдиган бўлдим. Йиллар ўтаб, докторлик иши қилишга иштиёқ уйғонди. Устозим, филология фанлари доктори, профессор Охунжон Сафаров (Илоҳим, руҳлари шод бўлсин) бир неча мавзуларни таклиф қилдилар. Дастлабки ишим наср тадқиқига бағишлангани учун домлага шеър илмига қизиқишимни айтдим. Бағрикенг, илмпарвар устозим мени Нўъмон Раҳимжоновга йўлладилар.

Номзодлик ҳимоясидан кейин 10 йилдан зиёд вақт ўтган. Бир куни устоз Н.Раҳимжоновнинг хузурларига бордим. Эшикни очиб, чехрасида самимият, беғуборлик балқиб турган устозга рўбару келдим. «Устоз, мен Бухородан, дея ўзимни таништирдим». Шунда домла: «Албатта, сизни биламан, фантастика бўйича номзодлик ёқлагандингиз», – дедилар. Шу жойда домланинг ниҳоятда эътиборли, синчков эканликларига гувоҳ бўлдим. Чунки менга ўхшаган номзодлик ҳимоя қилганлар озми!? Устоз билан илмий суҳбатимиз ана шундан бошланди. Домла бир неча мавзуни таклиф этдилар. Улар орасида «XX аср иккинчи ярми ўзбек поэмачилигининг тараққиёт хусусиятлари» деб номланган мавзу менга маъқул бўлди. Кўпдан орзу қилган мавзу бўлгани учун ишга тезда киришдим.

Ҳар гал устоз хузурларига ишнинг бирор қисмини ёхуд бирор мақола билан борардим. Устозни тинглардим, зарур фикрларни ён дафтаримга ёзиб олардим. Ҳар бир суҳбатда устоздаги бир фазилатни кашф этганман. Мавзуни ишлаш жараёнида туғилган фикрлар, ғояларни айтиб домладан маслаҳат

сўрардим. Айниқса, илмий суҳбатларимиздан бирида (бу пайтда ишнинг бир неча боблари ёзиб бўлинган эди) домлага поэмани таснифлаш билан боғлиқ фикрларимни айтдим. Устозга маъқул келди. Қувваи ҳофизаси жуда кенг, вазмин, ҳилм табиатли, ниҳоятда талабчан домла менга В.Жирмунскийнинг «Байрон ва Пушкин» («Байрон и Пушкин») китобини топиб ўқишимни тавсия этдилар.

Ё бошқа гал борганимда илмий суҳбатлар, маслаҳатлардан сўнг В.Кикансинг «Современная поэма» китобида поэма жанри чуқур ишланганини, ундан ўзбек поэмалари хусусиятларини ёритишда фойдаланиш мумкинлигини айтдилар. Шу билан бирга, Гегелнинг эпик поэма ҳақидаги назарий қарашларни устознинг маслаҳатлари билан излаб топиб, диссертациямда ҳавола берганман.

Домла билан бўлган суҳбатлар ҳамиша самарали ўтган ва ҳатто мақолалар, диссертация ҳақида ёзиб берган фикрларининг ҳар бирини сақлайман. Шундай мазмунли суҳбатлардан бири 2014 йилнинг ноябрида бўлиб ўтди. Мен касбдошим, фольклоршунос олима, профессор Дармоной Ўраева билан Тошкентга илмий сафарда бўлдим. Иккаламиз домлани кўриш учун ҳузурларига бордик. Бир соатдан зиёд давом этган илмий суҳбатда устозни яна бир карра кашф этдим. Домла А.Қодирий ҳақидаги тадқиқот устида ишлаётган эканлар. Қарангки, «Ўткан кунлар»ни неча бор ўқиган бўлсам ҳам, бир жиҳатга эътибор бермаган эканман. Устоз қодирийшуносликда ҳали айтилмаган янги бир ғоя ҳақида сўзладилар. Бу асардаги диний жиҳатлар: асар хронтопининг намоз вақтлари билан алоқадорлиги, унинг қаҳрамонлар тақдирига боғлиқ жиҳатлари. Ёҳуд шу суҳбатда устоз замонавий ўзбек поэмачилигига ўзига хос йўналишни олиб кирган Чўлпон Эргаш асарларини тўплаш, тадқиқ этиш билан шуғулланаётганларини айтдилар. Биз домланинг илмий мубоҳасаларига киришиб кетиб, вақт ўтганини ҳам сезмай қолибмиз. Шинамгина, ҳашамлардан ҳоли хонада ўта самимий, беғараз, чуқур илмий тафаккур эгаси, беназир инсон билан суҳбатдош бўлганимиздан биз, икки дўст, бахтиёр эдик. Дарвоқе, устоз табиат шайдоси, ҳовлидаги мўъжазгина боғда ўсган меваларга қараб, домланинг илмий фаолиятни жисмоний меҳнат билан бақамти олиб борганликларига ишонч ҳосил қилиш мумкин. Кузнинг охири бўлганидан домла ўз боғидан узилган хурмо билан бизни меҳмон қилдилар. “Домла – катта хазина”, деган фикрга келдик ва устоз билан илиққина хайрлашдик.

Бироқ ҳар галги илмий суҳбатлардан бир хулосага келаман: устозни безаб турган гузал инсоний фазилат – бу камтарликдир. Камтарликда эса донолик катта заковат, илм зоҳир.

Устоз билан боғлиқ хотираларим бисёр...

Тўғриси, тез-тез устозга телефон қилиб турардим. Нима бўлди-ю, бир муддат у киши билан боғланолмадим. Бунинг устига 2021 йилнинг феввали бошларида коронавирус билан оғридим. Муолажанинг бошлаганимнинг 2-куни Масруржон синиқ овозда телефон қилди, қаттиқ хавотирга тушдим. Шу лаҳзаларда у менга устозимнинг ёруғ оламини тарк этганликлари ҳақидаги нохуш хабарни етказди. Мен ўша дақиқалардаги ҳолимни ифода этиб беролмайман. Бу мен учун оғир жудолик эди. Тўғриси, кутилмаган бу хабардан эсанкираб қолдим. Чунки устоз бардам, соғлом эдилар... Ҳар галги ҳаётини ва илмий суҳбатлар менга руҳ берарди, устоздан дуолар олардим: хайр-хўшдан ҳар доим: “Ишларнинг барори” дер эдилар. Дарҳақиқат, мен учун шундай самимият ва илиқ меҳрга тўла тиниқ овоз энди тинган эди. Бу қайғули хабар адабиёт ва илми аҳлини аҳлини ларзага солгани рост. Ўша маҳзун кунларда қатор адабиётшунос олимлар телефон ва турли ижтимоий тармоқлар орқали ҳамдардлик изҳор этишди. Андижон давлат университети профессори, ф.ф.д., таниқли олима устозимиз Салима опа Мирзаева устоз ҳақида гапириб: “Ортларидан бутун эл йиғлаб қолди”, дедилар. Мен ўшанда шундай жавоб ёзганим: “Тўғриси, устозимнинг оламдан ўтганларини эшитиб, ҳаётда энг якин инсонимни йўқотгандай бўлдим. Устознинг отадай улуғлигини яна чуқур ҳис этдим. Ўзим ҳам бемор эдим. Етиб боролмадим. Устоз ҳаётликларида бир эзгу ишни бошлаган эдим. Шогирдимга Н.Раҳимжоновнинг серқирра фаолиятларини докторлик мавзуси қилиб берганим. Устоз эшитиб хурсанд бўлгандилар ўшанда... Кўнглимда армонларим кўп. Бу ёруғ оламда эзгу ишлар қилган инсонлар тириклигида ўзига ҳайкал қўяр экан. Устозим ҳам ўзларига шундай ҳайкал қўя олдилар. Опажон, ортларидан эл йиғлади, дедимиз. Дарҳақиқат, устозим эл йиғлайдиган ҳазрати инсон эдилар. Қабрлари нурга тўлсин!” Ёки Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети профессори, ф.ф.д. Н.Жабборов ҳам “Нўмон ака ниҳоятда самимий, бағрикенг олим-устоз эдилар”, дедилар. Бундай эътирофларни устоз ҳаётликларида ҳам кўплаб тенгдошлари, ҳамкасбларидан эшитиб, қалбимда чексиз бир ғурур туйганман. Шу ўринда яна бир хотира ёдимга тушади: устоз билан эндигина ишлаётган кезларим эди. Уларни йўқлаб, Тил ва адабиёт институти (ҳозирги Ўзбекистон Республикаси ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти)га бордим. Эшиклари олдида устозни кутиб турганимда, таниқли тилшунос олим Эргаш Умаров ёнимда ўтиб кетаётди, кимни кутаётганимни сўрадилар. Мен Н.Раҳимжонов номларини айтганимда: “Нўмонжон шеършуносликда академик”, дедилар. Шунга айтса керакда: “Менинг кимлигимни эл билса бўлди”, деб. Бу эътироф менга қанот бағишлаганини сўз билан ифода этиб беролмайман.

Устоздаги яна бир одамийликни қадрлайман: домлани кимдир хафа қилган, кўнгилларига озор берган бўлса, ёзғириб, ўша одам ҳақида гапириб ўтирмасдилар, аксинча, ҳеч нима демасдилар. Агар қалбларидан чуқур жой олган инсонлар ҳақида гапирсалар ёки эшитсалар, ўша меҳр, ҳурмат, садоқат нафақат сўзларида, юз-кўзларида ҳам акс этиб турарди. Бу фазилатни номлаш керак бўлса, мен уни одамохунлик деб атаган бўлардим.

Серфазилат, болажон, илмпарвар, нигоҳи теран, зукко шеършунос, адабиёшунос устозимдан кўп ҳаётий сабоқлар олдим. Яратганга беҳисоб шукрлар қиламанки, мени ҳамиша ана шундай ҳам олим, ҳам инсон бўлган устозларга рўбарў қилди. Маърузалар ўқиганимда, талабаларга ниманидир ўргатаётганимда шундай устозлар кўз олдимда туради. Камтарин, одамохун, бағрикенг устозим Нўмон Раҳимжоновнинг руҳлари шод бўлсин. Устознинг иккинчи умрлари фарзанду неваралар ҳаётида, сезмазмун китоблари саҳифаларида, шогирдлар тили ва дилида давом этмоқда.

NO'MON RAHIMJONOV DILBITIKLARIGA XOS XUSUSIYATLAR

Qodirova Ro'zigul Sadulloyevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro davlat universiteti, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi
+998914077198

Annotatsiya: Adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor N.Rahimjonov ilmiy faoliyat bilan barobar badiiy ijod bilan samarali shug'ullandi. Xususan, adib ijodiy izlanishlarida dilbitiklar alohida o'rin tutadi. Bu termin faqat N.Rahimjonovga xos bo'lib, ular mantiqan A.Muxtorning "Tundaliklar", O'.Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarlariga uyg'un. Chunki bu asarlarda ham ijodkorlarning ma'lum bir qolipga solinmagan, biror bir adabiy janrga mansub bo'lmagan o'zgacha uslubdagi bitiklari aks etgan. Dilbitiklar xalq og'zaki ijodidagi maqollar mazmuniga mos ravishda hayotdagi kechirmishlarning tarzi, mohiyati, avvalo, turmush tajribalarida toblanib, so'ng ommalashgan hamda ulardan chiqarilgan so'nggi xulosalar ko'rinishidagi adibning ma'naviy anglamlarini ifoda etadi. Mazkur maqolada N.Rahimjonovning dilbitiklari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: dilbitiklar, No'mon Rahimjonov, hikmat, tush, mavzu, shakl, uslub.

Annotation: Literary scholar, doctor of philology, professor N. Rahimjonov was equally active in artistic creation as well as scientific activity. In particular, dilbitics occupy a special place in the literary creative search. This term is unique only to N. Rahimjonov, and they are logically compatible with the works of A. Mukhtar "Nights" and O. Hoshimov "Inscriptions on the border of the notebook". Because even in these works, the writings of artists are reflected in a special style that is not set in a certain mold and does not belong to any literary genre. Dilbitics express the spiritual meaning of the writer in the form of the style and essence of the experiences in life, first of all, and then popularized, and the last conclusions drawn from them, in accordance with the content of proverbs in the folklore. This article analyzes N. Rahimjonov's dilbitics.

Key words: lovers, Nomon Rahimjonov, wisdom, dream, theme, form, style.

No'mon Rahimjonov nozikta'b ijodkor, yozuvchi va shoirdir. She'ri, adabiyotni chuqur tushungan, uning betakror talqinlarini yaratgan adabiyotshunos olim badiiy so'z mas'uliyatini yelkasiga jasorat bilan ko'tardi. U ilmda anglaganlarini badiiy so'zga ham tatbiq eta oldi. Shu jihatdan uning "Jimjit jolalar" nomli birinchi qissasi dastlab "Sharq yulduzi" jurnalida bosildi. 2016-yilda esa bu asar kitob holida bosilib chiqdi. Unda qissa bilan birga N.Rahimjonov ijodiy izlanishlari mahsuli bo'lgan dilbitiklar va zamonaviy ertaklar ham kiritilgan.

Ma'lumki, Qadim Sharq mutafakkir va mutasavvif allomalarni yetishtirgan go'shadir. Qadimdan ijodkorlarning so'z va fikrlariga ehtiyoj bo'lgan va, albatta, bundan keyin ham ruh ziynati sanalmish bitiklarga chanqoqlik davom etadi.

No'mon Rahimjonovning badiiy ijodiga xos xususiyatlar borasida to'xtalar ekanmiz, avvalo, uning badiiy ijoddagi izlanishlariga nazar tashlamog'imiz darkor. Ijodkorning "Jimjit jolalar (Qissa, esselar, zamonaviy ertaklar, dilbitiklar)" kitobining

so'nggi sahifalari "Dilbitiklar" nomi bilan turkumlangan "Tush – timsol", "Tomchilar, tomchilar", "Tuproq isi" qismlaridan iborat.

Dilbitiklarning "Tomchilar, tomchilar" qismida muallifning ota-onasidan meros bo'lib qolgan aqlni charxlovchi "qayroq fikrlar" o'quvchilar e'tiboriga havola qilingan. Qimmatliligi, ta'sirchanligi bilan yoddan chiqmaydigan bu kabi dilbitiklar, odatda, ko'pchilikka meros bo'lib qolgan, lekin shularni hafsala qilib qog'ozga tushiradiganlar kam topiladi. Bu ham aslida ota-onaga, ajdodlarga hurmat va sadoqatning o'ziga xos bir ko'rinishi. Xalq merosi tarkibidan o'rin olishga arzigulik bu kabi hikmatlar har bir insonni uyg'oqlikka, hushyorlikka chorlashi bilan qadrli va bahosizdir.

Yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning: "Dilbitiklar"ning muallifi No'monjon akaning bir o'zi emas. U hech mubolag'asiz katta, nurli va g'oyatda fayzli xonadon a'zolarining ijodidan namunalar. Ikki, uch, hatto to'rt avlod vakillaridan meros hikmatlar. Ajdodlardan qolgan hikmatlarga hurmat – ularning o'zlariga bo'lgan hurmat timsolidir, avlodlar zanjirining oltin xalqachalarini yanada mustahkamlashdir" [Do'stmuhammad X. 1:5] kabi fikrlari "Dilbitiklar"ning shajara jamlanmasi o'laroq yuzaga chiqqanligini dalillaydi.

"Tush – timsol" qismida muallif o'zining, onasining, singlisi Zahroning hamda o'g'li Masurning tushlarini keltirgan va ulardagi timsollar talqiniga alohida e'tibor qaratgan. Otasi Karimjon Rahimjon o'g'lining vafotidan bir necha kun burun onasi tush ko'rgan. Tushga ko'ra, otasining vafot etgan ba'zi mahalladosh o'rtoqlari uni o'zlari bilan birga uloqqa borishga undashadi. Karimjon aka shoshilib, egarlanmagan jabduqsiz yaydoq to'riqqa chapdast yigitlardek sakrab minib, ko'pkariga otilib chiqib ketadi.

Hozirga qadar bizda tushga mayitlar kirib, chaqirib kelishlari yoki o'zlari tomon undashlari holati xosiyatsiz, oqibati yomon vaziyat sifatida talqin qilinadi. Darhaqiqat, tushlarning bu kabi ko'rinishlari hammadam ham kuzatilishi mumkin. Chunki birgina Karimjon aka bilan bog'liq xosiyatsiz tushlar adibning onasida, o'g'lida va o'zida namoyon bo'lgan.

"O'zinning tushlarim..."

Oldingi katta tishimdan biri tushgan emish. Zinadan urilib-urilib pastga yumaladi-da, ikkiga bo'linib ketdi..." [Rahimjonov N. 3:94].

Adib bunday qo'rqinch bir tushdan cho'chib uyg'onadi-da, yuragi g'ash, uvishib orqaga tortadi. Tushdagi tish dadasi bilan amakisining vafotiga ishora ekanligini keyi anglab yetadi. Oradan ko'p o'tmay dadasi og'irlashib qoladi va to'qqizinchi aprel tongotarida to'qson yetti yoshida vafot etadi. Ertasi kuni saharda amakisi Salim aka ham dorilbaqoga yo'l oladi.

Faqat bugina emas, N.Rahimjonov oyisining o'limi bilan aloqador singlisi Zahro, o'g'li Masrur va o'zining oqibati ayanchli yakunlangan tushlarini ham keltirib o'tadi. O'zining tushida sigaretdan uzilgan cho'g' kulga qo'shib egnidagi paltosiga tushishi ortidan bir tutam olovga aylanib, badanini kuydirgan bo'lsa, singlisining tushida esa, hovlilari etagidagi baland devor ag'anab ketadi.

Biz o'zbeklar, chindan-da hanuzgacha birortamizning tushimizda tishimiz tushib qolsa, xavotirga tushamiz. Mana shunday paytlarda qadimdan qolgan ota-bobolarimizning bir hikmatnamo, yurakka taskin beruvchi: "Tushingni eng avval suvga ayt, u barcha ko'ngilsizliklarni yuvib yuboradi" qabilidagi so'zlaridan panoh izlab qolamiz go'yo. Natijada, shu amalni bajarsak, ya'ni tushimizni suvga borib bayon etsak, o'zimizni biroz bo'lsa-da yengil his qilgandek bo'lamiz. Haqiqatda yana bir narsani anglaymizki, tushlar bizga kelajakdan xabar beradi. Xushxabar yoki ko'ngilsizlik kutayotganidan ogohlantiradi.

Ma'lumki, adabiyot xalq og'zaki ijodidan bino bo'lgan, uning zaminida yetilgan. Kitobning "Tush – timsol" qismi bitiklarning xalq og'zaki ijodi bilan bevosita omuxtaligini ko'rsatadi. Hayotdagi kechirmishlarning tarzi, mohiyati, avvalo, turmush tajribalarida toblanib, so'ng ommalashgan hamda ulardan chiqarilgan oxirgi xulosalar ko'rinishida adibning ma'naviy anglamlarida aks etgan.

Dilbitiklarning "Tomchilar, tomchilar" qismida muallifning ota-onasidan meros bo'lib qolgan aqlni charxlovchi "qayroq fikrlar" o'quvchilar e'tiboriga havola qilingan. Qimmatliligi, ta'sirchanligi bilan yoddan chiqmaydigan bu kabi dilbitiklar, odatda, ko'pchilikka meros bo'lib qolgan, lekin shularni hafsala qilib qog'ozga tushiradiganlar kam topiladi. Bu ham aslida ota-onaga, ajdodlarga hurmat va sadoqatning o'ziga xos bir ko'rinishi, deb bilamiz. Xalq merosi tarkibidan o'rin olishga arzigulik bu kabi hikmatlar har bir insonni uyg'oqlikka, hushyorlikka chorlashi bilan qadrlil va bahosizdir. Shuni inobatga olib, N.Rahimjonovning bu dilbitiklari haqida bizdan oldin fikr yuritgan Xurshid Do'stmuhammad ularni, haqiqatda, "avlodlar zanjirining oltin halqachalarini yanada mustahkamlashdir" deya go'zal e'tirof etgan.

Adibning ushbu shakldagi ijodiy izlanishlarini bir qarashda A.Muxtorning "Tundaliklar", O'.Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarlariga mantiqan mengzash mumkin. Yuqorida tilga olingan asarlar ham ijodkorlarning ma'lum bir qolipga solinmagan, biror bir adabiy janrga mansub bo'lmagan o'zgacha uslubdagi bitiklaridir. Ular, odatda, yozuvchining bosh-keti yo'q, uziq-yuluq o'y-xayollari qalashib kelganda, ya'ni tasodifiy holatlarda, ota-bobolaridan eshitganlari hamda xalq orasida yurganda tinglaganlari asosida, turmush tajribalari, o'qib-o'rganganlarining natijasi o'laroq yaraladi.

Xronologik tartibdagi voqealar bo'lmaganligi bois, bu gaplar, biri bog'dan, biri tog'dan bo'lgandek tuyulsa ham, kimningdir tutumi va yoki fikrlariga ta'sir qilishi mumkin, Qolaversa, bitiklar yozuvchining ruhiy holati va dunyoqarashi ko'lamidan ogoh etadi.

Dilbitiklar ma'lum qismining "Tomchilar, tomchilar ..." deya nomlanishida o'ziga xos ma'no bor, bizningcha. Ularning har xil mavzularda, uzun-qisqa ko'rinishda, she'riy va nasriy shaklda, ma'lum bir zamon va makonda chegara bilmas holatda kitobxonga taqdim etilishi mantiqan yomg'ir tomchilariga o'xshaydi. Yoshi ulug'lar ta'biri bilan aytganda ozgina, lekin sozgina... Ya'ni shakl kichkina, ammo undan uqishimiz lozim bo'lgan ma'no sarhadsiz. Qalbni bedorlikka, tafakkurni faollikka chorlaydi, mavjudligimiz mohiyati, undan ko'zlangan maqsad-muddaodan so'z ochadi.

Dilbitiklarni quyidagi xususiyatlariga ko'ra alohidalashimiz maqsadga muvofiq:

1. Mavzusiga ko'ra.
2. Shakliga ko'ra.
3. Uslubiga ko'ra.

Bitiklarni nazardan o'tkazar ekanmiz, ularni mavzusiga ko'ra turlicha yo'nalishlarga ajritib o'rganishimiz mumkin: mehr-oqibat, adolat, yaxshilik, mehnatsevarlik, ilmparvarlik, donishmandlik, do'stlik, omonatni asray olish, sir tuta bilish, ishonch kabi hayotda insoniylikni ulug'lovchi tuyg'ular; xiyonatkorlik, yolg'onchilik, poraxo'rlik, hasadgo'ylik, ikkiyuzlamachilik, dangasalik, nodonlik singari ruhni xastalovchi qusurlarni ifodalovchi fikrlar o'zligimizni biroz bo'lsa-da taftish qilishga undaydi.

Yerdan oyog'i, osmondan ko'zi uzildi [Rahimjonov N. 3:126].

Ushbu qisqa jumla o'z bag'riga Odam va Olam sinoatini yashirgan. Kitobxonni teran xayolga toldirgan ijodkorning bedor qalbi Yaratilmish kechirmishlarini, yaralish mohiyatini taftish qilishni taqozo etadi. Yaratmishni anglash, Olamni tuyish sari yuz burishimizga ishora beradi.

Darhaqiqat, o'z-o'zidan savol tug'iladi: yerdan oyog'i, osmondan ko'zi uzilgan kim? Savol va unga mos keluvchi turlicha javoblar o'quvchi ongida charxpalak misol aylana boshlaydi. Ammo mohiyatni chuqurroq anglamoqchi bo'lsak, bu harakatni Olamning yaralishi va Odamning yaratilishi mohiyatini o'rganishdan boshlash darkor. Mumtoz va tasavvuf adabiyotiga qilingan murojaat orqali bu bo'shliqni to'ldirish mumkin.

Yoshi ulug'lar tomonidan "Yerdan oyog'ing uzilmasin" shaklidagi duo ko'p bora qulog'imizga chalinadi. Demak, ushbu fikrning bir uchi xalq ozg'aki ijodi bilan ham bog'liq ekan.

“Yerdan oyog‘i uzilishi” odamning kibrga berilib, o‘zidan boshqa maxluqotlarni tan olmasligini anglatrsa, “osmondan ko‘zi uzilishi” kibru havoning so‘ng nuqtasidir. Ya’ni Yaratgandan yuz burish, Uning Biru Borligiga shirk keltirish, Ungagina tavakkul qilishdan bosh tortish. Bu kabi havolanishning oxiri voy bo‘lishi tarixda ko‘p bor kuzatilgan hodisalardan biridir.

Boltani ko‘rgan zahoti daraxtlar tanasi zirqirarkan [Rahimjonov N. 3:126].

Bolta daraxtdan sop so‘ragan ekan, daraxt beribdi [Rahimjonov N. 3:94].

Xalq og‘zaki ijodida ushbu mazmundagi maqollar, matallar, ertaklar, qolaversa, boshqa turli janrga oid asar namunalari uchratish mumkin. Ularning ildizi, ya’ni kelib chiqqan davri qadimga borib taqaladi. Bitiklarning shakli sayqallangan, yangilangan, va yoinki, o‘zgargan bo‘lsa-da, ammo mazmuni, g‘oyasi o‘sha-o‘sha.

Bolta temir metalidan yasalsa-da, uning sopi yog‘ochdan bo‘ladi. Yog‘och esa daraxtning qaysidir qismi. Demak, boltaning sopini yasashda, uning o‘ziga ishlatishda kerak bo‘ladigan yog‘och uchun daraxtni shu boltalardan biri bilan chopadilar. Ushbu vaziyat “O‘zingdan chiqqan baloga, qayga borasan davoga?” degan maqolni yodga soladi beixtiyor.

Darhaqiqat, ushbu muammoning ildizi juda chuqur. Uning ilk kurtaklari qadim-qadimlarga borib taqaladi. O‘z ildizingdan zarba olish Yerdan Odam yaralibdiki, hatto payg‘ambarlar oila a‘zolari o‘rtasida ham voqelanib, shu kunga qadar yorilmagan yaraday qalbga sim-sim og‘riq berib keladi. Xalqimiz, musibat ko‘rgan kishining tarixini surishtirgach, “sopi o‘zidan ekan” deya bekorga afsus chekmas ekan.

Bunday vaziyatni yurt, millat qiyofasida ham ko‘rishimiz mumkin. Yoki tariximizning qonli sahifalarini yodga olaylik. Taassufki, eng qayg‘uli holat bu Vatanimizning, unga sodiq asl farzandlarining o‘zimizdan chiqqan Vatan xoinlari tomonidan qandaydir bir o‘tkinchi manfaat uchun sotilishidir. Ta’kidlash joizki, “o‘z ildiziga bolta urganlar” qachonlardir bo‘lsa ham xatosini anglaydi. To‘siqlarga qaramasdan avloddan avlodga o‘tib kelayotgan og‘riqli bu holni ma’naviy ozuqa, tarbiya, o‘rnak orqali kamaytirish mumkin.

Dilbitiklarni **shakliga ko‘ra** quyidagicha guruhlash mumkin:

She’riy shaklda:

Tirishqoqning tirnog‘i

Toshga chega qoqadi.

Qalovini bilganlar

Qordan olov yoqadi [Rahimjonov N. 3:154].

Tirishqoqlik, intiluvchanlik, mehnatsevarlik qadimdan ulug‘lanib kelgan eng yaxshi xususiyatlar sirasiga mansub. Tirishqoq kishilar oldida qanday muammo

turishidan qat'iy nazar o'z maqsadiga erishadi, ya'ni ular tirnog'i bilan toshga chega qoqadi. Bu o'rinda, ma'lum bir maqsadga yetishishning naqadar qiyinligi, unga olib boradigan yo'lning mashaqqatlari mo'lligi tirnoq va tosh obrazlari orqali ochiqlangan. Tasavvur qiling: tirnoq(?) bilan toshga (!) chega qoqish mumkinmi??? Aslo, yo'q!!!

Ikkinchi juftlikda "Qalovini topsang, qor ham yonadi" o'zbek xalq maqoli she'riy shaklga solinib, birinchi juftlikning mantiqiy davomi sifatida qo'llanilgan. Xulosa shuki, agar maqsad aniq bo'lsa, chin dildan harakat qilganlar o'z niyatiga, shubhasiz, yetishgusidir.

Yoki:

Boyning bolasi o'n yoshida bosh bo'ladi,
Kambag'alning bolasi o'ttiz yoshida ham yosh bo'ladi.

Qadimdan boylik va faqirlik sirasida boylar hamda kambag'allar qarama-qarshi qo'yib kelingan toifalardandir. Boylarning ulug'lanib ko'kka ko'tarilgani, qashshoqlarning esa, mehnat qilishiga qaramasdan kosasi oqarmasligi evaziga yerga urilganiga tarix guvoh. Boyning bolasi boy bo'ladi, deganlaridek, ularning farzandlari puldor ota tufayli boylikka ega chiqqan yoki biror bir mansabni egallagan. Zamona zayliga ko'ra, faqirning bolasi esa yana faqirlik to'nini kiyishda davom etadi. Go'yo bu tabiat qonunidek.

Ammo bugungi globallashuv davrida yasharkanmiz, vaqt tushunchasi insonlarning qarashlarini o'zgartirib, ayrim masalalarda eski fikrlarini tubdan yangiladi hamda yuqorida aytilgan qobiqni yorib chiqdi. Nazarimizda, bunday tushunchalar hozir eskirdi va yashab turgan zamonimizga u qadar mos kelmaydi. Intilgan, mehnat qilgan kishi hayotda o'z o'rnini topa oladi.

Ming afsuski, ayrim vaziyatlarda, tan olish lozim, pul masalasi oldinga chiqib, shuning orqasidan ish bitirish kabi eskilikning ba'zi sarqitlari hanuz xalq orasida yurganligini aytmasdan boshqa choramiz yo'q.

Dialogik shaklda:

- U sizni qo'li ochiq, himmatli deb maqtadi.
- Nima uchun bunaqa deganini bilaman. Qog'ozdo'ppi kiygazmay qo'ya qolsin [Rahimjonov N. 3:154].

Dialogda, odatda, ikki yoki undan ortiq kishilarning o'zaro suhbatlari aks etgan bo'ladi. Mana shu jarayonda, agar nihoyalangan bo'lsa, suhbatning mavzusi, sababi va mohiyati to'liq anglashiladi. Adib aytmqochi bo'lgan fikrini kitobxonga aniq va to'liq yetib borishini istaydi. Bir nechta usullar qatori dialogik shakl ham ushbu vazifani xossatan ado etolganini bitiklarni tahlil qilish asnosida ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagi dialogda ikki shaxs o'rtasidagi munosabat aks etgan. Bir kishining ikkinchi bir kishiga qilgan mulozamatini uchinchi shaxs tilidan eshitamiz. Bunda

yozuvchi bir maqsadni ko'zlaydi, ya'ni uchinchi shaxs orqali birinchi shaxs niyatining o'zi tomonidan oshkor qilinishini parda ortiga yashiradi. Agar maqtovdan birinchi shaxsning tilidan aytilganda edi, ikkinchi kishi bunga dialogdagi kabi kinoyaviy javob bermasligi va o'quvchiga birinchi kishining maqtovdan ko'zlagan maqsadi ayon bo'lmay qolishi mumkin edi. Dialogik shakl adib mahoratini ko'rsatish bilan bir qatorda, o'zining imkoniyat chegarasi kengligini ham isbotlay olgan.

Hikoya shaklida: "Dilbitiklar"dan o'rin olgan ayrim parchalar adib yoki hikoyanavis tomonidan so'zlab beriladi. "Tush – timsol" hamda "Tuproq isi" qismlaridagi parchalar, ayniqsa, shu shaklga mos keladi. "Tomchilar,tomchilar ..." qismidagi ba'zi fikrlarda ham mohiyatan hikoya shaklini taqozo etgan o'rinlar uchraydi.

"Tush – timsol"dagi "Oyimning tushi", "O'zimning tushlarim...", "Singlim Zahroning tushi", "Masurning tushi" kabi parchalarning barchasi adibning tarjimai holi bilan bog'liq bo'lib, hayotining qaysidir bir nuqtasidan belgi beradi. Bir necha vaqt davomida sodir bo'lgan va tafsilotlari turlicha tushlar goh yozuvchining o'zi, goh uning oila a'zolari tomonidan so'zlanisa-da, ammo kitobxonga yetkazuvchi sifatida adib yalovbardorlikni qo'lga oladi. Tushlarning taqdirga ishora qilishini hayot tarzi, shajarasi misolida ko'rsatib bergan N.Rahimjonov uni timsol darajasiga ham ko'tara olgan.

Dilbitiklarni turli xususiyatlariga ko'ra bir qancha **uslublarga bo'lib** tadqiq qilishimiz mumkin. Ta'kidlash joizki, boshqa uslublarni rad etmagan holda, ularda xalqona uslubda yaratilgan bitiklarning salmog'i yuqoriligi seziladi. Har uchala qismda ham xalqonalik ravshan ko'rinadi. "Tuproq isi..."dagi qaynoq fikrlarni bugungi kunimizga qarshiliksiz tatbiq eta olamiz. Chunki tuproq isi bevosita Vatan bilan, millat bilan vobasta tushunchadir.

Bu qismda Odamning Yerda muqimlanishidan boshlab to bugungi kunimiz bilan aloqador, chegara bilmas mavzulardagi fikrlar o'rtaga tashlanadi. Adib tomonidan turmushning og'riqli nuqtalari kitobxonga yetkazilib, mohiyatni anglash tomon odimlanish vaqti kelganiga ishora qiladi.

Xalqonalik, sodda so'zlashuv yo'sini ushbu uslubni yuzaga chiqaruvchi tamal vositalar bo'lib, o'zbek xalqining millat sifatidagi umumiy qarashlarini, shu tuproqda kamol topganlarning og'riqli hamda imoniy tomonlarini ko'rsatishda asosiy o'rin egallagan:

"Qizim yeb – qirga ketar, o'g'lim yeb – o'rga. Jon-jon – o'zimning jonim [Rahimjonov N. 3:147].

Bitta sovunni necha marta ko'pirtirasan?

(Bir gapni chaynayverasanmi, degan ma'noda) [Rahimjonov N. 3:147]

Xulosa qilib aytganda, dilbitiklarda joylangan teran falsafiy o'ylar kitobxon ma'naviy olamini boyitadigan quyma fikrlardir. Ushbu durdona mushohadalar mutolaasi teran o'y-xayollar dunyosiga yetaklashi tayin.

Adabiyotlar:

1. Dўstмуҳаммад Х. Бир одимлик масофа. Китобда: Жимжит жолалар. –Т.: Ўзбекистон, 2016. – 168 бет.
2. Назаров Б., Расулов А., Аҳмедова Ш., Қаҳрамонов Қ. Нўъмон Раҳимжонов (ижодий портретига чизгилар). Ўзбек адабий танқиди тарихи. Дарслик. – Тошкент, 2012. –Б.327-330.
3. Раҳимжонов Н. Жимжит жолалар. – Т.: Ўзбекистон, 2016. – 168 бет.
4. Эшонқулов Ҳ. Наср: бугун ва эртага. Давра суҳбати. Адабиётшунос Н.Раҳимжонов бадиий метод хусусида.// Ўзбекистон адабиёти ва санъати., 2015, 13 ноябр. –Б.4.
5. Ўзбек халқ мақоллари. (Тузувчилар: Т.Мирзаев, А.Мусақулов, Б.Саримсоқов; масъул муҳаррир Ш.Турдимов) – Т.: Шарқ, 2019. – 512 б.
6. Ўраева Д., Қувватова Д. “Жимжит жолалардан томган томчилар // Ижод олами, 2019, № 6, – Б.19-21.
7. Ўраева Д., Қувватова Д. Мустақиллик шеърляти тийрак нигоҳларда// Шарқ юлдузи, 2008, № 4. – Б. 151-152.

USTOZIMNING USTOZI

Xolmatova Nigora Yakubovna

*Qo`qon DPI katta o`qituvchisi, filologiya
fanlari bo`yicha falsafa doktori*

Men professor No`mon Rahimjonovni ustozim Marhabo Qo`chqorovaning ustoz haqidagi iliq so`zlaridan, "Badiiy so`z estetikasi", "Badiiy asar biografiyasi" o`quv-qo`llanmalaridan o`qib anglaganman. Ustozim Marhabo Qo`chqorova ustozim No`mon Rahimjonovni yo`qlab borganlarida shogird olganliklarini u Qo`qondan ekanligini aytganda xursand bo`lgan ekanlar. O`zlarining oq fotihalarini berib, oq yo`l tilagan ekanlar. Shunda Marhabo Qo`chqorova ustozga "Shogirdimga uchta mavzu berdim, qaysi birida tadqiqot olib borishini so`radim. Bu mavzular "Abdulla Qodiriyning "O`tkan kunlar"ini Turkiyada o`rganilishi", "Abdulla Qahhor asarlarini germetevtik tahlil qilish", "Erkin A`zam badiiy publisistikasi" deb nomlangan. Shogirdim oxirgi mavzuni tanladi. Hozirda "Erkin A`zam badiiy publisistikasi" mavzusida tadqiqot ishini olib boryapti" degan fikrni aytganlarida. Ustoz shunday javob bergan ekanlar "Shogirding ishni boshlagan bo`lsa, publisistikasiga, asarlarini ham qo`shib tahlil qilsin va mavzuni "Erkin A`zam adabiy-estetik qarashlari" deb o`zgartirib bering, shunda sizlar Erkin A`zam fenomenini to`liq yoritib berasizlar. "Erkin A`zam badiiy publisistikasi" juda yaxshi mavzu tanlagan, lekin jurnalistikaga tortadi 10.00.02.-O`zbek adabiyoti. shifriga tushmaydi, degan e`tirozlar bo`lishi mumkin" deb o`z fikrlarni bergan ekanlar. Ustozim Marhabo Qo`chqorova menga telefon qilib, bu fikrlarni aytganlarida o`ylanib qoldim, "Bu mavzu kattalik qilmaydimi, himoyaga chiqishim uchun bir yil muddat qoldi (Tayanch doktoranturada 2-kurs edim)" deb e`tiroz bildirdim. Shunda Marhabo Qo`chqorova juda ko`p o`ylaganini, ustoz No`mon Rahimjonov fikrlari to`g`ri ekanligini aytdilar. Shundan so`ng ustozimning ustozini qimmatli fikrlari bilan mavzu boshqatdan byuletenda e`lon qilindi.

"Erkin A`zamning adabiy-estetik qarashlari" mavzusida tadqiqot ishimni davom ettirdim. O`zbekiston Xalq Yozuvchisi Erkin A`zamni salkam 600 sahifalik "Ertalabki xayollar" publisistik to`plamidagi 1. Siyosat sayohat (Maqolalar va safarnomalar). 2. Shap-shap deguncha...(Fiqralar). 3. Yo`l-yo`lakay (Adabiy qaydlar). 4. Yondoshlar, zamondoshlar. (Portret va xotiralar). 5. Menimcha... Menimcha...(Suhbatlar) bo`limlaridagi maqolalarni tahlil qilib, "Shovqin" romani, "Farrosh kampirning tushi", "Shajara" dramalarini ham tahlil qildim. Erkin A`zamning estetik qarashlarini qo`limdan kelgancha angladim. Mavzuni 2022 yil 5-aprelda himoya qildim.

Ustoz No`mon Rahimjonovning ustozim Marhabo Qo`chqorovaga olimona va otalarcha bergan o`g`itlari, tavsiyalari bilan mavzu tasdiqlandi, himoya qilindi. Lekin menda bir armon qoldi. Ustozni borib ko`rish va u kishidan juda yaxshi, ibratli fikrlar olish nasib qilmadi. Ustozim Marhabo Qo`chqorova juda ko`p "ustozimni oldiga olib boraman" derdilar, lekin har safar poytaxtga borganimda ish ko`payib ketar, dissertatsiyani ko`rib chiqib, ishlash bilan band bo`lar edik. Marhabo Qo`chqorova menga topshiriqni berib, o`zlari fanlar akademiyasidagi ishlardan bo`shamas edilar...

БАДИЙ-БИОГРАФИК АСАРЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Абдуғафур Расулов,

*Ўзбекистон республикаси фан арбоби,
профессор*

Умида Расулова,

филология фанлари доктори

Адабиётшунослик, танқидчиликда шундай асарлар яратилмоқдаки, улардаги далил, увоққина тасвир, маълумот «гапиради», ўқувчи онгини бойитиб, руҳини юксалтириб боради. Уларнинг аниқ жанрини дафъатан белгилаш, қатъий қилиб айтиш анча мушкул. Ҳозиргача ўзбек адабий танқидчилигида «Ҳамза» (Лазиз Қаюмов, 1973), «Навоий» (А.Қаюмов, 1975), «Гафур Гулям» (А. Акбаров, 1974), «Абдулла Қаҳҳор» (О.Шарафиддинов, 1989), «Отажон Ҳошимов» (О.Шарафиддинов, 1990), «Чўлпон» (О.Шарафиддинов, 1993), «Қодирий боғи» (У.Норматов, 1995), «Бадиий асар биографияси» (Н.Раҳимжонов, 2008), «Мақсуд Шайхзода» (Н.Каримов, 2010) сингари шу йўналишда хилма-хил асарлар яратилди. Бу асарларда кўзга ташланадиган муҳим хусусият шуки, адабий танқид бадиий ижодга яқинлашиб келади.

Адабий танқидчиликдаги бадиий-биографик яратикларни жанрларга ажратиш мушкул. Танқидий-биографик мақола, адабий портрет, тадқиқот-шарҳ, бадиа, тазкира сингари жанрлар маълум. Танқидчиликда яна шундай жанр борки, унда тақриз, биографик материал, портрету мемуар ўзаро бирлашиб, яхлитлашиб кетади. Ёзувчи-тадқиқотчи санъаткор ёзувчининг адабий муҳитдаги ўрни, мавқеини кўрсатишни концептуал асос қилиб олиши лозим. Бундай асар кўпроқ зиёлиларга, маърифатли кишиларга мос келади.

Сўнгги уч йилда Умарали Норматовнинг «Қодирий мўъжизаси» (2010), Нўъмон Раҳимжоновнинг «Бадиий асар биографияси» (2008) асарлари босилди. Н.Раҳимжонов асари мантиқан «Иzzат Султон» деб номланиши, жанри «бадиий асар биографияси» бўлиши керак эди. Муаллиф асарни «Ўқув қўлланма»га айлантириш учун 36-37, 75, 102-103, 133, 162-163, 173-бетларда саволлар ва ўқилиши лозим бўлган адабиётлар рўйхати тавсия этган. Н.Раҳимжонов етук тадқиқотчи, шу ўринда лекин олий ўқув юрти ўқитувчиси эмаслигини билинтриб қўйган. Ўқув қўлланмасида материал ҳажми, назарий масалалар бир маромда таксимланиши, илмий адабиётлар танлаб-танлаб олиниши, номи, муаллифи, нашр этилган йили беҳато кўрсатилиши лозим бўлади. Баъзи ўқув қўлланмаларининг ғоявий-назарий юки енгил бўлади-ю, муаллиф шакл-шамойилига урғу беради. Н.Раҳимжонов иши ниҳоятда залворли, уни магистр босқичи талабалари мушкуллик билан ўзлаштиради. «Иzzат Султон» ўқув

кўлланмаси олий ўқув юртлари филология факультетларига кириб боришига шубҳа йўқ. Ушбу мақолада биз Нўмонжон асарини «бадий асар биографияси» сифатида ўрганамиз, талқин қиламиз.

А.Қодирий ҳаёти ва ижоди ҳақида асар яратиш мушкул бўлиб борапти. У.Норматов ёзганидай: «Ёзувчининг ўғли Ҳабибулла Қодирийнинг «Қодирийнинг сўнги кунлари» хотира-қиссаси майдонга келди. И.Султон, О.Ёқубов, Т.Малик, Х.Султонов ва Н.Боқий каби ёзувчиларнинг адиб ҳаётининг драматик лавҳаларини, бадиият кирраларини ёритувчи асарлари яратилди» (4-бет). У.Норматов М.Қўшжонов асарларини ёдга олмайди, кўплаб тадқиқотларни эслатмайди. Ҳаёдан бир гап ўтади: «Домла Норматов фақат ёзувчилар асарларини асос қилиб олибдилар-да». Сал ўтмасдан А.Раҳимов ва М.Қаршибойнинг Солиҳ махдум образи ҳақидаги баҳсига аралашиб кетадилар.

Катта санъаткор ҳақида ёзганда йирик тадқиқот-асарларни эсламаслик мумкин эмас. 2005 йилда Ҳабибулла Қодирийнинг «Отамдан хотира» номли 400 саҳифадан ортиқ ҳажмдаги асари эълон қилинди. Афсуски, У.Норматов шу асарни ўқимаган ҳолда «Қодирий мўъжизаси»ни нашр эттириб юборган. Акс ҳолда китоб мундарижасида ўзгаришлар рўй берарди, катта ҳажмли «Фигон» хулоса-мақоласининг ортиқча эканлиги билиниб қоларди.

Н.Раҳимжонов асарининг қаҳрамони Иззат Султон Абдулла Қодирий ижод мактабини ўтаб, ёзувчи, мунаққидликка кириб келган сиймолар. Бу ёрқин истеъдодларда муштарак хусусиятлар кўзга аниқ ташланади. Биринчидан, Иззат Султон XX асрнинг донишманд, интеллектуал сиймоси. Алишер Навоий бадий оламини ихлос билан ўзлаштирган олим. Иззат Султон Навоийнинг мураккаб илмий асарини талқин қилиб олимлар оламига кириб келган. «Навоийнинг қалб дафтари» – Иззат Султон ижодининг шоҳ асарларидан. Мақсуд Шайхзода навоийшунослик илмига синчиклаб талқин қилиш методини сингдирган зурафо олим.

Иккинчидан, М.Шайхзода ҳам, Иззат Султон ҳам етук драматург бўлган. Иккинчи жаҳон урушн йилларида Уйғун ва И.Султоннинг «Алишер Навоий», Мақсуд Шайхзоданинг «Жалолиддин Мангуберди» асари ёзилди ва ҳозирги Ўзбек Миллий академик драма театри сахнасида ўйналди.

Учинчидан, ҳар иккала санъаткор ҳамиша ижтимоий-сиёсий, адабий-маънавий ҳаёт марказида бўлган. XX асрнинг 40-йилларида И.Султон Ўзбекистон киностудиясининг директори, Республика радиоэшиттиришлар қўмитаси бошлиғи ўринбосари, 1945 йилда Министрлар Совета раисининг ўринбосари вазфасида ишлади. Рус ва ғарб мусиқасини яхши билган Мақсуд Шайхзода 1941-1943 йилларда Ўзбек ва рус опера-балет театри директори,

урушдаи кейин Ёзувчилар уюшмаси Ўзбекистон бўлими раиси Ойбекнинг муовини вазифасида ишлади.

Тўртинчидан, Мақсуд Шайхзода ва Иззат Султон ҳамisha адабиётшунослар орасида эди. М.Шайхзода аввал Самарқанд давлат университетида, кейин Ўрта Осиё Давлат университети (ҳозирги ЎзМУ)да доцент бўлди. Шайх устознинг асосий меҳнат фаолияти Тошкент давлат педагогика университети билан боғлиқ эди. Домла қаерда ишlamасин, билимдонлиги, бағрининг кенглиги туфайли ҳамкасblари, талабалар ҳурматини қозонди. Шукрулло, Ҳафиз Абдусаматов, Азиз Абдураззоқ, Сайёр, Ҳайридин Салоҳ, Юсуф Шомансурлар кўпинча М.Шайхзода даврасига интилардилар. XX асрнинг иккинчи ярмидан адабиётшуносликка кириб келган мутахассис – олим борки. Иззат Султон билан мулоқотда бўлар, истиқболдаги режаларини устоз назаридан ўтказиб оларди. Иззат Султон салкам қирқ йил Ўзбекистон Фанлар академияси қошидаги Тил ва адабиёт институтида бўлим мудирини, ихтисослашган Илмий кенгаш раиси, Москвадаги Олий аттестация комиссиясида филология-адабиётшунослик бўлимининг эксперт-аъзоси эди.

Бешинчидан, Иззат Султон ва Мақсуд Шайхзода ҳар қандай гуруннинг гули эдилар. И.Султон домла ўзбекнинг Ираклий Андроникови эди, дейиш мумкин. Унинг гурунлари адабиёт, санъат мавзусида бўлар, улуғ инсонлар ҳаётидан қизиқарли воқеаларни қойиллатиб сўзлаб берарди. Эътибор берсангиз, «Бадий асар биографияси» аслида суҳбат, Устоз ва Шогирд диалоги. И.Султонни яқиндан билган кишилар шу асарда унинг овозини «эшитида», қочирик, ҳазилларидан завқланади.

Мақсуд Шайхзода ва Иззат Султон деярли тенгдош, замондош, XX асрнинг кўп қийинчиликларини бошларидан кечирган, чигал ҳаётини, ижтимоий муаммоларни ўзларича ечган инсонлар. Лекин уларнинг ҳар бири ўз тақдири, яшаш тарзи, истеъдод йўсинига эга сиймо эди.

Мақсуд Шайхзода 59 йиллик умрининг 39 йилини Ўзбекистонда ўтказди. Шу қисқа муддат ичида XX аср ўзбек адабиётининг етук намояндаси даражасига кўтарилди. Мақсуд зиёли оилада дунёга келди, мукамал билим, тарбия олди. Шахс сифатида эрта шаклланди. 20 ёшида тенг-тўшлари орасида эътибор қозонди. Давлат хавфсизлиги маҳкамаси ходимлари саволларига дадил жавоб берди. Хавфли кишилар рўйхатига тиркалди. Она-юртдан бадарға килинди. Сургунни Боку Тифлис, Москвадан бошқа манзилларда ўташи мумкин эди. Тошкентни танлади. Ўқиди, ўрганди, ижод қилди, дўст орттирди, устоз-педагог бўлди. Ўрта Осиё давлат университети (ҳозирги ЎзМУ)да ишлаганида Ҳ.Абдусаматовнинг «Алишер Навоий» драмаси ҳақидаги диплом ишига раҳбарлик қилди. Ёш бир ўқитувчини кафедра мудирлигига тавсия этди.

Мақсуд Шайхзода истеъдодли ижодкор сифатида адабий-ижтимоий, маънавий-маърифий соҳада донг таратди. Наим Каримов «Мақсуд Шайхзода» китобида қаҳрамони шеърляти, илмий-педагогик фаоляти, драматургияси юксак истеъдод риштаси билан мустаҳкам боғланганлигини кўрсатади...

Мақсуд Шайхзода шеърлари, достону балладалари, драмалари, илмий тадқиқотлари билан ўзига мухташам хайкал ўрнатиб кетди. У дўстга содиқ, Ўзбекистону ўзбек халқига муҳаббати, тухмату бўҳтонларни алпдай енга олган толерантлиги билан адабиётимиз тарихида узоқ яшайди. «Мақсуд Шайхзода» – Н.Каримов ижодининг чўққиларидан. Тўғри, асарда композицион тарқоқлик сезилади. Шайхзода асарларнинг нозик таҳлили унчалик кўп эмас, фактик чалкашликлар бор.

Нўъмон Раҳимжонов – истеъдодли адабиётшунос: кўплаб китоблар муаллифи, ўндан ортиқ шогирднинг устози. Унинг мақолаларида янги «гап», ўқувчини ром этадиган таянч асос бор. «Бадий асар биографияси» (Тошкент: «Фан», 2008) – адабиётшуноснинг бадийликка йўғрилган навбатдаги асари. Унда виқорли Устоз ва садоқатли Шогирд тимсоли кўзга ташланиб туради. Асар ровий ҳақида кенг мушоҳада юритиш имконини беради. Иззаг Султонов овози узлуксиз «эшитилиб» туради, диққатни жалб этади. Аммо у етакчи ровиймас: қаршисидаги Шогирд ҳамма гапларни тўкиб солади. Устоз овоз ёздираётган санъаткорга менгзаб кетади. Унинг сўзлаш маҳорати, ром этиш йўриғи, драматург сифатидаги тажрибаси бирлашиб кетади. Илк таассурот шундайки, Устоз сўзлайди, Шогирд тинглайди. Вассалом. Йўқ, тингловчи эшитганларини онгидан ўтказади, қалбдан ҳис қилади. Устоз билан мулоқотга киришади: бахсга йўғрилган фикрларни ўртага қўяди. Шогирд гоҳо билиб-билмасликка олиб, Устознинг бахсли қарашларини китобга киритади. Ўз қарашларидан чекинмайди. Хусусан, гўзаллик ҳақида гап бораркан, Шогирд чиройли мисолларни келтиради. Мағиздаккина боғбон – Шосолиҳ қори бобо гуллар, уларнинг табиати ҳақида шундай ҳикоя қиладики, китобхон борлиги билан тинглайди. «Бадий асар биографияси»да Шогирдга иккинчи вазифа – ровийлик топширилган. У эшитганларига ўз қарашларини омукталаштириб, асар тузилмасини, қурилишини белгилайди. Яъни ровийлик вазифасини зиммасига олади. Шуни ҳам таъкидлаш жоизки, «Бадий асар биографияси»да асосан гўзаллик ҳақида фикр айтилади. Етук асарлар руҳида гўзалликни ўзида жамлаган ровий кам фаолият кўрсатади. Мана шу ровий ҳамиша китобхонни асар оламига олиб киради.

Н.Раҳимжонов асарида ички мусиқа бор. Эҳтимол, Шогирд – тингловчи руҳида кечган ҳолатлар бу мусиқани вужудга келтиргандир. Асарнинг бошланишида Иззат Султоннинг ота-боболари, уларнинг касб-қори ҳақида гап

боради. XX асрнинг 10-йилларидан оила бошига ғам-ташвишлар ёғилади. Оғир муסיқа садоси янграй бошлайди. Акаларининг фожиавий ўлими, ота-оналар ғам-ташвиши муסיқадаги фиғон, фарёдни кўкка кўтаради. Иззат Султон аклини таниганидан то Мустақилликкача ҳамма гапни ичига ютди: на қувончи, на ғами, на армонини тилига чиқарди. У яшади, ишлади, ўзини кўрсатди. Меҳнат фаолиятини қишлоқ мактабида ўқитувчиликдан бошлади. Истеъдоди туфайли тез

«одам»

бўлди:

30-йилларда адабий-танқидий мақолалар ёзди. Фитратга шогирд бўлди, адабиёт назарияси масалалари билан шуғулланди. 1939 йилда «Адабиёт назарияси»ни яратди. Умрининг охиригача назариячи олим – филолог бўлиб қолди.

XX асрнинг 30-40-йиллари шўро кишилари, айниқса, зиёлилар қалтис, мураккаб синовларни бошидан кечирдилар. Айниқса, истеъдодли кишиларнинг тақдирини мураккаб кечди. Иззат Султон Худо ярлақанган инсон экан: катагондан омон чикди. «Алишер Навоий» драмаси муаллифидан бири бўлди, масъул лавозимларда ишлади. 1946 йилдаги айбнома – қарорлар ижроси амалга оширила бошлаганида Москвага – докторантурада ўқишга жўнаб кетди. Докторлик диссертацияси мавзусини танлаш анча қийин кечди: «Мавзу: XV аср ўзбек адабиёти... Евгений Эдуардович (Бертельс) раҳбарликни ўз зиммасига олди. У пайтлар докторантура икки йиллик эди. Бир йил ўтганидаи кейин Навоий мавзуси чиппакка чикди. Ўтмишга, феодал даврга қарши кампаниячилик эди-да. Мавзуни ўзгартириш керак бўлди. Ойбек ижодини олдим. Икки йил босим ишладим. Битай деганда, Ойбекнинг боши узра қора булутлар қуюқлаша бошлади... Бошим қотди-да, кейин ҳийла ишлатдим: «Социалистик реализм методи тарихидан», деб мавзуни ўзгартирдим. Ойбек ижоди ҳам барибир, шунинг таркибига кириб кетарди. Ойбек методи социалистик реализм методи билан уйғун бўлиб қолган эди-да. Айниқса,.. «Навоий» романи муносабати билан. Бу, бир ниқоб бўлди-да. Ойбек сарлавҳада йўғу. ичида қолди. Ишим миллий адабиётларда социалитик реализм методи юзасидан дастлабки илмий тадқиқот эди. Ўзимга шундай тезис қилиб олдимки, агар адабиётда янги метод элементлари таркиб топмаганда эди, у адабиётга киролмас ва пешволик қилолмас эди. Диссертациянинг асосий янги гапи шундан иборат эди... Уч киши оппонентлик қилди. Булар Тимофеев, Буров ва Мухтор Авезовлар эди... Оппонентлар орасида энг совуқ фикрлар М.Авезовники эди... Тушундимки, диссертациям М.Авезовни қаноатлантирмаган. Ўзимга ҳам алам қилди. Энди, М.Авезовни қаноатлантирадиган бир иш қилишим керак экан, деган ўй фикр-зикримни банд этди» (69-70-бетлар). Келтирилган кўчирма И.Султонов нақадар зукко бўлганини кўрсатади. Диссертация нафақат М.Авезовни, энг муҳими,

И.Султоновни қониқтирмаган эди. У умри давомида социалистик реализмдан йироқ асарлар устида ишлаб хузур қилди. А.Қодирий асарларини биринчилардан бўлиб қайта тиклашга киришди. «Навоийнинг қалб дафтари» (1969) номли етук асар яратди. Реакцион адабиёт намуналари сифатида четга суриб қўйилган асарларни ўрганиш, талқин қилиш масаласини кўтарди.

«Адабиёт назарияси» (1980) дарслигини яратди.

И.Султонов, гарчи «соцреализмнинг асосий камчилиги нусха кўчириш» (71-бет) деб юрган бўлса-да, мазкур методнинг мазмун-моҳияти «революцион тараққиётни» бош ғоя сифатида кўтаришида эканлигини теран англаган. «... тараққиётнинг тадрижий йўли революция эмас, эволюция. Биз инқилобни ҳам, оқибатларини ҳам кўрдик. Инқилоб амалга ошмайдиган идеални байроқ қилиб, шу вақтгача ҳеч кўрилмаган зулмни амалга оширди», (199-бет) дейди. Устоз инқилоблар ҳақида тўлиб-тошиб гапирди: «Ницшенинг шу хусусида яхши гапи бор: «Инқилоб – бу сиёсий каллақесарлар ўз гуноҳларини ювадиган қонли ҳавза». Бу фикрда жиндай муболаға бўлиши мумкин. Лекин, ҳақиқатан инқилоб шунақа. Эволюция – тараққиётнинг асосий қонуни эканини тушунганимиз бахт» (201-бет)

«Алишер Навоий» драмасида социалистик реализмнинг моҳияти кўзга ташланади. Муаллифлар Хусайн Бойқаро характерида соцреализм кўрсатмаларини асос қилиб олдилар. Асар қаҳрамонлари ижобий ва салбий кутбга соцреализм ўлчовлари асосида ажратилади. Лекин бу драма руҳ– руҳига инсонпарварлик ғоялари сингдириб юборилган. Иккинчидан, драманинг назмда ёзилиши унинг таъсирчанлигини оширган.

И.Султон «Имон» драмасидан бошлаб соцреализмдан йироқлашишга ҳаракат қилган. Шогирд билан суҳбатда Устоз муҳим масалани тилга олади: «Совет тузуми уч нарсани эътиборга олмаган экан. Биринчидан, инсон коммунизм деб аталган хомхаёл ғоя учун кубон қилинди; иккинчидан, имон инкор этилди; учинчидан, мулк рад этилди, дея таъкидлаган эди» (158-бет). Асарига «Имон» дея сарлавҳа қўйилиши бежиз эмас. И.Султон ҳаётда кўрган, кузатган воқеаларни, кишиларни асарига киритади. Ҳаётгий воқеа, қаҳрамонинг асарга киритилиши – муҳим, мураккаб жараён.

«Ойдин кеча асирлигида» асари – психологик драма. Ҳамма қаҳрамонлар хиёнат, фожиани билиб турадилар. Лекин ҳеч ким фожани фош этмайди – ўзи билан ўзи курашади. И.Султонов шу асар баҳонасида дунё драматургиясидаги психологик талқин асосига қурилган кўп асарларни эслайди. Дарвоқе, И.Султон рус драматургияси тарихини, машҳур спектакллар билан боғлиқ кўплаб воқеаларни билишлигини кўрсатади.

«Қақнус» – Иззат Султоннинг руҳий-маънавий изланишлари самараси. Сухбатдоши – шогирдга қарата Устоз – катта авлод вакили бундай дейди: «Масалан, мен бир авлодман. Сиз менинг набирамсиз – иккинчи авлодсиз. Давр шундай бўлдики, шу авлод менга бутун ўтмиш умринг бекор, зое кетган деяпти» (167-бет). Иззат Султон – фикрлайдиган, ҳаётий ўзгаришлардан фалсафий хулоса чиқара биладиган интеллуектуал сиймо. У босиб ўтган йўлини, тенг-тўшлари қилмишларини ғалвирдан ўтказди. Асарда у ўзини ўзи тафтиш этади. «Қақнус» – агитка асар. – Бугунги томошабин ўзини қийнаётган саволларга жавоб ахтаради. Ўқувчини, томошабинни қийнаётган саволларга жавоб ахтаради. Ўқувчисини, томошабинни қийнаган саволларга бадий жавоб бера олсангиз, ўша маҳоратнинг мезонларидан бири бўлиб қолди (169-бет)ю «Қақнус»да Иззат Султоннинг ҳаёт фалсафаси акс этган. «кекса ва янги авлод ўртасида кечадиган азалий, абадий кураш, бу – онг-дунёқарашлардаги номувофиклик, келишмовчилик. Бош қаҳрамон нима қилади? Ўз набираси билан курашади. Бобо билан набира дунёқарашини бир-бирига тўғри келмайди. Иккови жикқа мушт» (172-бет). «Қақнус» – ҳаққоний, ҳаётий асар. И.Султонов – донишманд, курашувчан инсон бўлган, инсонлар қалбини тез англаб етадиган инсон эди. «Ҳаёт – муттасил ва шиддатли дарё оқимини эслатади. Асарларимизга нукта қўямиз. Ҳаётда эса нукта йўқ. Аксинча вергуллар бор. Ҳаётда – ҳаммаси вергуллардан иборат. Ана шу вергуллар ҳаққонийлик таассуротини туғдиради» (114-бет). И.Султон айтган ақлли гапларнинг хулосаси, мақсади бирдан кўзга ташланмайди. Бошқа бир масалада кўриниб қолади: «Ўйлайманки, илмимизда, бадий адабиётимизда Ҳусайн Бойқаронинг ўзи ва севган хотини Ҳадичабегимга нисбатан бўлган салбий муносабат очиб ташланиши керак. Бу адолатдан эмас, асосли эмас» (99-бет).

«Бадий асар биографияси»да И.Султон қарашлари кенг, мўл, ишонарли акс этган. Устознинг драма, спектакль назариясини сув килиб ичиб юборганлиги «подсознание», «художественная идея», «узнование», «нагрузка», «резанёр» сингари атамаларни ўрни-ўрнида қўллаганлигида кўриниб қолади.

Китобда Н.Раҳимжонов «мени» бутун тўлалиги билан акс этмагандай туюлади. Аслида, И.Султон нима деган, қандай назарий масалани кўтарган бўлса, китоб муаллифи уларни қалбидан ўтказган, теран англаган ҳолда асарга киритган. Қолаверса, «Тонглар – ёруғлик энагаси» диалог-сухбатда Н.Раҳимжонов етакчилик қилади. Устоздан муҳим масалаларни сўраб олади, уларни ишонарли, тиниқ ҳолда асарига киритади.

Танқидчилик романи адабий ҳаётга чуқур кириб бормоқда. Н.Раҳимжонов ва бошқа тажрибали мунаққидлар бу жанр тараққиётига муносиб ҳисса қўшадилар деган умиддамиз.

NO'MON RAHIMJONOV – RAUF PARFI IJODI TADQIQOTCHISI

Obidaxon Fayzullayeva,
Guliston davlat universiteti,
O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida
dotsenti, filologiya fanlari doktori,
+996943550334

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada adabiyotshunos olim No'mon Rahimjonovning badiiy adabiyotga, chinakam san'at asariga munosabati va xassosqalb shoir Rauf Parfi she'riyati tadqiqotchisi sifatidagi faoliyati xususida so'z yuritilgan. Shuningdek, olimning she'rshunoslik shuuri va Rauf Parfi she'riyati tadqiqidagi o'ziga xos jihatlar talqiniga alohida urg'u berilgan.*

***Kalit so'zlar:** adabiyotshunos olim, she'rshunos, badiiy-estetik tafakkur, kechinma tavsifi, tahayyulli tafakkur, timsol, oksimoron va boshqalar.*

Sevimli ustozimiz, bag'rikeng inson va yetuk adabiyotshunos olim No'mon Rahimjonov o'zbek adabiyotshunosligida o'z o'rniga, o'z so'ziga ega ilm ahllaridan biri edi. Ustozning badiiy adabiyotga mehri o'zgacha, munosabati boshqacha edi. Xususan, ustozimiz "Adabiyot – ko'ngil ochish vositasi emas. U ko'ngillarni kamol toptiradigan, tuyg'ularni tarbiyalaydigan, shaxs – millat – jamiyatning ma'naviy-axloqiy hayoti asoslarini mustahkamlaydigan bosh omildir" [Rahimjonov N. 2:1], - deb hisoblaganlar. Bundan ulug' adibimiz Abdulla Qahhorning "Adabiyot – atomdan kuchli. Uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerak", - degan o'rinli fikrlarini qo'llab-quvvatlaganliklarini, o'z navbatida adabiyotning ijtimoiy hayot va jamiyatdagi muhim o'rnini, uning cheksiz kuchini to'laqonli baholay bilganliklarini ko'rish mumkin.

Shuningdek, ustozimiz badiiy adabiyotning inson ruhiyatini naqadar poklashi yoki uning ma'naviyatga bo'lgan ijobiy ta'sirini ham o'zgacha baholaganlar: "Adabiyot – din misoli muqaddasdir. Uning ruhoniylarni poklashdek, ma'naviy-intellektual kamolotga yetaklashdek ezgu salohiyatini, beqiyos kuchi va betimsol qudratini "hayu chittigul", degandek arg'imchoq uchishga – ermakka almashtirmaslik kerak" [Rahimjonov N. 5:29]. Ustozning mazkur fikrlari badiiy adabiyotni daromad manbai deya hisoblovchilarga qarata kuyunchaklik bilan aytgan so'zlari edi.

No'mon Rahimjonovning adabiyotshunoslikka oid tadqiqatlari sara va badiiyati yuksak san'at asarlariga bag'ishlangan ekanligi bilan ajralib turadi. Ustozning "Shoir va davr", "Istiqlol va bugungi adabiyot", "Tarixiy qissalar haqiqat izlaydi" (Q.Ko'bayev bilan hammualliflikda), "Badiiy asar biografiyasi" kabi monografiyalari, "Nur boqiylikdir", "Falsafiy lirika", "Badiiyat – bosh mezon" kabi risolalari aynan shunday asarlar tadqiqiga bag'ishlangan.

No'mon Rahimjonov – Rauf Parfishunos olim hamdir. Ustozimiz shoir bilan kursdosh va qarddon do'st bo'lganligidan ijodkor unga o'z arxivini vasiyat qilib qoldirgan. Olimning o'z qarddoni bilan bo'lgan qizg'in suhbatlari va boshqa ko'plab

omillar mazkur she'riyatning, ijod namunalarining chuqur tadqiq etilishiga asos vazifasini o'tagan, deyish mumkin.

Adabiyotshunos olim Rauf Parfi she'riyatiga u bilan yaqin bo'lganligidan ham ko'ra mazkur she'riyatga alohida muhabbat bilan yondashganiga ko'ra alohida munosabatda bo'lgan. Shu sababli ham olim shoirga ta'rif berar ekan: "XX asr o'zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan Rauf Parfi O'zturk – Sir shoiri, unvoni sohir she'riyat sohibidir. Bizning bilimlarimiz bu she'riyatning zohiriy qisminigina yoritishi mumkin, chunki uni tizimlarga ayirib, aniq qoliplarga joylab bo'lmaydi. Bu – jo'n o'quvchi uchun sodda; bilimdon o'quvchi uchun – qudratli a'mol bo'la biladi" [Rahimjonov N. 5:31], degan fikrlarni keltirib o'tadi va shoirning murakkab ko'ngil mahzaniga o'zidek sinchining ham nazar solishga ojizlik qilishini aytishi orqali bu she'riyatning bahosini yanada oshiradi.

Ustozimiz Rauf Parfining hayot yo'lini shoirning "Sakina" she'riy to'plamiga yozilgan so'zboshisida va o'zlarining "Iymon asiri" maqolalarida ham mukammal darajada, boshqacha qilib aytganda ipidan ignasigacha to'laqonli ifodalab bergan. Chunki ushbu ma'lumotlarda shoirning ota va ona tomondan yetti avlodi, o'zining bolalik, maktab, talabalik va keyingi hayot yo'li, shuningdek, shoirning farzandlari, Rauf Parfi asarlarining yozilish tarixi, sabablari, hayotidagi har bir muhim voqealar birma-bir qalamga olingan. Umuman, hech bir ijodkorning biografik ma'lumotlari ushbu ma'lumotlar jamlanmasidagi kabi mukammal aks ettirilmagan.

Olimning Rauf Parfi ijodiga o'zgacha mehri uning: "Rauf Parfi O'zturk o'zbek adabiyotida mutlaqo o'ziga xos maktab yaratgan shoir. O'zbek-turklarining yuksak milliy ruhiyatini o'z she'riyati orqali tanish va tanitish uchun olis yo'lga chiqqan, tolmay ketayotgan yo'l ahlidandir", - degan e'tirofidan ham anglash mumkin.

N.Rahimjonovning Rauf Parfining fenomenal ijodkor ekanligi shoirning ilk ijod namunalaridanoq ma'lum bo'lganligi xususidagi fikrlari, shoir she'riyatida tabiat obrazlarining o'zgacha o'rin egallashi haqidagi qarashlari ham adabiyotshunosning ushbu she'riyat tadqiqida bilimdon ekanligini anglatadi: "Rauf Parfining qaldirg'och she'rlarida kuzatilganidek, badiiy idrok va ifoda tarzi, tafakkur tabiati va timsolli obrazlari bilan o'ziga xos betakror uslubga ega bo'lgan shoir ko'z ochgan, o'z nuqtai nazari bilan dunyoning qo'rchoqbozlik shevalarini taniy boshlagan, o'zligini ham dunyoga tanitishga tutingan shaxs edi. Bu – Rauf Parfi fenomeni edi". Darhaqiqat, Rauf Parfi she'riyati taxayyulli tafakkur tabiati bilan o'zbek she'riyatida o'zgacha zalvorga ega. Shoir dunyo tutumlarini o'z sezimlari va teran nigohi bilan ilg'agan va bu ilg'amlarni so'z qudrati orqali namoyon eta bilganligi ma'lum.

"Insonning ruhoniyl erkinligi masalasi Rauf Parfi ijodining o'zak mag'zini tashkil etadi. Shu boisdan ham shoir lirikasida tuyg'ular hayotini, kechinmalar manzarasini, holat-kayfiyatlar suratini chizish alohida tamoyilga aylangan. Shu

boisdan ham uni tuyg'u-kechinmalar musavviri deyishadi" [Rahimjonov N. 1:3]. Ijodkorlar orasida iste'dodlilar anchagina, lekin "ruh musavviri" darajasidagi shoirlar o'ta noyob hodisa ekanligi inja adabiyot ixlosmandlari va tadqiqotchilariga ma'lumdir. Ustoz ta'kidlab o'tganlaridek, Rauf Parfi – tuyg'u-kechinmalar musavviri, ya'ni inson hislarini so'z bilan ifodalay biladigan kam sonli ijodkorlardan biridir. N.Rahimjonov Rauf Parfining bunday san'atkorona mohirligining isboti sifatida shoirning tabiat obrazlari, xususan, yomg'ir obrazi aks ettirilgan she'rlarini tahlilga tortadi va mazkur she'rlardagi kechinmalar manzarasining o'zgacha ifodasiga e'tiborni qaratadi. Yomg'ir va boshqa timsollarning aslida majozlar bo'lib, ular zamirida anglashilayotgan turfa ma'nolar olamini atroflicha sharhlashga muvaffaq bo'ladi: "Ko'rinadiki, timsolli, majoziy lirizm Rauf Parfi uslubining o'tli nafasi, o'zak mag'zi, deyish mumkin" [Rahimjonov N.1:4]. Mazkur xulosadan shoir she'riyatida tashqaridan anglashilgan o'z ma'nosidan tashqari, yana boshqa tagma'nolar ham mavjud ekanligi anglashiladi.

"Rauf Parfi XX asr o'zbek poeziyasida fikr bilan kechinmaning sintezini badiiy san'at darajasiga ko'targan, sof tuyg'uning tabiiy oqimini, qabariq majoziy ifodasini omuxtalashtirgan betakror uslub yaratdi. Bu – XX asr o'rtalaridan e'tiboran XXI asr o'zbek she'riyati taraqqiyotida alohida yo'nalish kasb etdi. Mustaqil badiiy idrok va ifoda madaniyati sifatida shakllandi". Darhaqiqat, Rauf Parfi o'zbek she'riyatida taxayyulot olamining tafakkur qirralarini so'z bilan ifodalay bilgan tengsiz ijodkorlardan biridir. Shoirning metaforalar vositasida majoziy fikrlashiga sabab ham aynan undagi murakkab ruhiy jarayonlarning qog'ozga tushirilishi bilan bog'liq intuitiv holatlardir.

Shuning uchun ham adabiyotshunos olim bu holat yuzasidan quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "Rauf Parfi lirikasining o'ziga xosligini belgilovchi asosiy omil, bu – janrlar xilma-xilligi emas, aksincha, ana shu turfa xil janr va she'riy shakllarni yuzaga keltirgan badiiy tafakkur tabiatidir. Xususan, fikriy-hissiy ma'noning fojeiy xazin ohangga yo'g'rilganligi Rauf Parfi uslubining zohiriy alomati" [Rahimjonov N. 3:24]. Shoir she'riyatining bunday ifodalanishi uning ma'no-mazmuni teranligi va har bir misrasidagi zalvor bilan bog'liq jarayon, shuningdek, undagi hazinlik esa dunyo talotumlaridan ozurda qalbning ozorlangan holati deya tavsiflanishi mumkin.

Yuqorida ham ta'kidlab o'tganimizdek, Rauf Parfi she'riyatida tabiat obrazlari o'zgacha o'rin tutadi. Shoir sof peyzaj she'rlarida aynan tabiat unsurlarining betakror tasvirini aks ettirsa, uning inson ruhiyatidagi kechimlar ifodasi uchun qo'llanilgan o'rinlarida tabiat timsollari hissiyot angamlari uchun ko'maklashishini ham adabiyotshunos olim ko'zdan qochirmaydi: "Rauf Parfi she'riyatida tabiat unsurlari, moddiy olam o'z hayoti, xayollari bilan yashaydi. Xoh osmon kengliklari-yu yulduzlarmi, xoh bulutlar-u oftob nurlarimi – barchasi o'z quvonchi, tashvishi, dardi-

dunyosi bilan betakror qiyofasini namoyon etadi. Sirli olam sinoatlarini tushunishga ko'mak beradi. Tabiat obrazlari ko'zimizga singib kirarkan, ko'nglimizdan joy oladi. Yana muhimi, tabiat detallari, ranglari, obrazlari jamiyatni, insonni tushunishimizga ko'maklashadi" [Rahimjonov N. 1:5]. Ya'ni tabiat birliklarining shoir tomonidan tavsiflangan go'zal ifodasi she'rxon ruhiyatini ularning tarovatidan bahramand etish bilan birga inson his-tuyg'ularining murakkab jihatlarini mazkur timsollar orqali anglab yetishga ham xizmat qiladi.

"Rauf Parfi O'zturkning shaxs erki, millat hurriyati, Vatan mustaqilligiga bag'ishlangan, milliy ruhning badiiy ifodasiga aylangan she'rlari go'zallik hodisasi bo'lib qoldi. Rauf Parfi she'riyati yangi tuyg'ularning, yangicha ong va fikrlarning mukammal badiiy shakldagi ifodasidir" [Rahimjonov N. 5:33]. Mazkur fikrlardan shoirning Vatan va millat taqdiriga qayg'urish mazmuni aks ettirilgan "Turkiston yodi", "Turkiston – eng shirin bo'sa", "Ona tilim", "O'zingni ayama borayotgan ildiz", "Qadimiy turkiylardan", "Uxlama sen, haqiqat", "Uyg'onar Turkiston, uyg'onar dunyo" va boshqa she'rlari nazarda tutilgan. Ularda raufona g'oyalarning badiiy-falsafiy talqinlari aks ettirilganligiga alohida urg'u berilgan.

Ma'lumki, Rauf Parfi she'riyati turfa xil janrlar bilan boyitilgan. Ular orasida jahonning turli mamlakatlari she'riyatiga xos janrlar ham uchraydi. Ustozimiz shoir ijodining mazkur jihatiga ham alohida to'xtalib o'tganlar: "Sarbast, xokku, tanka, sonet, sakkizlik, oltilik, to'rtlik, fard va h.k. lirika janrlari va poetik shakllardagi izlanishlari iste'dodning zohiriy ko'rinishlaridir. Rauf Parfi yaratgan yangi So'zning mag'zini, yangi she'rning tabiatini olam, jamiyat va odamni yangicha anglash, tushunish hamda anglatish madaniyati tashkil etadi. Ilmiy ifoda bilan aytganda, badiiy uyg'unlikning yangicha ko'rinishi yuzaga keldi, demakdir" [Rahimjonov N. 1:5]. Darhaqiqat, shoir tuyg'ular po'rtanasi ifodasidan kelib chiqqan holda lirik qahramon kechinmalari uchun mos janrlar tanlaydi. Undagi sarbastlar erkin ruh kechimlarini ifodalasa, sonet, xokku, tanka kabi qat'iy qoidalarga bo'ysunuvchi janrlar shoirning bu janrlar xossalariiga mos ravishda ifoda yo'sinini namoyon qilish imkoniyatini bergan va ijodkor o'z mahorati tufayli ko'plab janrlarda mukammal ijod namunalarini yarata olganligi ustoz tomonidan yana bir bor esga olinmoqda.

N.Rahimjonov nafaqat Rauf Parfining jahon adabiyotida qo'llanilib kelingan janrlarni o'zbek she'riyatiga olib kirish yoki o'zlashtirish mahoratini, balki dunyo she'riyatining badiiy tafakkur bilan bog'liq an'alarini ham o'zlashtira bilganligini ta'kidlab o'tadilar: "Rauf Parfi O'zturkning milliy madaniyatimiz taraqqiyotidagi, badiiy tafakkur takomilidagi o'rni va xizmatlari yana shu narsa bilan belgilanadiki, u yangi So'zni, yangi mazmunni qabul qiladigan, vujudiga singdiradigan va o'zgalarga ham tushuntira biladigan kitobxonlar zumrasini yuzaga keltirdi, tarbiyalab, kamol topdirib bordi. Buning uchun Sharq, G'arb va Lotin Amerikasi (yapon, hind, turk,

arab, fransuz, nemis, ingliz rus, ozarbayjon, italyan va hokazo) badiiy an'analarini o'rganish, o'zlashtirish hamda o'zbek milliy madaniyatiga muvofiq lashtirishdek katta va mas'ul vazifani ado etdi". Rauf Parfining jahonga taniqli ijodkorlar Isikava Takuboku, Robindranat Tagor, Nozim Hikmat, Pol Elyuar, Jak Prever, Pol Valeri, Rene Shar, Giyo Apolliner, Bayron, Shiller, Pushkin, Blok, Kvazimodo, Husayn Jovid, Pablo Neruda va boshqalar ijodidan ta'sirlanib yozgan she'rlari qatorida aynan mana shu shoirlar ruhiy olami tavsiflab berilgan bag'ishlov she'rlar yozganligi shoirning ijodiyotidagi muhim qirralardan biri ekanligi ta'kidlanmoqda. Bu jihat esa o'zbek poetik so'z madaniyatidagi boy badiiy an'analardan voz kechmagan holda, Rauf Parfi O'zturning novator shoir ekanligini ham ko'rsatganligi to'g'ri talqin etilgan.

Adabiyotshunoslikda oksimoron degan poetik hodisa mavjud bo'lib, bunda mohiyatan ikkita bir-biriga zid tushunchani yonma-yon keltirish san'ati nazarda tutiladi. Adabiyotshunos ustozimiz Rauf Parfi ijodidagi mazkur hodisaning va boshqa ko'chimlarning mohirona qo'llanilganligiga ham ahamiyat qaratganligi tadqiqotda kuzatiladi: "Raufona oksimoron obrazlar sistemasini yaratdi. She'riy satrlar musiqiyiligini kuchaytirishda hayratangiz izlanishlar olib boradi. Satrlar takrorida nafaqat fikriy ko'chimlarni, yana his-tuyg'ular to'loqinini, kechinmalar po'rtnasini vujudga keltiradi. Ushbu jarayonda emotsional holat va kayfiyatlardagi, ruhoniy kechinmalardagi hislar oqimi she'r musiqiyiligini hosil qiladi. Bu – yolg'iz Rauf Parfi ijodiy izlanishlari uchun xos bo'lgan betakror samaradir. Satrlardagi ichki qofiyalanishi, alliteratsiya – ohangdosh so'zlar bilan boyitilishi she'rning emotsional ta'sir kuchini oshiradi. Tafakkur to'loqinining ong-shuurlarda mixlanib qolishini ta'minlaydi, asoslaydi" [Rahimjonov N. 1:6]. Ko'rinadiki, shoir individualigini so'z qo'llash mahorati, xususan, murakkab ko'chim va usullarni qo'llashi ham belgilar ekan. Oksimoronlar esa Rauf Parfi she'riyatida "otashin muzlar", tovushsiz faryod", "muzlagan faryod", "go'zal g'imirlash", "chirkin tovush", "achchiq sog'inish", "uyg'ongan uyqu" tarzida ifoda etilgan. Mazkur qo'llanimlar shoir she'riyatida aynan taxayyulli tafakkur tabiatini ifodalash uchun qo'llanilgan.

No'mon Rahimjonov shoir she'riyatidagi taxayyulli tafakkur tabiati xususida quyidagi fikrlarini bayon etadi: "Taxayyullar asosiga qurilgan majoziy obrazlilik, bu – voqelikni, insonni, ruhoniy hayotni realistik idrok etish shakllaridan biri. Badiiy tafakkurning mazkur yo'nalishi XX asr o'zbek she'riyatida Rauf Parfi ijodiy izlanishlari bilan bog'liqlikda go'zallik hodisasiga aylandi. Va salkam yarim asr badalida badiiyat maktabi sifatida shakllandi. Bu – millat badiiy didi va estetik saviyasining yangi bosqichi demakdir" [Rahimjonov N. 1:7]. Bunday yuksak baho shoir she'riyatidagi istioraviy fikrlash natijasida yaratilgan majoziy obrazlari va shu asosida yaratilgan badiiyat maktabining yarim asrlik she'riyat taraqqiyotiga munosib

hissasi sifatida baholanishi ham to'g'ri e'tirof ekanligini nazarda tutmoqda. Haqiqatdan ham, bunday yuksalish millat badiiy adabiyotining, xususan, she'riyatining rivojlanishiga, millat kishilarining badiiy didi va estetik saviyasi yanada balandlashishiga sabab bo'lishiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Bunday estetikada inson erki masalasining ham o'z o'рни bor ekanligi xususida ham adabiyotshunos olimning o'z qarashlari mavjud: "Shoir estetikasida vijdon erkinligi masalasi alohida o'rin tutadi. Ruh fenomeni, ko'ngil hurriyati, erk fenomeni Rauf Parfi estetikasida ijtimoiy-falsafiy kategoriya darajasida badiiy tadqiq etiladi". Ya'ni ijodkor o'z hayotiy konsepsiyasini ruh erkinligi motivi bilan yo'g'rilgan holda istifoda etadi.

Rauf Parfi she'riyatida So'zning alohida o'рни bor ekanligi ushbu she'riyatning barcha ixlosmandlariga ma'lum. Shu ma'noda shoir she'riyatida So'z tushunchasi asarlarda anglashilayotgan mazmun va ruhiyat tasviri uchun qo'llanilganligini kuzatish mumkin. "So'z orqali u haqiqatga yetishadi. Ko'nglidan silqib, sizib chiqqan so'zlar sukunatning o'chog'iga o't qalaydi. Va shu tariqa, shoir she'riyatida so'z yonadi, tun yonadi, sukunat yonadi. Demak, So'z hayotning o'zi, haqiqatning ko'zi. Bu – Rauf Parfi O'z turk she'riyatining mag'zi" [Rahimjonov N. 1:8].

Xullas, yetuk adabiyotshunos olim No'mon Rahimjonov parfishunos olim sifatida ham alohida o'ringa ega. Olim Rauf Parfi O'z turk estetikasini o'zgacha mehr va ishtiyoq bilan talqin etgan va ko'z ilg'amas jihatlari, murakkab taxayyulot olamini anglab tadqiq eta bilgan. Shoir she'riyatidagi tahayyullar asosiga qurilgan timsolli tafakkur yo'nalishi, undagi otashin ruh, majoziy lirizm kabi jihatlar sinchi olimning nazaridan chetda qolmagan. Rauf Parfining dil uyg'oqligiga, hayotning ma'nosini, yashashning mohiyatini anglab yetishga da'vat etadigan, haqiqat ranglarini his etishga, adolatning achchiq ta'mini totib ko'rishga majbur qiladigan she'riyatiga o'zgacha nigoh bilan qarashga undaydi. Ustozimizning ilm yo'lidagi zahmatlari o'z ajru savobiga ega bo'lsin, oxiratlari obod bo'lsin!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/nomon-rahimjonov-iymon-asiri.html>
2. <https://www.e-adabiyot.uz/maqola/868> Нўмон Раҳимжонов. Адабиёт бизнес эмас.
3. Рауф Парфи. Сакина. – Тошкент: Муҳаррир, 2013. – 376 б.
4. Рауф Парфи. Сўнгги видо. – Тошкент: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – 86 б.
5. Раҳимжонов Н. Истиклол ва бугунги адабиёт. – Т.: О'qituvchi, 2012. – 328 б.
6. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. – Т.: Фан, 2007. – Б. 112.

YUKSAK INSONIY FAZILATLAR SOHIBI

Hamidova Muhayyoxon Obidovna,
filologiya fanlari nomzodi, professori,
Namangan davlat universiteti

Hayotda shunday insonlar borki, ular o'zining samimiyligi, kamtarligi bilan barchaning doimo hurmatini qozonadi. Ana shunday insonlardan biri Nu'mon Rahimjonov bo'lib, men bu inson bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutiga (hozirgi) aspiranturaga o'qishga qabul qilinganimda uchrashgandim. Aspiranturgaga o'qishga kirganimdan so'ng men marhum ustozim akademik, filologiya fanlari doktori Baxtiyor Aminovich Nazarov ilmiy rahbarligida XX asr o'zbek adabiyoti bo'limida ilmiy ishimni olib bordim. Ish yuzasidan doimo Nu'mon aka o'tirgan xonaga kirganimda ularni hyech qachon bo'sh o'tirganlarini ko'rmaganman. Doim yo kitob mutolaa qilib o'tirgan holda, yoki nimanidir tahlil qilib o'tirgan holda, yo shogirdlarga ilmiy maslahat berayotgan holda, umuman, bu insonni bo'sh o'tirganini ko'rmaganman. Biz ta'rifini keltirayotgan ison, birinchi qarashda o'zining kamtarligi, kamsuqumliligi, xokisorligi, tortinchoqligi bilan e'tiborimizni tortsa-da, suhbatlashsangiz, u kishining mulohazali, bilimdon va samimiy ekanligi kishini lol qoldiradi.

Meni eng qavttiq ta'sirlantirgan hol u insonning ko'pchilikda uchramaydigan samimiy tabassumi edi. Ha, Nu'mon Rahimjonov deyilganda hozir ham ko'z oldimga ularning kulib turgan ko'zlari keladi.

Qahramonimizning eng yuksak xislatlaridan biri hammaga ham nasib qilavermaydigan nihoyatda yumshoq tabiatli, muloyim, kamtarligidir. Uning bu xislatiga barcha havas qiladi, unga o'xshagisi keladi. Darhaqiqat, ustoz Nu'monjon Rahimjonov "Kibru havo nimaga kerak?" - degan aqidaga qat'iy rioya qilganholda yashagan inson edi. Shuning uchun ustozni bir qadam ham g'urur ostonasidan o'tganini ko'rmaganman.

U qayerda ishlamasin o'ziga xos o'rin kasb eta oldi desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. U o'z faoliyatida endigina ilm yo'liga qadam qo'ygan yoshlarga samimiy so'zlari bilan o'ziga xos tarzda mehr uyg'ota olgan. Jumladan, men ham tez-tez ularning oldilariga ilmiy ishim yuzasidan maslahat so'rab kirganimda, ish bilan band bo'lishlariga qaramay, yordamlarini ayamasa edilar. Bu dargohda respublika adabiyotshunoslarining darg'alari: marhum ustozim Baxtiyor Nazarov, To'ra Mirzayev, Naim Karimov, G'affor Mo'minov, Abduqodir Hayitmetov, Hafiz Abdusamatov, Bahodir Sarimsoqov, Aziz Qayumov, Erik Karimov, No'mon Rahimjonov (o'tganlarining oxiratlari obod bo'lsin) va Rahmatulla Barakayev, Suvon Meliyev kabi yana bir qator taniqli olimlar ham qishloqdan kelgan namanganlik qizdan o'z yordamlarini ayamaganliklari uchun ham o'zimni shu darajaga yetib kelishimda

ularning roli katta deb hisoblayman. Jumladan, Nu'mon akani ham. Ular doim meni ko'rganlarida "Namanganlik qizimizda nima gap?" deb so'rashar edilar. Qolaversa, ustozim: "Men yo'q vaqtimda ham shu yerdagilardan bermalol ilmiy ishingiz bo'yicha maslahatlarni olaverishingiz mumkin", deganlariga hych tortinmay ishingga oid nimanidir tushunmasam Nu'mon akaning oldiga ham bir necha bor maslahat so'rab kirib, kerakli maslahatni olar edim.

Qolaversa, Nu'mon aka bir ish boshlasalar, albatta, unga sidqidildan, mas'uliyat bilan yondashar edi. Mavzu tanlab, kitob yo maqola yozmoqchi bo'lsa mavzuga aloqador manbalarni (u qaerda bo'lishidan qat'iy nazar) to'plab, ularni sinchiklab tahlildan o'tkazib, yakuniy qarorga kelib keyin yozishga o'tirar edi. Shundan bo'lsa kerak uning yozganlari, hamisha, o'qimishli va zalvorli bo'lar edi.

Hozirgi o'zbek adabiyotshunosligi taraqqiyotini No'mon Rahimjonov ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Olimning "Davri va o'zbek lirikasi", "Shoir va davr", "She'r sehri", "Falsafiy lirika", "Ilmiy tafakkur jilolari", "Asqad Muxtor poetikasi", "Halima Xudoyberdieva lirikasi" (Hammualiflikda), "Nur boqiylikdur", "Tarixiy qissalar haqiqat izlaydi" (Hammualiflikda), "Mustaqillik davri o'zbek she'riyati", "Badiiy asar biografiyasi", "Istiqlol va bugungi adabiyot", "Qodiriyshunoslik qirralari", "Badiiyat – bosh mezon (Adabiy suhbatlar)", "Badiiy so'z estetikasi: Ibrohim G'afurovning adabiy-estetik qarashlari", "O'zbek adabiyotshunosligi hozirgi bosqichda", "O'zbekiston adabiyotshunoslari" kabi monografiya, risola, adabiy portret va esselari fikrimizni asoslay oladi.

Haqiqatan ham Nu'mon Rahimjonovning insonlarga o'rnak bo'larli hayot tarzi bor edi. U ustozlarning, qolaversa, hayotning bergan sabog'i, o'zining mehnati, tirishqoqligi va halollligi, adolatparvarligi tufayli bir inson orzu qiladigan natijalarga erisha oldi.

Nu'mon akani eslanimda, uning tabiatan jiddiy, talabchan, o'z vazifasiga mas'uliyatli va sidqidillik bilan yondashuvchiligi, ammo xushfe'l hamda dilkashligi, qolaversa, o'ta sabr-toqatliligi bilan ham ajralib turardi. U xalqimizning "Ustoz va muallimlar hurmatini o'rniga qo'yganlar bu dunyoda ham, oxiratda ham saodat topadi", degan hikmatlariga amal qilib, kattalarga hurmat, kichiklarni izzat qiladigan, atrofdagilarga mehribon. Shogirdlarga otalarcha munosabatda bo'ladigan, ruhiyati toza va vijdonan xotirjam, hurmat va e'zozga loyiq inson sifatida ko'pchilikka o'rnak bo'la olgan inson ko'z oldimga keladi.

O'zbek adabiyotida o'zining o'lmas asarlari bilan iz qoldira olgan olim Nu'mon Rahimjonov hayot bo'lganlarida qutlug' 80 yoshni qarshilagan bo'lar edi. Lekin ustozning e'lon qilgan kitoblari va shogirdlariga ko'rsatgan yaxshiliklari bilan yaqinlari, ko'p sonli chinakam adabiyot ixlosmandlariga qoldirgan meroslari davrlar osha

adabiyot ilmiga xizmat qiladi va ma'rifatli, ma'naviyatli avlodni tarbiyalashda muhim dastur bo'lib xizmat qilishda davom etadi.

НАВОИЙ ВА ЧЎЛПОН: КЎК – ЕР КОНЦЕПТИ **(Бир рубой ва тўртлик мисолида)**

Сувон Мели

филология фанлари доктори

Одам оёғи, яъни вужуди билан ерда юрса, кўнгли, руҳи билан бутун коинотни кезади. Агар одам кўнгли билан кўк фарзанди бўлмаса, уни бошқа жонзотлардан ҳеч бир фарқи қолмасди. Шундагина “Ўлганда ҳам вужудинг билан, Кетмагайсан ерга қоришиб” (А.Орипов) амалга ошар, тамом ерга қоришиб кетиш фақат одамнинг вужудига тегишли бўлиб, кўнгил ва руҳият абадийлиги ишонч маснадига кўтариларди. Шунинг учун ҳам кўк шунчаки осмон бўлмай, инсон юксалиши мумкин бўлган олий маъво, керак бўлса, Аллоҳнинг даргоҳидир. Бежиз эмаски, Ҳазрат Навоий “Ҳайрат ул-аброр” достонида кўнгилни солиқ, яъни суфий тили билан “арши муалло” (энг баланд осмон) деб баҳолайди.

“Ер” сўзининг маъноси бирқанча. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да сўзнинг ўн бир маъноси қайд этилган. Биз кўзлаган махсус маъноси эса инсон умргузаронлик қиладиган, кун кечирадиган маконни англатиб, паст, қуйи деган ҳолатни ҳам билдиради. Уст-ост, баланд-паст, юксак-тубан каби антонимлар кўк-ер концепти билан муайян ҳолатларда мазмунан яқинлашадилар.

Биз бу ўринда нега “концепт” сўзини ишлатмоқдамиз. “Концепт бирон бир тушунчанинг тилда ифодаланган моҳиятидан муайян даражада фарқ қиладиган ўзига хос мазмуни. Концепт тушунчада акс этадиган онтологик асосни янада ёркинроқ ифодашга ёрдам беради”¹. Яъни бизнинг ҳолатда концепт тарзда номланаётган кўк ва ер сўзлари оддий қўлловдагидан бошқачароқ, махсус маъно англатиши кузатилади.

Ҳозирги тилимизда “бутун атроф, ҳамма ёқ; коинот” маъноларини англатувчи “ер-кўк” деган жуфт сўз мавжуд. Маъруза сарлавҳасидаги “кўк-ер” ўша жуфт сўзнинг шунчаки ўрин алмашуви эмас. Янги жуфтликни ташкил этган ҳар икки сўз махсус, яъни кундалиқ қўлловдан ёркинроқ, фундаменталроқ маъно ташимоқда. Уларнинг концептлиги ҳам шунда.

Ушбу икки сўзнинг махсус маъноси матний таҳлилда, контекст кузатувида янада ёркинроқ кўринади. Биз ҳозир ушбу қўшалок концепт иштирок этадиган икки шеърӣ матнни, бири тўртлик, иккинчиси рубойӣ, атрофлича таҳлил қилишга ҳаракат қиламиз. Тўртликдан бошласак. Бу Абдулҳамид Чўлпоннинг 1926 йилда Тошкентда Ўзбекистон давлат нашриёти

¹ Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. Икки жилдлик. 1-жилд. Т.: Маънавият, 2023. 623-бет.

томонидан чоп этилган “Тонг сирлари” тўпламидан ўрин олган “Янглишасиз!” номли тўртлигидир. Тагидаги ёзувдан маълумки, у Қўқонда, 1924 йил 28 сентябрда битилган. “Тонг сирлари” тўпламига айна шу ном билан буюк адиб Абдулла Қодирий Жулқунбой имзосида қисқа, лекин мазмундор сўзбоши ёзган. Мазкур сўзбошига эътибор қаратишимизга сабаб, унда тўртлик тўлиқ берилиб, унинг яралиш жараёни ҳақида қимматли фикр ва маълумот борлигидир.

Сўзбошида буюк адиб шоирни айрим, айтиш жоизки, сиёсий таъналардан ҳимоя қилади: “Баъзи бир ўртоқлар Чўлпонни йиғлоқ шоир деб айбситадилар” деган фикрга жавобан “Бироқ, шоир шу тўккан кўз ёшларидан чечаклар ўстирмоқчи бўлмаса эрди, биз ҳам унинг муътаризлари (эътирозчилари – С.М.) қаторига кирган бўлар эдик” дея биз диққат қаратаётганимиз тўртликка ўтади:

“Анқов таъначилар шоирни ранжитишда мудовамат қиладилар, ҳатто “Сен кўк шоири!” дегувчилар ҳам бўлиб, чорасиз шоир ўз ҳолидан очиқ жавоб беришга мажбур қоладир”² дея тўртликни келтиради. Тўртлик эса бундай:

Янглишасиз!

Сиз дейсизким, мен кўкларни ўйлаймен,

Ер бетига сира назар солмаймен!

Янглишамиз, мен кўкларга беркинган

Ер қизидан хаёлимни олмаймен...³

Асар қисқа бўлгани учун уни бирбутун, яъни сарлавҳаси билан биргаликда ўқиш ва кўриш илмий мақсадга мувофиқ. Сарлавҳада туриб ундов билан таъкидланган “Янглишасиз!” асарга ўзига хос оҳанг, шиддат бағишлайди ҳамда унга кескин баҳс-мунозара руҳини олиб киради. Биз Абдулла Қодирий сўзбошисидан олинган кўчирмани давом эттириб, тўртликни келтиришимиз мумкин эди. Лекин мақолада унинг сарлавҳаси қўйилмаган, бунга ҳожат ҳам йўқ эди. Гап шундаки, асарнинг визуал қиёфаси айнан сарлавҳаси билан тугал ва мукамалдир.

Кўрамизки, сарлавҳадаги сўз учинчи мисрада такрорланади. Лекин у энди бутун шеърга эмас, ўзидан кейинги бир ярим мисрага тегишли, холос. Сарлавҳада бу сўз универсал вазифа бажарса, шеър ичида у локал аҳамиятга эга.

Шеър тўлиғича мунозара характериға эга. У ўзига хос жавобиядир. Асар моҳиятини англашда Абдулла Қодирий сўзбошиси жуда қўл келади. Буюк адиб айтган “анқов таъначилар” биз ҳозир номларини билиб-билмайдиган аниқ одамлар бўлиши мумкин, лекин уларнинг ортида бутун бир ижтимоий тузум, худотерс, динсиз мафкура турибди. Шунинг учун ҳам “ҳатто “Сен кўк шоири!”

² Чўлпон. Тонг сирлари (Матн). Т.: Zilol buloq, 2023. 8-бет.

³ Шу китоб. 74-бет.

дегувчилар” (“хатто”га эътибор беринг, бу айтилган гапнинг ҳадди аълоси демакдир) шу гаплари билан шоир ижоди ушбу мафкурага зид эканига шаъма қиладилар. Аслида-ку, “кўк шоири” улуғ ҳақиқатлар, илоҳий туйғулар шоири, куйчиси демакдир. Ўз-ўзича олганда фикр эркинлиги устивор демократик жамиятда бу юксак мақтов ва буюк эҳтиром белгиси бўлиши мумкин эди. Лекин инсон эрки, хатто ҳис-туйғуси тизгинланган, диний эътиқод таъқиқланган тоталитар жамиятда бу жиддий айблов эдики, Абдулла Қодирий буни теран англади, шу боис шоирни бундай айбловдан соқит қилишга уринган эди.

“Анқов таъначилар” унчалик анқов эмас эдилар, лекин уларни анқов дейиш ўша пайтда зарур эди. Таънанинг дамини кесиш айна лозим эди.

Шеърда икки зид тушунча, аниқроғи сўз бор, бири: сиз – мен, иккинчиси: кўк – ер. Сиз – мен зидлови тўртликнинг шаклий структурасига тегишли, асар шу зидлов асосига қурилган. Кўк-ер зидлови эса концепт рутбасига эга бўлиб, шеърнинг маъно-мундарижасига тааллуқли. Тўртликнинг биринчи икки мисраси Сизнинг фикри, кейинги икки мисра меннинг жавоби. Ҳар иккаласида, саволда ҳам, жавобда ҳам кўк-ер концепти худди шу тартибда – аввал кўк, сўнг ер. Сизнинг фикри шундай ифодаланган:

Сиз дейсизким, мен кўкларни ўйлаймен,
Ер бетига сира назар солмаймен.

Яъни бу Қодирий сўзбошисидаги “Сен кўк шоири!” деган таънанинг бошқача шакли, содда қилиб айтганда, “кўкларни ўйлайди, ерга боқмайди”. Жўн мантиқ бўйича, шоир бу гапни, таънани рад этмоғи лозим. Сарлавҳадаги ва матн ичидаги “Янглишасиз!” шунини тақозо этаётгандай. Лекин раддияга, жавобга боқайлик:

... мен кўкларга, беркинган
Ер қизидан хаёлимни олмаймен...

Тўртлик фалсафасининг қаймоғи, асар квинтэссенцияси айна шу ерда ва буни англаш учун “кўкларга беркинган Ер қизи” ким ёки нима, деган саволга жавоб топмоқ зарур бўлади. Ер қизи қандай қилиб кўкларга беркинади? Бу юксак хаёлот олами, поэтик мистикага чўлғанган туйғу, ўй-фикр-ку!

Бу саволга жавобни фақат ушбу контекстдан изламай, шоирнинг бундан олдин ва кейин ёзган шеърларидаги кўк ва ер, хусусан, кўк ҳақидаги мисраларни бир қур кузатсак. 1919 йилда ёзилган буюк “Гўзал” шеъри шундай бошланади: “Қоронғу кечада кўкка кўз тикиб, Энг ёруғ юлдуздан сени сўраймен...”. Машҳур “Бузулган ўлкага” достонида кўк-ер концепти шундай контекстда ишлатилади: “Жавоб йўқми кўклардан-да, ердан-да, Хароб бўлган элдан-да...”

Кўкдаги қиз, Ер қизи нима эканлиги борасида шоирнинг шундай мисралари бор:

1. Кўкда бир тўп қиз – малак уйқу куйини бошлади,
Илгари чолган тирик, жонли куйини ташлади.
(“Уйқу”, 1921)
2. Кўклардан малаклар қиз бўлиб тушсалар,
Яна мен унларни қўйнимга қўймайман.
(“Барг”, 1922)

Ушбу икки контекстга таяниб, “кўкларга беркинган Ер қизи” шоир хаёлотида туғилган кўкдаги қиз-малаклар, дея оламиз. Биламизки, малак ва фаришта сўзлари айнийдир. Сунний ақийдалардан маълумки, фаришталар турли инсонлар, жумладан, қиз шаклига кириб кўриниш бериши мумкин экан. Олти диний калималардан бири “Иймони муфассал”да – “Аманту биллаҳи ва маликатиҳи ва кутубиҳи ва расулиҳи вал явмил ахири ва қодари хойриҳи ва шарриҳи миналлоҳи таъала вал баъси дал мавт” (“Аллоҳга, Унинг фаришталарига, китобларига, расулларига, охират кунига, яхшилик ва ёмонлик, Аллоҳнинг хоҳиши билан бўлишига ва ўлимдан кейин қайта тирилишга ишондим”) – Унинг фаришталарига ишониш фақат энг биринчи Аллоҳга ишонишдан кейинги ўринга қўйилган. Зеро, “Инсонни хайвондан ажратиб турадиган нарсалардан бири ҳам ғайбий нарсаларга, жумладан фаришталарга ишонишдир. Бундай иймони бор инсон ҳис этиш аъзолари чегарасида, тор жойда ўралиб қолмайди. Балки тасаввур доираси чексиз бўлади”⁴.

Шундай тасаввур доираси чексиз, буюк қалб ва соф эътиқод соҳиби – Чўлпон эди. Суфиёна чексиз тасаввур кўк ва ерни яхлит, бир бутун ҳолда кўрар, кўкни ердан ажратиш (ушбу контекстда) чала, хом тасаввур махсули экани, улар икки ёрти бир бутун ҳодиса экани биз ўрганаётган тўртликда сирли бир тарзда ифода этилгандир.

Шоир 1921 йилда ёзган “Кетганинда (Клиупатрага)” шеърида
Севгимдан сўнгги малаклар
Тўп-тўғри кўкками учди?

дея ёзар экан, бу мисралар “Янглишасиз! “ шеъридаги маънога ўзига хос янги ифор олиб киради. Тўртликда шоир хаёлан талпинадиган Ер қизи кўкларда яширинган бўлса, бу ерда шоир севгисидан бино бўлган малаклар ердаю, лекин кўкка учишга чоғланадилар. Яна бир бор юқорида айтилган ер қизи – малак маъно қатори, тенгламаси пайдо бўлади.

Қизиғи шундаки, такрор бўлса-да айтамыз, муаллиф “Сен кўк шоири!” деган гапни рад этгандай бўлиб (“Янглишасиз!”), аслида айблов сифатида

⁴ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Сунний ақийдалар. Т.: Hilol nashr, 2012. 365-бет.

айтилган бу фикрга чуқур маъно юклайди, уни ўзи томонга буриб юборади. Мен бутун олам, кўк ва ер билан тиллашаман, хаёлан суҳбатлашаман, ерда туриб кўк билан биргаман, бир бутунман, дейди гўё шоир.

Яна бир гапни айтмоқ жоиз. Биз тўртлик ҳақида, унинг моҳияти ҳақида қанча гапирмайлик, фикрламайлик, у барибир бизга сирли, хусусан, “Янглишасиз, мен кўкларга беркинган Ер қизидан хаёлимни олмайман!..”да тафаккурга тутқич бермас нималардир бордек туюлаверади.

Шу ўринда ушбу тўртлик ва умуман Чўлпон шеъриятига хос бир хислат ҳақида, яъни шоир мистикаси ҳақида гапирмоқ лозим. Зеро, янги ўзбек шеъриятида мистикага мойил Чўлпонга тенг бошқа шоирни учратиш маҳол. Лекин авваал мистик, мистика каби атамаларни совет давридаги салбий талқинлардан тозалаш лозим бўлади. Чунки асл буюк шеърият, бадий адабиёт ҳеч қачон юксак мистикадан холи бўлган эмас.

Бинобарин, мистика “Ғайритабий оламга, илоҳлар ва илоҳий кучларга, инсоннинг илоҳиёт олами билан алоқа қила олишига ишонишдан иборат диний эътиқод”⁵. Нафақат диний эътиқод, балки шундай руҳдаги бадий тасаввур ва поэтик тафаккур тарзи ҳам. Балки Чўлпонни баралла мистик шоир деб бўлмас, лекин шоир шеъриятида мистика унсурлари, лирик мистицизм ҳақида бемалол фикр юритиш ва илмий тадқиқот олиб бориш мумкин, деб ҳисоблаймиз.

Муסיқа, айникса мумтоз шашмақом куй-ашулаларини берилиб тинглаган (аввало берилиб тинглайдиган қалб лозим) ҳар қандай одам ўзга оламлар, юксак хилқатларга кўтарилиб, бу фоний дунёнинг майда ташвишларидан тамом фориг бўлади. Буюк бастакор Мутал Бурхонов хотирлашича, “Шашмақом садолари янграганда Чўлпон сел бўлиб, бутун вужуди кулоққа айлангандай, бир маромда чайқалиб ўтириб тингларди. Кулоғи муסיқада-ю, хаёллари жунбишга келиб, нималарнидир кўз олдида келтираётгани сезилиб турарди. У эшитган куйларни юрак-юракдан жуда чуқур ҳис қиларди”⁶.

Шоир булбуллар хонишидаги ажиб муסיқани ҳис қилиб, ёзганди: “Самовий завқларга тўлиб турганман Булбуллар севгини мақтаган дамда” (“Созим”, 1924). Самовий завқ ғайриоламларга сайр меваси, мистик тасаввур деганидир, ҳойнаҳой. Мистика мусулмон Шарқ ва ўзбек мумтоз адабиётининг руҳоний асосларидан бири бўлмиш тасаввуф билан узвий боғлиқ. Кўплаб Ғарб олимлари тасаввуфни “мусулмон мистикаси” деб бежиз ҳисоблашмаган.

Мистикадан олабўжидан кўрққандай кўрққан совет мафкурачилари, Қодирий таъбирича “анқов таъначилар” Чўлпонга “Сен кўк шоири!” дея

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. 2-жилд. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. 602-бет.

⁶ Муштум. 2024. 3-сон (Хотирани Озод Шарафиддинов ёзиб олган).

эканлар, бунда шоир шеърларига хос сирлиликни, мистикани ҳам кўзда тутган бўлишлари эҳтимолга яқин. Лекин, юқорида айтганимиздай, шоир буни инкор этгандай бўлиб, аммо бундан-да ўтказиброқ “Кўкларга беркинган Ер қизи” ҳақида суфиёна сўйлайди.

Худди шу ердан бошлаб кўк – ер концепти ҳазрат Навоийнинг бир рубоийсидаги иштироки ва бадий-фалсафий инкишофи ҳақида фикр юритсак. Вазиятнинг завқли жойи шундаки, мумтоз рубоийда айнан Чўлпон тўртлигидаги каби бу жуфтлик кўк-ер тарзида қўлланади. Алҳол, Чўлпон мазкур рубоийни ўқиган, ундан илҳомланган ҳамда шеъриятида кўк-ер концепциясини яратишда ҳазрат Навоийга суянган бўлиши ҳам мумкин.

Ушбу рубоий ҳазрат Навоийнинг “Тарихи анбиё ва ҳукамо” асаридаги Исо алайҳиссаломга бағишланган қисмни якунловчи шеърини битикдир.

Исоки, мужаррад айлади Тенгри ани,
Кўк равзаси бўлди жилвагоҳу чамани.
Ер аҳлидин улки бўлса тажрид фани,
Тонг эрмас, агар кўк ўлса анинг ватани⁷.

Рубоий бежиз Исо алайҳиссалом ҳақидаги фасл сўнгига қўйилган эмас. У ўзидан олдин баён этилган воқеа-ҳодисаларни поэтик жиҳатдан умумлаштиради ҳамда назмий сўзнинг кучи билан илоҳий воқеликни сиқик ва эҳтиросли ифодалайди. Айтмоқ жоизки, ҳазрат Навоий ўз асарида Исо (а.с.) ҳақида ёзар экан, у биринчи навбатда ушбу пайғамбар ҳақидаги “Қуръони карим” оятларига суянади. Асарда Исо (а.с.) пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в.) ҳақида гувоҳлик берувчи илоҳий оят аслиятда келтирилади: “Ва из қола Ийсабну Маряма ё бани исроила инни расулуллоҳи илайкум мусаддиқан лимо байна ядайя минат-тавротни ва мубашширан бирасулин яъти мин баъдисмуҳу Аҳмаду”⁸. Яъни: “Эсланг, Ийсо бинни Марям: “Эй Бани Исроил, албатта мен Оллоҳнинг сизларга (юборган) пайғамбаридирман. (Мен) ўзимдан олдинги Тавротни тасдиқловчи ва ўзимдан кейин келадиган Аҳмад исмли бир пайғамбар ҳақида хушхабар берувчи ҳолда (юборилдим) деган эди” (Саф, 6-оят)⁹.

Бу улуғ оят Исо (а.с.) динимиз учун нақадар нодир зот бўлганлигидан хабар берувчи илоҳий муждадир.

Ҳазрат Навоий асарида ёзилишича, “Муқаррардурким, Исо (а.с.)нинг атоси йўқтур. Марям Жаброил (а.с.)нинг нафаси била хомила бўлди”, яъни “ул модарзод пайғамбар эрди”¹⁰. Асарнинг Исо (а.с.) ҳақидаги энг муътабар

⁷ Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. 8-жилд. Т.: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. 593-бет.

⁸ Шу ерда. 590-бет.

⁹ Қуръон карим (таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). Т.: Чўлпон, 1992. 545-бет.

¹⁰ Алишер Навоий. ТАТ. 8-жилд. 589-бет.

ўринлари, шубҳасиз, ул зотнинг кейинги тақдири ҳақидаги маълумотлардир. Бунда ҳам ҳазрат Навоий “Қуръони карим”, ундаги “Яна кофирликлари ва Марям хусусида улуғ бухтон қилганликлари ҳамда Оллоҳнинг элчиси бўлган ал-Масиҳ бинни Марямни “Бизлар ўлдирганмиз”, деган сўзлари сабабли (Биз уларни лаънатладик). Ҳолбуки, улар (Ийсони) ўлдирганлари ҳам, осганлари ҳам йўқ. Фақат улар учун (бошқа биров Исога) ўхшатиб қўйилди, холос” (Нисо, 156-157-оятлар) деган илоҳий каломга суянади. Шу суранинг кейинги, 158-оятда айтилади: “Балки уни Оллоҳ Ўз ҳузурига кўтаргандир. Оллоҳ Қудрат ва Ҳикмат Эгаси бўлган зотдир”¹¹.

Ҳазрат Навоий ўз асарида ушбу илоҳий муждага суянган ҳолда бу масалага оид айрим тафсилотларни ҳам келтирадики, улар биз учун ғоят муҳим: “Жухудлар тиладиларки, Исо (а.с.)ни тутуб ўлтургайлар. Тангри таоло аларнинг кўзидин ани ғойиб қилиб, осмонга чиқорди. Ва Ийшуъниким, жухудларнинг улуғи эрди, Исо (с.а.)нинг шакли била муташаккил бўлди. Жухудлар ани Исо (а.с.) соғиниб тутилар қатл қилғоли. Ул ҳар неча фарёд қилдиким, мен Ийшуъмен, фойда бермади. Ани бир дарахтқа бўғзидин остилар. Ва ети кеча-кундуз осифлик қолди”¹².

Қизиғи шундаки, юқорида тилга олинган “Қуръони Азим тафсири”да зикр этилган 15 жилдлик “Ат-тафсирул Мунийр”да Исо (а.с.)га ўхшатиб қўйилган одам “Яхузо исмли нопок кимса” дейилади. Яна бир қизиқ томони шундаки, ҳазрат Навоий асарида Исо (а.с.)га ўхшатиб қўйилиб осилган кимса Ийшуъ бўлса, буюк рус адиби Михаил Булгаковнинг машҳур романи “Уста ва Маргарита”даги насронийлар ўғил-худо деб ҳисоблайдиган Исус Христоснинг номи Иешуадир. Номлардаги бундай яқинлик ва моҳиятда бунча узоқлик қаердан пайдо бўлган? Оллоҳ Исо (а.с.)га ўхшатиб қўйиб, осилган Ийшуъ, бу Навоийда, қандай қилиб, “Уста ва Маргарита”да Исус Христосга Иешуа тарзда ном бўлиб қолди? Ҳазрат Навоий таянган манбани рус адиби ғалати тушундимикан? Нима бўлганда ҳам бундай исмдаги яқинлик, моҳиятдаги фарқ жиддий ўрганишга лойиқ илмий масала, ҳойнаҳой.

Христианликни, назаримизда, энг заиф нуқтаси Худони учга – Ота Худо, Муқаддас руҳ ва ўғил Худо – ажратиши ва Исо (а.с.)ни Худо деб эътиқод қилишидадир. Уларнинг муқаддас китобларида Исо (а.с.) осилиб, чормихга тортилиши кейинчалик, XIX асрда, Ғарб оламида “Худо ўлди” каби ботил ғоялар пайдо бўлишига қора замин яратди. Рус файласуф олими ёзади: “Христианлик ўз соясидан уялади ва буни ёвуз ғайридинларга тўнкайди. Лекин

¹¹ Қуръони Азим тафсири. Нисо сураси. Ўш: “Ризвон” нашриёт уйи, 2019. 325, 327-бетлар (Шайх Алоуддин Мансур тафсири).

¹² Алишер Навоий. ТАТ. 8-жилд. 592-бет.

кўринадики, худокушлик учун заиф Худо зарурдир. Бу Христос, бу Орфей бўлиши мумкин, лекин бу Ягве ёки Аллоҳ бўлиши мутлақо мумкин эмас: уларга ҳатто фикран тегиниб бўлмайди, улар даҳлсиздир. Худокушлик ғояси иудавий ёки мусулмон калласига сиғмайди. Худокушлик ғояси иудавий ёки мусулмон калласига сиғмайди. Худо инсон даражасига тушмайдиган жойда худокушлик – бемаъни ва бетайин сўздир”¹³.

Мавзуга қайтсак. Шундай қилиб, Исо (а.с.) ҳақидаги барча воқеа-ҳодисалар мазкур рубойий туғилишига сабаб бўлди. Уни яна келтирамиз:

Исоки, мужаррад айлади Тенгри ани,
Кўк равзаси бўлди жилвагоҳу чамани.
Ер аҳлидин улки бўлса тажрид фани,
Тонг эрмас, агар кўк ўлса анинг ватани.

Агар рубойини кўк-ер концепти бўйича кузатадиган бўлсак, кўрамизки, мазкур жуфтлик иккинчи ва учинчи мисра бошида келиб, тўртинчи, хулосавий мисрада “Кўк – анинг ватани” деган муҳташам ғояга дастак бўлади. Биринчи мисра эса Исо (а.с.)нинг юксак мақоми ҳақида: Тангри уни ҳам озод қилди, ҳам унга ёлғизлик, танҳолик (мужаррад) мақомини берди. “Қуръони Азим тафсири”да ёзилишича, “Оллоҳ таолонинг Амри билан Жаброил алайҳис-салом уни ўйининг туйнугидан кўтариб, осмонга олиб чиқиб кетди”¹⁴.

Кўк равзаси (гулбоғи, бир маъноси “жаннат”) жилва, нур порлаган жой, ҳам гулзордир. У Ер аҳлидан яккаланган, қувилган экан, яъни

Ер аҳлидин улки бўлса тажрид фани,
Тонг эрмас, агар кўк ўлса анинг ватани.

Эслатамизки, гап Исо (а.с.) ҳақида кетмоқда ва ул зотнинг ватани (асли арабий бўлган бу сўзнинг луғавий маъноси “туғилиб ўсган жой, юрт) кўк бўлиши ажаб эмаслиги (“не тонг”) таъкидланмоқда. Ушбу мисра ёнига, ўтрусига Абдулхамид Чўлпон тўртлигидаги сўнгги икки мисрани қўямиз:

Янглишасиз: мен кўкларга беркинган
Ер қизидан хаёлимни олмаймен...

“Абу Хайён айтади: “Меърож ҳақида Пайғамбар соллоллоҳу алайҳи ва салламдан ривоят қилинган саҳиҳ ҳадисда айтилишича, Оллоҳ таоло Ййсо алайҳис-саломни иккинчи осмонга кўтарган ва то у зот ерга тушиб, дажжолни қатл қилгунича ўша жоайда яшайди”¹⁵ дейилган Исо (а.с.) билан Чўлпон асаридаги Ер қизи ўртасида қандайдир боғлиқлик, илоҳий ришта бор. Навоий ҳазратлари беш ярим аср наридан туриб, Чўлпон шеърини шархлаётгандай гўё.

¹³ Померанц Г.С. Открытость бездне: Встречи с Достоевским. М.: Советский писатель, 1990. С.327.

¹⁴ Қуръони Азим тафсири, 326-бет.

¹⁵ Қуръони Азим тафсири. 327-328-бетлар.

Чўлпон асари эса ул зот сўзларига камарбаста бўлаётгандай, илоҳий мавзуларда вақт масофаси мавжуд эмасу фақат ҳозир деган лаҳза бор, холослигини таъкидлаётгандай, гўё.

Ҳар икки шоир мумтоз ва ҳозирги тилимизда кўкнинг қатор синонимлари – осмон, само, фалак, гардун, фазо, сипеҳр, мину ҳамда кўк ва ерни англатувчи арзу само ибораси мавжуд бўлгани ҳолда айнан соф туркий сўзлар – кўк ва кўк-ер жуфтлигини олгани бежиз эмас. Маълумки, қадимги туркийларнинг ислом динига қадар эътиқод қилган илоҳлари “Кўк тангри” бўлган. Алишер Навоий ва Чўлпон онгостида архетип тарзда ушбу илоҳ акс-садолари мавжуд дейиш мумкин. Зеро, ҳазрат Навоий рубойисининг илк мисрасидаги “Тенгри” сўзи кейинги мисра бошидаги “Кўк” сўзи билан бежиз “учрашмайди”, ҳойнаҳой.

Тўртлик “мен” тилидан баён қилинади ва Сиз – Мен зиддияти асосига курилади. Бу ҳақда юқорида ҳам айтган эдик. Яна бир жиҳат шуки, “Сиз”, яъни муҳолифлар айтган фикрда ҳам кўк-ер концепти мавжуд, лекин бундаги икки ҳад яхлит эмас, бошқа-бошқа ва зид ҳодисалар сифатида қаралмоқда. Улар ажратилади ва ўзаро зид қўйилади. Ҳамда “ер”га устунлик берилади. Бу бежиз бўлмай, ўша пайтдаги ҳукмрон марксча-ленинча мафкура моддийликни, яъни материализмни тан оларди. Улар учун “ер” моддийлик тимсолиб бўлиб, “кўк” уларга ёт, бегона маъво эди. “Кўк” улар учун гўё ёт унсур эди.

Иккинчи қисм “мен” майдони бўлиб, унда бундай ажратиш йўқ. бунда кўк-ер том маънода яхлит, ягона ҳодисага айланади. Бу ғайб оламидан бохабар, суфиёна бадиий тафаккур эгасининг фалсафий-поэтик фикри эди. Мутафаккир, мусаввир ва эзотерик олим Николай Рерих ёзади: “Олам кўзга кўринмас воқеликларга тўла. Кўринмас оламлар (тасаввуфда бу ғайб олами дейилади – С.М.) бизни кузатади. Ерий ва кўкий (аслиятда земное и надземное) яхлит бутунликнинг қисмларидир... Ер қолган барча оламлардан айри яшаши мумкин эмас”¹⁶.

“Сиз кўк билан ерни бир-биридан ажратмоқдасиз. Янглишасиз, мен бундай қилмайман. Кўк-ер бутундир, демокда гўё Чўлпон.

Рубойй сиртдан қараганда Исо (а.с.) ҳақидаги “Қуръони карим” оятларининг шарҳи, ҳатто бошқа сўзлар орқали ифодаланган такрорига ўхшайди. Бир тарафдан шундай. Бошқа тарафдан шундай эмас ҳам. Шуни қайд этиш лозимки, рубойининг ҳар бир мисраси алоҳида нисбий мустақил фикрни олға суради. Фикрлар мисралар сонича, яъни тўртта. Сўнг ушбу мустақил фикрлар бир-бири билан маъновий муносабатга киришади. Бу муносабатлар янги маъно тармоқларини вужудга келтириб, рубойининг ялпи маъносини янги

¹⁶ Рерих Н.К. Семь Великих Тайн Космоса. М.: ЭКСМО-пресс, 2001. С. 777, 779.

орбитага олиб чиқади. Ҳар бир мисрага алоҳида диққат қаратамиз: Биринчи мисра:

Исоки, мужаррад айлади Тенгри ани.

Бу Исо (а.с.)нинг пайғамбарлик мақоми, унинг танлаб олинганлиги, яккалиги, танҳолиги ва юксак маънода озодлиги ва бу Тангрининг ҳам инъоми, ҳам ҳукми эканлиги; “Мужаррад” сўзи бирйўла ушбу маъноларни ўзида сиғдира олади.

Иккинчи мисра:

Кўк равзаси бўлди жилвагоҳу чамани.

Равза бир маъноси билан боғни аңлатса, бошқа, кўчма маъноси билан жаннатни билдиради. Демак, кўк равзаси кўкдағни жаннатдир. Жилва сўзининг бир маъноси Оллоҳ тажаллиси ва жилвагоҳ Ҳақ нури жилва қиладиган жойни аңлатадики, шунда мисра кўкдағи жаннат Исо (а.с.)нинг Ҳақ нури жилва қиладиган чамани бўлди. деган мазмунга эга бўлади. Гап шундаки, бу пайтда Исо (а.с.) ҳали ерда эди. Ул Зот ерда бўлгани ҳолда кўкдағи жаннат ул зот учун Ҳақ нури жилва қиладиган макон, чаман бўлди.

Эсга олинг, Чўлпоннинг лирик қаҳрамони (бир пайтнинг ўзида “мен” лирик қаҳрамон ҳам бўла олади), ҳам ерда тургани ҳолда “кўкларга беркинган Ер қизидан ҳаёлини олмаган” эди.

Учинчи мисра:

Ер аҳлидин улки бўлса тажрид фани.

Бу ерда тушуниш қийин бўлган ибора фақат “тажрид фани”дир. “Тажрид” ёлғизликни аңлатиб, бутун мисрани у, яъни Исо (а.с.) ер аҳлидан ажралиб, ёлғизликни одат қилди. деб тушуниш мумкин. Шундай бўлгач (“бўлса”):

Тўртинчи мисра:

Тонг эрмас, агар кўк ўлса анинг ватани.

Мисра муқаддас китобимизнинг “Нисо” (158-оят) сурасидаги “Балки уни Оллоҳ ўз ҳузурига кўтаргандир” деган оятга бевосита эмас билвосита боғлиқ. Оллоҳ уни Ўз ҳузурига кўтаргани ортда қолиб, энди кўк “анинг ватани”га айланади. Бунга ажабланмаслик керак, чунки ер аҳли уни ёлғизлатди, ҳатто ўлдирмоқчи бўлди.

Чўлпон тўртлигида ҳам Ер қизи “кўкларга беркинган” эди, кўк ватани бўлган Исо (а.с.) каби.

Энди сал олдин ваъда берганимиздек, рубоийдаги ҳар тўрт мисрани ўзаро солиштириб, “уриштириб” чиқамиз.

1 ва 2 мисра: Тангри Исони ёлғиз, танҳо (мужаррад) қилгани учунгина унга кўкдағи жаннат Оллоҳнинг Нур таратгувчи чаманига айланди. 1 ва 3 мисра: биринчи мисрадаги мужаррад билан учинчи мисрадаги тажрид

ўзакдош бўлиб, бири ёлғиз, танҳо маъносини англагача, иккинчиси ажратиш, яккалашни билдиради. Тангри Исо (а.с.)ни танлаб, танҳо кўриб сийлади, ер аҳли, одамлар Тангри сийлагани учун (парадоксни қаранг) уни яккаладилар, қатл қилмоқчи бўлдилар. 1-2 ва 4: Тангри мужаррад айлагани, сийлагани, кўкдаги жаннат унинг учун Ҳақ нури жилва қиладиган чаман бўлгани туфайли кўк унинг, Исо (а.с.)ни ватанига айланади.

Ўзакдош, маъно жиҳатидан озгина фарқланувчи сўзлар, лекин қанчалик улкан фарқ – Тангри уни танҳо билиб, сийлайди. Ер аҳли уни ёлғизлатади, яккалайди. Шу ерда ҳазрат Навоийнинг аччиқ кинояси юз кўрсатади. Яъни Ер аҳли ўз Раббиси иродасига қарши бормоқда, шаккоклик қилмоқда. Ва ҳар икки зид ҳолат – мужаррад (бу Тангри инъоми), тажрид (бу Ер аҳлининг жабри), Исо (а.с.)нинг буюк шоир наздида кўкка кўтарилишига – “Тонг эрмас, агар кўк ўлса анинг ватани” – сабаб бўлмоқда.

Яна бир гап. Ушбу концепт, яъни кўк-ер (кўк ва ер) ўзгачароқ маъноларга эга бўлиши ҳам мумкин. Масалан, аллома Фитрат ўзининг “Бедил (Бир мажлисда)” асарида Ҳиндистонда Акбаршоҳ даврида яшаган форсигўй шоир Файзийнинг шундай байтини келтиради:

Бинёни туст мустаъди нақши улувву сифл

Хоҳ осмону хоҳ замин шав, мухайярй.

(Эй инсон, сенда кўтарилмак учун-да, тушиб қолмоқ учун-да истеъдод бор. Истасанг кўк бўл, истасанг ер бўл. Ихтиёр ўзингдадир)¹⁷.

Бу матнда ушбу концепт Навоий ва Чўлпондагидек глобал маънога эга эмас. Балки инсон камолоти ва тубанлиги, бу борада ихтиёр унинг ўзида эканлиги ҳақидадир. Бунда кўк (осмон) олижаноблик каби юксак хислатларни рамзласа, ер (замин) паст, номуносиб феъл-атворни англагача.

Демак, мазкур концепт турли контекстда турли маънода қўлланиши мумкин экан. Чўлпон, айниқса, Ҳазрат Навоий ижодида унинг ранг-баранг бадий ва фалсафий талқинлари мавжудлиги шубҳасиз. Лекин масалани чуқур ўрганиш учун махсус тадқиқот олиб бормоқ лозимки, буни бир маъруза доирасида амалга ошириш имконсиз.

Айрим хулосавий фикрлар.

Кўк-ер абадий бирликда муқим бўлган зидликдир. Улар бир-бирини қанчалик рад этишса, шу қадар ўзаро жипс мувозанатда. Ер оламда рўй берадиган, кўз билан кўриб, кулоқ билан эшитиши, кўл билан тегиш мумкин бўлган нарса-ҳодисалар мажмуи ва рамзи бўлса, кўк сирли-сеҳрли ҳодисалар, инсон инон-ихтиёрига боғлиқ бўлмаган, керак бўлса, инсонни ўз измига

¹⁷ Фитрат А. Танланган асарлар. 6 жилдлик. 5-жилд. Т.: Маънавият, 2010. 14-бет (Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев).

бўйсундириб, ўз йўриғига соладиган руҳий-илоҳий кучлар тимсоли. Балки шуларнинг ўзи.

Кўк-ер инсоният ҳаётига мангу дохил азалий концептлардан бири сифатида барча илоҳий китобларда, жумладан муқаддас китобимиз “Қуръони карим”да кўп марта тилга олинади: “(Эй инсон), Оллоҳ осмонлар ва ерни Ҳақ (қонун) билан яратиб қўйганини кўрмадингми?!” (Иброҳим, 19-оят).

Алишер Навоий ушбу концептни Исо (а.с.)га нисбатан қўллаб, унинг илоҳий тақдирини шеърини йўсинда гўзал ва теран баён этади, ул зот ҳаётига гўё лирик хотима ясайди. Чўлпон ушбу концепт асосига қурилган тўртликда ўзининг поэтик ва фалсафий кредосини, суфиёна дунёқарашини бадий гўзал ифода қилади. Ўзининг кўк шоири, самовий шоир эканини поэтик исботлайди.

Ҳазрат Навоий рубойси ва Чўлпон тўртлиги ҳар иккисидан ягона кўк-ер концепти қўлланиши билан умумийлик касб этиб, типологик қиёс объектига айланиши мумкинки, аввал айтилганидек, рубой ўз маъно-мазмуни билан тўртликнинг маъно-моҳиятини чуқурлаштиради, очилмаган қирраларини очади. Чўлпон руҳиятига хос юксак мистикани қиёмага етказди, гўё.

Совет даврида нашр этилган “Ўзбек адабиёти тарихи” китобида “Тарихи анбиё ва ҳукамо” асаридаги анбиёлар, яъни пайғамбарлар ҳақидаги қисм “бироз орқага чекиниш” деб баҳоланиб, “шу сабабли асарга умумий Навоий дунёқарашидagi зиддиятлар ифодаси сифатида ҳам қараш мумкин”¹⁸ дейиладики, бу на Худо, на пайғамбарларни тан олмайдиган атеистик жамият фикри бўлиб, ҳозирги кунда, айна пайтда бу асар Ҳазрат Навоий дунёқарашининг умуминсоний ва илоҳий тийнатидан дарак берувчи ноёб бадий ҳужжат ҳисобланади.

Чўлпонга келсак, унга ўша пайтлар таъна сифатида айтилган “Сен кўк шоири!” деган гап ҳозирги кунда уни шарафламоқда. Ҳатто яхлит ҳолда Чўлпон шеъринини кўкка ўрлаган сўз дея баҳолаш мумкин. Дарҳақиқат шоир “Гўзал” шеърини

Қоронғу кечада кўкка кўз тикиб,
Энг ёруғ юлдуздан сени сўраймен

деб ёзар экан, бунинг илҳом манбаи кўк эканлигини намойиш қилиб, ушбу ижоднинг илоҳий тийнатини тайин этади.

Рубой ва тўртликнинг солиштирилиши жараёнида ҳар икки асар, айниқса Чўлпон тўртлиги аурасида муайян маъно кенгайтириши содир бўлади. Хусусан, асарнинг маъно майдонига Исо (а.с.) кириб келиб, “кўкларга беркинган ЕР қизи” қайбир жиҳати билан кўк ватанига айланган Исо (а.с.)га ёндош ва жондош ҳодиса янглиғ фикр кўзгумизда муҳрланади. Натижада ҳар

¹⁸ Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик. 2-том. Т.: Фан, 1978. 457-бет.

икки асардаги кўк-ер концепти илоҳий моҳият касб этади. Чўлпонга маломат тарзда айтилган “Сен кўк шоири!” деган гап ҳозирги кунда унинг чинакам катта шоир эканлигига аниқ далолат бўлиб хизмат қилади ҳамда шу кунда “Чўлпон – кўк шоир” мавзусида бемалол илмий тадқиқот олиб бориш, шу соҳада қатор илмий кашфиётлар қилиш имконини беради. Зеро, ҳеч бир буюк ижодкорнинг узвий бирлигидан иборат ва инсоннинг ўзи ҳам кўк ва ерга бирдай тегишли илоҳий мавжудотдир.

HAMZA IJODIY MEROSI VA UNGA MUNOSABAT QANDAY BO'LISHI KERAK?

Ulug'bek Hamdamov,
filologiya fanlari doktori, professor

***Annotatsiya:** Maqolada Hamza ijodiy merosiga umumiy nazar tashlanib, uning dramaturgiyasi, she'riyati, nasri va she'riyatining mazmun-mohiyati, o'ziga xosligi, mavzular ko'lami xususida bugunning nuqtayi nazaridan so'z yuritiladi. Shuningdek, adib yangi davr adabiyoti asoschilaridan biri sifatida taqdim etiladi.*

***Kalit so'zlar:** jadid adabiyoti, she'riyat, dramaturgiya, nasr, milliy roman, dramatik tur, aruz, barmoq vazni, dramaturgiya asoschisi, jaholat, ma'rifatparlik g'oyalari.*

***Annotation:** The article takes a general look at Hamza's creative legacy and discusses the content, originality and scope of his dramaturgy, poetry, prose and poetry from today's point of view. The author is also presented as one of the founders of the literature of the new era.*

***Key words:** jadid literature, poetry, dramaturgy, prose, national novel, dramatic type, aruz, barmoq weight, founder of dramaturgy, ignorance, ideas of enlightenment.*

Hamza Hakimzoda Niyoziyga bo'lgan munosabatlar hamisha o'zgarib turgan: bir davrda uni ko'klarga ko'tarib, butun boshli yangi o'zbek adabiyotining yagona asoschisi darajasiga chiqarishgan bo'lsa, boshqa davrda undan barcha xizmatlarni olib qo'yishga urinildi. Aytish joizki, munosabatlarning har ikkisi ham yangilishdir. Xo'sh, haqiqat qayerda? Bunga javob berish uchun ishni Hamza qoldirgan boy merosga xolis baho berishdan boshlamoq kerak.

Hamza – serqirra ijodkor. Umuman, serqirralik jadid ijodkorlarining aksariga xos. Hamza – ulug' dramaturg, Hamza – an'ana va novatorlikni birlashtirgan shoir, Hamza – boshlovchi nosir, Hamza – o'tkir publitsist, Hamza – mohir pedagog, Hamza – milliy kompozitor, Hamza – otashin notiq, Hamza – rejissyor, Hamza – teatr arbobi... Bulardan tashqari, uning yurt kelajagi – ma'rifat, maorif, adabiyot, ta'lim-tarbiya yo'lida amalga oshirgan ishlari salmog'i juda og'ir tosh bosadi. Hamza va u kabi o'nlab ulug' jadidlarimizning taqdir yo'llari chindan-da bugungi zamondosh insonni hayratga solishga qodir. Hamzaning drama, she'riyat, nasr hamda publitsistika sohalaridagi faoliyatining o'zi u qodirgan merosning naqadar ulug' ekanidan dalolat.

Hamza dramaturgiyasi. XX asr avvalida ijtimoiy-siyosiy hayotdagi yangilanishlar asrlar davomida Sharq mumtoz adabiyoti an'analari ruhida taraqqiy etib kelayotgan o'zbek adabiyotida dramatik turni paydo qildi. Dramaning tug'ilishi o'zbek adabiyoti uchun xuddi roman janri kabi yangi hodisa edi. Hamza ana shu hodisaning boshida turdi va o'z dramatik asarlari bilan o'zbek dramaturgiyasiga asos soldi. Madomiki, so'z shu masalaga kelib taqalgan ekan, Hamza va uning o'zbek dramaturgiyasidagi o'rni masalasida bahsli qarashlar borligini aytish joiz. Xullas, masala qisqa va lo'nda bayon qilinsa, shunday holga keladi: Mirmuhsin

Shermuhamedov ("Befarzand Ochildiboy", 1914-yil), Hamza ("Yangi saodat yoxud Milliy roman", 1915) lar roman tajribasiga ilk marta qo'l urgani holda, biz Qodiriyning o'zbek romanchiligining asoschisi, deb ataymiz. Chunki Mirmuhsin va Hamza roman janriga Qodiriydan oldin murojaat qilishgan bo'lsa-da, ularning harakatlari bir tajriba, urinish darajasida qolgan edi. Qodiriy esa "bir hamla"da "O'tkan kunlar" (1924) bilan roman janrining risoladagi talablariga javob beruvchi yirik nasriy asar yaratgan edi. Shuning uchun ham Qodiriy o'zbek romanchiligining asoschisi deyiladi. Yoxud Navoiydan oldin Xorazmiy, Lutfiy, Atoiy, Sakkokiylar turkiy tilda ash'or bitgani bilan bu tildagi ulug' xizmatlari tufayli aynan Alisher Navoiyning o'zbek adabiyoti va adabiy tilining asoschisi deymiz. Adabiyotshunoslik ilmining mana shu baholash mezonini dramaturgiya sohasiga tadbiq qilingudek bo'lsa, qarshimizda quyidagicha manzara qad rostlaydi: garchand Mahmudxo'ja Behbudiy "Padarkush" (1911) nomli 10-11 betlik pyesasi bilan o'zbek adabiyotida pyesa yozib berishni boshlagan bo'lsa-da, dramaturgiyaning butun talablariga javob bera oladigan pyesalarni aynan Hamza Hakimzoda Niyoziy ("Zaharli hayot" (1916), "Maysaraning ishi" (1926), "Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi" (1927)) ni yozdi. Bulardan tashqari, "Burung'i saylovlar", "Jahon sarmoyasining eng oxirgi kunlari", "Qozining sirlari", "El quzg'unlari" kabi 1921 va 1928-yillar orasida yozilgan katta-kichik dramalari mavjud. Bas, shunday ekan, Qodiriy o'zbek romanchiligi asoschisi degan nomga qanchalik sazovor va haqli bo'lsa, Hamza ham o'zbek dramaturgiyasi asoschisi degan unvonga shunchalar haqdor va munosib bo'lib ko'rinadi. Albatta, ushbu masala yuzasidan mavjud faktlarni turli yo'sinda tahlil talqin etib, bir-biriga qarama-qarshi xulosalarni o'rta tashlash mumkin. Ammo adabiyot ilmining baholash kriteriyalari hamma uchun bir xil bo'lishi adolatdan ekanligidan kelib chiqiladigan bo'lsa, Qodiriyga ravo ko'rilgan adolat mezonini Hamzaga kelganda tavrini o'zgartirmasligi lozim bo'ladi. Albatta, bu jiddiy masalaning boshqa nozik jihatlari ham bo'lishi mumkin. Bunday jihatlari istisno qilinmaydi. Shuning uchun ham soha bilimdonlari ushbu bahstlab masala bo'yicha asosli, ilmiy mushohadalarini qaytadan o'rta tashlashsa, adabiyotshunoslik va dramaturgiya kesishgan nuqtadagi bitta muammoga oydinlik kiritilgan bo'lardi. Nima bo'lganda ham, hali dramaturgiyamizning ham amaliy, ham nazariy sahnasida amalga oshirilishi, hal etilishi kerak juda ko'p ishlar oldimizda turibdi. Bunga, jumladan, Hamzaning drama sohasidagi o'ta salmoqdor ijodi ham manba bo'lib xizmat qiladi.

Hamzaning 1916 va 1920-yillarda yozilgan "Boy ila xizmatchi", "Loshman fojialari", "Farg'ona fojialari" kabi asarlari yo'qolgan. Faqat "Loshman fojialari"ning "Istibdod qurbonlari" degan qismi hamda "Boy ila xizmatchi" dramasi afishasi saqlanib qolgan. Yaqin-yaqinlargacha teatrlarimizda qo'yilib kelgan "Boy ila

xizmatchi" dramasi esa dramaturg Komil Yashin afishada aks etgan mazmun bo'yicha qayta tiklagan.

Hamzaning o'zbek dramaturgiya sohasidagi faoliyatini qisqacha qilib, u o'z davri xalq hayotini ko'zguga solib ko'rsatib berishning uddasidan chiqdi, deyish mumkin. Bu esa, barcha zamonlar ijodkorining muqaddas orzusi hisoblanadi. Shuning uchun ham Hamzaning eng sara dramalari hozirgacha sahna yuzidan tushmay kelmoqda.

Hamza publitsistikasi. Hamza har jihatdan simobdek qaynab turgan zamonda yashagan. Hamza kabi o'nlab jadidlar merosini o'rganishda, merosga ilmiy jihatdan yondashib, umumlashma xulosalar chiqarishda mana shu omilni doimo nazarda tutmoq kerak. Chunki jadidlar o'z davrining urib turgan qon tomiriga tashhis bamog'ini qo'yib, so'ng uni davolashga kirishgan ulug' tabiblar edi. Bunga iqror bo'lish uchun Hamzaning 40 yillik qisqa hayoti mobaynida qoldirgan salmoqli merosini, xususan, davr muammolariga bag'ishlangan publitsistikasiga nazar tashlashning o'zi kifoya. "Bit'atmi, majusiyatmi?", "Faqirlik nimadan hosil o'lur?", "Maktabi dor ul-aytom", "Qalbgga bilimni(ng) yo'lini ochaylik", "Iydi qurbon", "Juma qandoq kun?", "Xutbadan murod nima?", "Mahalliy sarmoyani kuchaytirish choralari", "Teatr truppassi va ong-bilim qo'mitasi", "Millat ma'rifat bilan tirik" kabi o'nlab publitsistik maqolalari borki, ularning nomlariyoq Hamzaning davr muammolariga qanchalar katta ahamiyat berganini ko'rsatadi. Hamza o'z maqolarida yurt va xalq kamolini tilaydi, elu yurt rivoji yo'lida to'siq bo'layotgan har qanday masalaga olovli munosabat bildiradi. Bunday to'siqlar ildizi xalq zehniyatida asrlar davomida tanda qo'ygan jaholatga borib taqaladi. Johillik odamlarni asl dindan ko'ra bit'atga, bilim olishga intilishdan ko'ra xurofotga, o'z erkiga ega bo'lib, hur yashashdan ko'ra bo'yinturig'ini dindorlar va boylar qo'lga tutqazib qo'yib, quldek kun kechirishga yetaklashini ayovsiz tanqid qiladi. Jadidlar harakatining dasturi bilan hamohang ushbu muammolar Hamza merosining ham mundarijasini belgilash bilan birga, uning qadr-qimmatini yanada oshiradi. Biz to'plamga ajratilgan hajm imkoniyatidan kelib chiqib, Hamza publitsistikasidan ikkitasinigina tanlab oldik. Bular "Millat ma'rifat bilan tirik" hamda "Faqirlik nimadan hosil o'lur?" deb nomlangan maqolalardir. Maqolalar bilan tanishar ekansiz, yurt va millat qayg'usi bilan yashagan, nafaqat yashagan, balki bu qayg'u yo'lida hayotini tikkan Hamzaning yonib turgan ma'rifatli yuragini his qilasiz, tushunasiz, hayratlanasiz. Chunonchi, uning "Millat ma'rifat bilan tirik" degan maqolasidan olingan ushbu parchada millatning nega bunday zabun holga tushib qolgani sabablarini ko'rsatadi: "Har millatning aholisi bir atong bolasi kabi o'lur. Demak, xususan bizim islom millatining bir-birlariga birodarliklari qur'oni karimda "Innamo al-mo'minina ahvatu faslihu bin ahviqum" oyati bila taklif qilingondir. Mana birodarlar orasindag'i bug'z, nifoq, kiyn,

adovat, borliq, yo'qlik, ochlik, to'qlik, shodlik, g'amlik kabi turlik-turlik parishonliklarni nadan ekanlig'ini imtiyoz qila olursizmi? Yoki xudoyi taolloni irodasi debgina qo'yasizmi? Boqing yahudiy, armanilarga! Bularni ham bu qadar davlat va taraqqiyatlarga molik o'lmoqlari ham xudoyi taolloni irodasimi? Yo'q, janobi haq o'ziga eng e'tibor sanalgan islom millatini boshqa millatlardan bu qadar tuban darajadagi g'addorliklarga qoldirmas! Janobi haqning zolimlik sifatlardan pok va manzaraligi har bir ne basorat ununda oy va quyoshdan ravshandir. Hushyor bo'lungiz! Anglangiz! Tinglangiz! Borigina bizim millatning bu qadar og'ir hollar va kamchiliklarga qolg'oniga eng birinchi modda va illat nima, deb eshitgon tovushga tuqsiz ma'dan va mahvani islom ochiqchi o'lgon ilk va ma'rifatni qo'limizdan yo'qotganimizdir, demoqdan boshqa chora va javob yo'qdir"¹.

Hamzaning "Faqirlik nimadan hosil o'lur?" degan maqolasida ko'tarilgan masala ham yuqoridagi qarashlarning davomidek jaranglaydi va chuqurroq o'ylab ko'rilsa, maqola hatto bugungi kunda ham o'z dolzarbligiyu ahamiyatini yo'qotmaganligiga guvoh bo'lamiz.

Hamza nasri. Davr kayfiyatini aks etirar ekan, Hamza zamon ehtiyojidan kelib chiqib nasrga ham murojaat qildi. Nasriy turda uning ikki asari saqlanib qolgan. "Yangi saodat" va "Uchrashuv". Ularni Hamza "milliy roman"lar deb ataydi. Albatta, bu asarlar roman janrining talablariga to'la javob bera olmas edi. Lekin aytish joizki, romanning barcha talablariga to'la javob bera oladigan "O'tkan kunlar"ning (Abdulla Qodiriy) yaratilishi uchun o'zbek adabiyoti mana shunday tajribalarni boshidan kechirishi kerak edi. Hamza "roman"lari Mirmuhsinning "Bafarzand Ochildiboy" asari bilan birga ana shunday "eksperiment" vazifasini o'tadi va endilikda biz bu asarlarni sira ikkilanmasdan o'zbek romanchiligi maktabining dastlabki urinishlari, deya olamiz. Hamza "Yangi saodat" deb nomlangan "milliy roman"i boshlanmasida shunday so'zlarni yozadi: "Bizim Turkistonda musulmon eru xotunlarimizni yigirma yoshdan yuqorida bo'lub o'qugonlarini aksari emas, balki hammalari deyarlik eski maktablarda eski imlo va usulda xat va savodlari chiqqan uchun hozirgi matbuotda yangi usul, yangi imlo bila yozulub bosilub chiqub turgan maktab kitoblariga, jarida va risolalarga tezdin tushuna qolub o'qiy olmaganlari har birimizga ravshandur. Bu risola esa maktabga maxsus o'lmay, balki qora xalqimizni eru xotunlari orasida o'qulub turgan "Jamshid", "Zarqum", "Aldarko'sa", "Bayoz", "Dalli Muxtor", "Gulandom", "Afandi" kabi butun xurofot va axloqni buzadigan asossiz kitoblar o'rni'ga istifodalik bir qiroat risolasi bo'lurmikin, degan xayol bila yozilgan uchun alarni uqub tushunmoqlariga shoyad oson bo'lur edi, deb butun eski imlo va eski usulda tartib berildi hamda soddaroq yozildi. Ba'zi yangi matbuot oshnolari bo'lg'on

¹ Hamza. To'la asarlar to'plami. – T., Fan. 1989. B. – 290.

fikrdosh, millatdosh sohib al-tahrir va al-qalam qoriinlarimizdan bu risolamni imlo va tahriridagi kelishmagan bir xil joylari aybga sanamay, tarahhum uzxasidan afu qilmoq barobarida lutf-shafqat uzasidan xususiy maktub ila ogoh qilmoqlarin o'tinaman. Chunki bu risolani ikkinchi tab'ilarida yoxud qo'limda yozilub turgan va yozilgan risolalarimni nuqssiz o'lmog'ig'a shoyad sabab o'lur edilar (al insonu mushtaqaq min al nisyon)"².

E'tibor berilsa, Hamzaning bu izohi A. Qodiriyning "O'tkan kunlar" so'zboshisi mazmuniga juda ham hamohangdir. To'g'rirog'i, Qodiriyning fikri Hamzaning fikriga muvofiq jaranglaydi. Chunki Hamza "milliy roman"ini Qodiriydan qariyb 10 yil muqaddam yozgan edi. Qodiriy esa: "Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo'ydik, bas, biz har bir yo'sinda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashishimiz va shunga o'xshash dostonchilik, ro'monchilik va hikoyachiliklarda ham yangarishga, xalqimizning shu zamonning "Tohir Zuhra"lari, "Chor darvesh"lari, "Farhod Shirin" va "Bahromgo'r"lari bilan tanishtirishga o'zimizda majburiyat his etamiz"³ deydi. Demak, har ikki adib ham davrning yangilanganligi tufayli shu davrga mos asarlar bitishni o'z oldilari turgan vazifa bilib qalam tebratmoqda.

Bulardan tashqari, Hamzaning yana "Haqiqat nima?" degan asar yozganligi, lekin qo'lyozma nashr bo'lmay yo'qolgani haqida ma'lumot bor. Chunonchi, "Shoirimiz Hamza Hakimzodaning qisqacha tarjimayi holi"da "Haqiqat nima?" degan bir zo'r asar yozg'on bo'lsada, tab' ettira olmay yo'qotg'on"⁴ degan ma'lumot keladi. Bu haqda Hamzaning o'zi "Tarjimo hol"ida "...eski podsholar turmushidan bir "Haqiqat kimda?" ismli havosiz operalik roman yozg'an edim, o'g'urlatdim, bugunki, topilmaydir"⁵ deb yozadi. Chunki zamon g'oyat alg'ov-alg'ovli edi. Hamzaning o'zi ham goh maktab ochaman deb, goh xalq ma'rifati yo'lida xizmat qilaman deb, goh teatr tashkil etaman deb doimo safarlarda yurgan, hayotning qaynoq quchog'ida oqimga qarshi xo'p suzgan. Binobarin, jadid ijodkorning o'ziga yarasha do'st-dushmani ko'p bo'lgan. Boz ustiga, "Hindiston, Makka, Madina, Shom, Beyrut bilan sayohat qilib, Stambulg'a o'qishg'a kelgan bo'lsam ham..." degan e'tiroflaridan Hamzaning bir qancha xorijiy mamlakatlarni kezib kelgani ham ma'lum bo'ladi. Bunday taloto'p va sayohatlarning ichida, tarafdor va raqiblarning davrasida o'sha asarning yo'qolgani haqidagi ma'lumot kishida shubha uyg'otmaydi.

Hamza she'riyati. Jadidlar she'riyatining yalovbardori Cho'lpon esada, Hamzaning tarjimayi holi aynan she'riyatida ko'proq namoyon bo'lgan, deyish mumkin. Chunki she'r – mobil janr. Unda shoir imkon topdi deguncha qisqa vaqt

² Hamza. To'la asarlar to'plami. – T., Fan. 1988. B. – 399.

³ Qodiriy A. O'tkan kunlar. – T., Adabiyot va san'at, 1994. – B. 6.

⁴ Hamza. To'la asarlar to'plami. – T., Fan. 1989. B. – 307.

⁵ Hamza. To'la asarlar to'plami. – T., Fan. 1989. B. – 294.

ichida o'z his-tuyg'laridan tortib, ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy, ma'rifiy g'oyalarni birin-sirin qozozga tushirib qo'yavergan. Chop-choplarning orasida aksar hollarda she'rlarni qayta ishlash imkoni bo'lmaganidan mazmun va shakl mutanosibligi jihatidan qiyomiga yetmagan mashqlar ko'plab uchraydi. Qat'i nazar, Hamza she'rlari uning bosib o'tgan yo'llaridan guvohlik berib turadi. Shuning uchun ham biz quyida Hamzaning aynan she'rlari tahliliga ko'proq o'rin beramizki, maqsadimiz ularning mazmunini anglash vositasida Hamza yashagan davr mohiyatiga teranroq kirib borishga urinishdir.

XX yuzyillik ibtidosida millatning tafakkur gullari ma'rifatsizlikni yurtning eng og'riq nuqtalaridan biri deb bildilar. Shuning uchun ham ular iste'dodlarini elni o'qimishli qilishga bag'ishladilar, bu yo'lda vaqtlari, kuchlari, mablag'lari va hatto jonlarini ham ayamadilar. Ular xalqning ma'rifatli bo'lishini yurt ravnaqi va millat taraqqiysining asosi, deb bildilar. Oqibat – adabiyotda ma'rifatli kishi obrazi paydo bo'ldi. Avloniy, So'fizoda, Ibrat, Hamza, Fitrat, Cho'lpon kabi qator shoirlarning ijodida shu g'oya qayta-qayta ishlandi.

XX asr boshida jamiyat hayotidagi o'zgarishlarning hammasi tubjoyning o'z turmush tarzi, diniy e'tiqodi, madaniyati, dunyoqarashi bilan go'yo bir qozonda qaynadi. Bu "qaynov" insonning ongigagina emas, balki qalbigacha kirib bordi va uni o'z ta'siriga oldi. Xullas, yuraklargacha kirib borgan hodisaning umumiy nomi mafkura - jadidchilik mafkurasi edi. Eng muhimi, asr boshidagi Turkiston sharoitida haqli ravishda ilg'or sanalgan g'oyalarni o'zida jam etgan bu mafkurani xalqning ilg'or qismi anglangan tarzda, qalb amri bilan tanlab olgandi. Shuning uchun ham asr avvalidanoq adabiyotga g'oyalar kirib keldi va bu hech erish tuyulmadi. Chunki endi "qanday yashaymiz, qaysi yo'ldan boramiz, kimga, nimaga ergashamiz?.." degan savol va uning javobi haqidagi o'ylar davr kishisi psixikasining ajralmas bir qismiga aylangandi. Ayni sabab adabiyotning (she'riyatning) tez sur'atlar bilan mafkuralashib borishiga imkon yaratdi. Chunki she'rlarda tobora ko'p va chuqur aks etib borayotgan siyosiy-ijtimoiy kayfiyat qarashlar kitobxon estetik didiga uyg'un tushdi. Shuning uchun ham Hamza, Cho'lpon, Fitrat, Avloniy va boshqa shoirlar she'riyatining asosini ijtimoiy mavzular tashkil etdi.

Jadid she'riyatida eng ko'p qalamga olingan mavzulardan biri – Turkistonning, millatning mavjud ahvoli mavzusidir. Mavzu talqinidagi umumiy jihatni qisqa qilib, *mavjud ijtimoiy voqelikdan qoniqmaslik hissining ustuvorligi*, deyish mumkin. Bu mavzudagi she'rlarning barida Turkistonning jaholat botqog'iga botgani, bu ahvolda qoloqlik domida qolib ketishi muqarrarligi ta'kidlanadi va bundayin yashash insonlik sha'niga nomunosib degan g'oya o'tkaziladi:

Bizdek hech millat bormu zillatga botgan,
Safohatga aldanub iffat yo'qotgan.

Firorida tik yotur ixvat o'rgatgan,
Jahlu bid'at zahrini sharbat ko'rsatgan.⁶

Jadid shoirlar holatni qayd etish bilangina cheklanmay, uning yuzaga kelish sabablarini tahlil, mushohada etadilar. Va shu tahlilu mushohadalar natijasi o'laroq yana bir muhim g'oyaviy-tematik yo'nalish – yurtdagi mavjud qoloqlik sababi bo'lgan *ijtimoiy hayotdagi illatlarni fosh etish* yo'nalishi vujudga keladi. E'tibor qilinsa, jadid she'riyati namunalarida ko'pincha oshkora yo pinhon tarzda “nega bu zabun holga tushib qoldik?” degan savol qo'yilganini ko'rish mumkin. Albatta, har bir shoirning o'z nuqtayi nazari bor, lekin jadid shoirlar ko'rsatayotgan sabablarning umumiy nomi – **jaholat**. Jadid she'riyati talqinida bu so'zning qamrovi juda keng bo'lib, zohiriy sabablarning botinida johillik yotadi. Masalan, davrining eng sermahsul jadid shoirlaridan bo'lgan Hamzaning bir she'rida keltirilgan sabablar mana bular: 1. “Mullollarning taloshi vaqfi masjid, to'y oshi...” 2. “Eshonlar to'plab oltun... Maishatda kunu tun...” 3. “Boylar masrur bid'atdan... Xabarsizdur millatdan...” 4. “O'yin birla o'g'lonlar, zindonda qiz-juvonlar, Ma'rifatdan bezgonlar...” 5. “Bizni maktab jadvali – bachchabozlik usuli, Bilmas na dardin yo'li...” 6. “Bayoz”dur jurnolimiz, “Jamshid”dir ro'monimiz, Shul o'qib bilgonimiz...” 7. “Qachon ilmsiz qoldik, maqsada yetmay toldik, Mundoq hollara qoldik...” [II,18-19] Turkiston hayotidagi illatlarni bir-bir sanagan Hamza “mundoq hollara qolish” sababi ilmsizlik – jaholat deb ko'rsatmoqda. Aytish kerak, Hamza ham ilmsizlikni boshqa jadidlar kabi tushunadi. U xalq butkul savodsiz yoki o'qimaydi demaydi, o'qigani “bayoz”laru “Jamshid” qissalaridan nariga o'tmaganiga kuyadi. Jadidchilik g'oyalari kontekstida fikrlayotgani uchun Hamza “Bayoz”dur jurnolimiz, “Jamshid”dir ro'monimiz, Shul o'qib bilgonimiz...” deyish bilan cheklanadi. Chunki jadid adabiyoti, publitsistikasi kontekstida bu satrlarning ma'nosi kengayadi. Jadid nashrlarida gazeta-jurnallar, “teatru va ro'mon kitoblari”ning ahamiyati haqida ko'p yozilgan. Ya'ni, yangi sharoitda xalqqa yangi bilimlar zarur, ularga ega bo'lish uchun jurnallar, ro'monlar o'qimoq kerak, shundagina dunyo ahvolidan xabardor bo'linadi, aks holda g'aflatda qolinadi. Shoir afsus-la qayd etmoqdaki, aksariyat yurtdoshlari hamon eski qiziqishlar doirasidan chiqq olmayotir va bu jaholat omillaridan biridir. Hamzaning bu satrlari Cho'lponning mashhur “Adabiyot nadir?” nomli maqolasidagi “Agarda “bayoz” va bema'ni bir-ikki dona kitoblar ila qolsak, mahvu inqiroziy bo'lurmiz”⁷ degan tashvish bilan hamohang. Ikkala shoir ham, boshqa jadidlar kabi, ilmsizlik orqasida odam mavjud ahvol haqida o'ylamaydi, uni tuzatish tadbirini tutmaydi va natijada shaxsiy manfaatlari, maishati

⁶ Hamza. To'la asrlar to'plami. 2-tom. – T., Fan, 1988. – B.7; bundan keyin shu nashrdan ko'chirma olinganda qavs ichida jild va sahifa ko'rsatiladi.

⁷ Cho'lpon. Adabiyot nadir. – T., Cho'lpon, 1994. – B.35-36.

quliga aylanadi, deb hisoblashadi. She'rdagi tanqid qilingan mullolaru eshonlar, boyu boyonlar ilmsizlik, jaholat sababli shu ko'ygga tushganlar. Shu o'rinda jadid shoirlari boylar va ruhoniylarni ancha keskin tanqid qilganlarini ta'kidlash va, ayni chog'da, bu tanqidning sho'ro adabiyotidagi tanqiddan tubdan farqlanishini aytib o'tish zarur. Farq shuki, sho'ro adabiyotida bular sinfiylik va dahriylik mavqelaridan tanqid qilingan bo'lsalar, jadid ijodkorlar bu o'rinda ham ijtimoiy idealdan, millat taraqqiysi nuqtayi nazaridan kelib chiqadilar.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, boshqa jadid shoirlari ham yurtdagi tanazzul omillarini, asosan, Hamza ko'rsatgan sabablarda deb biladilar. Bu esa yana ulardagi ijtimoiy maqsad-intilishlarning umumiyligi, ularni birlashtiruvchi g'oyalar tizimi – jadidchilik mafkurasi bo'lgani bilan izohlanadi.

Jadid she'riyatidagi yuqoridagilardan kelib chiquvchi yana bir g'oyaviy-tematik motiv *tanazzuldan chiqish yo'llariyu hayotni isloh qilish harakatiga da'vatdir*. Tanazzuldan chiqishning bosh yo'li masalasida jadid shoirlarda yakdillik kuzatiladi, ularning hammasi jaholatni ma'rifat vositasida yengish mumkin deb bilishadi. Jumladan, Hamza "Endi ilmsiz yashamoq gumon" [II,28]ligini ta'kidlab, "Chora shul maktab ochaylik..." [II,14] deydi. Avloniy "Maorif-la funun tahsilina qil rahnamolig' san, Qorong'uda qolan millatni nuri ilma irshod et" [I,152] desa, Fitrat "Orqadoshlar, to'planaylik jahlning uyin yiqqali, El ko'zin olg'an qorong'u pardalarni yirtkali" [I,42] deb yozadi. Uchala shoir da'vati ham hammaslamlarga qaratilgan: Avloniy ularni "sohibi irfon", Fitrat "ilm erlari" deb ataydi. Zamona bu odamlardan, umuman, ko'zi ochiq vijdonli insonlarning baridan fidoyilik talab etadi, jadid she'riyati shunga da'vat qiladi:

Millat degan kimsa suymas dunyoni,

Mol ila jon ila bo'lur qurboni" (Hamza)[II,15].

Hamzaning millat uchun dunyoni unutilishga da'vati bejiz emas. Bu Vatan, millat tushunchalari jadid she'riyatining idealiga aylangani, mumtoz adabiyotdagi poetik obrazlar yangicha, ijtimoiy mazmun kasb eta boshlaganidan dalolatdir.

Turkistonda jadidchilik harakati va jadid adabiyoti baravj rivojlangan davr sifatida taqriban oktyabr to'ntarishigacha bo'lgan o'n yillikni ko'rsatish mumkin. Qisqa, lekin g'oyat shiddatli va ziddiyatli hodisalarga boy bo'lgan bu davr jadid ziyolilar dunyoqarashida jiddiy o'zgarishlar yasadi, oqibatda ularning bir qismi sho'ro tomoniga o'tdi, bir qismi unga muxolifatda turgan bo'lsa, boshqa bir qismi murosa yo'lini tanladi. Buning sababi, B.Qosimov aytganidek, bevosita "shonli inqilob" yillari uning fojiali oqibatlari juda kam kishining xayoliga keldi. Deyarli hamma inqilobning tantavor ohanglariga mastu mustag'riq edi, ixtiyorsiz u bilan baravar qadam tashlardi"⁸. Ikkinchi tomondan, sho'ro jar solib e'lon qilgan maqsadlar

⁸ O'sha asar. – B.289.

va endi-endi amalga oshirila boshlagan ishlar qay bir jihatlari bilan jadidlar ko'zlagan maqsadlarga muvofiq ham edi. Jumladan, millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi va o'zaro tengligi, xotin-qizlar teng huquqliligining e'lon qilinishi, yer islohoti, maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash sohasidagi ishlar va h. Masalan, Hamzaning 1918-yilda yozilgan "Uyg'on" nomli she'ridan olingan quyidagi parchaga qarang:

Yashasun maktab, shogirdlar o'qisun.

Eski turmushlar, vahshatlar yo'qolsun!

Eru qizlardan yetishib xodimlar,

Elga haqiqiy maorif tarqatsun! [II,157]

Agar shu parchaning o'zini jadid she'riyati namunasi sifatida taqdim etilsa, ko'pchilik e'tirozsiz qabul qilsa kerak. Yoki shu she'rdagi "Bitsun qonxo'rlar, mustabid to'ralar, Bir to'p doka salla, uzun surralar!" satrlari haqida ham shu gapni aytish mumkin. Shoir Turkistonni uyg'onishga chorlarkan, "Bu kunda ham istiqboldan ko'z yumsak, Bizdan nomu nishon so'ngra qolurmi?" deya ogohlantiradi. Va o'sha istiqbol, xalqining kelajagi yo'lida "Shaxsiy ishlarimiz tashlov kun bugun, Qora ellarni oqartirmog'lig' uchun, Belni mahkam bog'lab ishlov kun bugun" [II,158] deydi. "Yer islohoti" [II,182] she'rida yerning foydasi ilgari "Boy eshonlar kissasiga", endi esa "Ishchi-dehqon foydasiga" ketishini ta'kidlaydi. Jadidlar Turkistonning unumli yeridan keladigan foydaning huzurini millatga iona bermaydigan, uning ravnaqini o'ylamaydigan boylar ko'rayotganidan ko'p afsus chekkanlar. Demak, shoir yer islohotidan ham ma'lum qanoat hosil qilishi ajablanarli emas. Aytmoqchimizki, Avloniy, Hamza, So'fizoda kabi jadid ijodkorlarning sho'roga xayrixoh bo'lganlari qarashlardagi mushtarak tomonlar bilan ham izohlanishi kerak. Ular sho'ro safidagi faoliyatlarini ma'lum darajada jadidchilik faoliyatlarining davomi o'laroq tushunganlar. Tabiiyki, ularning oktyabr to'ntarishidan keyingi Turkiston voqeligiga munosabati ham shunga mos. Jumladan, hamon o'zini yurt istiqboli uchun kurashda his etayotgan Hamza "popoq qiygan qahramon"ga qarata "Temur panjang birlan to'k Dushmaningdan qon!" deya xitob etadi. Chunki:

Basdur shuncha yil chekkan

Kulfatu xo'rlik!

Zolim boylar haqing'a

Qildi har zo'rlik [II,167], –

deb biladiki, bunda shoirning o'zi haq yo'lda ekanligiga ishonchi barq urib turadi. Shoirning bu ishonchi esa "Buzamiz eski turmushni, xurofotni, bid'atni, Tuzamiz yangi turmushni zamon ichra" [II,170] qabilidagi maqsad bilan belgilanadiki, u mohiyatan jadidchilik ko'zlagan maqsadga zid emas. Lekin bu sirtdan qaragasina

shunday. Aslida, endi Hamza she'rlarida hayotdagi o'zgarishlarga mos g'oyaviy-tematik siljishlar yuz bergan va ularning asosiylari mana bular: 1) ilgari u millat manfaatlarini ko'zlagan bo'lsa, endi ishchi-dehqon manfaatini ko'zlaydi; 2) ilgari maqsadga yetish vositasi deb ma'rifatni tushungan bo'lsa, endi kuchga – zo'rlikka topinadi.

Hamzaning oktyabr to'ntarishidan keyingi she'rlarini ko'zdan kechirsak, ularni g'oyaviy-tematik jihatdan, asosan, to'rtta guruhga ajratish mumkin bo'ladi: 1) yangi tuzumni olqishlash, uning g'alabasi uchun kurashga da'vat ruhidagi ("Hoy ishchilar", "Biz ishchibiz", "Ishchilar uyg'on", "Uyg'on", "Yashangiz ishchi dehqonlar", "Qizil askarlarga bag'ishlab" va b.) she'rlar; 2) jamiyatdagi ayrim islohotlar ("Yer islohoti", "Ol, dehqon o'rtoq, qo'lingga yerni") mavzusidagi she'rlar; 3) xotin-qizlar ozodligi mavzusidagi ("O'zbek xotini tilidan", "O'zbek xotin-qizlariga", "Ozod xotin-qizlar qo'shig'i", "Bu kun – 8-mart", "Xotin-qizlar ovozi" va b.) she'rlar; 4) yangi tuzum nuqtayi nazaridan yozilgan hajviy-satirik ("Bir sharmanda tilidan", "Bir qo'rqqoq "mas'ul ishchi"ning tilidan", "Yodimga tushdi" va b.) she'rlar. Albatta, Hamza she'riyatida davr voqeligi, ruhi aks etmadi emas, aks etdi. Lekin qanday? Bizningcha, bu she'rlarda voqelik alohida shaxs – Hamza nigohi orqali emas, balki u mansub ijtimoiy guruh nigohi orqali aks etdi. Ya'ni ularda she'rning javhari bo'lgan lirik "men"ni lirik "biz" siqib chiqardi. Bu esa voqelikning bir yoqlama ko'rilishi va baholanishiga olib keldi. Yo'qsa, Cho'lponni o'rtagan "ko'ngli kabi yiqiq uylar, qishloqlar"u "nayza boshidagi go'daklar"ni Hamza ham ko'rgan edi. Ammo, Cho'lpondan farq qilib, "biz" safida kurashga kirgan Hamza bunday hollarga "kurash qurbonsiz bo'lmaydi" aqidasiidan kelib chiqib yondashadi. Natijada ijtimoiy dard shaxsiylanmaydi, Hamzaning she'rlari chinakam ijtimoiy lirika darajasiga ko'tarilolmay, mafkuraviy she'riyat darajasida qolib ketadi. Boshqacha aytsek, Hamza inqilobdan keyin shaxs-shoir maqomiga ko'tarila bilmadi.

Shu o'rinda bir narsaga alohida e'tibor qaratishni istardim. Qarashlari Fitratu Cho'lponlardan qancha farqlanmasin, Hamza hech bir she'rda kechagi hammaslamlari – jadidlarga muxolif sifatida qaramagan, ularga qarshi fikriy urush ochmagan. Buning sababi, bizningcha, Hamza o'zining sho'ro safidagi faoliyatini ma'lum ma'noda jadidchilik foliyatining davomi o'laroq tushungani bilan izohlanishi mumkin. Ya'ni Hamzada hamon o'sha maqsad yo'lida harakat qilmoqdaman, faqat unga yetish yo'lini o'zgartirdim, deb hisoblashga asos bor.

Negaki, "millatni uyg'otish" maqsadi imkon qadar keng ommaga murojaat etishni, bu esa tilning xalqchillashuvini taqozo etadi. Natijada mumtoz she'riyatda qat'iy amal qilingan qoidalar o'z kuchini yo'qota boshladi, ijod amaliyoti normativ poetikani inkor qila boshladi. Mazkur tendensiyani Hamza va Avloniylarning ijodiy tadrijida yaqqol kuzatish mumkin. Jumladan, "Devon"ida mumtoz poetik qoidalarga

asosan amal qilgan Hamza "milliy she'rlar"idan boshlab ulardan chekina boshlaydi va bu chekinish yildan yilga, to'plamdan to'plamga kuchayib boradi. Xuddi shunga o'xshash holni Avloniyning "Adabiyot yohud milliy she'rlar" majmuasining 1909-yilda chop qilingan birinchi juz'i bilan keyingi juz'larini qiyoslaganda ham kuzatish mumkin. Holbuki, masalan, devon Hamzaning mumtoz she'r texnikasini mukammal egallaganini ko'rsatadi. Ya'ni shoir an'anaviy yo'lda ham yaxshigina she'rlar yozaverishi mumkin edi. Biroq, bir tomondan, davr ruhini ifodalashdek ijodiy-ruhiy ehtiyoj, ikkinchi tomondan, shoir ko'zlagan ijtimoiy maqsad uni an'nalardan chekinishga olib keladi. Hamza "Qizil gul"ga yozgan so'zboshida to'plamga kirgan "she'rlarda ba'zi uzun-qisqaliklarni hamda adabiyotdan yiroqlig'ini ko'rub, adabiyot ilmidan butun deyarli xabarsiz kishi ekanmi deyuchi zotlarga qarshi bu adabiyotdan xabarsizlik emas, qora elimizni tushunuvina o'ng'ay bo'lsin uchun" [II,33] deya izoh berib o'tishni lozim topadi.

Hamza aytmoqchi "qora el"ning tushunishi oson bo'lishi uchun jadid shoirlari ongli ravishda obrazlilikni keyingi o'ringa qo'yadilar – narsalar o'z nomi bilan ataladi. Negaki, sirasini aytsak, jadid shoirlarning aksariyat she'rlari mohiyatan keng ommaga qaratilgan nutq – va'zdir. Shu sababli ham jadid she'riyatida obrazli ifodadan ko'ra ritorik priyomlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadid she'riyatida kinoya muhim o'rin tutadi. Negaki, kinoya narsa-hodisaga odatlanilgandan o'zgacha – nostandart qarash natijasi bo'lib, o'quvchi (tinglovchi)ni ham beixtiyor o'zgacha qarashga majbur etadi. Shuning uchun ham samarali usul sifatida kinoyadan notiqlikda keng foydalaniladi⁹. Ma'lumki, jadidlar xalqimizga xos dabdabali koni isrof to'y-hashamlarga qarshi bo'lganlar, mashaqqat bilan topilgan mablag'ni joyiga sarflamaslikni qattiq tanqid etganlar. Qo'llangan usullar bunga o'zgacha qarashga undaydi. Ya'ni ritorik so'roq, qarshilantirish va kinoya vositasida xuddi shu qarash muxtasar tarzda, esda qolarlik qilib ifoda etilgan. Hamzaning kinoyalari yanada o'ziga xos, ular achchigligi, zaharxandaga boyligi bilan farqlanadi: Boybachchalar semiring, beshni o'n beshga bering, Yahudlarni boy qilg'och, yotib kesak kemiring. O'qitmang o'g'ulni, yetar ushbu tijorat. [II,53]

Kinoyaning antifrazis shakli, ya'ni teskari ma'noda tushuniladigan jummlar tuzish orqali fikrni ifodalash ham nutqning ta'sir kuchini oshiradigan vositalardandir. Xuddi shunday ritorik usul yana Hamzaning "Dunyo kerakmas erkon" [II,51-52] she'rida ham qo'llangan. She'rdagi har bir band oxirida band mazmuniga muvofiq o'zgarishlar bilan takrorlanadigan "Turonli holingga balli..." olqishi bilan boshlanuvchi qo'sh misra ham kinoya-antifrazisdir.

⁹ Ob oratorskom iskusstve. – M.,1963. – C.132.

Ta'kidlash kerakki, mumtoz she'riyatning ifodadagi an'alarini davom ettirgan holda unga mazmuniy yangiliklar kiritishga intilish o'zbek jadid she'riyatining ilk bosqichlariga xosdir. Keyinroq, jadidlarning ijtimoiy faolligi ortgan 10-yillarning o'rtalariga yaqin she'riyatda xalqona ohang va xalqona ifodalar tobora kengroq o'rin egallay boshlaydi. Negaki, davr kayfiyati endi yangicha ifodani yanada o'tkir taqozo etayotgan, uni aks ettirish uchun mumtoz she'riyatdagi obrazlarni mazmunan yangilashning o'zi kamliq qilayotgan edi. Ehtimol, shuning uchundir, ilk ijodida mumtoz she'riyat an'analari doirasida qalam tebratgan Hamza ham, Avloniy ham bu davrga kelib asosiy e'tiborni "milliy she'r"ga qaratdilar. Va she'riyatda endi obrazdan ko'ra xitob ko'proq e'tibor topa boshladi.

Hamza she'riyati xuddi dramalari singari o'z davrining ko'zguvidir. Shoir o'zi yashagan g'oyat murakkab zamonning dolzarb muammolarini she'riyati bilan ham hal qilishga kirishib, goh aruzda, goh yangi barmoq vaznida juda samarali qalam tebratdi. Eng muhimi, Hamza so'z vositasida jamiyatga ta'sir qilish yo'llarini topdi, xalqi va Vatanining kamoliga so'z bilan xizmat qildi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, Hamza Hakimzoda Niyoziy yangi o'zbek adabiyoti poydevorini qo'ygan zabardast asoschilaridan biri va shunday bo'lib qoladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Hamza. To'la asarlar to'plami. – T., Fan. 1989.
2. Ob oratorskom iskusstve. – M.,1963.
3. Cho'lpon. Adabiyot nadir. – T., Cho'lpon, 1994.
4. Qodiriy A. O'tkan kunlar. – T., Adabiyot va san'at, 1994.

JADID MATBUOTIDA MA'RIFIY ISLOHOT MUAMMOSI

Sanobar To'laganova

*O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti etakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori (Dss).
s.tulaganova@mail.ru*

Annotatsiya: Maqolada Abdulla Qodiriyning dastlabki ijodiy namunasi sanalgan didaktik xarakterdagi she'rlariga alohida to'xtalangan. Yozuvchi she'rlarida jadid g'oyalari aks ettirishga harakat qilgan. Jadidlarning asosiy maqsadi bo'lgan ma'rifiy islohot, ta'limni yangilash, millat yoshlarini dunyo madaniyati bilan tanishtirish, Yevropa tajribalaridan foydalanish kabi masalalar Abdulla Qodiriyning ham o'ylantirgan. Muallif "To'y", "Ahvolimiz", "Millatimga bir qaror", "Fir aylag'il" kabi she'rlaridagi ma'rifat g'oyasini o'ziga xos yo'sinda aks ettirishga harakat qilganligi tahlillar yordamida ochib berildi.

Kalit so'zlar: Jadid, islohot, ma'rifat, ta'lim, ahli vijdon.

Abstract: The article focuses on the didactic poems of Abdulla Qadiri, which are considered to be the first creative example. The writer tried to reflect modern ideas in his poems. Abdulla Kadiri was also thinking about issues such as educational reform, education renewal, introducing the youth of the nation to world culture, and using European experiences, which are the main goals of Jadids. The analysis revealed that the author tried to reflect the idea of enlightenment in his poems such as "Toy", "Ahvolimiz", "Millatimga bir qaror", "Fir aylag'il" in his own way.

Key words: Jadid, reform, enlightenment, education, people of conscience.

XX asr avvalida Turkiston diyori siyosiy-tarixiy, madaniy- ma'rifiy sohalarda jiddiy to'ntarilish va ko'tarilishning guvohi bo'ldi. Millat tarixida nurli sahifa yaratgan jadidlar uchun Ma'rifat va Mafkura kurash maydoniga aylandi. Kurash zamirida milliy ozodlik va hurriyat tuyg'usi, din qayg'usi birlamchi ahamiyat kasb etdi. Milliy matbuot va jurnalistikani shakllantirish, teatr san'atini millat "oyina"sig aylantira olish, ta'lim tizimida islohot o'tkazish, boshqaruv tizimiga mahalliy kadrlarni yetkazib berish, milliy armiyani bunyod etish bilan bog'liq harakatlar jadidlarning dasturiga aylandi.

O'zbek matubotning shakllanishida ulug' yozuvchi A.Qodiriyning o'ziga xos o'rni bor. A.Qodiriy, avvalo, jadid g'oyalari ta'sirida adabiyot maydoniga kirib keldi va dastlabki ijodiy namunalarda ma'rifat targ'ibotchisi sifatida gavdalanadi. Ikki rus bosqiniga guvoh bo'lgan adib Turkistonda millat taqdiri hal etilgan pallada qo'liga qalam tutdi.

Yozuvchining ijodiy konsepsiyasi mavzu ko'lamiga ko'ra ikki yirik yo'nalish asosidan tarkib topgan. Birinchisi, ijtimoiy-iqtisodiy islohatparvarlik, ikkinchisi, diniy xurofotga qarshi kurash masalasi. Uning dastlabki she'ridan tortib, to yirik janrdagi asarlarigacha mana shu ikki yo'nalish oralig'ida bo'y ko'rsatadi. Adibning birinchi maqolasi 1914-yil 1-apreldagi "Sadoi Turkiston" gazetasida, "Toshkent xabarlar"i" ruknida "Yangi masjid va maktab" nomi bilan chop bo'lgan. Bir boyning masjid yoniga "Usuli jadid" maqomidagi uch xonali oynavand maktab qurib

berganligi aytiladi. Jadid usulidagi maktabni qurib bergan boyni matbuotda e'tirof etish, o'z navbatida reklama – namoyish vazifasini bajargan. Va bu yo'l jadidlar tomonidan qo'llangan samarali usullardan biridir. Yozuvchi tomonidan yozilgan bu kichik xabar oddiy axborot tarzida bo'lib qolmasdan, uning mohiyatida millat sarmoyadorlarini shunday ishlarga targ'ib tashviq qilish maqsadi yotadi.

Yozuvchining 1915-yilda yozilgan "To'y" nomli she'rida millatni chalg'itayotgan muammolar haqida mulohaza yuritiladi. ("Sadoyi Turkiston" 1915-yil, 64-son, 20-mart). Eng qizig'i she'rda muallif muammoga nafaqat tanqidiy munosabat bildiradi balki uni bartaraf etish yo'llarini ham ko'rsatishga harakat qiladi. Qodiriyning dastlabki ijodiy namunalarida maktab va to'y masalasiga alohida diqqat qaratilgani bejiz emas. Bu hol uning jadidlarning g'oyalari bilan hammaslak ekanligini ko'rsatadi.

She'rning har bir baytida yozuvchi zamonasining og'riqli muammolarini hajv yo'li bilan ko'rsatib beradi. Aslida, to'yga, to'g'rirog'i, ortiqcha dabdabali marosimlarga millat ravnaqiga to'sqinlik qilayotgan muammo sifatida yondashish millat faollariga xos ijtimoiy-ma'rifiy qarashning o'ziga xos ko'rinishi edi. To'y masalasi jadidlar nazdida, eng og'riqli va millatni zalolatga yetaklovchi muammo sanalganligini tarixiy manbalar tasdiqlaydi. Holbuki bu mavzu bugunga qadar dolzarblik ahamiyatini yo'qotgan emas. Millatning azaliy muammolaridan biri ekanligini e'tibordan soqit qilmaslik lozim.

Qodiriy davrning yetakchi g'oyalarini she'rlari orqali aks ettirishni ma'qul bildi. E'tibor beriladigan nuqta: muallif dastlabki badiiy ijodni jadid kayfiyatini aks ettiruvchi she'rlar bilan boshlaydi. U she'rning badiiy-estetik qiymatini hisobga olmaydi, balki tarbiyaviy jihatini muhim sanaydi. She'rga g'oyani aks ettiruvchi vosita sifatida yondoshadi. Bu jihatlar hali muallifning badiiyat nuqtayi nazaridan tajribasizligi bilan izohlanib, ma'rifatparvarlik hissi ustivorlik qilganini ko'rsatadi.

To'y na diniy, na milliy marosim, mahalliy xalq shu yo'lda bor budini sarflab, riyoga berilishi, ortiqcha tomoshaga o'chligi qavmni halokat yoqasiga olib borishi jadidlarni tashvishlantirgan. Jadidlarni qiynagan muammo bugun ham yechimini topa olmayotgani hali hanuz millat tafakkurida ma'naviy bo'shliq borligidan darak beradi.

She'r matniga diqqat qaratilsa, yozuvchining maqsadi oydinlashadi. "*Amr etubdurmi bizg'a Qur'on to'y*", "*Mundayin ishlar shar'imizda yo'q*", "*Kelingiz do'stlar, din qarindoshlar*", "*Tashlasun bo'lsa gar musulmon to'y*". E'tibor berilsa, muallif mazkur masalaga diniy nuqtayi nazardan yondashadi, ya'ni bid'at va johillikni qoralaydi. Shariat buyurmagan ishlarni qilish, xurofotga berilish natijasida el ilm-ma'rifatdan to'silishini muallif kichik she'r bag'riga singdirib yuborgan. Muallif bunday ortiqcha havaslardan millatni "Qur'on amri" qutqarishini, "aqllik kishi" va "ahli vijdon" bunday illatlardan saqlanishi lozimligini ta'kidlaydi. "*Aqllik*

kishi" va *"ahli vijdon"* tushunchasi yozuvchi ijodiy konsepsiyasida muhim o'rin tutadi. Qodiriyga ko'ra diniy va dunyoviy bilimga ega bo'lgan odam tugal taraqqiyparvar sanalgan. Shunday nuqtalarda muallifning nafaqat milliy balki din qayg'usi bilan masalaga yondashganligini ko'rish mumkin.

Ijodkorning *"Fikr aylag'il"* she'rida ham yana to'y masalasiga murojaat qilinadi. *"Yer sotarlar elda necha to'y bajo etmak uchun, Chunki bid'atin yo'lida ham fidodur jonu tan"*. Yer o'zbek xalqida vatan tushunchasiga tenglanadi. Muallif hoyu-havas yo'lida hatto vatanidan kechayotgan millatdoshlarni fikr aylashga chaqiradi. Mahalliy aholining savodsizligi va johilligi ortida shunday ortiqcha chiqimlarning kelib chiqishini qoralaydi.

"O'rtadan chiqsa agar millatni yaxshi suyguchi, Biz ani dahriy sanab, to'fangcha birla otamiz" deya olomonning umum saviyasi va davr kayfiyatini ochib beradi. Mazkur misrada yangilik va eskilik orasida turli tomonga ajralib tobora zaiflashib borayotgan millatning ahvoriga ishora bor. Yurt istiqboli xatarda qolayotgan pallada odamlarning maishiy tashvishlar bilan ovora ekanligi kinoya orqali ochib beriladi. Savodsizlik orqasida odamlarning bid'atga berilishini ma'rifat bilan *"emlab"* millatni fikiy uyg'oqlikka da'vat etadi. *"Kelingiz yoshlar, ziyolilar bu kun g'ayrat qiling, Uxlaganlarni agar qodir esak uyg'otamiz."*

"Ahvolimiz", *"Millatimga bir qaror"* she'rlarida ham millatni jaholatga yetaklayotgan illatlar fosh qilinadi. *"Joyi kelgan chog'ida vijdonni pulg'a sotamiz"*, *"Jaholat cho'l sahrosiga minba'd sabzavor o'lsun"*, *"Bu kun ilmning bo'yi birlan dimog'lar mushkibor o'lsun"*, *"Qaysi fosiq, qaysi johil, qaysisi bo'ldi chapan?"*, *"Bachchag'a kokil solib, oh-voh ilan o'ynotamiz"* kabi misralarda ona Turkistonni azoblab kelayotgan yiringli yaralar ochib beriladi. Din ahkomlariga bo'ysinmaslik, johillik, ilm ma'rifatdan yiroqlashuv, bachchabozlik, nashavandlik kabi illatlar nishonga olinadi. Har bir satrda millatni tannazulga yetaklovchi global xarakterga ega muammolar yoritib berilgan. Mazkur muammo keyinchalik adibning yirik janrdagi asarlarida konseptual ahamiyat kasb etib, roman strukturasi alohida syujet yo'nalishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Kalvak maxzum, Abdurahmon, Toshpo'lat tajang obrazlarining tub ildizi uning dastlabki she'rlarda ilgari surilgan tezislar bilan chambarchas bog'liq ekanligi bejiz emas.

Yozuvchining ijodiy bisotida she'r ko'p emas, sanoqli, ularning nomlanishida ham o'zaro uyg'unlik ko'zga tashlanadi. *"To'y"*, *"Ahvolimiz"*, *"Millatimga bir qaror"*, *"Fikr aylag'il"* deb nomlanib xalq tafakkurining tadrijiy takomili nazarda tutilgan, yoki muallif orzusi bo'lgan ehtimol. Umummaxrajda Turkistonning ahvolidan kuyinish, dardiga malham istash hasrati jamlangan.

*"Qodiriy nazdingiza oz hasratidin so'yladi,
Ayb etub qilmang haqorat, muhtaram ahli vatan"*.

Uning she'rlaridagi g'oya asta-sekin nasriy asarlariga ham ko'chib o'tadi "To'y" she'ridagi g'oyaviy niyat "Baxtsiz kuyov" dramasida davom ettirilib, keyingi asarlarida muammo ildizlariga yanayam chuqurroq razm solinadi. Muallifning "Baxtsiz kuyov". Teyotr risolasi nomli asari 1915-yilda yozilib, "Turkiston maishatidan olingan to'rt pardalik foji'a" deb nomlangan. Qodiriy shunday yozadi: "1913-yillarda chiqq'an "Padarkush" pesasi ta'sirida "Baxtsiz kuyov" degan teatr kitobini yozub yuborg'animni o'zim ham payqamay qoldim". Shu davrda Behbudiyning "Padarkush"idan keyin o'zbek adabiyotida unga taqlidan bir qancha asarlar vujudga keldi. "To'y" muallifi – Nusratullo Qudratullo o'g'li. 1914. "Juvonmarg" – Abdulla Badriy. 1915. Hoji Mu'inning "Eski maktab, yangi maktab", "Mazluma xotin", "Juvonbozlik qurboni" (1916).

Asarda ortiqcha dabdabaga berilish va johillik orqasida qarzga kirib ketgan ikki yoshning fojiali hayoti ochib beriladi. O'zgalarning maslahati bilan to'y o'tkazgan yoshlar baxtsizlikka uchraydi. Sahna asarida johillik va ma'rifatdan uzoqlashish orqasida fojiaga duch kelgan kimsalarning qiyofasi ifodasini topdi. Muallif bu pyesasida mahalliy boylarni taraqqiyparvar va saxovatli bo'lishga chaqirib, unda to'y marosimidagi isrofgarchilikka yo'l ochadigan eski odatlarga qarshi kurashish g'oyasini ilgari suradi. Asar voqealari Solih ismli yigitning uylanishi voqeasi asosiga quriladi. Boydan qarzga pul olib, vaqtida to'lay olmagan kuyov Solih va kelin Rahima ruhiy tushkunlik oqibatida o'z joniga qasd qiladi. Asar yoshlarning fojiali o'limi bilan yakunlanadi. Qurbon bo'lgan yoshlar taqdiri millat kelajagi bilan chambarchas holda ko'rsatib beriladi. To'y baxtga yetaklovchi omil emas, ma'naviy inqirozning belgisi sifatida yoritib beriladi.

Adabiyotshunos I.G'afurov yozuvchi ijodida to'y mavzusiga yaqin qiziq mulohazalarni bildiradi: "Abdulla Qodiriy romanlarida barcha voqealarning markaziga uylanish tugunini qo'yadi. Barcha voqealar, tarixlarning boshida shu tugun turadi. Tarixning barcha kir va oliyjanob yo'laklariga shu tugun orqali kiriladi" [1. I.G'afurov, B. 42]. Munaqqid adib ijodida uylanish masalasi konflikt uchun turtki vazifasini bajarganini ta'kidlaydi. Ustoz mazkur masalaga adib romanlari misolida yondashadi. Nazarimizda, yozuvchi bu masalaga ijodga kirib kelgandayoq e'tibor qaratgan dastlabki ijodiy namunalari bu fikrni tasdiqlaydi. Va, albatta bu jadidlarning g'oyasi bilan mushtarak holda kelganligi yozuvchining tafakkur tadrijini anglashimizga yordam beradi.

Nazarimizda, adib romanida nikohning muqaddasligi va johillik oqibatlarini badiiyat san'ati orqali chizadi. Yurt istiqboli qayg'usi va hokimiyatning qo'ldan ketishi, diniy-milliy kamsitilish adibni yirikroq ko'lamda asar yozishga undagan.

Yozuvchi she'rlari vositasida jamiyat iqtisodini o'nglash uchun avvalambor ruhoniyatni, ma'naviyatni boyitish lozimligini ta'kidlaydi. To'y – diniy yoki milliy marosim emas, balki xalqni chalg'itish uchun xizmat qilayotgan bir voqelik ekanligiga e'tibor qaratadi. Turkistonni bu illatdan ozod etmoq uchun bolalarimizni

diniy va dunyoviy ilmlardan xabardor etmog'imiz lozim, degan xitob butun asarning mag'ziga sindirilgan.

Qodiriy dastlabki ijodiy namunalari sanalgan she'r va dramasida bid'atga aylangan urf-odatlardan qutulish, to'y, uloq, qimorbozlik, ichkilikbozlik, xotinbozlik kabi illatlarga barham berish, yangi usul maktablarini ko'paytirish, unda diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlarni ham o'rgatish orqali millatni g'aflatdan uyg'otish mumkin, deb bildilar. Ana shu ruhdagi asarlarda shariatda belgilanmagan tartiblarga ergashish, bid'at xurofotga berilish ma'naviy inqirozga olib kelishi ko'rsatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'afurov I. Abdulla Qodiriy siymosi / Qodiriy abadiyati. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2014.

SHE'RIYATIDA MUNAVVARLIKNING SURATLARI BOR...

Sharipova Laylo Frunzeyevna,
BuxDU professori, f.f.d.

***Annotatsiya:** XX asrning oxirgi o'n yilliklarida o'zbek she'riyati mavzu, tasvir ko'lamiga ko'ra yanada rang-baranglashdi. Uslubi betakror shoirlardan biri sanalgan Abduvali Qutbiddin she'riyatida ham folklor, ham mumtoz adabiyotimizga xosliklar mujassami borligi asarlarini o'rganish zaruratini yuzaga keltirdi. Maqolada mazkur shoir she'riyati haqida fikr boradi.*

***Kalit so'zlar:** shakldosh so'z, g'oya, mavzu, band, she'riy tizim, erkin aruz, sodda vazn, murakkab vazn, erkin she'riy tizim, folklor.*

Abduvali Qutbiddinday bir yetuk shoir o'tdi, o'ziga "Sizday shoir noyob" deb ulgurmadik. U shoir edi. Bilimli, ilmi, dili ishq olovida qovrilayotgan, otashnafas shoir edi. Alloh huzurida, Hokimi mutlaq yaratgan o'n sakkiz ming olamda so'zdan o'zga boqiy qudrat, she'riyatdan ulug' ma'vo yo'q deb bilgan shoir umrining so'ngidagi suhbatlaridan birida Vatandan o'zga ulug'lik yo'qligini ta'kidladi. Ulug'likning turli yo'laklarini sayr qilgan vatanparvar, elparvar shoir shunday xulosaga kelishi tabiiy edi. Uning umri Alloh huzuriga pokdomon borish ilinjida o'tdi. Imonli bo'lish qo'lida cho'g' ushlab turish bilan barobarligini bila turib ham bir umr nafaqat qo'lida, balki dilida, jonida cho'g' ushlab o'tdi shoir. Uning she'riyatida bosh mavzu kir dunyo makridan o'zni asrash, poklanib yaratgan huzuriga borish istagi bilan bog'liq.

Abduvali Qutbiddin uchun har bir so'z ardoqli edi, har bir satrida so'zlar tilla uzukka qo'yilgan zumradlar kabi o'z o'rnida bo'lardi. U tartib bergan she'riy to'plamlarning nomi ham betakror. "Bor" to'plami undan oldin nashr bo'lgan kitoblar asosida saralab tuzilgan. "Bor" "mavjudlik" "harakat", "yuk" kabi ma'nolarni anglatishiga ko'ra shakldosh so'z (Masalan, "Menda bor", biznikiga bor, bor keldi):

Do'sti aziz,

Pufakday yorilma – qorilma tun suvoqlariga,

Kuy yaxshisi,

Jiz etib gulxan ila sudrash va bo'g'ish –

Yashash ham ishmi –

Oqar tongning bo'kirig'ida –

Hammasi yo'g'ida – yo'lga tush, do'st...[Abduvali Qitbiddin.1:241]

Shoirning "Bor" allegoriyasi" she'ridan olingan bu satrlar mohiyatini anglash uchun xos she'rxon bo'lmoq lozim. Unda shoir "bor" so'zining shakldoshlikdagi barcha ma'nolarini so'zning o'zini qo'llamay turib ifodalagan. "Yo'lga tush, do'st..." deyishning o'zi bor deb undashdir. Ammo lirik qahramon sirdoshning, dildoshning, ya'ni do'sti azizning "pufakday yorilishini, tun suvoqlariga qorilishini istamaydi. Uning maslakdoshi havoyi bo'lmasligi lozim, shoir do'st kuysa ham gurillayotgan

olov bilan yoqalashadigan darajada jasoratli bo'lishini istaydi. Oqar tong, ya'ni subhi sodiqning bo'kirig'ida yo'lga tushishi kerakligining o'zi shoir uni ulug' manzilga tomon borishini so'rganini anglatadi. Abduvali Qutbiddinning bu she'ri kitobning nomini bizga izohlamoqda. Bu she'rdan keyingi she'ning "Bor" allegoriyasi"ga aloqasi yo'qligini bilib turganimiz holda bog'liq degimiz keldi. Bu hol shoir she'rlar ketma-ketligini ham jiddiy o'ylagan deyishimizga asosdir:

Ona – polvonim, bahodirim mening,

Qanday ko'tarasiz dunyo yukini.

Bir zarrasi tegsa – tushadi larza,

Jajji gardi tegsa – ketdim qoqinib ...[Abduvali Qitbiddin.1:242].

Onasi borligi uchun shukrona qilib yozilgan she'r. Ona haqida o'zbek she'riyatida mavjud eng chiroyli, eng e'tirofqa loyiq she'rlar bilan bellashadigan, ammo hech birini takrorlamagan she'r. Oddiy, ammo hech qaysimiz o'ylamagan buyuk haqiqat bor: ona dunyo yukini ko'tara oladigan yagona polvon, bahodir! Bu she'r ham, nazdimizda, kitobning nomini bizga sharhlab bera oladi. Shu o'rinda

Abduvali Qutbiddin ijodiga xos bir jihatni ta'kidlasak: aksariyat hollarda shoir

kitobiga nom o'ylab topmaydi, balki mavjud she'rlari nomi orasidan yoki biror she'rining bir so'zidan munosibini kitobga nom sifatida tanlaydi. U tanlagan nomlar

ham betakror va shoir she'riyati bosh g'oyasini ifodalay olgan. "Bor" kitobi "Nayson", "Humo", "Baxtli yil", "Sen va Sen uchun", "Xayol kechasi", "Uzoqdan olisga" nomli oldin chop etilgan kitoblardan tanlab olingan va "Bor" allegoriyasi"

nomi ostida berilgan yangi she'rlardan tuzilgan. Shoirning har bir kitobi mavjud she'rlardan saralab tuzilgan. Kitoblarga kirgan she'rlar e'tirofqa munosib bo'lsa-da, shoir "Bor" to'plamiga ular orasidan ham eng saralari deb bilganlarini kiritgan.

Kitobdagi she'rlar Abduvali Qutbiddin uch she'riy tizimda ham ijod qilganini, ammo aruz she'riy tizimida kamroq she'rlar bitganini, ularni ham "Erkin aruz" nomi ostida berar ekan, bu she'rlar she'riy tizimning temir qonunlari talabiga javob bermasligini anglagani uchun shunday nomlaganini dalillaydi. Shoir barmoq she'riy tizimining sodda va murakkab vaznida barakali ijod qilgan, ayni damda, erkin she'riy tizim shoirning jilovlanmas, shiddatkor, chegara bilmas, to'fonli ilhomiga juda mos kelgan.

Abduvali Qutbiddin ijodi folklordan, kunchiqar va kunbotar she'riyatidan birday bahramand bo'lgan, umrini, ijodini komillik kasb etib Allohga yuzlanishga sarflagan, shu orzu-armonlarini ijodiga jo aylagan shoirga, mutafakkirga xos. Bu mubolag'a emas, she'riyatining har bir satri tahlil qilinsa, bu fikrga iqrar bo'lish oson kechadi.

Shoirning har bir she'riga bir jihat xos: har bir bandning o'z mavzusi, manzarasi bor va shu mavzular bosh mavzuni anglashga ko'maklashadi, har bir manzara asosiy tasvirning qismlari bo'lib chiqadi. "Bor" kitobidagi ilk she'rdan

boshlab qo'ya qolaylik. "Sohibdilim – diloro" she'ri olti bandli she'r sifatida berilgan bo'lib, har bir band "Sohibdilim – diloro" satri bilan boshlanadi. Besh bandda toq misralar qofiyalanmagan. Ta'kidlash lozimki, ijodi davomida shoir bir she'rida qofiyaga mumtoz qoidalar darajasida diqqat qilsa, bir she'rida qofiyaga sig'maydi, ruhdagi shiddat qofiya qoliplarini buzib chiqadi. Tilga olganimiz she'rida juft misralarda aksar to'q qofiyalar: qulfmidur-zulfmidur; chekdim-ku-ekdim-ku. Birinchi bandda karvon ketmoqda, quyun nay puflamoqda, lirik qahramon karvon to'xtashi lozimligini "Ayyit" deb sohibdiliga murojaat qilmoqda. Chunki biyobon – quyunning enasi. Ena karvonni emas, bolasini qo'llashi aniq. Shoir "ayt" so'zini til qoidalariga zid tarzda qo'llab, vaznning mukammalligini ta'minlamoqda va so'zga ta'kid ma'nosini yuklamoqda. Bu mumtoz aruzshunoslikda taznib deyiladi [Hojiahmedov A.2:158]. Ikkinchi bandda giryon chashma, jilg'a bo'lgan ko'ngilni quritgan mujgon tasviri bor. Satrlardagi bu tasvir rassom chizgani kabidir. Uchinchi bandda qulf kabi yopiq turgan ko'z, uni ochib chiqayotgan nigoh va nigohni chopayotgan zulf tasviri bor. Qolgan bandlarni ham shu taxlit keltirish mumkin. Har bir manzara alohida. Ularni birlashtiradigan bandga e'tibor qarating:

Sohibdilim – diloro,

Vasling sarobmi, ro'yo.

Hofiz emasman ishqda,

Abduvaliman go'yo ...[Abduvali Qitbiddin. 1:4]

Majnunlik tasviri karvon, quyun, biyobon, nay, ishq kabi detallarni birlashtirib beradi. Shoir oshiqning ishq iztiroblarini ko'ngil jilg'asini quritib bo'lgan kiprik tasviri bilan bersa, yorning zulmini oshiq nigohini zulf qilichi bilan chopgani ifodasi orqali namoyon qiladi. She'rning oxirgi satrida ismini ham taxallus sifatida, ham oshiqligi hatto Hofizga o'xshamasligini ta'kidlash uchun qo'llaydi. Ishqning darajasini qay taxlit bergani she'rxon idrokiga havola qilingan. Bunday tahlillarni uzoq davom ettirish mumkin. Xulosa shuki, shoir she'rlarining ma'no qatlamlari ko'p. Uni anglash uchun xos she'rxon kerak, ammo oddiy she'rxon o'qisa ham ahamiyatlidir, ruhiyati tarbiyat topadi.

Abduvali Qutbiddinning she'riyatiga xos yana bir tomon bor: aksariyat she'rlarida bir so'z yoki bir satr takror-takror qo'llanishi orqali she'r mazmunidagi qaysidir jihat bo'rttiriladi, zarur ma'no kuchaytiriladi. "Qasam", "Umr o'gitlari", "Ko'ngil", "Istardim", "Kecha" kabi she'rlari fikrimizni dalillaydi. Yoki har banddan keyin ma'lum so'zlar keltiriladi, ammo bu so'zlar bir-birini takrorlamaydi, bir-biriga qofiyalanmaydi. "Visol", "Xayol", "Yomg'ir", "Sevgi qissasi" she'rlarini misol keltirish mumkin. Ayrim she'rlarida so'z ohangni ifodalaydi, tovushga taqlid so'zni keltirish orqali shoir ruhiy holatini aks ettiradi. Masalan, ikki qismli "Ohang"

she'rining birinchi qismida "Ayyy...", ikkinchi qismida "O-o-o-o..." banddan keyingi takror misra bo'lib kelgan:

Xudoyim, boshimni qayga berkitay,
Qaysi daqiqangda qanday yirtilay,
Kimga nima beray, kimdan ne tilay,
Ayyy..... [Abduvali Qitbiddin. 1:147]

Abduvali Qitbiddin she'riyatini o'qisangiz, tasavvuf ilmidan xabardorligini his qilasiz. Ayni damda, folklor ta'siri ham beqiyos. Masalan, uning ikki qismdan iborat "Yomg'ir" she'rini o'qib ko'ring. Birinchi qismida yomg'irga aylanib, tuproqqa singigan oshiq obrazi bor. Sevgan, ammo sevilman lirik qahramon dastlab yomg'irga dardi hol qiladi. She'rning barcha bandlaridagi to'rtinchi satr bir xil: "Meni sevmas hech kim". Shoirni qiynagan dard shu. Lirik qahramon yomg'irga aylanishni istaydi.

Qiyofam yomg'irda, u esa menman,
Tag'in, qayta-qayta ko'rinish berdim.
Tezroq yashiringin, tomchiman, tig'man,
Men sevmas hech kim ... [Abduvali Qitbiddin. 1: 145]

Yomg'ir qachon tig'ga aylanadi?! Sevilman inson dastlab og'rinadi, bu og'riq g'azabga, g'azab o'chkorlikka, nafratga aylanib boradi. Shoir shu jarayonni anglatar ekan, sevilman bu oshiqning yomg'irga evrilganini ifodalaydi. Faqat o'ta g'azabnok holatda, ya'ni shitob bilan yog'ayotgan yomg'ir tomchidan tig'ga aylana oladi. Sevilmasa-da, sevgani sabab seviklisining yashirinishini so'ramoqda, buni "Zinhor senga, ey yor, yomonligim yo'q" deb ta'kidlamoqda. She'rning ikkinchi qismida yomg'irga aylanib, tuproqqa singigan oshiq "Tindimmi, indimmi, oxirul kalom" deb o'z holati o'zgarganini, g'azabidan tushganini ifodalab, maysa, chechaklarga "yorimga salom ber" deb o'tinmoqda. Folklorning ertak janrida evrilish turli ko'rinishlarda aks ettirilgani kabi shoir she'rning ikkinchi qismida yomg'irga aylangach, yalpizning unishiga ko'maklashadi va yalpizdan yorning uyiga borishini so'raydi:

Yalpizim, suyuklim uyigacha bor,
Iloj qil, deraza rohida ko'kar,
Bo'y tarat, dimog'i yonsin, u bilsin,
Mendan bu xabar... [Abduvali Qitbiddin.1:145].

So'ng kaklikka jon bo'lib, kaklik orqali yori uning diydorini ko'rishini istaydi. Keyin esa kabutar vujudiga kirish orqali yorning kaftiga qo'nishni orzu qiladi:

Bir soat, ijizat ayla, quvonay,
Don bersa ajabmas kaftida orzum.
Zora men haqimda surib qolsa o'y,

u. [Abduvali Qitbiddin. 1:146

Shoir orzu-armonlarining barini yomg'irga evrilgan lirik qahramon orqali amalga oshirishni orzulaydi. Uning bunday she'rlari yetarli. "Bor" to'plamida "Tasavvur lahzalari", "Barokko", "Onchaki", "Nazmdagi nasr", "Erkin aruz", "Illyustratsiya" turkumlari, "Ozodlik" dostoni keltirilgan. Ularning har biri ijodkorning yangi-yangi qirralarini kashf qilish imkonini beradi. Shoir "Iqror", "Avtoportret" she'rlarida o'z umrining qanday o'tganini she'r satrlari qatiga yashiradi. "Iqror" she'ri "Bor" kitobi bilan birga shoir hayoti haqida ham xulosa bera oladi:

Sizga hammasini so'zlab berdim,
Ulug' ko'rdim sizni,
Qulluq qildim bag'rimni berib,
Qiliq qilganim yo'q,
Ilikday qoqib berdim vujudim gavharin.
Chunki men borman,
Siz kabi borliqda -

Va men Abduvali Qutbiddin ...[Abduvali Qitbiddin. 1:310].

Ha, yana bir yetuk shoirimiz "Ilikday qoqib berib vujudi gavharin", evaziga minnatdorchilik kutmadi. Bu satrlardan hech birini inkor qilolmaymiz, yetuk shoir Abduvali Qutbiddinning ruhan barhayotligi ham haq. She'riyati bunga kafildir. Bu she'riyat badiiyati yuksak, g'oyasi yosh avlodning kamoloti uchun xizmat qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдували Қутбиддин. Бор. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2011. – 320 б.
2. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Тошкент: "Шарк" НМК, 1998. – Б.156.
3. Sharipova, Laylo. "XX asrning 70–80-yillari o'zbek she'riyatida folklorizm." *Toshkent: Fan* 153 (2011).
4. Шарипова Л. БОҚИЙ МАВЗУДА БИТИЛГАН ШЕЪРЛАР: Шарипова Лайло, ф. ф. д., ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, Бухоро давлат университети //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 5. – С. 52-56.
5. Шарипова Л. ТИЛАК ЖЎРА ШЕЪРИЯТИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАРИ: Лайло Шарипова, БухДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси профессори, ф. ф. д //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 4. – С. 53-56.
6. Laylo Sharipova. (2024). НАМ ТА'ЛИМ, НАМ ТАРБИЯ БЕРУВЧИ ШЕ'РЛАР. . *Konferensiyalar / Conferences*, 1(12), 169–173. Retrieved from <https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/2896>

ХАТЛАР – ДЎСТОНА ИЖОДИЙ АЛОҚАЛАР ВОСИТАСИ
(Омон Матжон ва Матназар Абдулҳаким)

Мархабо Қўчқорова
Худойбергановна,
ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва
фольклори
институти етакчи илмий ходими

***Аннотация.** Мазкур мақолада Ўзбекистон халқ шоири Омон Матжон шахсий архивидан топилган Матназар Абдулҳакимнинг икки хати илк бор адабий жамоатчиликка маълум қилинди.*

***Калит сўзлар.** Шахсий архив, хат, Матназар Абдулҳаким, ижодий алоқа, устоз-шогирд.*

***Abstract.** In this article, two letters of Matnazar Abdulhakim, which is found in the personal archive of the national poet of Uzbekistan, Aman Matjon, were presented to the literary public for the first time.*

***Keywords:** Personal archive, letter, Matnazar Abdulhakim, creative communication, teacher-student.*

Омон Матжон шахсий архиви ўрганилганида, шоирнинг адабий жараёнда ва туркий халқлар дунёсида нақадар катта мавқега чиққанини англаш мумкин. Шоир шахсий архивида сақланиб қолган Комил Яшин, Нормурод Назруллаев, Рамз Бобожон, Борис Пармузин, Раҳим Бекниёз, Дўстжон Матжон, Иброҳим Юсупов, Сафо Очил, Иброҳим Раҳим, Ҳамид Сулаймон, Тўра Сулаймон, Турсунбой Адашбоев, Матназар Абдулҳаким, Қутлибека Раҳимбоева, Сулаймон Раҳмон, Ўразбой, Садриддин Салим, Михаил Семельников, Улибиби Отаева, Тўлан Низом, Тошпўлат Ҳамид, Эркин Мадраҳимов (Ошиқ Эркин), Нурали Қобул, Жўлмирза Оймирзаев, Қўлдош Мирзо, Болта Ёриев каби юзлаб ижодкорлар, мухлислар, яқин дўстлар, қариндош-уруғлари томонидан йўлланган хатлар, табрикномалар, телеграммалар бор.

Шулар орасидан Матназар Абдулҳакимнинг Омон Матжонга жўнатган икки хатини эътиборингизга ҳавола этамиз. Биринчи хат 1971 йил, 21 февралда Ростов вилояти, Таганрог шаҳридан Омон Матжон манзилига жўнатирилган. Маълумки, Матназар Абдулҳаким 1967-1972 йилларда Россиядаги Таганрог давлат педагогика институтининг филология факультетига таълим олган. Ёш

талаба ўша пайтда матбуотда ва илк “Очиқ деразалар” шеърий тўплами билан адабий жараёнда таниқли бўлиб қолган Хоразмлик юртдоши Омон Матжондан маслаҳат сўраб мактуб ёзган. Шу хат мазмуни қуйидагича:

“Хурматли Омон ака!

Газет ва журналларда айрим шеърларингизни ўқиганман.

Бу йил китобингиз чиқибди. Бу мени биринчи томондан қувонтирса, иккинчи томондан, адабсизлик қилиб бўлса ҳамки, ушбу хатни ёзишга ундади. Агар сиз учун ортиқча ташвиш бўлмаса, менга бир нусха юборсангиз. Ижодингиз ҳақида яхлитроқ тасаввурга эга бўлиш иштиёқидаман.

Салом билан Абдулҳакимов Матназар.

P.S. Ўзим ҳам унча-мунча машқлар қилиб юраман. Шулардан баъзиларини жўнаётирман, хушласангиз бир-икки оғиз гап ёзарсиз.

21 февраль 1971 й.

Адресим: Ростовская обл. с. Таганрог, 26. Довостребования.”

Мазкур хатдан сўнг, Матназар Абдулҳаким ўзининг илк ижодий машқларидан иккитасини “Бор меҳрим-ла сени ардоқлаб”, “Абдулла Орипов ғазалига мухаммас”ини илова қилиб жўнатган. Мазкур икки шеър Матназар Абдулҳакимнинг “Танланган асарлар” (2 жилдлик. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт ижодий матбаа ижодий уйи, 2017.)дан ўрин олмаган. Мазкур шеърлар ёш шоирнинг илк ижодий машқларидир. “Бор меҳрим-ла сени ардоқлаб” шеърида лирик қаҳрамоннинг севгилисига матонат билан уни кутиши кераклиги, бахтли бўлиш учун ҳижрон азобига бардош бериш лозимлиги саккиз мисрада ифоланган.

Бор меҳрим-ла сени ардоқлаб,

Висолингни кутгайман масъуд.

Сен ҳам, жоним, матонат сақлаб,

Ишонч билан йўлимга кўз тут.

Кутганларга алам муваққат,

Шафқатлидир ҳижрон – бағри тош.

Махрум бўлмас бахтидан фақат

Бу азобга берганлар бардош.

Матназар Абдулҳаким ўз ижодидан намуна жўнатиб, Устози Омон Матжондан бир оғиз сўз эшитмоқ истайди. Иккинчи хат Хоразм вилояти, Урганч туманидан Омон Матжонга йўлланган бўлиб, унинг мазмунини эътиборингизга ҳавола этамиз:

“Ҳурматли Омон ака!

Мана, топширигингизга қувона-қувона амал қилиб, Сизга хат ёзаётirman.

Ишлаб юрибман. Тез отпускка чиқамиз, шунда ўқиб чиқишни кўнглимга тугиб юрган китоблар бор, ўшаларни мутолаа қилмоқчиман. Ҳозир эса иш: ўқув машғулотлари, имтиҳонларга тайёргарлик, колхозга ёрдам, дегандай... хуллас, ташивиш етарли.

Шеърлар машқ қиляпман. Кам.

Қадрли Омон ака!

Сиздан бир ижодий маслаҳат сўрамоқчи эдим. Рус тилини ўргана бошлаганимдан бери шеърий таржимага қизиқаман. Назаримда муваффақиятлироқ чиққан таржималарни ҳукмингизга ҳавола қилган тўпламим “Тиниқ тонглар” гаям киритгандим. Шуларни ўқиб кўрган бўлсангиз, имкониятимни чамалаб, менга бир-иккита “тишим ўтадиган” авторни тавсия қила олмайсизми? Эҳтимол, бунақа масалани ҳар ким ўзи учун ҳал қилиши керакдир. Шундай бўлса-да, ҳеч кимга, хусусан, менингдек кам тажриба ҳаваскорларга устозлар йўл-йўриги ортиқчалик қилмас, деб ўйлайман.

Омон ака!

Шеърларимни кўздан кечиршига вақт орттира олдингизми? Агар ўқиб чиққан бўлсангиз ва андак фурсатингизни мендан аямасангиз натижасини, муҳими, танқидий фикр-мулоҳазаларингизни ёзиб юборсангиз.

Умуман, Омон ака, Сиз билан хатлашиб туришни жуда-жуда орзу қиламан.

Хайр

Самимий ва шогирдлик саломи билан Матназар.

Адресим: Хорезмская обл. Ургенчский р-н, к-з им.Карла Маркса, шк. Им. Мукими. Абдулҳакимов М."

Замонавий ўзбек шеърятининг икки ёрқин намоёндаси Омон Матжон ва Матназар Абдулҳаким дастлаб, хатлар орқали устоз-шогирдлик муносабатини ўрнатишади. Сўнгра, бу Устоз-шогирдлик муносабатлари кучайиб, юзма-юз узоқ-узоқ дилдорлар суҳбатларга айланганини тахмин қиламиз.

Матназар Абдулҳакимнинг илк шеърӣ тўплами "Тиниқ тонглар" 1982 йилда чоп этилган. Хатда айтилганидек, Матназар Абдулҳаким шеър ёзишдан ташқари, бадий таржимачилик билан ҳам шуғулланишга қизиқиб қолиб, Устозидан қайси муаллифлар шеърларини ўзбек тилига ўгиргани маъқул экани ҳақида маслаҳат сўрайди. Матназар Абдулҳакимнинг таржима соҳасидаги ижодий меҳнатлари самара беради. У моҳир таржимон сифатида форс тилидан Нажмиддин Кубро, Паҳлавон Маҳмуд, Бедил, Мунис, Огаҳий, Комил Хоразмий, Рожий, Табибий, каби мумтоз классиклар ижодидан; М.Дудин, Н.Рубцов, Р.Ҳамзатов, И.Зиедонс, Е.Евтушенко, Н.Дмитриев каби рус шоирлари ижодидан; Туркман адабиётидан Омондурди Аннадурдиев, Г.Зарипова, И.Худойберганов, О.Назаров, М.Бобоназаров, В.Қақабоев сингари ўттизга яқин муаллифлар ижодини ўзбек тилига, баъзи ўзбек шоирларининг шеърларини эса рус тилига катта маҳорат билан ўгирди.

Умуман олганда, устоз-шогирд Омон Матжон ва Матназар Абдулҳаким бутун ижодида Хоразм оҳангларини, халқона руҳини, миллий колоритини теран ва тиниқ акс эттирди. Улар бугун нафақат Хоразмнинг фаҳри, балки, Туркий халқлар шеърятининг ёрқин юлдузларидир.

TURSUNBOY ADASHBOYEV IJODIDA TABIAT TASVIRINING BA'ZI O'ZIGA XOSLIKLARI

Rahmatulla Barakayev,
filologiya fanlari nomzodi, professor,
O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

Baxshillo Ashurov,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: maqolada hozirgi o'zbek bolalar she'riyatida tabiat tasvirining o'ziga xosliklari o'zbek bolalar she'riyatining yetakchi namoyandalardan Tursunboy Adashboyev she'rlari misolida tahlil va tadqiq etilib, shoir badiiy mahoratining yosh kitobxon ma'naviy kamolotida tutgan o'tni, uosh kitobxon go'zallikni his qilish tuyg'larini va ona tabiatga muhabbatini shakllantirishdagi ta'siri xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: bolalar she'tiyati, tabiat tasviri, yil fasllari qiyosi, badiiy san'atlar, o'xshatish, jonlantirish.

Annotation: The article analyzes and researches the characteristics of nature imagery in modern Uzbek children's poetry. It uses the poems of Tursunbay Adashbaev, a prominent figure in Uzbek children's poetry, as an example. The article explores the influence of the poet's artistic skills on the spiritual development of young readers and considers the impact of the book on the formation of feelings of beauty and love for nature.

Key words: children's poetry, description of nature, Seasons, the artistic arts, analogy, and revitalization.

Fasllar o'zgarishi, yangilanishini bolalar singari intizorlik bilan kutadigan odam bo'lmas kerak. Chunki kun sayin, soat sayin o'sib-o'zgarayotgan, yangilanayotgan bola tabiati uzoq vaqt davom etadigan bir xillikni, doimiylikni qabul qilolmaydi. U tabiatning ham o'zi singari tezkorlik bilan o'zgarishini istaydi. Shu sababli ham u fasllar kelinchagi bo'lgan bahor kirib kelishini qanchalik sog'insa, qishda joniga tekkan issiq kiyimlaridan tezroq qutulib, yengilgina bo'lib, ko'cha-ko'ylarda tinim bilmay yugurib o'ynashni, varraklar uchirib quvnashni qanchalik intizorlik bilan kutgan bo'lsa, meva-chevalar pishib yetiladigan, darslardan qutulib, oromgohlarda dam olish, sayohatlarga chiqish, suvlarda maza qilib cho'milish imkoniyati tug'iladigan jazirama yozni ham shu qadar intiqlik bilan kutadi. Biroq yoz qanchalik go'zal bo'lmasin, u tez orada qadrdon maktabini, do'stlarini sog'inadi, tezroq kuz boshlanib, maktabiga boradigan kun kelishini intiqlik bilan kutadi, pishiqchilik fasli bo'lmish kuzda qanchalik to'kin-sochinlik bo'lmasin, u endi gupillab yog'adigan qorlar fasli bo'lmish qishni sog'inadi va hokazo.

Shu boisdan ham tabiat tasviri hamda fasllar madhiga bag'ishlangan asarlar bolalar adabiyotida alohida o'rin tutadi. Zero, vatanni qanchalik Ona-Vatan deb ardoqlasak, tabiatni ham bejiz ona tabiat demaymiz. Vatanni sevish esa har bir mavjudotning qonida bor. Vatan tuyg'usi inson tug'ilgan kundan boshlanadi. Kindik qoni to'kilgan tuproqning har bir zarrasi har bir inson uchun aziz, mo'tabar. Shuning

uchun ham tug'ilib o'sgan yer Ona-Vatan deyiladi va bu mavzu bolalar adabiyotimizning ilk sahifalaridan boshlanadi. Shoirimiz dil tug'yonlarining eng baland pardalarini doimo azizu mukarram Ona-Vatan vasfiga bag'ishlaydilar, uning go'zalliklarini to'lib-toshib madh etadilar. Zero, Vatan Ona qadar muqaddas, Ona qadar mukarram, Ona qadar musaffodir. Vatanning noz-ne'matlari, boyliklari qanchalik qadrlil, bog'u bo'stonlari, gulzoru chamanzorlari qanchalik go'zal bo'lsa, tog'u toshlari, cho'lu biyobonlari ham shunchalar go'zal va qadrlidir. Binobarin, vatanparvar shoir Vatanning qahraton qishidan ham, gullarga burkangan bahoridan ham, jazirama yozidan ham, to'kin-sochin kuzidan ham birday go'zallik izlaydi va kashf qiladi:

Eman bargi tovusning
Quyrug'iday serhasham,
Kiyik yurgan so'qmoqlar –
Qirda yo'l-yo'l beqasam...

Yashil taroq archalar
Keng yozib qulochini,
Erinmasdan shamolning
Tarar paxmoq sochini [T.Adashboyev, 1982: 42].

Ona Vatan tabiati oshuftasi T.Adashboyevning «Chilla chiqib» sarlavhali ushbu she'rida Vatan qishining mukammal manzarasi chizilgan.

She'riyatning go'zalligi shundaki, shoir biz har kun ko'rib yurgan, biz uchun odatdagi narsaga aylanib qolgan tabiat manzaralarini o'zgacha ko'z bilan ko'radi: biz uchun shunchaki daraxt bo'lib tuyiladigan eman bargining tovus dumiday go'zal, hashamdorligini kashf qiladi, kiyik yurgan so'qmoqlarning oppoq qorga burkanib yotgan qirlarda beqasamning yo'l-yo'l chiziqlariday tovlanishini idrok etadi; uning nazdida archa daraxtlari qulochini keng yoyib, betizgin shamolning paxmoq sochlarini erinmasdan yashil taroqlari bilan tarayotgan odamga aylanadi. Nazarimizda, xuddi ana shu betakror, kutilmagan o'xshatish va jonlantirishlar she'rga jon baxsh etadi, yosh kitobxon ko'z o'ngida Ona tabiatning jonli, mukammal manzarasini yaratadi, tabiatning har bir sahifasi, jumladan, dov-daraxt uyquga cho'mgan, hamma yoq oppoq qor bilan qoplangan, issiq uyda o'tirib o'qiyotgan kitobingdagi tasviriyoq etingni junjiktirib yuboradigan qahraton qish ham yosh kitobxon ko'z o'ngida o'zgacha qiyofada aks etadi, yashirin go'zalligini namoyon qiladi, G'afur G'ulom aytmoqchi, «Biz uchun qadrdon qish»ga aylanadi.

Bugungi o'zbek bolalar she'riyatining yetakchi namoyandalaridan biri bo'lmish T.Adashboyev she'rlariga ko'z tashlar ekansiz, uning Ona-Vatan kuychisi, Ona-Vatan tabiati shaydosi ekaniga imon keltirasiz. Shoir qalami Ona-Vatanning turfa

manzaralarini mohir musavvirdek hassoslik bilan chizadi, yosh kitobxonni ham Ona-Vatan oshuftasiga aylantiradi. Ayniqsa, T.Adashboyev tasviridagi tabiat kelinchagi – bahor manzaralari shu jihatdan betakroridir:

Bulut qoplab birdaniga
Tindi shamol g'ir-g'iri.
Maysalarga taqdi sirg'a
Ilk bahorning yomg'iri...
Halqoblandi oyoq osti,
Dur sochildi tog'larga.
Quyosh keyin dazmol bosdi
Dala, adir, bog'larga... [T.Adashboyev, 1982: 21].

Avvalo, bahor yomg'iri – obirahmat, dala-tuzga jon baxsh etuvchi ne'mat. Maysalarga qo'ngan ana shu ilk bahor yomg'irining sirg'aga, quyoshning dala, adir, bog'lardagi yomg'ir tomchilarini quritishi dazmol bosishga o'xshatilishi, bir jihatdan, ajoyib topilmalar bo'lsa, ikkinchidan, bahor yomg'irining tabiatni jonlantirishi, maysalarga qo'ngan yomg'irning go'zal kelinchak qulog'idagi sirg'aga o'xshatilishi bilan ushbu – «Dur sochildi tog'larga» she'rida yanada tabiiylik, yanada o'zgacha go'zallik, tarovat kashf etilgan, yosh kitobxon ko'z o'ngida Vatan bahorning yaxlit manzarasi namoyon qilingan.

«Bulutlar yig'lar» she'ri «Dur sochildi tog'larga»ning mantiqiy davomi – unda Vatan bahorning yanada o'zgacha manzarasi tasvirlanadi:

Yalt-yalt etib osmonni
Chaqmoq tilib tashladi,
Bir zumdayoq bulutlar
Ko'zlarini yoshladi.
Tunukali tomlarni
Tasir-tusur qamchilab,
Maysalar betin yuvdi
Muzdek gavhar tomchilar

(«Jo'nataman quyoshni», 31).

Avvalgi she'rda osmonni birdaniga bulut qoplab, yomg'ir yoqqan bo'lsa, bunisida chaqmoq osmonni o'tkir pichokday parchalab, tilib tashlaydi, bulutlarning ko'zini yoshlaydi. Bu safargi yomg'irning muzdek gavhar tomchilari maysalarning betini yuvadi.

Darhaqiqat, bahor yomg'iri – dur, gavhar. U endigina nish urgan chechaklar, maysalarni yosh qizaloqday cho'miltiradi, yuzlarini yuvib qo'yadi, quloqlariga sirg'a bo'lib qo'nadi, ularga jon baxsh etadi, tabiatning go'zal qiziga aylantiradi.

Bu she'rlarda shoir bahor manzarasiga mohir musavvirday chizgan chizgilaridan

«Bahor tushib kelar tog'dan» she'rida mukammal portret yaratadi:

Qorlar erib,
Tuni bilan,
Yerga yozib
Yashil gilam,
Bahor tushib kelar tog'dan.

Toblanib
Qish ayoziida,
Sinchalakning
Bayozida,
Bahor tushib kelar tog'dan.

Boychechakdan
Chambar boshda,
Ta'zim qilib,
Yurt, quyoshga,
Bahor tushib kelar tog'dan.

Qo'lga olib
Yangroq torin,
Ko'z-ko'z qilib
Iqtidorin,
Bahor tushib kelar tog'dan [T.Adashboyev, 1982: 9].

Bu she'rda tabiatning go'zal kelinchagi – Bahor tom ma'noda jonlantiriladi, u qish ayoziida pishib-yetilib, yerga chechaklardan yashil gilam to'shab, sinchalakning shodon qo'shig'ida, boshiga boychechaklardan chamber taqib, Ona yurtga ta'zim bajo aylab, tog'lardan sallona-sallona tushib keladi.

Darhaqiqat, she'rni o'qigan kitobxon ko'z o'ngida Ona-Vatan go'zalligi uning go'zal qizi – Bahorning betakror go'zalligiga hamohang tarzda bor ko'rku tarovati bilan o'zligini ko'z-ko'z qiladi, kitobxonni o'ziga oshig'u shaydo qiladi. Binobarin, ana shunday betakror, shoir qalb qo'ridan paydo bo'lgan samimiy satrlar beixtiyor yosh kitobxon qalbiga ko'chadi, yosh, beg'ubor qalbiga Ona-Vatan muhabbatining bir umrlik shaydiligini oshno qiladi.

Biroq dala-dashtlar, tog'u qirlar go'zalligi, har faslda o'zgacha tovlanishi shunchaki manzara emas va shoirning bu tasvirlaridan bosh maqsad ham faqat ulardan zavqlanishdangina iborat emas. Ana shu Ona-Vatan – kindik qoni to'kilgan aziz tuproq, uning har bir dov-daraxtini, gulu chechagini avaylab-asrash, ko'rkiga

ko'rk, husniga husn qo'shish ushbu tuproqda yashovchi har bir insonning muqaddas vazifasi. Zero, shu aziz Vatan tuprog'ida yetishgan noz-ne'matlar bizning boyligimiz, to'kinligimiz, to'kisligimiz, to'qligimiz ifodasidir. Binobarin, bu go'zallikning yanada to'kis bo'lishi shu aziz tuproq farzandlarining halol va fidokorona mehnati, peshona teri mahsulidir. Shu sababli ham shoir o'z she'rlarida ana shu go'zallik yaratuvchisi bo'lmish Bobo dehqon mehnatini sharaflaydi, go'zallik, avvalo, mehnat mahsuli ekanligini kuylaydi:

Cho'qqilarga ilindi

Oq bulutlar tug' bo'lib.

Yerga sig'may qor suvi

Ko'kka o'rlar bug' bo'lib.

Musichaga manzil-makon

Tanish bo'g'ot, peshxari.

Bobom tortar o'qariq,

Bar urilgan peshlari.

Momomning fikri-zikri

Jag'jag'u ismaloqda.

Shanbalik qilib kecha

Sinfimiz chiqdi boqqa.

Dov-daraxtni bog'bonlar

Soch soqolin qiyishdi,

Biz oqlagan daraxtlar

Oppoq paypoq kiyishdi [T.Adashboyev, 1985: 4-5].

T.Adashboyev «Shanbalik» she'rida Sho'ro davrida barchaning me'dasiga tegib, ensasini qotiradigan tadbirga aylanib qolgan an'anaviy shanbalik marosimini qalamga oladi va ana shu tadbirdan ham go'zallik izlab topadi. Zero, bahor – tabiatning uyg'onish fasli. Bu holat erigan qorlarning suvi ko'kka bug' bo'lib o'rlayotgani va oq bulutlarga aylanib, cho'qqilarga bayroq (tug') singari ilinib qolayotgani manzarasini chizish bilan ifodalanadi.

Har bir kishi, daladami, uyidami, bir parcha yerini ag'darib, tekislab, nimadir ekish taraddudida. Hatto lirik qahramonning keksa bobosi ham to'ning peshlarini bar urib, o'qariq tortayapti, momosi esa bahorning jag'-jag'u ismaloq kabi ilk ne'matlarini terib, nevaralariga pishirib berish tashvishida kuyib-pishib yuribdi. Ana shunday tashvishlardan yosh bolalar ham chekkada emas. Ularning sinfi shanbalik qilib boqqa chiqqan. Bog'bonlar dov-daraxtlarni butashyapti. Lirik qahramon – bolakay uchun ana shu ish jarayoni ham hayratomuz kashfiyot. Butalgan daraxtlar uning nazdida soch-soqoli olingan odamga aylanadi. Darhaqiqat, soch-soqoli olingan odam yosharib, go'zallashganiday, butalgan daraxtlar ham go'zallashadi. Daraxtlarni

oqlash bilan esa bu go'zallik yanada mukammallashadi, ular endi oppoq paypoq kiygan odamga aylanadi. Binobarin, bu mehnat – yaratuvchilik mehnati. Unda ishtirok etgan bolakaylar ham o'z mehnati samarasini ko'rib, qalbi zavq-shavqqa to'ladi. Ushbu manzara aks ettirilgan, tasvirlangan she'r esa o'z samimiyati, harorati bilan bolakaylar qalbidan o'rin oladi. Demak, bolalar adabiyotimizning haqiqiy namunasiga aylanadi. Shu boisdan ham bunday she'rlar eskirmaydi, har bir davr bolakaylari bu she'rlarni o'qib, undan o'zgacha zavq, o'zgacha surur topadilar.

T.Adashboyev Ona-Vatan tabiatining oshufta kuychisi sifatida o'z she'rlarida bu aziz Vatan tabiatining rango-rang manzaralarini yaratar ekan, shu bilan bir qatorda, ulkan ma'naviy-ma'rifiy vazifani ham bajaradi. Zero, erta-indin ulg'ayib, jazirama issig'u qahraton qishni pisand qilmay, kechani kecha, kunduzni kunduz demay, Vatan sarhadlariga posbonlik qiladigan bo'lg'usi vatanparvar askar yigitlar ham, Vatan tuprog'ini gullab-yashnagan bog'u bo'stonga aylantiruvchi fidokor dehqon ham, xullas, o'z halol mehnatini Ona-Vatan baxt-saodatiga baxshida etadigan barcha kasb egalari bo'lmish insonlar T.Adashboyev singari ijodkorlar asarlarini o'qib, tom ma'nodagi vatanparvarlar bo'lib yetishadilar. Ona Vatan go'zalligini madh etuvchi xuddi ana shunday she'rlar yosh kitobxon qalbini go'zallikka oshno qiladi. Go'zallik tuyg'usi bilan to'liq qalblar esa vayron qiluvchi emas, balki yaratuvchi bo'ladilar.

T.Adashboyevning «Arslonbob afsonasi» to'plamiga so'zboshi yozgan taniqli munaqqid P.Shermuhamedovning quyidagi so'zlari shoir ijodining mohiyatini ochishda o'ziga xos o'rin tutadi: «T.Adashboevning ijodi xususida so'z yuritar ekanman, ikkita muhim nuqtani tilga olib o'tishni istar edim. Birinchisi, shoir she'rlari va dostonlari qat-qatiga singib ketgan fidoyilik tuyg'usi... Biz bu yerda shoirning ijodkor-grajdanin sifatida tutgan ijtimoiy o'rni va tevarak-atrofida ro'y berayotgan voqea va hodisalarga munosabatini ko'zda tutayotirmiz. Ikkinchisi, shoir tuyg'ularining samimiyligi haqida», deydi u [T.Adashboyev, 1988: 3].

Darhaqiqat, T.Adashboyev asarlarining ayni shu jihatlari uning deyarli barcha she'ru dostonlariga ko'rk bag'ishlaydi. Binobarin, u bolalar adabiyoti Vatanning ertasini yaratuvchi avlodni tarbiyalab yetkazishga mas'ul ekanini bir daqiqa ham nazaridan qochirmaydi. Uning yuqorida tilga olingan tabiat manzaralari haqidagi she'rlari ham, hatto farzandlarimizning kundalik mehnat tashvishlariga me'yoridan ortiqroq jalb qilinayotganliklari haqidagi jonkuyarlik mahsuli bo'lmish she'rlarida ham ayni shu – fidoyilik, vatanparvarlik his-tuyg'ulari barq urib turadi. Shu ma'noda ayniqsa, uning Vatanimiz tarixi va tarixiy joylariga bag'ishlangan she'rlari diqqatga sazovordir:

Chorak asr shahri O'shdaman,
Oqburadek oqar yil, oylar,
«Oq saroy»ni asray olmadik,

Qursak hamki ko'rkam uy-joylar [T.Adashboyev, 1988: 13]

deydi shoir «O'sh» she'rida. O'shda yashab o'tgan, kindik qoni to'kilgan, poyqadami tekkan ulug' zotlarni, Ona yurtning tog'-toshlari-yu, daryo-adirlarini, tarixiy joylarini shoir bejiz tilga olmaydi. U:

Do'stim, nahot Baroko'h tog'in

Taqdirimdan ayri ko'rgayman,

Buyuk Habib Abdulla haqqi,

Ruhan undan madad so'rayman,

der ekan, bunda yosh avlodga xitob, ana shunday muborak joylarni ko'z qorachig'iday asrashga murojaat bor. Chunki 1917 yil oktyabridan keyingi yetmish yil ichida necha-necha «Oq saroy»larni eskilik qoldig'i sifatida yakson qilmadik, qanchadan-qancha masjidu madrasalarni omborga aylantirmadik, otabobolarimizning jahon tarixi, ilmi, san'ati, madaniyati va adabiyotiga qo'shgan ulkan hissalarini diniy qoldiq, ijtimoiy tengsizlik ramzi sifatida inkor qilmadik, o'zimizni o'zimiz savodsizga chiqarmadik, axir?! Xuddi shu ma'noda O'sh tog'ida, Baroko'hda tilsimga aylanib yotgan «Uch pahlavon», nortuyadek pishqirib oqayotgan, shaharga alla aytayotgan, o'zbeugu qirg'iz uchun rizq manbai bo'lmish, kek-u adovat bilmas shifobaxsh «Oqbura to'lqinlari» ana shu muborak Ona tuproqning turfa nishonalari, shoir qalbidan yosh kitobxon yuragiga ko'chib o'rnashayotgan, bir umrga singib qoluvchi zarralardir. Yuqorida hur fikr bo'g'ilgan joyda ramzlar, ishoralar kuchayishi, fikr ramzga ko'chishini qayd etgan edik. Bu she'rdan ana shunday ishoraning guvohi bo'lamiz. Zero, «Oq saroy» deganda ko'z oldimizga, avvalo, ulug' shoir va tojdor bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur keladi. Bobur zolim podshoh va bosqinchi sifatida talqin etilgan 80-yillar boshlarida shoir ulug' bobomizga ehtiromini shu birgina ishora orqali tasvirlar ekan, shuning bilan xalqimiz tarixini o'zida aks ettirgan «Oq saroy»day obidalarning ba'zan qarovsizlikdan, ba'zan esa feodal o'tmish ramzi sifatida ataylab vayron qilib yuborilganini ehtiyotkorona qayd etish orqali zamonaga munosabatini ham bildiradi.

«O'zimizning chumoli» [T.Adashboyev, 1988: 81] she'rida oromgohda dam olayotgan nevarasini ko'rgani ona qishloq noz-ne'matlaridan olib kelgan chol va ushbu meva-chevalar orasidan chiqib qolgan chumolini ko'rib, xursandligi olamga sig'mayotgan bolakay hayajonlari tasvirlanadi. Bir qarashda, arzimaganay bo'lib tuyiladigan ushbu tasvirga shoir olamjahon mazmunni jo qila olgan. Zero, meva-chevalarga ilashib kelgan «O'zimizning chumoli»da yurt nafasi, tafti bor va ana shu taft bolakayning qalbini nurga to'ldiradi. Shu ma'noda ushbu she'rning hatto sarlavhasi ham ma'lum ijtimoiy mohiyat kasb etadi, yosh kitobxon qalbida Ona-Vatanning har bir zarrasi, hatto arzimagan qumursqasi ham Vatanning ajralmas bir parchasi sifatida mustahkam o'rin egallashiga zamin hozirlaydi.

T.Adashboyevning o'lkamizning tarixiy joylari va betakror tabiati tasviriga bag'ishlangan she'rlarida Ona-Vatan, kindik qoni to'kilgan muqaddas tuproqqa mehr-muhabbat tuyg'ulari ming yillik qadriyatlarimizga shu qadar samimiyat bilan yo'g'rilganki, bu dilnavoz satrlar yosh kitobxon qalbiga bir o'qishda jo bo'ladi. Zero, adabiyot insonshunoslik bo'lar ekan, ijodkor qaysi mavzuda asar yaratishidan qat'i nazar, uning asari kitobxonni eng yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi kerak. Shu ma'noda, hatto tabiat va yil fasllari ta'rifi bag'ishlangan asarlar mohiyatida ham Ona-Vatanni ulug'lash, sharaflash, vatan go'zalliklarini madh etish hamda kitobxon qalbiga ushbu tuyg'ularni ko'chirish yotishi tabiiy. Binobarin, aslida, tabiat va yil fasllari tasviriga bag'ishlangan bo'lsa-da, mohiyatan vatan va vatanparvarlik mavzulariga chambarchas bog'lanib ketadigan she'rlardagi betakror, kutilmagan o'xshatish va jonlantirishlar, shoir qalb qo'ridan paydo bo'lgan samimiy satrlar beixtiyor yosh kitobxon qalbiga ko'chadi, yosh, beg'ubor qalbiga Ona-Vatan muhabbatining bir umrlik shaydiligini oshno qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Адашбоев Т. Жўнатаман кўёшни. - Тошкент, 1982.
2. Адашбоев Т. Оқбура тўлқинлари. - Тошкент, 1985.
3. Шермухамедов П. Тоза ният / Т.Адашбоев. Арслонбоб афсонаси. - Тошкент, 1988.

АБДУЛЛА ОРИПОВ ТАЛҚИНИДА ИНСОН

Эргаш Очилов,

*Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси
Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти
катта илмий ходими, филология фанлари
номзоди,*

*E-mail: e-ochilov@mail.ru. Тел: +998946204764
(Ўзбекистон)*

***Аннотация.** Мақолада Абдулла Ориповнинг инсон ҳақидаги қарашлари тадрижи ва зиддияти шоир ижодининг турли паллаларида яратган асарлари мисолида кўриб чиқилади.*

***Калим сўзлар:** Абдулла Орипов, ижод, шеър, мавзу, инсон, тасвир, талқин, тадриж.*

Инсоннинг маънавий-ахлоқий камолоти, орзу-армонлари, ўй-фикрлари, туйғу-кечинмалари, қалб тебранишлари – сўз санъатининг асосий тасвир нишони экани маълум. Абдулла Орипов ижодининг асосий мавзулари: ватан, муҳаббат, инсон – қолган ҳамма нарса шуларнинг ичида. Таъбир жоиз бўлса, шоирнинг ватан ва инсон муҳаббати тараннумидан холи шеъри йўқ дейиш мумкин. У аслида:

Мен куйлайдим ушбу оламда

Инсон бўлиб тузилганимни [Орипов А. 2:1,27], –

дея бир олам орзулар оғушида фахру ифтихор билан шеъриятга кириб келган эди.

Абдулла Орипов оламшумул муаммоларни эмас, кўпроқ инсон хилкати, унинг табиати ва ботинини ўрганди. Инсон моҳияти ва табиатини бадий тадқиқ этиш – шоир ижодининг асосий ядроси ҳисобланади. Унинг излагани – олий ҳақиқат, комил инсон, мукамал жамият. Шеърларидан бирида бу ҳақда шундай деб ёзган эди:

Комил инсонларни қўмсарман доим,

Улуг сиймоларга келгай ҳавасим [Орипов А. 3:68].

Бу истак унинг барча шеърларидан қизил ип бўлиб ўтади.

“Бобо дуоси” шеърида эса:

Учратдим авлиё инсонларни ҳам,

Лекин улар оздир, улар жуда кам [Орипов А. 4:8], –

деб ёзади.

Инсон шундай муқаддас хилқатки, унинг улуғлигини эътироф этмагани учун ҳатто Шайтон жаннатдан қувилган:

*Таважжух айлади Тангри таоло,
Муқаддас саналди Инсон деган ном.
Инсонни эътироф этмаган асно
Иблис ҳам қувилди Аршдан батамом [Орипов А. 2:2,203].*

Абдулла Ориповнинг илк шеърларидаёқ ҳаётдан ўзини, жамиятдан ўрнини излаётган инсоннинг ўй-кечинмалари ўз аксини топган эди.

Ижодининг илк даврига мансуб “Юзма-юз” шеърларидаёқ қусурлари учун инсонни мазаммат қилувчи сатрларга дуч келамиз:

*Баъзи одамларни кўрсатиб ҳали
Қийиндир соф инсон, дея атамоқ.
Гарчи инсон зоти бўлолмас пари,
Бироқ ҳали бордир шайтонга ўртоқ [Орипов А. 2:1,62].*

“Фазилат” номли шеърида эса киши меҳнат, тафаккур ва тажриба билан қадр топиб, ҳурматга сазовор бўлади. Айни фазилатлардан мосуво кимса инсон деган муқаддас номга номуносибгина эмас, унинг ҳатто одамлиги гумондир деб аччиқ заҳарханда қилади:

*Меҳнату тафаккур, тажриба боис
Мукаррам бўлгайдир ҳамииша инсон.
Ким бундан мосуво – ҳурмат ножоиз,
Унинг одамлиги аслида гумон [Орипов А. 4:65].*

Абдулла Орипов инсон устида муттасил ўйлайди, уни ҳар жиҳатдан ўрганади: уни гоҳ улуғласа, гоҳ қоралайди, гоҳ эса уни тушунишга ҳаракат қилиб, у билан муроса қилади.

*Афсуски, яхшилар тортади кулфат,
Ёмонлар голибдир, ётар қалашиб.
Йўқдир бундайларда зарра фазилат,
Инсон номин олган улар адашиб [Орипов А. 4:166].*

“Хар қандай дамда ҳам...” номли шеърда инсонни ёзғириш эмас, балки тушуниш кераклигига даъват этади:

*Шундоқ, инсон дили ажиб муаммо,
Койима бундайин ҳолати учун.
Қўлингдан келса гар мадад бер, аммо,
Хар қандай дамда ҳам сен уни тушун [Орипов А. 2:2,63].*

“Жаннатга йўл” достонидаги шоир йигит тилидан эса яхши одамнинг ноёблиги ҳақидаги қарашни илгари суриб, бундай зотга ҳайкал ўрнатиш кераклигини таъкидлайди:

*Хар бир зотга ёдгорлик бор, мен бўлсам, аммо,
Кўяр эдим “Яхши Одам” номли бир ҳайкал.
Сабаб шулким, яхши одам азиздир, ноёб,
Сайёралар тўпи ичра қуёш мисоли [Орипов А. 2:2,355].*

Абдулла Орипов ижодини синчиклаб мутолаа қилсангиз, унинг инсон ҳақидаги қарашлари эволюциясини кузатасиз: дастлаб инсонни беқиёс мухаббат билан севган, унга ихлос қўйган, ишонган, уни камолот авжида кўрмоқчи бўлган, лекин алданиб ҳафсаласи пир бўлган, умидлари саробга айланган шоирда бора-бора бу хилқатга нисбатан шубҳа пайдо бўла бошлайди ва умрининг охирида ҳатто бу олий мавжудотнинг камолотига ишонмай қўяди – уни тарбия билан ҳам тузатиб бўлмаслиги, туғма табиатни ўзгартириш имконсиз эканлигини англаб этади ва ўзинг яратдинг-ку, энди ўзинг уни ҳидоят йўлига бошла деб Худодан унга диёнат ва инсоф сўрай бошлайди. Бу аслида дунёнинг барча тафаккур соҳиблари учун хос бўлиб, инсонга панд-насихат қилиб чарчаган донишмандлар оқибат Худодан бу хилқатга инсоф тилашга ўтишган. Чунки ҳикмат аҳлининг деярли барчаси умри ниҳоясида инсоннинг туғма табиатини ўзгартириб бўлмаслигини афсус ва надомат билан эътироф этишган.

Шоир қатор шеърларида ўзини ҳам ёзғириб, инсон хилқатининг етук ва комил бўлолмаганидан надомат ва армон туйғуларини баён этади. Жумладан, “Йиллар армони” шеърда ўқиймиз:

*Мукаммал кўрмоқчи бўлдик дунёни,
Етук бўлолмадик ўзимиз бироқ [Орипов А. 2:1,279].*

Албатта, қадим ул-айёмдан бани башар комил инсон ва мукаммал жамият учун курашиб яшайди. Лекин, афсуски, бу орзу қўл етмас идеал бўлиб қолмоқда.

Интила-интила охири ҳафсаласи пир бўлиб, ҳаммасига қўл силтаган омадсиз инсон каби дунё донишмандларининг деярли барчаси инсоннинг маънавий-ахлоқий тарбияси учун бир умр курашиб, оқибат бу уринишлари беҳудалигини англаб етган ва аксар хилватга чекинган. Донишмандларнинг кўпчилиги ғорларни макон тутиши, гўшанишинликни ихтиёр этиши бежиз эмас.

Абдулла Ориповнинг ўз ижодининг юксалиш палласида яратган мана бу тўртлиги айна жиҳатдан шоирнинг инсон ҳақидаги қарашларини қаймоғи дейиш мумкин:

*Коинот гултожи инсондир азал,
Ундадир энг олий тафаккур, амал.
Ҳатто у тубанлик ичра ҳам танҳо,
Ё фалак, ижодинг бунча мукаммал [Орипов А. 2:1,279].*

Жалолиддин Румий таъбири билан айтганда: “Одам зиддиятлардан яратилган, унинг софлигига баъзан фаришта ҳавас қилади, баъзан эса унинг тубанлигидан шайтон ҳам ҳайратга тушади!”

“Инсон омили” номли шеърда эса айна тўртликнинг кенгайтирилган изоҳини кўргандай бўламиз:

*Ғалва чиқармоққа сен доим шайсан,
Бурайсан тинч турган бошининг мурватин.
Умринг ўтиб борар, сен-чи яшайсан
Бир шумлик қилишининг пойлаб фурсатин.*

*Не-не закий зотлар сенинг дастингдан
Шайтонга коранда бўлгани ҳам рост.
Сенинг макрингдану сенинг қасдингдан
Кимлардир беажал ўлгани ҳам рост.*

*Улуғ кашфиётлар сеники гарчанд,
Ўзингсан фалакнинг тенгсиз олими.
Бир кун меҳварида замин еса панд
Сабаб бўлмасмисан, инсон омили [Орипов А. 2:6,78–79].*

Маълумки, дунё донишмандлари орасида фикру карашлар муштараклиги ва узвийлиги мавжуд. Жумладан, уларнинг инсон моҳияти ва табиати тўғрисидаги мушоҳада ва хулосалари ҳам бир-бирини ривожлантиради ва тўлдиради, мавзунинг янгидан-янги ва ранг-баранг қирраларини очади. Азалий ва абадий мавзулардан бири бўлмиш инсоннинг туғма табиатини ўзгартириб бўлмаслиги, ҳар қанча тарбия билан ҳам ёмоннинг яхшига айланмаслиги ҳақида фикрлар тадрижида ҳам худди шу ҳолни кўриш мумкин. Жумладан, “Тафсир” шеърисида донишманд шоир алам ва изтироб билан шундай ёзади:

*Тузумлар ўзгарса ҳам,
Инсон ўзгармас экан.
Тизимлар ўзгарса ҳам
Инсон ўзгармас экан.
Жаҳолат даврида ҳам
Авлиё – авлиёдир.
Кафолат даврида ҳам
Анбиё – анбиёдир [Орипов А. 2:8,66].*

Алишер Навоий ўзининг машҳур қитъасида зуваласига инсонийлик уруғи қўшиб қорилмаган кимсаларни ҳар қанча тарбият қилма, барибир одам бўлмайдиган фикрни билдирган эди:

*Нокасу ножинс авлодин киши бўлсун дебон
Чекма меҳнатким, латиф ўлмас касофат олами –
Ким, кучук бирла хўтукка неча қилсанг тарбият,
Ит бўлур, доғи эшак, бўлмастар асло одами [Навоий А. 1:698].*

Дарҳақиқат, одам боласи тарбия туфайли илму ҳунар эгаллаши, баъзи яхши фазилатларга эга бўлиши мумкин, лекин унинг табиатидаги ёвузлик, кин, ҳасад, бахиллик, ғаразгўйлик, тухматчилик, ёлғончилик каби туғма иллатларни дунёнинг жами донишмандлари бир бўлиб тарбияласалар ҳам йўқотолмайдилар. Шунинг учун ҳам Абдулла Орипов “Надомат” шеърисида алам ва изтироб билан ёзади:

*Қирқ йил кўтарибман Инсонни кўкка,
Ишониб, ҳазрат деб, йўлимдан озиб [Орипов А. 3:68].*

“Маломат тошлари” шеърида шундай сатларни ўқиймиз:

*О, буюк мавжудот, ҳазрати инсон,
Сенинг аслинг гаҳи гафлати инсон.
Гаҳи сен баркамол бўлиб кўриндинг,
Гаҳи бечораҳол бўлиб кўриндинг.
Юлдузин бошингдан сочса ҳам само,
Гоҳо ўз қадрингга билмадинг, аммо.
Эзгулик йўлида ҳар битта қадам
Раҳмат муҳри эрур сенга, эй одам!
Олам узра букун кўтармишсан қад,
Унутма, буюксан, буюксан беҳад [Орипов А. 2:1,268].*

Абдулла Орипов дастлаб инсонга ишонди, кейин унинг камолотига шубҳа қила бошлади (“Давр ўтиб, мукамал бўлмади одам” [Орипов А. 4:154], охирида эса мен инсон тарбиясига ожиз эканман, ўзинг унга инсоф бер деб Худога нола қила бошлади.

*Таъна қилмай, ахир, севгим мукофотини
Инсон учун минг оташда куяр эдим мен.
О, қанчалар севар эдим инсон зотини,
Қандай буюк муҳаббат-ла севар эдим мен.
Бугун тўниб, атрофимга қарайман секин,
Ўт беролмас қалбга энди у ёшлик дамлар.
Мен инсонни бир инсондай севардим, лекин
Нечун кўндир ҳалигача разил одамлар.
Қайлардадир ҳамон кезар зулмат тимсоли,
Қайлардадир ҳамон тинмай оқмоқда-ку қон.
Кўзларимга гоҳ кўринар телба мисоли
Мен бир вақтлар сажда қилган ҳазрати инсон.
Қайлардадир фисқу фасод, ҳасад, хусумат,
Инсоният фарзандларин тортмоқда дорга.
Гар бор бўлсанг жавоб бер, эй илоҳий қудрат,
Наҳот гўдак ишончини ёзибсан қорга?! [Орипов А. 2:6,164]*

Инсонга панд-насиҳат қилиб чарчаган Абдулла Орипов ҳам оқибат Худодан бу хилқатга инсоф тилашга ўтган эди. Жумладан, “Ҳасрат” шеърида ўқиймиз:

*Қочган ҳам, қувган ҳам Оллоҳим дейди
Қочган ҳам, қувган ҳам эмасман, дўстим.
Менинг изтиробим шул Инсон эди,
Инсондан ўзгани демасман, дўстим.*

*Инсон-чи, то ҳануз ёвуз ва гаддор,
Бир-бирин тинимсиз тортади чоҳга.
Бундайн қисматга кўникмоқ душвор,
Нетай, ҳасратимни дейман Оллоҳга [Орипов А. 2:8,72].*

Шоирнинг кейинги шеърларида эса Оллоҳ–олам–одам муносабатларининг ўзаро вобасталигидаги бадий талқинларини кўрамиз. Жумладан, “Ажр” номли шеърида Худойи таоло инсонни ҳатто фаришталарга бош бўлиш учун яратгани, у эса иблиснинг макрига учиб, жаннатдан мосуво бўлгани, энди бир умр дунёда қийналиб яшашга маҳкумлиги, лекин ҳар қанча ибодат қилганига қарамай, ҳали комиллик мартабасига етишмагани ҳақида алам ва армон билан ёзади:

*Оллоҳнинг қошида
Бўлсанг ҳам иқрор.
Ажрингни гоҳ узиб,
Узолмагансан.
Кечирмайин, деса –
Ибодатинг бор,
Кечирайин, деса –
Тузалмагансан... [Орипов А. 2:8,32]*

Комил инсон ҳақидаги орзулари армонга айланган шоир умрининг охирида ҳасрат билан шундай ёзган эди:

*Гарчанд улуғ бу башар ҳам шу кунгача номукамал,
Ёвузи бор, лоқайди бор, бор бераҳм, бағритоши.
Инсон зоти комил бўлиб яралмаган экан азал,
Шунинг учун савдоларга маҳкум бўлган шўрлик боши [Орипов А.
2:8,64].*

А.Орипов жамиятни мукамал, инсонни комил қилиб бўлмаслиги ҳақидаги ғоя ва қарашларини “Соҳибқирон” драмасига ҳам Темур мисолида сингдириб кетади.

“Ҳаёт сабоқлари” шеърда эса ҳатто:

*Ҳазрат деб инсонга ўқидим такбир,
Расо бўлсин деб қуйладим жўшиб.
Ҳазратни ҳасрат деб қилдим сўнг таҳрир,
Расога “в” ҳарфин қўйдим-ку қўшиб [Орипов А. 4:6].*

Абдулла Ориповнинг қатор шеърларини “Одамлар” деган ном остида бирлаштириб таҳлил қилиш мумкин. Чунки бу шеърларда одамларнинг турфа феъл-атвори турли томондан очиб берилган.

“Инсон”, “Инсон омили”, “Одамлар”, “Шундай яшар одатда одам”, “Асримиз одами”, “Учқур хаёл соҳиби йигит...”, “Темир одам”, “Номаълум одам”, “Шукрона”, “Инсон қалби”, “Инсон манзараси”, “Учинчи одам”, “Одам болалари”, “Ҳар қандай дамда ҳам...”, “Ёлғиз одам”, “Ғалати зот”, “Инсон ҳурмати”, “Бахтли одам”, “Одамийлик”, “Инсон ғурури”, “Ғалати одамлар”, “Кўзгу парчалари”, “Ҳар қандай дамда ҳам...”, “Арслон ва инсон”, “Илтижо”, “Инсон учун жанг”, “Инсон шарафи”, “Момо”, “Инсон ҳимояси” каби кўплаб шеърлари бунинг ёрқин далили. Шоирнинг ҳатто “Инсон” номли умри давомида битган бир неча шеъри бор. Мисол учун, “Куз хаёллари” шеърда куз манзараларида инсон қалбининг тебранишларини ҳис қилишини ёзади. “Асримиз одами” шеърда инсоннинг бир маҳаллар ўзи банди бўлган олам устидан энди ҳукмрон бўлишга интилаётгани ҳақида ёзади [Орипов А. 2:1,49]. “Одина масжиди” шеъри инсон қиёфасининг турланиб-тусланиши ҳақида [Орипов А. 2:6,51]. “Момо” шеърда инсоннинг ўтмишига бир қарра саёҳат қилади [Орипов А. 3:5] “Оломонга”, “Тўда” [Орипов А. 4:69] каби шеърлари жаҳолат устидан ўқилган айбнома янглиғ жаранглайди. “Намойиш” шеърда эса “Жинсни фарқлай олмай қолган Европа”га бир нишини анчиб ўтиш орқали инсон табиатининг тубанлашишига ишора қилади [Орипов А. 3:84]. “Илтижо” шеърда инсонга бўлган ишончини қайтариб беришини Яратгандан ўтиниб сўрайди [Орипов А. 3:94], “Инсоф” шеърда эса Худодан ёмонга инсоф сўрайди [Орипов А. 2:6,29]. “Инсон” деган тўртлигида эса одамларнинг феъл атворида ўткир кинояни кўрамыз:

*Бировни мақтасанг, ёлгон, дедилар,
Ўзингни мақтасанг, нодон, дедилар.*

*Барчани лутф ила тўрга чиқариб,
Пойгакда ўтирсанг, инсон, дедилар [Орипов А. 3:87].*

“Юзма-юз”. “Авлодларга мактуб”, “Бир танишим ҳақида баллада”, “Маломат тошлари”, “Йиллар армони”, “Одина масжиди”, “Ҳаёт сабоқлари”, “Бобо дуоси”, “Сўров”, “Шеърят”, “Сехрли диёр”, “Қалқон”, “Мувофиқлик”, “Ўтган сабрлар”, “Буюк тарих”, “Ҳасби ҳол”, “Ҳаёл ва ҳаёт”, “Туғилиш”, “Намойиш” каби кўплаб шеърларида ҳам шоирнинг инсон билан боғлиқ теран ҳаётий кузатишлари ва чуқур фалсафий мушоҳадаларига дуч келамиз. Жумладан, “Ўйин” номли шеърда “Яхлит деб билан жами одамни” [Орипов А. 4:33], – деб ёзади. Бу фикр донишманд Саъдийнинг “Одам болалари ибтидода бир гавҳардан бино бўлганлари туфайли яхлит бир вужуд кабидирлар”, – деган фикрига ҳамоҳанг жаранглайди “Сув” ҳажвиясида [Орипов А. 2:1,206] эса табиатни яшнатувчи оби ҳаёт бўлган сувдан одамларнинг баъзида бир-бирларини маҳв этиш учун фойдаланишлари нозик заҳарханда билан тасвирланади.

“Учқур ҳаёл соҳиби йигит...”, “Ҳангома”, “Шарқ ҳикояси”, “Самовий меҳмон, беш донишманд ва фаррош кампир қиссаси”, “Одам ва Шайтон қиссаси”, “Ўрмондаги воқеа”, “Нодонлар ҳақида баллада” каби ҳангома ва ривоятларида одамлараро муносабатларнинг турфа талкинларини кўрамиз. Чунончи, “Учқур ҳаёл соҳиби йигит...” [Орипов А. 2:1,72], “Шарқ ҳикояти” [Орипов А. 2:1,324–326] шеърларида одамларнинг гап-сўзнинг кетидан қувиб яшашлари, ҳар қандай ҳолда ҳам бир-бирларини гап-сўз қилмай туролмасликлари енгил кулги остига олинади. “Ўрмондаги воқеа” шеъри инсон ақлининг ёвузликка хизмат қилиши, бомба яратиш, уни ўрмонга ташлагани, ҳайвонлар эса портламай қолган бу ажал уруғини хидлаб кўриб, еб бўлмайдиган нарса экан деган хулоса билан тарқалганликлари ҳақида ҳикоя қилади ва шеърни:

*Тирикликка шуни қилдингми эҳсон,
Тафаккур соҳиби, муҳтарам Инсон!*

дея, олий мавжудотга таъна билан уни яқунлайди [Орипов А. 3:83]. Зеро, Ёвуз ақл иблис измида бўлади. Ёвуз ақл ўзининг ҳалокати сари боради. Ёвуз ақл ўзи яшаётган дунёни ҳалокатга маҳкум этади.

Абдулла Ориповнинг баъзи шеърлари инсон зотига айбнома каби янграйди. У ҳасад, кибр, тама, нафс, манфаатпарастлик, муттаҳамлик,

лўттибозлик каби инсон табиатидаги қусурларни аёвсиз фош қилади. Жумладан, “Кўзгу парчалари” шеърида шундай ёзади:

*Мени маъзур тутган, мухтарам Инсон,
Сувратинг чизолмай турибман ҳайрон.*

*Бир кун фазиладинг олсам қаламга,
Бир кун қабихлигинг ёйғум оламга [Орипов А. 2:2,60].*

Хусусан, ҳасад ва ҳасадгўйликни фош этиш шоир ижодининг асосий мотивларидан бири ҳисобланади. Илк шеърлари мутолааси унинг ҳали ёшлигидан ҳасад ўқларига нишон бўлганини кўрсатади.

Абдулла Ориповнинг “Номаълум одам” [Орипов А. 2:1,200] деган шеъри бор. Ўзини кўрсатмай, кўнглини билдирмай яшаган бу одам дунё моҳияти ва инсон моҳиятини теран англар эди. У дунёнинг устидан кулиб кетади. Аслида ўша “Номаълум одам” Абдулла Ориповнинг ўзи – у ҳам шеърлари билан олам ва одамнинг устидан роса кулиб кетди.

*Ҳайронлар қоламан бир ҳолга доим,
Зарра улгаймаган гўёки Инсон.
Уни бандам деган бир вақт Худойим,
Афсус, тарк айламиш бандасин иймон [Орипов А. 4:271].*

Бир бутун олганда, Абдулла Орипов ижоди яхлит ҳолда муаззам инсоншунослик китобига ўхшайди.

Бир неча шеърида, достонида эса у инсон учун курашиш керак деган хулосага келади.

*Мен яхшилик тилар эдим Инсониятга,
Ўйлардимки, эзгуликни куйладим фақат.
Лекин афсус, етолмабман қутлуғ ниятга,
Курашмоғим керак экан балки бешафқат [Орипов А. 2:7,49].*

Маълум бўладики, Абдулла Ориповнинг инсон ҳақидаги қарашлари тадрижини ижодининг турли паллаларида яратган бу олий мавжудотнинг фазилат ва иллатлари билан боғлиқ шеърлари ва шеърий сатрлари орқали ҳар томонлама кенг ва чуқур ўрганиш керак. Бошқача айтганда, шоир ижодида инсон мавзуи алоҳида тадқиқот учун мавзуи бўла олади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Навоий А. Наводир уш-шабоб \\ Тўла асарлар тўплами, 10-жилдлик, 2-жилд. – Тошкент, 2011.
2. Орипов А. Танланган асарлар, VIII жилдлик. – Тошкент, 2000–2016.
3. Орипов А. Эверест ва уммон. – Тошкент, 2017.
4. Орипов А. Танланган асарлар. – Тошкент, 2019.

**КЎҚОН АДАБИЙ МУҲИТИ ИЖОДКОРЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ
ЛИРИКА РИВОЖИДАГИ ЎРНИ
(Шухрат Неъмат ижодига чизгилар)**

Саидганиева Гулбахор,
Филология фанлари номзоди, доцент
Олий Мажлис Қонунчилик палатаси,
депутат
90 587 02 07

***Аннотация:** Ушбу мақолада адабиёт тарихидан муҳим ва қатъий ўрин олган Кўқон адабий муҳитининг замонавий давридаги ривож, ўрганилиш зарурати ва унинг бир вакили бўлмиш Шухрат Неъмат ҳаёти ва ижоди ҳақида сўз юритилади. Унинг фаолиятига оид маълумотлар манбашунослик нуқтаи назаридан ўрганилган бўлса, ижод намуналари адабиётшунослик нуқтаи назаридан таҳлилга тортилган.*

***Калит сўзлар:** Кўқон адабий муҳити, Азиз Қаюмов, Шухрат Неъмат, адабий манба, адабий мерос, образ, саъж, мансура, замонавий лирика.*

Сарбадор хитоблар. Кўқон адабий муҳити XVIII асрдан бошлаб XX аср бошларигача юзлаб шоирларни етиштириб бергани илмий адабиётларимизда эътироф этилди, Кўқон адабий муҳити терминини илмий муомалага олиб кирган академик А.Қаюмовнинг қатор илмий ишлари, китоблари орқали бу муҳит, бу адабий марказ шаклланиши, ривож, анъаналари, хусусиятлари ҳақида маълумотга эга бўламиз [Қаюмов А. 7,8,9,10,11,12]. Ҳозирги пайтгача мумтоз давр Кўқон адабий муҳити бўйича кўплаб илмий тадқиқот ишлари амалга оширилди [Бегмурадов И. 1; Джураев М. 3; Жўрабоев О. 4; Зоҳидова Д. 5; Имомназаров М. 6; Қобилова З. 13, 14; Қодирова М. 15; Мадаминов А. 16; Муҳитдинова Н. 17; Турдалиев Л. 20; Ҳусайнова Ф. 21; Эшонова С. 24.]. Шунингдек, XX асрнинг 20-30- йиллари Кўқон матбуоти ва адабиётининг ўрганилиши доирасида ҳам айрим тадқиқот ва манбаларга дуч келамиз [Олимова К. 18; Тожибоев Р. 19.].

Кўқон адабий муҳити илмий атамаси мавжуд экан, унга боғлиқ манбалар фақат ўтган асрлардагина мавжуд бўлган адабий муҳит ҳақидагина бизга маълумот берадилар, деган савол пайдо бўлиши табиий. Мавжуд адабий манбаларни ўрганар эканмиз, ушбу муҳит ҳозирги кунга қадар сақланиб келаётгани, Кўқон адабий марказ сифатида ижодкорлар бешигини тебратаётганини кўрамиз. Ўтган XX аср ва бугунги кунда ҳам гоҳ Ёзувчилар уюшмаси, гоҳ шоир-ёзувчилар йиғинлари, гоҳ Адабиёт музейи, гоҳ тўғараклар, гоҳ кутубхона, гоҳ матбуотни ўзига минбар қилган ҳолда адабий муҳит ривожланиб келмоқда (ушбу масалани бошқа ишларимизда кенг ёритганмиз).

Шундай экан, Қўқон адабий муҳити, XX аср иккинчи ярми ва XXI аср бошларида ҳам етук намояндаларни етиштириб бера олди. Ўзига хос, бетакрор овоз билан адабиёт майдонида ўз ўрнига эга бўлган шоирлар ўқувчилар қалбидан жой ола билди. Бироқ уларнинг ижоди кам адабий тадқиқ этилиб, деярли адабиётшунослик эътибори қаратилмади. Одатда, вилоятларда яшаб ижод қилган, ўз даврида машхур бўлган ижодкорларнинг аксариятига адабиёт тарихидан унутилиб кетиш хавф солади. Шунга кўра, бугун миллий адабиётимизнинг ана шундай дурдоналарини тарих сахнига олиб чиқиш, адабиётга қўшган ҳиссасини эътироф этиш зарурати мавжуддир.

Замонавий Қўқон адабий муҳитининг ёрқин намояндalarидан бири Шухрат Неъмат тахаллуси билан ижод қилган шоир (Умаров Шухратжон Неъматович, 1962 – 1998) нинг адабий мероси ва ҳаётига оид маълумотлар Қўқон шаҳридаги Адабиёт музейи, кутубхоналар ҳамда шахсий архивлардаги манбалар орқали аниқланди [Гўзал бир дунё: Шеърлар. 2: 120; Шухрат Неъмат. 23].

У Қўқон шаҳрига яқин Бувайда туманида 1962 йилнинг 1июнида ўқитувчи оиласида дунёга келган. Шоир 1969-1979 йилларда мактабни аъло баҳога тамомлаб, шу йили Қўқон давлат педагогика институтининг филология факультетига ўқишга қабул қилинди. Ўқишни 1983 йили тамомлаб, ўзи ўқиган 9-ўрта умумтаълим мактабида ўқитувчи бўлиб ишлайди. 1988 йилда эса Қўқон давлат педагогика институтига ўқитувчи бўлиб ишга кирган. Шароит тақозоси билан 1993 йили Бувайда туманидаги Ал-Фарғоний номидаги лицейга ишга ўтган ва умрининг сўнгига қадар шу даргоҳда фаолият олиб борган.

Шоирнинг шеъриятга қизиқишига асосий сабабчи унинг дадаси Отаси Умаров Неъматжон тумандаги 9-умумтаълим мактабида тил ва адабиёт фанидан дарс берарди. Шухратжонга ёшлигидан шеърий ва бадиий китоблар совға қиларди ва шу билан адабиётга ошно бўлишига туртки берганди. Шоир 1987 йили Зомин туманида бўлиб ўтган Ёш ижодкорлар кўрик-танловида иштирок этган ва шеърий китоби нашрга тавсия этилган.

Шухрат Неъмат 1998 йилнинг 25 апрелида бу дунёни эрта тарк этган [22]. Лекин ундан адабий мерос сифатида қолган биргина шеърий тўплам ва қўлёзмалар унинг ижодига ва Қўқон адабий муҳити ривожига қўшган ҳиссасига баҳо беришга етарлидир.

1993 йили Тошкент шаҳридаги “Чўлпон” нашриётида унинг 46 та шеърдан иборат “Овозсиз суҳбат” шеърлар тўплами босилиб чиққан. Шеърлар композицион, шаклий жиҳатдан ва мазмунан ўзига хос. Тўпламдан анъанавий лирик шеърлар билан бир қаторда “Жобиршоҳ ҳақида ривоят”, “Туман”, “Севгим келди шу гулни” каби мансур шеърлар ҳам ўрин олган.

Шеърларнинг аксарияти ватанпарварлик, эрк, озод рух ҳақида битилган. Рухни уйғотувчи, ўзликни англаувчи шеърлар гўё тўпламда мазмунан бир-бирини тўлдирувчи яхлит асардай туюлади. Шоирнинг ижоди ҳақида буюк шоир Рауф Парфи шундай ёзганди: “Шуҳрат Неъмат – шеърый маданиятини кундан-кун ўстираётган, ўз сўзини айта оладиган шоирдир. Унинг ҳаёт ва ўлим, Ватан ва миллат ҳақидаги қарашлари табиий, теран. Биз заминсиз дард ва севинчларни ифода этган шеърларни кўп ўқиганмиз. Шуҳрат Неъмат шеърларида замин дарди ва қувончлари самимий: муҳими – ишонч тарозусида тортилган” [Шуҳрат Неъмат. 23: 40].

Тўпламдаги шеърларда фалсафий рух, ижтимоий масалаларга фаол муносабат, руҳий-ботиний қудрат сезилади. Уларнинг барчасини умумлаштириб, бир яхлит организмдай тутиб турган жиҳати ҳам шудир. Китобга шеърлар жуда саралаб олингани сезилади. Тўплам “Дарахт, покланиш” номли шеър билан бошланади. Дарахт образи ҳаёт зарбаларига қасдма-қасд бораётган, бундан эса фақат юксалиб бораётган киши тимсолига уйғунлашади: “Бирдан ўсиб кетди бу дарахт Шамолларга қасдма-қасд туриб”. “Шамоллар унинг борини олган”, йиллар тўзонию ёғдирган азоблари шохларини қайирган. Лекин бунга қасдма-қасд борган дарахт пишган, энди мағрурлашган, чайир, қаддини ҳеч нарса эголмаган. Бутун борлиғи бардошдан яралган. Бу образ кўз олдимизда иродаси чиниққан, метин бардошли инсонни гавдалантиради. Кейинги шеърлар ҳам ушбу биринчи шеър руҳига ҳамоҳанг. Метин бардошли, иродаси синмас инсон дарди замин ва замон дардидир. Бу мавзулар кейинги асарларда мукамаллашиб боради. “Болаликни кўмсаш”, “Қиш”, “Собитлик” каби шеърлар руҳи шунга уйғун.

“Жобиршоҳ ҳақида ривоят” туркум мансур шеърлари замонавий ўзбек шеърлятида янги ҳодиса дейиш мумкин. Маълумки, ўзбек адабиёти тарихида Алишер Навоий ижодида наср жанри саъж усули билан ёзилган. Шуҳрат Неъмат мансуралари бир қарашда ана шу саъжларга ўхшаб кетади, яъни қофияли насрни эслатади. Уларда баён этилган воқелик ҳам наср каби сюжетлилик, воқеабандликка қурилган. Лекин диққат қилинса, сатрларга бўлиб ёзилмай, наср кўринишида ёзилгани билан, сатрларнинг шеърый асар каби қофия ва мисралар тенглиги, бўғинлар тенглиги қоидаларига бўйсунганлиги маълум бўлади. Масалан: “Соғиниб келдим ғоят, ривоятим, ривоят. Боболардан мероссан – ҳақдан сўйла ҳикоят. Сен қорани оқ дема, саҳроларни боғ дема. Рост сўзламас қаламни дилларга ҳамроҳ дема. Ҳақ қалам хонларга тенг, пок сўзи тонгларга тенг. Сиёҳи ҳақ йўлинда тўкилган қонларга тенг” [Шуҳрат Неъмат. 23:7-9] Бу сатрларни мисраларга ажратиб чиқсангиз, ўзбек замонавий лирикасида жуда кам учрайдиган 7+7 лик вазнда ёзилганлиги маълум бўлади:

Со-ғи-ниб кел-дим ғо-ят, (7) / ри-во-я-тим, ри-во-ят. (7)//

Бу ритм 7 қисмдан иборат мансуранинг охиригача давом этади.

Асарнинг ҳар бир қисмида такрорланиб келган оқиллар тилидан айтилувчи “Сўзимиз – гуноҳимиз!” ҳамда маддоҳлар тилидан айтилувчи “Омон бўлсин шоҳимиз!” сўзлари асар ғоявий мазмунини юзага чиқаришда асосий ўрин тутди. Маддоҳлик, манқуртлик иллатлари қаттиқ қораланади. Шоир ижодида мансур шеърларнинг бошқа мавзу ва кўринишдагилари ҳам учрайди.

“Яшил дала” шеърда қўлланган метафоралар шеър ғоясини очишда жуда қўл келган. Охириги банддаги

Яшил дала – моҳиридан

Жобирлари иш билгич:

Ўлаётган ер устида

Ғўза барги елпиғич... [Шухрат Неъмат. 23: 10]

мисралари бутун бир тарихни ҳикоя қилиш қудратига эга. Ерга нисбатан бешафқат муносабатда бўлиш, пахта яккаҳоқимлиги даврида сунъий ўғитларга тўлиб, жони чиққунча ундан фойдаланиш оқибатида ер унумдорлиги пасайиб кетар эди. Шоир шуни образли таърифлайди. Яъни ўлаётган ернинг ҳолати нафас етмай, елпишга муҳтож ҳолатда экани айтилади. У ўлгунича ғўзага хизмат қилган, унга елпиғич эса ғўза баргидир. Умуман, дала, ер мавзусига шоир ижодида бот-бот қайтилади. “Ер билан овозсиз суҳбат” туркуми ҳам шу жумладандир.

Шеъринг тўпламининг охиридан ўрин олган “Сарбадорлар” шеъри бутун тўпламдаги шеърлар руҳини бирлаштиради, лирик қаҳрамоннинг исёнкор, курашчан руҳини тўлиқ ифода этади. Шеърдаги баҳор тимсоли озодлик, хурлик, мустақиллик тимсоли бўлиб келади. Бу баҳор эса фидойиларни чорлайверади. Лирик қаҳрамоннинг хитобларида қуйидаги сўзлар янграйди:

Баҳор ишқи бизни ухлатмас,

Майли, унга фидо бўлса жон!

Биз бормасак, элда тонг отмас,

Биз бормасак, ўлади осмон... [Шухрат Неъмат. 23: 36]

Шеър давомида қаҳрамон ўзининг кетишини, қайтмаслигини ҳам башорат қилади. Бу эса умр шамъи эрта сўнган шоир ҳаётининг шеъринг инъикосига ўхшаб туюлади. Бу қисқа умр давомида элни уйғотишга, фидойиларни чорлашга бутун салоҳияти, истеъдодини сарф этган шоир шеърининг охириги мисраларида “Кейин ўзин кечирармикин Биз кетгунча уйғонмаган эл?!” [Шухрат Неъмат. 23:36] дея хитобий сўроқ қўяди.

Сарбадорлик руҳида ёзилган шеър, умуман, тўпламдаги барча шеърлар она ватанга фидолик руҳи истиклолгача бўлган давр ўзбек шеърляти вакилларининг шеърляти руҳига уйкаш келади.

Шоир сиз билан овозсиз суҳбат куради. Зеро, бундай шеърлар куйсиз куй каби, овозсиз кўшиқ каби дилда жаранглайди, жаранглайверади, сиз билан суҳбатлашаверади. Шоир руҳи фидоликка чорлайверади. Зеро, унинг бир шеърда айтилганидек:

Рухим, гувран, сен бир зиёсан –
Оғриқ кўзин очсин Осиё!
Кўркма, ўзинг яхлит дунёсан –
Нима бўпти сенга бу дунё! [Шухрат Неъмат. 23:35]

Умуман олганда, Шухрат Неъмат шеърлари кам сонли бўлгани билан ўз даврининг овози бўла олди. Кўкон адабий муҳити ва ўзбек шеърлятининг ривожига ҳисса бўлиб кўшилди. Чунки унинг кўллаган ташбеҳлари, ўзига хос бадий усуллари, ўзигагина хос бўлган овози замонавий лирикани бойитди, ёш шоирларга алоҳида мактаб боскичи бўла олди. Шухрат Неъмат асарлари ҳақиқий адабий-назарий тадқиқини кутиб турибди.

Айтиш мумкинки, XX аср иккинчи ярми ва XXI аср бошларида шундай ижодкорлари билан Кўконда адабиёт ривожланишда давом этган ва бугунги кунда ҳам шу адабий муҳит сақланиб келмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Бегмурадов Ибраҳим. Узбекского-казахские фольклорные связи. Автореф.дисс.канд.наук. – Ташкент, 1990. – 21 с.
2. Гўзал бир дунё: Шеърлар. – Тошкент: Ёзувчи, 1994. – 192 б.
3. Джураев Муҳаммадризо Мамурович. Ёрмуҳаммад Ёрий ва унинг адабий мероси. – Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.автореф. – Фарғона, 2021. – 62 б.ва б.
4. Жўрабоев Отабек Р. Ҳазиний Хўқандий ҳаёти ва ижодий мероси. - Филол.фан ном.дисс. – Тошкент, 2003. – 163 б.;
5. Зоҳидова Дурдона Лутфуллаевна. Ғарибий ва унинг девони: Филол.фан.ном.дисс...автореф. – Тошкент, 2006. – 22 б.;
6. Имомназаров М. Академик Азизхон Қаюмов мактаби. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – 190 б.
7. Қаюмов А. Асарлар. VII жилд, 1-китоб. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2010. – 280 б.
8. Қаюмов А. Асарлар. VII жилд, 2-китоб. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2012. – 252 б.
9. Қаюмов А. Кўкон адабий муҳити. – Тошкент: Фан, 1961. – 360 б.
10. Қаюмов А. Назм ва тафаккур куёши. – Тошкент: Фан, 1992. – 48 б.
11. Қаюмов А. Фанлар академиясида. Хотиралар. – Тошкент: 2007. – 130 б.

12. Қаюмов Л. Хотиралар. – Тошкент: Фафур Гулом, 2005. – 72 б.
13. Қобилова Зебо Бакировна. Амирий ва унинг адабий фаолияти: Филол.фан ном.дисс. автореф. - Тошкент, 2007.
14. Қобилова Зебохон Бакировна. Бадиий ижодда таъсир ва издошлик масалалари (Амирий шеърияти мисолида): Филол.фан.док.дисс. автореф. – Фарғона, 2021.
15. Қодирова Муҳайёхон Солиевна. Иброҳим Даврон ва унинг адабий мероси: Филол.фан ном.дисс. – Тошкент, 2005. – 156 б.
16. Мадаминов Ахмед. Узлат и его лирическое наследие. Автореф.дисс.канд.наук. – Самарканд, 1971. – 34 с.
17. Муҳитдинова Назмия Муслихиддиновна. Мирҳасан Садойи ва унинг адабий мероси (шеърият поэтикаси, ғоявий-бадиий таҳлил масалалари): филол.фан.бўйича фалсафа док.дисс. – Самарканд, 2017.
18. Олимова Коммуна. “Ўзбек совет адабиёти тараққиёти илк даврининг баъзи хусусиятлари” (“Янги Фарғона” газетаси материаллари асосида). Қўлёзма манба. – 162б.
19. Тожибоев Рустамжон Қодирович. XX аср бошлари ўзбек адабий танқиди тарихидан: Филол. фан ном.дисс. – Тошкент, 1993. – 160 б.
20. Турдалиев Латиф. Маҳмуд Ҳаким Яйфоний адабий ва илмий меросининг манбалари: Филол.фан.ном.дисс. – Тошкент, 1997. – 140б.;
21. Ҳусаинова Фотима. Демократ шоира Анбар отин. Филол.фан ном.дисс. – Тошкент, 1966. – 144 б.
22. Шоирнинг ҳаёти ва ижодий фаолияти ҳақида маълумотларга унинг ўғли ва ҳамкасбларининг хотиралари асос бўлди (@nematov6373).
23. Шухрат Неъмат. Овозсиз суҳбат: Шеърлар. – Тошкент: Чўлпон, 1993. – 40б.
24. Эшонова Салима Нишонбек қизи. XX аср бошларидаги Кўқон шоирлари (Нисо ва Хоний). Филол.фан ном.дисс. – Тошкент, 2006 – 145 б.

ESSEDA ADABIY MUAMMOLARNING BADIY-PUBLITSISTIK TALQINI

Kurbanova Saida Bekchanovna,
filologiya fanlari nomzodi,
Urganch davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston xalq shoiri Shukrulloning "Javohirlar sandig'i" (Toshkent, 1977) esselarida talqin etilgan adabiy muammolarning o'ziga xos esseistik uslubi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: esse, Shukrullo, ijodkor laboratoriyasi, ilhom, shoir va she'r, badiiy asar biografiyasi.

Abstract: This article analyzes the unique essayistic style of the literary problems interpreted in the essays of the People's Poet of Uzbekistan Shukrullo "Javohirlar sandig'i" (Tashkent, 1977).

Key words: essay, Shukrullo, creator's laboratory, inspiration, poet and poem, biography of a work of art.

O'zbekiston xalq shoiri Shukrullo ijodida 1977-yilda nashrdan chiqqan "Javohirlar sandig'i" esselar to'plami alohida ahamiyatga ega. Mazkur kitob "Daryoga tashlangan yakkacho'pda o'tish oldidagi o'ylar", "Safarning xosiyati", "Xazinaga kirib qolgan haqida", "Uyimdagi suhbatlar va ustoz haqida", "Nurdan rang ajratuvchilar", "...Qor ham yonar ekan", "Ko'rinmaganni ko'rish, aytilmaganni eshitish haqida" nomli yettita hikoyadan tashkil topgan. Shukrullo esselari o'sha paytdayoq adabiyotshunoslar nazariga tushib, ijobiy baholandi. Asarning o'ziga xos badiiy-publitsistik uslubi, samimiy, ravon va erkin bayon uslubi kitobxonni maftun etadi. Shukrullo "Javohirlar sandig'i" esselarini shu tariqa yozish uchun uzoq o'ylanganini, izlanganini, uslub, yo'l qidirganini kitobning ilk hikoyasidayoq aytib o'tgan.

Muhimi, Shukrulloning "Javohirlar sandig'i" asari o'sha davrda yaratilgan

P.Qodirovning "Adabiy o'ylar", Asqad Muxtorning "Yosh do'stlarimga" nomli esseistik to'plamlari qatorida o'z o'rni va bahosiga ega bo'ldi. Muallif bu esselar kitobida Shukrullo qanday qilib shoir bo'lgani, shoirlikdan dramaturgiyaga qanday o'tgani, prozada erkin yoza olmay mulzam bo'lgani, otasi, onasi, ba'zi asalarining, she'rlarining ijodiy biografiyasi, ijodkor laboratoriyasiga daxldor ilhom, ijod mashaqqati, she'r va shoir, shoir va davr, shoir va hayot, shoir va jamiyat, ustozlari (G'.G'ulom haqida) va zamondoshlari, mahalladoshlari orasida shoir xotirasida butun umrga muhrlanib qolgan xarakterli insonlar haqida nihoyatda maroqli esselar yozgan.

Ilhom juda ko'plab ijodkorlar tomonidan turlicha ta'riflangan. Bu ta'riflar orasida Shukrulloning ham o'ziga yarasha ta'rifi va tavsifi bor. Uni o'qib ko'ramiz: "Ilhom hamisha ham kelaveradigan narsa emas. Ba'zan xayolingdan qandaydir fikr yilt etib o'tadi, zavq bilan qo'lingga qalam va qog'oz olib yozishga tutinisan, ammo

oqibatda uyqusiz tunlar bekor ketib, ko'ngildagidek narsa chiqmay qoladi. Demak, bu haqiqiy ilhom emas, ilhomning sharpasi. Haqiqiy ilhom – bu shoir o'zi haqiqatan ham sevgan, bir necha vaqtdan beri qalbiga cho'kib, unda yetilayotgan fikrlarning biron sabab bilan hayotdagi voqealarga to'qnash paytida paydo bo'lgan alanga!

Ilhom qalangan o'tin emas, menimcha, bir necha vaqtdan beri qizishib, bir shamol yelpishi bilan gurullab yongan olov"¹. Demak, shoir nazdida "Ilhom – gurullab yongan olov"dir, shu bilan birga, ilhom ham haqiqiy va soxta bo'ladi, deb tushuntiradi, muallif.

Esseist yozish va ijod qilish mashaqqatining naqadar og'irligini quyidagi obrazli ifodalar orqali ta'riflaydi: "Qo'lga qalam ushlab, asar yozaman, degan bilan asar yozilavermas ekan. Qalamni birinchi sinf talabasi ham, ulug' Navoiy ham tutgan. Gap bu qalamda nima va qanday yoza olishda. Qo'limga qalam oldim-u gapni nimadan boshlashimni bilmay gangiy boshladim. Marjonlarini oldiga to'kib, ip o'tkazishga hayron bo'lgan ko'zi ojiz kampirdek fikrlarimni bir tizimga terishim mushkul bo'ldi"².

Shukrullo she'riyat yo'lidan adabiyot maydoniga kirib keldi. Shuning uchun ijodkor she'riyatni dorboz qo'lidagi langar cho'p misoli o'zining langar cho'pi deb hisoblaydi. Masalan: "Har qanday usta dorboz ham langar cho'psiz dorda qadam tashlay olmaydi. Uni chig'irirlardan-chig'iriqqa yo'rg'alatib, salomat olib chiquvchi uning qo'lidagi langari! Katta daryoga tashlangan yakkacho'p ustidan o'tar chog'larimda, avvalo, ustozlar ruhi qalbiga madad bo'lsa, ko'kragimga yaqin tutib, ikki qo'limda ushlagan langar cho'pim sen bo'lasan, she'rlarim!"³.

Shukrullo xalqni "xazina" deb biladi. Kimki nimani orzu qilsa, shu xazinadan foydalanishi kerak, deb hisoblaydi. Darhaqiqat, ijodkor xalq hayotini, qalbini, dard-iztiroblarini chuqur bilmas ekan, xalqqa yaqinlashmas ekan, u chinakam ma'noda ijodkor bo'lib yetisha olmaydi. Shuning uchun essenavis ana shu falsafani obrazli tilda shunday ta'riflaydi: "Xalq – bu cheksiz xazina. Kim nimani orzu qilsa, orzusini shu xazinadan topishi mumkin. Baxt ham, mangulik ham, yuksak martaba, shon-shuhrat ham shu xazinada. Ammo bu xazinaning kaliti xalqning qalbini topa bilishda, unga munosib ish qilishda. Odamlarning kasb-kori, erkak-ayolligidan qat'i nazar, har bir kishi o'zining betama qilgan mehnati bilangina bu xazinaning kalitini qo'lga olishi va murodiga yetishi mumkin"⁴.

Bir so'z bilan aytganda, Shukrulloning "Javohirlar sandig'i" esselar kitobi yozuvchining ijod sirlarini qanday o'rgangani haqidagi hayotiy tajribalari, hissiy

¹ Шукрулло. Жавохирлар сандиги. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. – Б. 34.

² Шукрулло. Жавохирлар сандиги. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. – Б. 14.

³ O'sha joyda.

⁴ O'sha asar. – B. 54.

kechinmalari asosiga qurilgan go'zal asardir. Ijodkor shoirlikni – “nisholda”ga o'xshatib, shunday yozadi: “ Shoirlik, bu – nisholdaga o'xshaydi. Nisholda qilish uchun, avvalo, tuxumning oqini mis qozonga solib, chilcho'p bilan rosa chilpiysan. Unga yetmak quyasan, to'rtta tuxum bir qozon ko'pik bo'ladi (Shoirlar ham ba'zan o'zidan qo'shib ko'pirtirma bo'lmaydi). Undan keyin ustiga tobiga kelgan qiyomni quyib, yana chilpiysan. Chilpishdan erinsang, birpasda yetmaga pastga cho'kib, ko'pigi tepaga chiqib, bemaza bo'ladi-qo'yadi.

Shunga o'xshash shoirlar uchun ham ilm ham, ilhom ham, hayotni bilish ham – hammasi kerak. Bittasi kam bo'lsa, yozgan asari yetmaga ajralib qolgan nisholdadek bemaza bo'ladi”⁵.

“Javohirlar sandig'i”ning ba'zi bir sahifalarida Shukrullo asarlarining badiiy biografiyasi, ijodiy tarixi ham hikoya etilgan. Masalan, asarda “Ona”, “Bedana” she'rlarining ijodiy tarixi bayon etilgan. Bu she'rlarning yaratilishiga hayotiy voqealar, ijodkor o'z ko'zi bilan ko'rgan, suhbatlashgan kishilar turtki bergani bayon etilgan. Masalan, “Bedana” she'ring yaratilishiga mahalladoshi turtki bergani, hatto she'r gazetada chop etilgach, shu kishi shoirdan qattiq xafa bo'lib qolgani shunday hikoya etiladi: “Shu oshnamning bedana urishtirishi, menga bergan savollari sababchi bo'lib, “o'g'irlab yozamanmi yoki o'zim yozamanmi, bir bilib qo'ysin” degan xayol bilan “Bedana” degan she'r yozib, gazetada chiqartirdim. She'r chiqdi-yu, baloga qoldim. Bu she'ring bosilib chiqqanini kimdandir eshitganmi yoki birovga o'qitib ko'rganmi, mendan xafa bo'libdi. Mahalladagilardan biriga:

– Hali qarab tursin! Har kelganida oldiga choy quyib, ko'ngli tortganida aroq tutardim, endi meni ko'pchilikning oldida izza qilmoqchi bo'pti-da, – deb qattiq jahli chiqib, gapirgani qulog'imga chalinib qoldi”⁶.

“Bedana” she'ri satirik mohiyatga ega bo'lib, shu she'rga prototip bo'lgan kishi salbiy obraz darajasiga ko'tarilgan. Asli sartarosh, qamalib chiqqan, yagona sevgani, ermaga “bedana” bo'lib qolgan “bedanavoz” mahalladoshi Shukrulloning satirik she'rini o'qib, undan qattiq ranjiydi. Ana shu she'ring yaratilish tarixi, she'rga hayotiy asos bo'lgan mahalladosh kishi obrazi va unga satirik she'ring ta'siri mazkur esseda ochib berilgan.

Shukrullo ijodkor uchun “iste'dod” juda muhimligini ta'kidlab, shunday yozadi: “Eshitgan odamlar, shoir-ku, lekin talanti yo'qroq, deyishadi. Buning sababi nimada? Buning siri shundaki, shoir qo'lga qalam olishdan oldin nima haqida

⁵ Шукрулло. Жавоҳирлар сандиги. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. – Б. 92.

⁶ O'sha asar. – B. 99.

yo'zmoqchi, aytmoqchi bo'lgan gaplari xalqning ko'ngliga to'g'ri keladimi, yo'qmi, shuni yaxshi bilishi kerak. Ana shu to'g'ri tushuna bilish talant deb atalsa kerak"⁷.

Muallif ijodiy mahoratning shakllanishi uchun qattiq mehnat qilish kerakligini bot-bot uqtiradi. Masalan, Shukrullo Maqsud Shayxzoda bilan suhbat va gurunqlarini bayon etish jarayonida shunday yozadi: " – She'r yoza boshlabsizmi, shuning o'zi shoirlik! – dedilar u kishi. – Demak, sizda tug'ma talant bor ekan, buni kamolotga yetkazish uchun mahorat kerak. Mahoratning onasi mashq.

– She'r yozmagan, mashq qilmagan kunim yo'q. Ammo o'ndan biri bosiladi. Qolganlari ma'qul bo'lmayapti"⁸.

Shukrullo yaxshi shoir bo'lish uchun faqat iste'dodning o'zi kamlik qilishini, balki katta mehnat talab etilishini alohida urg'ulab ko'rsatadi.

Xulosa shuki, Shukrullo ijodida alohida o'rin tutuvchi "Javohirlar sandig'i" esselari ijodkor laboratoriyasi o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa, ijod tabiati, shoirlik, iste'dod, ijodiy mehnat, ilhom, hayotiy kuzatuv, tug'ma iste'dod kabi ijodkor laboratoriyasini ochib beruvchi qator adabiy masalalar haqida nihoyatda nuktadonlik bilan yozilgan falsafiy talqinlar Shukrullo esseistikasining asosini tashkil etadi. Shukrulloning "Javohirlar sandig'i" esselarida o'rtaga tashlangan muhim adabiy muammolarni o'rganish va tadqiq etish bugungi adabiyotshunosligimizning muhim masalalaridan biridir.

⁷ Шукрулло. Жавоҳирлар сандиги. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. – Б. 94.

⁸ O'sha asar. – B. 93.

ASQAR MAHKAM SHE'RIYATIDA RAMZIY-MAJOZIY OBRAZLAR TAQINI

Djumaniyazova Nasiba,
Urganch davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada shoir Asqar Mahkam she'rlarida majoziy obrazlar tadqiq qilingan. She'rlari tahlili orqali timsolli tafakkur tasviri ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Ramzlar, adabiy shakllar, ifoda uslublari, milliy ruh, majoziy obrazlilik, poetik ijod, lirik janrlar.

Majoziy-ramziy obrazlilik va falsafiy mushohadakorlik bugungi she'riyatning tub xususiyatlaridan biridir. Timsollarga asoslangan poetik idrok va ifoda she'rni falsafiy, ibratli umumlashmalar bilan ma'no salmog'i va originalligini oshirishdan tashqari hissiy ta'siri, go'zalligi va uslubiy ravonligiga ham imkon bermoqda. Bu jarayonda fikr va tuyg'u, tafakkur va kechinma uyg'unligi tobora yorqin namoyon bo'lmoqda. Bugungi she'riyatimizda jahon badiiy tafakkuri ilg'or tajribalari bilan sintezlashuv hodisasi yuz bermoqda. Natijada poeziyamiz o'z zaminidan uzilmagan holda o'zgacha tafakkur tarzi, adabiy shakllar, ifoda uslublari milliy ruh va mazmun bilan omuxta qilgan holda qabul qilmoqda. Bu uning uzluksiz izlanish va yangilanish tamoyiliga asoslangan badiiy tafakkur, jumladan, poetik ijod tabiatining muhim xossasidir. XX asr o'zbek she'riyatida shakllangan poetik obraz talqinida hozirgi kunda sxematik, bir xillikdan voz kechilib, uni jonli xilqat, musbat va manfiy jihatlari bilan xolis va ishonarli tasvirlash mustahkamlanmoqda. Ya'ni "real voqelik faktlari faqatgina o'ziga xos belgi-xususiyatlari bilan emas, balki ijodkorning estetik idealiga xos atributlar bilan boyitilgan, muayyan darajada o'zgartirilgan, qaytadan idrok etilgan holda aks etgandagina badiiy obraz vujudga kelishi"¹ tamoyiliga amal qilinmoqda.

Adabiyotshunos N.Rahimjonov o'zining "Mustaqillik davri o'zbek she'riyati" monografiyasida bugungi lirikamizning surat (shakl) va siyratdagi (mazmun) etakchi tamoyillarini, an'anaviy va zamonaviy yo'nalishlarga mansub shoirlarning lirik va epik she'riyatning turli mavzu va ko'rinishdagi namunalari asosida keng tahlil qiladi va shaxsning ma'naviy-ruhiy olamini qamrovli badiiy kashf etish, falsafiy-intellektual teranlik, ramziy-majoziy obrazlilik hamda an'anaviy lirik janrlarning yangi mazmun bilan boyishi kabi xususiyatlari talqiniga alohida urg'u beradi va yozadi: "Bugungi poetik jarayon yuzasidan olib borilgan muayyan kuzatishlarga tayanib, quyidagilarni aytish mumkin. Birinchidan, hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirish she'riyatimiz taraqqiyotining barcha davrlari uchun ham bosh xususiyat bo'lib kelgan. Unga erishish yo'llari ko'p, usullari nihoyatda xilma-xil. Xususan,

¹ Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004. – Б.64.

majoziy, timsolli obrazlilik haq soʻzni aytishning, voqelikni ramzlar vositasida realistik idrok etishning shakllaridan biri. Bugungi falsafiy lirikamizda hayot va oʻlim, tiriklikning mazmun – mohiyati, zamonga munosib yashash maʼnosi, ezgulik va zulm-zalolat, ishq-muhabbat, sadoqat va xiyonat, riyo va h.k. boqiy masalalar teran tadqiq etilmoqda. Bogʻ, Daraxt, Yoʻl, Oftob, Tong, Nur, Shamol, Suv, Tuproq, Kuy va h.k. ramzli obrazlarning maʼno teranligi, kengligi shoirlar badiiy dunyosining nechogʻlik boyligidan, goʻzal hissiy tafakkur miqyoslaridan darak beradi.”²

Shoir Asqar Mahkam sheʼriyatida ham obrazlar majoziy talqin qirralarini namoyon qiladi. Uning soʻz qoʻllashdagi mahorati har bir soʻz mazmunidan kelib chiqib obraz darajasiga koʻtariladi. Badiiylik tamoyillariga asosan shoir obraz yaratadi.

Landavur tun sudraladi tek
Oy-koʻzlari jiqqa yosh koʻppak.
Qirq yil gʻorda yotgan ilondek
Oyogʻimni yutadi toʻshak³.

Shoir sheʼrida tun, oy, toʻshak kabi majoziy obrazlar orqali lirik qahramon ichki dunyosidagi talotoʻmlarni tasvirlaydi. Tun obraziga landavurlik sifatini yuklatilishi ham yangicha maʼno yukini aks ettirgan. Chunki tun koʻpincha azob-uqubat, gʻam-qaygʻu, mayuslik kabi maʼnolarni anglatib keladi. Bu sheʼrda esa shoir tunning landavurlik bilan sudralib yurishini lirik qahramon ruhiyatidagi mahzunlik bilan birga, umidsizlikni ham tasvirlagan deyish mumkin. Oy esa jiqqa koʻzi yoshga toʻlgan koʻppakka oʻxshatilishi bilan yana bir maʼno qirradi namoyon boʻladi. Chunki oy goʻzallik timsoli, bu sheʼrda esa undagi sarson-sargardonlik va gʻamni koʻzlarida aks ettirgan koʻppak misolida oʻziga xos mazmun ifodalangan. Bu satrlarda lirik qahramonning toʻshakka mixlangan oy va tun mahzunligini qalbdan his qilgan, bedor va mungli manzarasi namoyon boʻladi. Zero, sheʼriyatda har qanday fikr shoir subʼektining ehtirosi, shaxsiy kayfiyat-sajiyasi, muayyan ruhiy kechinmasi sifatida tugʻilgan obraz yoxud mulohaza tufayligina badiiy topilmaga aylanadi. Bunga ijodkorning olam va odam, ezgulik va yovuzlik, umuman, hayot haqiqati haqidagi falsafiy qarashlarga salmoqli maʼno, betakror shakl va umumlashgan xulosa kasb etgan holda qoʻshiladi.

Ey teraklar
Sining ertaroq!..
Shovillaysiz buncha kim uchun...
Tipirchilar nega bu yaproq
YUzi koʻm-koʻk ust boshi yupun...

² Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.64-65.

³ Asqar Mahkam. Vahdat kuyi. – Toshkent: “Nurafshon business”, 2021. – B.62.

Ey daryolar
 quring ertaroq!..
 Hovliqasiz buncha kim uchun...
 Murda bosgan dasht kabi toshloq
 Daryolarning mozori bo'lg'in!..⁴

Shoir yuqoridagi she'rida tabiat tasviri orqali majoziy ma'no imkoniyatlarini kengaytiradi. Terak, yaproq, daryo poetik obrazlari orqali shu g'oyaviy maqsadini ilgari suradi.

Daraxtlar she'riyatda ko'pincha odam ma'nosini anglatadi. Umri besamar ketayotgan insonlar timsoli terak obrazi orqali ifodalangan. Daryo obrazi orqali ham umr o'tkinchiligi, hayot bevafoqligi mazmunini ko'rishimiz mumkin. Bu she'rda shoir kinoya ma'nosini ham obraz qatiga sindirib yuboradi. Va obraz ma'nosini kengaytiradi.

Spoir ijodida ramziy-majoziy obrazlarni ko'p uchratamiz. Bunday obrazlarga lirik qahramon ichki tuyg'ulari va tabiat hodisalari aks ettirilgan obrazlarni ko'rishimiz mumkin. Ularni qo'llashdan asosiy maqsad, shoir o'z ijodiy niyatini obrazlar vositasida ifodalashidir. Buning uchun u mumtoz adabiyotda qo'llangan timsollardan unumli foydalangan holda o'zi ham original mazmunni ifodalashga xizmat qiladigan poetik obrazlar yaratadi. Darhaqiqat, qaysi yo'nalishdaligidan qat'iy nazar ijod namunalarida mumtoz an'analarga ijodiy yondashgan holda, ularni yangicha qarashlar, original va salmoqli fikrlar bilan boyitish ko'zga tashlanadi. Muhimi shundaki, bunday asarlardagi badiiy talqin zamirida falsafiy-intellektual fikr ifodasi tobora ustuvorlik qiladi.

Badiiy tafakkur takomilining bugungi bosqichidagi yangilanish lirikamizdagi badiiy-estetik umumlashmalarning majoziy mazmun bilan to'yinib, boyib borishini ta'minlamoqda. Bu hol, avvalo, lirik manzumalardagi falsafiy mushohadakorlikning ichki sezim qatlamlari bilan va majoziy obrazlilikning intellektual qarashlar bilan tabiiy uyg'unlashuvida namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Asqar Mahkam. Vahdat kuyi. –Toshkent: “Nurafshon business”, 2021. –B.62.
2. Asqar Mahkam. Analhaq. –Toshkent: XALQ MEROSI nashriyoti, 2003.-B.145.
3. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. – Toshkent: Fan, 2007. – B.64-65.
4. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2004. – B.64.

⁴ Asqar Mahkam. Analhaq. –Toshkent: XALQ MEROSI nashriyoti, 2003.-B.145.

USMON NOSIRNING BADIY OBRAZ YARATISH MAHORATI

Obitjon Karimov,*NamDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi,**O'zbekiston Pespublikasi xalq ta'limi**a'lochisi*

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston xalqining sevimli shoiri Usmon Nosir ijodi tahlil qilingan. Unda shoir she'rlarining tasvir predmeti inson his-tuyg'ulari ekanligi, inson qalbini tadqiq etishiligi aytiladi. Usmon Nosirning badiiy obraz yaratish mahorati misollar bilan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: obraz (timsol), lirika, doston, nazm, kompozitsion kontrast, kompozitsiya, she'r-o'xshatish, so'z, so'z birikmasi, obrazlilik, estetika, tushuncha, badiiy hukm (predikat).

Annotation. The article discusses the poetic metaphors on the example of works of the people's poet and hero of Uzbekistan Usmon Nosir.

Key words: compositional contrast, image, composition, poetic comparison, word, concept, artistic predicate.

Namangan o'z davrining ko'plab yetuk adib va olimlarini kamol toptirgan maskan. Ayniqsa, o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi Boborahim Mashrab shu o'lkada voyaga yetgan. Zahiriddin Muhammad Boburning yoshlik yillari ham shu yerda o'tgan. Shuningdek, Fazliy, Nodir, G'oziy, Majzub, Munshiy, Muxlis, Maxzun, Nodim, Shavqiy, Ibrat, Umrzoq Hayratiy, Xilvatiy, So'fizoda, Rafiq Mo'min, Usmon Nosir va boshqa o'zbek adabiyoti xazinasiga salmoqli hissa qo'shgan shoirlar shu zaminda ijod qilishgan. Namangan Zafar Diyor, Yo'ldosh Shamsharov, Parda Tursun, Chustiy, Sho'hiy, Jonrid Abdullaxonov, Turg'un Po'lat, Nuriddin Boboxo'jaev, Husniddin Sharipov, Hamidjon Homidiy, Azimjon Rahimov, Odiljon Nosirov, Habib Sa'dulla, Dadaxon Nuriy, Ermuhammad Nurmatov, Abdug'ani Abduvaliev, Ahmad Tursun, Nurbek Abdullaev, Yoqubjon Ahmadjonov, Sodiq Sayhun, Ishoq Nishonov, Ziyoviddin Mansurov, Nabijon Boqiy singari umumo'zbek adabiyotiga barakali hissa qo'shgan va qo'shayotgan qalam ahliga ilk beshik bo'lgan diyordir.

Usmon Nosir! Bu nom tilga olinganida o'zbek adabiyotida hamisha navqiron va dovrugli shoir siymosi ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Og'ir o'tmish uni erta ulg'aytirgan. Intilish-u, o'tkir aql-zakovati, baland iqtidori ortidan tengqurlari o'rtasida yaraqlab ko'zga tashlangan. Hali maktab o'quvchisi chog'idayoq a'lochi tengdoshlari safida Rossiya sayohati nasib etgani, hatto Putilov nomli zavodda ishchilarga atab yozgan yangi she'rini yoddan o'qib, rusiy zabonlarni behad hayratga solgani ham bor haqiqat...

Usmon Nosir 1932-yilda Samarqanddagi pedakademiyaga (hozirgi SamDU) o'qishga kirgan. Rus tilini ona tiliday chuqur o'zlashtirgan talaba yigit har yilgi ta'til chog'i Shimol shaharlariga, so'ng Kavkaz o'lkalariga boradi. "Qora dengiz

sohillaridagi dilbar manzaralar uni maftun etadi. Pyatigorskda shifobaxsh buloqlarda cho'miladi. Ulug' rus shoiri A.S.Pushkin she'rlariga ilhom bergan, M.Yu.Lermontovni oshiq etgan tog'larini kezadi. Ozarbayjon, Yerevan va Tiflis shaharlarida sayr etadi va u yerda yashovchi xalqlar hayotidan ilhomlanib, "Moviylik dengizi", "Shafaq o'chay deb qoldi", "Yo'lchi", "Bir hodisa xayolimdan asta nari ketmaydi" she'rlari va "Naxshon" nomli dostonini yozadi[1,3]. 1932-yili uning "Quyosh bilan suhbat" nomli ilk to'plami bosilib chiqadi.

20 yoshli yigit shunchalik tez ijodiy kamolot kasb etganki, qisqa fursatda o'zbek adabiyotini katta hajmdagi dostonlari bilan ham boyitdi. Adabiyotshunos olim va taniqli shoir O'tkir Rashid talqinicha: *"Usmon Nosirning ikkinchi dostoni "Naxshon" shoirning safar taassuroti samarasi sifatida yozilgan. Arman qizining darbadorlikdagi ayanchli hayoti tasvirlangan. Bu mavzuni ham "Norbo'ta" dostonining mavzusi bilan bir xil deyish mumkin"* [2,9].

Mana, qo'limizda uzoqdan-uzoq muzloq o'lkadagi hibsxonalarda umri erta hazon qilingan shoirimizning o'limidan keyin qirq to'rt yil o'tib, chop etilgan "Unutmas mening bog'im" to'plami. Kitobga uning she'rlari, dostonlari va dramasi jamlangan ekan. Usmon Nosirning izdoshi bo'lgan xalqimizning atoqli va ardoqli ijodkori Erkin Vohidov ta'biri bilan aytganda: *"Iste'dod shunday bir gavharki, u dengiz tubida sadaf ichida ham gavhar; iste'dod shunday bir zilol irmoqki, uning har qatrasida daryolarning qudrati, ummonlarning teranligi bor; iste'dod shunday bir gulki, unin har ochilmagan g'unchasida chamanlarning bo'yi tarovati bor."*

Usmon Nosir iste'dodi ana shunday gavhar, ana shunday irmoq, ana shunday g'uncha edi" [3,11]. Ming afsuslarki, adolatsiz jamiyat, mustabid tuzum noyob gavharni chil-chil qildi, zilol irmoqni loyqalaydi, qat-qati xush ifor go'zaldan-go'zal g'unchani shafqatsizlarcha toptadi. Ammo, g'araz niyatiga aslo yetolmadi. Usmon Nosir yaratgan bog', Usmon Nosir yashnatgan gulu yaproq yana yashnayverdi. Nazm durdonalari tildan-tilga ko'chdi, dildan- dilga payvandlandi. So'ziga xos yashnoq va yangroq ikkinchi hayotini topdi, davom ettirdi o'sha umriga mudhish nuqta qo'yilgan 1944-yilning 9-martidan keyin...

*She'rim! Yana o'zing yaxshisan,
Boqqa kirsang gullar sharmanda.
Bir men emas, hayot shaxsisan,
Jonim kabi yashaysan manda* [5,13].

Nazmparastlik uning qon-qoniga, jon-joniga singib ketgan. Yuragiga o't qalagan tuyg'ulari tug'yonida misralari yaraladi, ohorli libosga yo'rganlanadi har bir she'ri to'lg'og'idan hatto yaralansa ham. Dardsevarlik nolishlarni yoqtirmaydi, hatto qayg'ulardan quvonch axtaradi. Va nihoyat yurak naqshiga aylanadi shoirning avjinavo so'zlari. Shundan yaxshi ko'rgan she'rlari nafosat bog'idagi gullarni ham

uyaltirib qo'ygudek go'zallanadi uning nazdida. Shundan har qanday qismatga rozilik izhorlaydi "Yana she'rimga" sonetida:

*Butun umrim sening bo'yingda.
Saharda qon tupursam mayli.
Men - Majnunman, she'rim, sen - Layli! [o'sha joyda].*

Umrini she'riyatga tikish - naqadar fidoyilik. O'zi yoniqning - so'zi yoniq. Olov qalbgga bundan o'zga qismat beqadr. Axir u yuragini sozga aylantirgan yor va diyor kuychisi bedor ko'ziga oyni yashirgan - sutdek yog'dular shalosi ovchisi, pokiza tuyg'ular taronachisi:

*Yurak, sensan mening sozim,
Tilimni nayga jo'r etding.
Ko'zimga oyni berkitding,
Yurak, sensan ishqibozim.*

U sadoqatli do'sti - yurak bilan tillashadi. His-hayajonlarini ta'riflashga shay toki tili charchaguncha. Chap ko'ksida zarb emas, go'yo vujudini larzaga solgudek so'z sadolanadi har soniyada betinim. SHo'irga tushkunlik begona. Ruhi qanotli. Kayfiyati chog'. Yashayotganidan shukronasi emasmikin bu bolaligida ko'cha-kuyda izlillab, ochlik, darbadarlik azob-uqubatlardan omon qolganiga.

*Senga tor keldi bu ko'krak,
Sevinching toshdi qirg'oqdan.
Tilim charchar, ajab gohi
Seni tarjima qilmoqdan.*

Usmon Nosirning xayol ufqni kengdan-keng. Umr sha'min munavvarlovchi noadatiy holda yuragi o'zi yo'l ko'rsatadi. O'zi uning izmida yurish o'rniga yuragini izmiga bo'ysundirishni xohlaydi. Chiroyli so'zlar bilan erkalab aytadi aytar so'zini. Hayot ekanida boru dardini to'kib solishni, ularni she'rlariga ko'chirishni istaydi juda-juda g'animat dunyoda g'animatligini idroklab. Hech qachon o'zini mag'lub hisoblamaydi, g'oliblik, muzaffarlik bekatlaridan ayro sanamaydi. Jo'shqin hayot afzalligini uqtiradi ko'ksidagi tavalluddoshiga, umrdoshiga.

*Sen, ey, sen - o'ynoqi dilbar,
Zafardan izla yoringni.*

To'lib qayna ,toshib o'yna,

Tirikman, kuyla boringni.

Lirik hissiyotlar ifodasi bevosita ijtimoiy faollikka bog'lab yuborilgan. Yurak nima uchun kerak? - degan savolga javob topamiz xotima banddan. Samarqand pedagogika akademiyasining atigi yigirma bir yoshli talabasi ko'nglida yashash falsafasi qog'ozga naqadar ta'sirchan muhrlangan. Zamon nuqtai nazaridan talqin qilsak, Usmon Nosir tengdoshlarining peshqadami, eng muhimi - maqsadi aniq, qalbi yoniq yalovbardori sifatida namoyonlanadi.

Yurakka egalik hissi va ayni vaqtda yurak yetovidaligi uyg'unlashib, xalq hamda Vatanga farzandlik burchini baland maqomga ko'tarib turadi uning she'rida. Buyruq, chorlov ohangida keskin qo'yilgan shart o'z-o'zidan hayotiy va haqqoniy hukmga mo'nelikdan voz kechtiradi.

Itoat et!

Agar sendan

Vatan rozi emas bo'lsa,

Yoril, chaqmoqqa aylan sen,

Yoril! Mayli, tamom o'lsam.

Ta'sirchanlikni orttiruvchi satr boshida takrorlanuvchi "yoril" so'zi avval ta'kid, keyin undalma tarzida yangraydi. Ikki holatdayam shoir sharafga munosib. Yurak bilan har qanday ishga qodirlik beinkor haqiqat. Mabodo, shundayam Vatan roziligiga erishilmasa, yana orqaga chekinish yo'q. Gap bitta. Hukm qat'iy. Endi ishonchni to'la oqlolmagani uchun yurak chaqnab, parchalanib, chaqmoqday bir lahza tun bag'rini tilib, nurga yo'l ochib, so'nishiga norozi bo'lmaslikni ta'kidlaydi shoir. U o'z xizmati uchun Vatan roziligidan benasib qolishdan ko'ra, o'limni afzal biladi. Tamom, vassalom! Ana, fidoyilik falsafasi, ana lirik qahramonning mardligi, keskin qarori.

O'zbekiston Qahramoni, zukko adabiyotshunos Ibrohim G'afurov nazdicha: "Mana shunday lirik yorqin she'rlarga qaraganda, o'zbek lirikasida bir qadar ustuvor rivojlanib kelayotgan mavzularning ibtidosi Usmon Nosir she'rlaridan boshlanganligini kuzatish mumkin" [4.10]. Boshqacha aytganda, XX asr o'zbek lirikasining kurashchanlik, Vatan va xalq manfaatlariga daxldor tuyg'ular taronasining o'ziga xos yangi maktabiga Usmon Nosir puxta poydevor qo'yib ketdi, desak aslo yanglishmaymiz.

Ichki olamida tashqi olamidagi o'zgarish, yangilanish, yasharish va gullab-yashnash ta'siridan tug'ilgan tuyg'ulari serjiloligidan she'rlarida so'zlarga sehr bog'lab yuborish mahorati Usmon Nosir shoirlik martabasini ko'klarga barvaqt ko'tarib yubordi. Ko'nglidagi bahor - ijodiga ko'chdi. "Bog'im" deya faxrlanib baralla olamga jar solganida nechog'li haq ekanini kim ham rad eta olardi.

*O, u qanday fusunkor!
Nur bilan to'lgan butun.
Gullari chaman-chaman,
Men ularni ichaman.
Ko'nglimda yashnar bahor...*

U xuddi adabiyot gulshanini bevaqt tashlab ketishini ko'ngli ilg'agandek shoshib va jo'shib ijod qildi. O'n yilda (1927-1937) bir necha o'n yillikka tatiguvchi barakali badiiy xirmon yaratdi, adabiyot olami ahlini o'ziga qaratdi. Yigirma uch yoshidayoq o'lim sharpasini payqagandek ortida kelajak ijod bog'iga qarab, faxrnoma bitishga ham ulgurdi:

*Bargdek uzilib ketsam,
Unutmas mening bog'im.
Ishimni hurmat qilur,
Gullardan haykal qurur,
Ming yillardan keyin ham
Unutmas mening bog'im!*

Nazmta'blar yaxshi biladilarki, she'ning mag'zi - ma'nosi, she'ning go'zalligi - badiiy ifodasi, she'ning ta'sirchanligi - ohangdorligi, she'ning ko'ngilga yuqumliligi - yengil o'qishliligi va oson uqishliligi. Usmon Nosir she'riyati bularning birortasidan begona emas. Aksincha, barcha jihatlari to'kis va rasoligi uchun hali hanuz zamonaviyligi-yu, ohorini yo'qotmay yashab kelyapti. Yosh avlodni tarbiyalayapti. Uning takrorli va ta'kidli satrlari oldida yillar ojiz, vaqt ojiz. Biz ham yurtdoshlik faxru g'ururi bilan shoirni yodga olib: "Sizni unutmas, bog'ingiz! Bog'ingizdan bahor ketmas, Usmon Nosir bobo!" deyishga to'la haqlimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Naim Karimov. Usmon Nosir. Toshkent. 1993
2. Abdulla Oripov. Usmon Nosir haqida so'z. "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетаси, 1983 йил, 18 март
3. Abdukarim Rajabiy. Usmon Nosir. Toshkent, 1971,
4. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 2-том. Т., 1972.

5. Usmon Nosir “Unutmas mening bog’im” (“Chaqmoq umri”) T., 1988 yil, 3-bet.
6. Usmon Nosir “Yur tog’larga chiqaylik”. Yurak va mehr shoiri (so’zboshi). Toshkent, “Yosh gvardiya”, 1984 yil, 10-bet.
7. XX asr she’riyati antologiyasi. Toshkent, 1975
8. Mirvaliyev S. O’zbek adiblari. – Toshkent, 2000.
9. 5-sinf Adabiyot darsligi. Toshkent, 2017
10. 7-sinf Adabiyot darsligi. Toshkent, 2008
11. XX asr adabiyoti manzaralari. Toshkent, 2016.
12. Nosir U. Yurak, sensan mening sozim: she’rlar va dostonlar/ So’zboshi muallifi Erkin Vohidov.-T.;Yangi asr avlodi, 2018. -128b.
13. O’tkir Rashid. Adabiyot. 9-sinflar uchun darslik-majmua. 2-qism.T., 2014, 29-bet.
14. Тўра МИРЗО. Усмон Носирни эслаб... Халқ сўзи газетаси, Т., 2022 йил 23 апрель

ЎЗБЕК ТАРИХИЙ ҚИССАЧИЛИГИ

Кубаев Қобил Умарович
Ренессанс таълим университети
Филология фанлари номзоди, доцент
Tel: 94-221-86-67

“Мозийга қайтиб иш кўриш, хайрлидир”

А. Қодирий

XX аср ўзбек адабиётида қисса жанри анча мураккаб ва ўзига хос ижодий йўлни босиб ўтди. XXI аср бошларида, мустақиллик даври адабиётида у аввалги хусусиятларини сақлаб қолган ҳолда янги ривожланиш палласида. Шу маънода, кейинги давр бадиий тажрибаларини ўрганиш, умумлаштириш натижасида ютуқ ва камчиликларимиз ҳам яққол кўзга ташланиб қолди.

Ўзбек тарихий қиссачилигининг юксалишида Миркарим Осим, Одил Ёқубов, Пиримқул Қодиров, Ўлмас Умарбеков, Явдат Илёсов каби ёзувчиларимизнинг хизматлари катта бўлди. Адабиётга кейинроқ кириб келган Зоҳир Аълам, Хайриддин Султонов, Маҳкам Маҳмуд, Асад Дилмурод, Алишер Ибодинов, Шаҳодат Исахонова, Қўлдош Мирзо, Мирзапўлат Тошпўлатов, Исфандиёр каби носирлар уларнинг бадиий — эстетик изланишларини давом эттиришмоқда. Тарихий қиссачилигимиз табиатидаги сифат ўзгаришлари, кейинги ўн йилликлардаги ривожини ана шу адибларнинг ижодий изланишлари билан боғлиқдир.

Тарихий қиссалар ўз хусусияти ва табиатида кўра прозанинг бошқа жанрларига қараганда анча мураккаб ҳисобланади. У хикоя, эссе, роман жанрларининг етакчи хусусиятларини ўз табиатида сингдирган ҳолда янги фазилатлар касб этиб бормоқда. Тарихий қиссалар аксар ҳолларда синкретик жанр, дейилганда ана шу белгиларнинг уйғунликда зоҳир бўлиши назарда тутилади. Адабиётшунослик илмида унинг устивор хусусиятларини, жанр табиатини белгилашдаги қийинчиликлар мураккаблиги ана шу омиллар билан изоҳланади. Адабиётшунослигимизда узоқ вақтлардан бери повесть ва қисса ифодаси синоним атамалар сифатида ишлатиб келинади. Аммо сўнгги давр қиссачилигидаги бадиий тажрибалар улар табиатини, хусусиятларини индивидуал санъаткорлар изланишлари билан уйғунликда алоҳида таҳлил этишни тақозо қилаётир.

Ҳаёт, ижтимоий воқелик ва унинг марказидаги инсон қисмати бадиий тафаккурдаги ўзгаришлар, эврилишлар асосидир.

Шу маънода, иқтисодий ҳамда маънавий мустақиллик халқимизда ватанпарварлик, миллатсеварлик ҳис — туйғуларини янада кучайтирди; шахс ва миллат шаънини, она — Ватан кадр — қимматини эъзозлашга, уни моддий ва

маънавий жиҳатдан юксалтиришга рағбатлантирмоқда. Бу тахлит маънавий — интеллектуал эҳтиёж ва зарурат Ватан тарихини, унинг тараққиёт йўлларини, буюк фарзандлари ҳаёти ва тақдирини кенг, чуқур билишга бўлган талаб ва имкониятларни оширди. Демак, Ватан ва халқ тарихини, истиқлол мафкурасининг маънавий асосларини мустаҳкамлаш нуқтаи назаридан ҳаққоний тасвирлаган бадиий — эстетик савияси баланд асарлар миллатнинг рухий тарбиясида катта рол ўйнамоқда. Тарихий қиссачилигимизда ана шу талаб — эҳтиёжлардан келиб чиққан ҳолда сўнгги йилларда сифат ўзгаришлари юз берди.

Хусусан, қуйидаги хусусиятлар жанр такомилида асосий белгилар сифатида бўриб кўзга ташланаётир:

— Олис мозийда кечган, миллат ва Ватан тақдирида ғоят муҳим рол ўйнаган воқеа — ҳодисалар тарихий қиссалар учун асосий материал бўлиб хизмат қилади. Демак, ўтмишда юз берган ҳамма воқеалар ҳам тарихий асарлар учун бадиий — эстетик тадқиқот объекти бўлавермас экан.

— Тарихий қиссаларнинг етакчи қаҳрамонлари чиндан ҳам ўтмишида яшаб ўтган реал шахслардир. Асардаги тўқима образлар ҳам ўтмиш манзараларини бадиий ҳақиқатга айлантиришга қаратилган.

— Ёзувчининг тасвирлаётган ҳаёт материалига нисбатан ўз тарихий нуқтаи назари, бадиий — эстетик концепцияси мавжуд бўлади. Адибларнинг онги — дунёқараши, фалсафий қарашлари ўтмишнинг бадиий қиёфасини тиклашда ғоят муҳим аҳамиятга эга.

— Тарихий қиссаларда тасвирланаётган ижтимоий воқеликка мос колоритни, давр руҳини ифодалаш учун ижодкор архаиклаштирилган бадиий тилдан ҳам фойдаланади. Муаллиф қаҳрамонлар, персонажлар ва ўз руҳиятини тасвирлаш баробарида жамият психологиясини, ижтимоий тузумлар ақли — саъжиясини, маънавий салоҳиятини ҳам ёритади.

Ватан ўтмиши манзараларини, босиб ўтилган жонли йўл машаққатларини бадиий гавдалантиришнинг аҳамияти шундаки, узоқ ёки яқин кечмишни кўрсатиш орқали бугуннинг ижтимоий, маънавий — ахлоқий масалаларига жавоб топишга интиламиз. Шунингдек, бундай асарлар эртанги кунимиз ҳақида қайғуришга ундайди, далда беради. Тарихий қиссанинг маърифий, тарбиявий аҳамияти, асосан, мана шу омиллардан келиб чиқади. Зеро, «Тарих миллатнинг тарбиячисига айланиб бормоқда. Буюк аждодларимизнинг ишлари ва жасоратлари тарихий хотирамизни жонлантириб, янги фуқаролик онгини шакллантирмоқда. Ахлоқий тарбия ва ибрат манбаига айланмоқда»⁶⁵.

Шахснинг тарихдаги ўрни ва роли, шахс ва миллат тақдири, шахс ва она юрт истиқболи билан узвий боғлиқлик масаласи ҳозирги тарихий қиссаларда

реал, ҳаққоний ва холис ифода этилаётганининг гувоҳи бўламиз. Дарҳақиқат, аждодларимиз ҳаёти, тақдири, буюк кечмиши бугунги авлод учун беқиёс ибрат, сабоқ, намуна мактабидир, бой маънавий пойдеворимиздир. Мустақилликнинг тотли мевасидан баҳраманд авлод истиқлолга қандай қонли ва шонли йўллар билан келганлигимизни, бу курашлар бошида кимлар турганини, жон олиб, жон берган фидойи аждодларимизни билиши шарт. Шунинг учун ҳам халқимиз Тўмарис, Широқ, Алп Тегин, Спитамен номларини, мўғул истилочиларига зарба берган Темур Малик, Жалолиддин Мангуберди каби шахслар курашини билиши, фикри — зикрига нақшлаши лозим.

Миркарим Осимнинг «Искандар ва Спитамен», «Тўмарис», «Широқ», Зоҳир Аъламнинг «Бухородаги биринчи намоз», Исфандиёрнинг «Қасамёд», Алишер Ибодиновнинг «Қуёш ҳам олов», Шаҳадат Исахонованинг «Интиқом» қиссаларида ёзувчилар ўз қаҳрамонларини фаолликка ва фидойликка ундаган ички сабабларни, руҳиятидаги эврилишларни объектив воқелик билан алоқадорликда чуқур тадқиқ қиладилар. Қаҳрамонларни ижтимоий муҳит, реал тарихий шарт— шароит ичида кўрсатишга уринадилар. Ўтмиш воқелигини бадиий ҳақиқатга айлантиришда тўқима образлар зиммасига ҳам ижтимоий, маънавий — ахлоқий вазифалар юкланаётир. Улар реал тарихий шахслар қаторида қиссаларимиз образлар системасини бойитаётир. Жанр ва услубий изланишлар ранг —баранглигини белгилашда муҳим аҳамият касб этаётир.

Тарихий қиссаларимиздаги образлар силсиласини бойитиб келаётган яна бир қур қаҳрамонлар халқимиз номини, миллат шухратини дунёга таратган улуғ алломалар, адиблар, шоирлар, фозил аждодларимиздир.

Шу маънода Муҳаммад ибн Мусо ал —Хоразмий, Ибн Сино, Беруний, Улуғбек, Навоий, Бобур сингари буюк сиймоларимиз ҳаёти ва тақдирига оид янги —янги бадиий талқинлар орқали китохоннинг маънавий — интеллектуал дунёси бойиб бормоқда. Комил ва фозил шахслар тимсолини яратиш ёзувчидан алоҳида ижодий ёндашувни, фикрий тайёргалик талаб қилинади. Улар ижодкор — яратувчи шахс бўлганликлари учун қиссаларда ижод психологиясини, буюк кашфиётлар билан беназир асарларининг туғилиш жараёнини тасвирлаш ҳам муҳим талаблардан биридир.

Миркарим Осимнинг «Жайхун устида булутлар», «Ибн. Сино қиссаси», Ойбекнинг «Бола Алишер», Хайриддин Султоновнинг «Саодат соҳили» каби қиссаларида ижодкор шахс ва замон, шахс ва жамият, фозил инсон ва ижтимоий воқелик муносабатини кўрсатишга кенг эътибор қаратилган. Қаҳрамонларнинг маънавий, интеллектуал бойлиги миллат маданиятининг ойдин саҳифалари сифатида очиб берилади. Ва лекин, Қўлдош Мирзонинг «Мубтало бўлдим сенга» қиссасида буюк ижодкор қиёфасини яратишга

масъулиятсизлик билан ёндошилган. Бу нарса олис ўтмиш воқелигининг хира тортган томонларини ойдинлаштириш ўрнига аксинча, янада қоронғуликка чирмаб қўйган. Муаллиф фикран ва маънан ҳозирлик кўрмагани, маҳоратсизлик туфайли асар муваффақиятсиз чиққан.

Тарихий факт ва маълумотларнинг бадий тўқима билан ёнма — ён келиши, ҳамоҳанг яшаши ўтмиш воқелиги ва аждодларимиз фаолияти моҳиятини бугунги китобхон онгига сингдириш, фикр — шуурига таъсир этиш билан бевосита боғлиқдир. Тўқима, аввало, факт-маълумотларни бадий далиллашнинг кучли воситаси, тарихий ҳақиқатни бадий ҳақиқатга айлантиришнинг асосий йўлидир. Давр колоритини бериш, қахрамон ички дунёсини, хис-туйғулари, руҳиятини очиш бадий тўқимасиз амалга ошмайди.

Хайриддин Султонов, Шаҳодат Исахонова, Исфандиёр қиссаларига мазкур масала нуқтаи назаридан ёндашиш бизни шу хулосага олиб келадикки, тахлил этилган асарларнинг бадийлик даражаси сюжетнинг равонлигида, композиция қурилишида, образ ёки характерлар яратишдагина эмас, айтиш мумкин бадий тўқималардан ҳам кенг ва ўринли фойдаланганлигида кўринади. Тарихий шахслар фаолияти моҳиятини очишда бадий портрет яратишдан, ўтмиш воқелиги колоритининг, ижтимоий муҳит тасвирининг жонли чиқишида бадий тўқимадан оқилона фойдаланиш асарнинг эстетик қимматини янада оширган, муаллиф ниятини юзага чиқишида кўмаклашган.

Бош қахрамон фаолиятининг у ёки бу қиррасини ёритишга ёрдам берадиган тўқима образлар ёзувчи томонидан шунчаки ўйлаб топилган бўлмай, ўша мозийда кечган тарихий ҳаёт ва вазият мантиғидан келиб чиқиб яратилганлиги, шунинг учун ҳам ўқувчида шубҳа уйғотмаслиги юқоридаги қиссаларнинг асосий ютуғидир.. Ҳар қандай асарлар каби тарихий қиссаларни ҳам ўқимишли қиладиган бош унсур ёзувчининг тил маҳоратидир. Тахлиллар шуни кўрсатадики, ёзувчи қахрамонини ўша олис давр характерига мос тил билан қуроллантира билсагина, у тирик инсон сифатида кўз олдимизда намоён бўла олади.

Тарихий қиссалар ҳаммага тушунарли бўлган адабий тилда яратилади. Аммо замонавий асардан фарқли жиҳати шундаки, унда тил тасвирланаётган даврга мос тарзда маълум даражада архаиклаштирилади. Эски сўзларни ишлатиш, улар зиммасига янги маънолар юклаш борасида меъёрни ёдда тутиш муҳим талаблардан биридир. Шу нуқтаи назардан Хайриддин Султонов, Шаҳодат Исахонова қиссалари тилида давр руҳини сингдиришга эриша олган; Қўлдош Мирзонинг «Мубтало бўлдим сенга» қиссасида эса худди шу меъёр бузилган.

Демак, тарихий қиссачилик бррасида бадий тажрибаларни ўрганиш, таҳлил қилиш ва умумлаштириш асосида қуйидаги хулосаларга келиш мумкин.

Биринчидан, тарихий қиссалар ҳаёт материални танлаш, унга ёндошиш характери, таҳлил ва- бадий тадқиқ принципларига кўра тарихий романларга яқинлиги бор. Олис мозий воқелигини, реал тарихий шахсларни акс эттириш, ўтмиш колорити, ижодий услуб ва тил муаммолари роман ва қисса учун бирдек тааллуқли ва муҳимдир. Бироқ қиссада жанр имкониятидан келиб чиққан ҳолда ҳамда санъаткорнинг бадий —эстетик мақсадига кўра ушбу муаммолар чегараланган, торроқ ҳолатда намоён бўлади. Бу борада тарихий романлар кўлами ва миқёси алоҳида бир ўрганиш объектидир.

Иккинчидан, тарихий қисса сюжетида халқ оғзаки ижоди намуналари — ривоят ва афсоналардан фойдаланиш, шунингдек, мозий мавзуидаги бадий асарни фольклор сюжетлари асосига қуриш ҳозирги ўзбек насрчилигида кенг қўлланилаётган тамойиллардандир. Бундай қиссалар аниқ шахслар фаолиятига эмас, балки кўпроқ халқ оғзаки ижоди намуналаридаги ярим афсонавий, романтик қаҳрамонларни эслатувчи шартли персонажлар саргузаштларига асосланади. Шунга кўра сюжетда маълум шартлилик, бўрттириш, оғзаки ижод элементлари, ривоятомуз воқеалар учрайди.

Учинчидан, тарихда яшаб ўтган қаҳрамонлар ҳақида кўплаб бадий асарлар яратилди. Буларда аждодларимиз ҳаёти ва тақдиридан сизиб чиққан ибратлар, сабоқлар, ҳикматли тажрибалар кўзга ташланиб туради. Мустамлакачилик ҳам адолатсизликнинг қабих кўринишларидан бири, аёвсиз зулмдир. Минг —минг йиллар бадалида халқимизнинг тинч, осуда, бунёдкорлик фаолиятига раҳна солиб келган, ҳақиқат ва адолатнибўғиб, ер билан яқсон қилган қирғинбарот босқинлар жараёнида Ватан фидойилари етилиб чиқди. Мозий кечмишининг маиа шундай ҳақиқатлари ўзининг ижтимоий маънолари билан қиссаларда у ёки бу даражада бадий ифодасини топган. Мазкур қиссаларда психологик таҳлил теранлашди; қаҳрамонлар руҳияти давр психологияси билан жамият психологиясини уйғун ёртишга мойиллик ортди, воқеалар тиаими образлар табиати тасвирига тўла равишда бўйсундириладиган бўлди.

Тўртинчидан, яна бир гуруҳ тарихий қиссаларнинг бош қаҳрамони зиёли аждодларимиздир. Бу нарса ёзувчидан табиий равишда ўз қаҳрамонларини илм ёки ижод жараёнида кўрсатишни, илмий ёки бадий кашфиётлари моҳиятига кириб боришни, ўзига хос ижодий лабораториясини очиб беришни тақазо этади. Аксар қиссаларда мазкур хусусиятлар қаҳрамонларнинг жасоратлари жонли, ҳаётий манзараларда, асосли далиллар воситасида ифодаланган. (М.Осимнинг "Алжабрнинг туғилиши", "Моҳлар Ойим ва Хонпошша", "Ибн Сино қиссаси" ва ҳоказо асарлари).

Бешинчидан, реал тарихий шахсларнинг бадий образини гавдалантириш масъулиятли, мушкул вазифа. Тарихий шахслар фаолиятига ниҳоятда чуқур билимдонлик ва эҳтиёткорлик билан ёндашиш талаб қилинади. Зеро, қаҳрамонлар психологиясини яратишдаги эътиборсизлик, бепарволик тарих туйғусини идрок этмаслик билан қўшилиб, бадий саъз, бўш асарларнинг юзага келишига ҳам сабаб бўлади.

Олтинчидан, тарихий ҳақиқатни бадий ҳақиқатга айлантириш, маълумки, мозийдаги тарихий воқеаларни ва ўтмишда яшаган аждодларимиз образини маромига етказиб тасвирлашга бориб тақалади. Бу ишонтириш санъатидир; ўқувчининг фикрига қувват бериш, туйғуларини тарбиялаш маданиятидир. Бу тарихий давр табиатини очиб бериш, қаҳрамон характер хусусиятларини, гап сўзларию хатти — ҳаракатларини даврга мос равишда чизиш, ўтмиш воқелигига мутаносиб ёритиш ижодкордаги катта меҳнат самарасидир, унинг бадий маҳоратидир. Бунда бадий тўқима — «ёлғонга» ишонтириш маданияти асосий восита бўлиб хизмат қилади. Тадқиқ этилган қиссаларда ёзувчиларимиз сермазмун бадий тўқималар орқали тарихий ҳақиқатни жонлантириб беришган. Уларнинг қиссаларида давр руҳи ва нафаси яхши ёритилган, буюк • аждодларимиз характери, ички дунёси, дунёқараши атроф — теваракда кечган воқеа—ҳодисаларга бевосита боғлиқликда очилган. (М.Осимнинг "Темур Малик", "Ўтрор", "Нур ва зулмат", Я.Илёсовнинг "Сўғдиёна", Х.Султоновнинг "Саодат соҳили" ва ҳ.к.)

Еттинчидан, бадий услуб — ёзувчи ижодий қобилиятининг мустақиллиги, ўзига хослигини кўрсатувчи воситалардан бири. Мозийдаги одамлар ҳаёти, шахсияти, фаолияти ва у билан боғлиқ тарихий воқеалар бадий асарларда турлича талқин қилиниши мумкин. Бу муаллифнинг индивидуал услуби, билим даражаси, фантазияси ва маҳорати билан боғлиқ. Шу маънода, қиссаларни мазкур масала юзасидан таҳлил этиш жараёнида ёзувчиларимиз ҳар бир образга холис ёндашганликларини, мураккаб ва пинҳон руҳиятини муҳитдан, шароитдан келиб чиқиб тасвирлаганликларини кузатиш мумкин. Бу ҳар бир ёзувчининг ҳаёт ҳақиқатини идрок этиши, унга ўзига хос ёндашуви, образли ўзлаштириши, ифода йўсини сингари жихатлар билан боғлиқдир.

Халқимиз тарихини холис, объектив идрок қилиш ва ҳаққоний талқин этиш, ватандошларда ватапарварлик, миллатсеварлик туйғуларини кучайтириш ва тарбиялаш, айниқса, бугунги кунда катта аҳамият касб этмоқда. Шу нуқтаи назардан яқин ва узоқ тарихимизни акс эттирувчи, миллий мустақиллик ва эркинлик ғоялари билан суғорилган янги йўналишдаги тарихий қиссалар устида иш олиб бориш ниҳоятда муҳимдир. Ўтмиш бугунги мустақиллигимиз пойдеворидир. Уни бадий — эстетик, ижтимоий — фалсафий ўрганиш, таҳлил

қилиш ва холисона баҳо бериш долзарб муаммолардан биридир. Тарихий — бадий асарлар орқали ўтмиш ҳақиқатини ҳозирги ва келажак авлодларга етказиш зиёлиларнинг маънавий бурчи ҳисобланади.

NASRIY ASARLARDA OBRAZLAR TABIATI TAHLILI

Hamidova Muhayyoxon Obidovna,
filologiya fanlari nomzodi, professori,
Namangan davlat universiteti

***Annotatsiya:** XX asr o'zbek adabiyotida o'ziga xos uslubga ega bo'lgan ijodkorlardan biri Shukur Xolmirzayev sanaladi. Uning har bir asarida o'zi tug'ilib o'sgan Boysun tabiati, ayniqsa, undagi bolalik davri o'tgan yerlar o'ziga xos tarzda qalamga oliganligi bilan kitobxon e'tiborini tortadi. Mazkur maqolada adibning "Olabo'ji" romanda obrazlar tabiati xususida fikr yuritilgan. **Kalit so'zlar:** badiiy obraz, yozuvchi mahorati, hayotiy fakt, yozuvchi fantaziyasi, realistik obrazlar, ruhiyat, inson tabiati.*

O'zbek adabiyotining yirik namoyandasi, ulug' adib Shukur Xolmirzayevning asarlarini o'qimagan o'quvchini topish qiyin. Betakror hikoyalari, jozibador qissalari, yuksak saviyali romanlari allaqachon o'zbek adabiyotining nodir javohirlariga aylanib ulgurgan adib bir umr o'zbek xalqining xarakterini, uning yashash tarzini, qiyofasini tasvirlab ijod qildi.

Darhaqiqat, O'zbekiston xalq yozuvchisi, Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti sovrindori, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi Shukur Xolmirzayev o'zining rang-barang va sermazmun asarlari bilan hozirgi o'zbek adabiyoti taraqqiyotining gullab-yashnashiga, yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarilishga samarali hissa qo'shgan zabardast adibdir. XX asr o'zbek nasrining 60-70-yillardan keyingi taraqqiyotini bu o'ziga xos yozuvchi ijodisiz tasavvur qilish qiyin. Yozuvchi ijodida tasvir prinsiplarining paydo bo'lishi, shakllanishi, o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi avvalo adabiyotga olib kirilgan hayot materialining mazmundorligi, rang-barangligi, takrorlanmasligi bilan bog'liqdir [2, 345-346] Fikrimizni oydinlashtirish uchun adibning "Olabo'ji" romaniga murojaat etishni o'rinli deb bildik.

"Olabo'ji" romani O'zbekiston mustaqillikka erishguncha o'zbek adabiyotida yaratilgan so'nggi romanlardan biri bo'lib, 1991-yil yozilib, 1992-yili "Sharq yulduzi" jurnalida kitobxonlar hukmiga havola qilindi. Mazkur romanni adib romandan katta hikoya deb ataydi. Nima uchun asarni bunday deb ataganini undan so'ralganida u "Olabo'ji" o'tgan yili "Sharq yulduzi" jurnalida e'lon qilindi. Shu asarning janrini romandan katta hikoya deb belgiladim. Bu narsani o'zimni o'zim aldash uchun qildim. Roman desam, voqealar tarmoqlanib, sochilib ketadigandek tuyuldi. Agar hikoya desam, men o'zimni tiya bilarkanman. Baribir, shunday bo'lsa ham 400-500 qog'oz bo'lib ketdi" [5, 124].

Shukur Xolmirzayev mazkur romanida hayot voqealarini, ziddiyatlarini yoritib bergan va ularga o'z munosabatini bildirgan. Kichik-kichik hayotiy tasvir manzaralarida katta-katta muammolarni qo'ygan. Hayotdan tanlab olgan hodisa va voqealarning eng nozik tomonlari, xarakterli nuqtalarni topib, ularni iker-chikirigacha tasvirlaydi va bu orqali inson va jamiyat, insonlar o'rtasidagi munosabatni chuqur

badiiy tahlil qiladi. Insonni, qahramonlar kechinmalarini, ular o'rtasidagi ziddiyatlarni, ma'naviy qadriyatlarni bor bo'yi bilan tasvirlaydi. Asarning badiiyligini ta'minlaydigan birinchi omil sifatida muallif o'zini qiziqtirgan, o'ziga yaxshi tanish bo'lgan materiallar haqida yozadi.

Asar kechagi kunning dahshatlari: kishilarning ma'naviy-axloqiy tanazzuli, ekologik yemirilishlar, xalqimizning esa erksizligi, loqaydliklarini bizga ochiq ko'rsatib bera olgan. Muhimi, asarda insonlar ongida ma'naviy tanazzul tasvirlangan, deya olamiz.

Shukur Xolmirzayev romanning qahramonlari To'qliboy Qo'chqarov, Ulton Sultonov, Bahor, Bo'taboy So'pi, Tarakanov, Maxfirat Egamqulova, Dunyo, Sulton bobo va shu kabi bir qator obrazlar talqini orqali bizni doimo qiynab kelayotgan savollarga javob topishga harakat qiladi. Bunda u biz yashagan va hozir ham birga yashayotgan zamondoshlarimizning fe'l-atforini, ruhiyatini tekshirish orqali boradi.

Romanda hayotimizning turli jabhalarida uchraydigan turli xil taqdirarga, voqealarga duch kelamiz. Natijada bir oddiy inson sifatida asarda o'zimizni hikoya qilinayotgan voqealarning ishtirokchisiday sezamiz. Romanda ishtirok etuvchi barcha insonlar-Ulton, Bahor, To'qliboy Qo'chqarov, Bo'taboy so'pi, Sulton bobo, Maxfirat Egamqulova, Dunyo, Ashim, Hurrar, Nabilar ko'z oldimizda tirik insonlar sifatida gavdalanadilar. Mazkur obrazlar orqali Tangriberdi dodhodek milliy qahramonlarimiz taqdiri ham bizni og'ir ruhiy iztirobga solmay qolmaydi.

Romaning asosiy qahramonlaridan biri – oddiy qishloq o'qituvchisi, ko'zga ko'ringan yozuvchisi Ulton Sultonovdir. Yozuvchi mazkur qahramonning og'ir iztiroblarga to'la hayotini shunday tasvirlaganki, kitobxonda Ultonga nisbatan achinish, yosh yigitni nobud qilib, "Olabo'ji"ga aylantirgan jamiyat, shu jamiyatda katta rol o'ynayotgan rahbarlarga nafrat uyg'onishi tabiiy.

Asarda bo'lib o'tgan voqealar, harakatlar bosh qahramon Ulton Sultonov taqdiri bilan uzviy bog'liq. Unda Ulton hur fikrli, sodda, tabiatni jonu dilidan sevuvchi, erk va mustaqillik, ekologik o'pirilishlarga qarshi o't ochuvchi yozuvchi shaxs sifatida tasvirlangan. U doimo tabiatdek tabiiy yashashni istaydi. Uningcha, hayotda har bir ish – tabiiy beg'araz va makru xiylalarga ustamonligi degan modullardan holi bo'lishi kerak.

O'qimishli, el tanigan Ulton To'qliboy Qo'chqarov kabi kishilarning to'riga o'zi bilmagan holda osongina tushib qoladi. Bularning bari Ultonni ustoz, hozirda tuman Bosh kotibi bo'lmish To'qliboy Qo'chqarovning sobiq shogirdini chaqirishidan boshlanadi. Ustoz bilan ko'rishgandan so'ng odatdagiday suhbatlardan so'ng To'qliboy Qo'chqarov unga shunday deydi: "Gap shu, seni chaqirishdan ham murod shulki, xo'sh, senga ishonaman... Shu maktabingga bizning nomimizdan raykomning vakili sifatida tekshirib, bor kam-ko'stini yozib kelasan... qolgan mana shu o'n-o'n

besh kunda nimalar qilib ulgurish mumkin, ana shu tomonlariniyam o'ylab yozasan"[4, 30].

Ulton bilan birga chaqirilgan vrach qiz Bahorga esa "Siz maktabning gigiyena-sanitariya talablariga qanchalik javob berish-bermasligini aniqlaysiz", deydi va ikkisini maktabni tekshirish uchun yuboradi. Bu hol albatta Ultonga g'ayritabiiy tuyuladi. Axir maktabning ishini tekshiradigan mas'ul tashkilotlar bor-ku! Nima uchun tekshirish ishiga aynan Ulton va ishi boshidan oshib yotgan Bahor borishi kerak? Ulton o'zini qiynagan mazkur savolga javobni asarning yakunida oladi.

Yozuvchi Ultonni ruhiy qiynoqlarga solayotgan o'ylari orqali davrning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy psixologiyasini chizadi. Asarning boshida u Ultonning tashqi qiyofasidagi ko'rinishlarida ruhiy holatlarning aksini chizuvchi psixologizmning dinamik prinsipini qo'llagan bo'lsa, vaziyat murakkablashgani sayin bu prinsipni qahramonning tuyg'ularini bevosita tahlil qilish yo'liga o'tib, uning ruhiy olamidani o'tkazar ekan, uning ruhiyati g'alayonga keladi. Bu g'alayonda shu qadar obyektivlik borki, o'z hayotini va xalqimiz hayotini taroziga solib, mushohada qiladi. Uni va jamiyatni shu holga keltirgan illatlar asar davomida ochila boradi. Asarda psixologizm o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etar ekan, unda voqeaning o'rnini va bo'lib o'tadigan paytini aniq belgilab olishni taqozo etgan. Romanda Ulton va boshqa qahramonlar ruhiyati orqali adib totalitar tuzumning oxirgi damlari, zamon tarzida, ya'ni qahramonlar harakat qiladigan vaqt birligi shaklida tanlab, shu davrning eng dahshatli qiynoqli damlarini tarixiy voqealar oqimi bilan bog'lab, ta'sirli va to'laqonli xarakterlar yarata olgan.

Romanda totalitar tuzumning oxirgi damlari zamon tarzida, ya'ni qahramonlar harakat qiladigan vaqt birligi shaklida tasvir etilgan. Sababi, davr ko'plab tarixiy voqealarni boshidan kechirdi, ta'sirdor va to'laqonli xarakterlar yaratish imkonini beradi. Ulton va boshqa xarakterlar bilan tanishar ekanmiz bunga to'la ishonch hosil qilamiz. Ayniqsa, taqdiri "Olabo'ji" dek mahluq taqdiriga o'xshab tugagan Ulton fojiasi bizni hayajonga solmay qo'ymaydi hamda uni shu holga solgan mash'um tuzumga nafratimiz ortadi.

Asardagi Ulton obrazini to'ldiradigan qahramonlardan biri – Bahordir. Turg'unlik yillaridagi inqirozlar Bahor qismati orqali asarda aks ettirilgan. Asrimiz boshida g'ayriaxloqiy hodisalar g'oyatda muhosasiz edi. Tomonlar oriyat uchun kurash olib borar edilar. Kurash turlari g'oyatda jo'n, oz, sodda edi. Yo g'alaba bilan yo o'lim bilan tugashi kerak edi.

Yillar o'tishi bilan ma'naviy tubanliklar tusini o'zgartirdi. Lekin uning yovuz qiyofasi, chirkin olami o'zgargani yo'q. Bahor ana shu "silliqliklar"ning qurboni edi.

To'qiliboy Qo'chqorov, Maxfirat Egamqulova kabi insonlarning ta'siri ostida Bahor singari navqiron qizlarning boshi berk ko'chalarga kirib ketishidan asrash,

ularning tabiatidagi bokiralik, hayo, oriyat tuyg'ularini saqlab qolish ayollarning azaliy ma'naviy pokligiga qaytarish asarning asosiy g'oyalaridan biridir. Shundagina Bahor fojiasi boshqa biror zamondoshimiz, do'stimiz fojiasi bo'lmaydi. Romandagi Bahor obrazi shu jihatdan qaraganda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Yozuvchining o'zi aytganidek, uning har bir asari qahramonlari xoh ijobiy, xoh salbiy bo'lsin, iloji boricha unga ijobiy tarzda ham, salbiy tarzda ham yondoshishga harakat qiladi. Firimizni adabiyotshunos olim U.Normatovning quyidagi fikri ham tasdiqlashi mumkin: "...romanning vazifasi masala ko'tarish emas, balki hayot o'zi ko'ndalang masalalarni inson taqdiriga singdirib yuborish", bu masalalar tagida yashirinib yotgan dramalarni ko'rsatish, ko'rsatganda ham badiiy barkamol obrazlar vositasida ko'rsatishdan iboratdir. Shuning uchun ham badiiy asarda hamma narsa, shu jumladan, ko'tarilgan masalaning muhimligi ham, badiiy obrazning mukammalligiga, ya'ni yozuvchining kitobxonni larzaga solishga qodir bo'lgan "tirik odam" yarata olish qobiliyatiga bog'liqdir" [3, 116-117]. "Tirik odam" yarata olish qobiliyati esa o'z navbatida psixologik tahlildan qay darajada foydalana bilishga, uni asar to'qimasiga, muammosiga singdirib yubora olish mahoratiga ham bog'liqdir" [6, 56].

Yozuvchi asarda ana shunday "tirik odam"larni yarata olgan. Romanning markazida ishimizning boshida ta'kidlab o'tganimizdek, Ulton va To'qiliboy Qo'chqorovlar xarakteri turadi.

Biri oddiy o'qituvchi Ulton, ikkinchisi esa rayon partiya Boshkotibi To'liqboy Qo'chqorovdir. Bu ikkisi bir-biridan tubdan farq qiladi. Buni ishimizning boshida ham aytgan edik.

To'qiliboy Qo'chqorov asarning boshida bizda boshqacha taassurot qoldiradi. U doim kulib gapiradigan, sho'x, quvnoq, pishiq, puxta, mulohazali, xushyor, mehribon, shoirtabiat inson.

To'g'ri, biz yuqorda keltirgan ijobiy sifatlarning hammasi birikkanda ham To'qiliboy Qo'chqorovning tom ma'nodagi ijobiy darajasiga ko'tarmaydi. Ammo bu sifat va salbiy sifatlar tufayli u jonli odamdek xarakter kasb etadi. Adib To'qiliboy Qo'chqorov xarakterini yoritishda uning ruhiy qiyofasini ko'proq xatti-harakatlari faoliyatida tasvirlab ochib berishga harakat qiladi.

Asarda syujetning boshidan oxiriga qadar bir-biri bilan to'qnash keladigan, ular faoliyatining ichki sir-asrorlarini tahlildan o'tkazilgan uch xarakter mavjud bo'lib, bular Ulton Sultonov, Bahor Kenjaboeva va To'qiliboy Qo'chqorovlardir. Romandagi barcha obrazlar Ulton bilan munosabatga kirishadi. Shu sabab bizda har bir xarakter ruhiyatiga ekskursiya qilish, ularni shu holga keltirgan shaxslarning ruhiy dunyosi bilan, o'z foydasinigina o'ylab ish qiluvchi, bu yo'lda hech narsadan qaytmaslik psixologiyasi yorqin tasvirlangan. Yozuvchi To'qiliboy Qo'chqorov xarakterida shu

holatlarni bera olgan. Masalan To'qliboy Qo'chqorovning Ultonga aytgan quyidag so'zlari fikrimizni tasdiqlaydi: "Rayon partiya komiteti – rayonning egasi! Xohlagan odamini, kadrini chaqirib, xohlagan ishini buyuradi..." [4, 30] Insoniy qadr-qimmatni nazar qilmaslik singari illatlar uning ruhiga singib ketganligi shu parchadan ham yorqin ko'rinadi. Albatta, u faqat o'zini o'ylovchi inson bo'lmagan. Biz voqealar fonida muhitning insonga ta'sir etuvchi qudratini sezib turamiz. Bu esa asarni o'qish davomida ochila boradi, ba'zi hollarda shaxs psixologiyasi, jamiyat psixologiyasidan ustun keladi. Bu albatta, Qo'chqorov xarakteri fonida sodir bo'ladi. U rayonda qo'lga kiritilgan barcha yutuqlarni o'ziniki qilib ko'rsatishga intiladi. Uning tarafdorlari ham uning bu ishini qo'llab-quvvatlaydilar. Agar qo'llab-quvvatlashmasa Bahorning o'rnida oldin ishlagan, lekin u bilan kelisha olmagan uchun besh bolasi bilan qirga, cho'ponlar huzuriga yuborilgan vrach yigit yoki o'z xotini bilan xiyonat ustida uni ushlab olgani uchun Ultonni jinnixonaga yuborib, "Olabo'ji" holatiga solishi mumkin. Natijada u butun boshli rayonda undan keng fikrlovchi kishining o'zi qolmaydi. Uning xarakterini to'laligicha tasavvur qilishga ko'maklashadigan vosita - Ulton, Bahorlar ruhiy olami tasviri orqali bu obrazning xarakter belgilari yanada kengroq ochilishi yozuvchi psixologizmining o'ziga xos ko'rinishlari shaklida namoyon bo'ladi. Asarning boshida uning o'ziga xos xususiyatlarini-qiliqlarini Ultonning ruhiy olami tasviri orqali quyuq bo'yoqlarda ocha boradi. Agar adib Ulton va uning sarguzashtini tasvirda ochib berishi kerak bo'lmaganida edi, Qo'chqorovda mujassamlashgan o'sha davrga xos jihatar ochilmagan, biz esa hayot bir tekisda ketayotganiga o'zimizni ishontirib yurishda davom etgan bo'lar edik. "Har bir obrazning ruhiy olami, dastlab shaxsiy hayoti bilan quyuq bog'lanadi"[6, 86]. Asarda ham shu holat kuzatiladi. Qo'chqorovning shaxsiy hayoti jamiyat hayoti bilan to'qnashib ketadi. Bu uning jamiyat taraqqiyotiga salbiy yoki ijobiy ta'sir qilishi bilan bog'lanib ketadi. Shu sababli mazkur obrazga daxldor bo'lgan psixologik tahlil uning shaxsiy hayot va yashab turgan davrning ruhiy ko'zguisiga aylanadi. Demak, psixologik tahlil shaxs va jamiyatni bog'laydigan darajaga ko'tarila olgan.

To'qliboy Qo'chqorov faoliyati bilan tanishib, shunday xulosaga kelish mumkin. Yozuvchi bu inson bilan tanishtirish, voqealarni berishi bilan hayotda shunday insonlarning xali hanuz borligi, afsuski, shu xildagi rahbarlar yaqin o'tmishda ko'pgina taqdirlarni hal qilgani, insonlarning ko'nglini og'ritgani, moddiy va madaniy boyliklarga putur yetkazgan, jamiyatda ma'naviy inqirozga yuz tutgan inson tasvirini berishni o'z oldiga maqsad qilgan va bunga erisha olgan.

Shukur Xolmirzayev ijodida, xususan, romanlarida qahramonni badiiy tasvirlash tamoyillarini kuzatar ekanmiz, adib har bir qahramon qiyofasida biror hayotiy hodisa va voqeyani, kishilardagi biror fazilat yoki nojo'ya xatti-harakatni ko'rsatish, uni to'lig'icha ochib berishga harakat qiladi va bunga erishadi ham.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamidova M. O/ Shukur Kholmiraev- a creative exposes person and society's illnesses // International Scientific Journal science and innovation, Series C, Volume 3, Issue 1, January 2024.- P.109 - 113.
2. Ne'matullayeva F. O'zbek adabotida Shukur Xolmirzayevning tutgan o'rni // "Ijodkor o'qituvchi" jurnali, 2023.- № 28.- B. 345-346.
3. Normatov U. Roman tabiati: talab va imkoniyatlari // Talant tarbiyasi.- Toshkent: Yosh gvardiya, 1980.- B. 116-117.
4. Xolmirzayev Sh. Olabo'ji: Roman.- Toshkent: Ziya nashr, 2023.-608 b.
5. Xolmirzayev Sh., Yunust T. Insonni kashf etish baxti // Sharq yulduzi, 1993.- № 9.- B. 124.
6. Xolmurodov A. Odil Yoqubov romanlarida psixologizm. Filol.fan.nom.diss.- Toshkent, 1991.- B. 56.

CHO'LPONNING "KO'NGIL" SHE'RIGA RAUF PARFI TAXMISI

Boltayeva Gulchehra Shokirovna
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Navoy davlat pedagogika instituti,
gulyashokirovna74@gmail.com

Annotatsiya: O'zbek adabiyoti sahifalarida XX asr o'zbek she'riyati alohida o'rin tutadi. Davr shoirlarning mumtoz adabiyotimiz vakillari ijodidan ta'sirlanib, an'ana va izdoshlik asosida yaratgan betakror muxammaslari o'ziga xos adabiy hodisadir. Bu davr namoyondalari ijodida g'azal, qasida, muxammas kabi janrlarning adabiy izdoshlik va mahorat maktabi sifatidagi namunalari orqali mumtoz adabiyotimizning bebaho an'analari davom ettirilgan. Maqolada o'zbek she'riyatining zabardast vakillari Cho'lpon va Rauf Parfi ijodi misolida milliy istiqlol g'oyasining muxammas janr imkoniyatlari doirasida ifodalashi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Cho'lpon, Rauf Parfi, adabiy ta'sir, an'ana, muxammas, taxmis.

Annotation: Uzbek poetry of the 20th century occupies a special place in the pages of Uzbek literature. The poets of the period were influenced by the work of representatives of our classical literature and created unique masterpieces based on tradition and following. It is a unique literary phenomenon. In the work of the representatives of this period, the invaluable traditions of our classical literature were continued through the examples of genres such as ghazal, qasida, mukhammas as a school of literary followership and skill. The article discusses the expression of the idea of national independence within the possibilities of the great genre on the example of the works of the leading representatives of Uzbek poetry, Cholpon and Rauf Parfi.

Key words: Cholpon, Rauf Parfi, literary influence, tradition, mukhammas, takhmis.

Akademik N.Karimov o'tgan asrning 30-yillaridan 90-yillarigacha bo'lgan davrni "ijtimoiy silsilalar davri" [Каримов Н. 2:227] deb ataydi. Bu mohiyatan sobiq sho'ro davrini aks ettiradi. Ijtimoiy silsilalar deyilganda, olim kolxozlashtirish, qatag'on, urush yillari, urushdan keyingi tiklanish davri, turg'unlik va qayta qurush nomlari bilan ajratilgan davrlarni nazarda tutadi. Bu davr o'zbek she'riyati o'zining mazmun-mundariyasi, kompozitsion qurilmasi, badiiy-tasviriy vositalari bilan o'zbek adabiyoti tarixida alohida bosqichni tashkil qiladi. Davr shoirlarning mumtoz adabiyotimiz vakillari ijodidan ta'sirlanib, an'ana va izdoshlik asosida yaratgan betakror muxammaslari o'ziga xos adabiy hodisadir. O'zbek adabiyotida muxammas janrining yuksak namunalari milliy istiqlol g'oyasini janr imkoniyatlari doirasida ifodalashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davr namoyondalari ijodida muxammas janrining adabiy izdoshlik va mahorat maktabi sifatidagi namunalari orqali mumtoz adabiyotimizning bebaho an'analari davom ettirilgan. Muxammas ijodkorning o'y-xayollari, tuyg'u-kechinmalarini chuqurroq ifodalash, boshqa shoirlar bilan poetik mahorat bobida musobaqalashish, ijodda kuch sinash, ijodiy-ruhiy bahslashuv vositasi sifatida ma'lum va mashhurdir. Bugungi kunimizga qadar adabiy kechalarda muxammasxonliklarning o'tkazilishi buning yorqin dalilidir.

Bu davrda she'riyatning asosiy diqqat-e'tibori hayot va kishilar tafakkuridagi o'zgarishlarni butun bo'y-basti bilan tasvirlashga qaratildi. Zero,

“XX asr o‘zbek adabiyoti xalq va jamiyat hayoti bilan mustahkam aloqa o‘rnatdi. Bunday aloqa adabiyotimizning avvalgi bosqichlarida bo‘lmagan. XX asr o‘zbek adabiyoti xalq va jamiyatni o‘z ortidan yetaklab, ularni hurriyat va milliy taraqqiyot manzillariga olib borishga intildi va bu intilishda muayyan yutuqlarga erishdi” [Каримов Н. 3:24-28]. Bu davrda o‘zbek she‘riyati poetik shakl va janr, til va uslub jihatidan yangi pog‘onaga ko‘tarildi. Barmoq vaznida bitilgan an‘anaviy she‘rlar bilan birga mumtoz adabiyotimizning asosiy she‘riy janrlari – g‘azal, mustazod, ruboiy, tuyuq va muxammas kabi poetik shakllardan keng foydalanildi.

Rauf Parfi she‘rda mavzu tanlash, shunga muvofiq ravishda ohang yaratish, va hissiy bo‘yoq ishlatishda qanchalik mohir bo‘lsa, uslub va ifoda hunarida ham betakror, tengsiz va beqiyos edi. Uning ijodga munosabati, voqelikni idrok aylash malakasi ibrat va namunadir. Rauf Parfi merosida buyuk shaxs va shoirga xos rangorang fazilat va xususiyatlar yashnab, gurkirab turibdi. Eng asosiysi, Rauf Parfi yurt, millat, insoniyat va abadiyat shoiri ekanligidir. Sir emaski, o‘zbek adabiyotshunosligida adibning ijod mahsuli, ijtimoiy-siyosiy qarashlari badiiy estetik tuyg‘usi bilan mushtaraklik kasb etadi. Cho‘lponning “Ko‘ngil” she‘riga yozgan taxmisi ham buning yaqqol dalilidir. Rauf Parfining bu taxmisi 1983-yilda yozilgan bo‘lib, unda shoirning yurt ozodligidan chekkan xavotiri, xalqning og‘ir qismatidan iztirobi va isyoni aks etgan:

Yuzlashding balolarga, alamlar ichra ko‘zlashding,
O‘zing kuyding, o‘zing yonding, o‘zgalar haqqi o‘zlashding,
Bu qul bozorinda izg‘ib qumrilar kabi bo‘zlashding,
Ko‘ngil, sen bunchalar nega kishanlar birla do‘stlashding,
Na faryoding, na doding bor, nechun sen buncha sustlashding [Payф Парфи. 4:221]?

Adabiyotshunoslikda Cho‘lponning “Ko‘ngil” she‘ri ko‘p bora tahlilga tortilgan va ushbu ijodiy namunada adibning boshqa she‘rlari kabi ijtimoiy-siyosiy qarashlari, ozodlikka bo‘lgan intilishi o‘z tasdig‘ini topgan. Cho‘lponning mazlum xalqni uyg‘otishga o‘zini burchli deb bilgani, erk va hurriyat g‘oyalarini baland pardalarda kuylagani hech kimga sir emas. Adabiyotshunos olim N.Jabborov Cho‘lpon haqida: “Ulug‘ shoir dolg‘ali dengiz to‘lqinlari yanlig‘ ko‘pirib-toshgan tuyg‘ularini, bamisoli sarobday yengib bo‘lmas orzularini, ko‘nglini o‘rtagan cho‘ng armonlarini poetik ramz va timsollar tiliga ko‘chirdi” [Жабборов Н. 1:45], – deya shoir ijodida ramziy ifoda ustunligini qayd etadi. She‘r aruzning hazaji musammani solim vaznida yozilgan. Taxmisd ham qoidaga muvofiq shu vazn saqlangan. XX asrning boshlari jadid shoirlari ijodida aruzdan barmoqqa o‘tish jarayoni tezlashdi. Hatto aruzda yozilgan she‘rlarni barmoq shaklida ifodalash, to‘liq misralarni bo‘lib

tashlab yozish holatlari ko'zga tashlanadi. Bu holat bir jihatdan barmoqqa o'tish jarayoni bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan ritmik-intonatsion ohangni kuchaytirish, poetik mazmuni yorqinroq ifodalash maqsadida qo'llanilgan.

She'rdagi lirik kechinma ko'ngilga qaratilgan. Kishanlar birla do'stlashgan ko'ngilga qarata aytilgan savollar, o'tli nidolar haqoratlardan dili og'rigan Insonga qaratilgan. Kishan bilan ko'ngil timsollari orasida tazodiy bog'lanish bor. Kishan va ko'ngil hech bir zamonda bir-biri bilan do'st bo'la olmasligi ma'lum. O'zi kuyib o'zi yonayotgan qalb sohibi, Rauf Parfi uchun Co'lponning mana shu misralari ayni muddao edi. Ruhning hurligi, ozodligi uchun kurash alangasi porlab turgan ushbu satrlar sho'ro davriga va bu davr mustamlakachilik kishanlariga qarshi adibning isyoni. Shoir bu o'rinda o'tkir kinoyaviy usulni qo'llagan, bilib bilmaslikka olgan. O'zing kuyding, o'zing yonding, na faryoding, na doding bor, munavvarsan, mukarramsan, risolat tug'ida shonsan, sen Ka'bamsan – Turkistonsan, xunimsan, sen axir qonsan, bo'yin egma, kishan kiyma kabi jumllalarda ta'did san'ati orqali shoir fikr ta'kidini kuchaytirgan. Bu orqali taxmis misralarida teran fikr va go'zal badiiy shakl mutanosibligini ta'minlagan.

Ko'zinga xoki Turonim, ozodlik gardi inmasmi?

Bu kunlardan umid yo'qmi? Yo'llaring qaro tunmasmi?

Xazon bo'lgan bahor senmi, nishon hurlikdan unmasmi?

Haqorat dilni og'ritmas, tubanlik mangu tinmasmi?

Kishanlar parchalanmasmi, qilichlar endi sinmasmi [Payф Парфи. 4:221]

Yurt tuprog'ini ko'zga surtish, uni asrab-avaylash, himoyalash har bir inson uchun farzdir. Chunki unda ajdodlarimizning kindik qoni to'kilgan. Tuproq biz uchun muqaddas. Rauf Parfi lirik qahramoni ozod yurtning tuprog'ini ko'zga surish umidini tajohilu orif san'ati orqali ifodalaydi. Har bir misrada tazodiy poetik uslubga asoslanib, "kun-tun", "xazon-bahor" so'zlari vositasida taxmisdan har bir so'zga ramziy ma'no yuklaydi. Ikki zabardast shoir, yuragi yurt qayg'usida yongan ikki ijodkorning maslagida mushtaraklik, ijodiy-ruhiy yaqinlik, falsafiy mushohada uyg'unligi yaqqol nazarga tashlanadi. She'ning muallifi bittadek go'yo. Taxmis bandlarida ikki ijodkor nafaqat lirik qahramonlarining, balki shaxsiyatining yurtni ozodlikka, hurlikka yetishish istagi haqidagi hislari jilvasi, tuyg'ulari manzarasi, teran fikr va mushohadalari o'zining falsafiy-psixologik talqinini topgan. Mumtoz she'riyatdagi an'anaviy gul-bulbul-tikan yoki oshiq- ma'shuq-ag'yor uchligi "Cho'lpon lirikasida istibdod iskanjasidagi millat, uning dardiga malham qo'ymoq istagan vatanparvar va xalq boshiga adadsiz kulfatlarni yog'dirayotgan mustabid tuzum uchligi tarzida badiiy talqinini topadi" [Хожиева III. 6:137]. Rauf Farfi ana shu uchlikni mantiqiy davom ettirib, ijodiy musobaqada Cho'lpon "panjasiga panja ura olgan". Badda to'liq tajohuli orif san'ati yetakchilik qilgan.

Alloh-Alloh, yig'layursan, bulutdek bag'ri so'zonsan,
 Munavvarsan, mukarramsan, risolat tug'ida shonsan,
 Sen Ka'bamsan – Turkistonsan, xunimsan, sen axir qonsan,
 Tiriksan, o'lmagansan, sen-da odam, sen-da Insonsan,
 Bo'yin egma, kishan kiyma, ki sen ham hur tug'ilg'onsan [Payф Парфи. 4:221]

Yuqoridagi satrlarda Rauf Parfi tuyg'ulari talqinidagi hissiy idrok yanada kuchaygan va tuyg'u-kechinma ifodasi yuksak pog'onaga ko'tarilgan. "Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, bir tomonda zamonaviy texnika-texnologiyalardan foydalanib, taraqqiyotning yuksak pog'onalariga ko'tarilgan G'arb, ikkinchi tomonda, jaholat bois orqada qolgan, istibdod iskanjasiga mahkum ona vatani Turkiston – Cho'lpon ongi va ruhiga qattiq ta'sir qilgan, Vatan va millatni mutaraqqiy xalqlar qatorida ko'rish orzusi, uning og'ir ahvolidan iztirob tuyg'usi millatni uyg'otmoq uchun yangi yo'l qidirishga undagan bo'lsa [Хожиева III. 6:137-138], Rauf Parfining yuragini ham aynan shu xavotir hissi tinch qo'ymasdi. Ozodlik nashidasi, hurlik oddiy va o'tkinchi, zumda kelib ketguvchi tasodifiy kechinma emas. U azaliy alam bo'lgani uchun ham o'tkinchi deb qabul qilishga botinmaysan. U ko'ngillardan ko'ngillarga ko'chib o'tib kelayotgan sog'inch, tiriklik mas'uliyati tuyg'usidir... "Xunimsan, sen axir qonsan" ta'kidi orqali Rauf Parfi insonni chuqur falsafiy o'y girdobiga tashlaydi. Go'yo "...tuyg'u va fikr Rauf Parfi estetikasida ruhiy erkinlikka erishish uchun safarga chiqqan yo'lovchi... Fikr-tuyg'uning ham joni bor, ruhi bor. Shoir she'riyatida ular millat va Vatan timsolida qaddini rostlaydi" [Раҳимжонов Н. 5:217]. So'zlarga yuklangan ma'no, tashxis san'ati vositasida ko'ngilga murojaat, u bilan monologik tarzda olib borilgan suhbat kishining ruhiyatiga, shuuriga ta'sir etadi.

Taxmisda qo'llangan tashbeh (qumrilar kabi, bulutdek), tanosub (balo, alam, faryod, dod, haqorat, tubanlik, kishanlar, qilichlar, xun, qon, hurlik, ozodlik, umid, kuyding, yonding, bo'zlashding, sustlashding), talmeh (Turonim, Ka'bam, Turkistonim), takrir (Alloh-Alloh), nido va tashxis (Ko'ngil, sen bunchalar nega kishanlar birla do'stlashding) vositasida Rauf Parfi timsolli tafakkurning chuqur falsafiy manzarasini chizib beradi. Cho'lponning millatni ko'ngil vositasida uyg'otmoqlik orzusini ijtimoiy silsilalar davrida ham yuksak badiiy saviyada qayta jonlantiradi. Zero, bu davrda adabiyotni xalq dardiga hamnafas deb bilgan, uni san'at darajasida his qilgan haqiqiy ijodkor qalbini aynan shu tuyg'u bezovta qilardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жабборов Н. Чўлпон шеърлятида миллий истиқлол орзусининг бадий талқини. / "Чўлпон ижоди ва замонавий адабий жараён" мавзусидаги конференция материаллари. – Тошкент: Mashhur-Press, 2018.
2. Каримов Н. XX аср менинг тақдиримда // Jahon adabiyoti, 2001, №1. – Б. 24–28.
3. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 2007.

4. Рауф Парфи. Сакина. Сайланма. – Тошкент: Muharrir, 2013.
5. Раҳимжонов Н. Истиқлол ва бугунги адабиёт. – Тошкент: O'qituvchi, 2012.
6. Ҳожиева Ш. Чўлпон ва миллий шеърятнинг янги ланиши. – Тошкент: Muharrir, 2018.

ESTETIK KATEGORIYALAR TIZIMINING SHE'RIYATDAGI IFODASI

Manzura Pirnazarova

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Urganch davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Omon Matjon ijodida go'zallik, fojeaviylik, komiklik kabi estetik kategoriyalarning bir-biriga muvofiq ravishda mavjud bo'lishi va shu jihatlarning o'quvchi zehni va shuuriga ta'siri kabi masalalar yoritilgan. Omon Matjon ijodida estetik kategoriyalar tizimi shoirning pirovard maqsadiga mos ravishda muayyan mezonlar asosida shakllangani ochib berilgan.

Kalit so'zlar: go'zallik, fojeaviylik, komiklik, estetik kategoriya, ruhbaxshlik.

Annotation: In this article, issues such as the existence of aesthetic categories such as beauty, tragedy, comedy and the influence of these aspects on the reader's mind and consciousness are highlighted in the work of Amon Matchon. In the works Amon Matchon, it is revealed that the system of aesthetic categories was formed on the basis of certain criteria in accordance with the ultimate goal of the poet.

Key words: beauty, tragedy, comedy, aesthetic category, motivation.

Badiiy adabiyotda go'zallik, fojeaviylik, komiklik kabi estetik kategoriyalar bo'lib, ularning barchasi yoki bir qismi muayyan ijodkor asarlarida bir-biriga nisbat e'tibori bilan muvofiq ravishda mavjud bo'ladi. Shu nuqtai nazardan Omon Matjon ijodida qayd etilgan estetik kategoriyalarga qo'shimcha ravishda ruhbaxshlikni darj etish lozim, nazarimizda. Bir ijodkor asarlari estetik kategoriyalarning qay biri ustunligi yoki yaqqol ko'zga tashlanishini uning san'atkorligi yoki mahorat mezonlariga bog'liq bo'lmasa ham, o'quvchi zehni va shuuriga ta'siri kabi omillarga o'z hukmini o'tkaza olgani sababi jiddiy masala sanaladi. Shu bois ham, M.Qo'shjonov "Estetik kategoriyalarning jamuljamigina hayotni adabiyotda aks ettirish masalalari bo'yicha tasavvurimizni to'ldirishi mumkin, xolos" deya, "Dialektika kategoriyalari singari go'zallikning estetik kategoriyalarida ham ko'tarinkilik, fojeaviylik, komiklik bir-biri bilan bog'langan bo'ladi, biri ikkinchisini to'ldiradi yoki biri ikkinchisi uchun shart va sharoit yaratadi, aks holda ular real hayotni to'laligicha aks ettira olmaydi" – Yu.Borevning degan fikrlaridan iqtibos keltiradi [Кўшжонов М. 5:301].

Fikrimiz isboti sifatida "Ming bir yog'du" dostonidan quyidagi parchani keltiramiz:

Til! Xalq ruhining go'zalligini asrovchi tilsim!

Yurakdan chiqayotgan sirli ehtirolarni,

orzularni olam borlarida moddiylashtiruvchi mo'jiza! (EH, 36)

Shoir ushbu satrlarda go'zallik kategoriyasiga til bilan bog'liq ravishda juda aniq ta'rif bermoqda: go'zallik – hissiyotlarni moddiylashtiruvchi mo'jiza. Haqiqatan, bizning go'zallik haqidagi tushunchamiz biror narsa haqida

tasavvurlarimizning hissiyotimizda naqadar moddiylashuviga bog'liq. Masalan, mehr tushunchasi haqida tasavvuri tiniq kishi kimningdir yoki nimaning o'ziga nisbatan bo'lgan mehrini hatto vujudida moddiy iliqlik shaklida qabul qiladi. Yoki nimadandir qattiq ranjigan paytingizda qafas ichida turgan yuragingizda jizg'anakka o'xshash his tuyasiz. Demak, shoirning go'zallik borasidagi fikrlari boshqa barcha estetik kategoriyalarga ham xosdir. Shuning uchun shoir o'z asarlaridagi mavhum tushunchalar mavhum tushunchalarga aylangunicha, ya'ni hissiy ta'sir moddiy ta'sirga aylangunga qadar qayta-qayta ishlagan. Masalan, "Seni yaxshi ko'raman" she'rida quyidagi satrlar har kimning hissiy borlig'i, shuur olami kengligiga bog'liq ravishda moddiylashadi:

Sen oppoq ko'ylakda –

Qorasoch,

Tushimda ko'rinding yosh pari.

Va bor-yo'q xotiro ot lamim

Chekindi ruhimdan tashqari.

Kim bo'lding? Tanimni osmondan

Quyoshga nur qilib elatgan!

Kim bo'lding? Mudroq bu tanamda

Sanoqsiz daraxtlar gullatgan! (IYo, 221)

Mana shu satrlarni o'qigan o'quvchi o'z zehnda sodir bo'layotgan hissiyot ko'zqusida hatto umrida ko'rmagan parilarini o'rta yasharidan "yosh"ini ("yosh pari") farqlaganda holda ko'radi. Demak, shoir badiiylikda estetik kategoriyalar o'rnini nihoyatda teran anglagan, uning ijodida bu kategoriyalar uyg'unligi va bir-biri bilan uzviy stixiyali jarayon mahsulini emas, ular shoirning muayyan maqsadlari, o'z oldiga qo'ygan ustuvor vazifalari adosi yo'lida yuzaga kelgan.

Shoir ijodida obrazlar tizimi ancha boy bo'lishi bilan birga tizimsizdir. Ana shu tizimsizlikning o'zi badiiy ijod uchun o'ziga xos tizim sanaladi. Bu borada adabiyotshunos olim M.Qo'shjonovning quyidagi satrlarini eslash lozim bo'ladi: "Haqiqiy san'at va adabiyotda ma'lum bir tipdagi obrazlarni yaratishning qolipi yo'q, bo'lishi ham mumkin emas. Har bir ijodkor o'z iste'dod yo'nalishi bog'liq dunyoni idrok etishdagi individual qarashlari asosida ijobiy qahramon obrazini yaratadi va faqat unga xos xususiyatlar bilan boshqalardan farq qiladi. Mabodo obrazlar klassifikatsiya qilinadigan bo'lsa, bu ishni obrazlarniig ko'proq umumbelgilari asosidagina qilish mumkin" [Kўшжонoв M. 5:308]. Shuning uchun ham tadqiqotlarda to'g'ri ta'kidlanganidek, "o'zbek adabiyotshunosligida... drama, komediya, tragediya janrlari o'rganilgan bo'lsa-da, go'zallik, ulug'vorlik, xunuklik, komiklik va fojiaiviylik, ularning ifodalanishida o'ziga xoslik va bir-biri bilan aloqasi kabi badiiy-estetik masalalar deyarli, o'rganilmagan. Komiklik va fojiaiviylik, satira

va yumor, dramatismga oid ayrim masalalar ham, aksariyat hollarda, faqat dramatik tur va uning janrlariga xos xususiyatlar sifatida o'rganilgan, xolos" [Ахронкулов А.П.1:5]. Shu o'rinda A.Ahronqulov Yu.Borevning yuqoridagi fikrlarining davomi sifatida aytgan "Hayot estetiklik jihati bilan juda boy va xilma xil: unda go'zallik, ulug'vorlik, fojiviylilik, komiklik, epiklik, dramatiklik va hokazolar murakkab bir tarzda bog'langan va alohida holda, deyarli, hech qachon uchramaydi" – degan fikrini keltiradi. Shunday ekan, borliqni badiiy o'zlashtirishning maxsus turi bo'lgan adabiyot va san'atda ushbu kategoriyalarning o'zaro munosabati, ta'siri va uyg'unligi yanada yorqin tarzda o'z badiiy ifodasini topadi. Zero, o'zbek adabiyotining mazmun- mundariyasi juda boy bo'lib, unda nafaqat dramatik, balki epik, lirik, liro-epik tur va janrlarda ham ko'plab badiiy yuksak asarlar yaratilgan

Terannigoh munaqqidning "Haqiqiy san'at va adabiyotda ma'lum bir tipdagi obrazlarni yaratishning qolipi yo'q"ligi haqida mulohazalarini ayni Omon Matjon ijodi ham ko'rsata oladi. Hatto bir shaxs yoki predmet va yoxud his shoir ijodida bir-biridan farqlanuvchi mutlaq qarama-qarshi obraz yaratishga xizmat qiladi. Masalan, uning ikki she'rida ayni bir – buxorolik bolalar ikki xil obrazda namoyon bo'ladi. Biri "Bolalarga bir nima bering" she'rida dori sepilgan dalaga haydalgan bolalar kimningdir umrini farovon qilish uchun qattiq mehnatga, kimlardir bol tatishi uchun zahar yutishga mahkum insonlar obrazini yorqin yaratishga xizmat qilgan. Ayni shu she'rda estetik kategoriya sifatida fojiviylilik ham namoyon bo'ladi:

Bolalar, qo'llari yorilgan, qora,
Ko'pi yalangoyoq, juldur, saranglab,
Jenyaga, kosmosdan tushgan odamdek,
Hayron boqardilar nenidir anglab. (O'BO, 81)

Shoirning boshqa bir she'rida xuddi shu buxorolik bolalar bilan vatan nimaligini anglamagan insonlar obrazi yaratiladi. Ijodkor, qanchalik og'ir va g'ayritabiiy tuyulmasin, shunday obraz yaratgan. Bir qarashda buning uchun shoirdan norozi ham bo'lamiz. Lekin bu real fojiviylilikni aniq-tiniq yaratish uni qabul qilishdan og'ir bo'lgani, ya'ni shoir bu obrazni chizish uchun bizda uning mushohadasidan hosil bo'lgan og'riqdan ko'ra ham og'ir bir hisni boshidangina emas, butun vujudidan o'tkazganini o'ylab, bu noroziligimizni izhor qilishdan o'zimizni tiyamiz:

"Buxoroda, ba'zi yosh bolalar Bahovaddin Naqshbandiy dahmasining rangin toshlarini ushatib, xorijiy sayyohlarga saqichga alishtirayotganliklarini eshitib...

Ey sen, Buxoroning aziz naqshlarin
Uvatib, saqichga alishgan bola,
Nahotki, sezmadim, shahar holidan
Hatto shu sayyohning ko'zida jola?!

Nahotki, sen uchun Ulug'bek qurgan
Ilm darvozasin buzasan o'zing,
Toleing ranglarin ko'ra olmasang,
Musulmon bo'lsang-da, ko'r bo'lsin ko'zing... (O'BO, 7)

Adabiyotshunos M.Qo'shjonov qarashlariga suyanadigan bo'lsak, adabiyotda va san'atda shunday asarlar ham borki, ularda biz katta insoniy fojiani ko'ramiz. Ularda tasvirlangan fojia qahramonlarning ma'lum bir muhitda adashishlari, ikkilanishlari, ma'lum bir pozitsiyada mustahkam turolmasliklari, boshqacha qilib aytganda to'g'ri va noto'g'ri tebranishlariga bog'liq. Fikrimizcha, bularning barchasi Omon Matjon ijodida estetik kategoriyalar tizimi shoirning pirovard maqsadiga mos ravishda muayyan mezonlar asosida shakllanganini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ахронкулов А.Р. Ҳозирги ўзбек прозасида комиклик ва фожиавийликнинг бадий уйғунлиги: Филол. фанлари номз... дисс...– Тошкент, 2009.– Б. 5.
2. Омон Матжон. Эркин ҳаволарда. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1997.
3. Омон Матжон. Ўртамизда биргина олма. – Тошкент: Ёш гвардия, 1990.
4. Омон Матжон. Иймон ёғдуси. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995.
5. Қўшжонов М. Танланган асарлар. “ШАРҚ” НМАК. Тошкент-2018 – Б. 308.

NODIRA AFOQOVA SHE'RLARIDA ONA TIMSOLI

S.Muminova,

*filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
QarDU*

Nozik did, noyob iste'dod sohibasi, yetuk olima Nodira Afoqova o'zining noyob she'rlari bilan milliy she'riyatimiz taraqqiyotiga muhosib hissa qo'shib kelmoqda. Uning she'riyatida ona, vatan, imon, e'tiqod, oila, inson ruhiyati teran tahlil qilinadi, borliq va inson munosabatlari o'ziga xos nozik fahm va his bilan idrok etiladi.

Ayonki, she'riyat so'z san'atining boshqa turlaridan o'zining nafisligi, his-tuyg'ularga boyligi, obrazliligi, badiiy bo'yoqdorligi bilan alohida ajralib turadi. Hassos shoira Farida Afruz e'tiroficha: "Ko'klamni sog'ingan ma'sum quhlardek bezovta shoir yuragidagi bir parcha yog'du bu - she'rdir" [1.78]. Har bir ijod mahsulining o'z tabiati, xislat-xususiyati, kechinmalari, obrazlar jilvasi mavjud. Shu ma'noda, Nodira Afoqova she'rlarida inson ruhiy olami mukammal darajada inkishof etilganligini ko'ramiz.

Shoira, avvalo, ona. Ona mo'tabar zot, ilohiy siymo. Nodira Afoqova she'rlarida onani ulug'lagan. Farzandga onadan yaqinroq inson yo'q. Bu tabiiy holat. Xalqimizda "Bir onang do'st, bir tanang" degan naql bor. Barchaning sirdoshi, g'amxo'ri uning onasi bo'ladi.

Ona, senga xat yozgim keldi,
G'oyibona qilay deb gurung.
Ona senga dard yozgim keldi,
Garchand ko'pdir o'z tashvishlaring.

Lirik qahramon ruhiyatida milliylik aks etib turibdi. Undagi andisha, tortinish kabi tuyg'ular milliy o'zligimizga xos xislatlardandir. Farzand o'zining dard-iztiroblarini, qalb kechinmalarini bayon qilmoqchi. Bu dunyoda har kimning o'z dardi-tashvishlari bor. Odamlar o'rtasida bir-birini dardini tinglashga fursat topadiganlar kamayib bormoqda. Birgina ona zoti sabr-toqat bilan farzandlarini hech qanday manfaatsiz tinglay oladi, kerakli nasihatlar, mehr bera oladi.

Yuragimni o'rtar sog'inchlar
Hayot dilga alam joylasa.
Ba'zan boyi baland kimsalar
Salomimga alik olmasa. [2. 33]

Inson hayotda yashar ekan, turli xil vaziyatlarda duch kelishi tabiiy. Shoira "Bo'yi baland kimsalar"ga duch kelib qalbi ozorlanganida, yaxshilik uchun uzatilgan qo'li havoda muallaq qolib ketganida, bot-bot munis onasining ma'sum nigohini,

qaynoq muhabbatini qo'msaydi. O'tkinchi dunyoning ho-yu-havaslariga berilgan, erta bilan emas, bugun bilan yashayotgan ma'naviy dunyosi qashshoq kimsalardan nafratlanadi. Aynan mana shu o'rinda ijodkorning ma'naviy-ruhoniyligi dunyosi ayonlashadi, shaxsiy individual mahorati namoyon bo'ladi. Onaning farzandiga bo'lgan cheksiz mehrini hech narsa bilan qiyoslash mumkin emas. Ona buyuk yaratuvchi, borligimizning sababchisidir. Hammamiz ham chorasiz qolsak, mahzun bo'lsak, onamizni qo'msaymiz, unga intilamiz, asliyatimizga qaytamiz. Insoniyatning asliyati onada mujassam bo'ladi.

Dunyo bo'lib ko'rganmi dunyo
Buncha ma'yus, dilbar ayolni?
Jonlantirib qo'yganmikan yo
Bilmay qolib mahzun xayolni?
Eslaymanu, gullaydi ko'ksim,
Pari edi, guljamol edi.
Eslaganda Oy kuyar: aytsin,
Xayoldayin bir ayol edi. [3.62]

Shoiraning nazdida uning onasi "Pari edi, guljamol edi", dunyo uningdek dilbarni aslo ko'rmagan. Dunyo shoirlari ona haqida eng sara shohbaytlarni bitgan. Onaning o'limi qalblarni larzaga solishi tayin. Shoiraning isyonini tushunsa bo'ladi: "Yaratding-u ishq bilan, yana, Bu suvratni o'chirding nechun?" Onadan ayrilish nihoyatda musibatli. Abdulla Oripov yozganidek: "Ona ketsa, qulab tushsa arziydi osmon".

Shoira farzandlariga bag'ishlangan she'rlarida dunyodagi jamiki onalar misoli ular timsolida o'z orzu-umidlarining mujassamini ko'radi. O'zi ulgurmagan, erishmagan, yeta olmagan armonlarining ro'yobini ularda ko'rishni istaydi.

Siz osmon tarafdin kelgansiz uchib,
Oftobmi, oydadir sizning sarrishta.
Shunchalar ilohiy, shunchalar najib,
Qushning qanotidan hurkkan farishta. [2.37]

Mazkur misralar orqali ijodkor sof milliy kolotitni bera olgan. Bizning xalqimizda bola pokiza yaratiq sifatida qadrlanadi, u oilani birlashtiruvchi, yomonliklardan xoli zurriyod sifatida e'zozlanadi. Bola nozik farishta, uni asrash lozimligini misralarda shoira yaqqol tasvirlab bera olgan.

Shoira Nodira Afoqova ham farzandining bu dunyo sitamlariga duch kelmasligini onalik mehri bilan xohlaydi. Uning "Iltijo" nomli she'rida shunday misralar bor:

Silkitasan-qo'llaring bejon.
Yomg'ir aro boqasan ma'yus,

Ostonamga uyan xazon –
Buncha meni yaqin oldin, Kuz?
Gulga kirib borar tushlari
Qushdayin hur olisda bir qiz -
Menga o'xshar ko'zlari,
O'tma uning ko'chasidan, Kuz!

Kuz - xazon fasli sanaladi. Tabiat bilan inson umri orasida mutanosiblik mavjud. Bahor – yasharish fasli. Hazrat Navoiy ham inson umrini shartli ravishda to'rtga bo'lgan edi: "(tufuliyat (yoshlik) 7-8 yoshdan 20 yoshgacha, shabob (yigitlik) - 20 yoshdan 35 yoshgacha, kuhuliyat (o'rta yoshlik) - 35 yoshdan 45 yoshgacha va keksalik 45 yoshdan 60 yoshgacha). Mana shu muddatda inson ma'naviy-ruhiy jihatdan turli darajada bo'ladi. Shoiraning iltijosida qizining baxti kamolini ko'rish orzusi mujassamlashgan.

Nodira Afoqovanning bisotida "Fitratjonning allasi" nomli o'g'liga atalgan she'ri mavjud. Erkka, ma'rifatga, Vatanga sodiqlikka, qadri balandlikka bo'lgan da'vat yangraydi.

Eng go'zal gullarni sen deb terayin,
Istasang, oyni-da olib berayin,
Bitta nim kulgingga jonim berayin,
Alla-yo, alla. [2. 32]

Ma'lumki, alla xalq og'zaki janrining mashhur janrlaridan biri. Alla kuylash jarayonida onalar farzandlariga baxt, rizq, umr, ezgulik, vatanga muhabbat tilaydilar. Alla tinglab katta bo'lgan bolaning ruhiyatiga ona yurtga, vatanga muhabbat degan oliy tushuncha singgan bo'ladi. Bola katta qilayotgan ayol cheksiz qudratga ega. Tunni kunga, kunni tunga ulab, uyqudan kechib mashaqqat chekib Bolani voyaga yetkazadi. Shuning uchun ona uchun farzand aziz dilband. Bolasi kulsa kuladi, yig'lasa yig'aydi:

Tush ko'rsang, anvoyi dunyolarni ko'r,
O'zidan ko'paygan hulvolarni ko'r,
Dunyo sog'ingan nek ro'yolarni ko'r,
Alla-yo, alla. [2.38]

Shoiraning "O'g'lim Fitratga" nomli yana bir she'rida o'g'ilning ulg'ayganligidan, balog'atga yetganida masrur onaning dil iqrorlari aks etgan:

Bilasan, ne hayotimga teng –
Bilasan, men men emas she'rsiz.
Sunbulada o't yoqsam bunda
Farg'onada ko'rindi tutun.
Baxt desam kam, arzimas juda,

Haqqing deyman, bo'lsin bus-butun.

Qush tilida so'ylaydi Fitrat.

Sensanu she'r-borim, naylay man?

Tanla, desa bir kuni qismat,

She'rlarimni yoqib tashlayman. [3.89]

Shoira uchun she'r hayotiga teng bo'lsa-da, agar tanlash kerak bo'lsa, albatta, o'g'lini tanlashini mardona aytmoqda. Ona doimo ona. Har qanday holatda ham u farzandini tanlaydi. Orzu-umidlarini, ho-yu havaslarini, shirin jonini, qiziqishlarini, hayotini farzandining baxti yo'lida nisor etishga tayyor. Bu fidoyilik onaga xos xislat. Shoira ona siymosini ana shunday yorqin bo'yoqlarda tasvirlaydi. Ayol uchun farzandining baxtidan o'zga baxt yo'q.

Xulosa qilib aytganda, shoira Nodira Afoqova ijodida tasvirlangan ayol ruhiy olami insonlarni go'zallikni anglash, his etish, onani ardoqlash, insonni qadrlash, sevishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Фарида Афрўз. Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1999.
2. Нодира Афоқова. Баҳорнинг бошланиши. Бухоро – 1997.
3. Нодира Афоқова. Бизнинг эра. Тошкент: “Ижод-пресс”, 2019.

MUSTAQILLIK SHE'RIYATI VA ARUZGA MUNOSABATNING O'ZGARISHI

Nazarova Dildora Ilhomovna

f.f.f.d(PhD), dotsent

Buxoro davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy aruz hamda mustaqillik va mustaqillikkacha bo'lgan davr o'zbek she'riyatida aruz va unga munosabat haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: mavzu, g'oya, shakl, aruz.

Hozirgi tarixiy sharoitda ma'naviy merosimiz durdonalarini chuqurroq o'rganish imkoniyati kuchaydi. Mustaqillik sharofati hamda ilm-fan sohasida erishilayotgan yutuqlar yanada yangidan-yangi zafarlarni qo'lga kiritish sari ilhomlantirmoqda. Bu zaminda yetishgan alloma shoirlar va buyuk mutafakkirlarning o'zbek she'riyati va adabiy-falsafiy tafakkurini naqadar baland pog'onaga ko'targan asarlarini har tomonlama chuqur o'rganishga, madaniy-ma'naviy merosimizni asrab-avaylash, uni kelajak avlodga bekamu ko'st yetkazish uchun keng yo'l ochildi.

Ijtimoiy va ma'naviy hayotimizda ro'y berayotgan o'zgarishlar hozirgi kunda butun adabiyotimiz tarixini boshqacha nigoh bilan tahlil etishni, uning ko'p jihatlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo qilmoqda. Xususan, o'zbek adiblarining she'riyat, madaniyat va adabiyot uchun qilgan xizmatlari hamda ularning insonparvarlik, ma'rifatparvarlik tuyg'ularini targ'ib etuvchi asarlari ma'naviyatimiz va madaniyatimizning taraqqiyot yo'llarini aniqlash borasida muhim ahamiyat kasb etadiki, ularni istiqloq mafkurasi asosida yanada chuqurroq o'rganishga to'g'ri keladi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek: "Tarixiy tajriba, an'analarning meros bo'lib o'tishi – bularning barchasi yangidan-yangi avlodlarni tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolmog'i lozim".

Aruz o'zining serjilo va ohangdorligi, misradagi hijolarning uzun yoki qisqa aytilishi bilan boshqa vaznlardan ajralib turadi. Bu vazn islom dinining vujudga kelishi hamda uning yoyilishi natijasida arablardan forslarga, fors-tojik xalqlari adabiyoti ta'sirida esa turkiylarga, jumladan, bizning adabiyotimizga ham kirib kelgan. Aruz she'riy vaznlar tizimi nazariyasiga milodning VIII asrida yashab o'tgan arab filologi Xalil Ibn Ahmad (vafoti 791 y.) tomonidan asos solingan. Uning «Kitob ul-ayn» asarida mazkur vaznning nazariy qonuniyatlari o'z ifodasini topgan.

Aruz vazni IX asrdan boshlab fors-tojik she'riyatiga, XI asrdan boshlab esa turkiy she'riyatga ham kirib keldi. Biroq mazkur tillar (arab, fors-tojik va turkiy) fonetik, leksik va grammatik jihatdan tubdan farq qilishi tufayli, har bir tildagi aruzning o'ziga xos belgilarini yoritish, aruzni boshqa tillarga moslashtirish, yoxud shu tillarni aruzga moslashtirish muammosi yuzaga chiqdi. Natijada, «forsiy aruz», «turkiy aruz» kabi maxsus atamalar vujudga keldi. Shu bilan birga, badiiy ijod,

xususan, she'riyatning ravnaq topishi natijasida amalda qo'llangan vaznlar Xalil ibn Ahmad tomonidan ko'rsatilgan bahr va vaznlar doirasidan kengayib ketganligi sababli, aruz nazariyasiga oid yangi asarlarga ehtiyoj sezildi.

Xalil ibn Ahmaddan keyin XI-XIII asrlarda bir qator arab va fors-tojik she'rshunos olimlari yuqoridagi muammolar tahliliga bag'ishlangan asarlarni maydonga keltirishdi. Rashiddin Vatvotning «Hadoyiq us-sehr», Ibn Hojibning (1188-1249) «Ilm ul-aruz», Shamsiddin Muhammad ar-Roziyning «Al Mu'jam fi ma'oyiri ash'oril Ajam», Nosiriddin Tusiyning (1210-1274) «Me'yori ul-ash'or» kabi asarlari shular jumlasidan bo'lib, keyingi davr aruzshunoslari o'z fikrlarini asosan shu manbalarga tayangan holda ifoda etishgan.

Aruzshunoslik tarixida XV-XVI asrning birinchi yarmi, ya'ni temuriylar davri alohida o'ringa ega. Shu davrda, aniqrog'i, 1437- yilda Shayx Xudoydodi Ahmad Taroziyning Mirzo Ulug'bek topshirig'i bilan yozgan «Funun ul-balag'a» asari turkiy tilda mazkur masala tahliliga bag'ishlangan ilk manba bo'lganligi bilan muhim ahamiyatga ega.

Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon», Zahiriddin Boburning «Muxtasar», Atoulloh Husayniyning «Badoe' us-sanoe'» (fors-tojik tilida) kabi asarlarida ham she'rshunoslikning boshqa jihatlari (janrlar, badiiy san'atlar) bilan bir qatorda turkiy va forsiy aruzning nazariyasi hamda o'z davriga ko'ra amaliyotiga oid fikr-mulohazalar, qonuniyatlar o'z ifodasini topgan. Sanalganlar orasida Navoiy va Boburning asarlari shu muammoga maxsus bag'ishlanganligi bilan ahamiyatlidir.

Aruz vazni turkiy adabiyotda bir necha asrlar mobaynida o'zining nozik jilolarini namoyon etib kelmoqda. XX asrning 20-yillariga kelib ushbu vaznga murojaat nisbatan kamaydi, o'rnini barmoq va sarbast vaznlari egalladi.

XX asr birinchi choragi o'zbek she'riyatida barmoq, erkin vaznlarning rivoji, yangi she'riy shakllar, bayon usullari vujudga kelgani kuzatiladi. Yangi tarixiy sharoitda aruzning yetakchilik o'rnini boshqa she'riy tizimlar ola boshladi. Bu hol 20-yillarning o'rtalari va 30-yillar boshlarida ko'rina boshladi. 30-yillar oxiri va 40-yillarda esa aruzdagi tushkunlik yaqqol bilinadi. Aruz va uning janrlari bo'yicha yuz bergan bu holatni M.Yunusov o'zicha shunday baholashga urinadi: "Shu qadar uzoq umr ko'rishiga qaramay, o'rnini boshqa she'riy formalarga beradi. Sosialistik jamiyat adabiyoti oldiga katta va yangi vazifalar qo'ygan bir vaziyatda g'azal ramkalari torlik qilib qoldi. Endi u hayot talablariga to'la javob beradigan janr bo'lolmas edi. Binobarin, uni tashviq qilishning ahamiyati qolmadi". Afsuski, bunday noto'g'ri qarashlar mustaqillik yillarigacha davom etib keldi. Aruz va uning janrlari qimmat, ahamiyati ma'lum bir g'oyaning talabiga javob berish-bermasligi bilan o'lchanmaydi, albatta.

Mustaqillikkacha bo'lgan davr o'zbek she'riyatida aruz va unga aloqador janrlarning orqa planga o'tishi qonuniy bir holdir. Kuzatishlar ko'rsatadiki, XX asr boshlari o'zbek she'riyatida ikki yo'nalish ko'zga tashlanadi. Bir tomondan, ijodiy tafakkurda aruz tizimidan tashqari chiqishga ehtiyoj kuchaydi, ikkinchidan, jadidchilik harakati bilan bog'liq holda ijodda ham yangilikka, o'ziga xoslikka intiluvchi jadid adabiyoti vujudga keldi. Shuning uchun yangi uslub va shakllarning tez orada mavqega ega bo'lishi, rivoji tasodifiy emas edi. Bu davrda mavjud voqelik mohiyatini anglab yetmay yozilgan chorlov, olqish xarakteridagi she'rlar yaratila boshlandi.

Bu, albatta, yaxshimi, yomonmi inqilobiy o'zgarishlar yuz bergan jamiyatning o'tish davri adabiyoti uchun tabiiy hol edi. Ixchamlikka va soddalikka moyil barmoq, sarbast vaznlari bu vazifani uddalashda yaxshi natija bera boshladi. Tabiatan falsafiy, murakkab va yuksak badiiylikka asoslangan aruzda bunday engil she'rlar yozish noqulay edi. Shu bois aruzda ijod qilgan zabardast shoirlarning bir qismi barmoqda yoza boshladi. Hamza, Avloniyalar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Aruz an'analari sho'rolar davrida ham boshqa she'riy shakllar bilan bir qatorda ravnaq topishi mumkin edi. Lekin o'sha paytda paydo bo'lgan madaniy merosga nigilistik munosabat unga tasir etmay qolmadi. Mumtoz adabiyotga o'zbek ziyolilarining qarashi ziddiyatli edi. Masalan, 1919 yili tuzilgan «Chig'atoy gurungi» tashkilotining Saydali, Fitrat kabi a'zolari mumtoz an'analarni davom ettirib, saqlab qolishni yoqlab chiqsalar, tashkilotning ularga qarshi fikrli a'zolari esa mumtoz adabiyotni saroy adabiyoti deb baholab, uning shakllari XX asr uchun yaroqsiz, degan da'vo bilan chiqdilar. Keyinchalik boshqa milliy-ma'naviy qadriyatlar ta'qiqlana boshlandi. Avvalo, dinga qora chiziq tortildi, so'ngra «dinga aloqasi borligi», «o'rganish qiyinligi» uchun o'zbek arabiy imlosi almashtirildi. Bir qator buyuk shoirlar din tamg'asi bilan, boshqalari saroy shoirlari deyilib, ularning asarlari chetga surib qo'yildi. Natijada o'tmish adabiyoti ta'siri ostida ijodiy tafakkuri shakllanishi mumkin bo'lgan shoirlardan adabiyotimiz mahrum bo'ldi. 20-yillardan boshlab mafkuraviy zo'ravonlik, adabiyotga tayziq kuchaya bordi. Bu yillari aruz va uning mumtoz janrlari matbuotda deyarli bosilmas edi. Aksincha, sochma she'r, mayakovskiycha marshlar saviyasidan qat'iy nazar to'xtovsiz bosilardi. 30-yillarning ikkinchi yarmidan qatog'on boshlanib, xalq behisob moddiy va ma'naviy yo'qotishlar ko'rdi. Shu yillarda ham shoirlar xalqning shod-u xurramligini, o'sha davr mafkurasiga xos balandparvoz g'oyalarni tarannum etib, g'azallar yozishga majbur edilar. Jumladan, Habibiy, Sobir Abdulla kabi shoirlarning g'azallarida shunday soxtalik, balandparvoz tumtaroqlik kuchliligi kuzatiladi. Lekin 40- va 50-yillar she'riyati uchun bu umumiy holat edi. Natijada aruzga nisbatan ham nigilistik munosabat kuchaydi. Bu o'rinda Mirzo Tursunzoda va Abdulla Kahhorning aruzga munosabatlarini eslash kifoya.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, Xurshid, Chokar, Sobir Abdulla, Habibi, Anisiy, Ulfat kabi shoirlarda ishqiy mavzuda yozilgan g'azallarning go'zal namunalari bor. Ular aruzda epik asarlar ham yaratdilar. Misol tariqasida Sobir Abdullaning «Tohir va Zuhro» pesasini, Xurshidning «Varhod va Shirin» «Layli va Majnun» musiqali dramalarini, Habibiyning «Zamonamiz Farhodlari» dostonini, Ulfatning «Sayohatnoma»sini keltirish mumkin. Ijodlaridagi yutuq, kamchiliklardan qat'iy nazar ularning she'riyatimiz uchun katta xizmatlari shundan iborat bo'ldiki, aruz ananalarini davom ettirib, she'riyatimizning uslubiy bir yo'nalishini saqlab qoldilar va keyingi avlodga uni ma'naviy-ijodiy meros sifatida topshirdilar. Yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan devon tuzish ananasini tikladilar.

XX asrning 60-yillarida «Insonning faqat mehnatiga, faoliyatiga emas, balki ruhiy olamiga qiziqishining oshishi natijasida poeziya o'zining barcha imkoniyatlarini ishga solib, inson qalbini yoritishga va uning qalb manzaralarini tasvirlashga kirishadi. Mumtoz o'zbek adabiyoti esa bu sohada ma'lum tajriba va an'analarga ega edi. Ana shu tajriba va an'analarni puxta egallagan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Jamol Kamol yuksak mahorat bilan aruzni zamon ruhiga, odamlarimiz dili-yu tiliga yaqinlashtirdilar. Adabiyot ahli, she'riyat muxlislari ko'z o'ngida aruz yangi bir dunyo bo'lib yosharib ketdi. Keyingi o'n yilliklarda barmoq vazni bilan bir qatorda aruzda ham muvaffaqiyatli qalam tebratayotgan Mirzo Kenjabek, Tohir Qahhor, Matnazar Abdulhakimov, Ikrom Otamurod, Samandar Vohidov, Isroil Subhon, Sirojiddin Sayyid, Zikrilla Ne'mat va boshqa shoirlar she'riyatga kirib keldilar.

Agar XX asr aruziga e'tibor qaratisa, uning tarixi uch davrga bo'linganini anglash mumkin:

1. XX asr boshlari aruzi – mumtoz ananalarning davom etishi bilan bog'liq.
2. XX asrning 60-yillarigacha bo'lgan aruz – tushkunlik davri.
3. 60-yillardan keyingi davr aruzi – bu vaznning qayta jonlanish, yosharish davri.

Biz bu tasnifni davom ettirib, uning 4-davri sifatida mustaqillik davri aruzini qayd etamiz. Bu davr aruzining o'ziga xosligi shundaki, unda mumtoz va zamonaviy she'riyat ananalarining o'zaro omuxtalashtirilganligi kuzatiladi.

Davrlar o'tishi bilan til rivojlanib, o'zgarib boradi, bir millat yoki davr miqyosidagi she'riy tizimlar bir-biriga o'zaro ta'sir etadi, natijada vaznda ham o'zgarishlar bo'lishi tabiiy.

Ma'lumki, aruz «Qutadg'u bilig»dan boshlab o'n asr mobaynida o'zbek she'riyatining yetakchi vazni bo'lib keldi. Aruzning bu uzoq muddatlik «zafarli yurishi» davrida ham uning ichida kechgan o'zgarishlar, o'sishlar, uning inkorini tayyorlagan jarayonlar bo'lganligini inkor etmagan holda aytish kerakki, to XX asr boshlarigacha aruz qoidalari qat'iy qolip tusini oldi va shu maqomni saqlab turdi.

Zamonaviy aruz ham dastlab ana shu an'anaviy shakllarda namoyon bo'ldi, desak yanglishmaymiz.

Adabiyotlar

1. Rustamov A. Aruz haqida suhbatlar. – T.: Fan, 1972. – 56 b.
2. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. II jild. – T.: Fan, 1992. – 248 b.
3. Begimqulov D. She'riyatimiz yulduzi. Kitobda: A.Oripov. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. 1-jild. –Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. –B. 371-389.
4. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –Toshkent: O'zbekiston, 2002. –558 b.
5. Jabborov N. Zamon. Mezon. She'riyat. –Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2015. –304 b.

YULDUZLAR OBRAZINING PEYZAJ YARATISHDAGI O'RNI (Abdulla Oripov ijodi misolida)

Zarnigor Sohibova

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

Buxoro davlat universiteti doktoranti

zarnigorsohibova1988@gmail.com

+998934553400

Annotatsiya: Adabiyotimizda tabiat manzarasi, bizni o'rab turgan jonli va jonsiz borliq tasviri aks etgan she'rlar alohida turkumni tashkil qiladi. Bunday asarlar manzara yoki peyzaj lirikasi namunalari sifatida kichkina yaproq tasviridan keng yoyilgan o'rmongacha, ko'z ilg'amas toshdan buyuk tog'lar, mayda qum zarrasidan samodagi yulduzlar vasfigacha – juda katta tasvir obyekti, ifoda manbaiga egadir. Mazkur maqolada Abdulla Oripov ijodi misolida yulduzlar obrazi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: peyzaj lirikasi, yulduzlar obrazi, Abdulla Oripov ijodi, antropomorfizm, yolg'izlik.

Annotation: In our literature, poems depicting the landscape of nature, animate and inanimate beings that surround us form a separate category. Such works, as examples of landscape or landscape lyrics, range from the image of a small leaf to a sprawling forest, from an inconspicuous stone to a large mountain, from a small grain of sand to the stars in the sky - they have a very large image object, a source of expression. This article analyzes the image of stars on the example of Abdulla Oripov's work.

Key words: landscape lyrics, image of stars, work of Abdulla Oripov, anthropomorphism, loneliness.

Abdulla Oripov ijodi mavzu rang-barangligi, obraz va tasvirlarning turli-tumanligi, ijodkorning hadsiz taxayyulidan yaralgan mazmunning keng va teranligi bilan ulkan bir ummonga o'xshaydi. Shoir lirikasida bizni o'rab turgan borliq tasviriga vobasta inson kechinma va tuyg'ularini ifodalash, tabiat manzarasining poetik talqiniga uyg'un falsafiy fikrlar aytish, xulosalar chiqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, "Tabiat – ustoz; u insonni ma'nan va jisman kamol toptiradi. U hamisha hikmat va ibrat manbai" [Rahimjonov N. 3:26]. Abdulla Oripovning peyzaj lirikasida ayniqsa yulduzlar obrazining ko'p takrorlanishi diqqatni tortadi. Uning "Yuzma yuz", "Somolyotda yozilgan she'r", "Qarshi qo'shig'i", "Kenglik nuqtasi", "Yulduzlar", "Miltiraydi mitti yulduz" singari qator she'rlarida bu obrazning o'ziga xos poetik surati chiziladi. Shoirning bu obrazga ko'p murojaat qilishi, hatto ilk she'riy to'plamining "Mitti yulduz" deb nom olishi bejizga emas. Oybekdek buyuk insonni osmonning hiloli o'ziga maftun etganidek, Abdulla Oripovni ham tun qo'ynidagi sirli samo yoritgichlari o'ziga asir etgan, ulug'vorlik timsoli bo'lib ko'ringan bo'lsa ehtimol. Yoki "Yuzma yuz" she'rida shoirning o'zi yozganidek poklik va bokiralik ramzidir:

...Yulduzlar, yulduzlar, siz mening uchun

Soflik va ma'sumlik bo'lib yondingiz.

Borim shudir, deya jovdirab sekin

Oq ko'ngil farzandim bo'lib qoldingiz [Oripov A. 2:62].

Nima bo'lganda ham yulduz obrazi ijodkorni qayta-qayta o'yinga toldiradi, mulohazaga chorlaydi. Yulduz va shoirning suhbat berilgan "Somolyotda yozilgan she'r"da [Oripov A. 2:157] ham "ko'k sevmagan gunohkor banda" va "tashvishli yerni xush ko'rmagan" ma'sum yulduz obrazi bir-biriga kontrast qo'yiladi va yuqoridagi misralarga uyg'unlik kasb etadi. Unda ham yuqoridagi holat – odamlarga xos xususiyatlarning tabiatdagi jonsiz narsalarda va hodisalarda ham bo'lishiga ishonish – antropomorfizm [Rahimjonov N. 3:20] holatini kuzatish mumkin. Qashqadaryoning betakror tabiati va tarixi aks etgan "Qarshi qo'shig'i" she'rida esa Abdulla Oripov vohaning yoz manzarasini tasvirlar ekan yulduzlar timsoliga murojaat qiladi. Shoir anchagina yirik hajmli: 38 band, 152 satrdan iborat she'rda yozgi kun-tunni quyidagicha ifodalaydi:

Qaynoq bir to'zon ichra gurkirar endi osmon.

Bosh ustingda o't purkar samoning ajdahosi.

Asta-sekin kun qaytar, bosilar qaynoq to'zon,

Yelar oqshom nafasi – salqin tun ibtidosi.

Har nedan go'zalroqdir balki cho'l kechalari,

Ufqlar kaftdek ravon, ko'k sochgan bor bisotin.

Termulsang ko'ringaydir jannatning go'shalari,

Yulduzlar chug'urlashib so'ylashar tafsilotin [Oripov A. 2:183].

Shoir qalbining eng qaynoq buloqlaridan oqib chiqqan bu satrlar o'quvchi shuurida yoz kunining tunga eshik ochishini jonli va hayotiy tasvirlaydi. Nazarimizda, mo'yqalam tutgan mohir rassom ham bu holatni bu qadar ta'sirchan chizishi mushkul, bu manzara sehrini ifodalashda ranglar ojizday go'yo. Buni faqat Abdulla Oripovgagina xos bo'lgan iste'dod, mahorat, tafakkur tarzi va albatta, ona Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat bilan izohlash mumkin. Matyoqub Qo'shjonov ta'biri bilan aytganda shoir "qaysi bir temaga qo'l urmasin, nima haqda she'r yozmasin, uning ko'zi oldida ulug' Vatan turadi, o'sha ulug' Vatanning farzandi sifatida qo'lga qalam oladi. Shu sababdan uning she'rlari doim hayotbaxsh, pafosi baland, ovozi dadil, ruhi tetik" [5]. Shoir "qaynoq to'zon", "samoning ajdahosi" singari yoz fasliga aloqador birikmalar yordamida saratonning kunduzini tasvirlasa, "go'zal cho'l kechalari", teran ufqlar, "bor bisotini sochgan ko'k" yoz tunini aks ettiradi. Bu tunning tanho egalari esa yulduzlardir. Ular behisht bog'lariga juda yaqin. Shoir tasviridagi yulduzlar shunchaki aql ilm vositasida anglagan jonsiz borliq emas. Ular – tirik va uyg'oq, ular so'zlashadi, sirlashadi. Bu esa she'riyatimizda Abdulla

Oripovning tasvirlash mahorati, xayol kuchi vositasida tashxisning ana shunday go'zal namunalarini yaratganligini ko'rsatib turibdi.

Sizni jondan sevaman, o, yulduzli kechalar,
Qo'yingizda nihondir, sirli va dilbar xayol.
Sizni suronli kunlar qo'msaganman nechalar
Siz bilan tanholikda so'zlashsam, deb bemalol¹.

Lekin shaddod hayotning yulduzda bormi ishi
Insonlar bor – yulduzdan yulduzlar qadar yiroq.
Insonlar bor – o'zidan yo'qdir bo'lak tashvishi,
"Savdoyi" – deb ataydi shoirni ular ko'proq.

Bunda shoir Vatan manzaralarini chizish barobarida ko'ngil iztiroblari, hissiz va sovuq hayot, moddiyat kishilari haqida ham yozadi. Shunda siz qalban, ruhan yolg'iz lirik qahramon bilan yuzlashasiz. Bu zohirdan botinga yo'l sifatida mavjud manzara tasviri, peyzaj vositasida namoyon bo'ladi va bunda yulduzlar obrazi muhim ahamiyat kasb etadi. Keyingi bandda esa shoir "Xullas, gul va yulduzni bir chetga qo'yib tursang, Bu yerlarning bori shu qip-qizil sahro faqat" deya xulosa chiqaradi va o'quvchini voha tabiatidan tarixi tomon sayohatga chorlaydi. "Qarshi qo'shig'i" dan olingan bu besh band go'yo she'r ichida alohida she'rday taassurot qoldiradi.

Abdulla Oripovning Hisor tog'lari tasviri berilgan "Kenglik nuqtasi" [Oripov A. 2:187] she'rida ham "yulduzlarga yaqin, ko'zlardan yiroq" lirik qahramon siymosi bor. Tug'ilgan tuproqqa cheksiz muhabbat aks etgan she'rda Vatan "inson va yulduzlar saltanati" deya ulug'lanadi. Shuningdek, unda "yulduzlar chaqnagan chog'", "yulduzlar vasli", "yulduzfishon vatan osmoni", "yulduzli tun" singari ifodalarda yulduzli tun va ona yurt timsoli o'zaro uyg'un tasvirlanadi. Borliq manzarasining poetik tasviridagi bu uyg'unlik umrboqiylik, ulug'vorlik, yuksaklik kabi mushtarak sifatlar vositasida yulduz va vatan obrazlarini birlashtiradi.

"Yulduzlar" she'rida esa shoir yulduz va tong tasvirini yonma-yon keltiradi. Ular "osmon go'zallari" tarzida metaforik birikma bilan ifodalanadi:

Osmon go'zallarini kumush yotoqlar
Qo'yniga chorlaydi, subhidam yaqin... [Oripov A. 2:15]

Shuningdek, quyidagi she'rda ham sahar chog'i va yulduzlarning o'zaro uyg'un poetik manzarasi bor:

Tongni ham osmonga tik boqib kutdim,
Kuzatdim birmabir yulduzlarni ham.
Xayol daryosida o'zni yo'qotdim

¹ Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. 1-jild. – T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. – B. 183.

Boshimdan koinot zar sochgani dam...

Yulduzlar! Berkinmang tong tumaniga,
Ketmang, ko'zlarimni yoshlab ketguncha.

Yakka suhbatdoshim, ketmagin Zuhram,

Ketma, senga aytgan she'rim bitguncha [Oripov A. 2:20].

Shoirning "Miltiraydi mitti yulduz" nomli she'rida ham olisdagi kichkina osmon jismining so'zdagi tasviri yolg'izlik timsoli bo'lib keladi. Zero, son-sanoqsiz samo yoritgichlari orasidagi tanholik aslida fikran, qalban, ruhan yolg'izlikning ramzidir. Yoningda seni anglagan, so'zsiz tushungan insonning yo'qligidir:

Ko'k gumbazning bir chetida

Bo'shliqlarga urib bosh

Miltiraydi mitti yulduz,

Tanholikdan to'kib yosh [Oripov A. 2:42].

"Badiiy asarda peyzajning ijtimoiy-falsafiy funksiyasi, tabiat olamining har tomonlama tahlili so'z san'atkorining mahorati bilan bog'liq bo'lgan g'oyat muhim masaladir" [Erkinov A. 4:5]. Zero, lirikadagi tabiat manzaralari, bizni o'rab turgan borliqning shunchaki nazmdagi qayta ifodasi emas, unda hayratlar, iztirob, dard, muhabbat, ishq, hijron singari ko'plab insoniy tuyg'ularning ovozi mujassam. Birgina yulduzlar vositasida poklik, ma'sumlik, vatan muhabbati, yolg'izlik singari motivlarni ifodalash mumkinligi fikrimizga dalildir. "Poeziya orqali, poetik obrazlar orqali shoir nimani ifodalaydi, hayotni qanday aks ettiradi – bu ikki masala o'z ahamiyati jihatidan bir-biridan muhim, bir-biridan mas'uliyatli" [Akramov B. 1:7]. Boshqacha aytganda, bunda shoirning poetik olami, mavjud hayot haqiqatini tasvirlash mahorati, tanlangan lirik manzaraning hayot mantig'iga mosligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa peyzaj lirikasi namunalari mavjud hayot tasviri bilan hissiyot va tuyg'u, fikr va mushohada o'zaro uyg'un holda bo'ladi, parallel ifodalanadi. U shunchaki manzaraning so'zdagi aksi emas, u tafakkurning suratidir. Abdulla Oripov ijodidan keltirilgan tahlillar buni isbotlab turibdi.

Adabiyotlar:

1. Акромов Б. Шеърят гавҳари: Лирикада образ муаммоси. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 168 б.
2. Орипов А. Танланган асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. – Т.: Ф.Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 432 б.
3. Раҳимжонов Н. Асқад Мухтор поэтикаси: Рисола. – Т.: Ф. Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2003. – 72 б.
4. Эркинов А. Навоий – пейзаж устаси. – Т.: Фан, 1998. – 64 б.
5. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/maqsuda-ergasheva-abdulla-oripov-sheriyatning-oziga-xos-xususiyatlari.html>

ZAMONAVIY SHE'RIYATDA LOLA VA LOLAQIZG'ALDOQ OBRAZLARINING RAMZIY IFODALARI

O'roqova Nafosat Yoriyevna

Buxoro davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası

dotsenti (v.b.), f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: mazkur maqolada olamning badiiy manzarasini ifodalashda faol qo'llanib kelayotgan flora olami obrazlariga murojaat qilingan. Xususan, lola va lolaqizg'aldoqning o'zbek she'riyati namunalariida tutgan o'rni haqida mulohaza yuritilgan. Ularning o'z ma'nosidan tashqari ramziy ma'nolarda ham qo'llanishi bilan bog'liq misollar keltirilib, ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan. Umumiy xulosalarni berish orqali zamonaviy o'zbek she'riyatining taraqqiyot tamoyillarini belgilashga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, o'zbek adabiyoti, mumtoz adabiyot, zamonaviy she'riyat, obraz, floristik obraz, ramziy talqin, lola, lolaqizg'aldoq.

Abstract: this article refers to the images of the world of flora, which are actively used to express the artistic landscape of the world. In particular, the role of Lola and Lolaqizgaldok in examples of Uzbek poetry has been discussed. In addition to their meaning, examples of their use in symbolic meanings are given and based on scientific and theoretical aspects. An attempt was made to determine the principles of development of modern Uzbek poetry by giving general conclusions.

Key words: folklore, Uzbek literature, classical literature, modern poetry, image, floristic image, symbolic interpretation, tulip

Zamonaviy o'zbek she'riyatida beqiyos va betimsol san'at namunalari talaygina. Bu ma'naviy xazinaning boyishida hissa qo'shgan shoirlarimiz ijodi ilmiy-adabiy jamoatchilik e'tiborida bo'lib kelgan. O'zbek adabiyotining badiiyat mezonlari asosida shakllanib kelayotgan she'riyat haqidagi tasavvur va tushunchalar, estetik qarashlar yangilanishi, ularning jahon adabiyoti ta'sirida yanada rivoj topishi masalalari adabiyotshunos olimlar tomonidan keng miqyosda o'rganilmoqdaki, oqibatda, shoir hamda kitobxonning badiiy didi, estetik saviyasi yuqorilmoqda.

Olamning badiiy manzarasini ifodalashda floristik obrazlarga murojaat etish she'r yaralgan ilk davrlardanoq kuzatilgan adabiy hodisa sanaladi. Zamonaviy o'zbek she'riyatida ham flora olamiga qiziqish, hayot manzarasini ushbu obrazlar bilan yonma-yon tasvirlash an'anasi mavjud. Yangi o'zbek adabiyotining qaysi vakiliga murojaat etmaylik, o'z asarida floristik obrazlarni qo'llaganiga guvoh bo'lamiz. Zamonaviy o'zbek she'riyatida o'simlik, daraxt, gul obrazlari o'z ma'nosidan tashqari turli ramziy ma'nolarni ham tashishda xizmat qiladi. Bu, albatta, shoirning tashqi olamni qanday qabul qilib, uni analiz-sintez qila olish qobiliyatidan kelib chiqadi. Binobarin, bu jarayon turli ijodkorlarda turli shakllarda bo'y ko'rsatadi.

Lolaqizg'aldoq o'zining nafis va bejirimligi, chiroyli tarovati, xalqona shukuhi, xalq tabobatida o'zining alohida o'rni mavjudligiga ko'ra boshqa gullar orasida farqlanib turadi. Ushbu o'simlik-gul obrazining she'rda qo'llanish genezisiga diqqat qaratadigan bo'lsak, xalq og'zaki ijodida ham uning lola gulidan farqlanishi,

unga nisbatan o'ta nozikligi, qattiq tegib ketsangiz, navnihol barglari duv to'kilishi hodisasi aks etgan misralarga rost kelasiz:

Qizg'aldoq lola emas,

Караси қал'а эмас [Ўзбек халқ қўшиқлари. 6:24].

Shuningdek, Sharq mumtoz she'riyati bitiklarida ham lola obrazi mavjud:

Jonki, qat-qat qon bo'lubtur, dog'i ishqing ketmagay,

Lola bargidek ani bir-bir sovursang kuysirib [Алишер Навоий. 1:48].

“Badoyi’ ul-bidoya”dan keltirilgan mazkur satrlarda jon lolaga, yor hajri tufayli uning qat-qat qonga bulanishi lola barglariga mengzalgan. Shoir bu o'rinda rang vositasidan unumli foydalanib, misralarning ishonarli bo'lishiga erishgan. Ma'shuqa ishq lola bargidagi dog' singari oshiq joniga o'rtnashganki, undan qutulib bo'lmaydi.

Zamonaviy she'riyatning tamal toshini qo'ygan, uni yangicha bichimda ko'rishni g'oyat istagan va shunga hamisha intilgan shoir Cho'lponning “Nega?” sarlavhali she'rida lola obrazi bahorning elchisi ma'nosida kelgan. She'riyatimizdagi qadim an'anaga ko'ra bu vazifani, odatda, boychechak guli bajarardi. Ushbu satrlarda kuzatamizki, Cho'lpon bu qobiqni yorib, uni lolaning “bo'yniga yuklagan”:

Ko'klamning oldini to'sgan

Zulmatlik qishmi yiqildi?

Bo'yniga lolalar osgan

Ko'klammi o'rniga keldi? [Чўлпон. 7:28]

She'r matni bilan to'liq tanishgan kitobxon erk kuychisi Cho'lponning ushbu she'rida ham yurti ozod ko'rish istagi g'oyalari aks etganligiga amin bo'ladi. Shoir she'rlarini boshdan-oyoq ramzlarga burkaydi. Mazkur she'rdagi bo'yniga lolalar osgan ko'klam – hurlikka tashna millat ramzi bo'lsa, zulmatlik qish xalqni ezgan hukumatni, og'ir mafkura siyosatini ifodalaydi. Demak, misralardagi lola obrazini bahorning, ya'ni ozodlikning darakchisi sifatida talqin qilish mumkin.

Zamonaviy she'riyatda lola va lolaqizga'ldoq obrazlari o'z ma'no xususiyatiga ko'ra farqlanadi. Zulfiyaning “Bahor” she'rida “quyosh bilan teng turgan” ishchan qizlarning yuzlari lolaga qiyoslangan:

Ishga chiqar, sevib, shoshilib,

Quyosh bilan teng turgan qizlar;

Ishlar bahor kabi ochilib,

Yonar baxmal loladay yuzlar [Зулфия. 5:17].

Odatda, qishloqda kun bo'yi tinmay mehnat qiluvchi, toza havoli tog' qizlarining yuzlari, yonoqlari birday qizarib turadi. Shoir shu holatga ishora qilib, ularning yuzlarida loladagi qizillikni his etadi.

Uning hamdo'st millat qozoqlarning go'zal maskaniga bag'ishlab yozilgan yana bir she'ri "Ko'kchatov"da shu yurtning go'zal manzaralari o'zgacha shukuhda tasvirlangan. Shoiraning ushbu so'lim go'shaga borib, tog'lari-yu bog'laridan, Oynako'lidan tuygan taassurotlari bir tizimga solingan-ki, Ko'kchatov portreti ko'z oldimizda jonli gavdalanadi:

Ho'plam qimizning jannatday kayfi
Ming bitta bahorni yodimga soldi.
Qay qiyoq, lolangning siladi kafti,
Manglaydan umrimning izi yo'qoldi [Зулфия. 5:206].

Bu o'rinda Zulfiyaning lola guli xususiyatiga novatorona yondashganini ko'rishimiz mumkin. Ilmiy ifoda bilan aytganda, shoira bu obrazga yangi poetik ma'no yuklay olgan, demakdir. Ko'kchatovda bo'y ko'rsatgan lolaning barglari, ya'ni kafti lirik qahramon manglayini silaganda (peshonasiga tekkanda), uning bir umrlik dardlari, azoblari unutilgandek; umr daqiqalari ortga qaytib, shoira yoshlikka qaytgandek bo'lgan go'yo. Binobarin, lola gulining chiroyi, husn-u tarovati, "kafti"ning sehri dardlarni arituvchi, yoshartiruvchi xususiyatga ham ega ekan, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Kuzatishlarimiz tasdiqlaydiki, she'riyatimizda lola va lolaqizg'aldoqning turli poetik talqinlari mavjud. Rauf Parfi ijodida bu obraz o'zining butun go'zalligidan hassos shoir maqsadlari yo'lida voz kechadi. Asosiy urg'u umumiy g'oyani ochishga yo'naltirilgani bois nabotot olami dunyosi o'zining asl holini boshqa vazifaga bo'shatib beradi. Nuktadon she'rshunos olim, professor N.Rahimjonov shoir she'riyati xususida quyidagicha mulohaza bildiradi: "Rauf Parfi she'riyatida tabiat unsurlari, moddiy olam o'z hayoti, xayollari bilan yashaydi. Xoh osmon kengliklari-yu yulduzlarmi, xoh bulutlar-u oftob nurlarimi – barchasi o'z quvonchi, tashvishi, dardi-dunyosi bilan betakror qiyofasini namoyon etadi. Sirli olam sinoatlarini tushunishga ko'mak beradi. Tabiat obrazlari ko'zimizga singib kirarkan, ko'nglimizdan joy oladi. Yana muhimi, tabiat detallari, ranglari, obrazlari jamiyatni, insonni tushunishimizga ko'maklashadi" [Паф Парфи. 3:22].

Darhaqiqat, Rauf Parfi she'riyati ramziy obrazlarga to'yintirilgan. Undagi insonga yondosh barcha obrazlar: fauna va flora olami, koinot, butun borliq unsurlari, aslida, eng oliy maxluqot – insonni tushunish va uni boshqalarga anglatish, dunyoning badiiy manzarasini ifodalash uchun xizmat qildiriladi.

Rauf Parfining "Tangri sog'inchi" nomli uch qismdan iborat sonet-she'rida lola obrazi o'z rangini yo'qotadi. Ya'ni biz doimiy bahra olib o'rgangan qizil lola o'rnini qora rangli lola egallaydi. Bunda rang ramzi o'rta qiyofadiki, she'rxonga lolaning qora rangi erish tuyulmaydi. Aksincha, shoirning bu rang ortiga nimani yashirganiga qiziqish bildiradi:

Naqadar go'zaldir bu chirkin tovush.
 Ohang vujudimni chirmadi butkul.
 Bo'g'ildim, ingradim, titradim behush,
 Ojiz badanimga suykandi bir gul.
 Nadir bu?! Qo'limda qora loladir,
 Ul ko'zdan g'oyibdir. Tirik noladir [Payф Парфи. 3:270].

Ko'rinadiki, R.Parfi qora lola obrazi atrofida bir qancha unga hamohang yordamchi unsurlarni yig'ganligi bois, lolaning rangiga e'tiroz tug'ilmaydi. Bil'aks, ular lola gulining obraz darajasida shakllanishi uchun muhim rol bajargan. Masalan, bir kontekstda go'zal va chirkin so'zlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish natijasida ham tazod, ham oksimoron san'ati vujudga kelib, she'rning badiiy pafosini bir pog'ona yuksakka ko'tarilishida turtki bo'lgan. Sonetda chirkin tovush ohangi vujudini chirmagan lirik qahramon uning zarbidan bo'g'iladi, ingraydi, behush titraydi... shu on o'ziga kelib qarasaki, bir gul ojiz badaniga suykaladi. Bu qora lola edi. Demak, R.Parfining bu misralaridan quyidagi xulosaga kelish joiz hisoblanar: sonetdagi lirik qahramon bu – shoirning o'zidir. U xalq boshiga tushgan ko'rguliklardan, millat taqdiri, yurt kelajagidan chuqur qayg'uga botadi. Butun millat erkka tashna, hurlik lozim, ma'rifat zarur deya chinqirgan shoir o'z vujudida nimanidir his qiladi. Bu – qora lola, – og'riqli, alamli isyon ifodasi hisoblanardi. Lola gulining bunday ramziy ma'noda qo'llanishi shoir yashagan davr, adabiy muhit bilan bog'liq bo'lib, u o'sha mafkura ta'sirining mahsuli edi.

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf ijodida ham "Lolaqizg'aldoq" she'rining o'rni bo'lakcha. Mazkur manzuma taniqli shoir Shavkat Rahmon xotirasiga atab yozilgan. U hanuz muxlislar tomonidan sevib o'qiladi va har safargi mutolaada kitobxonga o'zgacha ruh bag'ishlaydi. She'rda lirik qahramon ko'pni ko'rgan, hayotning past-balandini tushunadigan donishmand qiyofasida gavdalanadi. Umri davomida chiqargan xulosalari doirasida poetik fikr yuritadi:

Buni hayot derlar,
 Unutma, aslo.
 Bir kun ochilasan,
 Bir kun so'lasan [Муҳаммад Юсуф. 2:264, 265].

Garchi bu satrlar orqali lola, lolaqizg'aldoq gullariga murojaat qilinsa-da, unda bildirilgan umumbashariy xulosalar hamisha hayot qonunidek yangrab kelgan.

Qalbimda-ku faqat
 Sen eding tanho,
 Qabrim ustida ham
 O'zing bo'lasan.
 Sen bizning sevgidan

Xotira – bayroq,

Lola, lolajonim,

Lolaqizg'aldoq [Муҳаммад Юсуф. 2:265]!

Mazkur o'rinda lola va lolaqizg'aldoq gullarining yana bir yangi o'xshatmasi kashf etilgan. Tashxis san'ati asosiga qurilgan misrada ularning sevgidan xotira – bayroq tarzida qo'llanishi novatorona topilma ekanligi bilan diqqatga sazovordir.

She'rda hayotiy mulohazalar badiiy so'zga evrilib, bir qarasangiz lirik qahramon tilidan, bir qarasangiz shoir tilidan so'zlanadi. Ayrim misralarda esa Shavkat Rahmon obrazi markazga chiqadi:

Ajablanma agar,

Erta tongda,

Seni o'pib, O'shni

Quchoqlab o'lsam!..

O'tinchim – tepamda

Yig'lama uzoq,

Lola, lolajonim,

Lolaqizg'aldoq [Муҳаммад Юсуф. 2:265]!

Darhaqiqat, M.Yusuf bu satrlari bilan vatan madhiga haykal qo'yganga o'xshaydi. Davrdosh do'sti, hammaslagi, ustozlari sanalmish Sh.Rahmonning Vatanga bo'lgan sadoqatini, mehr-u muhabbatini, qolaversa, shoirning o'z fenomenini ochiq ifodalab beruvchi ushbu she'rda lola va lolaqizg'adoq obrazlarining o'rni ayri-ayri ekanligini ta'kidlash lozim.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy she'riyatda olamning badiiy manzarasini ifodalashda floristik obrazlarning mavqeyi alohida bo'lib, bu kabi obrazlarni lirikada qo'llanish genezisi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Ular o'z ma'nosidan tashqari turli ramziy ma'nolarni ham ifodalab keladi. Nabotot olamiga mansub obrazlarning qanday ma'no tashishi shoirning dunyoni anglashi va anglata olish qobiliyatiga ko'ra tasniflanadi. Xususan, lola va lolaqizg'aldoq gullarining obraz darajasiga ko'tarilib, turfa ramziy ma'nolarni ifodalab kelishi yuqorida kuzatganimiz kabi talay shoirlar ijodida kuzatiladi. Ularning obraz sifatida saralanishi mazkur gullarning xarakter-xususiyatlari, rang-tusi, mavjudlik vazifasidan kelib chiqadi. Shu bois, aytish joizki, zamonaviy she'riyatda gul obrazlarining o'rganilishi bilan bog'liq yangi tadqiqotlarga milliy adabiyotimizning ehtiyoji bor.

Adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Бадойиъ ул-бидоя. www.ziyouz.com кутубхонаси. – 490 б.
2. Муҳаммад Юсуф. Сайланма: Шеърлар. Достонлар. Хотиралар. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 288 б.
3. Рауф Парфи. Сакина. – Тошкент: “Муҳаррир” нашриёти, 2013. – 376 б.

4. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Тошкент: Фан, 2007. – 300 б.
5. Зулфия. Асарлар. Икки томлик. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – 320 б.
6. Шода-шода марварид: Ўзбек халқ кўшиқлари. – Т.: “Шарқ”, 2006. – 416 б.
7. Чўлпон. Асарлар. 3 жилдлик. 1-жилд. Шеърлар. Драмалар. Таржима. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 448 б.
8. O'roqova, N. (2024). ABDULLA ORIPOV LIRIKASIDA RAMZIY-FLORISTIK OBRAZLAR IFODASI. Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(3), 193-199.

СОФОКЛ ВА УНИНГ “ШОХ ЭДИП”И
ТАРЖИМАСИ ХУСУСИДАБарно Ҳасанова,
ҚўқонДПИ доценти

Аннотация: Мазкур мақолада шоир, носир ва драматург Асқад Мухторнинг таржимонлик маҳоратининг бир қирраси хусусида сўз боради. Унинг кўп сонли таржималари ичида жаҳон адабиётининг сарчаимасида алоҳида ўрин тутган “Шоҳ Эдип” (Софокл) таржимаси ҳақида илмий қарашлар баён қилинган. Шу жараёнда Асқад Мухтор маҳоратининг айрим қирралари ҳақида мулоҳаза юритилган ва хулосалар тақдим этилган.

Калит сўзлар: Адабий мерос, шеърят, наср, роман, драма, трагедия, миф, афсона, тарихийлик, тақдир, жиноят, жазо, фожиа, таржима, маҳорат.

Abstract: This article talks about one aspect of the translation skills of the poet, prose writer and playwright Askad Mukhtar. Scientific views on the translation of the work “Oedipus the King” (Sophocles), which occupies a special place in world literature among its many translations, are presented. During this process, several aspects of Askad Mukhtar's skills were discussed and conclusions were presented.

Keywords: Literary heritage, poetry, prose, novel, drama, tragedy, myth, legend, historicity, fate, crime, punishment, tragedy, translation, skill.

Асқад Мухтор фалсафий шеърятчи, дostonлари, балладалари, “Опа сингиллар”, “Аму”, “Туғилиш”, “Чинор” сингари романлари, “Бўронларда бордек ҳаловат”, “Бухоронинг жин кўчалари”, “Кумуш тола” сингари қиссалари, “Инсонга қуллуқ қиладурман”, “Қора домла”, “Фано ва бақо”, “Чодирхаёл” сингари такрорланмас ҳикоялари, “Яхшиликка яхшилик”, “Мардлик чўққиси”, “Самандар” каби драмалари, “Тундаликлар” каби адабий-фалсафий кайдлари ва бир қатор таржималари билан ўзбек адабиётининг XX аср даврида алоҳида ўрин тутадиган серқирра ва маҳоратли адибларидан эканлиги маълум. Унинг зикр этилган асарлари жаҳон адабиётининг энг машҳур бестеллер асарлари билан ҳеч бир истисносиз беллаша олади. Зеро Асқад Мухтор жаҳон адабиётининг нодир дурдоналари билан яқиндан таниш бўлган ва уларга алоҳида муҳаббат билан қараган. Шу билан бир қаторда, жаҳон адабиётининг даҳоларидан саналган Оноре де Балзак, Сервантес, Хемингуэй, Л.Толстой, А.П.Чехов, Ф.Кафка, А.Камю, Ч.Айтматов кабилардан насрда чуқур лиризмни ифодалай олиш усулларини ўзлаштирган, баъзан узоқ йиллар давомида шаклланиб улгурган қолиплардан, мафкуравий тазйиқлар таъсиридан қутила олмаган бўлса-да, умумбашарий туйғу ва кечинмаларни энг мақбул усулларда ва теран образли тасвирлар воситасида талқин эта олиш зарурлигини яхши англаган; воқеликни энг майда тафсилларигача ифодалай олиш, ўзига хослиги билан тотли, тушунарли ва таъсирчан тилда, теран фалсафий фикрларга уйғун ҳолда тасвирлай билиш сирларидан воқиф бўлган. Тилга олиб ўтилган “Тундаликлар” ва ундан аввал эълон этилган бир қатор

чиқишларида ҳам Шарқ ва Ғарб адабиёти ҳар бир ёзувчи учун, умуман, бадиий ижод учун битмас-туганмас сарчашма бўлганини алоҳида қайд этгани ҳолда, мумтоз ва замонавий ўзбек насрининг таъмал тошини қўйган адибларнинг ижод намуналари қалам аҳллариининг барчаси учун бир тажриба мактабини ўтаган ва ўтаётганини кўрсатиб ўтган эди. Адабиётшунос У.Норматов бир мақоласида бу борада қуйидагича фикрларни баён этади: “Ойбек, А.Қаҳҳор каби улкан реалистларнинг адабий ҳамкорликка оид мулоҳазаларини синчиклаб кузатган китобхон яна шу ҳолатга дуч келадики, улар ҳам қардош ва жаҳон халқлари адабиётидан, аввало, реалистик ижод принципларини ўргандилар”.¹ Бу ҳолат Асқад Мухторнинг хос ижодидагина эмас, балки таржималарида ҳам аниқ намоён бўлган. Бунинг ёрқин далили адиб томонидан дунё адабиётининг шоҳ асарларидан бири ҳисобланган “Шоҳ Эдип” трагедиясини маҳорат билан таржима қилинганидир. Рус тилидан қилинган бу таржима шу қадар жонли чиққанки, юнон трагедиянавислигининг бу ноёб асаридаги воқелик гўё шу заминда содир бўлганидек, уни Асқад Мухтор ёзганидек таассурот уйғотади, унинг услуби, бадиий ижодда танлаган йўли аниқ кўзга ташланиб туради.

“Шоҳ Эдип” трагедиясининг муаллифи Софокл Юнонистонда трагедиянинг отаси Эсхилдан кейин турувчи мўътабар зотлардан бўлган. 121 та трагедия ёзган. Афсуски, шунча трагедиядан бизга қадар бор-йўғи етти таси етиб келган, холос. Шулардан учтаси Эдипшоҳ ҳақидаги трагедиялардир. Яна шуни қўшимча қилиш керакки, ўша пайтларда трагедиянавислик бўйича мусобақалар ўтказиб турилган. Манбаларда келишича, Софокл тўқсонга трагедия ёзган устози Эсхилни мағлубиятга учратган. Эсхил ҳам Эдипшоҳ ҳақида ўнга яқин трагедия ёзган. Бироқ Софокл трагедиялари Эсхил трагедияларидан ҳаётийлиги, уларда тасвирланган воқеликнинг турмушга яқинлиги билан ажралиб турган. Эсхил трагедияларининг сюжети асосан сахна ортида туриб, воқеликни баён қилиб турган хор устига юкланган. Бироқ Софокл, таржимон Асқад Мухторнинг таржима нашрига ёзган сўзбошисида келтиришича, мазкур жанрга кўп янгиликлар киритган. Таржимон ўз фикрларини Арастунинг “Поэтика”сидаги бу борадаги янгиликларни далиллайди: “...хор таркибини ўзгартган, ижрочилар сонини оширган, мусикий парчалар жорий этган, театр декорациясини қўллай бошлаган ва ҳакозо”². Дарҳақиқат, Софокл, трагедияларида хорнинг вазифаси анчагина қисқартирилиб, асарда иштирок этувчи қаҳрамонларнинг хатти-ҳаракатлари, уларнинг репликалари орқали воқелик ёритиб берилган. Бу билан қаҳрамонлар

¹ Норматов У. Гўзаллик билан учрашув. -Т.: Ёш гвардия, 1976.-Б.17.

² Аристотел. Поэтика. – Т.: Адабиёт ва санъат нашр. 1976. – Б.39.

характер даражасига кўтарилиб, уларнинг тимсол сифатидаги индивидуаллиги ёрқин намоён бўлган. А.Алимухаммедовнинг қайд қилишича, “Эсхил ўз асарларидаги одамларнинг хатти-ҳаракатларида кўпинча илоҳлар аксини кўрган, одам боласи маъбудлар орасидаги тўқнашувларда бир сабабкор сифатида талқин этилган бўлса (Промитей, Орест), Софоклнинг қаҳрамонлари кўпинча ўз ихтиёрлари билан мустақил ҳаракат қилувчи, шароитга қараб иш тутувчи шахслардир. Бинобарин, Софокл одам боласининг аҳвол руҳияси туйғу-эҳтирослари билан кўпроқ кизиқади ва бу ҳолатларни турли-туман бўёқларда кўрсатади”.³ Асқад Мухтор таржима жараёнида қадим Юнон трагедиячилигига Софокл киритган янгиликларни яна қуйидаги фикрлари билан далиллаб беради: Софокл трагедияни “қисмат фожеаси”дан чинакам инсоний драмага айлантирди, воқеалар оқимида, персонажларнинг барча туйғу-кечинмаларида сиз ҳаётини ҳақиқатни яққол кўрасиз. Эдипнинг ўз умри сирларини билиш жараёни унга мудҳиш тақдирни очибгина қолмай, ўз айбига иқроор бўлишга ҳам олиб келади. Шунинг учун у илоҳий қаҳр-ғазабни кутиб ўтирмай, ўзига ҳукм чиқаради: кўзларини жароҳатлайди, ўзини Фивадан бадарға қилишларини сўрайди”.⁴

Эдип афсонаси Юнонистонда кенг тарқалган. У ҳақида шеърлар, кўшиқлар яратилган. Буларнинг аксарияти мифик воқелик, мифик қаҳрамонлар тасвири билан йўғрилган. Эсхил ҳам Эдип ҳақида бир нечта трагедия ёзгани маълум. Ҳатто Ҳомернинг “Одиссея” асарида ҳам Эдип ҳақида миф берилган экан. Софокл асарида Эдип афсонаси кишининг пешонасига битган тақдир азалдан қочиб қутула олмаслиги хусусида бўлиб, Фива ҳукмдори Лай, кўшни подшоҳ Пелопнинг уйида бир неча кун меҳмон бўлиб, унинг ўғли Хрисиппни олиб қочади. Пелоп, маъбудларга зор-зор йиғлаб, дилозорни лаънатлайди. Пелопнинг нола ва илтижолари маъбудлар қошида ижобат бўлади. Лай узоқ йиллар фарзанд кўрмайди. Аполлон ибодатхонасининг кохинига нажот истаб борганида, кохин Лайнинг хотини Иокаста фарзанд кўражаги, бироқ бу фарзанд отасини ўлдириб, Иокастага уйланиши, ундан бир этак бола кўришини айтади. Дарҳақиқат, Лай фарзанд кўради, уни йўқотишга қанча ҳаракат қилмасин, боланинг пешонасига битган тақдир юз беради: Эдип (бу исмда ҳам маъно бор: Лай боланинг товонига игналар тиқиб жароҳатлайди; “эдип” сўзининг луғавий маъноси шундан “жароҳатланган”, “шилинган” деганидир. – Б.Ҳ.) аввлига ўлдирилиши учун бир чўпонга берилади. Чўпон уни узоқ юртларга олиб кетади ва ўлдиришга кўзи қиймайди. Сўнгра уни шу юртнинг бефарзанд подшосига беради. Подшо ва унинг хотини болани яхши тарбиялайди. Кунларнинг бирида

³ Алимухаммедов А. Антик адабиёт тарихи.. –Т.:Ўқитувчи, 1969. – Б.132.

⁴ Софокл. Шоҳ Эдип. Таржимон сўзбошиси. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 1979. – Б.6.

Эдип тасодифан ўзининг келажак тақдирдан огоҳ бўлиб қолади. Сақлаб олган ота-оналарига зулм қилиб қўймай, деган ниятда уларни ташлаб кетади ва ўзи билмаган ҳолда туғилган юрти Фивага бориб қолади. Фива кўприги устида аравада келаятган ҳақиқий отаси Лайни ва уни кўриқлаб келаятган киши ўртасида жанжал чиқиб, уларни ўлдириб қўяди. Улардан бир кишигина қочиб қутилади. Фива шаҳри дарвозасини кўриқлаб ётган Сфикс (танаси шер, калла қисми аёл боши бўлган қанотли махлук)нинг топишмоғига жавоб топиб, Фива шаҳрига киради ва шаҳар оқсоқолларининг таклифи билан Лайнинг ўрнига подшоҳ бўлади, ўз онаси бўлмиш Иокастага уйланади. Ундан икки ўғил, икки қиз кўради. Вақт ўтиб, Фивага офат ёғилади – вабо тарқалади, гўдаклар қирилла бошлади. Қоҳинлар бунинг сабабини маъбудлардан сўраганларида, улар Лайнинг қотили ҳануз жазоланмаганлиги, ҳақиқат қарор топмаганлигини аён қиладилар. Бироқ Лайнинг қотили Эдип эканлиги жумбоқлигича қолаверади. Трагедия воқеликнинг ана шу нуқтасидан бошланади. Шу жараёнда Эдипнинг ҳаяжони, руҳий изтироблари, муаммони ечиш учун чора излашлари тасвири билан бошланади.

Трагедиянинг прологи тубандагича бошланади:

О деда Кадма юные потомки!
 Зачем сидите здесь у алтерей,
 Держа в руках молитвенные ветви,
 В то время как вес город фимиамом
 Наполнен, и молениями, и стоном?
 И потому желая самолично
 О всем узнать, я к вам сюда пришёл, -
 Я, названы у вас Эдипом славным...⁵

Таржимаси:

Э, Кадм бобонинг ёш авлодлари!
 Шаҳримиз кўкида илтижо, фарёд,
 Аза кўшиқлари янграган маҳал
 Нега сиз меҳроблар рўпарасида
 Ибодат ниҳолин ушлаб турибсиз,
 Ўлкангизда отим - шуҳратли Эдип,
 Бу ҳолнинг сабабин билмоқни истаб,
 Мана, бугун келдим хузурингизга.⁶

Иккала матн солиштирилса, русча таржимага қараганда, Асқад Мухтор томонидан амалга оширилган таржимада Эдипнинг руҳий ҳолати анчайин

⁵ Софокл Царь Эдип. – www.ziyounet.uz

⁶ Софокл. Шоҳ Эдип. Таржимон сўзбошиси. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 1979.

жонли ва таъсирчан чиққанлигини кузатиш мумкин. Трагедиянинг асл варианты оқ шеърда бўлган. Русча ва ўзбекча таржимада ҳам ана шу усул сақлаб қолинган. Шунини айтиш керакки, таржимада Эдип ер юзининг ҳамма бурчакларида истиқомат қилган ва қилаётган кишиларнинг умумлашма образи сифатида намоён бўлади. Русча вариантда эса ана шу ҳолат кўзга бирмунча ташланмай туради. Айниқса, “Шаҳримиз кўкида илтижо, фарёд, Аза кўшиқлари янграган маҳал” мисралари Эдипнинг руҳий ҳолати ва тақдирига ёзилмиш фожианинг моҳиятини умумлаштириб бера олганининг ўзиёқ ўзбек таржимонинг маҳоратини намоён қилган.

Эдип шаҳарга ёғилган вабонинг сабабини билиб келиш учун қайин иниси Креонтни Фебга - маъбуд Аполлон ҳузурига жўнатади. Унинг қайтиб келиш муддати чўзилганидан ҳавотирга тушган Эдип коҳин билан суҳбат кураб экан куйидагиларни дейди.:

Қандай тадбир билан кутқазай шаҳрим!

Аммо қайтмаяпти, ташвишдаман.

Қайтадиган пайти ўтиб кетмоқда,

Қайтиб келганида, мен шоҳ эмасман –

Бажо келтирмасам Илоҳ амрини!⁷

Асқад Мухтор биз келтирган беш мисранинг русча вариантини бирмунча тўлдиришга ҳаракат қилган. Русча вариантда танланган сўзларнинг таъсирчанлиги у қадар сезилмайди. Эдип бу ваъдаларни куруқ айтаётгандай таассурот уйғонади. Бироқ Асқад Мухторда бундай эмас: мисраларга таъсирчанлик даражаси юқори бўлган поэтик сўзлар киритилган ва фикрлар ана шу сўзлар орқали баён этилган. Охириги мисралар русча вариантда тубандагича:

Положенный ему, а он все медлит,

Когда ж вернется, впрямь я буду плох,

Коль не исполню, что велит нам бог.⁸

Ва ниҳоят Креонт ҳам қайтиб келади. Энди Эдип, коҳин ва Креонт ўртасида суҳбат кечади. Суҳбат давомида Эдипнинг гуноҳкорлиги аста-секинлик билан намоён бўлиб боради. Асқад Мухтор уларнинг ўзаро суҳбатларини ҳам маҳорат билан беришга ҳаракат қилган ва бу жараёнда ўзбек тилининг бадий нутқига хос сўзларни меъёри билан ишлатган. Поэтик сўзлар таржимоннинг маҳоратини ёрқин намоён қилади ва қаҳрамонларнинг руҳий кечинмаларини тўлақонли очишга хизмат қилади.

Жрец

Он радостен. Иначе б не украсил

⁷ Софокл. Шоҳ Эдип. Таржимон сўзбоҳиси. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 1979.

⁸ Софокл. Царь Эдип. – www.ziyounet.uz

Свое чело он плодоносным лавром.

Эдип

Сейчас узнаем. Он расслышит нас.

Властитель! Кровный мой, сын Манекея!

Какой глагол от Бога нам несешь?

Креонт

Благой. Повертье: коль указан выход,

Беда любая может благом стать.⁹

Таржимада:

Коҳин

Мавридида айтдинг, Креонт қайтмоқда,

Ғойибдан ишорат келди, шоҳ Эдип.

Эдип

О Аполлон! Берган хабарлари

Унинг чеҳрасидай қутлуғ бўлсайди.

Ҳой манекей ўғли, қондошим, айтчи,

Худодан не хабар келтирдинг бизга.

Креонт

Хуш хабар келтирдим; йўл кўрсатди у

Кушод ўлғусидир ҳар қандай мушкул.¹⁰

Хуллас, Асқад Мухтор жаҳон адабиётининг бу нодир намунасини юрак қўри билан, бутун маҳоратини ишга солиб таржима қилган ва асар халқимиз учун ҳам жаҳон адабиётининг такрорланмас намуналаридан баҳраманд бўлиш имконини берган. Бунинг ёрқин далили сифатида мазкур трагедияни узоқ йиллар мобайнида Ўзбекистон Миллий театри саҳнасидан тушмай, томошабинларга маърифат улашганлиги билан изоҳлаш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Аристотел. Поэтика. – Т.: Адабиёт ва санъат нашр. 1976. – Б.39.
2. Алимухаммедов А. Антик адабиёт тарихи.. –Т.:Ўқитувчи, 1969. – Б.132.
3. Норматов У. Гўзаллик билан учрашув. -Т.: Ёш гвардия, 1976.-Б.17.
4. Софокл. Шоҳ Эдип. Таржимон сўзбошиси. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 1979. – Б.6
5. Софокл Царь Эдип. – www.ziyonet.uz

⁹ Шу жойда.

¹⁰ Софокл. Шоҳ Эдип. Таржимон сўзбошиси. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 1979.

HAMID OLIMJON IJODIDA TABIAT RAMZLARINING BADIY TALQINI

R.M.Sharipova

NavDPI O`zbek tili va adabiyoti

Kafedraasi katta o`qituvchisi f.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada oddiy bir tikondan buyuk go`zallikni yaratib, tabiat unsurlarini misralarga tamoman jipslashtirgan, ularga yangitdan jon baxshida etgan bejirim pafosli satrlar sohibi Hamid Olimjonning she'rlarida tabiat qirralari talqin qilinadi.

Kalit so`zlar: Hamid Olimjon, she'r, tabiat, o`xshatish, tahlil, ijod, lirik qahramon, istiora, tasvir.

Annotation: In this article, the features of nature are interpreted in the poems of Hamid Olimjon, who created great beauty from a simple thorn, integrated the elements of nature into verses, and gave them new life.

Key words: Hamid Olimjon, poem, nature, simile, analysis, creativity, lyrical hero, metaphor, image.

Jahon adabiyotshunosligida tabiat ramzlariga bag`ishlangan she'rlar, ularning ramziy ma'nolari, obrazlilik darajasi, poetikasi, ijodkor uslubi singari masalalar doimiy e'tiborni tortib kelmoqda. Jumladan, she'riyatda shamol, bulut, yomg'ir, qor tasviri peyzaj lirikasidan tashqari lirik qahramon ruhiyatini ifoda etishi, turli timsoliy ma'nolarni bildirishi kabi qator muammolarni yaxlit holda tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson-tabiat. Navo-tabiat. She'r-tabiat. Bu juftliklarni bir-biridan ayirib bo`larmi? Aslo! Ularni bir qiluvchi esa she'riyat, mohir qalam sohibidir. Shu ma'noda lirikada katta o`ringa ega bo`lgan tabiat ramzlari tasviridagi o`ziga xosliklar, kelib chiqish asoslari, timsoliy ma'nolari, ular bilan yonma-yon keladigan lirik obrazlar mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan o`rganishga alohida diqqat qaratilmoqda. Xususan, "Eng gullagan yoshlik chog'i..."ni kuylagan Hamid Olimjon ijodida ham bu juftliklarni ayni maromiga yetkazib kuylanganini guvohi bo`lamiz. O`zbek she'riyatining oqsoqollaridan biri Mirtemir Hamid Olimjon haqida shunday degan edi: "Hamid Olimjon nodir iste'dod egasi. Qonida, ko`z qorachig`ida, to`qson ikki tomirida tug`ma zukkolik, shoirona sajiya, bilgichlik ayon. Bilmagani oz, o`qimagani kam, chin ma'nosi bilan o`qimishli qalamkash edi".¹

Hamid Olimjon ijodida shamol timsollari rang-barang mazmun kasb etgan:

Tinmay esar har tomonga yel,
Qo`ymay sochar o`rikning gulin.
Daraxt shoxlarini silkitar,

¹Nuriddin Boboqandov. Baxt va yoshlik kuychisi Hmaid Olimjon 110 yoshda: Vafo va sadoqat timsoli. Zarnews.2019.30.11

Uyg'otishga boshlar uni tun...²

Bunda bahorda esguvchi shamol haqida so'z bormoqda. Ko'klam tongidagi manzara jonlantirilgan. Ertalabki shabada o'rik gullarini har yonga sochadi, daraxt shoxlarini silkitadi. Shoir shamolni yangi kunning boshlanishi tarzida beradi.

Daryo to'liqin shamol qo'ynida

Porillamoqdadir chiroqlar

Yorishmoqda uning aksidan

Cho'qqilar, adirlar va tog'lar [H.O.S.T.:2009-B.32]

Bunda ham ko'proq peyzaj tasviri ustuvorlik qiladi. «Shamol qo'yni» metaforasida an'anaviylik bor. Ayni chog'da daryolarning to'liqinlanishi shamol tufaylidir.

Shoir:

Novdalarni bezab g'unchalar,

Tongda aytar hayot otini.

Va shabboda qurg'ur ilk sahar,

Olib ketdi gulning totini. [H.O.S.T.:2009-B.56]

kabi misralarida yana bahor shamoli haqida so'zlammoqda. Ma'lumki, ko'klamda gul ochgan kurtaklarning hammasi ham yashab qolmaydi, balki tabiat injiqliklariga, shamollarga dosh berganlarigina meva tugib, hosilga aylanadi. Shoir shabbodaga nisbatan «qurg'ur» sifatlashini qo'llaydi. Garchi bu so'zda ko'proq salbiy ma'no ifodalansa-da, gulning totini olib ketishi tabiiy holat ekanligini anglash qiyin emas.

Har bahorda shu bo'lar takror,

Har bahor ham shunday o'tadi.

Qancha tirishsam ham u beor,

Yellar meni aldab ketadi [H.O.S.T.:2009-B.52]

Tabiat bahori har yil takrorlanadi. Inson umrining o'tkinchiligini shoir uni aldab ketgan «beor yellar»da ko'radi. Adabiyotshunos I.Haqqulovning yozishicha: «Tuproqdan insonga to'rt sifat: sabr, hayo, tavakkul va makrumot paydo bo'lgan. Suvdan esa to'rt turli hol: safo, saxo, lutf va visol yuzaga kelgan. Shamol to'rt havas: yolg'on, riyo, shoshqinlik, va nafsga asos bo'lgan. Olovdan esa shahvat, kibr, tama va hasad tug'ilgan». ³ Demak, Hamid Olimjonda shamol shoshqinlik, tezda o'tib ketguvchi umr ramzini ifodalab keladi.

Yuzlarimni silab-siypalab,

Baxting bor, deb esadi yellar.

Etgan kabi go'yo bir talab,

² Олимжон Х. Дарё каби уйғок ўтурман. Сайланма. – Т.: Шарк, 2009. – Б. 32. (Ушбу фаслдаги мисоллар шу китобдан олинади ва қавс ичида бети кўрсатилади).

³ Ҳаққулов И. Навоийга қайтиш. 4- китоб. – Тошкент: Тафаккур, 2007. –Б34

Baxting bor deb qushlar chiyillar... [H.O.S. T.:2009-B.56]

Lirik qahramon ko'klamdan masrur daqiqalarning abadiy bo'lishini istaydi. Shu bois undan baxt izlaydi. Shamol bunda baxtdan darak beruvchi timsol sifatida tasvir etilgan.

Hamid Olimjon she'rlarida bulut ko'proq peyzaj tasvirini ifodalashga xizmat qilgan:

Tongda oppoq bulut xayolimda,

Qip-qizil loladan nishon taqdi.

Yoki dildan kulib hayot uzra,

Oltin ilhom sochib quyosh boqdi. [H.O.S. T.:2009-B.12]

Oppoq bulut ham chiroyli bo'ladi, ham chiroyli yomg'irlarni boshlab keladi.

Yastangandi ufqda,

Laxcha-laxcha bulutlar.

O'ranardi har yoqda,

Ko'lka sochib sukutla. [H.O.S. T.:2009-B.13]

«Laxcha-laxcha» takror so'zi olovga nisbatan qo'llanadi. Shoir esa uni bulutga nisbatan qo'llaydi. Ya'ni olov parchalari va bulut uyumlari orasida shaklan yaqinlik bor.

U kunlar hayotning ko'kida,

Bulutlar keng qanot yozgandi.

Yulduzlar ko'rolmay borliqni,

Bir voram yaproqdek ozgandi. [H.O.S. T.:2009-B.14]

Shoir Ozarbayjonning o'tmishiga nazar tashlaydi. Bulutlar osmonda paydo bo'lishini shoir «keng qanot yozish»ga qiyoslaydi. Bulutlar yulduzlarni to'sib qo'yadi. Ko'chma ma'noda bulutlarning yulduzlarni to'sib qo'yishi ozodlikning yo'lini berkitish deganidir.

Hamid Olimjon ijodida qor haqidagi she'rlar muhim o'rin tutadi. Binobarin, unda qorning yog'ish manzarasi uni kuzatayotgan lirik qahramon tuyg'ulari bilan hamohang tasvirlangan:

Oppoqki

Shu qadar

Bu qorlar...

Boshlayman,

Tubandan – yuksakka intilib,

Avaylab odimlar tashlayman.

Yo'rgakka o'ragan

qish meni,

Chaqaloq singari

qo'ragan,

ochilib-sochilib bo'lmaydi.

Hammayoq shu qadar oppoqki...

G'ijirlar yerlarda qorlari,

Har tili shu qadar chah-chahki...

Boshlayman,

Avaylab odimlar tashlayman. [H.O.S. T.:2009-B.22]

Shoir bunda qorning fazilatlariga urg'u beradi. Ma'lumki, yangi tug'ilgan chaqaloq oppoq yo'rgakka mahkam yo'rgaklanadi. Qishning oppoq qorlari chaqaloqni yo'rgaklagandek hamma yoqni o'rab olgan. Keyingi misralar qorda yurganda g'ijirlab ovoz chiqishi «tili shu qadar chah-chahki» tarzida beriladi. Chahchahlash esa bulbulga xos. Shoir bu tabiiy holatdan zavq-u shavq tuyadi:

Daraxtlar

shu qadar

oppoqki,

Oq bulut ko'klardan enganday,

Novdalar

shu qadar oppoqki,

Bulutda cho'milib tinganday,

Qorlardan yo'l ochib kelaman,

Shu sovuq jonlilik

berganday,

Qonlarim

sof havo

emganday,

Oq tuman qo'ynida

jilaman,

Yo'llardan

zavq bilan

kelaman [H.O.S. T.:2009-B.22]

Ko'rinadiki, Cho'lpon tasviridagi qorda mahzunlik kayfiyati ko'zga tashlansa, Hamid Olimjonda bu hayotsevarlik ruhi bilan almashinadi. Zavq bilan qor yoqqan yo'llarda kelayotgan lirik qahramon daraxtlarning shu qadar oppoqligidan hayratlanadi va o'smaning rangini endirish xususiyatini ko'kdagi oppoq bulutlarga yuklaydi. Oppoq qorlardan novdalarning qotib turishi oppoq bulutlarga cho'milib chiqqan yosh bolaga mengzaladi. Garchi sovuq bo'lsa-da, qorning sof havosi kishini tetiklantiradi. Zero, G'ayrat Majid «Hamid Olimjon mo'jizasi» maqolasida «Qish» sarlavhali she'ridagi qorning tasviri haqida yozadi: «Agar boshlovchi shoirga she'riyatning kitoblarda yozilmagan sirlarini o'rgatmoqchi bo'lsangiz, Hamid

Olimjonning mana shu she'ri eng yorqin va eng namunali misol bo'ladi. She'rda voqelik bayon qilinmaydi, badiiy so'z bilan tiniq manzaralar chiziladi». ⁴

Hamid Olimjon o'lka «tabiatiga taqlid qilmaydi, balki u bilan raqobatga kirishadi, tabiatni o'z ko'zi, qalbi ongi bilan tiriltiradi, uni faollashtiradi, baxt va shodlik kuyini chaldiradi, tuyg'ularni mazmunga ko'madi, hissiyotni toshirtiradi, entiktiradi. Darhaqiqat, «Manzara» she'rida hamma yoqni qoplagan, ko'zni qamashtiruvchi qor tasviri beriladi:

Qor...Qor...Qor...

Ko'zlarim qamashar boqqanda,

Hamma yoqqa cho'kkan barobar,

Biror erni qilmagan kanda.

Qorli yer ustiga tinmagan,

O'txona tashlaydi oq tutunni.

Tutun cho'ziladi qor sari, sekin,

Sahro tugatadi qora tunni... [H.O.S. T.:2009-B.29]

Bunda o'txona – osmon, oq tutun esa yog'ayotgan qor parchalaridir. Shoir qo'llagan metaforalar shu jihatdan hayotiy. Qor sahroga quyilgan qora tunni yoritib turadi. Shuning uchun oqlikka burkangan sahro qora tunni tugatadi, deydi shoir. «Hamid Olimjon tabiat manzaralarini tasvirlashdagi mahorati, yil fasllari, daryolar, yurt go'zalligida hayratlanish tuyg'ularini ifodalashdagi betakror usuli bilan boshqa shoirlardan ajralib turadi» ⁵

Daryo to'lqin shamol qo'ynida,

Porillamoqdadir chiroqlar.

Yorishmoqda uning aksidan,

Cho'qqilar, adirlar va tog'lar. [H.O.S. T.:2009-B.32]

Yuqoridagi she'riy parchada laylakqorlarning zavq bilan yog'ishi «porillagan chiroqlar»ga o'xshatilgan. Uning yorqin nurlari, ya'ni qor uchqunlari atrofni – cho'qqi, adir va tog'larni oqlikka burkaydi.

Shoirning «Yanvar qor» she'rida qorning go'zal tasvirini kuzatish mumkin:

Qish yoymishdir oq qanotini

Shamol o'tar yuzlarni yalab.

To'zon kabi sovurilar qor,

Quyun chopar erni timdalab. [H.O.S. T.:2009-B.51]

Ushbu satrlarda shoir betakror istiora qo'llaydi: qor qishning oppoq qanotiga qiyos etiladi. Bu she'riyatimiz uchun qorning yangi tasviri. Akademik N.Karimov

⁴G'ayrat Majid. Uning boyliklari umrlarga teng. Shoirning hamrohi xayol,hayoti xayol,qismati xayol. Hurriyat gazetasi

⁵G'ayrat Majid. Uning boyliklari umrlarga teng. Shoirning hamrohi xayol,hayoti xayol,qismati xayol. Hurriyat gazetasi

yoʻzganiday: «Hamid Olimjon tasvir vositalaridan oʻz hayotiy falsafasini, tabiat va jamiyat hayotiga faol munosabatini ifodalash niyatida foydalanadi. Shu ma'noda istiora uning she'rlarida, ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadi». Uning har shamol ta'sirida har tomonga yoyilib yog'ishi esa to'zonga o'xshatiladi. Qolaversa, shoir nazdida to'zonda sovurilib yog'ayotgan qorni intizorlik bilan kutayotgan bahor, tog'lar, ko'llar va dehqonlar bor. Shu o'rinda lirik she'rga ijtimoiy mazmun kirib kelgan.

Qor dehqon uchun bo'lajak hosilga zamin yaratadi. Quyidagi misralardan shu fikrni uqish mumkin:

Qor dala cho'llarga,
Uni kutar zoriqib bahor.

Qor kerakdir tog'lar, ko'llarga,

Uni kutar har bir paxtakor...[H.O.S. T.:2009-B.51]

Tabiatda qor faqat tabiiy hodisalar silsilasigina emas, yoki qishning zebi ziynatigina ham emas. Qor hayotiylik nuqtai nazaridan ona zaminning kuchiga kuch, quvvatiga quvvat bag'ishlovchi ma'dan hamdir. Ijodkor qorning mana shu xislatini nazarda tutib, uni zoriqib kutilgan ne'mat ekanligiga ishora qiladi. Dalalarga yoqqan qor ekin-tekin, hosillarga poydevor. Qaqshagan cho'llar qorga muhtoj. Hatto baland tog'lar va ko'llar ham qordan manfaatdor. Yangi o'zbek she'riyatida shamol obrazi turli ma'nolarni ifodalab keladi. Binobarin, lirik qahramon ruhiyatini, inson umrining o'tkinchiligini (H.Olimjon); oshiqning ko'tarinki kayfiyatini kecha va bugunni bog'laguvchi rishta ma'nosini, kuz shamoli inson umrining tez o'tishini....

Qor lirik qahramonning mahzun kayfiyatini, hayotsevarlik ruhini, lirik qahramon tuyg'u-kechinmalarini ifodalab keladi: «porillagan chiroqlar», «qishning oppoq qanoti» singari istioralar aynan shoirning ijodida behad sarhadlarga ega chiqqan. Xuddi shu kabi lirik qahramonning his tuyg'ularini, yoxud tabiat go'zalliklarini boshqa qalamkashlarning ijodida ham kuzatish mumkin. Ammo ularning hech biri Hamid Olimjon navolarining ayni o'zidek bo'lolmaydi. Hamid Olimjon ijodi nafaqat takrorlanmas, balki qayta dunyoga kelmas bir she'riyat chashmasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Олимжон Х. Дарё каби уйғоқ ўтурман. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2009. – Б. 32. (Ушбу фаслдаги мисоллар шу китобдан олинади ва қавс ичида бети кўрсатилади).
2. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. 4 китоб –Тошкент: Tafakkur, 2021. –Б34
3. Н. Каримов. Ҳамид Олимжон. Шоир ҳаёти ва ижодидан лавҳалар. Тошкент 1985.
4. Азимов Сарвар. Ҳамид Олимжон адабиёти. Тошкент.1967

МЕТАФОРИК ТАФАККУР: БИР ШЕЪР ТАҲЛИЛИ

Дадахон Муҳаммадиев,
Ўзбек тили, адабиёти ва
фольклори институти таянч
докторанти

Аннотация. Ушбу мақолада метафоранинг ҳосил бўлиши – метафорик тафаккур жараёни тадқиқ этилган. Тилишунослик ёки сўзлашувдан фарқли равишда поэтик нутқда метафоранинг қандай ҳолатда келиши кўрсатиб берилган. Назарий фикрларни асослаш, шунингдек, бадиий матндан мисол сифатида Абдували Қутбиддининг “Ниначи қанотин...” деб бошланувчи шеъри таҳлилга тортилган.

Калим сўзлар: метафорик тафаккур, метафора, поэтик нутқ, образ, тасаввуф.

Abstract. This article explores the formation of metaphors – the process of metaphorical thinking. In contrast to linguistics or colloquialism, it is shown how metaphor occurs in poetic speech. To substantiate the theoretical ideas, as well as an example of an artistic text, Abduvali Qutbiddi's poem beginning with "Dragonfly's wing..." was analyzed.

Key words: metaphorical thinking, metaphor, poetic speech, image, mysticism.

Метафорик тафаккур дунёни англашнинг ўзига хос йўсини бўлиб ижодкорнинг оламга муносабати, идрок кўлами, воқеликни қабул қилиш тарзи ва уни ифодалашда муаллиф англамининг жамланмаси демакдир. Мазкур ҳодиса поэтик тафаккурнинг таркибий қисми саналиб, ўзида лисоний, мантикий, бадиий тафаккурнинг уйғунлигини жамлайди. Метафорик тафаккурга кўра воқеликни тасвирлашда ёки фикр ифодасида ақлий ва завқий сезимлар бир бутун ҳолда ўзаро бирикиб янги маъно беради.

Метафорик тафаккур жараёнининг маҳсули сифатида вужудга келадиган ҳодисалардан бири – метафора эса фақатгина тил воситаси ёки образ эмас, балки фикрлаш тарзи эканлигини ҳам унутмаслик лозим. Абдували Қутбиддин шеърияти айнан ана шу жиҳати билан ўзига хос. Шоир шеърларида дунё адабиёти оҳангларида тортиб тасаввуф ва Ислом маърифатининг турфа рангларигача акс этиб туради. Ифода услуби жиҳатдан бу шеърлар бошқа бир шоир ижодига ўхшамайди. М.Давронова айнан ана шу услубга тўхаталиб, Абдували Қутбиддин ҳақида “Бир шеърда турлича вазнларни ҳам қўллайверади. Ҳам диний, ҳам фалсафий тасаввуфна тушунча, ақидаларини яхлит ҳолда акс этириш Абдували Қутбиддинга хос услуб ҳисобланади”- дейди. [Давронова М. 1:25] Шоир шеърларини таҳлил қилар эканмиз, битта шеърнинг ўзида мифологик тафаккур талқини, ҳам мумтоз адабиётимиз анъаналари, тасаввуфга доир ишора, ҳам ўзининг хаёлот дунёсидаги ҳиссий-руҳоний ҳолатларни кўриш мумкин. Олима фикрича, шоир тасаввуф ғояларини янгича шаклларда ифода этганлиги боис оригинал ва бетакрор ижод намунаси юзага келган. [Давронова М. 1:30] Бу ўринли фикр. Аммо бу фикрни шоирнинг барча шеърларига

нисбатан айтиб бўлмайди. Шоирнинг метафорик тафаккуридаги ҳодиса поэтик нутқ орқали образга айланиб, шеърга кўчар экан, турфа хил ҳолат юзага келади. Табиийки, талқинлар ҳам турлича бўлади. Адабиётшунос Саъдулла Қуроноф ҳам ўзбек адабиётига янгича йўналишларнинг кириб келиши жараёнини таҳлил қила туриб, шоир ижоди хусусида куйидаги фикрни айтади: “Ундан олдинги шоирларнинг шеърларида муайян модернистик визуал образлар яратилган бўлса, Абдували Қутбиддин бутун тасвири, бутун манзарани модернистик услубда “чизади”. [Қуроноф С. 4:38] Бу ерда модернистик услуб, умуман олганда, модернизм тушунчасини “янги, замонавий” [Қуроноф Д. 3:176] деган маънода тушунадиган бўлсак, бу услубни ҳар бир истеъдодли ижодкорнинг ўз дастхатига эга бўлган ижод намуналарига нисбатан ишлатиш мумкин. Бу жараёнда Абдували Қутбиддиннинг ўзига хослиги – бутун манзарани метафорик усулда кўрсатиши, метафораланаётган бир нечта тасвирилар биргаликда битта поэтик ҳолатни ифодалашга хизмат қилишидир. Бу чизгиларда метафора бор бўй-басти билан намоён бўлади. Шеърдан метафорани ажратиб бўлмайдиган ҳолатлар юзага келади.

“*Ниначи қанотин...*” деб бошланувчи шеърдаги [Қутбиддин А. 5:98] метафора билан тўйинган мисралар бир қараганда янги поэтик образ сифатида гавдалансада, бизнингча, унинг илдизи қадим тасаввуф маърифатига бориб тақалади:

*Ниначи қанотин ҳижоб қилсайди,
Қил-кўприк йўл топиб бера билсайди,
Ғам чексак, Бинафша овунтирсайди,
Тўл-ғо-на, тўл-ғо-на
Жон
Берар эдик.*

Бу шоир ҳиссий идрокининг манзараси. Рух жазба ҳолатининг бадий суратланиши, дейиш мумкин. Шеърдаги ўта нозик илғамни акс эттирувчи мазкур ҳолатлар шоирнинг бадий топилмасидир. Ниначининг қанотлари жуда нозик ва латиф, уни ушламоқчи бўлсангиз, тўкилиб тушади. Шоир ёрнинг юзига ўша нозикликдаги ҳижобни раво кўряпти. Хўш, нега айнан ҳижоб? Нега ҳарир парда ёки чиройли рўмол эмас? Айнан ҳижобланиш, сатри авратда ўраниш, беркиниш маъноси бор. Физик томондан оладиган бўлсак, ниначининг қаноти энг майин ипақдан ҳам нозик ҳарир сингаридир. Ёрнинг жамоли ана шу нозикликдаги ҳижоб билан сатрланган, демак, унга тегиб кетсангиз, ғоят нозиклигидан, тўкилиб кетиши мумкин. Тўкилиб кетиш эса сирларнинг очилиб кетишига ишора қилади.

Қил кўприк – Сирот кўприги. Диний манбаларда қил кўприк икки дунёни боғловчи ришта рамзида ҳам келади. Қил дейилгани билан қилдан ҳам ингичка, олмосдан ўткир кўприкдан ўтсанг, у ёғи – омонлик! Агарки, шоир айтганидек, мана шу ўта нозик кўприк йўл топиб берар экан, демак, бунда хайр бор. Тўғрироғи, лирик қаҳрамонда кўприкнинг хайрихоҳлигини уйғотиш истаги бор. Омонликка эришиш, эришганда ҳам ёр билан топишиш умиди барибир устунлик қилади.

“Ғам чексак, Бинафша овунтирсайди...” Шоир нега бошқа гулни айтмаяпти? Нега райҳон ёки атиргул эмас, айнан бинафша? Ҳаммамиз биладиганимиз бинафша эрта баҳорда очиладиган гул. У янгилик белгиси, қора қишдан эсон-омонлик аломати. Энг нозик томони эса, у кўп яшамайди. Ана шу қисқагина умр кўрадиган маъсум бир гул шоирни овунтира олиши айтиляпти. “Қора кунлар ўтди, - дейди у. – Кўклам келди, бу ёғи энди баҳор! Энди яша!” Шейрда айтилганидек, ғам чекса, бинафша овунтиради. Шоир руҳиятидаги илоҳий-руҳоний лаҳзаларда содир бўлаётган жараён – бу.

Банддаги бинафша сўзи бош ҳарфда ёзилганининг сабаби эса бизга қоронғи. Бу ерда Бинафша балки исмдир, балки... шоир хаёлотининг олис пучмоқларидаги умид юлдузидир...

Шейрдаги “қилсайди, билсайди, овунтирсайди” каби сўзларда такрорланадиган “-сайди” кўшимчасида умид ва истак бор. Бу ниничининг қанотини ҳижоб қилган ёки қилкўприк йўл топиб берган ҳолати эмас, ўша ҳолатларга нисбатан шоирнинг, лирик қаҳрамоннинг истагидир. Истак бўлганда ҳам шартли эмаслиги кўриниб турибди. Бу ерда муножот бор десак, тўғри бўлармикан... “-сайди” кўшимчасини ишлатиш шейрнинг сўнгигига қадар давом этади:

*Сени мен кўзимга солиб турсайдим,
Фақат ёш оққанда аксинг кўрсайдим,
Юракка хат ёзиб сенга берсайдим,
Тўл-ғо-на, тўл-ғо-на
Жон
Берар эдик.*

Туйғунинг моддийлашуви, хаёлий манзарани жонлантиришда шоир тафаккур камровининг ўзига хос ифодаларда аксланиши ўқувчини бефарқ қолдирмайди. Халқимизда кўп ишлатиладиган “кўз қароғида асраш” деган жумла бор. Кўз қанчалик нозик, ҳимояга муҳтож, миттигина бир гарддан ҳам асралиши кераклиги маълум. Кўзки, шу қадар эҳтиёт қилинар экан, “Сени мен кўзимга солиб турсайдим...” сатрига кўра ёрни кўзни асрагандек асрамоқчи. Бундан ташқари, “кўзга солиб туриш” ҳолатини доим кўриб туриш,

давомийликдан турғунликка ўтиш, доимо кўз олдида бўлиш деган мазмунда ҳам тушуниш мумкин. Аммо кейинги *“Фақат ёш оққанда аксинг кўрсайдим”* сатри биз таҳлил қилган биринчи вариантга яқин келади. Биринчи ҳолатга кўра, кўз қароғида асралаётган ёрнинг акси фақатгина ёш билан кўриниши мумкин холос. Аммо шоир ёрнинг висолига шундай интиқ экан, нега *“Мен сени доим кўриб турсайдим”*, демаяпти? Нега фақатгина ёш оққанда унинг аксини кўрмоқчи? Гап шундаки, кўз ёшнинг тозалиги олдида бошқа нарсани таққослаб бўлмайди. Шоир ёрни мана шу тозаликка раво кўряпти. Ва яна бир ҳақиқат борки, кўз ёш самимий бўлади, рост бўлади. Тоза кўнгилдан, самимий кўздан ёш келади. Шоир ана шундай ростлик ҳолатидагина ёрни кўрмоқчи. Янаям теранроқ назар солсак, ёр ошиқнинг бутун жисмига, руҳига кўчиб ўтиб, бирлашиб кетганки, унинг кўзидан оқаётган ёшда ҳам ёрнинг сурати акс этади, гуё. Ошиқ ва ёр бирлашиб ўртадаги “мен”лик ҳисси йўқолиб кетгандай...

“Юракка хат ёзиб сенга берсайдим...”. Энди эса шоир ўзининг бор сирлари-ю кечинмаларидан ёрни воқиф қилмоқчи. Бу осон эмас. Одамнинг барибир ҳеч кимга айтмайдиган, баъзан эса айтолмайдиган сирлари бўлади. Бу сирларни фақат ўзинг билан ўзинг қолганингдагина айта оласан. Шоир айтганидек, юракка аталган хат билангина ана шу кечинмаларингни билдира оласан. Ёр кўз қароғи қадар яқин экан, энди юракка битилган хатни унга бериш мумкин. Энди у бегона эмас. Энди у фақат ўзинггагина аён бўлган сирларингни ҳам билишга ҳақли. Бу яқинлик билан, бу руҳ бирлиги билан эса дунёларга сиғиб бўлмайди.

Бу юракка аталган мактуб эди. Энди юракнинг ўзига ёзилган мактубни ҳам бир тасаввур қилсакчи? Юракка аталган эмас, қоғозга ёзилган ҳам эмас, айнан юракнинг ўзига ёзилган хат. Одатда ошиқнинг севгилисига қарата *“Юрагимни берсам”*, дейишидаги ҳолатнинг *“Юрагимга хат ёзиб, кейин ўша хат ёзилган юракни сенга берсам”* шаклида ифодаланишини кўряпмиз. Моддий ва маиший ҳолатдан чиқиб тасаввур қилинадиган ҳолат бу. Истаймизми-йўқми, шоир юракка хат ёзиш мумкинлигига ўқувчини ишонтиради.

Агар биринчи таҳлилимизга қайтиб, мазкур метафорик ҳолатни *“юракка аталган мактуб”* деб қабул қиладиган бўлсак, савол туғилади: Ўзи шоир нега юракка мактуб ёзмоқчи? Чунки мактубда изҳор, муножот, истак бор. Аслида мактуб кимга ёзилади? Албатта, кўнглиннга яқин кишига. Шоир эса юракка хат ёзмоқчи. Шунда мазмун бироз англашилгандай. Яъни *“Менга энг яқин ҳисобланган, бор сиримни, бор дарду-ҳасратимдан огоҳ бўлган юракка хат ёзиб, сўнгра ана шу – энг яқинимга йўллашим мумкин бўлган хатни сенга берсам...”* Бу ҳолат шоирга ёрни жуда ҳам яқинлаштириб кўяди. Бу яқинликдан

сўнг кетиш эҳтиёжи, шеърнинг руҳиятидан келиб чиқсак, кетиш истаги пайдо бўлади:

*Қалдирғоч иккимиз олиб кетсайди,
Дунёдан-да йироқ ерга элтсайди,
Сўнг севиб ўлмоқдин сабоқ ўтсайди,
Тўл-ғо-на, тўл-ғо-на
Жон
Берар эдик.*

“Севиб ўлмоқдан сабоқ ўтадиган” қалдирғоч шоирнинг наздида уларни қаерга олиб кетади? Умуман олганда, нега айнан қалдирғоч олиб кетади, сабоқ ўтади? Қалдирғочни Носируддин Рабғузий ҳам жуда улуғ сифатлар билан тасвирлайди. Намруднинг оловига сув олиб келган ҳам, одамга зарар етишини билиб, чивиннинг тилини чўкиган ҳам қалдирғочдир. Нуҳ кемасига энг аввал қалдирғоч чиққани айтилади. [Рабғузий Н. 2]

Англашиладики, бу ерда, бу дунёда муҳаббат ҳақида гаплашиб бўлмайди. Шу сатрларда шоирнинг руҳияти юксаклик сари кўтарилиб борапти. Инсоний ҳисларнинг энг нозиги ва, шунинг баробарида, энг улуғини кўргиси келяпти. Бир вақтлар инсон аталмиш мукаррам зотга йўл кўрсатган, нур бўлган, нажот бўлган қалдирғочдан сабоқ олишни истаяпти. Қалдирғочнинг устозлик қилиш ҳолати ўқувчини энг тоза ҳислар томонга етакляпти. Бу гапларни ҳассос шоир, тафаккурнинг энг нозик ипларига кўрмоқчи бўлаётган қаҳрамон айтапти.

Қалдирғоч билан боғлиқ муждалар бошқа халқлар мифологиясида, эртак ва ривоятларида ҳам бор. Демак, қалдирғоч образи инсониятга дохил, десак бўлади. Хусусан, славян эртакларининг бирида қалдирғочлар бир қизни олиб кетиб, дунёдан айри, митти фаришталар яшайдиган маконга олиб боришади. У ерда қиз фариштага айланиб, фаришталар шаҳзодасига эрга тегади.

“Севиб ўлмоқдан сабоқ ўтадиган қалдирғоч...” Севги нима эканлигидан озгина хабардор бўлсак, севгидан сабоқ олсак, кейин бизга ҳеч нима керак эмас. Жонимизни берамиз. Жон берганда ҳам шунчаки эмас, “тўл-ғо-на, тўл-ғо-на” жон берамиз. Жон бера туриб ҳузур қиламиз. Бу Азроил келгандаги жон бериш эмас, бу ўзинг истаб жонингни тортиқ қилиш ҳолати. Мазкур ифодаларни идрок этиш ўқувчининг фақатгина ҳис ёки туйғуларига боғлиқ эмас. Билим ва тафаккур билан идрок яна ҳам теранлашади.

*Ё семурғ бизларни бола қилсайди,
Муҳаббат наҳрида чўмилтирсайди,
Иккимиз бир лаҳза бирлаштирсайди,
Тўл-ғо-на, тўл-ғо-на
Жон*

Берар эдик.

Бу бандда эса юқоридаги ижтимоий юк ўзгача тарзда Семурғга юкланяпти. Ўзбек классик адабиётида, шарқ халқлари оғзаки поэтик ижодида доимий ишлатиладиган, орзу-умидларнинг рамзий ифодаси тимсоли бўлган Семурғдан илинж кутиляпти. Алишер Навоийнинг “Лисон ут-тайр” достонида Семурғ бошлиқ қушлар қанча довонлардан ошиб, охирида манзилига – ўзлигига етишади. Шеърнинг ҳар бир банди: “*Тўл-ғо-на, тўл-ғо-на / Жон / Берар эдик...*” деган сўзлар билан тугадини ҳисобга олсак, сўнгги банд ушбу такрорларни тўлдиради. Бошидаги учта бандда такрорланган “*жон бериш*” ҳолати тўртинчи банддаги Семурғ билан, Навоий тили билан айтганда, ўзлигини топиш билан яна ҳам ойдинлашади. Ўзлигини топгач, жон берса арзийди. Лекин яна бир жиҳат бор: Азроил жонингни олмоқчи бўлса, ўзингдан сўрамай оладику. Гўёки лирик қахрамон бу ерда худди шарт қўяётгандек. Лекин шарт қўйганида, “Агар ...са” шаклида қўйилар эди. Бу ерда “-сайди” шаклида келяпти. Шоир нега ҳолат манзарасини чизишда бу йўлни, бу усулни қўллаяпти? Демакки, бу ерда муножот бор, сўров, илтижо бор деб қабул қиламиз. Ўзлигини топишга интилиш сўнгги бандда яна ҳам ойдинлашади. Шунингдек, “*тўл-ғо-на, тўл-ғо-на*” такрорининг чизиқчалар билан ёзилиши ҳам ўзига хос. Тўлғониш ҳолатининг сўз орқали шаклга келиши, ушбу ҳолатнинг янада теранроқ тасвири бу.

Бу сўзлар поэтик майдонда метафораларга айланяпти. Ҳали номланмаган, ҳали ифодаланмаган тушунчалар билан ифода қилиняптики, буни ҳар бир ўқувчи ҳар хил қабул қилиши ҳам табиийдир. Шеърнинг метафорик манзараси, шоир чизган метафорик портрет ҳам шу тарзда очилиб боради. Уни қай ҳолатда ҳис қилиш ҳар бир ўқувчининг руҳияти, идрок билан боғлиқ. Демакки, бизнинг тасаввурларимиз, бизнинг таҳлилларимиз ҳам ана шу идрокнинг бир кўриниши.

Метафорик тафаккурни дастлаб шартли равишда ақлий жараён деб оладиган бўлсак, уни тасвирланаётган объектлар ўртасидаги киёслаш, таққослаш ҳолати сифатида тасаввур қиламиз. Онгнинг ўхшашликни излаш жараёнини ҳам метафорик тафаккур деб бериш мумкин. Умуман олганда, ўртада деярли фарқ йўқ. Агар метафорик тафаккур бу ақлий жараён бўлса, у табиий равишда мантикий фикрлашни тақозо қилади. Бу эса ижод жараёнига салбий таъсир қилиши, ҳис қилиш тушунчасидан узоқлаштириб қўйиши мумкин. Бироқ шеърга фақатгина ҳиссий жараён деб қаралмайди. Теварак-атрофдан, табиатдан, китоблардан ва ҳаётдан олган билим-кўникмалар туйғулар орқали шеърга кўчишини ҳисобга олиш керак. Бундан келиб чиқадики, тафаккур тушунчаси сингари метафорик тафаккур ҳам фақатгина ақлий жараён эмас. Бунда ақлнинг ҳам, ҳиснинг ҳам улуши етарли.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Давронова М. Ҳозирги ўзбек шеърлятида индивидуал услуб поэтикаси. Филол. фан. док. (DSc)... дисс. автореф. Самарқанд: 2019.
2. Носируддин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. - Тошкент: Ёзувчи, 1990.
3. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. - Тошкент: Академнашр, 2010.
4. Қуронов С. Модерн шеърлятда тасвир // Ёшлик. 2018. № 9.
5. Қутбиддин А. Бахтли йил: шеърлар. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991.

ABDULLA ORIPOVNING "SOHIBQIRON" SHE'RIY DRAMASIDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIY TALQINI

G'ulomjon Atadjanov,

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori

instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada istiqlol yillarida yaratilgan O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning "Sohibqiron" she'riy dramasi tahlil etiladi. Bu she'riy tarixiy dramada badiiy talqin qilingan buyuk foh Amir Temur va uning jangu-jadallardan chiqargan hayotiy –falsafiy xulosalari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: tarixiy she'riy drama, tarixiy obraz, tarixiy haqiqat, adolat, to'qima obraz, Amir Temur obrazi.

Abstract: This article analyzes the poetic drama "Sahibqiron" by the Hero of Uzbekistan Abdulla Oripov, created during the years of independence. In this poetic historical drama, the great conquistador Amir Temur and his life-philosophical conclusions drawn from the battles are studied.

Key words: historical poetic drama, historical image, historical truth, justice, textile image, image of Amir Temur.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining jahon tarixidagi buyuk siymolardan biri O'rta Osiyo xalqlarining taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan davlat arbobi, mashhur sarkarda, fan va madaniyat homiysi hisoblangan sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risidagi 1994-yil 29-dekabrda qarori sohibqiron Amir Temur shaxsiyati va faoliyatini har tomonlama o'rganish, tarixiy va haqqoniy haqiqatni qaror topdirish uchun asos bo'ldi. Buyuk allomalarimizning xalqqa qaytarilishi, ularning yubileylari nishonlanishi katta voqea bo'ldi. Xususan, sohibqiron Amir Temur haqida yozilgan tarixiy dramalarni e'tirof etish mumkin. Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida Amir Temur ijodi, faoliyati, u yashagan davr bo'yicha ko'plab tarixiy dramalar yozildi. Bularga Odil Yoqubovning "Fotih muzaffar yoxud Bir parivash siri (Avlodlarga vasiyat)", Abdulla Oripovning "Sohibqiron", To'ra Mirzaning "Amir Temur", "Amir Temur va To'xtamish", "Amir Temurning so'nggi kunlari" trilogiyasi, Ma'ruf Jalilning "Sohibqiron", Asror Samadning "Sohibqiron Temur haqida qissa", S.Sirojiddinovning "Sohibqiron Temur", Burxon Ismoilovning "Sarbadorlar" va "Samarqandnoma", Turob Akbarxo'jayevning "Zamon o'g'loni", S. Po'latovning "Sohibqiron vasiyati", T.Zulfiqorovning "Temur va Hofiz", N.Qobulovning "Amir Temur fojiasi", A.Ikromovning "Buyuk Temur", Sh.Pardayevning "Jahongir", U.Sattorovning "Sohibqiron afsonasi", H.Muhammadning "Temurning tug'ilishi", E.Xushvaqto'vning "Temurnoma", T.Mardiyevaning "Sohibqiron kelini", N.Abbosxon "Sohibqiron onasi", U.Azim "Adolat fasli", A.Samad "Sohibqiron Amir Temur yoxud adolat qilichi" tarixiy dramalarini sanash mumkin. Demak, mustaqillik yillarida sohibqiron Amir Temur hayoti va afsonalarga yo'g'irilgan harbiy yurishlar faoliyati aks etgan

jami o'ttizdan ortiq tarixiy- she'riy, musiqali- tarixiy, tarixiy dramalar yaratildi. Mazkur maqolada Abdulla Oripovning "Sohibqiron" she'riy tarixiy dramasi tahlilga tortiladi. Abdulla Oripovning "Sohibqiron" she'riy dramasi va Odil Yoqubovning "Fotih muzaffar yoxud Bir parivash siri (Avlodlarga vasiyat)" tarixiy dramalari D. Rasulmuhammedovanning "Istiqlol davri o'zbek dramaturgiyasida Amir Temur obrazini yaratish muammolari" nomli nomzodlik dissertatsiyasida keng tahlilga tortilgan [5. 2000, B. 147]. Ikki dramani qiyosiy o'rgangan D. Rasulmuhammedova Odil Yoqubovning "Fotih muzaffar yoxud Bir parivash siri (Avlodlarga vasiyat)" dramasi folklor ijodi ya'ni xalq afsonalarga tayanib, A. Oripov "Sohibqiron" she'riy dramasi esa tarixiy materiallar asosida yozilganligini ta'kidlaydi. O'zbekiston Qahramoni A. Oripovning "Sohibqiron" she'riy dramasi shu kunga qadar o'z qadr-qimmatini yo'qotmagan. Amir Temur hayoti va adolatparvar hukmdor qiyofasi katta mahorat bilan badiiy talqin etilgan. Mazkur she'riy- tarixiy drama besh sahnadan iborat. "Asarga Amir Temur hayotining so'nggi davri qalamga olinganiga qaramay, qahramon xotiralari orqali butun hayotining asosiy voqealari eslanadi va uning qudratli davlat arbobi, mohir sarkarda, serqirra inson, mehribon va talabchan ota sifatidagi to'laqonli obrazini yaratishga muvofaq bo'lgan" [2. 2023, B. 39]. Ushbu dramada Amir Temur o'z kechimalari, murakkab tabiati, saltanat tashvishlari, avlodlariga munosib ota, ahli-ayollariga munosib er sifatida har tomonlama mukammal inson va hukmdor sifatida gavdalanadi. Dramaning birinchi sahnasidan uning naqadar odil bo'lganligini Amir Husayn bilan bo'lgan ziddiyatlardan ham bilsa bo'ladi. Ichi hasadga to'lib ketgan Amir Husayn bir necha bora Amir Temurga pand bergan bo'lsa ham uni kechiradi. Bir tomondan yoshlikdagi do'sti bo'lsa, ikkinchi tomonidan u qayin og'asi, ayoli Uljoy Turkonning akasi edi.

Uljoy Turkon

Afsuski, men xabardorman buning baridan

Necha yildir orangizda qora xusumat.

Aka, Sizning joningizni Ulug' Amirdan

Qancha marta so'rab oldim yig'lab, yolborib [2. 2022, B. 17].

sohibqiron Amir Temur uni birdan jazoga buyurmaydi. Uning adolatparvarligi shundaki, dushmanining jonini o'rtaga tashlaydi. Ustozi Mir Said Barakadan, Shayxulislom va Barlos bahodirdan fikr so'raydi. Sohibqiron Amir Temur avliyo Ahmad Yassaviyning "Nafsim meni yo'ldan urib xor ayladi. Termiltirib xaloyiqqa zor ayladi" baytini Amir Husaynga qarata aytar ekan, u zotni har tomonlama mukammal inson ekanligiga urg'u beradi. Raiyatga qarata murojaat qilar ekan, urushni daf etishning yo'li – qonunlarga barcha so'zsiz rioya qilish, hamma uchun adolatli jamiyat yaratish haqida, ya'ni Adolatparvar hukmdorligiga diqqat qaratadi. Dunyoning yarmini zabt etgan buyuk fotih Amir Temur hukmdor uchun yurtni

boshqarishda faqatgina adolat emas, aql, ma'naviy-ruhiy yetuklik, tadbirkorlik, zukkolik, mardlik va oliyjanoblik, sahovat, bilim, kechirimlilik darkorligini ta'kidlaydi. Mohir dramaturg Abdulla Oripov Amir Temurning mehri kabi qahri ham chegara bilmasligini dushman kallasidan minora qurib, qonlarini daryo qilib oqizish haqida maqtangan vaziri Muhammad Qovchinni vazirlik maqomidan tushirib otboqar darajasiga tushirishi voqeasi bilan qiyoslaydi.

Oллоh menga qahr hissin qancha mo'l bersa,

Yuraginga o'shanchalik mehr ham solmish [2. 2022, B. 73].

She'riy-tarixiy dramaning to'rtinchi sahnasida Sohibqiron Qovchinni baribir kechiradi. Shuningdek, asarda Boyazidning yozgan maktublaridan, uning hatti-harakatlarini qattiq tanqid qilgan sohibqiron adolatparvarlik nuqtayi nazaridan ikki tildosh va dindosh bitta turk qavmi, aka va uka, taxt talashib jang-u jadal qilsa, talashsa bu nomus emasmi deb o'ziga - o'zi savol beradi. Unga qo'shin tortib borishni haqorat deb biladi. Tarixdan ma'lumki, Boyazidning o'zi haddan tashqari o'zidan ketganligi bois unga hujum qilishga majbur bo'ladi. Ayol-qizlarga juda katta hurmatda bo'lgan sohibqiron Mironshohning ichib olib ayoliga qo'l ko'tara olganligini kechira olmaydi. Hatto kelinidan o'zi uzr so'raydi. Bu voqeaga Amir Temur adolat nuqtayi nazardan yondashar ekan o'g'li Mironshohga qirq kunlik zindon jazosini qo'llaydi. Amir Temur mashhur "Anqara jang"ida Boyazidni yengadi. Dramada sohibqiron g'alabadan mag'rurlanmaydi. Asir olingan Boyazidga hurmat va izzat ko'rsatadi. Shuningdek, uni eshitib iltimosini ham bajo keldiradi. Boyazidning o'g'illari va ahli ayollariga shafqat qiladi. Boyazidning yerlari o'g'illariga taqsimlab beriladi. Sohibqiron nabirasi Aloviddin bilan shatranj o'ynar ekan shunday gapni aytadi:

Aloviddin

Chiroyli mot!

Mot!

Temur

Bu- ruxning ishi...

Shoyad ruxlar menga mudom bo'lgay madadkor [2. 2022, B. 54].

deb ta'kidlar ekan bu rux so'zini ikki xil ma'noda birinchidan, shatranj o'yinidagi rux ma'nosida, ikkinchidan ota-bobolar ruxi ma'nosida qo'llab, so'z o'yinidan mahorat bilan foydalangan.

Abdulla Oripovning "Sohibqiron" she'riy-tarixiy dramasi mustaqillik davri o'zbek adabiyotida yaratilgan o'ttizdan ziyod tarixiy dramalar orasida muvaffaqiyatli chiqqan sahna asarlaridan biridir. Aslida, jahongir va buyuk sarkarda Amir Temurning afsonaviy hayoti va jangovar yurishlari global miqyosga chiqib, butun dunyo adabiyotida eng ko'p ishlangan tarixiy obrazlardan biridir. Zero, sohibqiron

Amir Temur obrazi o'zbek adabiyotidagina emas, turk, ozarboyjon, qozoq kabi turkiy, yevropa xalqlari adabiyotida qayta-qayta murojaat qilingan ulkan tarixiy shaxsdir. Iste'dodli shoir Abdulla Oripov sohibqiron obrazini to'laqonli aks ettirish maqsadida besh sahna ko'rinishidan iborat she'riy tarixiy dramada Amir Temur va sartarosh muloqoti; Amir Husayn va Amir Temur ziddiyati, Uljoy Turkon fojiasi; Amir Temur va Ibn Arabshoh muloqoti, Muhammad Qovchinning jazolanishi; Amir Temur va Buqalamun muloqoti; Shayxul islom va Amir Temur muloqoti; Amir Temur va Sulton Boyazid muloqoti; Amir Temur va Bibixonim muloqoti; Darvish-Hazrati Xizr- Yassaviy va Amir Temur muloqoti asosiga qurilgan. Bu sahna ko'rinishlarning barchasida Amir Temur obrazi buyuk jahongir, adolatli shoh, mehribon ota, shafqatsiz ota, raiyatparvar hukmdor sifatida namoyon bo'ladi. Abdulla Oripov Amir Temurning buyuk fotih va adolatparvar hukmdor fazilatiga ko'proq urg'u beradi. Dramaturg sohibqiron obrazini mukammal yaratish maqsadida tarixiy faktlarga, Amir Temur zamonidagi mashhur tarixiy shaxslarga alohida diqqat qaratadi. Shuningdek, Amir Temurning buyuk fotihlik onlarini yoritishda tarixiy, afsonaviy, diniy-mistik talqinlarga ham keng o'rin beradi. Jumladan, Hazrati Xizr bilan bog'liq sahna ko'rinishi diniy-mistik adabiy usul orqali badiiy talqin etilgan. Hazrati Xizr Amir Temur oldida uch xil qiyofaga evriladi. Ya'ni oldiniga Darvish qiyofasida, so'ngra Hazrati Xizr qiyofasida va oxirida Yassaviy qiyofasida Amir Temur bilan suhbatlashadi. Chunki, Sohibqiron Yassaviyni o'ziga pir deb biladi. Tarixdan ma'lumki, Amir Temur Ahmad Yassaviy qabriga maqbara qurdirgan. Bugungi kunda bu maqbara muqaddas ziyoratgohga aylangan.

“Sohibqiron” she'riy- tarixiy dramasi muallif Amir Temurning bunyodkorlik ishlariga, davlat chegaralarini mustahkamlash siyosatiga, adolatparvarligiga, ilm-fan homiysi ekaniga katta ahamiyat beradi. “Sohibqiron” dramasi 1997-yilda Milliy teatrdan sahnalashtirildi va minglab tomoshabinlarga namoyish etildi. Sohibqiron ro'lini O'zbekiston xalq artisti Tesha Mo'minov ijro etdi. Sahna ko'rinishida she'riy drama sarlavhasi “Sohibqiron Amir Temur”ga o'zgartirilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Abdulla Oripov mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasida Amir Temur obrazining sahna variantini mahorat bilan yaratib teatr tomoshabinlariga taqdim etdi. Binobarin, Amir Temur obrazini o'zbek adabiyotida abadiylashtirish mas'uliyati eng avvalo o'zbek adiblari uchun ulkan vazifa edi. Dunyo adabiyotida Amir Temur obrazi ikki xil qiyofada badiiy talqin etilgan. Birinchisi ijobiy ma'nodagi fotih va adolatparvar hukmdor bo'lsa, ikkinchisi bosqinchi va islom dinini tarqatuvchi salbiy obraz qiyofasida namoyon bo'lgan.

O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov Amir Temur obrazini she'riy-tarixiy dramada aks ettirar ekan, uning ziddiyatli ichki dunyosini, “Temur tuzuklari”ni yaratgan hukmdor va orif inson ekanini xolis yoritadi. Xulosa shuki, “Sohibqiron”

she'riy dramasi mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasi taraqqiyotida muhim bosqich bo'ldi. Mazkur dramadan so'ng o'ttizdan ortiq dramalar yaratilib, ular qaysidir ma'noda Abdulla Oripov ijodiy-badiiy an'alariga suyandi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at, 2000.
2. Oripov A. Sohibqiron she'riy dramasi. PIR nashriyoti, Toshkent: 2022.
3. Ochilov E. "Sohibqiron" she'riy dramasida syujet va kompazitsiya // O'zbek tili va adabiyoti jurnali.
4. Fozilova M. Usmon Azimning dramaturgik mahorati. –Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.
5. Rahmatullayeva D. Istiqlol davri o'zbek dramaturgiyasida Amir Temur obrazini yaratish muammolari: Filol.fan nomzod. diss... Toshkent, 2000.

HIKOYADA MAVZU VA G'OYA TADRIJI

(Abduqayum Yo'ldoshning "Parim bo'lsa..." hikoyasi misolida)

Zumradxon Teshaboyeva,*O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti doktoranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abduqayum Yo'ldoshevning "Parim bo'lsa..." hikoyasining kompozitsion qurilishi, ta'sirli syujeti, asar tilining go'zalligi, badiiy-g'oyaviy yuki, prolog va epilogning asar kompozitsiyasidagi o'rni haqida so'z boradi. Ushbu hikoyaning tag zamiriga singdirilgan mazmunlar va qahramonlari taqdiridagi tragizm haqida ham fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: syujet, kompozitsiya, prolog, epilog, g'oya, tragizm, qahramon.

Abduqayum Yo'ldoshevning hikoyalari ta'sirli syujeti, xarakterlarning aniq va ishonarli ekani, kompozitsion qurilishi, tilining go'zalligi va badiiy-g'oyaviy yuki bilan ajralib turadi. Bu hikoyalarning qahramonlari hayot sinovlari oldida ojiz qolsalar ham kurashdan to'xtamaydilar. Kurashuvchanlik tabiati bu obrazlarning o'quvchiga qadrlil bo'lishida muhim jihatga aylanadi. Hikoyalarda qishloq va shahar oralig'ida o'z qismatini yashayotgan oddiy odamlarning ruhiyat manzaralari o'ta daqiqlik bilan tasvirlanadi, ularning tabiatidagi bosliqlik va sirtga chiqmaydigan isyonkorlik ruhi turli voqealar orqali ochib beriladi.

Mavzulardagi rang-baranglik yozuvchi hikoyalarda yaqqol ko'rinadi. Xususan, "Parim bo'lsa..." hikoyasi zamirida moddiy dunyo hoyu havaslariga yengilmaslik, hayot mazmuni faqatgina boylik emasligini anglab yetish insonga berilgan yuksak baxt ekani, muhabbatning insonga ato etilgan oliy tuyg'u ekani, oriyat va hamiyat erkak kishi uchun naqadar kerakliligi kabi messejlar turadi. Yozuvchi obrazlar xarakterini ifodalashda ularning tarjimai holiga murojaat qiladi. Bu tarjimai hol bayoni ularning hayotidagi ba'zi oq-qora chizgilardan iborat bo'lib, o'quvchini o'sha obraz haqidagi tasavvurini boyitadi.

Hikoyadagi ikki qahramon – Ibodulla va G'aniboy turfa tabiatli odamlar. Xususan, Ibodulla hikoyada ta'rifi keltirilganidek, o'zi qishloqda yashasa ham "shahar jinnisi". Har doim ko'ngli shaharga sayohatni tusaydi, shaharni aylansam deydi. Shunga yarasha shaharni ancha-muncha yaxshi biladi. Uning shaharga azbaroyi qiziqishi hikoyadagi syujet chizig'ida muhim bo'lgan tugunga bog'lab qo'yadi. Muallif hikoyada Ibodullaning xarakterini tasvirlarkan, uning bir so'mlab pul yig'ishi, o'zini, ba'zan oila a'zolarini yeyish-ichishdan siqishi, birovlarining o'tini o'rib berib uch-to'rt tanga topishi, kimlarningdir tomorqasini sug'orib berib yana "nosvoy puli" ishlashi va topganlarining barini tishining kavagida asrashi, barisi shahar uchun ekanini ta'kidlaydi. G'aniboy esa o'n yilcha burun institutning filologiya fakultetini tugatgan, ammo o'zining sohasi bo'yicha bir kun ham ishlamasdan, diplomini sandiqqa tashlab qo'yganicha tadbirkorlik bilan

shug'ullangan. Avval fermer bo'lgan, keyin qo'shimchasiga biofabrika tashkil etgan, bungayam qanoat hosil qilmay, qishloqning o'zida ikkita tegirmon qurgan, ikkita do'kon ishga tushirgan, dalasiga ikkita traktor sotib olgan. O'z nomi bilan "g'aniy" (boy) bo'lgan G'aniboy kutilmaganda o'zgarib qolishi hikoyadagi voqealar zanjirini boshlab beradi. Qo'yib bersa kun-tunning yigirma to'rt soatini oyoqda, ishda o'tkazadigan G'aniboy kutilmaganda mutolaaga zo'r berishga o'tgani, endi sal fursat topsa bas, yotib olib bir nimalarni o'qishga tushgani, bir xil paytlari qorday oppoq "Lasetti" sini ichidan qulflab olib, kitobdan bosh ko'tarmay o'tiraverarishi, xonasiga qamalib olgan dalaga borsayam qo'ltig'idan qo'ymaydigan "noutbuk" kompyuterida erinmay kino ko'rishi qishloqqa ovoza bo'ladi. Odamlar odatda hammaning fe'li xo'yiga yarasha xatti-harakatlarga parvo qilmaydi. Biroq birovning sajiyasida, yurish-turishida biroz o'zgarish yuz bersa, bu hammaning e'tiborini tortadi.

"Ammo bu ham hali hammasi emas. G'aniboy... tunlari hammadan yashirinib olib bir nimalar yozayotgan emish..." [1:9] Qahramonning ruhiyatidagi evrilish zohirida ham ko'rinib turadi. Muallif unga qishloqdoshlari "yangi o'zbek" deya laqab qo'yishganini bayon etadi. G'aniboy shaharga borishni maqsad qilib, o'ziga yo'l ko'rsatuvchi odam axtaradi va Ibodullani o'ziga hamroh qiladi. Bir-biriga ters tabiatli ikki odamning birga safar qilishi hikoyani yanada qiziqarli qiladi.

G'aniboyning sherigini ergashtirib, balet tomosha qilgani borishi, uning hishayajoni Ibodulla bilan birga o'quvchini ham hayratda qoldiradi. Chunki adib hikoya avvalida uni ziyoli bir inson sifatida emas, ko'proq "pul bandasi" o'laroq tanishtiradi. Undagi favqulodda o'zgarish esa biror sababsiz yuz bermasligi ayon edi. "Men bir narsani aniq bilaman, jo'ra. Bir marta ko'rishdayoq yurak-bag'ring o'rtanib sevib qolsang – mana shu haqiqiy muhabbat, qolgan hammasi bekor. Dunyoda olti milliard odam yashaydi. Lekin yulduzing yulduzingga to'g'ri keladigani bittagina. Bittagina, xolos. O'shani topsang – baxting, topmasang, o'zingniyam, o'zgalarniyam aldab, kun ko'rib o'tib ketaverasan bu hayotdan..." [1:22] – degan xulosaga keladi G'aniboy. Uning favqulodda o'zgarishining sababi muhabbat edi. Keyingi voqealar o'quvchida telba bo'layozgan G'aniboyga nisbatan achinish hissini uyg'otadi.

Hikoyaning g'oyasi Alisher Navoiyning "Parim bo'lsa, uchib qochsam ulustin to qanotim bor, Qanotim kuysa uchmoqdin, yugursam to hayotim bor..." bayti bilan hamohang. Asar nomi ham aynan shu baytdan olingan. O'zi tushib qolgan o'zandan yangi bir dunyoga chiqish istagi – parvoz orzusi nafaqat G'aniboyning, balki qobiqlar ichida yashayotgan har bir odamning ko'nglidan o'tadigan tuyg'udir. Adibning badiiy niyati ham shu kechinmani ifodalash desak xato bo'lmaydi. Hikoya yakuniga yaqinlashgani sari syujet chizig'i taranglashib, voqea yanada qiziqarli tus olib borgan. Balerina qizning ishqida kuyib, yonib ado bo'layozgan G'aniboy qishloqqa qaytadi,

uning shahardagi mojarosi qishloqda boshqacha talqin qilinib, bu orada Ibodulladan ham hamma yuz o'giradi. G'aniboyga tuman markazidagi shifoxonada "psixogen amneziya" tashxisi qo'yiladi. Shifokorlar uning tuzalib ketishiga umid qilishadi. Biroq voqealar chizig'ida muhim figuralardan biri bo'lgan Ibodulla ham bu ishq mojarosining badalini to'laydi. "Shahardagi kundosh" haqidagi gap-so'zlardan charchagan Ibodullaning xotini Gulasal farzandlarini olib ota-onasinikiga ketadi, "yakkamoxov bo'lib qolgan" Ibodulla ko'p eziladi. Ko'chaga chiqsa bas, yosh-qari darrov teskari qarab oladi...

Mashhura Sheraliyeva ushbu hikoyani "Inson tashqarida boshqa bir odam, o'z ichida boshqa bir olam bo'lib yashaydi. G'aniboyvachcha bilan Ibodulla ana shu chegarani buzadi — shaxsiy nuqtai nazarini yashirmay qo'yadi. O'z navbatida, ular jamoada — har biri deyarli ularnikiga o'xshash shaxsiy nuqtai nazarga ega, biroq buni yashirib yashashga o'rgangan kishilar orasida begonaga aylanadi" "[2:35]., deya talqin qiladi.

Hikoya adibning "dunyoda hali yorug' xayollar bor, orzu tomon qanot qoqish — parvoz imkoni bor" degan xulosasini ilg'aymiz. Asar so'nggida "ong-shuur ko'zgusi chatnagan, xiralashgan, o'rgimchak to'riday yoyilib ketgan xayolot afsunida voqelikni to'liq idrok qilolmay qolgan" G'aniboy yashirin ravishda turli-tuman qush-parrandalarning patlaridan o'ziga qanot yasaydi: "Yigirma birinchi asrning o'n to'rtinchi yilida yashayotgan Dedalmi, Ikarmi yarim tun, borliqni to'lin oy sutday yoritgan, ko'kda yulduzchalar jimirlab, sirli ko'z qisayotganlari mahal hovliga chiqadi, o'rtada qad rostlab turgan ulkan daraxt tepasiga ko'tariladi va... qanotlarini yoygancha ko'kka parvoz qiladi..." "[1:33] Shu bilan uning parvozi manguga tugaydi. Abduqayum Yo'ldoshev ijodiga xos qahramon taqdiridagi tragizm o'quvchini ta'sirlantiradi. Inson o'z umididan, o'z orzusidan judo bo'lishi mumkin, lekin maqsad uchun bir marta bo'lsa ham harakat qilib ko'rish imkoniyatini qo'ldan boy bermasligi kerak. Hikoya tag zamiriga singdirilgan mazmunlardan biri shu.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqayum Yo'ldosh. Parim bo'lsa..../Mubtalo: hikoyalar. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023.
2. Mashhura Sheraliyeva. Hikoyani o'qib. "Tafakkur" jurnali, 4/2015

POETIK TAFAKKUR TADRIJIDA AN'ANAVIYLIK VA IZDOSHLIK MASALASI

Matluba Ulkanboyeva Hasanboy qizi,
O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti tayanch doktoranti
 @Matluba_Ulkanboyeva
[+998912811819](tel:+998912811819)

Annotatsiya. Maqolada adabiy an'analarga izdoshlik masalasi Abdulla Qahhor, Shukur Xolmirzayev va yosh yozuvchi Bobo Ravshan ijodi misolida tadqiq qilingan. Xususan, Qobil bobo, Botir cho'pon, Eson obrazlaridagi mushtarak jihatlar va o'ziga xosligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Adabiy an'ana, novatorlik, muallif xarakteristikasi, personaj nutqi, depersonalizatsiya jarayoni.

Adabiy an'analarga izdoshlik va novatorlik masalasi adabiyotshunoslikda trenddan tushmaydigan mavzu desak yanglishmagan bo'lamiz. Vaqti-vaqti bilan "Adabiyot nadir?", "Adabiyot o'ladimi?" kabi azaliy bahslar qatorida "Eskilikmi yoki yangilik?" so'rog'i ham tanqidchilikda tez-tez murojaat qilinadigan mavzu ekanligi bor gap. Bugungi maqolamiz yosh yozuvchi Bobo Ravshan ijodiga bag'ishlanadi. Jumladan, uning "Lafz" [Bobo Ravshan. 6:24-31] hikoyasi misolida an'anaviylik va novatorlik masalasiga to'xtalamiz.

Bugun adabiy maydonda bo'y ko'rsatgan, o'z so'zini aytishga urinayotgan ijodkor haqida gap ketar ekan uni o'zigacha bo'lgan adabiyotdan ayro o'rganish mumkin emas. "San'atkorning qadr-qimmati va bahosi u yaratgan narsaning san'atkor va shoirlar ijodi bilan qanday bog'langanligini aniqlash orqali aniqlanadi. Bunday qarama-qarshilik va taqqoslash amalga oshirilmasa uni alohida baholab bo'lmaydi; ijodkor asarlarining mohiyatini anglashimiz uchun san'atkorni o'zidan oldin o'tganlar bilan solishtirib, hukm qilish kerak"[Tomas Eliot. 7], - deb yozadi ingliz shoiri Tomas Eliot. Darhaqiqat, qaysidir yangi tahlili uning qaysi eskiga vorislik qilishini aniqlash bilan boshlanadi. Zotan, an'analardan o'sib chiqmagan yangilik bormi o'zi? Hatto dunyoga endi kelgan go'dak gavharida ajdodlar tajribasi kodlangan tarzda mavjud bo'lar ekan, yozishga chog'langan yozuvchi ongida o'zigacha bo'lgan adabiy an'analar tajribasi poydevor vazifasini o'tashi aniq teoremadek gap, aslida. U holda avval yozilganni qayta yozishdan qanday naf bor? Gap shundaki, ko'chirmakashlik bilan an'anaviylikni chalkashtirmaslik kerak. Xodi To'qtashning mashhur gapi bor: "Muhabbat o'zi eski narsa, ammo uni har bir qalb yangilaydi". Shuningdek, yaxshi va yomon o'rtasidagi kurash va ezgulikni ulug'lash qadim mavzu. Bu qadim mavzu qayta-qayta u yoki bu kombinatsiyada yana yozilaveradi. Yozilgan eski voqelikning yangiligi – uni angelayotgan yozuvchining voqelikka munosabatida yashirin. "Sirasi, bizga yoqish yo yoqmasligidan qat'i nazar, o'z "ijodiy meni"-ni yuksak baholash chin iste'dodga xos xususiyat: undagi shu his

va o‘z so‘zini aytish ehtiyoji badiiy tafakkurni rivojlantiruvchi asosiy omillardir. O‘zi yaratayotgan yangilik shavqida iste‘dod an‘ana zaminida turganini iqrar qilmasligi ajab emas, zero, ijodiy izlanishlariga o‘zini an‘anaga qarshi qo‘yish dan quvvat oladi. Bunday qarshi qo‘yish, botinda kechuvchi “eski va yangi” kurashi iste‘dod ijodiy o‘zligini qaror toptirgachgina barham topadi. Zero, endi uning ijodiy izlanishlari mahsuli – yangilik voqelanib ulgurgan, an‘anaga bir zarra misoli qo‘shilib ketgan bo‘ladi...”[Istiqlol.Adabiyot. Tanqid. 2:47]

Ko‘chirmakashlik esa yozuvchi badiiy asarga asosni emas, unga munosabatni ham aynan o‘zlashtirib olganida ro‘y beradi. “Agar an‘anani zanjir bo‘ylab uzalgan harakatning yagona shakli deb qabul qilgan holda, bizdan oldingi ajdodlar izidan yurib, ularga ko‘r-ko‘rona va qo‘rqoqlarcha amal qilish deb tushunadigan bo‘lsak, bunday “urf-odat”ga, shubhasiz, qarshi turish kerak bo‘lardi”[Tomas Eliot. 7]. Albatta, bu adabiy sharmandalikdan boshqa narsa emas.

Adabiyot ham, jumladan, ma‘lum bir ijodkor ham qudratli, zalvarli bo‘lishi uchun, ma‘lum bir g‘oyani ochib beruvchi obrazlar silsilasiga ega bo‘lishi darkor. Xalqimizda yolg‘iz otning dong‘i chiqsa ham, changi chiqmas degan naql bejiz aytilmagan. Agar A.Qahhorning Qobil bobosidan keyin Erkin Vohidovning Mo‘mini, Shukur Xolmirzayevning Botir cho‘poni yaratilmaganda adabiyotimiz, qolaversa, Qobil bobo ham o‘zini anchagina g‘arib his qilardi. Boksda birinchi zarbadan keyin nakaut qilish uchun 2-3-zarbalarni berish g‘alabani ta‘minlaydi. Shu ma‘noda Qobil bobodan so‘ng Mo‘min, Botir cho‘pon obrazlarining yaratilishi nasrimizni cho‘qqilari ko‘p tog‘ kabi yuksaltiradi. Mana endi mana shu silsilada yangi cho‘qqilar, yangi cho‘qqichalar bo‘y rostlamoqda. Yosh yozuvchi Bobo Ravshan ijodi shu xulosaning o‘ziga xos isbotidir. Chinakam badiiy asar o‘z zamoniga tutilgan ko‘zgu ekanligi barchamizga ayon. Kamchiliklarni bartaraf etish uchun, avvalo, uni ko‘rmoq, anglamoq darkor. Shu ma‘noda yuqoridagi asarlarda millatni asta-sekin yemirib, halokatga olib boruvchi go‘llik, noshudlik, laqmalik, o‘z haq-huquqini bilmaslik kabi illatlar ko‘rsatiladi, qoralanadi. “Og‘ri”, “Oltin devor” va “O‘zbek xarakteri”da qobillik va mo‘minlikdan zada bo‘lish iztirobi tasvirlangan” [Muhammad Vali. 3:35]. Bu tasvir Bobo Ravshanning “Lafz” hikoyasida davom etadi. Quyida Qobil bobo, Botir cho‘pon, Eson obrazlari chizilgan o‘rinlarni muqoyasa qilsak.

Obrazlar muallif xarakteristikasi orqali tasvirlangan o‘rinlar:

Qobil bobo [4:291-293]	Botir cho‘pon [5:68-77]	Eson tasviri [6:24-31]
Qobil bobo yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og‘il eshigi	Uychadan kalovlanib, qotma, qora choponining tirsaklari	Shundog‘am yuragi siqilib borayotgan Esonning tag‘in diqqati

<p>yonida turib dag'-dag' titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi; ko'zlari javdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi.</p>	<p>yirtilib paxtasi oqqan, soqoli o'siq, chuvak yuzli yigit chiqdi. Xuddi o'ngirini bosib oladigandek surilib-shoshilib kelib, biz bilan bir-bir ko'rishdi.</p>	<p>oshar, bor alamini sigirdan olmoqchi bo'lgandek, qo'lga chirmab olgan arqonni siltab tortganча so'kinib, jonivorga baqirar edi.</p>
<p>Qobil bobo qo'l qovushtirib uning ketidan yurar va yig'lar edi</p>	<p>Botir cho'pon iljayib, quvonib dasturxon yozdi.</p>	<p>Bunday vaqtlarda Eson o'zini yanayam xokisor sezar, taskin-u tasallolardan so'ng egik qaddini biroz rostlagandek bo'lardi.</p>
<p>Cholning butun bo'g'inlari bo'shshib ketdi, keyin tutoqishdi, ammo go'rda bir narsa deya oladimi!</p>	<p>Botir cho'pon qulluq qilib, xuddi kirib o'tirmasa — biz u dunyo-bu dunyo yuz ko'rmas bo'ladigandek, ta'zimlar bilan yana uyiga aytdi.</p>	<p>Ota-bola Esonni ko'z ochirgani qo'ymasdi. Eson garangsib qoldi. Eson nima bo'lganda ham akasini kutishni mo'ljallab, ayni gapni aytdi: — Narxnavoni bilmayman-damen.</p>
<p>Bu so'zi haddan ziyod sevintirdi. Chol yig'lab yubordi.</p>	<p>U kishi hamma bilan qo'l berib xayrlashdi-da, menga qolganda, burilib ketdi. Shunda ayoli ham xo'shlasha boshladi. Qadoq qo'llarining uchini berib xo'shlasha-xo'shlasha menga yetganda, uyam burilib ketdi.</p>	<p>Eson ishondi. Bahodir aka unga ikki million so'm sanab berdi. Eson akasidan yosh to'la ko'zlarini olib qochdi. Eson esa odamlar orasidan urinib-turtinib chiqib oldi.</p>

Muallif xarakteristikasidan ko'rinib turibdiki, qahramonlarning har uchalasi ham xokisor, sertavoze, ozgina e'tibor va tasallidan boshi ko'kka yetadigan obrazlar. "Bir

og'iz shirin so'z Nondek arzanda" (G'afur G'ulom) bo'lishi sababi haqida mulohazalar shuurimizda g'ujg'on o'ynaydi: asrlar davomida qulluq qilib yashashga ko'nikkan ajdodlardan meros bo'lib o'tdimi bu qulluqvoz avlod? "Yovlarga ters qarab tug'il" (Shavkat Rahmon) gan avlodning fojeasimi bu? Yoki o'zlik johiliyat sabab boy berildimi? Nazarimizda barcha savollarning javobida jon bordek.

Obrazlar personaj nutqi orqali ochilgan o'rinlar:

Qobil [Abdulla 4:291-293]	bobo Qahhor.	Botir [Shukur 5:68-77]	cho'pon Xolmirzayev.	Eson [Bobo Ravshan. 6:24-31]
– Xudo bersin... Ola edi...	xayr ho'kiz	- Mollar qochdi! Yordam beringlar! Qo'y-echkilarni hurkitgan — bilmay qoldim.	chiqib nima	- Bozorga... – Pul zaril, aka. Yo'qsa, sog'in sigirni ko'zing qiyadimi?
– Yo'q... emas, ho'kiz, ola edi. – Bori-yo'g'im shu bitta ho'kiz edi... – Ola ho'kiz... – Qo'sh mahali... – Bisotimda hech narsa yo'q...	sigir ho'kiz	-. Qo'zi topildi hisob. A, xotin? Shodito'qaydan topdik. Ulbulni... O'zimiz tasmollagan edik daydi itlarga yem bo'lgan-ov, deb... Endi bizni xursand qilamiz desanglar, ketar jafosiga bir mehmonimiz bo'lasizlar...	He,	– O'zi birgina shu sigir edi. Shu enamdi mazasi yo'g'roq, aka.
– Endi bizga juda qiyin bo'ldi-da. Peshonam bo'lmasa... – dedi cholyerga qarab.	bo'ldi-da. sho'r	– Ha, endi chidaymizda, og'ajon. O'zimizni o'zimizni hukumat.	paxta,	– Aka?! – dedi Eson ko'zlari jovdirab.– Nima qilgan bo'lsa o'ziga. Lekin men rozi bo'lib, qo'l tashlashib, lafz qildim.

— Ey, yosh bolamiz! yig'laysiz? odam...	— Botir aka, opa... men sizlarni juda yaxshi ko'raman, — dedim. — Xafa bo'lmangizlar.	— Lafz qildim? Sen tirranchaning o'zing kim-u, lafzing nima bo'lardi?! He, lodon!
-----------------------------------------------	---------------------------------------------------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------------------------------

Personajlarning nutqlaridagi mazmuniy, ruhiy yaqinlikni his qilmaslik mumkin emas. Barchasida mavzu hayvonlar bilan bog'liq: ho'kiz, qo'zi, sigir. Barchasining nutqida ilojsizlik ohangi yaqqol sezilib turibdi. Barchasining nutqida vaziyatga tobelik, ko'nish hissi mavjud! "Umuman olganda, "O'g'ri"dagi Qobil bobo – "Oltin devor"dagi Mo'minning otasi. Qobil va Mo'min – o'zligini bilmaydigan abgor toifa timsoli, Botir cho'pon uning davomchisi.[Muhammad Vali. 3:34] Mulohazani davom ettirsak, Eson yuqoridagi qahramonlarga nabira misol izdosh. Afsuski, hali hamon o'z haq-huquqini tanimaslik, vaziyatni qo'lga ola bilmaslik, noshudlik kabi illatlar millat xarakterida yotibdi. Va buni to'g'ri ilg'agan muallif o'z munosabatini Eson obrazida umumlashtirib ifodaladi.

Yozuvchining shakllanish jarayoni ham, badiiy asarning tug'ilish jarayoni ham ko'pqirrali, murakkab hodisa. Adabiy o'tmish tajribasini ijodiy o'zlashtirish, davrga o'z munosabatini bildirish va alaloqibat ana shu an'ananing bir bo'lagiga singib ketish jarayonini ijobiy ma'nodagi depersonalizatsiya jarayoni deb tushunish to'g'ri deb o'ylaymiz. "Ijodkor o'tmish haqidagi ongli tuyg'uni shakllantirishi va rivojlantirishi, butun ijodi davomida uni boyitishi kerak. Keyin asta-sekin u o'zidagi bu bilimlardan voz kechib, hozirgi paytdagi ijodiga, u uchun yanada muhimroq bo'lgan narsaga bu bilimlarni qurbon qiladi. San'atkorning harakati asta-sekin va uzluksiz olib boriladigan fidoyilikdir, bu o'z navbatida uning individualligining asta-sekin va uzluksiz yo'qolishidir"[Tomas Eliot. 7].

Tomas Eliot yuqoridagi esseda depersonalizatsiya jarayonini kimyoviy hodisa bilan muqoyasa qilgan o'rni qo'yilgan masalaning mohiyatini tushunishga imkon beradi: "Depersonalizatsiya san'atning ilm-fanga tobora yaqinlashib kelayotganini aytishga imkon beradi. Aloha men buni kimyoviy jarayondagi quyidagi holatga o'xshataman: eslang ehtiyotkorlik bilan tozalangan platina bo'lagi kislorod va oltingugurt dioksidi bo'lgan kolbaga solinganida nima sodir bo'ladi? Aytib o'tilgan gazlar tozalangan platina ishtirokida aralashtirilganda sulfat kislotada hosil bo'ladi. Bu faqat platina mavjud bo'lganda sodir bo'ladi, ammo hosil bo'lgan kislotada platina izlari yo'q va platinaning o'ziga bu ta'sir qilmaydi, u inert, neytral va o'zgarmas holda qoladi. Shoirning ongi ham xuddi shu platina plastinka".[Tomas Eliot. 7] Misol juda yorqin. Yuqorida tahlil qilganimizdek, Bobo Ravshan voqelikning badiiy sintezini yaratdi va o'z munosabatini bildirdi va mavjud silsilaga singib ketdi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yozuvchi voqelikni o'zgartira olmaydi. Xususan, bir necha ijodkor bir-biriga o'xshash voqelikni qalamga olishi, va bu jarayonda badiiy tarix an'anasiga suyanishi mumkin, muhimi ana shu voqelikka yozuvchining munosabati barmoq izlari yanglig' original bo'lishi, o'z so'zini ayta olishida ko'rinadi. Yuqoridagi asarlarni birlashtiruvchi nuqta mualliflarning milliy yuksalish borasidagi orzu-istaklarini ifodalashi bilan mushtarak bo'lgani holda tanlab olingan hayot materiali va unga munosabat borasida alohidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.
2. Истиклол. Адабиёт. Танқид... / Тузувчи ва нашрга тайёрловчилар: С. Куронов, Р. Ҳайдарова, Р. Ҳакимжонова. – Т.: «Turon zamin ziyo». 2014, – 312 б.
3. Muhammad Vali. Yulduzlarni porlatgan yog'du. – Namangan: Iste'dod ziyo press, 2022, – 180 b.
4. Qahhor Abdulla. Asarlar.5 jildlik. 1-jild.Sarob: roman, hikoyalar. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti,1987. – 336 b.
5. Xolmirzayev Shukur.Saylanma.2-jild. – Toshkent: Sharq. 2005. – 247 b.
6. Ravshan Bobo. Tong va shom orasida. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2019, – 136 b.
7. Tomas Eliot. An'ana va individual iste'dod // Kitob dunyosi. 2023-yil 11-12-son.

POETIKADA OBRAZ MUAMMOSI

Nishonova Xurshida Yusufjanovna,
O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi
O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti,
tayanch doktoranti
khurshidanishonova@gmail.com
Tel: (+998)93-577-13-69

Annotatsiya. Mazkur maqolada poetik obrazning so'z san'atidagi o'rni va nazariy masalalari haqida so'z boradi. Shu munosabat bilan ushbu maqolada ko'tarilgan mavzuning ahamiyati va dolzarbligi muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar. Poetik obraz tabiati, mavzu va g'oya munosabati, ijtimoiy ong, fikrlar xilma-xilligi, baholash mezonlari.

Абстрактный. В данной статье говорится о месте и теоретических вопросах поэтического образа в искусстве речи. В связи с этим важна важность и актуальность темы, поднятой в данной статье.

Ключевые слова. Характер поэтического образа, соотношение субъекта и идеи, общественное сознание, многообразие мнений, критерии оценки.

Abstract. This article talks about the place and theoretical issues of the poetic image in the art of speech. In this regard, the importance and relevance of the topic raised in this article is important.

Keywords. The nature of the poetic image, the relationship between the subject and the idea, social consciousness, diversity of opinions, evaluation criteria.

Kirish

“Badiiy adabiyotda ijodkor maqsadi, xohish istagini namoyon qiluvchi obrazlar uning poetik obrazi”[8.36-37]ni belgilaydi. Ideal va uning tabiati adabiyotning kamoloti, yozuvchining mahorati darajasini belgilovchi bosh omildir. Bu ijodkorning adabiyotda o'z badiiy, falsafiy g'oyalari tizimini yaratishi demakdir. Adabiyot paydo bo'lganidan beri muallif aytmoqchi bo'lgan fikr so'z, obraz, g'oya sifatida voqelangan va bu hodisa qonuniyatga aylangan. Ijodkor obraz vositasida borliqni angelaydi, “o'zi anglagan mohiyatni va o'zining anglanayotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi. Shu ma'noda obraz adabiyot va san'atning fikrlash shakli, usuli sanaladi”¹. Voqelikni san'at va adabiyotda obrazlar vositasida aks ettirish haqidagi qarashlar Aristotel zamonidan buyon mavjud bo'lsa-da, asosan, XIX asrning 1-yarmiga kelib Hegel nazariyasiga ko'ra san'atning maqsadi erkinlikning haqiqiy harakteri, hissiy ifodasini topadigan go'zal obraz yaratish muammosi qo'yildi². Turli fan sohalari vakillari, adabiyotshunoslar, tilshunoslar, san'atshunoslar “obraz” istilohining ma'lum qirralariga munosabat bildirganlar. Bir qaraganda obraz

1

² <https://plato.stanford.edu/archivES/FALL2017/Entries/hegel-aesthetics/>

deganda ko'z oldimizda san'at va adabiyotda hayotni o'ziga xos badiiy shaklda aks ettirgan manzara va harakterlar jonlanadi. Ammo obrazni tadqiq etishga qaratilgan izlanishlar hali oxiriga yetgan emas. Obraz va uning tabiati, xususiyatlari, ijtimoiy, lisoniy, badiiy, psixologik jihatlari bilan bog'liq fikrlar hanuz xulosalanmagan.

Adabiyotlar tahlili

Adabiyotshunoslikda poetik obraz muammosiga olimlar o'tgan Yunon-grek tamadduni zamonlaridan boshlab o'z qarashlarini bildirishgan. Ushbu izlanishlar asosan obrazning kelib chiqishi va ifoda usullariga bag'ishlangan bo'lib, yunon faylasufi Aristotel, sharq mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, nemis olimi Gegel, jadid mutafakkirlari Fitrat, Cho'lpnlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Rus adabiyotshunos olimi Y.Ye.Bertels Alisher Navoiy ijodini o'rganar ekan, allomaning "Saddi Iskandariy" dostoni to'g'risida: "Navoiy bu asardan ko'zda tutgan maqsadi – komil podsho obrazi bo'lib, Iskandar zamonasining xukmdorlariga ibrat bo'lishi lozim edi"[22.408], deydi. Aytish kerakki, obrazga obyektiv baho berib bo'lmaydi. Negaki, har bir ijokor alohida fenomen bo'lgani kabi, u yaratgan obrazlarni baholovchi mezonlar ham alohida bo'lishi kerak. Nemis faylasufi I.Kant shu nuqtai nazardan obrazga sub'yektiv yondashishni tavsiya qiladi. Ko'rinadiki, obraz ma'lum bir vaziyat, davr taqazosi bilan yuzaga keladi.

Obraz uyg'onish Ovro'posi vakillari A.T.Baumgarten, G.V.G.Gegel, I.Kant tomonidan tadqiq etilgan. Keyinchalik V.G.Belinskiy, N.A.Dobrolyubovlar hayot haqiqati bilan aynan, degan qarashni inkor qilib, muallif orzu qilgan va anglagan hayot sifatida ko'rsatilgan. Abdurauf Fitrat esa san'atni qayta yaratish vositasi ekanini ko'rsatib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada adabiyotshunoslikning azaliy muammolaridan biri poetik obrazning tabiatiga xos jihatlar muhokama qilinadi. Uning kelib chiqishi va XX asrning so'nggi choragida voqelanishiga oid jihatlar tavsiflanadi.

O'zbekistonda adabiyotshunoslikda sharq va g'arb adabiyotiga xos obrazlar mezonlari tahlili qilindi va solishtirildi. Oliy ta'limda poetik obrazga yondashuv me'yorlari nazariyasi tahlillar yordamida asoslandi.

Tahlillar va natijalar

Obrazning poetik, epik va dramatik xususiyatlarini inobatga olib uning xususiy, milliy va umuminsoniy xarakteri mavjudligini ko'rish mumkin. Adabiyot, san'at va badiiy ijod jarayonini tekshirgan olimlar asar syujeti, arxitektonikasi, badiiy tili, strukturasi haqida qimmatli fikrlarni aytishgan. Lirik, epik va dramatik turga mansub asarlarda xilma-xil tasavvur, hukm-xulosalar bir nuqtada, ijodkor nazarda tutgan maqsad atrofida birlashib, mohiyatan barqarorlashadi. So'z va badiiy ijod

jarayonidagi bu hodisa adabiyotshunoslikdagi "obraz" istilohi bilan tushuntiriladi. Shu o'rinda bir savol tug'iladi "obraz o'zi nima?" Adabiyotda hayotning hamma unsurlari (inson, narsa, buyum, hayvon, hodisa, predmet, o'simlik, ko'chma ma'nodagi so'zlar, iboralar, leksik resurslar, ifoda, tasvir vositalari, mubolag'a, kichraytirish, o'xshatish, omonim, sinonim, antonim, anafora, epifora, asindenton va shular) kirar ekan, kirganda ham san'atkor ongi va qalbida jilolanib, boyib, kattalaib, eng muhimi, insonlashib va bir butunlik kasb etib muhrlanar ekan ularning barchasini obraz deb yuritish qonuniyatdir.³

Adabiyotshunoslik va san'atshunoslikka oid lug'atlarda ta'rif berilishicha, "obraz" *birovning tasavvurida yoki fikrida vujudga keladigan kimningdir yoki biror narsaning jonli, vizual tasviridir, tasavvuridir*⁴. «Tasavvur - bu bizning ichimizda yashaydigan oqim, lekin ijodkor bu oqimni o'z menidan tashqariga chiqarishni, boshqalar bilan ulashishni istaydi. bu nutq, san'at, musiqa, rasm, teatr kabi vositalar orqali namoyon bo'ladi. Ijodkor o'zining anglovlarini qay tariqa ifodalashidan qat'iy nazar biz ularni obrazlar vositasida tushunamiz. Obraz faqat adabiyotga taalluqli tushuncha bo'lmay, ijtimoiy-gumanitar fanlar, san'atshunoslik fanlarini ham qamrab oladi. Tomashevskiy B. V. "Теория литературы. Поэтика" asarida keltirishicha, badiiy adabiyot, xususan poeziya atrofdagi olamni obraz va timsollar yordamida idrok etish usulidir. Falsafada obyektiv voqelik hodisalarni ong bilan idrok etish shakli, tashqi olam obyektlarini va hodisalarini ong bilan takrorlash, sifatida qaraladi. Bizning atrofimizdagi dunyo haqidagi aqliy tasvirlar ongimizda aks etadi, uzluksiz harakat va o'zgarishda bo'ladi. Muayyan individual hodisa qiyofasida voqelikni umumlashgan badiiy idrok etish rassomlarda tasvir, naqqoshlarda chizmalar, bastakorlarda ohang, shoirlarda so'z orqali voqelanadi. Dyemak, shoirning ishi jonli obrazlar yaratish va obrazda gapirish. *Badiiy adabiyotda obraz yaratuvchi asosiy va yagona vosita so'zdir*⁵. *Obraz estetika kategoriyasi sifatida hayotni san'at orqali o'zlashtirish vositasi va shakli*⁶ hamdir. Demak, har qanday san'at asari ma'jorda ifodalanadi. Negaki, ijodkor o'zi anglagan olam va odam haqidagi tushunchalarini aynan tasvirlamay, poetik obraz va obrazli fikrlash yo'li bilan ifodalaydi.

Poetik obrazlar ma'lum ijodkorlar tomonidan ishlanib, qiyomiga yetkazilsa ham muayyan adabiy muhit doirasida shakllanib, mukammallik kasb etadi va ma'lum vaqt oralig'ida an'anaga aylana boradi⁷.

3

[https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/onatili_va_adabiyot/Badiiy%20ijod%20asoslari%20\(Hotam%20Umurov\).pdf?ysclid=luxj1b9dk4190823430](https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/onatili_va_adabiyot/Badiiy%20ijod%20asoslari%20(Hotam%20Umurov).pdf?ysclid=luxj1b9dk4190823430)

⁴ <http://www.dic.academic.ru/dic.nsf/es/672/obraz>

⁵ Саримсоқов Б., Бадийлик асослари ва мезонлари//тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Аҳмедов Х., - Тошкент: Bookmy print, 2022-yil, 252 b. 4-bet.

⁶ <http://www.dic.academic.ru/dic.nsf/es/672/obraz>

⁷ Храпченко М.Б. Горизонти художественного образа. М.: 1984.

Obraz hayotni aks ettirish shakli bo'lib, dunyoning umumlashtirilgan tasvirini ifodalaydi. San'at hayotni shartli, majoziy tarzda qayta yaratadi va unga faqat tasavvur orqali yuzlanish mumkin. "Barcha mumkin bo'lgan iboralar, - deydi La Bryuyer, - bizning fikrimizni ifodalash uchun mo'ljallangan, faqat bitta haqiqiy ibora bor. Siz uni har doim ham nutqda yoki yozma ravishda topa olmaysiz. Shunga qaramay, u mavjud va bo'lmagan hamma narsa mavjud. U zaif va yomon va uni tushunishni istagan yuksak aqlli odamni qoniqtirmaydi"⁸. Ana shu "tushunilish" istagida shoir ong bilan, fikr esa obraz bilan birlashadi. *Obraz she'riyatning eng muhim elementi, ehtimol hech narsa bilan tahdid qilmaydigan yagona narsadir. Shu bilan birga she'riyatning qon tomiridir*⁹.

Adabiyotshunos Yan Parandovskiy "Obraz she'riyatning eng zarur elementi, balki hech narsa – na zamon, na she'riy moda tahdid solmaydigan yagona narsa"¹⁰ - sifatida ta'riflaydi. Oqim va yo'nalishlar, mavzu va syujetlar o'zgaradi, motiv va kayfiyat, yangi so'z va iboralar paydo bo'ladi, lekin obraz doimo qoladi. U metaforada, qiyoslashda, bir qatorda yashashi mumkin. Faqat mavhum tushunchalarda yashaydigan she'rni tasavvur qilib bo'lmaydi, obraz aniqlikni, shartlilikni, ramziylikni talab qiladi. poetik obraz vizualdir, bo'yoq bilan bo'yalgan haqiqiy tasvir kabi, lekin she'riy obrazning yagona material so'z bo'lib, u ishlatilgan so'zlarning kuchi, aniqligi, ifodaliligi, go'zalligiga bog'liq.

Poetik obrazni tirik organizmga qiyoslash mumkin. Ba'zan shunday organlar borki, ular zararlansa, olib tashlash mumkin. Ular, qo'l, oyoq, buyrak, ko'z va h.k., ammo inson tanasidagi ayrim a'zolar zararlanganda ularni olib tashlash o'limga olib keladi; miya, yurak, o'pka kabi. Shu qoida obrazga ham tegishli bo'lib, unda biror narsani tuzatish mumkin, lekin hammasini ham tuzatib, o'zgartirib bo'lmaydi, chunki bu butun tasvirning o'limiga olib kelishi mumkin.

Poetik obraz cheksizlikdir. Buni odamlarning san'at asariga kundalik munosabatida ko'rish mumkin. Obraz – uni yaratgan shoir yoki yozuvchining aqliy sa'y-harakatlari mevasi va shu bilan birga asar muallifi taqdiri, ongi natijasidir.

Poetik obraz mo'ziza, u bizni kundalik muhitimizdan uzoqlashtirib, xayolot olami bilan tanishtiradi. Adabiyot va san'atshunoslar she'riy obrazning mohiyatini oydinlashtirish yo'lida ko'p mehnat qildilar va mehnat qilmoqdalar.

Adabiyotshunoslarning ta'kidlashicha, go'zallikka doimiy qoyil qolish ham to'g'ri emas. Kishi muttasil she'r o'qisa, o'rgansa, u yaratgan poetik obrazlarni yashasa, toza, sog'lom, baquvvat bo'ladi. U endi hayotning nomukammalligidan ozorlanadi. O'z-o'zidan ma'lumki, har bir she'riy obraz bizdagi hayotiy kuchlarni

⁸ <http://detectivebooks.ru/book/9327462/?page=41>

⁹ <https://stihi.ru/diary/miillarr/2016-11-10?ysclid=ltm78kty292982048>

¹⁰ https://vk.com/wall-32652076_53507

uyg'otishga, harakatga yo'l ko'rsatuvchi bo'lishga qodir emas. Obraz - asar qimmatini belgilaydi.

San'atdagi eng oliy predmet, obraz inson deb yozgan edi rus adabiyotshunosi Belinskiy. Yozuvchi obrazda voqea-hodisalarning eng muhim xususiyatlarini umumlashtiradi. Obraz biror bir timsol tilida gapiradi.

Har bir obrazning o'ziga xos xususiyati, odobi, o'y-orzusi, muhokamayu mushohadasi, tili, axloqi, madaniyati, tashuvchi g'oyasi, bajaruvchi maqsadi bor. Obraz xususiyatiga ko'ra ko'rgazmali, suratli obrazga ajratiladi.(izohlayman)

Umumlashmadan individuallik, individualikdan umumlashmalik tug'alganda to'rirog'i ular bir-biri bilan mujassamlashgandagina (shakl va mazmun kabi) yaxlit bo'lgandagina obraz betakror, ta'sirchan bo'ladi.

Tafakkur cheksizdir, lekin san'at asarining makon va zamon chegaralari bor. Hamma narsaning prototiplari insonning hissiy idrokidan tashqarida idrok etilishi mumkin, lekin ular o'ylanadi va tasavvur qilinadi. Aynan shu nomoddiy mavjudotlar moddiy obyektlarning prototipi hisoblanadi. Ular uyg'unlikka ega va ongimizda go'zallik tushunchasini yaratadi. Inson voqelikni anglashga, dunyodagi o'z o'rnini tushunishga intilib, obrazlarda o'ylashga ham majbur bo'ladi.

Poetik obraz emosional, xolis bo'lib, o'zida ijodkorning fikrlash fazilatlarini mujassam etadi. U mavhum emas, balki o'z-o'zidan paydo bo'ladi va darhol aniq, ko'rinadigan shaklni oladi. Har qanday shoir yoki yozuvchi fikrlarini so'z yordamida ifodalaydi.

Manbalarda qayd etilishicha, poetik obraz - faqat san'atga xos bo'lgan voqelikni o'zlashtirish va o'zgartirishning maxsus usuli va shaklini tavsiflovchi estetik kategoriya. Tor va o'ziga xos ma'noda " poetik obraz" tushunchasi badiiy asarning elementi, bir qismi (tasvirning xarakteri yoki predmeti) ma'nosini bildirsa, kengroq va umumiy ma'noda - bu mavjudlik usuli va maxsus, badiiy haqiqatni, "tashqi ko'rinish olamini" (F. Shiller) takrorlash sifatida namoyon bo'ladi. poetik obraz keng ma'noda "hujayra", san'atning "birlamchi tamoyili" vazifasini bajaradi, u butun badiiy ijodning barcha asosiy tarkibiy qismlari va xususiyatlarini o'ziga singirib, kristallashtiradi.

"Poetik obraz" atamasi o'zining zamonaviy talqini Gegel estetikasida shunday ta'riflangan: "San'at chinakam umuminsoniy yoki g'oyani hissiy borliq, obraz shaklida tasvirlaydi"¹¹. Mimesis tushunchasini kengaytirib, Platon va Aristotel¹² san'atning obrazli tabiati masalasini real obyektlar, hodisalar va ularning ideal "nusxalari", "quymalari" o'rtasidagi munosabatlar tekisligida ko'rib chiqdilar, Plotin esa "ichki" tushunchasini asoslashga e'tibor qaratdi. Yangi Yevropa, birinchi

¹¹ Гегель Г.В.Ф. Эстетика, т. 1, 4. М., 1968, с 412.

¹² Аристотель. Об искусстве поэзии. М., 1957

navbatda, nemis klassik estetikasi mimetik jihatni emas, balki rassomning ijodiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan samarali, ifodali va ijodiy tomonni ta'kidlaydi. Poetik obraz tushunchasi ma'lum bir o'ziga xos usul va ma'naviy va hissiy, ideal va real tamoyillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va qarama-qarshiliklarni hal qilish natijasi sifatida belgilanadi.

Vaqt o'tishi bilan san'atning "obrazlarda fikrlash" formulasi badiiy ijodning kognitiv funksiyasi va ijtimoiy maqsadiga qaratilgan realistik usul bilan sinonimga aylandi. Obraz yaratish, ko'rsatish va isbotlash qobiliyatining o'zi ijodkor iste'dodining sharti va asosiy belgisi hisoblanadi. "Kimki ijodiy tasavvurga ega bo'lmasa, g'oyalarni obrazga aylantirishga, obrazlarda fikrlash va his qilish qobiliyatiga ega bo'lmasa, na aqli, na his-tuyg'ulari, na e'tiqod na tarixiy va zamonaviy mazmun boyligi yordam beradi"¹³.

Obraz birlamchi, empirik voqelikning in'ikosidir. Biroq, tasvirlanayotgan narsa bilan o'xshashlik ("o'xshashlik") darajasidan qat'i nazar, poetik obraz unga xizmat qilgan "prototip" ning (xarakter, hodisa, hodisa) "nusxasi" emas. Bu shartli, "xayoliy" empirik voqelikka emas, balki yaratilgan asarning ichki, "xayoliy" olamiga tegishli.

Obraz shunchaki voqelikning in'ikosi emas, balki uning badiiy umumlashtirish, haqiqiy faktlar, hodisalar yoki belgilarni ideallashtirish yoki tipiklashtirilgan ong mahsulidir. "Xayoliy mavjudlik" va "mumkin bo'lgan haqiqat" kam emas, balki, aksincha, dastlabki "material" bo'lib xizmat qilgan real obyektlar, hodisalar va hodisalardan ko'ra ko'proq kuchga ega bo'ladi.

Poetik obraz - bu badiiy asardagi hissiylik tafakkur orqali sof ko'rinishga ko'tarilganda, pafos va ijodiy o'zgarish, voqelikning o'zgarishi harakati va natijasi - ideal sohasiga mansub fikr"¹⁴dir. Bu alohida va o'z-o'zidan olingan fikr yoki tuyg'u emas, balki tushunishni ham, baholashni ham o'z ichiga olgan "hissiy fikr" (A.S.Pushkin), "to'g'ridan-to'g'ri fikrlash" (V.G.Belinskiy). faoliyatidir. Obraz yaratish badiiy ijodda ma'no yaratish, inson atrofida va o'z ichida topadigan hamma narsani va har bir narsani qayta nomlash sifatida namoyon bo'ladi.

Badiiy tasvir turlarining xilma-xilligi ularning turlari, rivojlanishning ichki qonuniyatlari va har bir san'at uchun ishlatiladigan "material" bilan belgilanadi. Og'zaki, musiqiy, me'moriy obrazlar bir-biridan, masalan, ulardagi hissiy va ideal (rasional) tomonlar o'rtasidagi bog'liqlik darajasi bilan farqlanadi. Masalan, ijtimoiylikda aniqlik ustunlik qiladi (yoki hech bo'lmaganda oldinga chiqadi), ramziy tasvirda ideal (aqliy) tamoyil hukmronlik qiladi va tipik (real) tasvirda ularning uyg'un kombinatsiyasiga intilish yaqqol namoyon bo'ladi. Turlarning xilma-xilligi, san'at tasvirlarining o'ziga xosligi ular yaratilgan va gavdalantiriladigan "material"

¹³ Белинский В.Г. Тўлик асарлар тўплами, 6-жилд. М., 1956, 591–92-бетлар

¹⁴ Гегел. Эстетика, 1-жилд. М., 1968, 44-бет

va "til" tabiati bilan obyektiv ravishda ifodalanadi (va ko'p jihatdan beriladi). Shoir qalamida "so'z" nafaqat "jonlanadi", balki eng nozik va chuqur fikr va tuyg'ularni yetkazishda chinakam sehrli vizual va ifodali kuchni ochib beradi.

Shoirning obraz tushunchasi jahon ilmida ancha chuqur va atroflicha tekshirilgan. Mafkuralar, ijtimoiy tuzumlar, dunyoqarashlar o'zgarishi bilan bog'liq ravishda obraz ham hamisha yangilanadi.

Obraz deganda, biz odatda muayyan bir inson shaxsi yoki ijtimoiy hodisaning ijodkorlar tomonidan qayta ishlangani nazarda tutib kelingan. U tasavvurdagi shaxs yoki jamiyatni real shaxslar va mavjud jamiyatdan yuqori qo'yish, ya'ni badiiy maketini yaratish bilan bog'liq. Aslida ham inson shunday, hamisha o'z olamida yaratgan orzu-istak sari intiladi. Bir so'z bilan aytganda, orzu istaklar, ideallar asli qadriyatlar bilan bog'liq bo'lib, poetik obraz uning obektdagi in'ikosi tarzida yuzaga keladi.

Poetik obraz - bu badiiy ijodning universal kategoriyasi, estetik ta'sir qiluvchi obyektlarni yaratish orqali dunyoni ma'lum bir estetik ideal pozitsiyasidan talqin qilish va tadqiq qilish shakli. Badiiy asarda ijodiy qayta tiklangan har qanday hodisa poetik obraz deb ham ataladi. poetik obraz - bu tasvirlangan voqelik hodisasini to'liq ochib berish uchun badiiy asar muallifi tomonidan yaratilgan san'atdan olingan tasvir. poetik obraz muallif tomonidan asarning badiiy olamining maksimal darajada rivojlanishi uchun yaratilgan. O'quvchi eng avvalo, poetik obraz orqali dunyo manzarasini, syujet harakatlarini, asardagi psixologizm xususiyatlarini ochib beradi.

Poetik obraz dialektikdir: u jonli tafakkurni, uning sub'ektiv talqinini va muallif (shuningdek, ijrochi, tinglovchi, o'quvchi, tomoshabin) tomonidan baholanishini birlashtiradi. U tasvir, tovush, lingvistik muhit yoki bir nechta birikma.asosida yaratiladi: Bu san'atning moddiy substratining ajralmas qismidir. Masalan, musiqiy obrazning mazmuni, ichki tuzilishi, ravshanligi asosan musiqaning tabiiy materiyasi - musiqa tovushining akustik sifatlari bilan belgilanadi. Adabiyot va she'riyatda poetik obraz muayyan lisoniy muhit asosida yaratiladi; teatr san'atida har uchala vosita qo'llaniladi. Shu bilan birga, obrazning ma'nosi faqat ma'lum bir kommunikativ vaziyatda ochiladi va u ijodkor potensiali, maqsadlari va hatto bir lahzalik kayfiyatiga bog'liq. Ko'pincha badiiy asar yaratilganidan keyin bir-ikki asr o'tgach, uni zamondoshlari va hatto muallifning o'zi qanday idrok qilganidan butunlay boshqacha qabul qilinadi.

Aristotelning "Poetika"sida obraz-trop asl tabiatning noaniq bo'rttirilgan, kamaygan yoki o'zgargan, singan aksi sifatida namoyon bo'ladi. Romantizm estetikasida o'xshashlik o'z o'rnini ijodiy, sub'ektiv, o'zgartiruvchi tamoyilga bo'shatadi.

Zamonaviy she'riyatda "meta-metafora" (K.Kedrov atamasi) tushunchasi paydo bo'ldi. Bu transsendental voqelikning yorug'lik tezligi ostonasidan oshib, fan jim bo'lib, san'at so'zlay boshlagan obrazidir. Metametafora Pavel Florenskiyning "teskari istiqboli" va rassom Pavel Chelishchevning "universal moduli" bilan chambarchas bog'liq. Bu inson eshitish va ko'rish chegaralarini jismoniy va fiziologik to'siqlardan tashqarida kengaytirish haqida¹⁵.

Obraz, 1) optik tasvir bilan bir xil; va hokazo.); 3) sub'ekt va ob'ekt o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonida paydo bo'ladigan dunyo yoki uning bo'laklari tasviri; 4) shaxsning mavjud bo'lish yo'li. hodisalar (Obraz hayot, Obraz harakat va boshqalar)¹⁶.

Psixologiyada obraz an'anaviy ravishda birinchi navbatda idrok bilan, ya'ni birinchi navbatda bog'langan hissiy-idrok bilimlari bilan, obyektlarni qurish qobiliyati esa - tasavvur bilan. Sezgilardan farqli o'laroq, obrazli tasvirlar yaxlit xususiyatga ega. Tafakkurining rivojlanishini tavsiflashda vizual-ma'juziy fikrlash bosqichi ajratiladi, oldingi va keyingi bosqichlardan farqi uning vizual tasvirlarga tayanishi va ularni aqliy muammolarni hal qilish vositasi sifatida o'zgartirishidir.

Ontogenetik jihatdan obrazning rivojlanishi predmetlar bilan harakat namunalarini ichkilashtirishni nazarda tutadi (J. Bruner, A. V. Zaporjets, J. Piaget). Falsafada I.Kantdan boshlab, keyin psixologiya va sotsiologiyada idrok ham vizual-hissiy, ham umumlashgan semantik komponentlarni o'z ichiga olishi ta'kidlanadi. Kant ularni "sxema" tushunchasi bilan belgilagan bo'lib, u nafaqat mavjud, balki hech qachon mavjud bo'lmagan vaziyatlarni, obyektlarni va ularning xususiyatlarini aqliy tasavvur qilish imkonini beradigan qoidalarni o'z ichiga oladi¹⁷.

Adabiyotda obraz bu ijodkorning estetik pozitsiyasi, badiiyati va mahorati bilan bog'liqlikda namoyon bo'ladi. poetik obraz bu – ijodiy niyatlar, badiiy, falsafiy g'oyalar qay tariqa, qanday shaklarda ifodalanishi. Shunday ekan, ko'ngilda tug'ilgan ijodiy maqsadni g'oyat xilma-xil tarzda, shaklda aks ettirish mumkin.

Inson ibtidodan intiho qadar orzu-intilishlar, xayollar olamida yashaydi. Bu qismat uni oliy maqsadlar sari etaklaydi. Inson kimgadir yoki nimagadir taqlid qiladi. Bu inson ongida ilk bor paydo bo'lguvchi obraz suvrati. Demak, taqlid obrazning ilk ko'rinishi ekan, qachon mukammallik kasb etib, umuminsoniyatga daxldor bo'ladi? Bizningcha, maqsad bu alohida insonning "men"i oliy darajasini ifodalab, undagi mukammallik (tarbiya, o'z-o'zini komillikka eltish) bir insonga xos xilma-xil hislatlardan umumga xos xislatlar tomon yuksalishni o'z qamroviga sig'dira oladi. Aytmoqchimizki, maqsad oliy darajaga yetgan nuqta idealning ibtidosidir.

¹⁵ <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/79574>

¹⁶ <https://old.bigenc.ru/philosophy/text/2673875?ysclid=luas3txfg520345386>

¹⁷ <https://old.bigenc.ru/philosophy/text/2673875?ysclid=luas3txfg520345386>

Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari kishilari tafakkuri tarixiga nazar tashlasak, obrazning salmoqli o'ringa ega ekanini ko'rish mumkin. Uning kurtaklarini "Avesto"da, undagi Axuramazda, Zardo'sht, Kayumars, Yima haqidagi mif va madhiyalarda, turli got(qo'shiq)larda ko'rish mumkin. Mehnatkash, ojiz insonning ilk bor Alloh, yaratuvchi haqidagi dastlabki qarashlari, ijtimoiy-falsafiy tafakkurning, baxt haqidagi qarashlarning shakllanishiga zamin bo'ldi. Mazdakiylar, axiylar, massagetlar, saklar, sarbadorlar kabi mashhur xalq harakatlari ham mana shunday mazmunga ega.

"So'z san'ati so'zligi" kitobi muallifi o'zigacha bo'lgan mumtoz an'analarni tadqiq etar ekan mumtoz adabiyotshunoslikda obrazga munosabatni quyidagicha izohlaydi. "Agar e'tibor berilsa, tasvir jarayonida turli guruhgaman sub bir qator san'atlar o'rtasida vazifa tabiat, yoxud ba'zi bir stilistik qirralar jihatidan yaqinlik vujudga kelishi yaqqol seziladi. olim nazarda tutgan bu munosabatdan ko'rinib turibdiki sharq badiiy tafakkuri g'arb tafakkuridan farqli ravishda g'oyani, fikrni va munosabatni berishda alohida obrazga e'tibor qaratmay, obrazni go'zal tarzda o'quvchiga yetkazish yo'lidan borishgan.

Turkiy adabiyotda yaratilgan ko'plab nazariy manbalardan ma'lum bo'ladiki, sharq badiiy tafakkurida mazmunning o'zini(ya'ni obraz) ko'rsatish bilan cheklanmay, ifodalanayotgan mazmunni nozik ta'b bilan berishgan alohida e'tibor qaratishgan. Sharq dunyosida obraz quyidagi hodisalar orqali namoyon bo'lishini kuzatish mumkin. Birinchi, istioraviy-ramziy obrazlar - ular ramzlar, istioralar, ranglar orqali ifodalanadi. Ikkinchisi qiyosiy obrazlar asosan tashbeh, talmeh, tamsil san'ati vositasida ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari, alohida so'z bilan bog'liq obrazlar ham borki ular mumtoz she'riyatda badiiy san'at vositasidagina anglashiladi.

Rus adabiyotshunos olimi Y.Ye.Bertels Alisher Navoiy ijodini o'rganar ekan, allomaning "Saddi Iskandariy" dostoni to'g'risida: "*Navoiy bu asardan ko'zda tutgan maqsadi – komil podsho obrazi bo'lib, Iskandar zamonasining xukmdorlariga ibrat bo'lishi lozim edi*"¹⁸, deydi. Aytish kerakki, obrazga obyektiv baho berib bo'lmaydi.

Negaki, har bir ijokor alohida fenomen bo'lgani kabi, u yaratgan obrazlarni baholovchi mezonlar ham alohida bo'lishi kerak. Nemis faylasufi Immaniul Kant shu nuqtai nazardan obrazga sub'yektiv yondashishni tavsiya qiladi. Ko'rinadiki, obraz ma'lum bir vaziyat, davr taqazosi bilan yuzaga keladi.

Obraz uyg'onish Ovro'posi vakillari A.T.Baumgarten, G.V.G.Gegel, I.Kant tomonidan tadqiq etilgan. Keyinchalik V.G.Belinskiy, N.A.Dobrolyubovlar hayot haqiqati bilan aynan, degan qarashni inkor qilib, muallif orzu qilgan va anglagan hayot sifatida ko'rsatilgan. Abdurauf Fitrat esa san'atni qayta yaratish vositasi ekanini ko'rsatib beradi.

¹⁸ E.Э.Бертельс, Изобранные труды Наваи и Джами, стр.408.

Yuqorida keltirilgan qarashlarni umumlashtirib, "obraz"ga quyidagicha ta'rif berish mumkin. "Obraz" atamasi rus tilidan tarjima qilinganda "aks" degan ma'noda keladi. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov o'zining "Adabiyotshunoslikka krish" darsligida bu atamani "Masalan, kishining oynadagi aksiga nisbatan ham "obraz" deb aytiladi. Biroq bilasizki, so'zning lug'aviy ma'nosi bilan istilohiy ma'nosi farqlanadi: lug'aviy ma'no bilan iltihohiy ma'no orasida tutash nuqtalar bo'lsa-da, mutaxassis istihoh ostida konkret ma'noni tushunmog'i lozim bo'ladi. Shunga ko'ra, biz "obraz" deganda adabiyot va san'atning tafakkur shakli bo'lmish badiiy obrazni nazarda tutamiz", - deya ta'riflaydi. Badiiy adabiyotda insonning alohida shaxs qiyofasida yaratilgan, ayni paytda, badiiy umumlashma xususiyatiga va hissiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan shakli poetik obraz deyiladi. Keng ma'noda ijodkorning fikr-tuyg'ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatsa, tor ma'noda esa badiiy asarda aks ettirilgan inson siymosini ifodalaydi. Obrazda obyektiv anglash bilan subyektiv ijodiy tafakkur qorishib ketadi. Poetik obrazning o'ziga xos xususiyatlari real voqelikka va fikrlash jarayoniga bo'lgan munosabatda aniq namoyon bo'ladi. Obraz vokelikning badiiy in'ikosi sifatida real mavjud obektning hissiy aniq, tayin zamon va makonda davom etgan, moddiy tugal, o'zicha yetuk xususiyatlariga ega bo'ladi.

Badiiy adabiyotdagi obraz juda keng tushuncha. U olam – obyektiv borliq va ijodkor – sub'yektiv borliqning o'zaro to'qnashuvidan paydo bo'ladi. Obraz – bu voqelikdan ko'chirilgan nusxa emas. Unda individual qarashlar aks etgan bo'ladi. Agar mana shu narsa bo'lmaganda edi, badiiy adabiyotdagi estetik ideal o'z mohiyatini yo'qotgan bo'lar edi. Adabiyotda shoir individualligi asosiga qurilgan poetik obraz alal oqibat umuminsoniy mohiyat kasb etadi.

Poetik obrazni aniqlash, uning kanonlarini belgilash ham ana shu qarashlarning majmui o'laroq yuzaga kelgan va shakllangan. Chunonchi, obraz inson tasavvuridan chetdagi hodisa emas.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, poetik obraz muammosi azal-azaldan adabiyotning eng muhim ilmiy nazariy masalalaridan biri bo'lib kelgan. Chunki, adabiyotning qiyofasi, unda odam va olam manzaralari, qolaversa, avvalo Oliy Haqiqatning aks etishi poetik obrazda namoyon bo'ladi. Poetik obraz borliqni anglash, tushinishda har bir davrda milliy adabiyotda qanday darajaga erishganini ko'rsatadi. Poetik obraz go'zallik, ulug'vorlikni ko'proq san'at orqali ifdalaydi. Shu tufayli poetik obraz ijodkor dunyoqarashi bilan bog'liq. Avvalo shoir o'z asari orqali voqelikni o'z ideali prizmasidan o'tkazib, olgan xulosalarini obrazga ko'chiradi, ya'ni yozgan asarlarida moddiylashtiradi. Biz o'quvchi sifatida ijodkor aytmoqchi bo'lgan fikrlarni, his qilgan pafosni, aytmoqchi bo'lgan anglamlarini so'z orqali anglaymiz, his qilamiz, tushunamiz va tushuntiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Олимов М., Ҳозирги ўзбек адабиётида пафос муаммоси, - Т.: Фан, 1994.
2. Қосимоқ Я., Уйғониш садолари, - Т.: Адабиёт ва санъат, 1991.
3. Ҳаққулоқ И., Тасаввуф ва шеърят, - Т.: Адабиёт ва санъат, 1991.
4. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б., Адабиётшунослик терминларининг русча – ўзбекча изоҳли луғати, -Т.: Ўқитувчи, 1979.
5. Давлатова А., Фикр агар яхши тарбият топса...//Ўзбекистон матбуоти, 2006, 6-сон, 36-37-бетлар.
6. Раҳимжонов Н. Бугуннинг қаҳрамони ким? // Ўзбек адабий танқиди, Антология, Т.: 2011, 291 б.
7. Тўлаков И., Ҳозирги ўзбек лирикасида давр ва қаҳрамон талқини, филол.фан.номз. дисс. –Т.: 1994.
8. Жабборов I.SH., Абдулла Орипов шэърятда тарихий шахс концепцияси ва лирик қаҳрамон масаласи, филол.фан.докт. дисс. –Т.:
9. Нишонова Х., Аъзам Ўктам ижодида эстетик идеал, - Наманган:Аржуманд МЕДИА, 2023.

ABDUVALI QUTBIDDIN SHE'RIYATIDA TASAVVUFONA RAMZLAR TALQINI

Shahodat Isakjanova,
O'z R FA tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada shoir Abduvali Qutbiddinning "Avtoportret" she'ri misolida tasavvufiy qarashlarga doir mulohazalar bayon qilinadi.

Tayanch so'z va iboralar: tasavvuf, komillik yo'li, botiniy va ramziy ma'no, "Sulton ul-orifin", dunyo obrazi.

Абстрактный. В данной статье стихотворение поэта Абдували Кутбиддина «Автопортрет» является примером комментариев мистических взглядов.

Ключевые слова и выражения: суфизм, путь совершенствования, внутренний и символический смысл, «Султан уль-Арифин», образ мира.

Abstract. In this article, the poet Abduvali Qutbiddin's poem "Self-Portrait" is an example of comments on mystical views.

Key words and word expressions: sufism, path of perfection, inner and symbolic meaning, "Sultan ul-Arifin", image of the world.

Ko'hna Sharq adabiyotida ma'naviy kamolotga erishuvning, moddiyat zanjirlaridan xalos bo'lib, haqiqat ilmiga yetishmoqlikning bosh omili sifatida tasavvuf ta'limoti alohida e'tirof etib kelinadi. Ma'lumki, "tasavvuf" so'zining kelib chiqishi bilan bog'liq bir necha qarashlar mavjud bo'lib, shulardan biri hamda haqiqatga eng yaqini, mazkur istilohning jun va undan to'qilgan matoni anglatuvchi "suf" o'zagidan yasalganligidir. Bu haqida ilk bora Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida ma'lumotlar qoldirgan. Tasavvuf ta'limoti maxsus ilm darajasiga ko'tarilganligi, uning zohidlik va oriflik bosqichlari, to'rtta shoxobchaga ajratilganligi – bularning bari turli davrlarda nazariy-ilmiy jihatdan shakllanish pallalarini bosib o'tdi. Bosqich yoki qismlaridan qat'i nazar, tasavvuf ta'limotining o'zak-negizida har doim ko'ndalang turuvchi mohiyat – odamzodni komillik yo'liga boshlash, "men"lik da'vosini o'zidan quvish, ichidagi nafsni o'ldirish masalasidir.

Tasavvuf adabiyotining, xususan, she'riyatining XX asrda zamonaviy ko'rinishda namoyon bo'lishi bevosita Abduvali Qutbiddin she'riyati bilan bog'lanadi. Abduvali Qutbiddin she'rlarida ijod olamiga boshdanoq tasavvufona ruh bilan kirganligi, ana shu ruhoniyat hamda tasavvufiy qarashlarning zamonaviy yo'sinda aks etishi shoir she'rlarini takrorlab bo'lmasligining, hech kimnikiga o'xshamagan she'rlar muallifi ekanligining kafili sifatida namoyon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Shoirning "Humo" kitobiga kirgan "Avtoportret" she'riga diqqatimizni qaratamiz:

Men juda yolg'izman,
 Go'yo quduqda
 Qovurg'amgacha suv, badanim og'u,
 Bilagim uvushib tipirchilaydi –
 Misli so'nggi nola, oxirgi yohu [Qutbiddin A.1:58].

She'ning birinchi bandida ko'z oldimizda qovurg'asigacha suvga botgan, bo'g'zidan oxirgi faryod otilib chiqayotgan va unga hech kim yordamga oshiqmayotgan behad yolg'iz odam qiyofasi gavdalanadi. Ammo mazkur tasvir she'ning faqat yuzaki, zohiriy ma'nosi bo'lib, aslida ijodkor bu yerda hech qanday quduq, suv, og'u, jismning uvushishi haqida gapirayotgani yo'q. She'rdagi obrazlar botiniy ma'nosida juda katta ramziy ma'nolarni yuzaga chiqarishga xizmat qilyapti. Shoir nihoyatda yolg'iz ekanligini bayon qilishi bilan boshlangan she'r aslida uning tashqi dunyoda yakka-yu yagona bo'lib qolganligini emas, balki ruhiyatidagi, o'zligidagi, qalbidagi yolg'izlikni nazarda tutadi. Ko'z oldimizda beixtiyor quyidagi manzara voqe bo'ladi: atrofimiz to'la odam: har kim har yonga qandaydir ish bilan shoshadi, yuguradi-yo'rtadi; birov bilan birovning ishi yo'q. O'rtada bir inson turib qolgan: oldidan minglab odamlar o'tadi, ammo u hech kimni ko'rmaydi, hech kimni eshitmaydi, hech kimsani his qilmaydi. Negaki, ma'nan olib qaraganda, uning atofida birorta inson yo'q!

She'ning birinchi misrasida Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida Sharqda "Sulton ul-orifin", "Burhon ul-muhaqqiqin" laqablari bilan shuhrat topgan, tasavvufdagi "tayfuriya" oqimining asoschisi bo'lgan Boyazid Bistomiy haqidagi hikoyatida ilgari surilgan g'oya o'z aksini topgan.

Bilamizki, "Hayrat ul-abror" dostonining 1-maqolatida iymon sharhidan so'ng shayx Boyazid Bistomiy va uning muridi haqidagi hikoyat keltiriladi.

Hikoyatga ko'ra, murid oriflar sultonini g'amgin, ezgin qiyofada ko'rib, ustozining bu holatidan tashvishga tushib, mahzunligi sababini so'raganida ustoz uning shunday javob qiladi:

"Bu g'am ishim etmish taboh –
 Kim, bu jahon ichraki, eldur g'ulu,
 El to'la, ammo kishidindur xulu.
 Har kishiga xush ko'runur o'z ishi,
 Bir kishi yo'qkim, desa bo'lg'ay kishi"[A.Navoiy. 2:115].

Demak, shayx Boyazid Bistomiyning g'amgin alpozda ekanligiga sabab jahon ichra el nihoyatda ko'p-u, ammo ularning orasida birorta inson yo'qligida ekan. Elning orasida kishi deyishga arzigulik odamning bo'lmaganligini Navoiy hazratlari iymon bilan bog'laydiki, tasavvuf ta'limotida, umuman, islom dinining mohiyatida komillikning bosh sharti iymonli bo'lishni taqozo etadi.

Abduvali Qutbiddin ham Boyazid Bistomiy kabi atrofida faqat el borligini, ammo ular orasida birorta inson deyishga loyiq odam ko'rmaganidan o'zini ruhan yolg'iz his etadi. Shoir qalbida ham xuddi oriflar sultonida bo'lgani kabi chuqur iztirobning, dardning siyrati bor.

Keyingi misradagi quduqni ramziy ma'noda tirikchilik tashvishlari bilan to'lib-toshgan foni hayot deb oladigan bo'lsak, shoir o'zining qovurg'asigacha shu quduqning ichida ekanidan, shu suvdan bahramand bo'layotganidan, shu havodan nafas olayotganidan, o'z-o'zidan, butun borlig'idan nafratlanadi. Xuddi Boyazid Bistomiy bu dunyoni iymonsiz tark etishdan qo'rqqanidek, shoir ham o'z olamida qoq ikkiga bo'linib, jismini so'roqqa tutadi. Mavjud dunyosidan ko'ngli to'lmaydi. Quduqdagi suvga keladigan bo'lsak, suv obrazi adabiyotda juda ko'p ishlangan motivlardan sanaladi va, eng qizig'i, suvga hamisha ijobiy ma'nolar yuklab kelingan. Poklik, tiriklik, hayotbaxshlik kabi bir qancha ma'nolarda talqin qilingan. Ammo Abduvali Qutbiddinning mazkur she'ridagi suv haqida ijobiy xulosa berib bo'lmaydi, negaki, shoir qovurg'asigacha botgan bu suvdan xalos bo'lishni istaydi. Umuman olganda, shoir tasvir etgan quduqni dunyo ramzi deydigan bo'lsak, quduqning ichidagi suv dunyoning moddiyat bilan bog'liq ikir-chikir, o'ta mayda, arzimas tashvishlarini ifoda etadi. Shoir o'zi yashayotgan dunyoning moddiy tomoniga g'arq bo'layotgan jismidan ko'ngli to'lmaydi. O'sha tashvishlardan, o'sha jismdan xalos bo'lishni istaydi. Shu sababdan ham badanini og'u deydiki, bu bilan o'z tirikligini, o'z jismini o'ziga, ruhiga begona, zaharli ekanligini ta'kidlaydi.

"Bilagim uvishib tipirchilaydi" misrasi go'yoki tashqaridan qaraganda tirikchilik uchun mehnat qilish shoirni iztirobga solganday; bu bilan tasavvufda o'z tariqatini yarata olgan, "qo'ling hamisha mehnatda, diling Ollohda bo'lsin" aqidasi umr bo'yi rioya qilgan hazrat Yassaviyning ta'limotiga ziddek taassurot uyg'otishi, ya'ni "mehnat vositasi" bo'lgan qo'lning turmush tashvishlari tufayli uvishib tipirchilashi shoirda norozilik kayfiyatini uyg'otganday tuyilishi mumkin. Lekin haqiqatda Abduvali Qutbiddin aynan Yassaviy tariqatida ilgari surilgan halol mehnat va Ollohga bo'lgan samimiy muhabbatning dunyodan tag-tugi bilan yo'qolib borayotganligiga, odamlar tinmay ishlasalar-da, bu mehnatlari jamiyat manfaatiga emas, faqatgina o'z qorin-qursog'i yo'lida qilinayotganligiga ishora qiladi. Zero, Ahmad Yassaviy boshqa tasavvuf tariqatlaridan farqli o'laroq jamiyatga, insonlarga naf yetkazishni, xalqning manfaatini ko'zlab yashashni, dilozor bo'lmaslikni, barchaga yaxshilik qilmoqlikni, beva-bechoralarga hamisha xayr-sahovatli, muruvvatli bo'lishni o'z hikmatlarida targ'ib qilgan edi. Abduvali Qutbiddin ham dunyo atalmish qudduqqa tushgan odamlarning aynan shu missiyalarini unutmaganliklari uchun g'amga botgan, dilidagi iztirobi she'r bo'lib tiliga ko'chgan:

Men juda yolg'izman –

Qo'limda nina

Tilaman, qaziyman chuqurdan chuqur.

Tepadan tosh to'la paqir tashlarlar,

So'rarlar qilib ber deya javohir [Qutbiddin A.1:58]..

Mazkur misralarning o'zidayoq shaxs va shoir o'rtasidagi murosasiz olishuvning tub negizi qayerdan suv ichayotganligi, shoir nima sababdan jamiyatdan begonalashib, o'zi mahkum bo'lgan voqelikning, real borliqning iskanjasidan xalos bo'lishga urinayotganligi oshkor bo'la boradi. Shoir nafaqat mavjud olamdan, balki o'zidan ham yozg'iradi, nafratlanadi. Mavjudlikdan yana-da ko'proq uzoqlashish uchun (o'zligini to'laroq anglab yetish uchun) qo'liga nina olib, chuqurroq qazishga, hammadan, har narsadan uzoqlashishga intiladi. Lekin shoirni iztirobga solgan asl masala shuki, u o'zligini topishga, asliyatini izlashga qanchalik urinmasin, jamiyatni o'zgartirishga, odamlarning aql-u shuuridan moddiyatga o'ralashib, insonlikdan yotlashib ketishni sidirib tashlashga qurbi yetmaydi: har zamon unga toshlar bilan liq to'lgan paqirlarni uzatadilar, toshlarni oltin-u javohirga aylantirib berishni so'raydilar.

Tasavvufda dunyoni omonat binoga, qulab tushuvchi ustunga, suyanishning imkoni bo'lmagan suvga, makkora ayolga o'xshatishlar ko'p uchraydi. Mazkur o'xshatishlarning har birida insoniyatni ogohlikka chorlov ustuvor, ana shu ma'noda, muayyan maqsad va g'oya o'xshatishlar uchun mushtaraklik hosil qiladi.

Abduvali Qutbiddin ham o'z she'ri orqali aynan shu g'oyani targ'ib qiladi, ya'ni dunyoga aldanib qolayotganlar, moddiy boyliklarga xirs qo'yib, o'z nafsi yo'lida yashayotganlarni ogoh qilishga chaqiradi.

Shoirning tosh to'la paqirni tepadan tashlashlari haqidagi misrasida "tepa" so'zining o'ziga ham tasavvufona g'oyani singdirib o'tganligini ko'rishimiz mumkin. Boborahim Mashrabning: "Dunyo yasanib, jilva qilib oldima keldi, "Borg'il narig'a" deb, ketig'a bir shattalab o'ttum" [Boborahim Mashrab.3:57], – deyishida ham dunyoning benihoya aldamchi ekanligi, inson ko'z o'ngini qamashtirib, faqat yuqoriga ko'tarilish bo'lib ko'ringan mayllar aslida pastga tushish, balchiqqa botish ekanligi ayon bo'ladi. Toshni javohirga aylantirishni so'raganlar ham dunyo jilvasiga aldanib qolganlar timsoli. Ular o'zlarini yuqorida deb sanaydilar, aslida esa dunyo bor-yo'g'i bir quduqdan iborat.

She'ning har bir misrasidan ana shunday tasavvufiy qarashlar, insonni ogohlikka da'vat etuvchi, foniy dunyoning aldamchi o'yinlaridan bahs etuvchi tasvirlarni topishimiz mumkin. Tahlil davomida tasavvufiy mohiyatga doir fikrlar tadrijiylik kasb eta boradi. Demak, so'ngso'z sifatida aytishimiz mumkinki, Abduvali Qutbiddinning "Avtoportret" she'ri inson o'zligini topishiga intilishining go'zal namunasi o'laroq kitobxonda chuqur mulohazalar uyg'ota oladi. Shoir o'z tiyatiga nazar solish orqali iztiroblarini ifoda qilar ekan, aslida bu iztirob har bir odam

bolasiga taalluqli ekanligini, inson o'z vaqtida o'zligini tanishi lozimligi, mavjudlikning mohiyati Ollohning buyuk imtihoni ekanligini esdan chiqarmaslikka da'vat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduvali Qutbiddin. Bor. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. 320b.
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.384b.
3. Boborahim Mashrab. Agar oshiqligim aytsam. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2004.228b.
4. Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004.208b.

ADABIYOTDA ONA OBRAZINING TARIXIY ILDIZLARI

Abdullayeva Madina Madaminovna,
O'zbekiston Fanlar Akademiyasi,
O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona obrazining tarixiy ildizlari, insoniyat taraqqiyotida millati, dini va dunyoqarashidan qat'iy nazar missiyasi yagona bo'lgan onalik maqomining, insoniyatning ilk tushunchalaridagi ezoterik ma'nolariga to'xtalinadi.

Kalit so'zlar: obraz, lirika, arxetip, badiiy so'z, poetik obraz, Umay kulti.

Аннотация. В данной статье рассматриваются исторические корни образа матери, статус материнства, миссия которого уникальна в развитии человечества независимо от национальности, вероисповедания и мировоззрения, а также эзотерические смыслы первых концепций человечества.

Ключевые слова. образ, лирика, архетип, художественное слово, поэтический образ, культ Умай.

Abstract. This article focuses on the historical roots of the image of the mother, the status of motherhood, whose mission is unique in the development of humanity, regardless of nationality, religion and worldview, and the esoteric meanings of the first concepts of humanity.

Key words. image, lyric, archetype, artistic word, poetic image, Umai cult.

Badiiy adabiyotda muallif obrazini namoyon qiluvchi, shoirning ruhiy kuch-quvvati manbayi bo'lgan ona haqida, har bir ijodkor o'z so'ziga ega. Sababi, har qanday shoir mehrga qonmasdan turib, o'zgalarga quvvat beruvchi satrlarni bita olmaydi. She'riyatda umrboqiy bo'lgan bu mavzuni o'rganish, turli davrlardagi "Ona"ga murojaatning tarixiy taraqqiyotini, ildizlarini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Adabiyot so'z san'ati deymiz, aslida so'zning paydo bo'lish ildizlari qayerda? Ilk so'z kimga oid? Badiiy adabiyotda obraz yaratuvchi vosita bo'lgan so'z, aslida olamlar barpo etilishiga sabab bo'lgan ilohiy qudrat. Bu omilning kuch-u qudratidan olamlar yaratildi. Bu so'ngsiz qurol Yaratganning olim sifati bilan sharaflantirgan yaratig'i, Odam o'g'illariga, olamlar Robbisi tarafidan imtiyoz o'laroq berildi. Navoiy hazratlari ta'riflaganidek, insonni jamiki mavjudotlardan aziz qildi. Aslida yer yuzida insonning yashashi, hayot sinovlari, uni o'rab turgan borliqqa va inson ommillariga bog'liq emas. Aynan so'z sohibining ijobiy yoki salbiy fikrlar oqimiga bog'liq bo'ladi. Shayx Aziziddin Nasafiy "Kamil inson" kitobida odamiylikning to'rt sifati haqida yozadi. Yaxshi so'z, yaxshi ish, yaxshi xulq va marifat. Birinchi navbatda yaxshi so'zdan baxs etadi. Yaxshi so'z demak, yaxshi niyatdir. Yaxshi niyat o'z o'zidan, yaxshi ishga sabab bo'ladi. Yaxshi ish esa, go'zal amal demakdir. Go'zal amal esa, go'zal xulqning tamali hisoblandi. Go'zal xulq sohibiga har doim ma'rifat eshiklari ochiqdir. Shu bois inson o'zining so'zlari orqali butun taqdirini yaratadi.

Insonga soʻzlash iqtidorini bergan Tangri uning hayotidagi ilk ustoz, sevgi-samimiyat mehr- sahovat obidasi hisoblangan "Ona"ni ham berdi. Onadan soʻzlashni va hayotimizni shu soʻzlar orqali barpo etish baxtini ham in'om qildi. Soʻzning qudrati xususida gap ketganda, uning insonni yer yuzidagi taqdirini belgilab beruvchi ezoterik kuch ekanligi bugungi kunda kvant fizikasi, kvant psixologiyasi sohalarida atroflicha yoritiladi. Badiiy soʻz-chi? Uning inson qalbini junbushga keltiruvchi mohiyati-chi? Yer yuzida hayot boshlangan zahoti paydo boʻlgan badiiy tafakkurning kurtaklari va bunga qadar *mangu hayotning qat- qatlarida hali onasidan tugʻilmagan hamma qalbi va vujudida jo-bajo cheksiz takrorlanuvchi olamiy hissiyot jozibalarini jonli, xuddi oʻziday tiriklardan tirikroq qilib*[1.103] tasvirlovchi badiiy falsafa-chi? Umuman bularning hammasi insonni soʻzlashga oʻrgatgan katta madrasa, ulugʻ zot ona tomonidan asl tuygʻular sifatida bashariyatga, ilk goʻdakligining ilohiy ong qatlamlariga indilmadimikin? Butun insoniyat onaning bitmas- tunganmas sevgisi va shafqatidan dunyoga kelgandir. Dunyoda ona haqida yozmagan ijodkorning oʻzi yoʻq. Har qanday ijodkorning qalbida oʻz onasiga bagʻishlangan satrlar mavjud. Tugʻilgan zahotimiz ona allasi orqali qulogʻimizga singigan tilning nomi ham ona nomi bilan bogʻlanishi bejizga emas. Insoniyat onadan ilk bor hayot qoʻshigʻini eshitarkan, sevgi va muhabbat tuygʻulari bilan kodlanadi.

Adabiyotda ona obrazining ilk koʻrinishlari qadimiy arxetiplarda namoyon boʻladi. Adabiyot insonga xizmat qilishiga koʻra, umuminsoniy fenomen boʻlib, butun mazmun mohiyati bilan insonparvarlikni ifodalaydi. U insonni, uning ruhiy dunyosi, hissiy olami, aqliy afzalligi, yashash tarsi, orzu-intilishlari kabi tushunchalarini oʻzning badiiy tadqiqiga asos qilib oladi. Ibtidoiy insonning oʻz atrofini oʻrab turgan narsa hodisalarga animistik prizma ortidan qaragan davrlaridanoq obrazli tasavvurlar paydo boʻlgan. Birgina ona obrazining bugungi zamonaviy adabiyotda boʻy koʻrsatguniga qadar uzoq tarixiy kechmishi bor. Albatta, har bir xalqning ma'naviy merosi xalq ogʻzaki adabiyoti zaminida paydo boʻladi. Turk olimi Usmon Tuon turk xalqlarining mafkurasiga bagʻishlangan asarida Umay nomli iloha haqida ma'lumot beradi. Umay ona arxetipi insoniyatning tugʻish va tugʻilish haqidagi dastlabki tasavvurlariga oid tushunchadir. Dunyo xalqlari mifologiyasiga e'tibor berilsa, afsonaviy qahramonlarning ayrimlari ayollar obrazida namoyon boʻladi. Shunday holatlar barcha qadimgi turkiy xalqlar yozma yodnoma va folklorida hozirgacha saqlanmoqda. [2.35] Ona obrazining ilohiy kuldlarga borib taqalishi qadimiy turkiy adabiyotlardagi kabi, rus she'riyatida ham kuzatiladi. Rus adabiyotida tarixiy rivojlanishiga koʻra, ona obrazi va mavzusi qadimiy boʻlib, alohida adabiy hodisa sifatida oʻrganilgan. Asos manbasini rus adabiyotining tugʻilishidan olgan holda, bu mavzu keyinchalik oʻz rivojining barcha bosqichlarini

bosib o'tadi. Rus folklorida ham materiariat davridagi harcha xalqlar uchun umumiy jihat bo'lgan ma'budaga sig'inish gipostazalari quyidagicha bo'lishi mumkin.

Rus adabiyotida: Xudoning onasi, ona, Vatan, Yer...

Turkiy adabiyotda: Tangrichilik diniga ko'ra yordamchi iloha, Umay, ona obrazida, Umayning boshqa ko'rinishlari Xumo qushi shaklida.

Islomda Havvo insoniyat onasi sifatida[11].

Miflar idrokli odamning aqliy faoliyat mahsuli sifatida, olamni ilmiy bilishga, his qilish va anglashga bo'lgan ilk harakatlardir. Yer yuzidagi ilk insonlar bizning bugungi farazlarimizdagi kabi u qadar ibtidoiy bo'lmaganlar. Tabiatning turli-tuman hodisalari, xususan, yer qimirlashi, yomg'ir yog'ishi, yoki qurg'oqchilik bo'lishi, shamol esishi, dovul- to'fon ko'tarilishi, quyosh va oyning tutilishi kabi tabiat hodisalari mohiyatini tushunmasada, hamisha fitratlarida hali ilohiy va muqaddas kitoblar kelmagan paytlardayoq, samoviy kuchlar va ilohiy obrazlar bilan bog'langanlar. Tug'ilish va tug'ish bilan bog'liq mavjudlikni ilohiy tushunchalar bilan izohlaganlar. Ilohiy tushunish va tushuntirishga ehtiyoj tuyganlar. Inson ongi tomonidan anglab yetilmagan voqelik hisoblangan tug'ilish ilohlar (xususan ayol ko'rinishidagi) bilan bog'langan. Bu stixiyali tarzda yaratilgan Umay ona obrazi g'ayritabiiy hisoblangan tug'ish jarayonida ayolning himoyachisi sifatida tasvirlanadi. Yangi tug'ilgan chaqaloqqa ko'kdagi sut ko'lidan bir tomchi sut olib keladi. Bu sut go'dak og'ziga quyiladi, shu sut orqali go'dakka ruh, jon baxsh etiladi. Turkiy mifologiyada Umay obrazi qadimdan mavjud bo'lsa-da, uning lingvistik, etimologik, etnografik genezisi yetarlicha o'rganilmagan. *Bu borada bir necha gipotezalar mavjud bo'lib, jumladan bu termini S. M. Abramzon fors mifologiyasidagi Xumoy qushi obrazi bilan bog'laydi, hamda qadimgi hind ayol xudosi Umay va umumturkiy Xuba (Oq qush) kabi so'zlar bilan qiyoslaydi. Bundan tashqari olim o'rta Osiyoda yashovchi qirg'iz aholisidan yig'ilgan dala manbalari orqali bu kult haqida ma'lumotlarni keltiradi[3.36.]. "Devoni lug'otit turk" asarida Mahmud Qoshg'ariy diniy alomat va e'tiqodlar bilan bog'liq maqollar orasida Umajqa tabinsa og'ul bolur - kimki yo'ldoshga topinsa, u o'g'il ko'radi[4.144].* Insonlar Umay ilohasiga topinishgan va undan farzand so'rab murojaat qilishgan. Ilk ajdodlarimiz farzand tug'lishi va onalikni oddiy bir jarayon sifatida bilishmagan. Ona ilohalar o'ylab topishgan va ularni g'ayritabiiy shakl-u shamoilda tasvirlashgan. Insonlarning onaga bo'lgan e'tiqodlarining ildizlari shu qadar qadimiy bo'lgan. Umumturkiy va rus adabiyotini solishtiradigan bo'lsak, umumiylik sifatida ona obrazini yer bilan ham bog'liqligini ko'ramiz. *Badiiy obraz vositasida fikrlash va fikr ifodalash san'atning spetsifik, ya'ni tur sifatida belgilovchi xususiyati bo'lib, dunyo va odamlar paydo bo'lgan ilk davrlardayoq insoniyat ongida namoyon bo'lgan[6.929].* Miflarda insonlar o'z inonchlari orqali dunyoni o'zi anglagan

mohiyatini va o'zining anglayotgan narsaga munosabatini ifodalagan. Demak, mifologik tasavvurlarga ko'ra, miflardagi qahramonlar eng boshida xudolar va ruhlar bo'lgan. Yaralish miflarining barchasida xudolar va xomiy ruhlar eng bosh obrazlar hisoblangan. o'zbek folkloridagi ayol obrazlar Hiloloy (Oy obrazi), parilar (Yer va ko'k qizlari), arxetip darajasiga ko'tarilgan kampir obrazi ilohiy kuchlarning timsoli vazifasini o'tagan. g'ayritabiiy kuchlarni tamsil etgan ayollar obrazi onalik maqomi tufayli qadim zamonlardan beri ana shunday ulug'lanib kelingan. Bugungi kunda ham she'rlarda ona obrazi oddiy inson sifatidan tashqari, shoir menida olamni yorituvchi yo'lboshchi sifatida ham bo'y ko'rstadi.

*Rost gap, faqat sig'inaman Onamga,
Onam bergan mo'jizakor olamga,
Olam bergan bu muqaddas qalamga...
Onam o'tib ketdi yorug'olamdan
Men ushlagan bu muqaddas qalamdan –
Elga so'zlayotir barhayot Onam[10].*

Shoir meniga ko'ra ona farzandiga olam bahsh etdi. Olam esa muqaddas qalam. Dunyodan o'tib ketsa-da, bu qalam orqali shoir ko'nglidan turib elga so'zlayotgan Ona barhayot. Farzand to tirik ekan, muhabbat obidasi bo'lgan ona ham tirik. Islomiy e'tiqodlar turkiy dunyoni sharaflantirgandan so'ng, onaning maqomi haqida ilohiy kitobdan oyatlar ko'kdan, Robbining aynan o'zidan yerga indiki, bu ham onaning naqadar oliymaqom zot ekaniga shubha qoldirmaydi. Cheksiz-chegarasiz mahobatli borliqning butun falsafasi, tafakkuri, rang-u jilosi va musiqasini anglamoq uchun insoniyatga ana shu borliq qadar keng qalb kerak. Insoniyatga bu qalbni baxsh etgan jot bu – Ona. Alloh Qur'oni karimda "Isro" surasi 22- 23 oyat, "Baqara" surasi 215 – oyat, Niso surasi 36-oyat, "Luqmon" surasi 14-15-oyat, "Ahkof" surasi 15- oyatlarda insonlarga onaning maqomidan baxs etadi. Onani xurmatlash, e'zozlash masalasida hech bir din yoki tarbiya vositasi, islomga yaqin ham kela olmaydi. Birgina "Isro" surasi 23-oyatni misol keltiradigan bo'lsak, unda Alloh ta'olo shunday buyuradi. "Robbing faqat o'zigagina ibodat qilishinggizni va ota- onaga yaxshilik qilishingizni amr etdi." Bu Allohning bandalariga amri buyrug'i, farmonidir, bu bandalarining ixtiyoriga tashlab qo'yilgan ish emas. Bu amr Alloh Taoloning qat'iy va o'zgarmas buyrug'I bo'lib, bu buyruqni bajarish bandalarning burchidir[4.87]. Alloh "Luqmon" surasi 14-oyatda "Va insonga ota onasi haqida tafsiya qildik: onasi uni zaiflik ustiga zaiflik bilan ko'tardi; uni sutdan ajratish ikki yildir. Menga va ota-onangga shukur qilgin qaytish faqat Allohgadir." Alloh bu oyatda o'zidan keyin ota onaning haqqini o'tash kerakligidan ogohlantiradi. Xususan, onalik haqida alohida ta'kidlaydi. Quron va hadis onaning bu dunyodagi martabasini ta'kidlash bilan chegaralanib qolmaydi.

Ayniqsa, payg‘amirimiz tomonidan aytilgan mana bu hadis islom olamida juda mashhurdir. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi.

Bir kishi Rasululloh sallollohu alayhi vasallam huzurlariga kelib:

“Ey Allohning Rasuli odamlar ichida kim ko‘proq yaxshilik qilishimga haqliroq?”-dedi.

-“Onang”,- dedilar.

-“So‘ngra kim?”-dedi.

- “Onang”,-dedilar.

-“So‘ngra kim?”,- dedi.

—”Onang”- dedilar.

-“Yana kim?”- dedi.

-“Otang”-dedilar.

Imom Ahmad va imom Nasoiy Muoviya ibn Jahim (roziyollohu anhu) dan rivoyat qiladi. Jahim (roziyollihu anhu) payg‘ambarimiz (sallallohu alayhi vasallam) huzurlariga kelib: “Yo Allohning rasuli, g‘azotga chiqishni xohlayman va sizdan maslahat so‘rab keldim”, dedi. Shunda Payg‘ambarimiz (sallollohu alayhi vasallam): “Onang hayotmi ?” dedilar. “Ha” dedi. ‘Unda ajralma Jannat onaning oyog‘i ostida”, dedilar. Musilmon g‘oyalaridan suv ichgan ko‘xna Sharqning buyuk mutafakkiri Alisher Navoiy hazratlari, bu hadisni shunday she'riy misralarda tasvirlaydi.

Onalar oyog‘i ostidadur,

Ravzai jannatu jinon bog‘i.

Ravza bog‘in visolin istar esang,

Bo‘l onaning oyog‘i tufrog‘i[9].

Alisher Navoiy Ona, ayol obrazini “Saddiy Iskandariy” dostonida Iskandarning onasi timsolida ham yaratadi. Umuman ona obrazi asarlarda tutgan o‘rni va vazifasiga qarab personaj, bosh obraz, ikkinchi darajali obraz kabi turlarda tasvirlandi. Ona va ayol obrazi o‘zining ko‘p asrluk tarixi davomida miflar, o‘lanlar , dostonlar, mumtoz asarlar tarkibida qalamga olindi. Asta sekinlik bilan ona mavzusining rivojlanishi ijodkorning o‘z onasi obrazidan tortib, xususiylikning umumiylikka ko‘tarilishi va kengayishiga qadar rivojlanib bordi. Mumtoz adabiyotda onaga atalgan g‘azallar kam bo‘lib, bu mavzudagi g‘azalni Mashrab ijodida kuzatdik.

Jamoling ko‘rgali keldim, ayo ey mehribon onam,

Mening uchun ado bo‘lgan yuragi bag‘ri qon onam[8].

Falak gardishi bilan ishq yo‘liga tushgan oshiq obrazi bu she'ri orqali onasiga arzi holini, sog‘inchini, bu yo‘ldagi azoblar otashini izhor qilmioqda[5.212]. Satrlardan shoirning onasi obraziga boqsak, o‘g‘lining firoqida qumridek shakarfishon, firoq o‘tidagi g‘arib notavon, yurak bag‘ri qon onani ko‘ramiz. Bu Ona muallif tomonidan ulug‘lanib, oromi jon, mohi tobon, ka'ba sifatlashlari bilan ham tasvirlanadi.

G'azal o'zining musiqiy ohangi bilan bir qarorda, onaga bo'lgan yuksak ehtiromni aks ettirgani sababli o'zbek adabiyotida, va xalq orasida juda mashhur hisoblanadi. G'azal ajoyib musiqiy ohangi tufayli, juda ko'p san'atkorlar tilidan hirgoyi qilingandir. Keyinchalik ona obrazi umuminsoniy va milliy obraz sifatida milliy uyg'onish vakillari she'riyatida ham bo'y ko'rsatdi. Xamzaning "Ona" she'ri bunga misol bo'la oladi

*Parcha go'sht erdik tug'ilgan vaqtimizda,
Onamizning bag'ri o'ldi taxtimizda[7].*

Bu she'r mazmunida xususiylikdan umumiylikka o'tish, onaning tarbiyalovchi sifatlarini e'tirof etish kuzatiladi. So'ngi xulosa yuqoridagi g'azal bilan qiyoslanganda bir xil. Onaning farzandi uchun mashaqqatlarda tog'dek bardoshi, farzandning bu shartsiz sevgi qarshisida burchli ekanligidir.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, ona mavzusi shakily o'zgarishlar bilan bir qatorda ilohiylikdan ijtimoiylikka qarab mazmun va g'oya jihatdan o'zgargan.

XX asrda kelib esa, Ona poetik obraz sifatida har bir shoir ijodida o'ziga xos ravishda qalamga olindi va muallifning o'y xayollari, estetik ideali, xarakterini namoyon qilishida eng yaxshi mavzu bo'lib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Suvon Meli., Adabiyot falsafasi, yohud ko'zguga aylangan ko'ngil, - Maqola.
2. N. I. Jo'raqo'ziyev., Turkiy adabiyot va folklorda Umay obrazi //o'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari, 2019, 3-son, 35-bet.
3. Mahmud Qoshg'ariy., Devoni lug'otit turk, -Fan.: 1967.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammadyusuf ., Yaxshilik va axloq kitobi, -2019, 20-bet.
5. <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3-pp219-225>
6. <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/928/1061>
7. [7.https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/6-mart-hamza-hakimzoda-niyoziy-1889-1929-tugilgan-kun.html](https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/6-mart-hamza-hakimzoda-niyoziy-1889-1929-tugilgan-kun.html)
8. https://wikisource.org/wiki/Main_Page
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/alisher-navoiy-asarlarida-ona-timsoli-talqini>
10. <https://baxtiyor.uz/ota-ona-haqida-she-rlar-to-plami-eng-ta-sirli-she-rlar/>
11. https://uz.wikipedia.org/wiki/Umay_ona

“ЖАНОБ ГОЛОВЛЁВЛАР” ВА “УТАШАН” РОМАНЛАРИДА ШАЙТОН ҚИЁФАЛИ ОДАМ ОБРАЗИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ

Абдуллаева Шоҳиста,
Урганч давлат университети
мустақил тадқиқотчиси

Аннотация. Мазкур мақолада Салтиков Шчедриннинг “Жаноб Головлёвлар” ҳамда Шойим Бўтаевнинг “Уташан” романидаги шайтон қиёфали икки қаҳрамон қиёсий таҳлил этилади.

Калим сўзлар: Шайтон қиёфали одам образи, роман, шайтоний одатлар, шайтоний ишлар, қиёсий бадиий таҳлил.

Abstract. This article compares the two characters with the appearance of the devil in the novel "The Golovlyov's" by Saltikov Shchedrin and "Utashan" by Shoyim Botaev.

Аннотация. В данной статье сравниваются два персонажа с обликом черта в романах «Господа Головлёвы» Салтыкова-Щедрина и «Уташан» Шоима Ботаева.

Рус адабиётининг машҳур ёзувчиларидан бири Михаил Салтиков-Шчедрин ҳисобланади. Айниқса, адибни “Жаноб Головлёвлар” асари бутун дунёга танитди. Ёзувчи бу асарни 1875-1880 йиллар орасида ёзиб тугатади. Мазкур асарда крепостнойлик ҳуқуқларининг бекор қилиниши, жамиятдаги зулм ва залолат Головлёвлар оиласи мисолида тасвирланган. Адиб романда маънавий-ахлоқий муаммоларни бош муаммога айлантиради. Шунинг учун ҳам роман жанрини адабиётшунослар “ижтимоий роман” сифатида белгилашган. Жумладан, романда тасвирланган шайтон қиёфали одам зодагон синфи вакили ҳисобланган Иудушка образи орқали ушбу даврнинг жамият бошқарувидаги текинхўрлик, мунофиқлик, хиёнаткорлик ва очкўзлик каби иллатлари фош этилган.

Головёвлар оиласининг бошлиғи Владимир Михайлович Головлёв. У ёшлигидан бебош, бемаъни одам бўлиб ўсади. У Арина Петровнага уйланади. Владимир Петрович ҳаётини ўйин-кулги билан ўтказишни яхши кўради, хонасига кириб олиб, майна, хўроз ва бошқа қушларнинг овозига тақлид қилади, “эркин шеър” ёзиш билан шуғулланади. Арина Петровна унинг бемаза шеърларини эшитишни ҳам истамайди. Эр-хотин бир-бирини тушунмасдан, бир-бирига меҳр бермасдан қирқ йил яшайди. Эр хотинни “Шайтон”, “Ялмоғиз” деса, хотин эрини “Шамол тегирмон”, “Торсиз соз” деб ҳақоратлайди. Арина Петровна эридан кўнгли қолиб, Головёвларнинг мол-мулкани кўпайтириш, ерларини кенгайтиришни бош мақсад қилиб белгилайди.

Маҳоратли адиб С.Шchedрин бир оила мисолида инсоният тарихи ва ҳаётида моддият эмас, руҳият бирламчи ҳодиса эканини бадиий жиҳатдан далиллаб кўрсатади.

Арина Петровнанинг фарзандларига нисбатан агрессив муносабати туфайли Степан, Павел ва Анна исмли болалари барвақт вафот этади. Асар қаҳрамонларининг ҳаётида Шайтоний ҳис-туйғулар ва қилиқ-одатлар тасвирланади. Жамиятдаги улкан жаҳолат ва маънавий калтабинлик бир оила тимсолида бадиий талқин этилган. Бу оилада меҳр-оқибатсизлик, шафқатсизлик, алдамчилик, разолат ҳукмрон.

Головлёвлар оиласининг вакили Павел Головлёвнинг кўзига ўз акаси Иудушка меҳрибон ака сифатида кўринсада, аслида Павел уни мафтункор кўзи орқасида яширган заҳарли нигоҳи, илонга ўхшаш овози билан одамни шол қилишини тушуниб этади. Ўлими олдидан ҳам гуёки нигоҳи орқасига яширинган туйнукдан чиққан куч уни бўғизлаётгандек туюларди. Бу даҳшатли ва кўркинли тасвирлар, ҳис-туйғулар айнан Шайтонга хос бўлган қиёфа ва иллат ҳисобланади.

Салтиков Шchedрин романда крепостной Головлёвлар оиласи тимсолида муҳим ижтимоий, маънавий-ахлоқий муаммони ўртага ташлайди. Яъни, Головлёвлар оиласи аъзоларида учрайдиган уч катта иллат чунончи, бекорчилик, ишга лаёқатсизлик ва ичкиликбозлик натижасида бутун бир сулоланинг йўқ бўлиб кетиши қаламга олинади.

Асарнинг асосий қаҳрамони Иудушканинг феъл-атвори шайтонсифат одам сифатида бадиий гавдалантирилган. Иудушка тилида “Оллоҳ” дейди, аслида унинг амалларидан хасис, мунофик, ғийбатчи, ёлғончи, аламзада, қасоскор одамлиги маълум бўлади. У бу фоний дунёда мол-давлатга ружу кўйган, бойлик учун ўз фарзандларидан ҳам воз кечган. Унинг бу қилиқларидан маълум бўладигани, у Шайтон васвасасига чалинган одам. Қолаверса, Иудушка Шайтонга хос бўлган айёрлик, хушомадгўйлик қилишни ёқтиради. Буни унинг онасига қилган муносабатида кўриш мумкин. Масалан, у онаси Анна Петровна билан учрашганида бошқа фарзандларидан фарқли ўлароқ ҳар доим онасининг кўлини ўпиб, дил изҳорлар билан хушомад қилиб гапирди. Бу хушомадлар замирида ич-ичидаги меросга эга бўлиш режаси яширинган эди. Бу эса қаҳрамоннинг шайтон қиёфали одам эканини яна бир бор тасдиқлайди.

Шунингдек, Степан Владимирович укаси Иудушкани “қонхўр” деб лақаб кўяди, чунки унинг ҳеч кимга меҳри йўқ, худбин ва шафқатсиз одам. Иудушка акаси ва укалари жон талвасасида ётган вақтида ҳам меросга тезроқ эга чиқиш илинжида уларнинг асабларига тегиб, уларнинг қийналаётганлигини кўриб роҳатланади. Шайтон мисоли уларга руҳан азоб беради.

Маҳоратли адиб С.Шchedрин Шайтонга хос бўлган хусусиятларни Порфирий Владимирович (Иудушка - лақаби) тийнатида мужассамлаштириб беради. Асар якунида Иудушка вафот этади. Ёзувчи шайтон қиёфали Иудушка образининг ўлими орқали жамиятдаги ёмон иллатларнинг йўқ бўлиб кетишига рамзий ишора беради.

Худди шунингдек, ҳозирги ўзбек адабиётининг таниқли ёзувчиси Шойим Бўтаевнинг “Уташан. Еттинчи тонг” асари ҳам “Жаноб Головёвлар” романи сингари кутилмаган бир воқеа тафсилоти яъни “жинтўполон” билан бошланади. “Жаноб Головёвлар” романида воқеалар “оила суди” масаласи билан бошланади. С.Шchedрин бир оиланинг таназзулини жамият таназзули сифатида бадий таҳлил этса, Шойим Бўтаев уташанлик одамларнинг фожиаси ва алданган авлод фожиасини Уташан қишлоғида яшовчи бир қатор оилалар тимсолида бадий тафтиш этади. “Уташан” романи марказида ҳам Юнус почтачи ва унинг кампири Ойтошибуви оиласи асосий сюжет линиясида акс этирилади. Аммо Шойим Бўтаев романида бир нечта уташанлик оилаларнинг муаммолари, изтироблари, ижтимоий, маънавий-ахлоқий муаммолари қаламга олинади. С.Шchedринда Головёвлар оиласининг малъун қиёфаси Иудушканинг фожиавий қисматида асосий фокусда акс этирилса, “Уташан”да Юнус почтачи, Беркинбой, Ёшиузокларнинг қисмати орқали ёритиб берилади.

Ҳар икки муаллиф ижтимоий ва маънавий-ахлоқий муаммоларни асарнинг бош пафосига айлантирган. Шунини алоҳида таҳлил марказига тортиш мумкинки, “Жаноб Головёвлар” романи қаҳрамони Иудушка ва “Уташан” асари қаҳрамони Беркинбой образи шайтоний қиёфаси, хатти-ҳаракатлари билан бир-бирига ўхшаб кетади. Хусусан, Беркинбой худди Шайтони лайъин сингари сув босиб кетган қишлоғидан қочиб, қувғинди бўлиб, Уташанга келган. Зеро, Шайтон ва Беркинбой қисматига битилган “қувғиндилик” уларнинг қондошлигини исботлайди.

Иудушкага роман саҳифалари оша шундай тавсифлар берилади: “Порфирий Владимирович оилада уч хил лақаб билан: Иудушка (мунофиқ), қонхўр ва содда муғамбир лақаби билан маълум эди; бу лақабларни болалигидаёқ унга Стёпка-тентак берган эди” [2, Б. 12]; “Ўша вақтларда уларникида девонафеъл бир чол турарди. Уни Порфиша девона дейишарди. Арина Петровна келгусидан хабардор бўлмоқчи бўлса, доим ўшанга мурожаат қиларди. Бола қачон туғиларкан худо ўғилми, қизми бераркан деб сўраса, чол унга тўғри жавоб бериш ўрнига уч марта хўроз бўлиб қичқириб, кейин:

- Хўрозим, хўрозим, хўроз чақирар, товукни кўрқитар; товук эса қат-қат-қатик деру, лекин армонда қолар! – деб валдираган эди.

Уч кундан кейин ўғил туғди (уч марта хўроз бўлиб қичқириши бежиз эмас экан-да!), болага фол кўрган чолнинг номи кўйилиб, Порфирий, деб аташди” [2, Б. 12-13]. Порфиша девона башорат қилганидек, Арина Петровнанинг ўғли Порфирий Владимирович Головёвлар оиласининг бошига бало бўлиб дунёга келади. У ўзининг хасислиги, қуромсоқлиги билан ўз фарзандларининг ҳам ўлимига ҳам сабабчи бўлади. Онасига юмшоқтабиатли бола қиёфасида кўришиб, мунофиқлик билан бутун бошли бир сулоланинг йўқ бўлиб кетишига ҳисса қўшади. Аслида, Головёвлар сулоласининг йўқ бўлиб кетишига Арина Петровнанинг хасислиги ва қурумсоқлиги, меҳрсизлиги, муҳаббатсизлиги энг катта сабаб бўлади.

Бу оиланинг онабошиси бўлган Арина Петровнанинг кўзўнгида бутун оила бу дунёдан бахтсиз, аламзада, омадсиз, норози бир қиёфада вафот этишади.

Худди шунингдек, Порфирий сингари “Уташан” романи қаҳрамони Беркинбой ҳам Уташан қишлоғида учратган илк киши Юнус почтачини кўрқитиб юборади. Айнан шу лавҳага эътибор қаратамиз: “Унинг юраги шиф этди. Ўрнидан туриб йўталди. Ҳалиги шарпадан илганган киши, кишидай туюлган шарпа йўтал товушини эшитиб, у ёқ-буёққа аланглаган бўлди ва уни кўрди. Юнус каби бўлиб турган Юнус отани кўрди, эшитилар-эшитилмас минғирлаб, салом берди, кейин кўришиш учун қўл узатди. Юнус ота унинг қўлини оларкан, латтадай бўшлигини ҳис этиб, юраги аллақандай ортга тортиб кетгандай бўлди. Киши қўлини шундай тезликда тортиб олдики, Юнус ота унинг чинчилағи йўқлигини ҳатто пайқамай қолди” [1, Б. 40.].

Беркинбой ҳам Головёвлар сулоласининг вакиллари сингари меҳнат қилишни ёқтирмайди. Такасалтанг, дангаса, ношуд бир одам. Уташанга кириб келган бу номаълум одам ёзувчи томонидан “Меҳмон”, “Нотаниш одам”, “Номаълум киши”, “Боёқиш меҳмон” деб таърифланади.

Хуллас, шайтон сингари Худонинг даргоҳидан қувилган хилқат сингари Беркинбой Уташан қишлоғига келиши билан қишлоқда алмойи-жалмойи гаплар, тахминлару-фаразлар бошланиб кетади.

Романда бюрократик асосга қурилган шўро ҳукуматининг таназзули ва одамларнинг саёз маънавий олами тафтиш этиб берилган. Бу беихтиёр С.Шchedриннинг “Жаноб Головёвлар”идаги крепостнойлик ҳуқуқининг бекор қилиниши билан феодализм тузумининг чириб битган қиёфасини бадий акс эттириши билан икки роман ўртасидаги умумий бадий муштараклик кўзга ташланади. Чунки, ҳар икки романда бир тузумнинг таназзули ва бу тузумнинг сўнги нусхалари Головёвлар сулоласи ва Уташанликларнинг фожиавий қисмати бадий муштараклик касб этади. “Уташан” романи С.Шchedрин асарига ҳажман икки барабар келади. Шубҳасиз, Янги ўзбек насрининг атоқли ёзувчиси Шойим

Бўтаев ўзининг янги “Уташан. Еттинчи тонг” романида С.Шchedрин ижодий анъаналарини ҳам изчил давом эттириб, ўзининг индивидуал киноявий услубини ярата олган.

Бинобарин, икки роман қаҳрамонлари Порфирий (Иудушка) ва Беркинбой; Порфирий ва Ёшиузоқ; Головёвлар сулоласи ва Уташанликлар; феодализмнинг чириши ва шўро давлатининг таназзули воқеаларини қиёсий бадий таҳлил этиш кизиқарли тадқиқотларга асос бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Бўтаев Ш. Уташан. Еттинчи тонг. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2021. – 604 б.
2. Салтиков-Шchedрин. Жаноб Головёвлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1976. – 296 б.
3. Қўчқорова М. Ҳозирги ўзбек насрида бадий шартлилик. – Тошкент: Фан, 2020.

ZIYOVIDDIN MANSUR DOSTONLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI AN'ANALARI

Aliyeva Guljahon,
Namangan davlat universiteti,
Adabiyotshunoslik kafedrası,
stajyor o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ziyovuddin Mansurning Namangan adabiy muhitidagi o'rni, qolaversa dostonlarida xalq og'zaki ijodi namunalarining qo'llanilishi, mavzu ko'lami, jamiyatda bo'layotgan voqelikdan olgan taassurotlari hamda shu voqelikka munosabati dostonlarida o'z ifodasini topganligi, so'z tanlash mahorati hamda asarlarining badiiyati haqida fikrlar boradi.

Kalit so'z: obraz, an'ana, adabiy muhit, usul, uslub, tizimli yondoshuv.

Аннотация: В данной статье рассматривается место Зиёвуддина Мансура в литературной среде Намангана, а также использование в его эпосе образцов народного устного творчества, объём темы, его впечатления от действительности в обществе и его отношение к эта действительность, выраженная в его былинах, существуют мнения об мастерстве подбора и художественности его произведений.

Ключевые слова: образ, традиция, литературная среда, метод, стиль, системный подход.

Annotation: In this article, the place of Ziyovuddin Mansur in the literary environment of Namangan, as well as the use of examples of folk oral creativity in his epics, the scope of the subject, his impressions of the reality in society and his attitude to this reality, expressed in his epics, There are opinions about the skill of selection and the artistry of his works.

Key words: image, tradition, literary environment, method, style, systematic approach.

O'zbek xalq ijodi juda boy. Xalq og'zaki ijodi keng tarmoqqa ega. Uning rivoyat, ertak, latifa, ibora, topishmoq, tez aytish, she'r kabi janrlari keng tarqalgan. Ularda dono xalqimizning o'gitlari, nasihatlari, xatolaridan olgan tajribalari o'z aksini topgan.

Ziyoviddin Mansur dostonlarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan mohirona foydalanilgan. Alla har bir xalq og'zaki ijodining qadimiy, betakror, yoqimli va keng tarqalgan namunasidir. Onaning qalb tug'yonini, mehr-muhabbatini va orzu-niyatini o'ziga singdirgan munis bir qo'shiq – bu alla. Ziyoviddin Mansurning "Onaginam, onajonginam" dostonida alla janridan foydalanilgan. Alla orqali onaning qanday buyuk kuchga, farishtadek qalbga egaligini ko'rsatilgan.

Alla-alla, bolam, alla, alla, bo'l bir olam alla, alla.

Bo'l iloho baxtinga baxti bekam alla, alla!

Allayin bolamni, menchun tengsiz olamni.

Xudoyim, shu bolamdan yiroq et dard-u g'amni.

Xalqimizda eng quvonchli kunlarida o'lanlar aytiladi. Ularsiz to'ylarimizni tasavvur qilib bo'lmaydi. Lekin xalq ichida "teskari o'lan" degan atama ham bor. Yaqin kishisidan ayrilgan inson dardini ko'tarish uchun uni boshqalar bilan

bo'lishishiga to'g'ri keladi. Shunda ularni she'rga solib aytganlar. Dostonning 1-6 bo'limlari shunday usulda yozilgan:

Voy onam-ey, voy onam!

Daryo onam, soy onam!

Nahot sarv qaddingiz

Qaro yerga joy, onam!

Xalq og'zaki ijodida rivoyat janri juda keng tarqalgan. Ular turli joylarda tabiiy shart-sharoitlaridan kelib chiqib to'qilgan. Ularda haqiqatlar badiiy to'qimalar bilan boyitilgan holda yoki to'liq to'qimalar holida yaratilgan. Ziyoviddin Mansurning "Yakkatut manzumi" dostonida ham rivoyatlardan foydalangan. Bu doston muqaddas tut haqidagi doston.

Namanganning kunchiqarida Yakkatut degan joy bor. Bu joyning nomi muqaddas tutning nomi bilan ataladi. Tut haqida ko'p rivoyatlar bor. Ulardan birinchisini Abdusattor otadan eshitgan edi shoir. Uning aytishicha, tutga ilon ham chirmashmas ekan. Hayvonlar ham yaqin yo'lamas ekan, otlar oldidan sekinlashib o'tar ekan. Bir gal tutda tovuqni o'tirganini ko'rgan tulki ham unga oyoq bosmagan ekan. Sobiq tuzumda eskilik sarqiti deyishib, yiqitmoqchi bo'lganlar. Shunda g'aroyib voqea ro'y bergan ekan.

Yana bir rivoyatni bir choldan eshitgan ekan. U kishiga bobosi aytib bergan ekan. Tutda ilohiylik bor, deyishar ekan odamlar. Aytishlaricha, bu yerlarda qadimda daryo oqqan ekan. Goh-gohida qo'qqisdan suvi toshib, qirg'oqlarni va yonidagi qishloqni suv bosar ekan. Bir tomoni daryo, bir tomoni bog'. Juda so'lim ekan bu qishloq, lekin suv toshganda bu yerdagilarga juda qiyin bo'larkan. Ko'chib ketay desa go'zal makoni, ko'chmay desa daryoning quturish xavfi... qishloqda shunday gap tarqabdi: tongda Xizr buva o'tib qoladi bu yerdan. Masjid so'fisi azon aytib turgan ekan. Cholni ko'rib, hush kelibsiz debdi. U tila tilagingni debdi. So'fi hushini yig'ib, qishloq ahlining dardini aytibdi. Hizr hassasini suqib ketibdi. Hassa o'sib yakkatut bo'libdi. Toshqinlar ham bo'lmay qo'yibdi. Shundan beri bu joy Yakkatut deb nomlanar ekan. Hamma uni Hizr ekkan deb, muqaddas sanarkan.

Yana bir rivoyatni Luqmoni Hakim aytgan ekan. Tut juda noyob daraxt ekan. Ildizlari yerdagi zaxni ketkazar ekan. Mevasini qorinni to'q tutar, ko'p dardga davo ekan. Durday mevalariga tut pishig'ida ikki-uch bor to'ygan kishining tanasida dardg'ubor qolmas ekan:

Shifobaxsh bir meva hozirlar –

Mevalari misoli durlar,

Yesang singib naq iliklarga

Shifo bo'lar xastaliklarga.

Tut pishig'i chog'lar uch-to'rt bor

To'ygan tanda hech qolmas g'ubor.

To'rtinchi rivoyat: bir zamonlarda dovrug'dor bir Samadxon degan xoqon o'tgan ekan. U juda odil va xalqparvar hukmdor ekan. Yurtni adolatli boshqargani uchun el mehrini qozongan ekan. Bir kuni xoqon xafaqon kasaliga duchor bo'libdi. Dardiga davo topilmabdi. Kundan-kunga rangi sarg'ayib, holdan toyibdi. Shunday kunlarning birida xoqon tush ko'ribdi. Tushida daryo yoqalab borayotib yakka tutga ro'baro' kelibdi. Tutga chiqib silkitgan ekan, tagida duv-duv to'kilibdi. Xoqon rosa yebdi, lekin to'ymabdi. Xuddi sirli dori singari malham emish, yegan sari yoqarmish. Xon uyg'onib shoshilinch farmon beribdi:

Ahli olim, ahli ulamo, fuzaloyu barcha fuqaro,

Eshitmadim, demang, eshiting, uni darhol ijobat eting.

Kim hojarvor, kim rag'battalab, tez yo'l solsin daryo yoqalab!

Yakkatutning topsin tayinin, topsa unga zo'r rag'bar tayin!

Xoqondan olqish olish uchun hamma Yakkatutni izlab ketibdi. Xalqda izlagan ka'bani topadi, degan naql bor. Izlab-izlab oxiri tutni topishibdi va xoqonning og'zini yopishibdi. Sirli tutdan tanovul qilib, tuzalib ketibdi. Hatto yosharib ketibdi. Tutni olib kelganga bo'yi baravar tanga sochibdi. O'sha tutdan novda keltirib bog'iga ektiribdi va nomini Samadxon tut deb qo'yibdi. Shu hududda dardmand bo'lganlar o'sha tutdan bahramand bo'lib shifo topibdi. Shundan keyin tutning dovrug'i olamga ketibdi. Qayerda Samadxon tut bo'lsa, u Yakkatutdan tarqagan emish.

Beshinchi rivoyat avvalgisining mantiqiy davomi. Qo'shni shoh xoqonning holini ko'rib, dilida bir niyat uyg'onibdi. Tutdan bitta qalamcha olibdi. Uni Shotut deb atabdi. Yer tutni chunonam xohlab, tez orada shoxlab ketibdi. O'sha tutdan terib yeganning dardidan asar ham qolmabdi. Ittifoqo birdan shohga bir dard xuruj qilibdi. Kundan-kunga ozib, ko'zlari kirtayib qolibdi. Tabiblar davo topa olmabdi. Oxiri bir tabib chorasini topibdi. Ohu bolasini tutib, uning jonini bahridan o'tib, shotutning tagiga qonlating, debdi. Shotutning mevasidan bering. Tongda chiqib qarasha, tutning mevasi qizqish tusga kiribdi. Mevasidan tanovul qilgan shoh davo topibdi. Shotut ham Yakkatutdan tarqagan.

Oltinchi rivoyat shu shohning qizi Marvarid sabab paydo bo'lgan Marvarid tut haqida. Shohning yakkayu yagona farzandi Marvarid palaxmonning toshi singari o'z uyidan uzoqroqqa tushibdi. U sevganiga turmushga chiqibdi. Uzoq yillar ahil-totuv yashashibdi. Lekin ularning farzandi bo'lmabdi. Bu holatdan ko'p tashvish chekib, armonlari ko'payibdi. Qilmagani qolmabdi ularning. Bid'at bo'lsa hamki parixonaga borishibdi. U bir Yakkatut degan joy bor, debdi. Shu yerga borish kerak degandan keyin o'sha joyga boradigan bo'lishibdi. Shunda ota qiziga borsang o'sha yerdan tutdan novda kesib kelib, hovlingga ekib qo'y, debdi. Bahonai sabab bo'lib Marvarid

ham ona bo'libdi. Yakkatutdan keltirilgan novdadan o'sgan tutni Marvarid tut deb atashibdi.

Yettinchi rivoyat. Bobur talato'p, ur-sur chog'larda Andijondan Axsiga ota qabrini ziyorat qilish uchun keldi. Qur'on tilovat qilgandan keyin ko'ngli Safed Bulonga sayr istadi. Daryo yoqalab borar ekan Yakkatutga duch keldi, unga otulovini bog'lab, bir muddat dam oldi. Bu tut haqida eshitgan edi.

Emish shu tut bersa gar madad,

Bo'larkan har tilak ijobat...

O'zing shohid, shu qutlug' daraxt –

Ya'ni Xizr tashlab ketgan baxt

Sabab bo'lib ochilib yo'lim

Baland bo'la boshlasa qo'lim.

Shunday niyat qilib tutdan novdalar kesib olibdi va Safed Bulonga borganda qalamcha qilib suqib qo'yibdi. Bobur bois o'sha taraflarga tut tarqab ketibdi. Aytishlaricha Bog'i Boburga ham bu tutdan novdalar oldirib ketib ektirgan emish. Lekin qalamchalar ko'karmabdi. Bu holat bir necha bor takrorlanibdi. Demak Turon tuprog'i bo'lmasa ko'karmas ekan- da.

Sakkizinchi rivoyat. Qish faslida ilgaridan Yakkatutda ko'pkari bo'ladi. Ot poygasi rosa qizirkan. To'lan degan chavandoz yigit juda epchil va chopqir ekan. Hech kimni o'ziga yetkazmas ekan. Hatto cho'loq otni minsa ham, g'oliblikni qo'ldan bermas ekan. Shuning uchun ko'pchilik to'lansiz chopsak der ekan. Har safar uloqni qo'lga kiritaverganidan alp deb nom qozonibdi. Yillar o'tsa hamki, qarisa ham, kuch uni tark etmabdi. Bu holning sirini bir merov yigit, merov bo'lsa ham sinchkov yigit havas qilib so'rabdi. Qanday otni minsangiz ham, g'alaba sizniki bo'ladi, qanday? To'lan sirni ochibdi:

Oxir sirni ochmish alp To'lan,

Gap otdamas, qamchida ekan.

Ya'ni debdi: – Qamchi dastasi

Ulug' Xizr buva hassasi.

Bo'lgan Yakkatutning shoxidan

Chin Baraka-qutning shoxidan.

To'qqizinchi rivoyat kalonqand haqida. Qandolatchi Kalon yakkatutning mevasidan shinni tayyorlab dovrug'i chiqqan ekan. O'zgacha bir layoqat bilan tabobat bilan shug'ullanarkan. Huddi novvotga o'xshagan kalonqand tayyorlabdi. Boshqa qandlar kamyob chog'lar kalonqand juda talabgir bo'libdi. Xalqimizda eson-omon tut pishig'iga yetib olsak degan gap yuradi. Ocharchilik yillari ham shu tut ozuqa-malham bo'lgan. Hozirda kalonqandni qalan qand deb aytishadi.

O'ninchi rivoyat shoirning tushi haqida. Bir kuni shoir tushida sozanda Ro'zimatxon usta va Kamoliddin hofiz ikkisini ko'ribdi. Ular jannatda yurishgan emish. Ro'zimat mashshoqning qo'lida ajib jilvador tor bor ekan. Tor odatdagilardan tamoman boshqacha emish. Bir sayratib, so'ngra hofizga hadiya qilibdi. Xuddi toy mingan boladay xursand bo'lganidan og'zi qulog'iga yetibdi. Torni asta zavq bilan chertib, sayratib, jannat ahlini o'ynatibdi. Hurlar kelib raqs tushishibdi. Hofizga yuksak baho berib, qarsak ustiga qarsak chalishibdi. Hofiz kuylaganda bulbullarning ovozi o'chib qolibdi. Ahli ulus lol qolib turganda bir mo'jiza ro'y beribdi. Bitta bulbul soziga qo'nib, jo'r bo'lib kuylay boshlabdi – qo'shilib sayray boshlabdi. Shu choq birdan Mullaboy hofiz o'g'li G'ani Kamoliddinga razm solib, yoniga kelib quchibdi. Bu tor – o'sha biz bilgan Yakkatutdan yo'nilgan dedi. Ro'zimat ota ham bosh ilg'adi va ularni boshlab ketdi.

*Bu – rivoyat. U bir tushga xos,
Lek tush bo'lmas bo'lmasa asos.*

O'n birinchi rivoyat gapga ko'p chechan Asraboyev Mamatxojidan: Aytishlaricha, bu xos rivoyat otasidan meros. Shohlar kelib ketaverarkan, shoh ham o'tarkan, gado ham. Bu aylanuvchi charxpalak dunyo hech kimga vafo qilmas ekan. Ota-ona bolam derkan, bola bola-chaqam derkan. Bu hol Odam Atodan meros ekan. Chunki Odam Atoning ham, momo Havoning ham ota-onasi bo'lmagan. Bizda tamom boshqacha holat, biz hammani o'ylaymiz.

*Biz o'ylaymiz hamma haqida,
Qayg'uramiz omma haqida,
Ota-ona, bolamizni ham,
Tog'a, jiyani, holamizni ham
O'ylagaymiz to bor tanda jon,
Chunki bizlar insonmiz, inson.*

To'y-ma'raka bizsiz o'tmaydi. Inson to'qlikni ham ko'tarolmaydi, yo'qlikni ham. Tinim bilmay ishlab, o'tib ketarkanmiz, gohida beiz, goh iz qoldirib. Yegan ham, yemagan ham; degan ham, demagan ham dunyoga ustun bo'lmas ekan. Lekin kim elni o'ylab yashasa, nomi o'chmas ekan.

*Bo'lmasa ham olamga ustun
Kim yashasa el-yurt uchun,
Odamlarga rizq bersa agar,
Bahra olib yashasa bashar,
Misli umri boqiy Yakkatut,
Bo'lmas ekan nomi hech unut.*

O'n ikkinchi rivoyat o'zbeklarning Yakkatutga o'xshashligi haqida. Bosh ko'tarsa, hech bo'lmaganda sallasi ketgan, ne-ne og'ir damlarga guvoh bu xalq.

To'kin bog'ga yaqinlasholmay, erkin yasholmay, bir jonzotday zo'rga kun ko'rib yashagan millat bu. Kaltaklanib, kaltaklanib, Haqdan panoh so'rab, qo'llari bog'lanib, dillari dog'lanib yashagan. Puch va'dalar berib, mevalari terib ketilgan. Erk-u- o'zlikka umid qilib, bo'ronlarda egilmay, boshini mag'rur tutgan o'zbek bu.

Tanasida o'qlar izi bor,

Xun bag'rida do'qlar izi bor –

Yurak-bag'ri qon bo'lib ketgan,

Dunyo bo'ylab sochilib ketgan,

Tun o'tib, tong otib nihoyat,

O'zligini topdi nihoyat.

O'zbeklarga o'xshar Yakkatut,

Yashnagan va yashnar Yakkatut!

Xotima:

Xullas, do'stlar! Bizning Yakkatut

Bo'lsin sizlar uchun ham pakka tut.

O'zbek xalq og'zaki ijodida latifa janri ham keng tarqalgan. Uch-to'rt kishi to'plangan joyda, albatta, latifa aytish boshlanadi. Turli qochirim gaplar bilan insonlardagi noto'g'ri xatti-harakatlar ustidan kulishgan. Yoki vaziyatdan mohirona chiqishgan. Latifalarda o'zbek xalqini milliy qahramoni afandi obrazi qatnashadi. Afandi o'zining hozirjavobligi, uddaburonligi va adolatliligi bilan mashhur obraz. Ziyoviddin Mansurning dostonlarida latifalardan ham foydalanilgan. Masalan: "Istiqbol yo'li" dostonida.

Sodda Afandisi gap

Gapirganda, yorab!

G'ussalarni qilgan daf

Shunday handondir o'zbek:

Keksa bir afandi shunday debdi: – kuchim yoshlarday o'sha-o'sha. Qirchillama qirq yoshimda hech tolmasdim, lekin bir tegirmontoshni sira siljitolmasdim. Hozir sakson yoshda bo'lsam ham, hamon yoshman. Bunda isbot o'sha tegirmontoshni hamon siljitolmayman.

„Ayolning qirq joni tavsifi” dostoni rivoyat shaklida yozilgan.

Xalqimizda ibratli hikmatli so'zlar ko'p. ularning zamirida ulkan tajriba, pand-nasihati yotadi. Dono xalqimizda, ayolning qirq joni bor, degan naql bor. Bu naqlning tagida ayol zoti ham ona, ham ayol, ham singil, ham farzand, ham kelin, ham oshpaz, ham farrosh, ham ustoz, ham advokat kabi vazifalarni beminnat bajaruvchi kuchli matonat egasiligi yotadi.

Bir zamonlar xudo borliqda dunyoni yaratibdi. Unga chiroy bo'lsin deb Odam Atoni yaratibdi. Tanho Odam Ato turib, yurib, o'tirib oxir zerikibdi. Shunda egam

Odam Atoni juftlash uchun chap qovurg'asidan Momo Havoni yaratibdi. Nimaga chap qovurg'asidan, qoyil Egam, axir chap qovurg'a yurakka yaqinda. Qovurg'adan yaratganning o'zi yetarli emas edi. Shunda Egam bir chiroyli oyjamolni yaratay deb, sayqallash uchun qirq unsur qo'shibdi. Dastlab oyda ko'rk-tarovatni olibdi. Keyin quyoshdan otash-haroratni olibdi. Arshdan sarishtalikni, farishtadan farishtalikni olibdi. Tog'lardan bardoshni olibdi:

Olib yuksak tog'lar bardoshin,

Bermish unda qanoat qilib.

So'ng boshiga palaxmon toshin

Baxsh aylamish saodat qilib.

Shoir shu joyda qiz bola palaxmon toshim – qayerga tushsa, o'sha joyda palak otadi, degan naqldan mohirona foydalangan.

Haq chamandan xush bo'yni va chiroyni olibdi. Shu ikkisi bilan ayol to'lin oydek bo'libdi. So'ngra asalaridan bol olibdi va ayol boldek shirin bo'libdi. Bol deb yeb qo'ymasinlar deb, tiliga picha zahar surtib qo'yibdilar. Vasliga to'ymasin deb ishq degan gavhar qo'shibdi. Arzchi, rashkchi bo'lsin deb chayondan nish olibdi, echkidan javrashni, ilondan avrashni olib qo'shibdi. Yuksaklarga uchgan burgutdan tirnoqlarini olibdi.

Shoyad oltin etsa, deb mamnun,

Uzuk taqmish barmoqlariga.

Qadrin yana oshirmoq uchun

Baldoq ilmish quloqlariga.

Qarang, ayol zoti oltin-tillaga o'chligi, bezaklar uni befarq qolmasligini chiroyli usulda ta'riflangan. Yana kerakli joyda sherday kuchli va qo'rqmas, o'zi esa quyonday muloyim va qo'rqqoq. Bu ayollarning asosiy hislati. Chunki yaqinlari uchun, farzandi uchun jonidan ham kechadi, lekin o'ziga kelganda zaifadir. Dostonda uning bu hislatlarini sher va quyondan olingan deyiladi. Vafodorlik, beozorlik va ohuday xurkaklik yana bir fazilatlaridan biri.

Itidan olmish vafodorlikni,

Hurkaklikni ohudan olmish.

Musichadan beozorlikni,

Tishlarini dur-injudan olmish.

Yanog'ini loladan, qirmiz dudog'ini, g'unchada, qovog'ini egiz bodomdan olib ayolni gulbadan qilibdi. Iqbolida timsol bo'lsin deb, baxtida qulochi yetmasin deb otning yolidan taqimini o'padigan soch sovg'a qilibdi. Ko'zlariga munchoq qadabdi. Lablariga gilos surkabdi. Borliqdagi eng muattar iforni va qumri, bulbuldan ohangdor kuylar beribdi. Kamalakdan rang olib, jilo va jannat gullaridan chiroy beribdi.

Manglayida porlatgich nurni

Ayol yashnab, tovlanmish yal-yal.

Qalbga jo etgan susurni

Yana ham u bo'lmish mukammal.

Xullas, voqif bo'ldingiz sirdan,

Asli eng zo'r mo'jiza bu ish –

Ozmas, ko'pmas qirq unsurдан

Ayolning qirq joni yaralmish.

Shu joyda shoir ajoyib bir o'xshatish qilgan: bolday shirin va zaharday achchiq. Ayol mukammal zot, lekin afsus bir holat bor, deydi. Salgina zavq, salgina xatar bor. Biriga bol ko'proq, biriga zahar ko'proq qo'shilib qolibdi. Shirinlari shirindan-shirin, achchiqlari achchiqda-achchiq.

Yana bir gap: asli xotindan qo'rqmas erkak borligi gumon. O'ylab ko'ring, bitta jon qirq jonni yenga oladimi. Yaratgan Egam dono ayolga vafoni, nodoniga jafoni berdi. Yana iltifot qilib, o'g'il-qizlar yaratmoq baxtini berdi.

Havoyilik bo'lmish shundan zeb,

Shundan ismi atalmish Havo.

Xalqda doimo erkak oilaning boshi bo'lsa, xotin bo'yni degan naql ko'p ishlatiladi. Ayollarga oqilalik va farosatlilik berilgan. Aytishadiku, erni er qilgan ham xotin, qaro yer qilgan ham.

Havo ko'rkini ko'riboq Odam,

Yoniga chorlab bir imo qilmish.

Momo Havo eshilib shinam,

– O'zing kel! – deb tamanno qilmish.

– Kel-e! – deya do'q urganda-ku,

Kelardi u – turgandi zo'rg'a.

Odam Ato do'q urmabdi-yu

Chopib bormish misoli yo'rg'a.

Shoir kitobxonga ayollarni qanchalik mukammalligi, uning qancha kuchga egaligini, uni olloh bekamu-ko'st yaratganligini juda muvofiq keluvchi o'xshatishlar bilan ta'riflagan. Ayolarga tan bermoqlik, uni asrab-avaylash bizda Odam Atodan meros demoqchi bo'ladi.

Ko'rinadiki, xalq og'zaki ijodiga xos ruhiyatni yozma adabiyotga kirib kelishi birinchidan ko'p asrlik tajribalarga murojaat sifatida ko'rinsa, ikkinchidan ijodkorning badiiy mahoratini belgilab beruvchi omil sifatida ham yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyovuddin Mansur, To'tiyo, Toshkent, „Sharq“ – 2008
2. Ziyovuddin Mansur, Quyosh hayqiriqlari, Toshkent, „Sharq“ – 2019
3. Erkin Xudoyberdiyev, Adabiyotshunoslikka kirish, Toshkent, „Sharq“ – 2008
4. To'xta Boboyev, Adabiyotshunoslikka asoslari, Toshkent, „o'zbekiston“ – 2002

“BOQIY DARBADAR” ROMANIDA MIFOLOGIK MODEL

Aliyeva Dilshoda,

Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

E-mail: aliyevadilshoda3@gmail.com

Tel: [\(99\)312 76 51](tel:(99)3127651)

Annotatsiya. Insoniyat aqli, tafakkuri mifdan, mifologik olamdan ajdodlarning ilk xayoliy dunyosidan qanchalik uzoqlashib, taraqqiyot zinalaridan ko'tarilgani sari bu mavzu ham yanada qizg'inroq tus oldi. XX asr jahon ilg'or adabiyotining yirik namunalari bo'lmish "Uliss", "Sehrli tog'", "Doktor Faust", "Qo'rg'on", "Jarayon", "Vabo", "Pedro paroma", "Yolg'izlikning yuz yili", "Sartoris", "G'azab va shovqin" kabi asarlar mif adabiyotdagi yangilanishni, uning imkoniyatlarini kengaytirish, yangi mavqega ko'tarishi mifsiz, afsonalarsiz sodir bo'lmasligi ayon bo'ldi.

Kalit so'z. Mif, afsona, rivoyat, qahramonlar, xulq-atvor, g'oyalar, yangilik, olam, tasavvur, falsafiy mulohaza, adabiyot.

Abstract. The more the mind and thinking of mankind moved away from the myth, the mythological world, the first imaginary world of the ancestors, and the higher the ladder of development, the more intense this topic became. "Ulysses", "Magic Mountain", "Doctor Faust", "Kurgon", "Process", "Plague", "Pedro Ferry", "Yolg", which are major examples of advanced world literature of the 20th century. It became clear that works such as "one hundred years of trail", "Sartoris", "Anger and noise" can not take place without myth, without legends, the renewal of myth literature, expansion of its possibilities, promotion to a new position.

Key word Myth, legend, narrative, characters, behavior, ideas, news, universe, imagination, philosophical reasoning, literature.

Mustaqillik davri o'zbek nasrida Isajon Sulton ijodi alohida o'rin tutadi. Xususan, adibning "Boqiy darbadar" romani badiiy-g'oyaviy, ifodalilik jihatidan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu romanda butun insoniyatga xos bo'lgan azaliy muammolar Sharq va G'arb estetik tafakkur an'alarining sintezi sifatida yangi yo'nalishlarda o'zining badiiy yechimini topadi.

Bugun dunyo tez o'zgarmoqda. Garchi yangi davr texnologik taraqqiyotning yuqori darajasini ifodalasa-da, insoniyat uchun boshqa minglab muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Global isish natijasida ekologiya har yili o'zgarib, o'simlik va hayvonot dunyosiga zarar etkazmoqda. Siyosiy va ijtimoiy sharoitlar keskin, demokratiya inqirozga yuz tutdi. Yadro quroli tahdidi kundan kunga kuchayib bormoqda... Xo'sh, qanday qilib bunday og'ir vaziyatda yashash mumkin? Ushbu muammolar uchun maxsus echim bormi? Isajon Sulton romanlarida bu savollarga javob topishga harakat qiladi. Zamonaviy global dunyoda u insonga yo'l ko'rsatishga, uning hayotiy maqsadlari va vazifalarini eslatishga harakat qiladi. Shu ma'noda yozuvchi o'z romanlarida Olam va inson munosabatlarining yangi modelini, yangi tushunchasini taqdim etadi. Aslida Isajon Sulton ijodining o'ziga xosligi, nasrimizga kiritgan yangiligi ham shunda.

G'arbda genetiklar manqurtlarni - barcha ishlarni so'zsiz bajara oladigan sun'iy odamlarni yaratishga va klonlashga harakat qilmoqdalar. Dunyoning har bir mamlakatidagi ruhoniylar va fazilatli odamlar bunday kashfiyotlarni eng keskin tarzda qoralaydilar. Iste'dodli adib Isajon Sulton o'zining "Boqiy darbadar" romanida insoniyat tarixi va hayotning manguligi, harakati "hech narsa va faqat hech narsa"ga aylangan odamlarning "abadiy darbadar" deb talqin etilishi haqida yozadi. Muallif bu orqali o'quvchi ongi va ongiga milliy va umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan masala dunyoda hamma narsaning abadiy emasligi, balki iymon va insoniylik, vatanga muhabbat va tuyg'u, muhimligini anglatmoqchi. insonning e'tiqodi vatansiz bo'lmasligi haqiqatdir. Jahon mumtoz adabiyotida "abadiy darbadar" mavzusidagi bir qancha yetuk roman, qissa va ertaklar mavjud. Jumladan, ingliz yozuvchisi Sharl Metyurenning "Darvoza qo'riqchisi Melmot", fransuz yozuvchisi Yejen Seunning "Agasfer" va Luis Borxesning "O'lmas odam" qissasi kitobxonlarga yaxshi tanish. Iso Masih va Pontiy Pilat hikoyasi bilan bog'liq bo'lgan ushbu sayohat mavzusi Mixail Bulgakovning "Usta va Margarita" romanida va Chingiz Aytmatovning "Kunda" ("Plaxa") asarlarida qisman eslatib o'tilgan. Gap shundaki, 1-asrda Rim imperiyasining mustamlakasi bo'lgan yahudiylar yurti Yahudiyada Rim prokurori Pontiy Pilat nasroniy payg'ambar Iso Masihni o'g'ri va qaroqchilar bilan birga xalqni gijgijlagani uchun xochga mixlagan, dinga shubha qilgan. Rimliklarni va yangi dinni chaqirdi. Shafqatsiz Rim soqchilari Isoni va boshqa yuzlab mahbuslarni Go'lgota tepaligiga - jazo joyiga olib boradilar. Jazirama issiqda mahbuslar xochlarni o'zlari ko'tarishlari kerak. Iso Masih yo'lda charchab, yahudiylarning uyi oldidagi skameykada qisqa vaqt o'tirishga ruxsat so'raganida, uy egasi uni ichkariga kiritmadi: "Ketmang!" u aytdi. Shunda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam u kishiga: "Sen ham kun oxirigacha yur!" dedilar. - U namoz o'qiydi. U kishi abadiy Darbadarga aylanadi. Isajon Sulton romanida olim butun dunyo bo'ylab Dominionni abadiylashtirish uchun G'arbdagi maxfiy ilm markazlarida sun'iy odam yaratadi. Komil aqlli o'lmas inson bu dunyoni o'z aql-zakovati va laboratoriyalarda klonlash bilan yaratgan Xudoning qudratini Xudoga gunoh sifatida anglab yetadi, yovuz kashfiyotchilardan qochib, abadiy mahbusga aylanadi. Asarda muallif komil sun'iy shaxsning ixtirochilarga murojaati orqali insoniyat taqdiri haqidagi fikrlarini ifodalaydi. Romanda sun'iy ravishda kashf etilgan Komil inson ilmiy markazdan qochmasdan oldin sun'iy odamlar tomonidan bunday kashfiyotlar yaratilishini qoralab, buning sabablarini ko'rsatadi: Muallif ushbu maktubda duo yoki ogohlantirish ruhida o'quvchilarga ma'lumot beradi. koinot va odamlarning yaratilish maqsadi va muallif tog' va g'orda yolg'iz. U "Boqiy darbadar" yashayotgan keksa avliyoning huzuriga qanday kelib, unga mo'jiza ko'rsataman, agar bo'lmasa, o'ldiraman, deb qo'rqitganini tasvirlaydi. Bizningcha, muallif bu yerda olamdagi

hayotning sirli hodisalari haqida o'ta teran falsafiy fikrlar bildirar ekan, shu o'rinda kichik bir e'tirozga ham yo'l ochadi. Iso Masih ikki ming yil davomida o'limsiz yashagan Darbadar yo'lida duch kelgan avliyoni "o'ldirish" bilan tahdid qilishi mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Voqea va xarakter mantiqiga ko'ra, avliyo Darbadar avliyoga hurmat bilan murojaat qilishi, uning taqdiri haqida savollar berishi tabiiy va mantiqiy bo'lar edi. Yozuvchi ikki marta o'ylamay, ko'pchilikka tushunarli tarzda Yaratganning buyuk aql-zakovati va cheksiz qudratiga avliyoning tili bilan javob qaytaradi: "- Agar siz o'zingiz dunyoda nima istayotganingizni bilmasangiz, men, bir bechora banda qayerdan bilishim mumkin, - deydi avliyo. - Qarang, dunyodagi hamma narsa mukammal tartibda harakat qiladi.

Bahorda yerdan turli o'simliklar unib chiqadi... Bulutlar ko'p o'simliklarning unib chiqishi uchun zarur bo'lgan suv va yomg'irni olib kelganda, hatto ularning kuchini ko'rib hayron bo'lasiz, yoki eski yerni... o'g'it bo'lishi uchun. boshqa joy... bo'ronlar esadi, suv toshqinlari oqadi... Quyosh kerakli darajada qizisa, daraxtlar va o'tlarni changlatish uchun shuncha asalari va hasharotlar kerak bo'ladi va u ko'proq to'planib boradi, davosi bo'lsa, va bularning barchasini ishlatib, hech qanday natija bermasangiz... buning ustiga yana bir mo'jiza so'rasangiz. ». Avliyoning bu Purmana javobi oxir-oqibat barcha odamlar uchun savolga aylanadi. Darhaqiqat, koinot hayotida son-sanoqsiz mo'jizalar mavjud: simsiz radioaloqa, yer yo'ldoshlari, kvazar to'lqinlari tufayli millionlab televizor ekranlarida bir xil tasvir va vaziyatlarning paydo bo'lishi, televizor ekranlarida istalgan videokanalga o'tish imkoniyati. Qanotlardan kelib chiqqan shamol, samolyotlarning quvvati turbinalari, og'irligi tonnalab bo'lgan temir samolyotlar, havoda uchayotgan samolyotlar, inson ruhiy olamining sirlari... Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" romani hajman unchalik katta emas, chuqur va universal g'oyalar, fikrlar va qarashlar, tasavvurlar berilgan rasmning kichik maydonida. , unda adibning bilimdonligi, din va ilmlarni chuqur bilishi seziladi. O'lis tarixiy o'tmishdan yaqin kelajakka qadar bo'lgan abadiy, bepoyon davrlarni o'z ichiga olgan fikr, g'oya va tushunchalarning ko'pligi tufayli roman syujeti tabiiy ravishda parchalanib, uzilib qolgan. Roman mazmuniga ko'ra, ba'zi asosiy g'oya va hodisalarning manbai "Injil"ning "Injil" qismiga, bir qismi Mixail Bulgakovning "Usta va Margarita" sig'a, yana bir qismi Chingiz Aytmatovning "Kunda" romaniga taalluqlidir." (yoki "Qatl"). Tasvirlangan voqealar bilan hamohang. Hozir ham bu ikki buyuk adibning ijodiy ta'siri Isojon Sulon ijodida seziladi. "Boqiy darbadar" romani boshida muallif shunday deydi. Rim imperiyasining zulmkor quroli, insoniyat tarixidagi yovuzlik timsoli – o'lim armiyasi haqida roman syujetidagi voqealarni harakatga keltiradi: "Odamlar "Maks" deb ataydigan o'lim qo'shini bugun odamni o'ziga oladi. kim qatl etilyapti Ismi odamlarda qo'rquv va dahshat uyg'otadigan bu askarlar, ularni ota-onasi ham,

qarindoshlari ham bilmaydi, go'dakdek qarindoshlaridan tortib, noma'lum joylarga - cho'lga olib ketiladi.. Ko'p dahshatli gaplar bo'ldi. -bir-dan uzoqroqda." Dastlab, hikoyada o'lim qo'shini bir kishini (Iso Masih) emas, balki yuzlab asirlarni Go'lgotaga haydab yubordi. Muallif bu muqaddimada o'ziga xos badiiy tafsilot – mahkumning boshiga soya solayotgan oq bulut tasvirini – tabarruk zotning qatl qilinayotgan payg'ambarligini yetkazish uchun bergan. Bu badiiy tafsilot Chingiz Aytmatovning "Asr kuni" romaniga kiritilmagan, keyinchalik alohida nashr etilgan "Chingizxon boshi uzra ok bulut" qissasini eslatadi. (Aslida oq bulut zolim Chingizxon ustida emas, armiyada bir qizni sevib, u bilan oila qurgan va shu "gunoh"i uchun egilib, ikki shoxini sindirgan mazlum askarning boshi ustidadir.). Bu badiiy tafsilot "Boqi darbadar" romanida o'zini oqlaydi, payg'ambarning boshlariga soya soladi.

"Boqiy darbadar" romani muqaddimasida Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ramziy qora chumchuqlar galasi tasvirlangan yana bir muhim badiiy tafsilot borki, "Oyning o'n uchinchi kuni, ya'ni juma kuni uchadigan qora chumchuqlar, aslida, odamga yuk olib keladi.Dahshatli va shafqatsiz la'nat. ». Muallif asarining qahramonlari jismoniy va aqliy qobiliyatiga ega bo'lmagan ko'r yahudiy, avval tegirmonchi, keyin boshqalarga qarz beruvchi sudxo'r, so'ngra etikdo'z va ikkitadan ortiq yashirin ilmiy markazda ajoyib olimlar tomonidan kashf etilgan qudratli sun'iy dahodir. Ming yil o'tgach, ularning taqdirlarida o'xshashlikni ko'radi. Biroq, sun'iy va qudratli inson taqdirlarini Iso Masih mehnat paytida la'natlagan abadiy Darbadar bilan solishtirish u qadar oqlanmaydi. Falsafiy jihatdan bu o'xshashlik ham katta farqni bildiradi. Isajon Sulton asarida Muborak kishi ismli shaxsning la'natiga uchragan va u dunyoning oxirigacha o'lmasdan sayr qilgan darbadar va olimlar yaratgan daholar sun'iy ravishda egallagan kuch va aql-zakovatga ega bo'lgan dahodir. jamiyatdan, to'g'rirog'i, yovuz siyosatchilardan qochgan, abadiy darbadar bo'lgan – boshqacha. Qadimgi Abadiy Darbadar unchalik qo'pol va shafqatsiz odam emas edi. U shafqatsiz rimliklar tomonidan qiynoqqa solinib yoki o'ldirilishidan qo'rqib, o'zini zolim qilib ko'rsatadi. Iso Masihning o'limidan oldin uning xalqi hech kimga, na yahudiyga, na rimga rahm qilmas edi. Sababi ularda mehr-shafqat yo'qligida emas, balki totalitar tuzum o'rnatgan rimliklarning zulmidan qo'rqish ularning qalbi va ongini qamrab olgani uchundir. Ikki ming yil o'tib, Boqiy Darbadar yovuz maqsad va vazifalar unga ishonib topshirilganidan norozi. Muallif sun'iy insonni yaratishda olimlar qanday maqsadlarni ko'zlashlarini ilmiy asosli yo'l bilan tushuntirib beradi: "Avvalida na otasi, na onasi, na vatani, na millati, na birodarlari bo'lgan shunday komil maxluqlar (ota-onasiz, vatansiz). ,fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni mukammal deb ta'riflash qanday bo'lar edi? Ommaviy ko'paytirishni boshlash orqali xavfli hududlarda, minalarda, hayot uchun xavfli joylarda, vulqonlar tubida va suv ostida (bunday joylarda mavjudotlar emas, faqat robotlar omon qolishi

mumkin, boshqacha qilib aytganda, haqiqiy odamlardan foydalanish mumkin bo'lmagan hollarda qo'llash kerak. Ularning ijtimoiy nafaqa olish huquqi yo'qligini ta'kidlash uchun (bu ibora o'zbek tilida chiqmagan, hatto nom berish ham ko'zda tutilmagan, uni raqamlar bilan ifodalash kifoya edi. "Isajon Sulton kelganida, yovuzlik jinoyatchilarga katta pul evaziga xizmat qilayotgan olimlarning sinov ob'ektlarini raqamlar bilan belgilab qo'yishi fashistlarning Osventsim va Daxau kabi konslagerlardagi mahbuslarni nomerlash orqali ataylab xo'rlashiga o'xshaydi. Qamoqxonalarda ota va onadan tug'ilgan sun'iy maxluqlar esa Bunday tajribalar muvaffaqiyatli yakunlangandan so'ng nomi, tili, qadriyati va - yo'q boshqa irq. millatiga mansub, ammo jismoniy va ruhiy jihatdan oddiy odamlardan ko'p marta ustun bo'lishi kutilgan edi! Dunyo olimlarining fikriga ko'ra, Yerda III jahon urushini keltirib chiqaradigan juda ko'p yadro qurollari mavjudki, ular o'n yoki sayyoramizni portlatib yuborishi mumkin. yigirma marta yo'q qilish. Sovuq urush tufayli taraqqiyparvar, tinchliksevar davlatlar va tajovuzkor mamlakatlar o'rtasidagi qarama-qarshilik, ommaviy qirg'in qurollari tobora ko'proq kashf qilinmoqda.

G'arb siyosatchilari allaqachon turklar va kurdlar, arablar va eronliklar, sunniylar va shialar o'rtasida to'qnashuv va janjallarni keltirib chiqarmoqda, bir-biri bilan urushib, ularni qurol-yarog' va giyohvand moddalar bilan ta'minlamoqda. Ana shunday shaytoniy maqsadlarda harakat qilayotgan maxfiy kuchlar, giyohvandlik va josuslik faoliyati bilan dunyoga hukmronlik qilishga urinayotgan qora kuchlarning turli millatlarni bir-biriga qarshi gijgijlashi natijasida yuzaga kelgan fojialar turk seriali "Qashqirlar vodiysi"da yaqqol tasvirlangan. G'arbliklarning odamni sun'iy klonlash sohasidagi faoliyati ham ana shunday yovuz maqsadlarga xizmat qiladi. Isajon Sulton "Boqiy darbadar" romanida ilm-fan dahosi Ziyoy va uning o'g'li (muallif negadir ism qo'ymagan) o'ylari, kechinmalari o'rtasida vorislik borligini, komil insonlar dunyoga kelishini ko'rsatmoqchi bo'ladi. Komillardan Inson – genetik-irsiy qonun. O'zbekistonda yashovchi Ziyoga o'g'lining elektron pochtasida ifodalangan chuqur falsafiy fikrlar, sharqona ruhdagi otaga muhabbat va hurmat, ilohiy olam sirlari haqidagi fikrlar, Uning o'g'lining maktubini qo'shib bo'lmadi, unga individual, shaxsiy, jonli chehra berilmagani ham ajablanarli, uning fe'l-atvori, fe'l-atvorini tanib olsa bo'ladimi?

Balki o'g'il otasining nafis, go'zal odoblar doirasida sun'iy komil inson yaratish borasidagi buyuk kashfiyotiga norozilik bildirar va uning ilohiy hikmatiga murojaat qiladi? Mashhur olimlar konferensiyasida roman muallifi genetika asoschilari Beruniy va fransuz olimi haqida so'z yuritar ekan, tinglovchilarni o'zbekistonlik zohir olim Ziyoy bilan tanishtirar ekan, gen to'plamining eng qulay birikmalaridan birini topib olganini aytadi. O'quvchilar genetika va vazn ortishi o'rtasida bog'liqlik borligiga ishonishmaydi. Chunki bunday munosabatning mavjudligi romanda

mantiqiy va ilmiy jihatdan asoslanmagan. Osiyo cho'llarida topilgan uzoq umr ko'radigan toshbaqaning genetik yadrolari va avstraliyalik kaltakesak genlaridan sun'iy mukammal inson yaratish uchun foydalanish haqidagi ma'lumotlar ham asossiz. Biz Gerbert Uells va boshqa yozuvchilarning asarlarida o'qiganmiz, kelajakda g'ayritabiiy insonlar xameleyon kabi rangini o'zgartirib, ko'rinmas shaxsga aylanadi. G.Uellsning "Doktor Moro oroli" asari ham, Aleksandr Belyaevning romanlarida ham yuksak badiiy qobiliyatga ega bo'lgan yangi turdagi mavjudotlarni yaratishning ayanchli oqibatlari ko'rsatilgan. "Boqiy darbadar" romanida biz detektivni ijobiy ma'noda, zukko syujet she'riyati va falsafiy teranligini tan olsak, jahon tarixi va falsafasining munozarali taqdimotiga, boshqa ma'lumotlarga ham duch kelamiz.

"Boqiy darbadar" romani adibning ijodiy salohiyatini, o'ziga xos yo'nalishini tom ma'noda belgilab berdi. Mutaxassislar asarni o'zbek romanidagi yangi hodisa sifatida baholadilar. "Abadiy darbadar" ramziy-falsafiy roman bo'lib, muallif tubsizlikka yaqinlashib kelayotgan zamonaviy dunyoning global muammolari va insoniyatning mudhish taqdirini atigi 80 betlik asarga jamlashga muvaffaq bo'ldi. Yozuvchiga shunday keng mavzuni kichik asarga sig'dirishda postmodernizm yo'nalishi juda foydali. Bu haqda adabiyotshunos D.Quronov yozadi: "Boqiy darbadar"da an'anaviy dostonga xos bo'lgan voqea-syujetli syujet o'rniga yuzaki, turli o'rin va zamonlarda, ba'zan reallikda bog'liq bo'lmagan voqealar tasvirlangan. Ba'zan xayolda. – hayot mazmuni va insoniyat taqdiri haqida fikr yurituvchi, ularni birlashtirgan, yagona bir butun – romanga aylantirgan muallif shaxsi..." D.Quronovning yuqoridagi ta'rifiga ko'ra, biz shunday qilishimiz mumkin: postmodernizm yo'nalishi romanga kuchli ta'sir ko'rsatgan, shuning uchun postmodernizmning asosiy tamoyili dunyoni turli bo'laklarda tasvirlashga urinish hisoblangan.

"Baki darbadar" romani Ketar yo'lida adashgan insoniyat taqdiri haqida hikoya qiladi, u yerda hayot ma'nosini izlayotgan qahramonlar to'rdek tutashgan o'nlab yo'llarni bosib o'tadi. So'zma-so'z "Men kimman?", "Mening ismim nima?" Bu savollar atrofida qurilganga o'xshaydi. Oxir-oqibat, o'yindagi har bir qahramon ushbu savollarga javob topishga harakat qiladi. Yozuvchi insoniyatning asta-sekin tanazzulga uchrashining sababini o'zlarining eski qadriyatlarini va e'tiqodlarini e'tiborsiz qoldirib, Robbiysini tark etishida ko'radi. U asarning bosh qahramonlaridan biri – etikdo'zni misol qilib olishga harakat qiladi. Asarning badiiy kontseptsiyasida etikdo'z tom ma'noda butun insoniyat ramzidir. Axir, bundan ming yillar avval bu etikdo'z qo'lini ko'tarib, Yaratganning suyukli bandasini la'natlagan ekan. Shu kundan boshlab, bu la'natlangan odam chalkash dunyoning abadiy azobchisiga aylanadi. U o'z taqdirini biladi, lekin u erga borish yo'lini bilmaydi. Bani Bashar har

kuni mavhum ko'chalarni kattalashtirish va xiralashtirish bilan shug'ullanadi. U bu safarda maqsadini butkul yo'qotadi... Xo'sh, baxt maqsadi sari yo'lda adashib qolmaslik uchun nima qilishi kerak? Muallif bu savolga professor Ziyo o'g'li misolida javob berishga harakat qiladi. O'g'il bola barcha sirlarning yechimini Allohga ishonib, o'zining azaliy taqdiriga tan olishda ko'radi: "Bahaybat kurrayi yer yuzida suzib yurib, qaynoq suvda, ichi bo'sh daraxtlar va hatto toshlarda ham odam bolasi ko'radigan maxluqlarni yaratganida. .. Men o'z haqiqatimni tushunsam va tan olsam... qanday qilib qo'rqmasdan turib olaman? "(2) Uning o'g'li ham uning shaxsiyatini tushunish uchun atrofini tinglashi kerakligini aytadi: .. Bizning muhitimiz piktogramma va belgilar bilan to'la. Har bir o'simlik sizning fikrlaringiz uchun ongning qulog'ida baland ovozda qichqiradi. Toshlardan va barcha tirik mavjudotlardan iymon nolasini eshitish uchun bilim va tafakkur kerak. "Masalan, professorning o'g'li shu fanlarni o'zlashtirib, abadiy qashshoqlik xavfi ostida qolgan odamlar qatoridan chiqib ketishni orzu qiladi: "Endi men bunday baxtsizlarni har bir mamlakatda, dunyoning turli burchaklarida halol va halollar bilan birga ko'raman. Iymonli odamlar. Men bunday qashshoqlikdan qochish yo'llarini izlayapman. O'g'ilning bu so'zlari asarining umumiy xulosasini o'z ichiga olganga o'xshaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Султон И. Асарлар. 1-жилд. Ҳикоялар. - Тошкент: Фафур Фулом, 2017.
2. Хакимов М. Ёзувчи ва халқ тили (Ўзбек совет ёзувчиларининг асарларида макол ва афоризмлар). Тошкент: Фан, 1972. - 176 б.
3. Саримсоков Б. Фольклоризмлар типологияси масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980, 4-сон, 25-34-бетлар.
4. Эшонкул Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадиий талқини. - Тошкент: Фан, 2011.134-б

SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDA OBRAZLARNING TASNIFI

Orzigul Aliyeva,

Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

E-mail: orzigulaliyeva798@gmail.com

Tel(88)196 01 56

Annotatsiya. Badiiy san'atlar she'riy asarlarda ifodalangan g'oyning hayotiy, ta'sirchan chiqishiga, epik, lirik va dramatik asarlarda obrazlarning yorqinroq gavdalantirilishiga, she'rda misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyliigi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: badiiy san'atlar, lirika, epika, drama, istehzo, kinoya, pafos, obraz, misra, band.

Abstract. Fine arts serve to make the idea expressed in poetic works vivid and effective, to embody images in epic, lyrical and dramatic works, to ensure the verbal delicacy, musicality, and attractiveness of verses, stanzas, and clauses in poetry.

Key words: fine arts, lyric, epic, drama, irony, irony, pathos, image, verse, clause.

Badiiy adabiyot obrazli tafakkur hosilasidir. Bu esa voqelik, ijtimoiy turmush, inson, uning qalbi, o'y-maqsadlari, ruhiyati haqida o'ziga xos tarzda badiiy vosita va usullar bilan fikrlash demakdir. Badiiy adabiyot dastlab alohida kishilar tomonidan yaratilib, sayqallanib borgan xalq og'zaki ijodi namunalari sifatida paydo bo'lgan. Yozuv kashf etilganidan buyon esa yozma adabiyot shaklida taraqqiy etib keladi. Inson har doim ongi va ma'naviyatini takomillashtirishga intiladi. Shu ma'noda, shaxs kamolida, umuman, obrazli tafakkurning o'rne benihoyadir. Lekin obrazli fikrlash faqat badiiy adabiyot uchungina emas, san'atning barcha turlari uchun ham daxldordir. Obrazlilik badiiy adabiyotda so'z, musiqada ohang, rassomchilikda rang-bo'yoq, haykaltaroshlikda tosh, raqsda harakat orqali amalga oshiriladi. Inson ruhini, ma'naviyatini shakllantirishda badiiy adabiyotning alohida o'rne bor. Badiiy adabiyotning bir ko'rinishi bo'lmish she'riyatda obrazlar rang-barang bo'lib, ramziy obrazlar ham ko'p qo'llanadi. Ramziy obrazlarda fikr yashirin bo'lib, shoir bu obrazlar orqali o'z fikrini chuqurroq, tazyiq va ta'qiq bo'lgan zamonlarda o'zini va o'quvchisini himoyalagan holda ifodalay oladi. Shavkat Rahmon ham "O'tkan kunlar"ni o'qigani uchun qatag'on qilingan insonlarning bolalari ko'rgan azoblarga guvoh bo'lib, bu haqda kitoblardan o'qib she'riyatga kirib keldi. U ijod qilayotganida ham sho'ro hukumatining o'z Vatani erkini istagan ellarga, ularning erkparvar shoirlariga qilichi qayralgan holda turgan edi. Shoirimiz bejizga "egilgan boshni qilich kessa, kessin", – degani yo'q. "Ramz" arabcha so'z bo'lib, "imo, ishora, imlash" ma'nolarini anglatadi. Ramz asosida yuzaga kelgan, ramziylik kasb etgan obraz ramziy obraz deyiladi. Ramziy obraz fikrni oshkora aytolmaslik zaruratidan dunyoga keladi. Tabiatning bir jihati: o'simlikdir, qushlardir, jonivordir, jonsiz narsadir, qat'iy nazar, yashirin ma'no kasb etsa, o'zi tashiydigan tabiiy ma'nosidan o'zga yashirin ma'noni anglatrsa, ramziy obrazga aylanadi. Dunyo she'riyatida,

jumladan, o'zbek she'riyatida ramziy obraz yaratish an'anasi keng tarqalgan. Bu an'ana she'riyatdagi sirlilikni oshirish, ayni damda, fikrni yashirish maqsadida yuzaga kelgan va doimiy tarzda davom etib keladi. Xazonga aylandi kunlarim... Motamda turganday boqaman. Fasllar to'qnashgan lahzada Xazonlar to'pini yoqaman, Ko'zlarim achishar, bexosdan Yuragim, qo'llarim titraydi. Alanga olmaydi kunlarim, Tutaydi, oh, buncha tutaydi. She'rga sarlavha qilib "Lahza" so'zi qo'yilmagan bo'lsa, unda lahza obrazi borligini anglash qiyin. Lahza obrazga aylanishi mumkinmi?! Ha, shu she'rda obrazga aylangan. Ammo shoirning mahoratini qarangi, obraz nomi she'rda bir bor tilga olingan. "Xazonga aylandi kunlarim" satri umr haqida fikr yuritilayotganini anglatadi. Lirik qahramon "Fasllar to'qnashgan lahzada" xazonlarni yoqadi. Bu o'rinda fasl ham oddiy fasl emas, umr fasli. Demak fasl ham ramziylik kasb etgan. Ammo ramziylik kuchaytirilmasa, unga g'oya tashish vazifasi yuklanmasa, ramziy obraz darajasiga ko'tarilmay ramziy ma'noligicha qolib ketadi. She'rda tutayotgan xazon – lahza. Kunlar – lahzalar yig'indisi. Shoir lahza ramziy obrazi orqali imkonsizlik g'oyasini ifodalaydi. Xazon havo yetmasa gurillab yonmay, tutab turadi. Lirik qahramonning umri ham, har bir lahzasi erkin nafas olishning iloji yo'qligidan burqsidi. Ana shu fikrga ishora qilish uchun tutayotgan lahza ramziy obrazi yaratilgan. She'r erk mavzusini ifoda etmoqda. Adabiyotda g'oya mavzu va obraz ko'magida aytiladi, aslida. Ko'rinadiki, ishda mavzu haqida yozganda obraz bilan bog'liq fikrlar keltirildi. Aksincha, obraz borasida fikr borganda mavzuga to'xtalib o'tilgan o'rinlar bor. Chunki bu ikki tushuncha bir-biriga chambarchas bog'liq. Mavzu bilan bog'liq faslda tahlilga tortilgan she'rning boshqa bandini ramziy obraz haqida fikr yuritganda yana qayta tahlilga tortmoqdamiz: Xotiramdan chiqmaydi dushman, Har zarbadan g'oyo barq urar. Potirlaydi bag'rimda qushday Ildizlari qirqilgan yurak... ("Saylanma", 72-bet) "Mavzu" nomli she'rning bu bandida ramziy obraz qo'llangan: yurak obrazi. "Yurak" so'zi obrazga aylanmasdi, agarki "Ildizlari qirqilgan yurak" tarzida qo'llanmasa. Shoir yurakni daraxt tarzida gavdalantiradi. She'r boshida bolta ramziy obrazi berilgan, bu obraz sho'ro davlati ramzini o'zida mujassam etgan. Bolta yurakning ildizlarini qirqqan. U "Potirlaydi bag'rimda qushday" deydi shoir. Demak jon berayotgan yurak timsoli. Shoir bu ramziy obrazlar orqali erksizlikni, Vatani dushman qo'lida ekanini ayta olgan. Bunday holatda ramziy obrazlar fikr aytishning eng qulay yo'idir. Shoir eng zarur gapni ayta olgan ham, Cho'lponlar fojiasidan saboq olgan shoir o'zini sho'ro davlati tazyiqidan himoya qila olgan ham. Asli ramziy obraz fikrni yashirin ifodalash, ayni damda, qiziqarli, betakror tarzda tasvirlash imkoniyatidir. Ramziy ifoda bor, ramziy obraz bor. Bular bir-birini yuzaga keltiradigan, ammo ayri tushunchalar. Shu sababdan duch kelgan she'rda ramziy obraz uchrayvermaydi. Ramziy obraz yaratish uchun fikrni yashirib ifodalash

mahorati bo'lishi kerak. Shavkat Rahmonning, to'g'rirog'i, uning avlodining yuki og'ir edi. U insoniy dard og'irligidan davralarga sig'may ketardi. Shoir "Davra" she'rida yozdi: Goho o'tmish, goh kelajakka yo'l-yo'lakay kirib chiqishar, hal qilishar olam taqdirin, kimni qo'yib, kimni yiqishar. og'izlarda bulutday ko'pik, yuzlari oq, ichlari – qora, qizig'i, bu zotlar qaylarda kimlarnidir qilar idora ("Abadiyat oralab", 184-bet). She'r majoz ko'magida, shoirona tasavvur bilan inson qiyofasida yurganlarning bari ham odam bo'lolmasligini betakror bir tarzda ifoda etadi. Shoir davrada o'tirganlarning oyog'i «tuyoq chovut shakliga kira boshlaganini» aks ettirish bilan maqsadini ta'kidlaydi: Birida mol, birida eshak, bittasida to'ng'iz tuyog'i, bo'ri panja o'sar birida, boshqasida tulki oyog'i...("Abadiyat oralab", 184-bet) Shoir davradagi birgina odamning oyog'i o'zgarmaganini, odam oyog'ini bu davradan olib ketganini aks ettirish bilan she'rga yakun yasaydi. She'rxon odam qiyofasidagi mol, eshak, to'ng'iz, bo'ri, tulkibasharalar davrasidan ehtiyotlanishi zarurligi haqida o'ylab qoladi. Umuman, shoirning har bir she'ri kitobxonni o'yga toldiradi, fikrini charxlaydi, dil ko'zini ochadi, o'zligini anglashga da'vat qiladi. Shoir hatto tushida ham erkin uxlay olmaydigan zamonda insonning "baxtiyor va jim uxlayotganini" tasvirlar ekan, shu satrlar orqali ham insoniyat dardlarini aks ettiradi. Shavkat Rahmon "Avaylab bag'riga bosyapti balkim O'ngida parvosiz bosgan gullarni" der ekan, inson butkul yovuzlashib ketmaganini, o'zi insondan hali ezgulik kutayotganini ifodalaydi. Ammo bu odam dunyoning ikkiga ajratilishini, urushlarni ko'rgan. Faqat hech bo'lmasa uyqusida shu fojialarni unutmogda. Shoir falsafaga yo'g'rilgan satrlarini tizadi: Unutgan temurlar, napoleonlarni, U bilmas nimadir jang-u jadal, harb. Batamom unutgan faryod, qonlarni, Uning xayolida yo'qdir Sharq-u G'arb. Barcha razolatlarni ustida, Barcha qabohatlar ustida, Barcha jarohatlar ustida Odam uxlayapti, Odam! ("Abadiyat oralab", 29-bet) Demak, inson razolatlarni, qabohatlarni, jarohatlarni yelkalab asrlar oshib kelmoqda. Shoir shularni ta'kidlash uchun uyqu obrazini yaratadi. Shoir she'rlarini o'qiganda uning maqsadi, ilgari surgan go'yasi, she'ning mavzusini darrov anglash qiyin. Chunki Shavkat Rahmon satrarida ham botiniy, ham zohiriy ma'no mujassam. Shunday she'rlaridan biri "Nodiraning she'ri"dir. 382 Hatto bolalarga bag'ishlangan she'ri ham soddagina tasvirga ulug' xulosalarni mujassam etadi. "Nodiraning she'ri"da shahar jonlantiriladi: Biror balo bo'lganmi, yo jonidan to'yganmi? yo kechagi bayramda ko'proq ichib qo'yganmi? Katta shahar haliyam yotar edi so'ljayib. Etib keldi Quyoshboy, Qarab turdi iljayib ("Abadiyat oralab", 187-bet). Bola she'rxon shahar obraziga nisbatan salbiy bir hissiyotlarni his qiladi. Chunki katta shahar uyqudan so'kinib bosh ko'taradi, uyqudan uyg'ongan shahar "moshinalarini yurgizadi", undan "suronlar qo'zg'aladi". Shoir oddiy manzara ko'magida zarur bir fikrni ifoda etadi: Shaharni uyqudan uyg'otib bilgan "yashil,sariq qushchalar" Mag'rib tomon

uchadilar: Ular peshvoz borishar qancha-qancha saharga. Ko'p edi-da dunyoda uxlayotgan shaharlar... Bu she'rda shahar obrazi ramziy ma'no tashigan. Aslida shaharlar emas, shaharliklar g'aflat uyqusida. Ramziy obraz haqida fikr yuritganda, aytish kerakki, shoir ijodidagi birgina ramziy obraz orqali ham maqsadni bayon qilish mumkin. Shu ma'noda, biz Shavkat Rahmon ijodida eng ko'p uchraydigan tog' obrazi orqali fikrlarimizni aytmoqchimiz. Dunyo she'riyatida tog' obraziga ko'p bor murojaat qilinadi. Tadqiqotchi D.Mingboyeva tog' obrazining badiiy adabiyotdagi mazmun-mohiyatiga berilgan tavsiflarni keltiradi. Uch jihatiga e'tiboringizni tortishni istadik: "...Tog' yuksalish g'oyasining mujassamidir", "Tog'larga sig'inishning ruhiy ildizlari ularning osmonga yaqinligi", "She'riyatda tog' ba'zan mag'rur va sabotli odam obrazi bo'lib keladi". Darhaqiqat, dunyo she'riyati tog' obraziga ko'proq shu uch jihatdan kelib chiqib yondashadi. O'zbek folklorida ham, yozma she'riyatida ham tog' obrazi alohida o'rin tutadi. Bu borada Shavkat Rahmon she'riyati misolida fikr yuritishni maqsad qildik. Shavkat Rahmon she'riyati betakrorligi, o'ziga xosligi bilan o'zbek she'riyatida alohida o'rin tutadi. Adabiyotshunos Bahodir Karim shoir she'riyatini tadqiq qilar ekan, shunday yozadi: "Nazarimda, shoir esini taniganidanoq tog'ga nazari tushgan, tog' bilan yurgan, tog' bilan nafas olgan... Shu ruhiy asos uning she'rlariga ko'chib, badiiy libos kiygan va jonli tog'lar obrazi tug'ilgan". She'riyatimizda cho'ng qoyaga monand shoir tog' obrazini yaratganda qaysi jihatlarni ifodaladi, degan savol muhim: Ammo sezar har bir sharpani Bo'lsa hamki xoblari hadsiz. O'z tinchini buzgan yovlarni O'ldiradi tog'lar shafqatsiz. Shoir tog' obrazini yaratadi. Majoziy ma'no kasb etmaganday go'yo, go'yo haqiqiy tog', tabiat qo'ynida saltanat to'kib turgan tog' obrazini yaratadi. Tog'lardagi ulug'vorlik, salobatni aks ettirib turgan bu misralardagi har bir fikr o'z asosiga ega. Tog' obraziga salbiylik ma'nosini yuklab, tog'larning shafqatsizligini, mag'rur, fe'li yomonligini ta'kidlab turib, tabiiy hodisadan foydalanib, maqsadini anglatadi. Tog'da noo'rin baqirsang, u ham shoir aytganidek, "bo'kiradi". Akssado kuchidan tog' ko'chishi mumkin. Bu tabiiy hodisa. Ammo shoir tabiiy hodisadan foydalanib, ijtimoiy voqelikni beradi: Ishonmasang, o'q otib ko'rgin – Bo'kirvorar sanoqsiz qoya, O'ta mag'rur, fe'li ko'p yomon, Tog'lar o'zin sevar bag'oyat. Ehtiyot bo'l bunda yurganda, Buyukman deb xomxayol surma. Miltiq otish u yoqda tursin, Ovozingni ko'tara ko'rma. Shoirning maqsadi tog' misol ulug' xalqini bezovta qilmoqchi bo'ladiganlarga "miltiq otish tugul, ovozingni ko'tara ko'rma", – deb ta'kidlash, xalq tinchini buzgan yovlarni o'lim kutishini baralla aytishdir. Shavkat Rahmon pastgina tovush ham aks-sado sababli juda baland eshivilishini ajoyib tasvirlaydi. Lekin ijodkor bu holni "o'ta mag'rur, fe'li ko'p yomon" tog'larning o'zini bag'oyat sevishi natijasi deb ko'rsatadi. Bu misralar tagzaminida insoniy fazilatlariga da'vat, chaqiriq yotadi. Manmanlik, kibr faqat tog'larga xos, tog'largagina yarashadi demoqchi shoir.

Inson esa asli tuproqdan yaratilgan. Shuning uchun ham insonning bezagi – kamtarlik. Kibr hech qachon unga bezak bo'lolmaydi, degan fikr ushbu misralar mag'ziga singdirilgan. Shavkat Rahmon she'rlarida tog' tabiat hodisasi ekani, goh insonlarga qudratini namoyish qilishi, g'oh tog'day odamlar borligini, ijtimoiy masalalarni ham jonsiz tabiat orqali ochib berish mahorati kuzatiladi. Shoir bevosita tabiat hodisalari orqali ham insoniyat yuragining tub-tubidagi yaralarni ochib tashlaydi. Shoirning "Tog' o'tirar vodiya tanho" deya boshlangan she'rida ham aynan shu holatning guvohi bo'lishimiz mumkin: Uzoq yurdim keksa tog' sari, Goh odimlab, gohida chopdim. Nuragan tosh, qoya tagidan Go'yoki tog' ko'zlarin topdim. Shoir tog'ni jonlantiradi. Tashxis shoirga nafaqat she'r badiyatini oshirish imkonini beradi, balki dardini oshkor qilishga ko'maklashadi: Suylaganday bo'lar edi tog', Tushunmasdim ammo so'zlarin. Qanday g'amgin edi bu ko'zlar, Qanday yig'lar edi ko'zlari!.. 1980-yilda yozilgan bu she'r jasoratli shoir qalamiga mansub edi. She'rxon 384 ko'z o'ngida tog'ning ko'z yoshlari – tog'dan erib oqayotgan qorli suvlar namoyon bo'ladi. Shoirning mahorati hayratli. Ham tabiat tasvirini mohirlik bilan bermoqda, ham kitobxonni o'ylashga majbur qilmoqda: nega tog'ning ko'zlari g'amgin?! Javob she'rning o'zida yashirin: "qovjiragan sariq adirlar", "yurtim deb o'lgan pahlavonlar yotgan qabrlar", "nuragan tosh, qoya" satrlari tog'ning nega yig'layotganini izohlaydi. Haqiqiy nazm nafaqat ruhiy zavqni, balki keng dunyoqarash va kuchli bilimni ham talab etadi. Aks holda bunday she'riyat mukammallik sifatidan yiroq bo'ladi. Ijodkor o'z tashbehlarining tabiiyligini, hayotiyiligini ta'minlamoqchi bo'lsa, kuzatuvchan, tafakkur doirasi keng bo'lishi lozim. Shundagina u yaratgan misralar yolg'ondan yiroq, o'qiganda o'quvchining ensasini qotirmaydigan bo'ladi. Yuqoridagi "Tog' o'tirar vodiya tanho" deya boshlangan she'ridan olingan misralarda ham xuddi shunaqa bilimdonlikni, keng tafakkur mahsulini sezish qiyin emas. Shoir tabiat hodisalari mohiyatini o'xshatishlarida ustalik bilan qo'llaydiki, sherxon har bir misrada mantiqiy asos borligiga guvoh bo'lishi tayin. E'tibor qiling, tog'lar tepasidagi qorlarning erishi – tog'larning ko'z yoshlariga monand. Tashbeh va tashxis shoir maqsadi ifodasi uchun libos bo'lgan. Shoirning Sulaymontog' bilan bog'liq "Sulaymontog'da o'ylaganlarim", "Sulaymontog' etagida o'ylaganlarim" she'rlarida o'tkir ijtimoiy dard, turkiylar iztiroblari oshkor berilgan. Shoirning hajv tig'i juda keskir. Sulaymon tog' qullasida Sutlon Mahmudxon qurdirgan hujrani buzdiganlar o'tkir konyak ichib, qazi yegan to'ralar ekaniga ishora qilib, ta'kidlaydi: "E, afsus, shular ham xalqmi?" demadim. O'yladim yuksakka chiqqan chog'imda o'z zotin, o'z otin unutganlarni, qadimiy buloqlar ko'zini ko'mib, azim daryolarni quritganlarni. O'lsam-da yodimdan chiqmaydi biri: Kibr-u havo bilan pastni kuzatib, buzdirib tashladi yarim kechasi to'rt yuz-u oltmish yil turgan hujrani ("Abadiyat oralab", 82-bet). Shoir hujra o'zga

xalqning buyru`gi, o`z to`ralarimiz ijrosi bilan buzilganini o`ksib, g`azabga to`lib ayta bilgan. Bunday kirdikorlar tunda bo`lishini, ijrochilar xalq g`azabidan qo`rqishlarini ifodalash orqali xalqni g`aflatdan uyg`onishga unday olgan. Shavkat Rahmon – hujra voqeasi ko`magida manqurtlarga qarshi keskin jangga chiqqan shoir. She`rning 1983-yilda yozilgani shunday deyishimizga asosdir. “Damim”, “damin” so`zlarini qo`llar ekan, shoir tajnis san`atini yuzaga keltiradi. “Lahza” va “nafas” ma`nolarida qo`llangan so`z yordamida shoir “Men baqirsam, har lahzada olamning nafasini to`zitib yuboraman”, – deydi. Shoir mubolag`aning g`uluvv ko`rinishidan foydalanib, shoirlilik qudratini eslatadi: Agar men baqirsam, yorilar osmon – 385 har damim olamning damin to`zitar. Shunday qudratli shoirning boshi egik, chunki u hujrani qutqarib qololmadi, elning qadriyatini toptaganlarni o`z vaqtida to`xtatib qolishga ulgurmadi: Ammo Baroko`hda boshim egildi, qarashga or qildim elning ko`ziga. Ey mirzo, boshimni qandoq ko`taray?! Ey mirzo, egikdir mirzolar boshi – ko`tarib bo`lmaydi oyoq tagida bo`lsa-da bahaybat tog`larning toshi. She`r yakuni juda zarbli. Nido san`ati orqali mirzolariga – temuriylarga murojaat qilayotgan shoir bugunning mirzolari boshi o`z ma`nosida ham, ko`chma ma`noda ham egik ekanini ayta olgan. “Oyoq tagidagi bahaybat tog`larning toshi” o`z va ko`chma ma`nosida ham o`zini oqlay olgan. Inson bahaybat toshlar ustida tursa, o`zini qudratli his qiladi, bahaybat toshlar savlati uning ruhiyatiga ta`sir qiladi. Ayni damda, bizning xalq misoli tog`, uning cho`ng qoya misol allomalari bor, ular marhum bo`lsalar-da, tarix oldida haybatlidirlar. She`r tahlilidan shu narsa oydinlashadiki, shoir insoniyat muammolarini tog` obrazi vositasida ochib beradi. Bu hol kutilgandan-da a`lo natija bergan. She`rning badiiyati esa shoirdagi tafakkur olamining naqadar cheksiz ekanligidan nishona. She`rda har bir fikr yakunlanmas ekan, jumlar kichik harf bilan berilaveradi. Yangi fikr bosh harf bilan boshlanadi. Shoir til qoidalarini fikr yaxlitligiga moslab, she`r shaklida o`ziga xoslikni yuzaga keltiradi. Shaklda betakrorlik bu bilan tugamaydi. Barmoq vaznidagi she`rni shoir erkin vazn shakliga keltiradi. Bundan muddao – zarur fikrlarni, xulosalarni ta`kidlash, ajratib ko`rsatish. Shakl ko`magida mohiyat chuqurlashgani shoirning mahorati demakdir. “Sulaymontog` etagida o`ylaganlarim” she`rida ikki davr, ikki xil toifa qiyosi bor. Shoirning fikricha, diyonatli, orli ajdodlar, allomalar, jahongirlar, shoirlar Sulaymontog` poyida ko`milishni orzu qilganlar. Bugun: Sulaymontog` yuksalib turar bir elatning buyuk yodiday, hayron bo`lib poyiga bugun kelguvchilar e`tiqodidan (“Abadiyat oralab”, 191-bet). Ajdodlarimiz tog`ni ziyorat qilgan bo`lsalar, bugunning takabbur ziyoratchilari toshlarga nomlarini yo`zib, go`yo otlarini abadiylashtirmoqdalar. Shoir e`tiqodsizlikni qoralaydi va bu manzara orqali davron fojialarini ko`rsatadi: Sulaymontog`, muqaddas yodim, ko`rsam yurak-bag`rimni dog`lar. Betayinlar nomin ko`tarib soat sayin o`sar qoyalar. 386 Tog`

obrazi tabiat uzvi sifatida tasvirlanganda ramziy obraz sanalmaydi. Ammo ramziy ma'no tashiy oladi. Shavkat Rahmon she'riyatida o'z ma'nosidagi tog` obrazi ham, ramziylik kasb etgan ramziy obraz sifatidagi tog` obrazi ham mavjud. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Shavkat Rahmon she'riyatida tog` obrazi ramziy obraz sifatida tabiatning mahobatli in'ikosi, ulug` va og'riqli tariximiz guvohi, ajdodlar yodi timsoli, or-nomusimiz posboni sifatida o'z yelkasida zalvorli yuk, adabiy ma'nolarni tashiydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul abror. MAT. Yigirma jildlik Yettinchi tom. – Toshkent: Fan, 1991. – B.61-62.
2. Shavkat Rahmon. Uyg'oq tog'lar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 1986. – B. 47.
3. Shavkat Rahmon. Saylanma. – Toshkent: Sharq NMK, 1997. – 384 b.
4. Shavkat Rahmon. Abadiyat oralab. – Toshkent: Movarounnahr, 2012. – 384 b

HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYATIDA IJROVIY LIRIKA

Berdievva Dilnavoz Orif qizi,

Qarshi davlat universiteti tadqiqotchi

Tel: 912221865

Annontatsiya. Maqolada milliy adabiyotimizda ijroviy lirika haqida to'xtalib, H.Xudoyberdiyeva she'riyatida uning ahamiyati, shoira shaxsiyati va lirik qahramon o'rtasidagi uyg'unlik, tuyg'ular, fikrlarning rost kuylanganligi, tasviriylik, badiiy maqsadni ayta olishda, lirik "men"ni ifodalashda ijroviy lirikadan foydalanish mahorati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ijroviy lirika, shoir shaxsiyati, lirik qahramon qarashlari, lirik kechinma, lirik subyekt, badiiy maqsad, tuyg'u va hislar uyg'unligi.

Annotation. In our national literature, the article talks about performance lyrics, H.Khudoyberdiyeva's poetry reveals her importance, the harmony between the poet's personality and the lyrical hero, the truthfulness of feelings, thoughts, the expressiveness of the image, the skill of using a performance lyric in the ability to say an artistic goal, to express a lyrical "I".

Keywords: performance lyricism, poet personality, lyrical hero's views, lyrical accompaniment, lyrical subject, artistic purpose, harmony of feelings and feeling.

O'zbek adabiyotida she'riyat taraqqiy etgani sari uning ijroviy lirika, personajli lirika, voqeband lirika kabi bir qancha turlari paydo bo'lganini kuzatish mumkin. She'riyatning bu turlari ichida o'zbek she'riyatida eng keng tarqalgani ijroviy va voqeband lirikadir. "...lirik kechinma o'zga shaxs tilidan ifoda etiluvchi she'r. Ya'ni bunda shoir go'yo o'zga shaxsiga evriladi, uning "roli"ini ijro qiladi, natijada, ijroviy lirika qahramoni lirik kechinmaning yagona subyekt bo'lib qoladi. Ijroviy lirikaning ildizlari kurtak holda xalq og'zaki ijodida (masalan, kelin tilidan, yetim tilidan, ho'kiz tilidan), mumtoz she'riyatimizda kuzatilsa-da, uning keng ommalashishi XX asrga to'g'ri keladi". [Куронов Д. 1:110-bet]

Shoir shaxsiyati va lirik qahramon qarashlari bir-biriga uyg'un bo'lmagan she'rlar ijroviy lirikadir. Yangi o'zbek adabiyoti bu davr mobaynida o'z boshidan ham shakliy, ham mazmuniy taraqqiyot davrini bosib o'tdi va lirik turga yangi janrlar kirib keldi. She'riyatda ifoda uslubi, mazmun talqinlari, lirik qahramonning she'rdagi o'rni, real tasvirlarlarda ifodalana boshladi. Natijada, xuddi shunday xususiyatlarga ega bo'lga ijroviy lirika keng yoyila boshladi.

Ijroviy lirikada shoir tanlangan lirik qahramonning qiyofasiga kirib, kitobxonga uning pafosini yetkazadi. Bunday she'rlardagi lirik qahramon, asosan, real shaxs ya'ni tarixiy yoki biror mashhur asar qahramonlari yoki kinoqahramon bo'lishi mumkin. Odatda, ijroviy lirika janridagi she'rlarning sarlavhasi, sarlavha ostidagi izohi yoki epigraflarda kechinma egasiga ishora qilinadi. Aytish mumkinki, ijroviy lirika birinchi shaxs tomonidan aytiladigan lirik hikoya bo'lib, she'r muallifi o'zi istagan uslub va tilda o'z fikrini o'zga shaxs tilidan ifoda etadi. Bunday matnlarning, she'rlarning ko'pchiligida shoir shaxsi va xarakteristikasi asosiy maqsad o'laroq

kiritiladi, shuningdek, shoir kechinmalar egasiga hamdard bo'lgan, fikrdosh bo'lgan holda uning xatti-harakatlarini, haq-huquqlarini himoya qiladi, hech bo'lmaganda, u tomon bo'lib, uning tilida o'z so'zini aytadi. Lirikaning bu turi ayollar she'riyatida, ayniqsa, Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida alohidalik kasb etadi. Quyida H.Xudoyberdiyevaning ijroviy lirika janridagi she'rini keltiramiz:

Hayotingdan balki beiz ketgaydir,
 Dushman yozsa, yozsin xato yozsa gar.
 Har harf yuragingni teshib o'tgaydir,
 Xato yozmasinlar o'zingnikilar.
 Qish qahriga olsa, bahor kelmasdan
 Senga hukmi – qatli kun kelsa agar.
 Dushman bossa, bossin bilib-bilmasdan
 Muhr bosmasinlar o'zingnikilar.
 Men sig'magan hayot- gulgun, bardavom,
 Bo'g'zimdan bo'g'ilib so'nggi sas kelar.
 Dushman ossa, ossin johil-u avom

Mendek osmasinlar o'zingnikilar . [Худойбердиева Х. 2:57]

H. Xudoyberdiyevaning 1993-yilda nashr yetilgan "Bu kunlarga yetganlar bor" kitobidan olingan ushbu she'r sarlavhasi "Nodirayi Davronning so'nggi she'ri"dir. 1987-yilda yozilgan mazkur she'rdagi lirik qahramon shoirning "men"i emas, XIX asrda yashab ijod qilagan, 30 yoshida Nasrulloxon tomonidan o'limga hukm qilingan o'zbek adabiyotining sevimli shoirasi Nodirabegimdir. Bunday turdagi she'rlarda she'r matnida lirik qahramon aynan shoir "men"i bo'lmasa-da, tanlangan subyekt nutqidan u gapiradi, umuman olganda, shoira Nodirayi Davron qiyofasida, tilida o'z qarashlarini oshkor etadi. XX asrda shoirlar bu lirikadan faol foydalanishdi. So'z va fikr erkinligi bo'lmagan bu davrda ular, boshqa bir davrda, boshqa bir yerda turib tarixiy shaxslar tilidan o'z fikrlarini bayon qildilar. Bunday ijod namunalarini jadidlarda ko'plab uchratish mumkin. Shuningdek, bu janrda ifodalangan fikrning estetik ta'sirchanligi, badiiyati ham boshqa turdagi she'rlardan ancha yuqoridir. H.Xudoyberdiyeva ham jamiyatdagi tubanliklar haqidagi fikr va qarashlarini o'z tilidan emas, balki ijtimoiy-siyosiy hayotning aybsiz qurboni bo'lgan boshqa bir ayol shoira tilidan ifoda etishni lozim topadi. She'rning mazmunidan anglashiladiki, Nodirayi Davron o'zining o'lim hukmi o'ziniki tomonidan emas, dushman tomonidan amalga oshirilganidan, o'z taqdiridan rozi bo'lib shunday yozadi: "Dushman ossa, ossin johil-u avom, Mendek osmasinlar o'zingnikilar". Shoira bu she'rda XX asrda o'z xalqi, millati tomonidan sotilgan va qatl etilgan bir qancha ziyoli vakillarni nazarda tutadi. Bu ikki ayanchli qismatni qay biri daxshatli, qay biri shafqatsizligini shoira Nodirabegim tilidan bayon qiladi. Hali batamom mustaqillikka

erishilmagan bu davrda oshkora so'zlash kutilmagan muammolarga, dilozorliklarga sabab bo'lishi mumkin edi. Shuning uchun ham shoira o'zi yashagan davrdagi tubanlik, sotqinliklarga boshqa bir davrda yashab o'tgan ayol shoira tilidan ifoda qildi. Shoira XX asrda o'z millatining qo'li bilan tutib berilgan, qatlga hukm qilingan siyosat va jamiyat qurbonlarining qismatini Nodirayi Davronning alamli qismatidan ham ayanchliroq ekanligini ifodalagan.

Bugungi kun haqiqati shundayki, bu davrning tuban va sotqin kimsalarini hech kimsa eslamasa-da, johil tuzumning qurboni bo'lgan bu insonlarni hech kim unutmaydi. Quyidagi she'rning mazmuni aynan shunday:

Hamma unutganida ham
Yerlar, ko'klar unutmaydi.
Ochganimiz ko'zlardagi
Qorachiqlar unutmaydi.
Siylasa-da she'r, shon-u shahd,
Goh keldi baxt,
Goh ketdi baxt.
Tik tashlandik. Mo'ljalga naqd
Tekkan o'qlar unutmaydi. [Худойбердиева Х. 2: 249]

Ushbu Usmon Nosir tilidan aytilgan she'r 1997-yilda yozilgan bo'lib, 2001-yilda chop etilgan "Saylanma" to'plamiga kiritilgan. Usmon Nosirning "Unutmas meni bog'im" misrasi epigraf sifatida olingan. She'rning bu turda yozilganligi, ya'ni Vatan, millat erk va ozodlik yo'lida jonlarini fido qilganlar tilidan bayon etilganligi estetik ta'sirchanligini yanada oshirgan, betakror ifoda baxsh etgan. Go'yoki o'quvchi shahid ketgan erkparvarlar bilan gaplashayotgandek his qilib o'qiydi bu she'rni.

"Ochganimiz ko'zlardagi qorachiqlar unutmaydi",-deya yozar ekan, o'zini tanigan, tarixini anglagan kelajak avlodlarni nazarda tutadi. Shuningdek, o'z davrida qanchadan qancha yoshlarni savodli qildilar, ko'zin ochdilar, ularni sergak va uyg'oq turmoqqa o'rgatdilar – ana o'shalar va ularning avlodlari-da unutmaydi. "Tik tashlandik. Mo'ljalga naqd Tekkan o'qlar unutmaydi",- deya yozar ekan, "mo'ljalga tekkan o'qlar" deya millatni uyg'otish va savodli qilish yo'lidagi sa'y-harakatlarini, bu maqsad bilan yaratgan asarlari kabi bir qancha yaxshilik yo'lida millat manfaati uchun amalga oshirgan ishlarini nazarda tutadi.

Garchand edik joni qillar,
Janggohlarda bo'ldik fillar,
Erk yo'lida qolgan qullar,
Qolgan cho'g'lar unutmaydi.
To'fonlarida isinib,
Bol deb ichdik qor, muzini,

O'pdik. Labimiz izini

Turkiy tug'lar unutmaydi! [Худойбердиева Х. 2:249]

“Garchand edik joni qillar, Janggohlarda bo'ldik fillar”, haqiqatan ham, ular tahlikali bir davrda o'z jonlarin xatarga qo'yib, janggohdagi fillar kabi hech narsadan chekinmasdan olg'a harakat etdilar. Bu siymolarning barchasini joni qil ustida bo'lsa-da, maqsadlaridan ortga chekinmadi va bu maqsad yo'lida o'zlarini fido qilib, “Erk yo'lida qolgan qullar”ga evriladilar. Ammo o'zlari kulga aylangan bo'lsalar-da, bular yoqib ketgan olovning hali-hanuz so'nmagan cho'g'lari – izdoshlari borki, ular zinhor unutmaydi.

Keyingi banddagi misralar mazmuni ayon. Bu she'rda ko'zda tutilgan fikrlar barchasi jadidlar tilidan aytilsa ham, aslida, H.Xudoyberdiyevaning ko'ngil satrlari, bundagi har bir so'z shoiraning yuragidan sizilib chiqqandir, she'r butunligicha shoiraning ko'ngil kechinmalari va ruhiyat tasvirlaridir. Shoiraning “Yo'ldadirman” she'ri ham ayni shu janrda yozilgan. Ammo bu she'rda romantik tuyg'u va kechinmalar ustuvordir. Ammo bu she'rda lirik qahramon tuyg'ulari bilan asosiy subyektning izhorlari birlashib ketganini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Куронов Д. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2013. 110-бет.
2. Худойбердиева Х. Сайланма. III жилдик. Биринчи жилд. Гафур Ғулом номидаги НМИУ, – Тошкент. 2018. 57-249-бет.
3. www.library.uz
4. www.ziyouz.com

“BOBURIYNOMA” MA’RIFIY ROMANIDA MUALLIF MUNOSABATI

G’ofurova Shahnoza Alimovna,

O‘z R F A O‘zbek tili , adabiyoti va folklori instituti 2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotida fenemon darajasiga chiqqan mumtoz ijodkorlardan biri , shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayot yo‘liga bag‘ishlangan , mustaqillik yillarida yozilgan eng yaxshi ma’rifiy romanlardan biri haqida mulohazalar qilinadi . Asar muallifi Xayriddin Sultonning “ Boburiynoma ” ma’rifiy romanida yoritilgan ekspeditsiya voqealarida ilgari surilgan g’oya va muallif pozitsiyasi nafaqat adibni , yoki adabiyotshunos olimni xayratlantiradi balki , ozgina bo‘lsada kitobga mehri bo‘lgan kitobxonni ham befarq qoldirmaydi .

Kalit so‘zlar : Boburiynoma , ma’rifiy roman , ekspeditsiya , Ka’batulloh , o‘lkashunos , diplomatik aloqalar , mustaqillik yillari , Zahiriddin Muhammad Bobur, ekspeditsiya .

Аннотация: в данной статье на уровень явления в узбекской классической литературе речь пойдет об одном из лучших просветительских романов, написанных в годы независимости, посвященном жизненному пути одного из авторов-классиков, царя и поэта Захириддина Мухаммада Бабур. Идея и авторская позиция Хайриддина Султана в событиях экспедиции, освещенные в просветительский романе «Бабурийнома», порадуют не только писателя или литературоведа, но и читателя, немного любящего книги.

Ключевые слова: Бабуринама, просветительский роман, экспедиция, Кабатулла, краевед, дипломатические отношения, годы независимости, Захириддин Мухаммад Бабури, экспедиция.

Xayriddin Sultonnong 1997 yil adabiyot maydoniga kirib kelgan “Boburiynoma” ma’rifiy romani o‘z davrida yozilgan eng zalvorli asarlardan biri bo‘lib qoldi . Bu asar faqatgina adabiyot ixlosmandlarinigina emas, tarixchi, o‘lkashunos va siyosatchilarni ham diqqatini cheka bildi. Mustaqillikning ilk odim otgan kunlari xotirasini o‘zida tashigan asar shunisi bilan ham e’tiborliki, bunda birgina Bobur obrazi atrofida ikki davr va shu ikki davrga mansub bo‘lgan qahramonlar , ularning atrofida aylangan ikki davrning farqli va talato‘plarga boy hodisalarining bir yerga jamlanganidir .

Mustaqillik sharofati bilan ulug‘siymolarning o‘rganilishi va yana qaytadan moziydan , bugungi zamonaviy dunyomizdagi farqli o‘rtamga olib kelinishi aytarlicha e’tibor va harakat natijasida amalga oshdi . Bu harakat siyosiy bir jarayon natijasida yana ham kuchaydi .

Sovet sosiolizmi davrida Bobur va uning sulolasi , tuzgan davlatchiligi haqida takrorlanmas asarlar yozgan Pirimqul Qodirovdek ijodkorlarning asarlariga to‘ldirish yoki yangilik kiritish mumkin bo‘lmasada , lekin yangi davr bunday tarixiy shaxslarga yangicha nazar bilan boqa boshladi. Va mana shunday yangi davrda bu talablarga “Labbay” , – deb javob beradigan ijodkorlarga ehtiyoj sezila boshladi . Bunday ijodkorlardan biri Xayriddin Sulton edi .

Mustaqillik davrigacha, talabalik yillarida Bobur haqida bir qancha hikoya va qissalar yozgan adib ilk bor ustoz Primqul Qodirov oldiga borib maslahat so'rganlarini va ustozning yosh adibning tajribasizlik bilan yozganlarini toqat qilib o'qiganini, kamchiliklarini bartaraf etish uchun bir qancha maslahatlar berganini adib, o'zining ma'rifiy romanida iliq bir xotira sifatida eslab o'tadi.

Toshkent 1992 yil 4-aprelda marhum shoir Muhammad Yusuf adibga Andijonda Bobur nomi bilan bog'liq ekspeditsiya tashkil etilayotgani haqida habar beradi va 2 kundan so'ng ekspeditsiya tashkilotchisi geologiya-mineralogiya fanlari nomzodi Zokirjon Mashrabov bilan uchrashib, bu ekspeditsiya a'zosiga aylanadi. Va shunday qilib, "Boburiynoma" ma'rifiy romani yozilishiga sabab bo'ladi. 1992 yil 19 - may kuni ekspeditsiya Andijondan yo'lga chiqadi. Bu voqeani adib o'z asarida "Yo'lbars izidan" sarlavhasi ostida aks ettiradi. Andijondan Bobur bir umr orzu qilgan Samarqand sari oshiqishadi. Bu jumalarni o'qiyotgan zukko kitobxon, bu ekspeditsiyadan maqsad shunchaki, Bobur bosgan yo'llarni bosib o'tish emas, Bobur shaxsini his qilishda ekspeditsiya yo'l xaritasini tuzishida ham Bobur tuyg'ulari, dardlarini hisobga olganini sezadi.

Mazkur rejaga ko'ra Turkmaniston orqali Eronga, so'ng Turkiya, Suriya, Iordaniya Hoshimiylar Qirolligiga, undan Saudiya Arabistoni orqali Birlashgan Arab Amirliqi davlatiga va Fors ko'rfazini kechib Pokiston, Hindiston, Bangladeshga borish, safar nihoyasida Xitoyning Uyg'ur muxtor rayonidan Qirg'izistonga o'tib, yurtimizga qaytib kelish ko'zda tutilgan edi.

Ekspeditsiyaga bo'lgan xayrat va sevgisini muallif asarning kirish qismidanoq Boburga bo'lgan munosabatida yaqqol namoyon etadi. Xuddiki, kitobxonga bu safar oddiy yo'ldan emas, Bobur taqdirini qamrab olgan butun bir xayot "Bobur yo'li" demoqchidek bo'ladi. Bobur yurgan yo'llar, manzillar umumlashtirilsa ulkan bir yo'l, Bobur yo'li paydo bo'ladi. Unda mashaqqatlar, rohatlar, yo'qotishlar, topishlar, hiyonatlar, sadoqatlar, tanazzullar, g'alabalar, niyatlar va maqsadlar bor. Bularni hammasiga muallif o'ziga xos uslubda nigohini qaratadi, hamda mualliflik munosabatini mohirona namoyon etadi.

Bag'oyat mahobatli ulug'vor reja! Boshqacha ham bo'lishi mumkin emas, Bobur izidan yurganlarning niyat va vazifalari ham boburona bo'lishi tabiiy. Ekspeditsiya a'zolarini bu mamlakatlarga boshlagan asosiy sabab shundan iboratki, Bobur Mirzoning buyuk ajdodi Amir Temur yurgan yo'llardan o'tish ham safar rejasida bor edi. Samarqanddan Buxoroga keyin esa qo'shni Turkmanistan orqali Eronga chiqib, mamlakatlar bo'ylab ilmiy sayohat qilish boshlanadi.

Ilmiy ekspeditsiya Erondan chiqib Turkiyaga va undan so'ngra Damashqqa kirib keladi. Suriya hududida bo'lgan vaqtda adib Boburning o'g'illari o'rtasidagi o'zaro

ziddiyatlarni , Kamron Mirzoning dilgir qismatini o'zgacha bir hislar bilan kitobxonga yetkazadi .

Inson taqdiri qanchalar chigal !

Kamron Mirzo dilbar nafas shoir bo'lgan . Uning she'riy navolari aro iztirobli , ziddiyatli bir qalbining armon - afsuslari eshilib turgandek ...

She'r – qalb tarjimoni , deydilar . Bu baxtiqaro insonning kechmishi , dardu fojialari ham she'rlarida shundoqqina mujassam . Uning g'azallaridan birida quyidagicha bir bayt borki , dardu fojialari ham she'rlarida shundoqqina mujassam. Uning g'azallaridan birida quyidagicha bir bayt borki , qachon o'qib qolsam , qattiq mutaassir bo'laman , ko'ziga mil tortilayotgan sho'rlik shoir siymosi ko'z oldimga kelib turadi , – deb yozadi adib .

Barqdek anvori husnung ko'zlarimg'a chaqilib ,

Ko'zdin oqizding ko'ngulni qatra - qatra qon qilib ...”

Bu – shunchaki nazmiy timsol emas . Bu – mohiyat , sargashta vodiya sargardon kezman , adashgan yo'l izlagan , xatolarini tuzatmoq qasdida yana xatolar qilgan inson iztiroblarining moddiy ifodasidir . Qonli fig'on , qonli faryoddur .

Ushbu tasvir , o'xshatishlar bilan voqeani yoritayotgan muallif Kamron Mirzoga hamdard , shoirning iztirobli baxtiqaro qalbi va taqdiriga mutaassir munosabatda bo'ladi .

Bu yanglig' hasratli nolalar , nadomat ohanglari Kamron Mirzoning aksar g'azallariga ham xosdir . Qaysar fe'l – atvori boismi , o'zaro fitnalar boismi , ko'zlaridan judo etilgan shoir ijodida “ ko'z ” , “ nigoh ” , “ yorug'lik ” , “ yig'lamoq ” kabi tushunchalar favqulodda teran va fojeiy ma'no kasb etadi .

Adib nega aynan Damashqda , Arabistonning yerlariga , Makkaga yaqinlashganda bu fojeali taqdirni eslaydi . Chunki , ko'zlariga mil tortilgan Kamron Mirzo Haj safariga jo'natiladi va qaytish vaqtida 1557 yili Arabistonda bu o'tkinchi dunyoni tark etadi . Kamron Mirzo bilan hamkor bo'lgan , ukasi Askariy Mirzo ham Makkaga yuborilib , Hajdan qaytishda Damashq yerlarida vafot etadi . Bu bilan adib nima demoqchi , hayotning o'tkinchiligini ko'rsatmoqchimi yoki , tarixdagi dardlarni va xatolarni xulosalamoqchimi ? Lekin bundan tashqari voqealardagi mashaqqatlarni , dardlarni asarning kompozision butunligi sifatida o'rta chiqarib , kitobxonni ham tarixga , ham ekspeditsiya jarayonlariga yanada bog'lashga , hayratini orttirishga , mulohazalari bilan o'rtoqlashishga chaqirgandek bir tasavvur ham uyg'otadi .

Ka'batullohga yetib kelguncha , turli shahar va qishloqlarni , sodda va bir – biridan farq qiluvchi turmush tarziga ega insonlarni ko'rib ulardan ta'sirlanib , joyiga kelganda mehr berib kitobxonni ham bu olamga olib ketgan adib , endi ularni Boburning tavbasini , gunohlarini pushaymonlik bilan e'tirof etgan bir ilohiy olamga olib boradi. Bu yerdagi kitobxonni e'tiborini tortadigan nozik bir jihat borki , bu

tavba - ekspeditsiya Madina hududida va Makkaga borgan sari yaqinlashganda havola etiladi .

Tavba va g'alaba hodisasi uzviy bog'langan holda adib tomonidan shaxsiy xulosalar bilan ochib berilishga harakat qilinadi . Boburning atrofidagi nosog'lom muhit , chog' ir va ma'junparastlikning barham topishi va Hindistonning zabt etilishi adibni ham ajib bir taasurotlar , hayratlar bilan hayajonga solgani seziladi .

Bu voqea hijriy 933 yili – milodiy 1526 yili sodir bo'ladi . Boburshoh o'sha yili Hindistonni zabt etib , porloq , olamshumul zafar quchdi .

Huddi shu yili u yana bir buyuk g'alabaga erishdi . Bu ulug' zafarning nomi – TAVBAdir . Bobur ayni o'shal fursatda Nafs ustidan buyuk g'alaba qozondi – ichkilik balosini yengdi .

Muallif tarixiy faktlarga ma'suliyat bilan yondashib , tasvir va o'sha shaxs xarakterini yoritishda ortiqcha emotsiyaga , yoki voqealarni xas – po'shlashga urunmaydi . Xaqiqiy ijodkor va avvalambor inson sifatida o'zining ichki kechinmalari , mulohazalarini satrlarda ma'lum qiladi .

2-iyun kuni Madinayi munavvara va Masjidi Nabaviyaga kelishgan tadqiqotchilar qatorida , adibni ham bu yerdagi ilohiyatga va Islom aqidasiiga bo'lgan hayratlar , o'z - o'zidan qalblaridagi bo'shliqni to'ldirganini tasvirlash jarayonida sezishimiz mumkin . Rasulimiz marqadlari va ular oldida berilgan salomlar , al – Baqi' qabristonidagi Uhud tog'i shahidlari , sahobiy va sahobiyalarning haqqiga o'qilgan duolar adib qalbini ajib bir hayajonga solib , kitobxon qalbiga kirib kelayotganini his qilasiz . Madinadan Makkaga qadar bo'lgan masofada , Payg'ambarimiz alayhissalomning shu yo'llarda , goh ilohiy quvonchga to'lib , goh ma'yuslanib necha bor o'tganlarini o'ylab adib o'zidagi g'ayrisha'uriy ravishdagi qalb titroqlarini ifodalashga o'z qoladi .

Adib 6-7 iyun Makkai mukarramada “ Qasri Osim ” mehmonxonasida “Boburnoma” ni o'qib o'tirar ekan , yodiga bundan ikki yil oldin yozgan badiasi “Boburning tushlari” idagi lavhalarni eslaydi . Diqqatingizni tortmoqchi bo'lgan holat shundaki , adib bir vaqtning o'zida 1992 yil yoz kunlari Makkadan , hijriy 906 yil kech kuzak oylari Xuroson yerlariga qaytadi va huddi Boburshohning yonida turgandek , sirli tush ko'rish voqeasi ifodasiga o'tadi . Bu yerdagi vaqt , zamon , makon tushunchalari bilan bog'liq bo'lgan kompozitsion butunlikni mohirlik bilan o'rta chiqaradi .

Adibdagi ayrim qalb mahzunliklarini , xasratlarini va sog'inch ortidan paydo bo'lgan his - tuyg'ularni ham kuzatishimiz mumkin . Makkadagi so'ngi kun Ka'batulloh atrofida 7 marta aylanib “tavofi vido” marosimini qiladi . Va dil – dilidan umid bilan iltijo etib , qayta va qayta kelishini nasib qilishini so'rab duo qiladi . Ko'zlari yoshga to'lib Harami sharif qarshisidan uzoqlashadi . Do'konlardan sovg'a

uchun joynamozi va ro'mollar sotib olib, mehmonxonaga qaytadi. Negadir xomush va ma'yuslik ruhini egallaydi.

Undagi bu ma'yuslik beixtiyor kitobxonga ham ko'chadi va qalbdagi ayriliq dardi, ketmasdanoq sog'inish va yana qaytish umidini yozuvchi bilan birga yashab o'tadi.

Deyarli, butun arab o'lkalarini kezib o'tgan ilmiy – tadqiqot jamoasi sayohat davrida nimalarni ko'rmadi, nimalardan xayratlanmadi, huddi Boburdek yashab, Boburdek his qilishga harakat qilgan ekspeditsiya a'zolari bu holatning oson emasligini o'z tanlarida sezgan bo'lsa ajab emas.

Pokiston, Hindiston va Afg'onistondagi voqealarni yoritishni o'zi aslida yana bitta yangi ekspeditsiyaga mavzu bo'ldi. Bu voqealar ham qanchalik siyosiy- ijtimoiy ahamiyat kasb etishini romanni o'qish jarayonida tushunib boraverasiz. Asarda syujet va kompozitsiya shunchalik ustalik bilan qurilganki, o'sha davrdagi va o'tmishdagi ijtimoiy ongning baravar qo'yilishi syujetni vujudga keltigandek nazarimda.

Ekspeditsiya vaqtida ro'y bergan ilohiy voqealarga ham adib o'zining ijodkorlik nigohi bilan boqadi va Bobur Mirzo bilan yuz bergan hodisalar bilan taqqoslagandek, bulardan ruhiy anglashlar olmoqchidek taassurot uyg'otadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, adib bu ekspeditsiya davomida va romanni yozish jarayonida ruhan yuksaladi va kitobxonga ham bu ne'matni ulashishga harakat qiladi. Asarni o'qish jarayonida voqea va inson xarakterlarining uzviy aloqadorligiga guvoh bo'lamiz. Adibdagi Bobur siymosiga bo'lgan hurmat, muhabbat aralash hayratini romandagi har bir obrazga singdirganday go'yo. Yoki adibning bu siymoga bo'lgan muhabbati xaqqi-hurmati ijodkorning atrofiga Boburga, uning ijod va hayot yo'liga befarq bo'lmagan insonlar yig'ilishi, ekspeditsiya jarayonida duch kelishi xuddi oldindan rejalashtirilgandek ko'rinishi mumkin. Keyin kitobxon, bu voqealar faqat baddiy tasavvurda emas, balki real hayotda bo'layotgani anglab, voqealardagi ilohiy harakatni yana bir bor ichidan his qiladi.

Xayriddin Sulton O'zbekistonning mustaqillikdagi ilk odim otayotgan davrini ma'rifiy romanida ko'rsatib bera oldi. Xalqaro aloqalar va siyosiy munosabatlar, geografiya, xalqlarning yashash tarzi, yo'ldagi hodisalar va boshqa jabhalariga oid ma'lumotlarni berayotganda, Bobur Mirzoning "Boburnoma" si hayolingizga kelaveradi va yana bir bora adibdagi sinchikov nigohga tan berasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Zahiriddin Muhammad Bobur . Boburnoma .
2. P.Samsiyev . Yulduzcha . 1990.
3. Xayriddin Sulton . Boburiynoma ma'rifiy roman . Sharq . Toshkent . 1997 .

ПОЛВОН ОБРАЗИ БАДИЙ КОНЦЕПТ СИФАТИДА

Маҳбуба Исмоналиева,

Андижон давлат университети

таянч докторанти

+ 998 99 407-60-81

Аннотация: Мақолада қадимий кураш санъати асосида шакланган полвонлик қадриятлари ўзбек наصريда полвон образининг фаоллашуви ва айни пайтда ижодкорнинг дунёни бадиий идрок этиши натижасида ҳосил бўлган концептуал бутунлигининг бирлиги – полвон концептининг шаклланиши учун асос эканлиги ҳақида сўз боради. Шунингдек, полвон образида концепт ифодаси қай тариқа амалга оширилиши ҳамда кураш санъати полвоннинг ўзлигини англаши ва полвон концепти ифодаси учун восита эканлиги бир неча асарлар мисолида кўриб чиқилади. Натижада бадиий идрок учун қўйилган муаммолар полвон концепти ифода этаётган қадриятлар асосида талқин қилинганлиги, шунингдек, полвон образи миллий-маданий ва айни чоғда муаллифнинг руҳий-эстетик бирлиги бўлган полвон концептининг ифодачиси эканлиги таъкидланади.

Калит сўзлар: когнитив-концептуал бутунлик, полвонлик қадриятлари, полвон образи, полвон концепти, концепт ифодаси;

Кириш

Бадиий матн адабиётшуносликнинг барча назарий йўналишлари ўз тамойилларидан келиб чиққан ҳолда келтирилувчи хулосаларининг асосидир. Шу ўринда когнитив адабиётшунослик бадиий идрок жараёни шакланувчи ва қабул қилувчи онгда қай тариқа амалга оширилиши ўрганувчи ҳамда асарни когнитив бирлик – концептнинг гносеологик, аксиологик ва онтологик хусусиятлари орқали таҳлил қилувчи соҳадир. Куйида полвон концепти жамиятдаги маънавий-ахлоқий воқеликни англаш воситаси сифатида таҳлил этилади. Шунингдек, қаҳрамоннинг полвон концептини ифодалаши унинг полвонлик қадриятларини англаши билан бирга кечувчи жараён бўлиб, кураш жараёни полвоннинг фақатгина жисмоний кучини баҳолаш эмас, балки унинг маънавий юксалишига сабаб эканлиги ёритилади.

Методлар

Полвон образини бадиий концепт ифодачиси сифатида ўрганишда таснифлаш ва қиёсий таҳлил методларидан фойдаланилди.

Натижа ва муҳокама

Муаллиф онгида ҳосил бўлган когнитив-концептуал бутунликнинг бирликлари концептлар бўлса, образ асарда уларни ифодаловчи воситалар эканлиги, концепт ифодаси қаҳрамоннинг характери, ҳаракатлари ва тақдирига таъсир этиши, шунингдек, ижодкор асар концепциясидан образлар томон ҳаракатланса, китобхон образлар орқали муаллифнинг бадиий ҳукми томон бориши айтиб ўтилди. Шу билан бирга, концептлар асосан абстракт отлар шаклида воқеланади, аммо миллат тафаккурида маълум бир шахс тимсоли ҳам концепт сифатида қабул қилиниши мумкин ва бундай ҳолатда у ўзида халқнинг қадриятлари ва менталитетига хос хусусиятларни ифода этиб, бадиий тафаккур

тизимда алоҳида ўринга эга бўлади. Бу фикрга асосланиб, ўзбек полвонлари тимсолини ҳам бадиий концепт сифатида таҳлил этиш мумкин чунки полвон концептида мардлик, ҳалоллик, орият, номус каби қадриятлар умумлашади ва бадиий идрок этилади.

Полвон концепти 70-йиллар насрида фаоллаша бошлаган ўзбек полвонлари образининг бадиий асосини ташкил этиб, асрлар мобайнида ўзбек миллий кураши замирида шаклланган полвонлик қадриятларининг бадиий идрок жараёнидаги ифодасидир. Ижодкор миллий-маънавий қадриятларни қайта идрок этиш жараёнида шу қадриятларни ўзида мужассамлаштирган тимсолга мурожат этади ва ушбу жараёнда полвон концепти асар когнитив-концептуал бутунлигининг бирлиги, образлар эса уни ифода этувчи воситалар саналади. Шунингдек, бадиий воқеликдаги қаҳрамон ҳаракатлари ҳам ўзи ифода этаётган концептга монанд тарзда амалга оширилади. Маълумки, миллий тафаккур тизимида полвонлар маънавий-ахлоқий қадриятлар ифодачиси саналиб, бу уларнинг тимсолида когнитив-концептуал бирлик, полвон концептини шакллантирган. Ушбу концепт орқали ифодаланган қадриятларни мавжуд ижтимоий давр воқеликлари билан қиёслаган ҳолатда талқин этиш асар бадиий концепциясига асос бўлиб, бундай қиёслаш икки кўринишда амалга оширилади:

1) полвон концепти полвонлик қадриятларини қайта кўриб чиқишнинг воситасига айланади;

2) полвон концепти мавжуд ижтимоий давр таҳлили учун асос бўлади.

Тасвирнинг бундай турлари бадиий воқеликка асос бўлган ҳаёт материалининг қамровидан келиб чиқиб умумлашиши мумкин, яъни ижодкор полвонлик қадриятлари талқини билан тўғридан-тўғри ижтимоий ҳаёт манзараларига ойна тута олади. Масалан, “Қирқ беш кун” романининг Азизхон ва Эш полвон баҳси тасвирланган воқеаларда полвонлик қадриятларига кенгрок урғу берилса, “Юлдузлар мангу ёнади” ёки “Қуёш ҳали ботмаган” қиссаларида бу қадриятлар маънавий-ахлоқий иллатлар илдизини ёритишга хизмат қилган. “Қирқ беш кун” романида халқнинг иродаси ва қудратини улуғлаш мақсад қилиб олингани ҳолда, Азизхон – Лутфиниса – Акбарали ҳамда Азизхон – Эш полвон воқеалари бунга параллел ҳолда ривожланиб, полвон шахсининг маънавий такомилни ифодаловчи мустақил сюжет чизигини ҳосил қилади. Асосийси эса, полвон образи талқин этилган асарларда миллий-маданий ва айни чоғда муаллифнинг руҳий-эстетик бирлиги бўлган полвон концептини бадиий идрок этиш масаласи туради.

“Қирқ беш кун” романида полвон концепти ифодаси Эш полвон ва Азизхоннинг ҳақиқий полвон сифатида тан олинishi учун бўлган баҳси орқали

таъминланади. Асарда икки қаҳрамоннинг полвонликдаги мақоми турлича бўлиб, Азизхон ҳали элда полвон бўлиб танилмаган ва бунинг учун синовлар қаршисида, Эш полвон эса юрт полвони мақомида бўлса ҳам асл полвонлик моҳиятини англай олмаган ҳолатда тўқнаш келишади. Эш полвоннинг Азизхон билан бўлган орият учун кураши ва бунда бирнинг мағлуб, бирининг эса ғолиб ҳолатдаги пушаймонлиги ҳар икки полвоннинг ҳам маънавий юксалиши томон йўлдир: “Мен ҳеч қачон арзон обрў олишга интилмаганман. Енгилишига кўзим етган полвоннинг белини тутмайман. Чоғим келмайдиган билан беллашаман. Эшитмаганмисан: осилсанг ҳам баланд дорга осил, деган гапди. Сен бошқа, мен бошқа. Сен полвоннинг ҳолдан тойганини қидирасан. Мен кучга тўлганини” [Саид Аҳмад. 4:70]. Эш полвонга танбеҳ сифатида айтилган Али полвон сўзлари қаҳрамонда концепт ифодасида етишмайдиган жиҳатларни очиклайди. Шунингдек, Азизхон куч-қудратда паҳлавон Рустамга тенглаштирилиб (...Роса мақтабди. Рустами дoston депти) канал қурилиши қаҳрамонига айлантирилса-да, роман экспозициясида келтирилган воқеалар унда ҳам полвон концепти ифодасининг тўлиқ эмаслигини кўрсатади. Азизхон ва Эш полвон ўртасидаги можароларнинг сабаблари ҳам айнан уларда полвонлик қадриятларининг мукамал эмаслиги билан боғлиқ ва уларда концепт ифодаси тўлиқ амалга оширилгунча бўлган воқеалар қуйдаги кетма-кетликда жойлаштирилган:

- Эш полвоннинг Зирилламаликларни ҳақорат қилиши;
- Азизхон томонидан Эш полвоннинг жазоланиши;
- Обрўсини тиклашга уринган Эш полвоннинг ғирром кураш учун таклифи;
- Азизхон курашда Эш полвонни қайта шарманда қилиши;
- Лутфиниса фожиаси туфайли Азизхондаги улғайиш ва Эш полвонда унга нисбатан ҳамдардликнинг пайдо бўлиши.

Демак, Лутфинисанинг ўлими Азизхонда полвон концептининг ифодасига тўлиқ кириши, Эш полвонда эса Азизхонга нисбатан бўлган ғазабнинг ҳамдардлик туйғуси билан алмашиб, ўз полвонлик қадриятларини қайта кўриб чиқишига сабаб бўлади. Қаҳрамонларларнинг охириги учрашуви тасвирланган сахна уларда полвон концепти ифодасининг бошланганлигини кўрсатади: “Азизхон у кўргандаги нораства болага ўхшамасди. Босиқ овозида, ўйчан боқишларида юрт кўрган, тирикчиликнинг аччиқ-чучугини тотиган эркак нуқси сезилиб қолганди. – Хўш, гапир! – деди Эш полвон. Азизхон пешанасини уқалаб гапни нимадан бошлашни билмай андак ўйланиб турди-да, гапира бошлади: - Эш ака! Тентак уқангизни кечира оласизми?... – Сендек азаматни йиқитган полвоннинг бўйни узилсин. Бу гапингни қайтиб ол” [Саид Аҳмад. 4:

229-230]. Айтиш керакки, қахрамонларнинг устун бўлишга бўлган интилишлари сабаб юз берган курашлар уларнинг ҳақиқий полвон мақомига эришишларининг воситасига айланган. Бу эса полвонлик фақатгина жисмоний куч билан эмас, маънавий-ахлоқий етуклик билан ўлчанади, деган концепция асар бадиий-концептуал ҳукмининг асосларидан бири эканлигини кўрсатади.

Полвонлар ўртасида юзага келган тўқнашув уларнинг маънавий юксалишлари учун восита сифатдаги талқин Лукмон Бўрихоннинг “Қуёш ҳали ботмаган” қиссасида ҳам келтирилган бўлиб, полвон концепти жамиятнинг маънавий-ахлоқий таҳлили учун хизмат қилади. Сюжет тизимида учта асосий воқеа, яъни Норсоат ва Даврон исмли йигитларнинг келиб чиқиши, ижтимоий шароити ва қадриятларга муносабати турлича бўлгани ҳолда дўст тутинишлари, бир қиз туфайли ўртада рўй берган можаро ва уларнинг сўнгги курашлари атрофида бирлаштирилиб, ҳар бир кичик воқеа полвон қадриятларини ифода этувчи сарлавҳалар билан ажратилган. Сарлавҳалар уларга курашда устозлик қилган Абсал полвон билан боғлиқ бўлиб, полвонлар учун уни англаб етиш маънавий камолотга эришишни билдиради. Аммо отасининг амали ортидан жамиятда унга қилинган нореал муносабатлар таъсирида улғайган Даврон маънавий устоздан полвонлик қадриятларини қабул қила олмайди: “Даврон, курашда доим зўр келиб бўлмайди, чидаш керак. – Мен отамдан хафаман. – Нега? – Ўшанда бизни қандайдир сибизғачига топширмай, шаҳарга оборганида, ҳозир зўр самбочилар бўп кетардик, ҳар хил мусабақаларда қатнашиб машҳур бўлардик” [Бўрихон Л. 1: 23]. Полвонликни машҳур бўлишда деб билган Даврон бу – янги эътиқодлар натижасида шаклланиб бораётган жамиятнинг Абсал полвон орқали ифода этилган қадриятларга зидлигидир. Кейинчалик бу зидлик Даврон ва Норсоатнинг Танзила учун курашида ҳақиқий тўқнашувга айланади. Абсал полвоннинг ўзи учун муқаддас санаган сибизғани Норсоатга тақдим этиши полвон концепти ифодаси маънавий устоздан шогирдга ўтганлигини англатади. Шунинг учун энди Даврон ва Норсоат ўртасидаги кураш куч синаш эмас, балки қадриятларга бўлган турлича муносабатнинг тўқнашуви бўлиб, бу курашда Норсоатнинг ўз ор-номусини сақлаб қолиш учун ғирромлик қилишга мажбур бўлиши Абсал полвон сўзларининг (...Полвон уч нарсага қул бўлиш керак – ҳақиқатнинг, ор-номуснинг, севгининг) унинг ҳаётида амалга ошиши эди. Муаллиф инсонлар ўртасида юз берадиган тенгсиз курашларнинг сабабларини уларни шакллантирган муҳитдаги носоғлом муносабатларда, масалан, оилада (...ношуд ва ноқобил икки ўғилнинг касридан хўп оввораю сарсон экан. Қувондиқ қайсарнинг ягона умида кенжа фарзанди Даврондан эди) мактабда (...Ўқитувчи қўлларини қанотдай ёйиб аразчининг йўлини тўсишга уринаркан, ялинчоқ бир товушда: “Давронжон, узр,

Давронжон, ҳазиллашдим”, - дея бот-бот такрорларди) ҳатто кураш майдонида (- Ҳало-о-ол! – ҳайқириб юборди давра. Бироқ Эргаш мироб мартабали меҳмонлар қаторида тоғдай тебраниб ўтирган Қувондиқ қайсарга бир қараб кўйди-да, кескин бош чайқади. – Йўк, бу ғирром!) юз берувчи ижтимоий адолатсизликда кўради. Бу курашда Норсоатнинг ғалабаси рамзий маъно ифодалаб, қадриятларнинг маънавий-ахлоқий иллатлардан устун туришини кўрсатади. Шунингдек, қаҳрамонда полвон концептининг ифодаси унинг руҳий оламида қадриятлар моҳиятини англаш жараёни билан бирга кечади, масалан, мағлубият туфайли ҳосил бўлган руҳий изтироб Давроннинг Кенгсойдан бош олиб чиқиб кетиши, бу эса асл полвонлик нима эканлигини англашига туртки бўлган: “Норсоат, энг биринчиси, чин полвоннинг жойи панада экан, шуни билдим. Иккинчиси... ҳар полвоннинг ўз сибизғаси бўлсин экан...” [Бўрихон Л. 1:32] Рамзий маъно ифодалаган сибизғанинг асар сўнггида Даврон томонидан таъкидланиши, унинг Абсал полвон ва Норсоат ўртасида ҳосил бўлган руҳий-маънавий оламини англаши ва полвон концепти ифодаси шаклланганлигини кўрсатади.

Концептлаштириш бадиий яратикнинг ижодкор онгидаги концептуал схемаси экан, полвон концепти орқали бадиий идрок этилаётган жамият ҳақидаги когнитив-концептуал бутунлик қандай ҳосил қилинади? Инсон онги бирор предмет ёки ходисани ўрганиш жараёнида ҳосил қилинган сезги ва тушунчалар миянинг сенсор тизимида пайдо бўлади ва у мавжуд тушунча-билимларга таққосланиш, ўхшатилиш ёки зидланиш орқали ўзлаштирилади. Ижодкорнинг дунёни кузатишидан ҳосил бўлган таассурот-кечинма унинг ўз эътиқодлари билан қиёсланиши натижасида ана шу эътиқодга мос ёки зид бўлган бадиий-концептуал бутунлик ҳосил бўлади. Бу бутунликнинг бадиийлиги унинг ижодкор кўзи билан кўрилиб, бадиийлик қонуниятлари асосида қайта ишланганлиги, концептуаллиги эса ушбу бутунликнинг концепт ифода этган қадриятлар асосида идрок этилганлигидир. Демак, полвон концепти ўзбек халқи қадриятларини ўзида жамлаган бирлик экан, унинг асосида таҳлил этилаётган ижтимоий муносабатлар асосан концепт ифодасидаги қадриятлар билан қиёсий талқин қилингани ҳолда бадиий-концептуал бутунликка айланади. “Юлдузлар мангу ёнади” қиссасида Бўри полвон тимсоли Тоғай Муроднинг миллат ва унинг қадриятларини ифода этувчи эстетик идеалидир. Асарда полвон концепти ифодаси қаҳрамоннинг полвонлик эътиқоди, руҳий олами тасвирида берилган ўй-мушоҳадалари орқали таъминланган. Муаллифнинг ўзи ҳам давра полвони бўлганлиги, деярли барча қаҳрамонларнинг ҳаётда ўз прототипига эга эканлиги асарда кураш саҳналарининг жонли тасвирларини яратишга имкон берган. Бўри полвон

хаётида дўсти Насим ва қишлоқ райси билан боғлиқ содир бўлган воқеалар Бўри полвон фалсафасидан ўтказилиб баҳоланар экан 70 – 80- йилларда юзага келган ижтимоий муносабатларнинг концепт ифода этаётган қадриятларга зид эканлигини кўрсатади. Ахлоқсизлиги туфайли мансабдан айрилган эски райснинг Бўри полвон онаси қабрига мармар сағана қўйиши, унинг қайта бирор мансабга эришиш учун (Бўри полвон қишлоққа райс этиб тайинланганди – И.М) қилинган рикорлиги бўлиб, мавжуд шароит инсонларнинг маънавий таназзулига сабаб бўлаётганлигини кўрсатади: “Шунча яхши ичида битта ёмон ишласа ишлабди-да!.. Ана шу ерда Бўри полвон жуда-жуда таъсирланиб кетди! – Нима иш берайин, айтинг! – деб юборди. Эски райс худди шу гапни анғиб туриб эди! Бирдан бошини адл кўтарди! – Бизга шу... ферма мудирликми, омбор мудирликми... бўлса бўлди, – дея минғирлади” [Тоғай Мурод. 5:68]. Райснинг маънавий-ахлоқий меъёрдан чекиниши айни дамда Бўри полвоннинг ҳаётий маслағи бўлган қадриятларни паймол этади, шу сабабдан воқеа нисбатан ишлатилган “наҳс” (ар. *мусибат*, *нопок*) сўзи мавжуд даврга нисбатан муаллиф муносабатини ҳам ифодалайди.

Қиссада Бўри полвоннинг руҳиятида кечган жараёнлар тасвири қадриятларнинг бадий идрок этилиши билан боғлиқ муаллиф концептуал ҳукмининг ифодасига хизмат қилади. Масалан, қаҳрамоннинг полвонлик қадриятлари ҳақидаги ўйлари, халқ тақдири билан боғлиқ руҳий изтиробларга уланадики, бу полвон концепти муаллифнинг халқ, миллат тушунчасини қайта бадий идрок этиш воситаси эканлигини кўрсатади: “Халқ нимаси билан халқ? Ўзининг урф-одатлари билан халқ! Ота-бобосидан қолган миллий анъаналари билан халқ! Кўп урф-одатларимизни бировлар... бировлар ўзиники қилиб олди! Биз кўлимизни бурнимизга тиқиб қолдик. Шундай кета берсак, ҳадемай ... ўзимизни-да бой бериб қўямиз! [Тоғай Мурод. 6:45] Тоғай Мурод “Маърифат” газетаси муҳбири билан бўлган суҳбатда (Аммо газетанинг 26.04.2003 сонидан суҳбат тўлиқ келтирилмаган, манбаа togaumurod.uz сайтидан олинди – И.М) спорт комитетининг подвалидаги буфетда ташкил этилган Ўзбекистон кураш федерация аҳлидан ушбу асари туфайли эшитган миннатдорчилигидан сўнг, ташқарида хўнг-хўнг йиғлаганини хотирлайди. Кўриниб турибдики, ёзувчи ўз халқининг мавжуд ижтимоий-тарихий шароитдаги тақдирдан руҳий изтиробланган ва шу изтиробни англаш ва бадий идрок этиш полвон концепти воситасида амалга ошган.

Хулоса

Полвон образи талқин этилган асарларда полвоннинг ҳаётий англамлари билан боғлиқ руҳият таҳлиллари келтириладики, бу унинг ҳаётда ниманидир йўқотиши, бой бериши натижасидаги изтиробларидан юзага чиқади. Қаҳрамон

хаётида содир бўлган бундай йўқотиш унда асл полвонликнинг шаклланишига восита бўлади, бу жараён эса айти пайтда муаллифнинг ижтимоий-маънавий позициясини ифодалаши учун хизмат қилишига тўхталиш жоизки, бу асарнинг концептуал бутунлик тариқасида англанишини осонлаштиради. Масалан, “Юлдузлар мангу ёнади” қиссасида Момоқиз образи воқеалар тизимида фаол иштирок этмайди ва унинг нутқи келтирилган ягона сахна мавжуд холос. Аммо воқеаларнинг асосан унга алоқадорликда содир бўлиши ҳамда қаҳрамон рухий изтиробни натижасида содир бўлган англаш жараёнига восита эканлиги унинг қаҳрамон учун маънавий-психологик тимсол вазифасини ўтаганлигини кўрсатади. Шунингдек, Бўри полвон руҳиятида қадриятларни, ватан ва миллат тушунчаларини англашдан бошланган жараён унинг ўз ҳаёти сарҳисоби билан уланиши, айти пайтда ижодкорнинг ҳам мавжуд ижтимоий жараённи идрок этиши ва ундан чиқарган хулосаларини ифода этади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бўрихон Л. Қуёш ҳали ботмаган. // Ёшлик, 2015. - № 1-2. – Б. 10-38; 9-32.
2. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2018. – 480 б.
3. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Тошкент: Академнашр, 2010. – 400 б.
4. Саид Аҳмад. Уфқ. – Тошкент: Сано-сатандарт, 2016. – 640 б.
5. Тоғай Мурод. От кишнаган оқшом. – Тошкент: Шарқ, 1994. – 464 б.
6. Тоғай Мурод. Юлдузлар мангу ёнади. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 92 б.
7. Шералиева М. Ҳозирги ўзбек насрида киноя. – Тошкент: Академнашр, 2016. – 224 б.

URUSH MOTIVI VA YO'QOTILGAN AVLOD FOJIASI

Ro'zimurodova Norbibi Chorixo'jayevna,
TerDU erkin tatqiqotchisi
[Tel:+998 93 774 25 28](tel:+998937742528)

Annotatsiya. Ushbu maqolada urush davrining ayrim masalalari tahlil qilingan. Urushning salbiy oqibatlarini qalamga olingan.

Kalit so'z: *Urush, poetic she'riy tahlil, maqola*

Annotation. This article analyzes some issues of the war period. The negative consequences of the war are noted

Key word: *war, poetic analysis, article*

Urush- dunyo adabiyoti san'atining asrlar davomidagi yetakchi mavzularidan biri sanaladi. Xalq og'zaki ijodining namunalariga, ayniqsa, yirik eposlariga ("Go'ro'g'li", "Alpomish", "Manas", "Igori jangnomasi", "Kalevala" kabi) turli xalqlar, turli davrlar bilan bog'liq urush hodisotlari talqini yetakchilik qiladi. Jahon adabiyotshunosligida bu mavzudagi asarlar aksariyat hollarda "Harbiy adabiyot" degan atama bilan yuritiladi. Nemis tilida chop etilgan adabiyotshunoslik terminlari lug'atida bu atama "Harbiy adabiyot- asosiy voqealari va mazui urush bo'lgan adabiy asarlardir", deya ta'rif beriladi. Rus adabiyotshunosi O.Poxalenkov "Harbiy adabiyot" termini na xorijiy, na rus manbaloarida aniq-tiniq ta'riflanmaganligini ta'kidlaydi. Tatqiqotchining yozilishicha, "Adabiyotshunoslik taerminlari lug'ati" da atama faqat ikkinchi jahon urushiga bog'liq holda ta'riflangan.

Urush mavzusidagi asar qahramonlari G'arb adabiyotida "Yo'qotilgan avlod" deb atalgan. XX asr g'arb adabiyotida "Yo'qotilgan avlod" mavzusini eng ko'p va ta'sirli yoritgan nemis yozuvchisi Erix Mariya Remarkdir. Yozuvchi maktabni bitirish arafasida urushga ketgan va ellik kun jang maydonida bo'lib qaytgan. Remarkni dunyoga mashhur qilgan ilk "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" romanida dastlab, "Esizgina yoshligim" sarlavhasi bilan tarjima qilinib, chop ettiriladi.

1928-yilda "Fossishe saytung" deya nomlangan nemis gazetasining nusxalar soni keskin tarzda ko'tarila boshlaydi. Buning sababi o'sha gazeta saxifalarida xali mashhur bo'lib ulgurmagan yozuvchi –Remarkning "g'arbiy frontda o'zgarish yo'q" romani chop etila boshlangan edi. Nemis xalqi o'zlari kabi o'spirinlarga o'q uzishga majbur bo'lgan "Yo'qotilgan avlod fojiasi real tasvirlangan ushbu asarni berilib mutolaa qiladilar. Asrda urush va urush orti voqealari ro'y-rost tasvirlangan. Millionlab kishilar, ayniqsa, hali hayotga to'ymagan yosh yigitlar bekordan-bekorga qurbon bo'lib, o'lib, mayib-majruh bo'lib ketyapti-yu, gazeta saxifalarida esa hamon "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" kabiligidagi xabarlar qayd etilmoqda. "Yozuvchi asarda shunday masalalarni o'rtaga tashlaydi: Millionlab kishilar qon kechib, kon to'kishsa-yu, nahotki hech qanaqa o'zgarish bo'lmasa?".

Remark urush mavzusidagi "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" nomli ilk romanining epikrafida mazkur asari bilan bog'liq asl badiiy –g'oyaviy xususiyatni ifodalab shunday yozgan: "Bu kitob aybnoma ham, avfnoma ham emas. Bu shunchaki urush dastidan juvonmarg bo'lgan aclod haqidagi, garchi zamarak o'qidan omon qolsa-da, shu urushning qurboniga aylangan to'g'risidagi ko'ngil izhoridir".

"Yo'qotilgan avlod" vakillari termin sifatida birinchi jahon urushidan keyin paydo bo'ldi. Ba'zi manbalarda bu termini ilk bor amerikalik yozuvchi E. Hemingwayning asarida qo'llanganligi aytiladi. Yozuvchining "Quyosh baribir chiqaveradi" romani qahramonlari hayotda turli narsalardan yupanch, izlaydi. Mazkur romanga Gertruda Stayning "Sizlarning barchangiz yo'qotilgan avlodsiz" degan jumllarini epigraf sifatida tanlaydi va shundan so'nag bu atama adabiy termin sifatida qo'llanila boshlaydi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyoti namunalariga urush mavzusi "Quyosh qoraymas" (Oybek), "Shinelli yillar" (Shuhrat), "Asror boo" (A.Qahho), "Er boshiga ish tushsa..." (O.Yoqubov), "Ufq" (S.Ahmad), "Davr mening taqdirimda" (A.Muxtor), "Ikki eshik orasi..." "Tushda kechgan umrlar", Urushning so'nggi qurboni" (O'.Hoshimov), "Hazrati inson" (R.Fayziy), "Urush odamlari" (N.Eshonqul), "Azizam, tabassum qil", "Urushning birinchi kuni", "Urush tugasa, ayting, qaytib kelaman" (Q.Norqobil), "Urushning davomi", "O'limning rangi", "Daryo ortidagi yig'I" (N.Jaloliddin), "Afg'on to'la fig'onim"(Abdug'afur Iskandar) kabi nasriy asarlarda hamda she'riyatda, ayniqsa, G'.G'ulom va Zulfiya ijodida insoniyat boshiga solgan butun daxshat va ofatlari bilan namoyon bo'ladi. Albatta, bu asarlar orasida G'oyaviy-badiiy saviyasi birmuncha sayozlari ham, badiiy barkamol namunalari ham mavjud.

Urush mavzusidagi tatqiqot olib borgan professor U.O'ljaboyev qayd etishicha, "Urush manzaralari tasviri, bu davrda yashagan kishilarning ruhiy olamni, hissiyotini badiiy tadqiq etishda bevosita urush davrida yashab ijod qilgan adiblarnikidan Jahon urushi boshlanishiga ijod olamiga endigina qadam qo'ya boshlagan yoxud bolaligi urush davrida to'g'ri kelgan adiblar tayanadigan estetik tamoyillar tmomila farq qiladi". Bundan Farqlar, avvalo, estetik tamoyillar dushmanni o'ta ojiz ko'rsatib, mahalliy jangchilar ustunligini, nuqul g'alabaga erishaverish, kompartyaning gegemonligiga haddan osha urg'u berish kabi talqinlarga ko'rinadi. Iste'dodli yozuvchilar yaratmalarida esa, eng avvalo, urush olovining markazida,oldingi saflarda jon olib jon bergan oddiy askarlar ruhiyatini, beqiyos qahramonliklarini koi'rsatish yetakchilik qiladi.

XXI asr o'zbek adabiyotida urush mavzusida ijod qilayotgan bir qator yozuvchilar kozga tashlansa-da, she'riyatida bu mavzuga deyarli murojaat qilinmay qo'yilgan edi. Bu borada Salim Ashurning urush mavzusidagi she'rlari jamlangan

“Buyuk-75” kitobi adabiyot ixlosmandlari uchun yangilik bo’ldi. Mazkur kitobda jamlangan she’rlar XX asrda ommalashgan urush mavzusidagi va urush orti manzaralari haqida bo’lsa ham, tasvir va ifoda uslubida keskin yangilanishlar uchraydi. “Buyuk-75” ni qo’lga olib varaqlar ekanmiz, yo’qotilgan avlod vakillarining yangi qiyofalariga duch kelamiz.

Yoshini kattaroq aytadi doim,
O’smirlar yuragi bunchalar yirik.
G’arb yoqni ko’rsatar:”U yerda jonim...”
Yulduzi uchganlar-yulduzdek tirik...

Vatanparvarlik ruhida ulg’aygan, ona tuprog’ida ko’z tikkan dushmanlarga buyk nafrat tuyg’usi bo’lgan o’zbekning yolg’onlari hali askarlar yoshida to’lmasdanoq urush alangasida o’zini otishga shoshardi. Vatan uchun urushga ketib, dushmanlar bilan olishishni o’zini yigitlik burchi, sha’ni deb bilgan bu go’daklar hali o’smir chog’idayoq yoshlik sururini unutib bo’lgan. Balki otasi va akalari ham allaqachon urushni olovini o’z bag’rida yutib ketganlar. Vatan uchun jonini tikkan, yoshligini yo’qotgan bu avlod o’zbekning yo’qotilgan, erta uchgan yulduzlari edi.

...teskari oqadi jarayon...
Jangda kiramiz tikka,
Suyaklar – qin, qinarda o’q bor.
Yurak yarador.
Yarador jon.
Yaradoor jahon.
Xandakda yetibdi yarador askarlar,
Yarador xandakda.
Zulmat masul safni bosar...
Miltiqlar-yarador,
Yarador o’qlar
Yarador askarlarni teshib o’tmoqda.

“Yarador xandaklar” sarlavhasi ushbu modern yo’nalishida bitilgan she’rdagi tasvirlar askar tilidan ifodalanmoqda. Go’yoki urushda bo’lib qaytgan lirik qahramonning ko’z oldida bu daxshatli manzaralar tartibsiz shoirning ulug’ vatan urushida yarador bo’lib qaytgan amakisi Xamdam Ashurov xotirasiga bag’ishlanadi Shoir amakisidan eshitgan urush tafsilotlarini o’sha askar tilidan ifoda qilayotganligi seziladi.

Shir ko’chim va tashbehlardan mohirona foydalanadi. Yarador yurak,jon suyak-ko’chimning sinexdoha turi asosida askarlar holatini tasvirleydi. O’q terib yarador yoki nobud bo’lib, jonlarini, yoshliklarini qurbon qilayotgan yigitlar hammasi bir nom bilan askar deya ataladi. Shoir esa bularning har biri yashashga to’la haqli bir

yurak, bir jon. She'rdagi "Suyaklar- qin, qinlarda o'q bor" jumlasida ko'chimdan tashqari tashbeh san'atini ham uchratamiz. Lirik qahramon "Suyaklar – qin" deya tasvirlar ekan, u yerdan askarlarning hammasi borgan sari o'qlar qadaladigan qinlarga yevrilishini nazarda tutadi. Urushdan tirik qaytgan. Askarlar bo'lgan ammo, o'q tegmay, betalofot qaytmay askarlar bo'lmagan. Hattoki jahon- butun olam yarador, ona zamin yarador.

Haliyam handakda yetibmiz,
Ne, barmoqlaringiz qani,
Jon talvasasida qotibmiz,
Keling, barmoqlaringizni
Payxon bo'lgan tokzor o'rniga ekamiz,
Tiriklikdan so'ng olib borishingiz kerak ularni onangizga
Ketmonni qanday tutasiz.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Sachwörterbuch der Literatur. – Stuttgart : Kröner, 1989. – XI. P.467.
2. Похаленков О. Мотивные комплексы и повествовательные стратегии романов «потерянного поколения» в контексте военной прозы XX века // дисс...докт.филол.наук. – Смоленск, 2019.
3. Словарь литературоведческих терминов / под ред. С.П. Белокуровой. – СПб.: Паритет, 2006.
4. Ремарк Э.М. Эсизгина, ёшлигим. Роман. – Т.:2004, 5-бет.
5. Ўлжабоев У. Бадий тасвирнинг ҳаққонийлиги. "Зиё" нашриёти, Гулистон-2008, 10-бет.
6. Ашур С. Буюк – 75. – Тошкент. "PRAVO-PRESS", 2020. 35-бет
7. Ашур С. Буюк – 75. – Тошкент. "PRAVO-PRESS", 2020. 12-13-бет

MILLIY UYG'ONISH DAVRI QO'QON ADABIY MUHITIDAGI ILMGA DA'VAT ETUVCHI AYRIM TURKUM SHE'RLAR TAHLILI

Sayfiddinova Gulnoza Ulug'bek qizi,
Tayanch doktorant, Alisher Navoiy
nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va
adabiyoti universiteti
mehrsabiya@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Qo'qon adabiy muhitida ijod qilgan Furqat, Rojiy, Dilshodi Barnolar ijodidagi ilmga da'vat etuvchi ayrim she'rlar tahlilga tortildi. Bu she'rlarning bugungi kundagi ahamiyati haqida ham so'z bordi.

Kalit so'zlar: Ilm, "Al-Jomi' as-sahih", ozodlik, ilm hosiylati, ma'rifat, madaniyat, kitob, maqol.

Abstract: In this article, some poems calling for science by Furqat, Rojiy, Dilshodi Barnolar, who created in the literary environment of Kokan in the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century, were analyzed. The importance of these poems today was also discussed.

Key words: Science, "Al-Jami' as-sahih", freedom, nature of knowledge, enlightenment, culture, book, proverb.

Ilmning inson hayotidagi tutgan o'rni beqiyosdir. Qur'oni karim oyatlarida ham "ilm" so'zining 811 o'rinda zikr etilgani, ilm hayotimizning bir qismi, insonning doimiy hamrohi ekanligidan dalolat emasmi. Har bir insonni, u qaysi millat vakili bo'lishidan qat'iy nazar, har bir davrda ilm egallash va uni targ'ib etishga da'vat etiladi. Imom al-Buxoriyning arabchadan Zokirjon Ismoilov tarjimasida asosidagi "Al-Jomi' as-sahih"[1,17.33] to'plamidan o'rin olgan "Ilm kitobi" deb nomlangan bo'limdagi 54 bobda ifodalangan ilm egallash, uni boshqalarga ham o'rgatish, ilm odobi, ilmni yod olish, ilm fazilatlarini haqidagi hadislar ham bilan insonning yuksalishi qayta-qayta keltirib, izohlab o'tilgan. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodida ham ilm egallashga oid bo'lgan baytlarni juda ko'p o'rinlarni uchratishimiz mumkin:

Ki har ishni qildi odamizod,
Tafakkur birla bildi odamizod[2]

Satrlari ham odamizod qaysi ishga qo'l urmasin, ularning barchasi ilm bilan amalga oshishi ta'kidlab o'tilgan. Darhaqiqat, inson ilm orqali yuksaladi, kamolotga erishadi. Inson yaralgandan beri ilm olishning foydali tomonlari beqiyos ekanligini anglab yetdi. Xususan, Navoiygacha va undan keyingi adabiy davrda ham ilm egallashga da'vat etuvchi satrlar o'zining dolzarbligini yo'qotmadi. Milliy uyg'onish davrining ilk bosqichlarida kishilarni g'urbatdan qutqaruvchi, qaramlikdan ozod qiluvchi yagona najot –bu ilm ekanligi davr ijodkorlarining asarlarida o'zining yaqqol aksini topdi. Bu davrning yirik yozuvchilari Muqimiy, Furqat, Muhyi, Zoriy, Zavqiy, Rojiy, Dilshodi Barn ova Anbar Otin ijodida ilmga da'vat etuvchi she'rlarning

yaralishi, unga oid turkum she'rlarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Najot deya e'tirof etilgan limning tarannum etilishi, boshqa davrda yaratilgan ilmga oid she'rlardan alohida ajralib turadi. Sababi shundaki, XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida chor hukumati tomonidan xonlik bo'ysundirilgan. Xalq esa juda ko'p tazyiqlarga uchragani, zob chekkani tarixdan ma'lum. Ocharchilik, adabiy me'rosimizni yo'q qilishga urinishlar, insonlarga ko'rsatilayotgan zulm haddan oshgan edi. Ilmsizlik, ma'naviyatdan uzoqlashish oddiy aholini abgor holga keltirib qo'ydi. Albatta bunday ahvolning guvohi bo'lgan ma'rifatparvar yozuvchilar, sodir bo'layotgan voqealarga jim qarab tura olishmasdi. Har bir hodisaga hozirjavoblik bilan yondashgan yozuvchilarimiz barcha ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarga munosabatlarini o'zlarining qalamlari orqali bildirishadi. Mustamlakachilikka qarshi, ozodlik ruhi barq urib turgan she'rlar maydonga keldi. Eng oliy maqsad –ozodlik bo'lsa, unga eltuvchi yo'l sifatida ilm ko'riladi. Umri davomida ilm egallashning payida bo'lgan, ilmni cheksiz qadrlagan Furqat o'zining "Ilm hosiyati", "Gimnaziya" kabi she'rlari orqali o'z qarashlarini yorqin ifodalaydi.

Ko'ngillarni sururi ilmdandur,

Ko'rar ko'zlarni nuri ilmdandur.

Kerak har ilmdan bo'lmoq xabardor,

Bo'lur har qaysi o'z vaqtida darkor[3,71],

deya barchaga ma'rifat nurlari birdek zarur ekanligini uqtiradi. Ilmni ko'ngillarga rohat bag'ishlovchi, ko'zlarga nur ulashuvchi vosita ekanligini ta'kidlaydi. Ilmdan xabardorlik kishini yuksaltiradi, shu sababli ham inson har qanday ilmdan boxabar bo'lishi hayotiy zarurat ekanligini aytib o'tadi. Keyingi satrlarda esa yana fikrlarini dalillaydi:

Kerak odamg'a qilg'oy ilm hosil,

Jahondan o'tmagay to mahz johil.

Jahon bastu kushodi ilm birla,

Nadur dilni murodi ilm birla[3,71].

Inson hayoti davomida ilmga ehtiyoj sezishi shubhasiz, umrimiz ilm bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Shoir jahonning "bastu kushodi", ya'ni bo'y-u bastining ochilishi, dunyo sirlaridan voqif bo'lishlikning kaliti "ilm birla"dir. "Ilm hosiyati" she'ri orqali anglashilgan shoirning to'lib toshgan fikrlari, bir badiiyat tizginida jilovlanadi. Furqat o'zidan avvalgi zamon bilan, o'zi yashayotgan davrdagi ilmdagi yangilik va yutuqlarni solishtiradi. Ruslar orqali kirib kelayotgan madaniyat va ilmdagi o'zgarishlarga hayratini yashirmaydi. Burungi zamonlarda shohlar qaram xalqining ahvolidan xabar olish maqsadida turli xatlar yozib, xat yetib borib, undan javob olingungacha ancha vaqt yo'qotilga. Ba'zan xatlarga javob kunlab kutilardi. Lekin ilmdagi bir yangilik tufayli bu vaziyat endi qulaylashgani haqida yozadi.

Zihi davroni farxo'nda nishoni,
Zamon o'ldi o'rusiya zamon.
...Necha ish ilm ila bunyod qildi,
Xususan **telegrom** ijod qildi[3,70].

Xususan Furqatning "Vistavka xususida" she'rida 1890-yil sentabr oyida tashkil etilgan bir namoyishda qatnashganligi va uning tafsilotlari haqida yozadi. Xuddi shu joyda ko'p ixtirolarning guvohi bo'ladi. Har tarafdin kelgan ilm va hunar egalarining mahoratlariga lol qoladi. "Ipak moshinasi birla tegirmon" olamni hayron qoldirganini, najjorlarning ishini osonlashtiruvchi "Bo'lub moshinalar taxta tilarg'a" deya ilm va hunarni ulug'laydi:

Kimikim bo'lsa donishmand-u oqil,
O'la ilm-u xunarg'a ko'ngli moyil[3,72].

Xususan "Akt majlisi xususida" she'rida ham ilm egallagan kishining martabasi elda ulug' bo'lishi, ilm inson uchun har qachon zarur ekanligini uqtiradi. Elning qadri ham shu ilm bilan o'lchanishi haqida to'xtalib, o'zining ham ilmga e'tiqod qo'yganligi, she'rning so'nggida esa ilmni qorong'u yo'ldagi chiroqqa o'xshatadi. Bu o'rinda shoir tashbeh san'atining ajoyib namunasi yaratadi.

Kishikim ilmu fandin boxabardur,
Xaloyiqqa baqadru mo'tabardur.
Tiriklikda kishikim qilsa hark or,
Ani osonlig'ina ilm darkor.
Jahon ravshan ziyoyi lmdandur,
Ko'ngul sofi safoyi ilmdandur[3,83].

Bu davrning yana ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Rojiiy edi. Po'latjon domla Qayyumovning "Tazkirayi Qayyumiy" asarida u haqida "Rojiiy nihoyatda xushxat bo'lub, jaliy qalami ila qait'alar yozar edi. Muammolar yozish va uni qanday bo'lmasin yechishda shuhrati Buxoroga yoyilgan edi"[4,479] deb ta'rif bergan. Ko'rinib turibdiki, Rojiiy o'z qalamining chinakam sohibi bo'lgan. Ma'lumotlar Rojiiy VII deya keltiriladi. Bu esa o'zidan oldin ijod qilgan Rojiylardan farqlanib turishi uchun bo'lsa kerak degan xulosaga keldik. U ham ma'rifatparvar va taqvodor inson bo'lgan. Kishining axloqli bo'lmog'i hamda ilm egallashi farz ekanligi xususida so'ylagan. Xususan, o'zbek tilida ilm egallash va axloqqa doir bir masnaviyi bo'lib, u bir yuz betdan ortiq ekanligi faktlarda qayd etilgan. Ilmiy-adabiy, badiiy jihatdan kuchli bo'lgan Rojiiy ijodida ham ilmga da'vat, bu yo'lda esa albatta, ustoz bo'lishi lozimligiga alohida to'xtalib o'tgan.

Ta'lim olsa har kishi unda qolur,
Usta yo'q har maqomda yo'rg'alur[4,481].

Bugungi zamonimizda ham bu fikrlar o'zining qiymatini yo'qotmagan. Xalqimiz orasida esa "Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alur" degan maqol juda keng ommalashganligi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Bo'lmasa ilmi kishining ne deyr,

Kim qozonda bo'lsa cho'michga kelur.

Keltirilgan misrada "Qozonda bori, cho'michga chiqadi" maqoli orqali she'rning badiiyati ochib beriladi. Bu esa, maqollardan har satrda unumli foydalanish qobiliyatiga ega bo'lgan Rojiyning asarlari xalq og'zaki ijodining noyob unsurlari bilan sug'orilganligini anglatadi.

Yoshligidan ma'lum o'lg'ay har na bil,

Kim bahoridin bilingan yaxshi bil.

Rojiy insonning yoshlik paytini bahor fasliga qiyoslaydi va yoshlikda egallangan hunar va ilm uning kelajakda kim ekanligini namoyish etadi. Bu misralardagi mazmundan esa "Bo'ladigan bola boshidan ma'lum" maqolini anglashimiz mumkin.

Davrning demokratik shoralaridan hisoblangan Dilshodi Barno ham "Ro'zg'orim maktabim bo'ldi, Ilm olsun sohibi idrok" deya yozg'iradi. Ilm ozodlikka erishishdagi yagona yechim degan xulosaga keladi. Faqat ilm-u hunar insonlarni qabohatlardan qutqara oladi deydi shoira. Shoira yan bir muxammasida kitobni "ilm o'rgatuvchi ustodim" deb ta'riflaydi.

Har kitob har turli ma'ni bermog'i ta'limidin,

Bir kitob bahs etsa ilm-u ma'rifat ta'rifidin,

O'zgasin so'zin adab ahlig'a qilur taqdiridin,

Har bir olimning kitobi ilmning tavsifidin,

Adl-u insof joriy etgay, hukmi sultondur kitob[5,57].

Ilm egallashda kitobning katta ahamiyatga molik ekanligi yuqoridagi misralarda anglashiladi. "Har kitobni o'qig'anda ma'nisin uqish kerak" deydi shoira. Haqiqatan diqqat bilan o'qilgan kitob orqali ko'p narsalarni o'rganish mumkin. Xususan ilmning bari ana shu kitoblarga jo bo'lgandir.

Ilm egallashni tarannum etuvchi she'rlar har bir davrning dolzarb mavzularidan biridir. Bugungi kunga qadar ham bu mavzu eskirmagan. Bundan keyin ham bu mavzuda she'rlar yozilajak. Chunki har qaysi davlatning shuhrati ilm-ma'rifat, hunar bilan ekanligi barchamizga kundek ravshan. Yuqorida keltirilgan she'riy parchalardan ham ko'rinib turibdiki, "Ilm –inson ziynati"dir. Ilmning mohiyati, uning inson hayotidagi ahamiyati naqadar yuksak darajada ekanligini biz avvalambor hadislar, ilm olish haqidagi maqollar, qolaversa, ijodkorlarning ilm haqidagi asarlari orqali bilishimiz mumkin bo'ladi. Zero, ilm –eng buyuk sharaf. Alloh barchamizning ilmimizni ziyoda qilsin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imom Ismoil al-Buxoriy. Sahihi Buxoriy.1-jild. –T.,1991. B.17-33
2. Navoiy hikmatlari. Adiblar uz.
3. Sharq klassiklari merosi. “Furqat she’riyatidan”. –T.,1980. B.70,71,72,83
4. Qayyumov P. “Tazkirai Qayyumiy” III jild. –T.,1998. B.479
5. Sharq klassiklari merosi. “Zebunniso, Dilshodi Barno, Anbar Otinlar she’riyatidan”. –T.,1981.B.57

ABDULLA ORIPOV IJODIDA TARIXGA MUNOSABAT VA TARIXIY SHAXSLAR TASVIRI

Mohinur To'rayeva,
BuxDU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Adabiyotimizning barcha davrlarida tarixiy mavzu yetakchilik qilib kelgan. Jumladan, XX asr o'zbek she'riyatida ham bunday she'rlar o'ziga xos badiiy tizimni tashkil etadi. Maqolada O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripovning "O'zbekiston" qasidasi, "Oybek haqida qo'shiq" she'rlari tahlili orqali tarixiy voqelikka lirik munosabat masalasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: talmeh, tarixiy shaxs, tarixiy voqelik, Vatan, xalq obrazi, ramz, milliy g'urur tuyg'ulari.

Аннотация. Историческая тема была ведущей во все периоды нашей литературы. В частности. Подобные стихотворения образуют уникальную художественную систему в узбекской поэзии XX века. В статье рассматривается вопрос лирического отношения к исторической действительности через анализ стихотворений «Узбекистан» и «Песня об Ойбеке» Герой Узбекистана, народного поэта Абдуллы Орипова.

Abstract. Historical theme has been leading in all periods of our literature. For example, in the Uzbek poetry of the 20th century, such poems form a unique artistic system. The article covers the issue of lyrical attitude to historical reality through the analysis of the oda "Uzbekistan" and "Song about Ayvek" by Abdulla Oripov, hero of Uzbekistan, people's poet.

Yangi o'zbek she'riyatida tarixga munosabat va tarixiy shaxslar tasviri muhim o'rin tutadi. Bu orqali uzoq va yaqin o'tmish manzaralari badiiy chizgilarda ta'sirchan ifoda etilgan, tarixiy shaxslarning lirik timsollari yaratilgan. Cho'lpondan Abdulla Oripovgacha bo'lgan shoirlar ijodida bu o'ziga xos tamoyilga aylangan. Binobarin, ustoz-adabiyotshunos No'mon Rahimjonov A.Oripov she'riyatida: "Moziy xotiralari boqiy qadriyat sifatida bo'y ko'rsatadi"[1, 44]. Shoir ijodidagi shunday she'rlarni ikkiga bo'lib tasnif etish mumkin: 1. Tarixiy shaxslar nomlari talmeh bo'lib kelgan she'rlar. 2. Tarixiy voqealar aks etgan she'rlar. 3. Tarixiy shaxs nomi bilan atalgan she'rlar. Binobarin, shoirning "O'zbekiston" qasidasida yuqoridagi ikki jihat aks etgan: tariximizda munosib nom qoldirgan mashhur kishilar nomlari talmeh bo'lib kelgan va yurtimiz tarixi sahifalariga ishora qilingan. Shu asosda shonli tarixga ega xalq, Vatan obrazi yaratilgan:

Ko'klamningdan olib sururni,
Dovrug' soldi ustoz Olimjon,
G'afur G'ulom tuygan g'ururni
Qilmoq mumkin dunyoga doston [2,179].

Dastlabki ikki satrda Hamid Olimjonga ishora bor. Chunki u yurt kuychisi sifatida ko'klamni kuylagan otashnafas shoir. G'afur G'ulom nominining talmeh qilinishi ham bejiz emas. Chunki u chin ma'noda milliy ijodkor, o'zbekligidan hamisha g'ururlangan shoirdir. Shu jihatdan "G'afur G'ulom tuygan g'urur" –

o'zbekona tafakkurni surati va siyratida jam etgan millat timsoli. Satrlarda shunga ishora ifoda etilgan.

... Osmon ilmi tug'ilgan ilk bor,
Ko'ragoniy jadvallarida...
Do'stlar ko'kda yulduzlar emas,
U Ulug'bek ko'zidagi yosh... [2, 179]

Bunda ham tarixiy voqelikka, ham tarixiy shaxsga ishora bor. Chunki satrlarni o'qiganimizda ko'z oldimizga Ulug'bek yashagan davr gavdalanadi. "Qotil qo'li qilich soldi mast", der ekan shoir Ulug'bekning o'g'li Abdullatif tomonidan qatl etilganini nazarda tutadi. Ko'ragoniy Ulug'bekning taxallusi, u yulduzlar ilmiga asos solgan, osmondagi 1018 yulduz o'rnini aniqlagan. Ulug'bek nomida shu kashfiyotga ishora bor.

Amerika – sehrli diyor,
Uxlar edi Kolumb ham hali.
Dengiz ortin yoritdi ilk bor,
Beruniyning aql mash'ali...[2,179]

Yuqoridagi bandda ham ikkita tarixiy nom tilga olingan. Bu bejiz emas. Ma'lumki, dengiz ortida bir mamlakat borligini vatandoshimiz, ulug' alloma Beruniy ko'p asrlar avval aytgan. Biroq buni keyinchalik G'arb olimi Xristofor Kolumb ham aniqlagan. Shoir aytmoqchi, aslida bu katta kashfiyot Sharq mutafakkiri tomonidan aytilgan, lekin fanda Kolumb nomi bilan kirgan. Ko'rinadiki, talmeh tarixiy hayot manzarasini ham namoyon etgan.

Besh asrkim nazmiy saroyini,
Titratadi zanjirband bir sher,
Temur tig'i olmagan joyni,
Qalam bilan oldi Alisher [2,179]

Bu satrlar shoirning ko'hna tarix sahifalarini bir-bir varaqlaganini va undan hayotiy manzara, obrazlar yaratganligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, "nazmiy saroydagi zanjirband sher" – Alisher Navoiydir. Yuqoridagi misralarda ikkita talmeh bor: birinchisi – she'riyat sultoni Alisher Navoiy, ikkinchisi – qilich va aql bilan jahongir nomiga munosib Amir Temurdir. Shoir aytmoqchi, Alisher Navoiy olamni qalami – she'ri bilan egalladi.

Bosh ustingdan o'tdi ko'p zamon,
O'tdi Islom, o'tdi Zardushti,
Har uchragan nokasu nodon,
Ona xalqim, yoqangdan tutdi.
Seni Chingiz g'azabga to'lib,
Yo'qotmoqchi bo'ldi dunyodan,

Jaloliddin samani bo'lib,
Sakrab o'tding Amudaryodan... [2,179]

Dastlabki ikki satrda tarix aks etgan: xalqimizning Zardushtiy va Islom diniga ro'baro' kelganligi, bu yo'ldagi kurashlar ko'z oldimizga keladi. Ma'lumki, mo'g'ul xoni Chingizxon va xalq qahramoni Jaloliddin Manguberdi o'rtasida yurt uchun janglar kechgan. Eng so'nggi daqiqalarda Jaloliddin yov qo'liga tushmaslik uchun oti bilan Amudaryodan sakrab o'tganligi haqida tarix sahifalari guvohlik beradi. Shoir shu voqealarni nazarda tutib, Chingiz va Jaloliddin nomlarini talmeh qilib keltirgan.

Tinch turarmi bu ko'hna olam,
Tinch turarmi dog'uli zamon?
Oromingni buzdi sening ham
Fashist degan vahshiy olomon.
Qonim oqdi Dansigda manim,
Sobir Rahim yiqilgan chog'da.
Lekin, yurtim, kezo'lmas g'anim.
O'zbekiston atalgan bog'da.
Sensan nomus va sha'nim manim.

Dastlabki bandeda tarixiy voqelik – Ikkinchi jahon urushiga ishoralar bor. "Fashist degan vahshiy olomon" aslida shu urushni boshlagan nemislarga tegishli. Keyingi bandeda tilga olingan Sobir Rahim nomi esa talmeh bo'lib, o'zbekning urush maydonlarida qahramonlik, jasorat namunalarini ko'rsatgan generalidir. Bu bilan shoir O'zbekiston ham 1941-yilda yoqilgan mash'um urush olovini o'chirishda hissa qo'shdi demoqchi. Qolaversa, Sobir Rahimga o'xshagan mardlar yurt tinchligining ramzi sifatida ko'rsatilmoqda.

Sen ketarsan balki yiroqqa,
Farg'onada balki balqarsan.
Balki chiqib oqargan toqqa,
Cho'pon bo'lib gulxan yoqarsan.
Balki ustoz Oybekdek to'lib
Yozajaksan yangi bir doston.
Balki Habib Abdulla bo'lib,
Sahrolarda ochajaksan kon.
Tuprogi zar, ma'danim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Bu misralarda ikkita nom tilga olingan: birinchisi o'zbekning milliy shoiri Oybek, ikkinchisi esa mashhur olim, akademik Habib Abdulla. Shoir bu nomlarni tilga olishi bejiz emas: Oybek Vatanni jon qadar sevgan, Habib Abdulla esa

yurtimizning sahrolarini o'zlashtirishga katta hissa qo'shgan. Shu ma'noda ularni ham O'zbekistonning ramziga aylangan tarixiy siymolar deyish mumkin.

Umuman olganda, qasida uslubida bitilgan bu she'r millat kishisida shu yurtga mansublik tuyg'ularini, faxru iftixorni uyg'otadi. Shoir tarixiy voqelik chizgilari, tarixiy shaxslar tasvirini yaratish orqali, avvalo, yurt shonli, suronli kechmishi manzaralarini bersa, ikkinchidan, uning kamoli yo'lida xizmat qilgan insonlarini timsol, ramz darajasiga ko'taradi.

Shoir she'rlari orasida o'zbek adabiyotining yorqin namoyandalariga bag'ishlangan she'rlar ham o'ziga xos tizimni tashkil etadi. "Oybek haqida qo'shiq" she'ri shu jihatdan ahamiyatli.

Qalbi pok, mardona elning,
Sen aziz farzandisan.
Ganju mulkka bergisiz el,
Gavhari, dilbandisan.

Bu she'rda lirik obraz yaratilgan. Darhaqiqat, shoir deyarli barcha she'rlari asosida Vatan, millat, xalq timsoli bir-biriga uyg'unlashib ketgan. Shu jihatdan Oybekni shunday qalbi pok, mardona elning aziz farzandi, gavhari deydi.

Har kalimang ma'rifatning
Ufqida oydek to'lib,
El aro topding sharaf sen,
Ustoz Oybek bo'lib.
Shan hayoting odamiylik
Xayru soflikdan nishon,
Chaqnadi she'ringda nurli
E'tiqod birlan imon.

Yuqoridagi satrlarda Oybekning siyrati aks etgan. Shoir "kalimang" deganda u yaratgan asarlarni nazarda tutadi. Odamiylik, xayru soflik, e'tiqod va imon kabilar esa Oybekning insoniylik fazilatlarini sifatida tilga olinadi.

Goh Navoiy suhbatingda,
Goh Torobiy, Yo'lchi goh,
Sen sevikli davrim o'g'li
Begumon, beishtiboh.
Xizimatingdan, hikimatingdan
Elu yurt mangu rizo,
O'chmagay, noming asrlar
So'ngidan bergay sado.

Bunda Oybek ijodiy olamiga talmeh orqali kirib borilgan: ya'ni Navoiy uning "Navoiy", Yo'lchi "Qutlug' qon" romanlari, Torobiy "Mahmud Torobiy" she'riy

dramasiga ishoradir. A.Oripov ustoz-ijodkor nomini faxr ila she'rga solar ekan, u asarlari bilan hamisha "nomi asrlar so'ngida bergay sado", deydi. Bu bilan shoir nomining mangulikka daxldorligini ifoda etadi.

Shunday qilib, Abdulla Oripovning "O'zbekiston" qasidasi, "Oybek haqida qo'shiq" she'rlarida tarixiy voqelik badiiy chizgilarda namoyon bo'lgan. Shoir talmeh qilgan, lirik obrazini yaratgan tarixiy shaxslar o'tmish sahifalarini nurlantirib, bugungi hayotimizni yoritib turibdi. Bu she'rlar o'tmishdan nafaqat o'rganishga, balki undan hayotiy saboqlar chiqarishga chorlaydi, milliy g'urur tuyg'usini tarbiyalaydi.

Adabiyotlar:

1. Рахимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. –Т.: Фан, 2007. – 260 б.
2. Орипов А. Танланган асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. Шеърлар ва дostonлар. Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 432 б.

LIRIK MOTIV VA UNING POETIK TIZIMDAGI O'RNI
LYRICAL MOTIF AND ITS PLACE IN THE POETIC SYSTEM

Hakimjonova Ra'no

O'zMU "O'zbek adabiyotshunosligi"

kafedrasi o'qituvchisi

Tel: 97 130 36 41

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada lirik motiv poetik motiv turlaridan biri sifatida tadqiq etiladi va uning poetik tizimdagi o'rni, lirik matnda namoyon bo'lish shakllari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, lirik motivlar epik motivlar bilan qiyoslanib, umumiy va farqli tomonlari tasniflanadi.*

***Tayanch so'zlar:** poetik motiv, epik motiv, lirik motiv, motiv obraz, syujetlilik, mavzu, lirik kechinma, lirik matn, lirik voqea.*

***Annotation.** This article explores the lyrical motif as one of the types of poetic motif, and examines its place in the poetic system, forms of manifestation in the lyrical text. Also, lyrical motives are compared with epic motives, and common and different sides are classified.*

***Keywords:** poetic motif, epic motif, lyrical motif, motif image, fabula, theme, lyrical feeling, lyrical text, lyrical event.*

An'anaviy adabiyotshunoslikda poetik motiv asosan epik asarlarda syujetning ajralmas elementi sifatida o'rganiladi. Syujet emas, inson kechinmalari asosiga quriluvchi lirikada motivlar qanday namoyon bo'lishi muammosi esa o'z yechimini topmagan. Lirik asarlar tahlillarida motiv atamasi hech qanday ta'riflarsiz qo'llanilib kelingan. Adabiy ensiklopedik lug'atda [Literaturniy ensiklopedicheskiy slovar. 1: 409] V.Xalezev [Xalizev V. 7:172] va I.Selantevlar [Silantev I.3:86] ishlarida lirik motivning bir necha belgilari ko'rsatib o'tilsa-da, epik motivdan qaysi xususiyatlari bilan ajralib turishiga doir nazariy fikrlar aytilmagan, ta'rifi keltirilmagan. Aksariyat hollarda tadqiq obyektini epik motiv tabiatini ochishga qaratilgani sabab, muammo to'la ochib berilmagan.

Motiv obrazning epik va lirik asarlarda namoyon bo'lishi bir-biriga o'xshaydi. Motivga epik asarlar misolida syujetning bo'linmas elementi sifatida qaralar ekan, bu ta'rifni lirik asarlarga nisbatan ham qo'llashimiz mumkin. Chunki "syujetlilik badiiy asarning xos xususiyatlaridan biri bo'lib, syujet tur yo janridan qat'i nazar, barcha asarlarda bor, biroq uning namoyon bo'lishi ko'p jihatdan qaysi tur yoki janrga mansubligiga bog'liq. Masalan, lirikada voqealar tizimi yo'q, lekin unda o'y-fikrlar, his- kechinmalar rivoji bor va bu uning syujetini tashkil qiladi" [Quronov D. 9: 287-288].

Poetik motivni o'rganilish tarixiga nazar tashlasak, dastlabki bosqichda og'zaki ijodning epik namunalari tadqiq etilgani, keyingi bosqichda yozma adabiyot namunalari ham tadqiqqa jalb etilganini kuzatishimiz mumkin. Poetik motivlar asosan yozma va og'zaki adabiyotda uchraydigan epik motivlar syujet asosini tashkil

etuvchi element sifatida o'rganilib, yuqorida ta'kidlanganidek, lirik asarlardagi motivlar tadqiqiga kam e'tibor berilgan.

Xususan, rus adabiyotshunosligida lirik motivlarini tadqiq etish M.Lermontov she'riyati misolida boshlangan. A.Veselovskiy tadqiq obyekti sifatida motivlarni o'rganar ekan, epik asarlarga asosiy e'tiborni qaratib, lirik asarlarda namoyon bo'lishiga to'xtalmaydi.

Lirik motivning xarakterli xususiyatlari "Adabiy entsiklopedik lug'at"da qisqacha keltirib o'tiladi. Unga ko'ra, lirik motiv mavzu bilan qiyoslanib, mavzuga nisbatan mustaqilligi, alohida semantik yukni tashuvchi kalit so'z bilan (Lermontovda *surgun*, Tyutchevda *tuman*) namoyon bo'lishi aytiladi. Motivni she'riyatda o'rganish ijodkorning o'ziga xosligini, uning badiiy tafakkuri va poetik tizimini ochib berishi va doimiy qo'llanadigan obrazlar bilan ifodalanishi mumkinligi aytilib, shuningdek, ramziylik elementlarini o'z ichiga olganda (Gogol *yo'l*, Chexov *bog'*, Lermontov *cho'l*, Pushkin *qor bo'roni*) motiv ma'nosi yanada qat'iylashishi ta'kidlanadi. [Literaturniy entsiklopedicheskiy slovar. 1: 409].

N.Tamarchenko motivlarni turlar bo'yicha lirik, epik, dramatik deb tasniflab, lirik motivga misollar keltiradi (masalan, lahzalar), lirikada motivlarni janrga bog'lab, janr motivlari tushunchasini qo'llaydi va bunga elegiya janriga xos elegik motivlar deb hayotning so'lishi, qisqaligi va o'tkinchiligi, yaqinlashib kelayotgan oqshom yoki kuz misollarini keltiradi, ammo lirik motivga ta'rif bermaydi [Tamarchenko N. 5:193].

Lirikada motivlar konkret mavzuni emas, balki mavzuning o'zi bir qator motivlar ishtirokini ta'minlaydi.

V. Xalizev lirik motivlarga qisqacha to'xtalib, lirik asarlarga og'zaki motivlar xos, deydi [Xalizev V. 7:172].

M.Lermontov ijodi misolida XX asrning so'nggi o'n yilliklaridan boshlab, individual ijodiy tajriba mahsuli sifatida motivlar o'rganila boshlandi. Jumladan, motivlarning nafaqat epik, balki lirik asarlarda xam, o'ziga xos tarzda qo'llanilishi ko'rsatildi. [Motivi v Lermontovskaya entsiklopediya. 4: 21] Misol uchun, lirik motiv alohida ma'no berilgan takrorlanuvchi element (obraz), takroriy so'z (obraz, holat, fikr) bilan ifodalanishi mumkinligiga diqqat qaratildi. Shuningdek, lirik motivlarning epik motivlardan farq qilishiga qaramay, ularga xos xususiyatlarni davom etirishiiga oid bir nechta zamonaviy yondashuvlar ilgari surildi. Unga ko'ra, epik asarlarda qo'llanilgan syujet motivlarning she'riyatda ham birday ifodalanishi me'yoriy adabiy jarayon sifatida baholanadi. Faqat epik syujetlarga xos motivlarning lirik motivlar misolida aks etishi voqea rivojiga asoslanmaydi, balki shoir kechinmalarini chuqurroq his etishga yo'naltirilgan bo'ladi. Adabiyotshunoslik lug'atida: "Aksariyat lirik she'rlarga voqealar tizim tushunchasi mutlaqo yot, biroq ularda ham o'y-fikrlar,

his-kechinmalar rivoji kuzatiladiki, ayni shu ichki harakat ularning syujetini tashkil etadi" [Quronov D. 9: 164].

"Lirik asarda voqealar tizimi yo'q, biroq bir-biriga bog'liq o'y-fikrlar, his-kechinmalar rivoji mavjudki, ushbu harakatning ham boshlanishi, rivojlanishi va yakuni bor". [Quronov D. 8: 225]. Masalan, sayd, sayyod, dom motiv obrazlari (Bahrom Go'r (sayyod)ning ov (sayd)ga chiqishi va Dilorom (domi)ga ilinishi); tabib, bemor, dard, dori motivlari (Majnun (bemor)ning otasi uni Ka'batullohga Yaratgan (tabib) dan ishq dardiga shifo (dori) tilashi uchun olib borishi yoki Bahrom (bemor)ning hijron dardiga giriftor bo'lishi va tabiblar tomonidan davolanishi va yetti qasr (shifo)ning qurilishi) kabi voqealarda aks etadi.

Lirik asarlarda motivlarning o'ziga xos tomonlari aynan lirik voqeaning mohiyati bilan belgilanadi. Tabiiyki, bu o'rinda lirik matndagi voqea epik asarni tashkil qiluvchi voqeadan farqlanadi. Lirik voqea o'z mohiyatiga ko'ra, lirik subyekt xususan, lirik qahramonning kayfiyati dinamikasini anglatadi. Epik voqea esa M.Baxtin ta'biri bilan aytganda, o'quvchi va eshituvchidan alohida, obyektiv holda bayon qilingan voqea. U kimdir tomonidan bayon qilingan voqea, amalga oshirilgan harakat bo'lishi mumkin, lekin uning o'quvchi hamda eshituvchiga aloqasi yo'q.

Epik asarlarda motiv syujet hosil qilishda asosiy rol ni o'ynasa, lirik asarda mavzu qanday motivlardan foydalanishni belgilab beradi. Aniqroq qilib aytganda, lirik asarlarda motivlar mavzu sifatida ham namoyon bo'ladi. Masalan, yolg'izlik, hijron, erk, ozodlik v.h. Cho'lpon she'riyatidagi *erksizliklik*, *tutqunlik* mavzusi *qarg'a*, *paranji*, *qish*, *somon parcha* kabi lirik motiv obrazlarda ifodalanadi.

Poetik motivning yuqorida tilga olingan xususiyatlari ko'p jihatdan epik asarlarga xos sanaladi. Biroq quyidagi mulohazalarga ko'ra, ularni lirik asarlarda ham qo'llash mumkin:

1. Motivlar haqidagi keltirib o'tilgan yondashuvlarda semantik jihatdan o'sib borishi, ya'ni dinamiklik xususiyati aytib o'tiladi. O'z navbatida, ushbu xususiyatni bitta she'r yoki lirik asar doirasida tadqiq etishning imkoni yo'q. Shu bois yuqorida tilga olingan barcha olimlar lirik asarlardagi motivlarni o'rganishda bir muallifning butun boshli ijodi yoki muayyan davr konteksti doirasida tadqiq etish lozimligini ta'kidlaydilar. Chunki bir lirik asar doirasida motivlarni nafaqat ma'lum bir guruhga mansubligini aniqlash, balki ularni qismlarga ajratib o'rganish ham bir qator murakkablik tug'diradi. Zotan, shoirning bitta she'rida qo'llanilgan motiv boshqa matnda butunlay boshqa obraz bilan birlashishi, uning matn osti ma'nosini aks etirishi ham mumkin.

2. So'nggi yillardagi adabiyotshunoslikda ilgari surilayotgan yangicha yondashuvlar, lirik asarlarda motivlarni o'rganish muammosining murakkabligi

ushbu sohani kontekst va intertekst kabi tahlil usullari bilan chog'ishtirgan holda tadqiq etish lozimligini nazarda tutadi.

Lirik asarlarda motivlarning qo'llanilishiga oid qarashlarni umumlashtirgan holda quyidagi mulohazalarni keltirish mumkin:

1. Lirikada motiv alohida ma'no berilgan takrorlanuvchi element (obraz). Xususan, takroriy so'z (obraz, holat, fikr) bilan ifodalanishi mumkin;

2. Epik asarlarda qo'llanilishidan farqli tarzda, lirik motivlar emotsional holatni ifodalash nuqtai nazaridan muallif va o'quvchi o'rtasida o'ziga xos dialog o'rnatadi;

3. Zamonaviy adabiyotda, ayniqsa, she'riyatda lirik motivlarning yangicha izomorf xususiyati ularni badiiy obrazlar bilan umumiy va farqli tomonlarini aniqlashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Литературный энциклопедический словарь. М.: "Советская энциклопедия", 1987. – С.409.
2. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. М., 1970. – С. 4.
3. Силантьев И.В. Поэтика мотива. – М.: "Языки славянской культуры", 2004. – С.86.
4. См. статьи под заголовком «Мотивы в Лермонтовская энциклопедия. – М., 1981. – С. 27.
5. Тамарченко Н. Д. Теория литературы. В двух тома. Том 1. –М., Академия, 2004. – С. 193.
6. Тюпа В.И. Аналитика художественного. — М.: "Лабиринт", 2001. — Б. 85-88;
1. Тюпа В.И. Тезисы к проекту словаря мотивов // Дискурс. — Новосибирск, 1996. — № 2 — С.
7. Хализев В. Теория литература. – М.: "Высшая школа", 1999. – С.172.
8. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. T.: - "Akademnashr", 2018. – B.164.
9. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2010. – С. 287-288.14

ДОСТОН ҚАҲРАМОНИ – ҚАДРИЯТЛАР «ҚАЛҚОН»И

*Мунисжон Ҳакимов,
ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти
ва фольклори институти илмий
ходими*

Жамол Камол етти жилдлик сайланмасининг охириги жилдига киритилган достонларидан яна бири «Шайхзода» асаридир. Муаллиф бу достонини ҳам умрининг сўнгги йилларида ёзди. Достон лирик қаҳрамони муаллиф. У китобхонга озар ва ўзбек халқининг буюк фарзанди, шоир ва адабиётшунос Мақсуд Шайхзода ҳақида ҳикоя қилар экан, унинг сўзлари кўшиқдек жаранг сочади. Шоирнинг ўзи достонни фахрия деб атаган. Турли ҳажмдаги ўн бир қисмдан иборат лирик достон «Ким эди у аслида бу дунёда?» деган тугун билан бошланади. Асар давомида лирик қаҳрамон бу саволга кечинма асосида жавоб беради. Кириш қисмида достоннинг рамзий мундарижасини тузиб олади:

*Озарбайжон қуёшидан
нур эди,
Инсонларга нур каби
манзур эди,
Донишмандлик бобида
машхур эди,
Шоир эди, олим эди
Шайхзода,
Жафокаш деб маълум эди
Шайхзода.¹*

«Озарбайжон қуёшидан нур» – Шайхзоданинг Озарбайжонлик эканлигининг шоирона ифодаси. «Инсонларга нур каби манзур»лиги эса унинг инсонийлик фазилатига ишора. Шунингдек, у донишманд, жафокаш олим ва шоир. Достоннинг кейинги қисмларида Шайхзодага тегиш мана шу инсоний ва ижодий қирралар ҳақида сўз боради.

¹ Жамол Камол. Ўша китоб. – Б. 127.

Достоннинг тарихий замони қама-қама, сургун қилиш авж олган давр билан бошланади. Яъни хурликни, эркни истаган шоир «1927 йилнинг июнь-июль ойларида советларга қарши аксилинқилобий тарғибот олиб боришда айбланиб ... қамоққа олинади», Доғистонда бўлган суд уни қурилиш ишларига сургун қилган эди ва «Махсус кенгаш Шайхзода ишини қайта кўриб, уни Тошкентга 3 йилга сургун қилиш ҳақида ҳукм чиқаради»,² – дейди академик Н. Каримов ўша кунлар ҳақида фикр юритиб. Вазиятнинг шоирона иифодаси куйидагича:

*Ўз юртидан Доғистон
овлоғига,
Ундан ўзбек қардоши
тупроғига,
Ундан Сибир, Сибирдан
нарёғига,
Сургун бўлиб, қувгин бўлиб,
ҳоли забун, жигари хун,
афтода,
Маҳкум эди, мазлум эди
Шайхзода.³*

Банддаги сўзлар тизмасидан кўриш мумкинки, шоир маънодан ташқари шаклда ҳам моҳир. Беш мисрали банднинг а-а-а-б-б тарзида қофияланиши мухаммасга хос оҳангни юзага келтирган. Биринчи уч мисрадаги «овлоғига», «тупроғига», «нарёғига» сўзлари *мутлақ қофия*ни ҳосил қилган. Яъни равий «ғ» товуши бўлиб, ундан сўнг қофиянинг *мажро* (и), *васл* (г) ва *хуруж* (а) каби унсурлари қўлланган. Қофия «равийдан сўнг давом этса мутлақ қофия деб аталади»⁴. Тўртинчи ва бешинчи мисралар ҳам ўзаро қофиядош (б-б). Бунда «афтода», «Шайхзода» сўзларида охирги «а» товуши (равий) билан «о» чўзиқ

² Каримов Н. Поклик ва улуғлик тимсоли. Китобда: Икки халқнинг ўғли Мақсуд Шайхзода. – Боку: Илм ва таҳсил, 2019. 180.

³ Жамол Камол. Ўша китоб. – Б. 127.

⁴ Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ. 1999. – Б. 197.

унлиси (ридфи аслий) орасида «д» ундоши (*ридфи зойид*) нинг қўлланиши орқали *ридфи зойидли қофия* яратилган.⁵

Қолаверса, охирги икки мисрада қофия яратиш билан боғлиқ бўлган *мусажжаъ* санъатини ҳам шоир маҳорат билан қўллаган. «Мусажжаъ шеърларда, – дейди атоқли адабиётшунос А.Ҳожиаҳмедов, – байтлардаги мисралар тўрт бўлакка бўлиниб олдинги уч бўлак мустақил ҳолда қофияланиб, тўртинчи бўлак эса шеърдаги асосий қофияга оҳангдош сўз билан тугалланади».⁶ Бироқ Жамол Камол байт (2 мисра)да эмас, ҳар бир мисранинг ўзида усталик билан ички қофия (мусажжаъ)ни қўллаган, ҳатто тўртинчи мисрада мусажжаъ қофия сонини, мустаҳзоднинг орттирилган мисраси каби қўллаб, тўрттага етказган. Яъни тўртинси мисрада «сургун», «кувғин», «забун», «хун» сўзлари, бешинчи мисрада эса «махқум», «мазлум» сўзлари асосий қофиядан ташқари ана шундай ички қофияни юзага келтирган. Бандда қофияларни ўрни билан ҳар хил усулларда қўллаш руҳий ҳолатни янада аниқроқ англашга олиб келган.

Лирик дoston кейинги воқеалар ривожиди, яъни кейинги учинчи, тўртинчи қисмларда, Шайхзоданинг сургундаги азобларидан сўз юритилади. Муаллиф бунда ҳам шоирона маҳоратини ишга солиб Шайхзода азобларини:

... Азобларга нишон бўлди

Шайхзода,

Ҳамма яхши, ёмон бўлди

Шайхзода...

... Зулм кўриб, ўлим кўриб

зиёда,

ҳуқуқлардан маҳрум эди

Шайхзода...⁷

⁵ Қаранг: Ўша китоб. – Б. 200 – 202.

⁶ Ўша китоб. – Б. 226.

⁷ Жамол Камол. Ўша китоб. – Б. 128.

каби сатрлар билан китобхонга қисқа ракурсларда тасвирлаб ўтади. Қийноқларнинг фактлари билан танишган академик Н.Каримов 50 йиллар қатағони ҳақида «... Шайхзода совет ёзувчиси деган «шарафли унвон»га доғ туширган ижодкор сифатида дастлаб Ёзувчилар уюшмаси аъзолигидан чиқарилган. Сўнгра қамоққа олиниб, уни яхши билган, унинг инсоний фазилятлари ва ижодий ютуқларидан баҳраманд бўлган кимсалар олдиға ғажиш учун ташланган»⁸, – дея қайд этади.

Китобхонда савол туғилади: Шайхзоданинг айби нима? Қайси гуноҳи учун уни «ғажиш»ди? Достоннинг бешинчи қисмида лирик қаҳрамон ана шу «гуноҳ»ларни айтиб ўтади. Ватанни севгани, миллатини кўздаги ёши, дилдаги оҳи ўлароқ шеърға солгани, истиклол учун курашганлиги унинг «гуноҳ»и эди:

Шунинг учун «айбдор» бўлди

Шайхзода,

Қатагонға дучор бўлди

Шайхзода...⁹

Ватанини, миллатини чин дилдан севганларға ҳеч замонда осон бўлмаган. Садоқатли фарзандлар эса қаршилик ва азобларға қарамай танлаган йўлида собит одимлайверишган.

Енгилмади, енга олди

Шайхзода,

Шайхзода бўлиб қолди

Шайхзода!¹⁰

Лирик қаҳрамон наздида Шайхзоданинг Шайхзода бўлиб қолиши ўзлигидан кечмаганлиги, жоннинг роҳатини деб диёнатни сотмаганлиги, самимийлик ва соф виждон билан сотқинлар устидан ғалаба қозонганлигидир. Достонда контрастнинг қаҳрамон ҳаёт йўли мисолида берилиши китобхон кўз ўнгида воқеликни равшанроқ гавдалантирган.

⁸ Каримов Н. Ўша мақола. Ўша китоб. – Б. 185.

⁹ Жамол Камол. Ўша китоб. – Б. 129.

¹⁰ Ўша жойда.

Шайхзода тасвири берилган ўринларда муаллиф қаҳрамонни романтик дostonларга хос бўртма ифодаларда кўрсатади:

*Вужудид а арслондек
гайрати,
Сиймосида жасорату
журъати,
Гуриллаган овозида
шижоат,
Юзларида, кўзларида
назокат,
Қадам босса, қадами
шоиқин эди,
Тафаккури тўлқину
тоиқин эди¹¹*

Тасвирдаги бундай қабариклик лирикага хос хусусият. Қолаверса, Жамол Камолнинг Шайхзода шахси ва ижодига чексиз меҳри натижаси. Мана у шеърятга кириб келишини қандай хотирлайди:

«Мактабда аввал Бобур рубоийларини ёд олдим, кейин Навоий ғазалларини. Ҳамид Олимжон севимли шоирим эди. Кейин Уйғунни, Ғафур Ғуломни танидим, сўнг Ойбек, Шайхзода ва Миртемирни. Уларнинг шеърларини севиб ўқидим, ёд олдим. Беихтиёр ўзим ҳам шеърлар ёза бошладим».¹²

Аёнлашадики, Шайхзода Жамол Камолнинг суйган, уни ижодга илҳомлантирган устозларидан. Бу вазиятда муаллиф Шайхзода образини муболағасиз тасвирлаши қийин эди, албатта.

Шайхзода ижодкор сифатида, ўнлаб тўпламлардан ташқари, «Жалолиддин Мангуберди», «Мирзо Улуғбек» каби шоҳ асарлар яратди, жаҳон адабиётининг

¹¹ Жамол Камол. Ўша китоб. – Б. 130.

¹² Жамол Камол. Сайланма. VII жилдлик. IV жилд. – Т.: Янги аср авлоди. 2018. – Б. 58.

сара асарларини таржима қилди. Навоий лирикаси юзасидан тадқиқотлар олиб борди, талабаларга дарс берди. Хуллас,

Изланишига тимсол эди

Шайхзода,

Ибрат эди, мисол эди

Шайхзода...¹³

Олдинги қисмлар беш, саккиз мисрадан ташкил топган бўлса, дostonнинг мазкур қисми ўн олти мисрадан иборат. Яъни муаллиф Шайхзоданинг ижодий фаолиятига нисбатан кенгроқ тўхталган ва дoston қисмлари ҳажмига қатъий талаб қўймаган.

Муаллиф Шайхзоданинг шеъриятга муҳаббатини янада кўтарингки оҳангда таърифлайди:

Шеър – қуёши, адабиёт –

дунёси,

Навоийнинг санъатлари

шайдоси,

Рубоийлар, газалларни

севарди,

Ташибих деган гўзалларни

севарди,

Яъни Жамол Камолга кўра адабиёт турли соҳалари билан Шайхзода дунёсини ташкил этганда шеър у борлиқда энг олийси – қуёшдир.

Дostonнинг тўққизинчи қисмида муаллиф лирик чекиниш қўллайди. 1962 йилнинг кузида ёш шоирларнинг Дўрмон ижод семинарига Жамол Камол ҳам келади. Ўшанда у 24 ёшда эди. Шайхзода унинг қаерданлигини сўраганида ёш йигит «Бухородан», – деб жавоб беради. Устоз буюк деб билган шаҳар номини чала айтмасликни, Бухоройи шариф деб айтишни, шеърият байроғини баланд

¹³ Жамол Камол. Ўша китоб. – Б. 130.

тутишни насихат қилади. Бу лирик чекиниш орқали Шайхзода образи лирик қахрамонга йўл кўрсатувчи устоз сифатида намоён қилинган:

Менга хайри назар этди

Шайхзода,

Толеимдан хабар этди

Шайхзода...¹⁴

Йўл кўрсатувчи образи муаллифнинг «Файласуф» достонида ҳам қўлланган (Бу ҳақда биз аввалроқ тўхталиб ўтгандик). Хизр қиёфасида намоён бўлган йўл кўрсатувчи образи «Файласуф» достонида эпизодик қўлланган. У афсонавий-анъанавий образ. «Шайхзода»да эса бу образ асосий қахрамон ҳисобланиб, ҳаётий шахс.

Шунингдек, дostonда лирик қахрамон Шайхзоданинг мушоҳадакор сатрларини қўллаб шоир ижодининг қимматини янада равшанроқ тасвирларда кўрсатади.

*“Кишилар бўладики,
тиригида ўликдир,
Ўликлар бўладики,
мангуликча тирикдир...”*

*“Шаҳарлар боқийдир,
умр ўтқинчи,
Дарёлар собитдир,
сувлар кўчқинчи...”¹⁵*

Лирик қахрамон бундай сатрларни «маъносига тўйилмас ҳикмат», «авлодлар зехни учун заҳира» деб билади. Шайхзода қаламига мансуб сатрларнинг берилиши ҳам дostonда лирик чекиниш тарзида қўлланган. Зеро, профессор У. Норматов таъбири билан айтганда: «Дoston донишмандликни ёқтирадиган, ҳар қанча лирик чекинишларга, дадил ўй-мушоҳадаларга,

¹⁴ Жамол Камол. Ўша китоб. – Б. 132.

¹⁵ Жамол Камол. Ўша китоб. – Б. 132.

давринг катта гапларини айтишга, ифодалашга имкон берадиган жанр»¹⁶. Айни пайтда лирик қаҳрамон Шайхзода қаламига мансуб парчани ҳам ўз мақсади йўлига хизмат қилдирган. Яъни у Шайхзода қалбан биз билан доимо яшаши, она халқ, ватан абадий эканлигини айтмоқчи.

Муаллиф дostonда ҳатто Шайхзода ҳаётидаги деталларни ҳам қўллаган:

*Радиога қулоқ тутиб
тунларда,
Мафтун эди сирли оҳанг,
унларга.
Йироқ-яқин Шарқ созининг
садосин,
Бу дунёнинг битмас
шўру завғосин
Бир шоирдек тинглар эди
Шайхзода,
Файласуфдек англлар эди
Шайхзода.¹⁷*

Шахснинг камолга етишида, дунё билан ҳамнафас яшашда биргина китобхонликнинг ўзи камлик қилади. Лирик қаҳрамон Шайхзода шахсини яратишда шу нуқтаи назардан келиб чиқиб унинг радио орқали муסיқа тинглашини, дунёда рўй бераётган воқеалардан хабардор бўлишини айтади.

Дoston кульминацияси Шайхзоданинг икки хонали «тор хужра»да яшаб, «Сакинахон ёри йиғлаб сиқта»ши билан уч хонали уйга тобутда олиб кирилишидир. Ҳолатга лирик қаҳрамоннинг муносабати кулминация драматизмини яна оширган:

*Эвоҳ, дейман, қадр ила
киймат қани?
Қадрсизлик саволи*

¹⁶ Норматов У. Дoston ва замон // Шарқ юлдузи. 1987. №10. – Б. 176.

¹⁷ Жамол Камол. Ўша китоб. – Б. 132.

қийнар мени...¹⁸

Нафақат лирик қаҳрамонни, балки ўқувчини ҳам ўйга толдирувчи бу саволга муаллиф файласуф шоирнинг тилидан жавоб беради:

Устоз дейди: қадру

қиймат эмасми,

Парвардигор илҳом

ато этгани,

Шоирлик қисматин

раво этгани?...

Демак, эрк, озодлик, ватан равнақи йўлида яшаш, бу йўлда бошга келган балоларга қарши курашишни халқнинг чин фарзанди Шайхзода ўзи учун кулфат эмас, шараф деб билган. Достон сюжетини бойитган бу сатрлар шеър ва шоирлик, умуман, адабиёт оламига кириб келаётган ёшларга ўғит ўлароқ жаранг сочган.

Таъбир жоиз бўлса, достон бошдан охир Шайхзода шахси, ижоди ҳақида яратилган қасида каби ўқилади. У китобхон қулоғида қўшиқ мисоли янграйди. Бунга Жамол Камолнинг устоз Шайхзодага чексиз муҳаббати сабаб. Шоир учун:

Асларнинг асли эди,

Шайхзода,

Низомийнинг насли эди

Шайхзода¹⁹

Достон маълум тарихий давр ва тарихий шахс билан боғлиқ воқеалардан сўзлаши билан эпиклик касб этса, воқеаларга лирик қаҳрамон орқали муаллиф «мен»и муносабат билдириши лирик усулни юзага келтирган. Яъни у ўзида ҳам лирик, ҳам эпик хусусиятларни намоён этувчи лиро-эпик асардир.

Жамол Камолнинг фахрия сифатида битилган «Шайхзода» достони китобхонни Мақсуд Шайхзода шахси ва фаолияти билан яқиндан таништирувчи

¹⁸ Жамол Камол. Ўша китоб. – Б. 133.

¹⁹ Жамол Камол. Ўша китоб. – Б. 134.

манзумадир. Достонда Шайхзода қиёфаси халқпарвар, миллат озодлигини истовчи, ўтмишни англашга интилувчи, самимий инсон, моҳир шоир, олим, таржимон сифатида гавдалантирилган. Муаллиф шоир қиёфасини қабарик тасвирларда беради. Бунда унинг Шайхзодага бўлган эҳтироми намоён бўлган. Ўқувчи Шайхзоданинг шоирлиги, «маъносига тўйилмас», боқий сатрлари ҳақидаги ўринларни достонда мароқ билан ўқийди. Асарда шоир мутлақ қофия, ридфи зойидли қофия, мусажжаъ каби қофиянинг бир неча турларини, мустаҳзодга хос орттирилган мисрани усталик билан қўллайдики, бу қаҳрамон руҳий ҳолатини аниқроқ тасаввур этишга имкон беради.

OYBEK LIRIKASIDA TABIAT MAVZUSI VA FALSAFIYLIK MASALASINING YORITILISHI

Yuldasheva Quvonchoy,
UrDU magistranti

Annotatsiya. Maqolada XX asr o'zbek adabiyotining yorqin siymolaridan biri shoir, nosir, adabiyotshunos Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek ijodiyoti, ayniqsa, she'riyatini yangicha talqinda tahlil qilishga qaratilgan bir qancha tadqiqotlar xususida fikr yuritiladi. Bu jarayonda U.Hamdami, M. Qo'shjonov, Q.Yo'ldoshev Nargis Matqulovalarning Oybek sof lirikasi borasida qilingan izlanishlariga tayandik.

Kalit so'zlar. Tanqidchi, adabiyotshunos, tahlil, ruhiyat, obyektiv borliq, poetic san'at, obraz, shaxsiyat.

Annotation. The article reflects on a number of studies aimed at analyzing the creative work of one of the bright figures of 20th century Uzbek literature, the poet, novelist, literary critic Musa Tashmuhammad son Oybek, especially his poetry, in a new interpretation. In this process, we relied on the researches of U. Hamdam, M. Koshjanov, Q. Yoldashev Nargis Matkulova on Oybek pure lyrics.

Key words. Critic, literary scholar, analysis, psyche, objective being, poetic art, image, personality.

O'tgan asr oxirlarida Muso Toshmuhammad o'g'lining ijodiy faoliyati qolaversa, she'riyatini yangicha ruhda o'rganish, tahlil etish tamoyillari o'rta tashlandi. Taniqli adabiyotshunos B.Nazarovning ma'lumotlariga tayangan holda shuni aytishimiz mumkinki, Ulug'bek Hamdam Oybekning tom ma'noda mafkuraga mutloq aloqasi bo'lmagan sof lirikasini astoydil tadqiq qildi. Oybek ijodining o'rganilishi qandaydir ma'noda o'ziga xos bir kurash maydoniga aylandi. Oybekning quyidagi she'riga e'tibor qarataylik:

Labimda bir o'tli oh,

Xayolim ufqi siyoh,

Mozoringga yiqildim,

Istadim totli nigoh.

Ushbu she'r Oybekning ayni ijod dunyosiga kirib kelib jo'sh ura boshlagan davri, ya'ni 1924-yilda yozilgan. Bu misralari orqali shoir o'zining o'tli nolalarni ifoda etmoqda. Farzandlik va onalik mehri ayni jo'sh urgan pallada onadan bir umrga judo bo'lishlikni tushunib yetish hissi shoir iztiroblarini qalamga olishga undagan. Jahon adabiyotiga yuzlanadigan bo'lsak, Oybek yaratgan misralarga o'xshash diltortar she'rlar ulug'langan. Ammo, sho'ro mafkurasiga tamomila bo'ysundirilgan tanqidchilikda esa inson qalbini larzaga soluvchi bu kabi og'riqli she'rlarga tamomila qarshilik nazari bilan qaralgan, armonlar ifodalangan misralar qoralangan, sho'roviy

tarbiyaga zid va o'ta zararli ruhda yozilgan asar sifatida tanqid qilishgan. Bunday asarlar to'gridan-to'g'ri rad qilingan. Oybekning "O'zbek eli", "Oqshom qo'shiqlari" nomli she'rlarida ham aynan shu g'oyalarni idrok qilishimiz mumkin. "G'uncha guldan go'zalroq, chunki uning bag'rida ikki hayot: o'z hayoti va gul hayoti bor", - degan edi mutafakkir yozuvchi Abdulla Qahhor. Haqiqat joizki, g'unchada qaytadan ochilish, chechak bo'lish imkoniyati bor. Taniqli adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshev Oybekning 19 jildlik mukammal asarlari to'plamida ham aynan ana shunday "g'uncha" ga qiyoslanuvchi o'ttiz sakkizta tugallanmay qolgan she'rlari borligini ta'kidlaydi. Aslida har qanday she'r tugallikka ega bo'lmaydi. She'r bamisoli ruhiyatdir. Ruhiyat esa makonda ham zamonda ham o'z poyoniga ega emas. Bu o'ttiz sakkizta she'rning ayrimlari hajman kichik ikkiliklardan iborat, ayrimlari esa yirik bandlarni tashkil qiladi. She'rlar mavzu ko'lamiga ko'ra shu davrning dolzarb masalalari haqida.

Anuv yoqda yosh bolalar

Tom tepishib o'ynashadi.

Anuv uyda dutor chalar

Tutqun kelin Bu – faryodi.

Qozoqboy Yo'ldoshev shoirning "Balandlik" nomli she'rini tahliliga kirishar ekan she'rning aynan tugallanmagan she'rlari sirasiga kirganini aytadi. Shoir bir qarashda atrofni tasvirlashga tutinganday bo'ladi, ammo olam manzarasini chizmaydi, balki o'z kechinmalarini tasvirlaydi, darddan to'lib ketgan yuragini bo'shatadi. She'rda "anuv" murojatini ko'rishimiz mumkin. Keyingi misralarda esa yosh kelinning ham tutqunlikdan ilojsiz ekanligi va uning yagona hamrohi dutorligi ifoda etiladi. Bu she'r nolasida dutorning emas balki yosh kelinning faryodi eshitilganday bo'ladi. Bu yerda so'zlarning ruhiyat aks ettirishiga urg'u berilgan.

Endi Oybekning Qozoqboy Yo'ldoshev tadqiqidagi navbatdagi she'riga e'tibor qarataylik:

Qalbidan uzilgan kabi go'zal qush

Ko'klardan yumalab toshga urildi.

Qon tomar og'zidan, qanotlaridan,

Yarali ko'ngli-la har yon surildi.

Oybekning tugallanmagan she'rlaridan biri bo'lmish "Yarali qush" da ham "o'ksizlik, foje holat tufayli insonda paydo bo'lgan kayfiyat chizgilari juda dardchil

yo'sinda aks ettiriladi". Ko'nglini to'q qilib yurgan insonning ishi doimo yaxshi bo'ladi. Qushni ba'zida jon timsoli sifatida ko'ramiz. Ruhsiz insonni jon qushi tark etganidek, yaralangan, ezilgan qalbgga ham bu qush yaqinlasha olmaydi. Qushning bu makonga kirishga urinishlari samarsiz ketadi. O'zini ayamagan jon qushi "qon tomar og'zida, qanotlarida" - deb ta'riflanadi. Lekin, ruh bu qiyinchiliklarga yengilmaydi. "Siniq qanot-la yana talpinar" deyiladi keyingi misralarda. Adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshev Oybekning hayotiy reallikni aks ettirishga urg'u beravermasligini, chunki shoir uchun hayotning realligi emas, balki poetik reallik muhimligini ta'kidlamochi. Bu she'rni o'qigan o'quvchi qush halokatining o'rnini vaqtini va buning sabablarini bilolmaydi. Masala mavhumligicha qoladi. Bu yerda qushning fojiviy ruhiyati asosiy o'rinda. Tanqidchi Oybekning yana ko'plab tugallanmagan she'rlarini o'z tahlillari ostiga jamlagan. Quyida Oybekning "Yakka og'och" nomli she'ri tahlilini olaylik:

O'ksiz boqishli, hoy og'och!

Yuzingdagi siringni och

"Oybek bu she'rini kuz oxirlayotgan, xazonrezgi mavsumida yozgan, shekilli. Yolg'iz og'och nazarida o'ksiz, yetim, ko'ngli siniq, kiyimi yupunligidan sovuqda diydirab turgan bolakayga o'xshaydi. Ayni vaqtda uning yuzi sirli. Daraxtning qarashi kishiga juda g'alati tuyiladi". Oybek ushbu she'ri orqali borliq tasvirini emas, balki o'z ichki dunyosini chizib ko'rsatgandek tuyuladi. Oybek ushbu Bu she'r tugallanmagan bo'lsa-da, o'quvchini bir dunyo hayolga cho'mdiradi. Oybek tugallanmagan sh'erlarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularni shoir aynan o'zi uchun bitganday. Oybek she'rlarida zamon muammolarini tiqishtirish va nayrangbozlik kabi holatlar umuman kuzatilmaydi.

Quyosh og'di

Kulib birdan.

Uzoqlarda ...

Yog'di, yog'di...

Kichik kulbam

Beli qorda...

Og'ochlarning

Kosov qo'li

Oq gul taqdi.

Keng tog'larning

Go'zal yo'li oqdi.

Ko'rinib turibdiki, she'rlarda tugal xulosa yo'q, ammo teran va mushohadali g'oya mujassam. Kishida ziddiyatli tuyg'ular hosil qiladi. Bu yerda quyoshning botish tasviri aks etgan. Zero, quyosh birdan botmaydi, sekin og'adi va tog'lar bag'riga tutashib tongga qadar zamin bilan xayrlashadi. She'rda qor yog'ishi ham keltiriladi, ammo bu holat ramziylik kasb etmoqda. Tanqidchi Qozoqboy Yo'ldoshev Oybekning tugallanmagan she'rlari ustida tadqiqot olib borar ekan, she'rlarda tugallik bo'lmasada, mavhumlik, teranlik, qolaversa, yetuk tuyg'ular uyg'unligiga guvoh bo'lganini bildiradi. Oybekka xos yana bir jihat shundaki, u tabiatning vahshiy holatlaridan ham ajoyib go'zalliklar topa oladi. Buni shoirning quyidagi she'ri misolida ko'rishimiz mumkin:

Zulmatlar qo'ynida yashnading,

Ay, olov chizgisi, ay chaqmoq!

Sen olov jilvalar tashlading

Kulbanga...ayama , tunni yoq...

Oybek uchun tunga bir lahzalik yorug'lik beruvchi chaqmoq qanchalar dahshatli bo'lsa-da, u zulmatdan yaxshiroq. Chaqmoq tunni zulmatini parchalab tashlagani uchun ham qimmatli va azizdir. Shuning uchun Oybek chaqmoqning turli dahshati bo'lsa ham uni sevadi.

Oybek o'ziga xos poetik uslubga ega shoir. Tugallanmagan she'rlar jumlasiga kiruvchi quyidagi tasvirga bir lahzalik e'tibor qarataylik:

Yumalab ketdi quyosh

Katta tog' qirrasidan,

Osmon-qiyamatli bir tosh

Tovlandi shu'lasidan.

Sirdaryo oynasida

Sochi qoldi bir tutam.

“Quyosh botishining “Yumalab quyosh ketdi quyosh Katta tog' qirrasidan” tarzidagi ifodalanishi kishi shuurida mixlanib qoladi”.

Lolalar ko'tarib piyolasini

“Quy “deydi quyoshga ular sho‘x, erka

Ushbu misralari orqali Oybek hayotni shunchaki tasvirlamaydi, balki uning aynan nusxasini keltiradi. Oybek she‘rlarining har birida o‘z shaxsiyati, ya‘ni “men” i aks etadi. Oybek she‘rlaridagi har bir misra jonli, qotib qolgan emas. Ko‘rinadiki she‘r faqat sayqal berilishi sabab mukammal sanalmaydi, balki u har bir inson vujudida kechayotgan tug‘yonlarni to‘laqonli ifodalay olsagina asl she‘r deb baholanadi. Oybek esa o‘z zamondoshlaridan farqli o‘laroq poetik san‘atni yaxshi bilguvchi va shu sohaning mukammal mutaxassisi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning har bir so‘zi dilbar, o‘ziga xos siyratga ega. Zero, shoirlik mukammal kechmas ekan bu qadar jonli va ta’sirli she‘rlar vujudga kelmagan bo‘lar edi.

Oybek lirikasi juda murakkab bo‘lib, uni o‘rganish tanqidchilardan katta bir kuch talab qiladi. Oybekshunos olimi Nargis Matqulova o‘zining tanqidchilik borasidagi qarashlarini shoir ijodi bilan baravar olib boradi. “Millatni uyg‘otgan adib” nomli to‘plamda N.Matqulovanning bir qancha maqolalari o‘rin olgan. Xususan, u asosiy e‘tiborni Oybek lirikasi va undagi tabiat tasvirlariga qaratadi. “Oybek lirikasini shartli ravishda ikkiga bo‘lib o‘rganishimiz mumkin: birinchi davrda Oybekning ijtimoiy voqelik masalalari o‘rin olgan sh‘erlari bo‘lsa, ikkinchi davrga esa uning sof lirikasini kiritishimiz mumkin”. Albatta, bu ikkisi ham o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etadi. Oybek tabiatni sevuvchi shoir. Lirikasining katta qismi ham aynan tabiat xususida. Nargis Matqulova shoir ijodini o‘rganar ekan uning tabiat tasviriga bag‘ishlanuvchi she‘rlarida ikkita xususiyat farqlanishini va bular: she‘r hajmlarining ixchamligi, qolaversa, lirik murojaatning ko‘proq uchrashi ekanligini ta’kidlaydi. Quyida Oybekning tabiat tasviri aks etgan “Kuz yomg‘iri” she‘rining tahliliga e‘tibor qarataylik:

Kuz yomg‘iri , quy , quy, muttasil!

Derazam chert, kel, chal, mungli soz!

Bir yalt etib o‘tdi-ketdi yoz...

Quvonchlarga hayotmish baxil.

Oybek kuzda yog‘adigan yomg‘irni haloskor sifatida biladi. Bu she‘r ajoyib yakunga ega. Shoirdagi samimiyat she‘rga ham ko‘chgan. Tadqiqotchi ushbu she‘rni nafaqat tasviriy jihatdan, balki badiiylik mezonlari asosida ham tanqid qilishga kirishadi. Odatda, an’anaviy she‘riyat haqida gapirilganda, a-b-a-b yoki bo‘lmasa, a-a-a-b tarzida qofiyalangan she‘rlarga guvoh bo‘lamiz. Ammo, Oybekning “Kuz yomg‘iri” she‘ri qofiyaning a-b-b-a shakliga kiradi. Mana shuning o‘ziyoq Oybek

mahoratining poetik jihatdan qanchalar yuksak rivojlanganiga isbotdir. Bilamizki, adabiyotning katta qismini tashbehtar tashkil qiladi. Oybek bo'lsa, ana shu tashbehtar falsafiylik darajasiga olib chiqadi. Lirikasida ko'p uchrovchi tabiat vositalari, asosan, obyektiv borliq bilan o'zaro harakatga kirishadi. Bu jarayonda esa o'z-o'zidan shoir chiroyli tashbehtar qo'llaydi:

Quyoshning mayin zar mo'ynasin

Yopinib kuz iliq uyquda

Suv tashlab, loyqa, sho'x sur'atin

Ipakday tovlanar ko'zguda.

Bu she'rni o'qir ekanmiz, kuz faslining betakror jilosini fahmlaymiz. Ko'z o'ngimizda chiroyli ayol gavalangandek bo'ladi. Kuzning qalbi sokin va beg'ubor. Shu sababli u tinch uyquga ketgan. Aslida kuz timsoli o'rnida ana shu go'zal ayol yashiringan va u bizni ham biroz sokinlikka chorlaydi, qalbimizda iliq tuyg'ularni paydo qiladi. Oybek obraz yaratishda mayda detallarning ham ahamiyatini oshiradi va ularni bevosita harakatga tushiradi. Shoir ijodida bu kabi obrazlar ko'plab uchraydi. Uning yana bir to'rtligiga e'tibor qarataylik:

Samoda sirg'alur oshnam mungli oy,

Bizning boshimizda unda hamsuhbat

Koinot ertaga bitmaydi Ko'kchoy-

Ho'playmiz, ko'ngilda yuvilar g'urhat...

Shoirning keyingi she'ri tahlilida ham aynan hayotiy falsafaga duch kelamiz:

Daraxtlar oltindir, yangrar firoqlar,

Quyulur yaproqlar, yig'lar yaproqlar.

Oyoqlar ostida yaproqlar xazon

O'zgarmas falsafa hisobsiz zamon.

She'rda umr tushunchasiga falsafiy izoh berilmoqda. "Xazon" bu yerda umr ma'nosida kelmoqda. Bilamizki, buyuk shoir, g'azal mulkinging sultoni Mir Alisher Navoiy ham inson kechmishini "xazon" ga mengzagan. Bu an'anaviy tashbehtarlardan biridir.

Umuman, tabiat falsafasiga bag'ishlab yaratilgan barcha she'rlar kishi hayot yo'li, umr chizgilari bilan bevosita bog'liqlikda bo'ladi. Tanqidchi olim

N.Matqulova shu o'rinda Cho'lpondan iqtibos keltirib, o'z fikrini Oybekka monand dalillaydi. Biroq inson va uning umriga bog'liq falsafa tabiat shaklisiz tasvirlanganda edi, Cho'lpon tili bilan aytganda "jonsiz va nursiz" bo'lib qolar edi. Oybekning insonni chuqur o'yg'a toldiruvchi "Yo'l "she'rida ham falsafiy g'oyalar ilgari surilgan. Yo'llar bu qadim tarixning guvohlaridir:

Bu yo'lda gado surgan tulpor,

Ko'p davlatmand chaqa tilagan axir

Ushbu misralar Oybek qalamidagi eng o'tkir nigohlarni o'zida mujassamlashtiradi. Ya'ni yo'llar tarix guvohi bo'lsa ham o'zini shu qadar xokisor tutadi. Yo'llar o'zining beminnat xizmatini yana davom qildiraveradi.

Haqiqatdan ham, Oybek ijodi misli bir dengiz. Undan kimdir firuza izlaydi, yana kimdir inju-dur topadi. Oybek lirikasi tom ma'nodagi ajoyib sirli xazina Oybekning o'ziga xos she'riyati mo'jizalarga boy, nihoyatda bo'yoqdor tug'yonlar jo'sh urgan bir g'alayon, ufq shu'lasiday yorug' hislar yashiringan kuyga o'xshaydi. Yana shu bilan birga otashin yurak kechinmalari ifodalangan mo'jazzina xotirotga o'xshaydi.

ЎЗБЕК ВА ТУРК ҲИКОЯЛАРИДА МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНИЙ
ҚАДРИЯТЛАР ТАЛҚИНИ

Барчин ШУКУРОВА,
ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти
ва фольклори институти
катта илмий ходими

Аннотация: Ушбу мақолада ўзбек ва турк ҳикояларида миллий ва умуминсоний қадриятларни бадиий асар ва бадиий образлар тийнатида акс этишини Ш.Холмирзаевнинг “Қария” ва Фарид Эдгунинг “Жаллоднинг ўлими” ҳикояларида тасвирланган қария образлари мисолида тадқиқ қилинди.

Калит сўзлар: бадиий асар, эстетик идеал, қария образи, ҳикоя

Бугунги глобаллашув даврида қадриятларни тадқиқ қилиш маҳаллий ва дунё илм-фанида тобора долзарб аҳамият касб этиб бормоқда. Фарб ва Шарқ фалсафасида антик даврдан буён қадриятлар масаласига доир турли назариялар илгари сурилган. Афлотун ҳақиқат ва қадриятга асосланган ёндашувни ижтимоий ҳаётнинг фундаментал асослари сифатида ўрганеди. Зеро, ҳақиқат ва қадрият ўртасидаги умумийлик ушбу категорияларнинг ҳар қандай инсоний фаолиятга мансублигига асосланган¹. Абдулла Авлонийнинг (1878–1937) “Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ” асарида матонат, ғайрат, шижоат, қаноат, илм, сабр, интизом, виждон, ватанни севиш, садоқат, адолат, муҳаббат, авф каби “яхши хулқлар”; ғзаб, ғийбат, нафрат, адоват, зулм каби “ёмон хулқлар” ўзига хос маънавий қадриятлар сифатида келтирилган². Умуминсоний қадриятлар эса кенг кўламли ва серқирра тушунча бўлиб, озодлик, эркинлик, тинчлик, бахт-саодат, оила, муҳаббат каби ижтимоий маъно-мазмун касб этади.

Э. Юсупов “Умуминсоний қадриятлар жамият тараққиётининг муайян даврида яшаётган кишилар учун умумий бўлган қадриятлар тизимини ҳосил қилади, бошқа қадриятлар билан узлуксиз алоқада, зарурий боғланишда намоён бўлади”³, деб таъкидлайди. М. Бекмуродовнинг фикрига кўра, “миллат ўзининг қадриятларини вужудга келтириб, уларнинг янги-янги қирралари ва жиҳатларини сайқаллаштириб, тараққиёт жараёнида тамокиллаштириб, ўз қадриятларининг ҳақиқий эгаси, макон ва замондаги илгарилама ҳаракатдан иборат ўзгаришлар жараёнида уларни ўтмишдан келажак томон етказиб борадиган энг асосий объектдир”⁴.

Бадиий асарда умуминсоний қадриятлар бадиий қаҳрамоннинг характерида, аниқроқ айтганда, бадиий асар ғоясида акс этади. Қадриятлар инсониятнинг ижтимоий турмуш тарзи, этик ва эстетик идеалларида ҳам намоён бўлади. “...эстетик идеалда конкрет мафкурага нисбатан умуминсоний қадриятлар салмоқлироқ бўлиши лозим, шундагина бадиий асар ўткинчи

¹ Синячкин В. П. Общечеловеческие ценности в русской культуре: лингвокультурологический анализ. Дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 2011. – 646 с.

² Ziyo.uz

³ Юсупов Е.Ю. Қадриятлар ва уларнинг жамият ҳаётидаги аҳамияти. – Т.: 1994. – 53-бет.

⁴ Бекмуродов М. Миллий менталитет ва маънавият. – Т., 2002. – 10-бет.

ходиса бўлиб қолмайди, даврга нисбатан дахлсиз бўлиб қолади. Зеро, асар мазмунининг у яратган конкрет ижтимоий-сиёсий ҳолатга қаратилган актуал қатлами вақт ўтиши билан барибир тушиб қолади, асарни юзада тутиб қоладиган туб эстетик қатлам эса умуминсоний қадриятлар билан ҳамоҳангдир”⁵. Айтайлик, Шарқ бадиий адабиётида қаҳрамоннинг ахлоқий жиҳатлари устуворлик касб этади. Образлар тийнатида виждонлилик, хушхулқлик, бурч, садоқат, адолатпарварлик, ҳалоллик, гўзаллик, эркинлик, ватанпарварлик, улуғворлик, ҳаётсеварлик ва бошқалар қадрият даражасига кўтарилган. Бундан ташқари, диний тушунчалар ҳам бирлашиб, умуминсоний қадриятлар кўламини кенгайтиради.

Ўзбек адабиёти XX-XXI асрда шиддат билан ривожланаётган дунёнинг мурракаб акси сифатида намоён бўлди. Бу даврда миллий ва умуминсоний парадигмалар моделини яратиш адабий муаммолардан бири бўлиб, дунё яралгандан бери янгилашиб келмоқда. Фақат моҳият бу муаммонинг туб негизини ёзма ва оғзаки адабиёт ҳамда миллий анъаналарнинг гноселогик ва онтологик хусусияти билан узвий боғлиқликда кўрсатади.

Мазкур мақолада ўзбек ва турк ҳикояларида миллий ва умуминсоний қадриятларни Ш.Холмирзаевнинг “Қария” ва Фарид Эдгунинг “Жаллоднинг ўлими” ҳикояларида тасвирланган қария образлари мисолида тадқиқ қиламиз.

Адабиётшунослар образ тушунчасига таъриф берар экан, унинг муаллиф тафаккури маҳсули эканлигини таъкидлаган ҳолда, ижодкор измидан чиқиб кетиб, эркин ҳаракатлана олсагина, ҳақиқий маънода бадиий ишланмага айланишини таъкидлашади. “...бадиий образ ёзувчининг кули эмас, у ўзининг характер мантиқига мувофиқ ҳаракат қилади. Албатта, асар персонажлари характерига хос асосий хусусиятлар (параметрлари)ни аввал-бошда ёзувчининг ўзи белгилайди. Кейин асар воқеалари ривожини давомида тўла шаклланган ва мустақамланган характер энди муаллиф диктатини қабул қилмайди, ўз бошича ҳаракатланади”⁶.

Ўзбек ҳикоячилигида ўзига хос из қолдирган Ш.Холмирзаев асарларида ана шундай ҳақиқий маънода бадиий ишланмага айланган образларни кузатиш мумкин. Унинг қатор ҳикояларида қария образлари учрайди. “Қария”, “Табассум”, “Ғижжакчи чол” ҳикояларида қария образлари тийнатида миллий қадриятлар умуминсонийлик даражасига кўтарилган. Оддийгина одамларнинг қаҳрамон сифатида танланишида Ш.Холмирзаевга хос услуб ярқираб кўринади. Ёзувчининг барча асарларида ЎЗБЕК ва ЎЗБЕКЛАР қандай умуминсоний ғоялар асосида яшаши оддий, жайдари кишилар қисмати орқали баён қилинади. Адиб ўз ижодида ўзбек ва жаҳон ёзувчилари анъаналарига эргашиб, ўзидан “катта мактаб” қолдириш даражасига етди. У одамни билиш нуқтаи назардан буюк ижодкор эди.

⁵ Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004 й. – Б.48

⁶ Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004 й. – Б.71.

Адибнинг “Қария” ҳикоясидаги Қўзивой чолнинг хунари ҳам, касби ҳам йил фасллари сингари ўзгарувчан. Муаллиф уни касби бетайин, ёлғиз чол эканлигига урғу беради. Бозорда кимга хизматчи керак бўлса, Қўзибой чол ҳозир у нозир. Бозорда Қўзивой чолдан ташқари бешта хизматчи бор. Бироқ қария хизматига қанча беришса, бошқалардек ортиқча тўнғилламай, берганига рози бўлиб, ҳақиқага дуо ҳам қилади. Меҳнатдан қочмайди. Ҳатто қўшни мол бозордаги тезакларни супуриб тозалагани эвазига бозоркомдан маош ҳам олади. Бозор хизматчилари рўйхатига “ишчи” деб ёзиб қўйилган. Қария бозор кунлари жарчилик қилади, қиш кунлари сотувчиларга чой, кул, пақирда лағча чўғ қилиб таркатади.

Муаллиф қария портретини китобхонга ажин босган юз-кўзи эмас, балки ҳаракатлари орқали таништиради: “Қўзибой чол – ориқ, оёқлари чилчўпдек. Юрганда бошини ҳар томонга буриб, худди жарчилик қилаётгандек кескин ва қалтис ҳаракатлар қилиб қадам ташлайди. Кишиларга бениҳоя жиддий назар солади. Чойхонага кирса, умрида кўрмаган одами билан ҳам ниҳоятда куюк сўрашиб, авлод-аждодларини суриштиради”⁷. Унинг шу феъли қирғиз ёзувчиси Ч.Айтматовнинг “Оқ кема” қиссасидаги Мўмин чолни образини эслатади. Бу, биринчидан, туркийларга хос миллийлик бўлса, иккинчидан, қадриятларни асраб-авайлаб, ўзидан кейинги авлодларга етказишдек муқаддас бурчни образлар тийнатиغا сингдириш орқали катта бадий юк ташишга хизмат қилдиришдир. Қариянинг биографияси қисқача тасвирланган: “Чолнинг ота авлодидан ҳам, она авлодидан ҳам ҳеч кими йўқ. Шунини эс-эс биладикки, болалигида қишлоқларини қуролланган одамлар босган. У сомонхонага бекиниб, жон сақлаб қолган. Кейин чорбозорчиларга қўшилиб, кўмир кони яқинидаги қишлоққа борган. Қўй боққан, почтачилик қилган. Бир эшонга мурид тушиб, етти йил унинг изидан юрган. Қўзибой чол бола кўрмаган. Хотини бундан саккиз йил муқаддам ўзининг қўлида жон берган. Хотинининг қабри Қизил Газада. Учига пахта қўшиб ўрилган қуббали жамалаги билан кийгичи ҳамон қариянинг уйида, тоқчада... Шундан бери чол ёлғиз. Тўрт йил бўлдики, уни ўлим ваҳимаси чулғай бошлади. Кўзи пишиб кетгани учун ўлимдан эмас, жонкуяри бўлмагани учун ўлганини ҳеч ким билмай қолишидан кўрқади”⁸. Ш.Холмирзаев қаҳрамоннинг ҳолини бўямай бориша тасвирлайди. Адабиётнинг йўли гуманизм. Шундай экан, олам ва одам тасвирида ҳар бир инсон қисматиға эътибор табиий жараён сифатида қаралса, муаллиф қария образи, ташвишлари ва руҳий кечинмаларини тасвирлаш орқали умуминсоний муаммоларни англашга Одамни ОДАМ бўлгани учун ҳам тушунишга ундайди.

Замонавий турк ҳикоянависларидан Фарид Эдгунинг “Жаллоднинг ўлими” ҳикоясида қария ота ва ўғил қисмати тасвирланган. Ҳикоя сюжети ота ва ўғил муносабатларига қурилган. Қария отанинг касби тайин – жаллод, ўз ихтиёрига қарши бора олмайдиган муте давлат хизматкори. Ўз қисмати фожиасини англамаган гумроҳ қария фарзандининг ўз касбини давом

⁷ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/shukur-xolmirzayev/shukur-xolmirzayev-qariya-hikoya/>

⁸ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/shukur-xolmirzayev/shukur-xolmirzayev-qariya-hikoya/>

этиришини истайди. Жаллодликни касб қилган қария қонунлар жиноятчи деб топган маҳбусни қатл қилишни, давлат ва ватан учун қилаётган хизмати барча касблар сингари қонуний лавозим деб қабул қилади. Ўз бурчини бажариш бу қария учун шунчалик муҳимки, у қатл этишга ҳукм қилинган кишини кимлигига ҳам бефарқ, беписанд қарайди. Ўз-ўзидан фарзанди қария отасининг хоҳиш ва истакларининг рўёби учун ҳам жаллодлик касбини ўзи истамаса ҳам танлаши шарт.

Ҳикояда жаллодликни ёмон кўрган пок юракли йигитнинг ўз қисматиغا қарши руҳий эврилишлари маҳорат билан тасвирланган, жаллодликдан қочган, бироқ ўзининг онг ости чегаралари туфайли шу касбни давом этиришга маҳкум инсоннинг фожиавий тақдири акс этган. “Юраги сиқилди. Биламан, деди. Шунинг учун келдим. Қаршисида кекса қария турарди. Соч-соқоли оқарган, истарали одам. Қўлида эса ўзига ярашмаган арқон билан турарди. Йирик арқон. Юраги сиқилди. Қария майин овозда, қани, жигарим, энди сенинг навбатинг, бўйнингни чўз, деди. Аммо менинг ўғлим сўқир, бошқа ўғлим йўқ. Зиёни йўқ, деди йўқ қария. Сен бўйнингни чўз. Бунга қонунлар тўсқинлик қилади, деди у. Мен сизларнинг қонунларингизга бўйсунмайман, деди қария, шафқатли овозда. Қани, пайсалга солма”⁹. Бу қариянинг ҳаёт ҳақиқати бўйича иш кўрилса, ўлим фақат ҳукм орқали ижро этилади. Унинг гап-сўзлари ҳам шу ақидани ҳимоя қилади. Аслида, ажал қонунлар юзасидан чиқарилган ҳукмга бўйсунмайди. У сўрамасдан келади.

Хулоса қилиб айтганда, Ўлим фариштаси дунёнинг ҳеч бир қонуни билан ҳисоблашмайди. У Яратган амри билан бандалари жонини олади. Бу Шарқнинг ислом фалсафаси билан уйғун умуминсоний қадриятини илгари суради.

⁹ Edgu F. Cellad'ın Ölümü / Av. Yapı Kredi Yayınları, 2 Baskı, İstanbul-2001. – S.93

OMON MATJON SHAXSIY ARXIVIDAGI XATLAR XUSUSIDA

Shohista Axmedova,
Jizzax davlat pedagogika
universiteti tayanch-doktaranti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Omon Matjonning shaxsiy arxivida saqlanayotgan maktublar xususida yangi ma'lumotlar beriladi. Jumladan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoir, tarjimon Abdulhakim Matnazar tomonidan yozilgan ikkita maktubning qoralama varianti tahlilga tortilgan. Xorazm adabiy muhitidan yetishib chiqqan ikki shoir Omon Matjon va Matnazar Abdulhakim o'ratasidagi ustoz-shogirdlik munosabatlari M/Abdulhakimningikki xati orqali tahlil etildi.*

***Kalit so'zlar:** shaxsiy arxiv, xatlar, tarixiy-adabiy hujjat, ustoz-shogirdlik an'anasi*

***Annotation:** This article is devoted to the analysis of letters and flour preserved in the personal home archive of the people's poet of Uzbekistan Omon Matjon. In particular, a draft variant of two letters written by Abdulhakim Matnazar, a cultural worker, poet, translator who served in Uzbekistan, was subject to analysis.*

***Keywords:** letter genre, letters, historical document, fact data.*

Xatlar qadimdan insonlar o'rtasida aloqa vositasi bo'lib, ular asosan, kiborlar o'rtasida faol muloqot darajasiga aylangan. Xatlar yig'ilib hattoki, kitob shakliga keltirilgan (unga misol qilib A.Navoiyning "Munshaot" va A. Jomiyning "Ruqoat" asarlarni sanash mumkin). Bu asarlar hozirgacha tarixchilar, etnograflar, adabiyotshunoslar, tilshunoslar uchun muhim tarixiy-adabiy manba sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston xalq shoiri Omon Matjonning shaxsiy arxivida yuzdan ortiq maktublar, otkritkalar (tabriknomalar), telegrammalar ikkita sarg'ayib ketgan papkada saqlanadi. Odatda maktub janri ikki tomonlama amalga oshiriladi, lekin shoir arxivida saqlanayotgan xatlarning hammasi bir yoqlama ya'ni uning adresiga kelgan maktublarni tashkil qiladi. Zero shoir-yozuvchilarga yo'llangan maktublarni mazmunan, uslubiy jihatdan o'rganish hozirgi adabiy jarayon uchun nihoyatda qiziq mavzulardan biri hisoblanadi, chunki bu janr sifatida azaldan o'zbek adabiyotida shakllanib kelgan.

Omon Matjon shaxsiy arxivida saqlanayotgan xatlar o'qishga yaroqli bo'lib, A 4 formatli qog'ozlarga, maktab daftarlarining varaqlariga yozilgan bo'lib, o'zbek, rus, qoraqalpoq, qozoq tillarida yozilgan. Xususan, bu xatlar, shoirning qarindosh-urug'lari, do'stlari, muxlislari, shogirdlari, tahririyat a'zolari, hokimiyat, nashriyotlar va shoir-yozuvchilar tomonidan yozilgan. Albatta, ularning orasida yozuvchi-shoirilar yozgan xatlar boshqa xatlardan farq qiladi. Bu maktublarni shu xususiyatiga ko'ra bir necha guruhga bo'lish mumkin:

1. **Rasmiy xatlar** (O. Matjonga yozuvchilar uyushmasidan, muzeydan, tahririyatdan, nashriyotlardan, maktab direktorlaridan, hokimiyatdan va turli mitinglardan kelgan maktublar)

2. **Telegramma, tabriknoma va taklifnomalar** (ular asosan, bayram va to'y, yubeley tadbirlari munosabati bilan yozilgan tabriknoma otkritkalarva to'yga taklifnomalar, muhim uchrashuvlar, davra suhbatlari, kitoblariga dasxat so'rash kabilar bo'lib, juda ixcham, sodda so'zlar bilan ifodalangan)

3. **Qarindosh-urug'lari** yozgan xatlar (bunday xatlar shoirning otasi, ukalari, akasi, singlisi, uzoq amakilari, jiyanlari va boshqa og'a-inilari tomonidan yozilgan bo'lib, unda shoirdan, uning oila a'zolaridan hol-ahvol so'ralgan yoki bayramlar bilan tabriklashgan)

4. **Do'stlari va shogirdlari tomonidan yozilgan xatlar** (shoira Qutlibeka, shoirlar P. Mo'min, To'ra Sulaymon, Abdulhakim Matnazar, Jolmirza Aymurzayev kabilardan kelgan xatlar)

5. **Muxlislari va boshqa insonlardan kelgan maktublar** (bu kabi xatlarda 10-sinf o'quvchilari, talabalar, turli ijtimoiy sohadagi insonlar o'zlarining va jamiyatdagi muammolarga yechim izlab xat yozishgan)

Umuman olganda, Omon Matjonga jami 100 ta xat kelgan bo'lib, ular stilistik jihatdan unchalik murakkab tilda yozilgan emas. Maktublarning eng katta qismini telegrammalar tashkil qiladi, ularning soni 56 ta. Mazkur maktublarning ba'zilarining yozilganiga 50-60 yil bo'lgan, uni o'qigan odamning ko'z oldida jonli tarix, yani o'sha davr manzaralari yorqin gavdalanadi. Saqlanayotgan xatlarning aksariyati o'tgan asrning 70-90 yillarida yozilgan bo'lib, shoir ijodining eng gullagan davriga to'g'ri keladi.

Shoir shaxsiy arxivida 1971-yil, 21-fevral sanasi bilan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoir, tarjimon Abdulhakim Matnazar tomonidan yozilgan maktub saqlanib qolingan. Xat mazmunini to'liqligicha e'tiboringizga havola qilamiz:

“Хурматли Омон ака!

Газет ва журналларда айрим шеърларингизни ўқиганман.

Бу йил китобингиз чиқибди. Бу мени биринчи томондан қувонтирса, иккинчи томондан, адабсизлик қилиб бўлса ҳамки, ушбу хатни ёзишга ундади. Агар сиз учун ортиқча ташвиш бўлмаса, менга бир нусха юборсангиз. Ижодингиз ҳақида яхлитроқ тасаввурга эга бўлиш иштиёқидаман.

Салом билан Абдулҳакимов Матназар.

P.S. Ўзим ҳам унча-мунча машқлар қилиб юраман. Шулардан баъзиларини жўнатаётирман, хушласангиз бир-икки оғиз гап ёзарсиз.

21 февраль 1971 й.

Адресим: Ростовская обл. с. Таганрог, 26. Довостребования.

*Бор меҳрим-ла сени ардоқлаб,
Висолингни кутгайман масъуд.
Сен ҳам, жоним, матонат сақлаб,
Ишонч билан йўлимга кўз тут.*

*Кутганларга алам муваққат,
Шафқатлидир ҳижрон – бағри тош.
Маҳрум бўлмас бахтидан фақат
Бу азобга берганлар бардош.*

Абдулла Орипов газалига мухаммас.

*Ишқ азоби ўтли бу қалбимга бўлмиш жо бу кун,
Бу қадар оҳимдан ўт чиқмовди, дўстлар, то бу кун.
Тақдир ҳукмин бераҳм ҳижрон қилиб ижро бу кун,
Ваҳ-ки, ишқ саҳросида қолдим беишқ танҳо бу кун,
Чиқма Қайс, оҳим билан ёнмоқда бу саҳро бу кун.*

*Ёсуман раишк дер, сенга ёрда садоқат қолмади,
Тарки ишқ айлайми энди, менда тоқат қолмади.
Ўтли бу қалбда ақлга ҳеч итоат қолмади,
Чеҳраи заррин кўрарга зарра ҳожат қолмади,
Шамс нарвони уза азёр эрур пайдо бу кун.*

*Ишқ дарёси бўйида мажнунтолдек ҳолатим,
Мингта сайёдга нишон бўлган гизолдек ҳолатим,
Ҳажр захмин чекканимдан букри долдек ҳолатим,
Нун лабинг узра сокин қолди ҳилолдек ҳолатим,
Ҳарф ўйин айлай десам ўзга эрур имло бу кун.*

*Матназар, ёр илтифоти бўлмаса анқо агар,
Бахт қуши бошингга қўнса – боқса ул барно агар,
Ҳадя қилса сенга севги хотами тилла агар,
Ёр висоли томингда бўлса Абдулло агар,
Сенга парво қилсалар ҳам қилмагин парво бу кун.*

ҚЎШИҚ СЕҲРИ

*Айрилиқ қўшигин сокин соҳилда
Берилиб куйлармиши немис санами.
Ғуссаларга тўлиб, орзиққан дилдан
Куй билан йўғрилиб чиқар алами...*

*Интизор куйлармиши сочини тараб,
Ишиқ аҳли тинглармиши уни маҳлиё.
Куйлармиши севганин йўлига қараб,
Ул йигит санамга боқмасмиши қиё.
Аммо қиз куйлармиши бўлиб дилпора,
Жондан тинглар эмиши уни оломон.
Шундай сеҳри бормиши куйин: бир бора
Тинглаган ўлармиши уни бегумон.*

2

*Қаттол қўшиқ йўқдир, асли дўстларим,
Бу-ку Лорелея ҳақда бир чўпчак,
Аммо мангу – гоҳ бут, гоҳ бўлиб ярим
Миллионлаб қалб қўшиқ ишиқда тептак.
Куйчи Масҳодир, қўшиқ олмас жон,
Қўшиқ-ла ювилар дилимдан дардим.
Ростга чиқса ўшал чўпчак ногаҳон,
Қўшиқ тинглаш учун мен ҳам борардим.
Ўлгим келганидан бормасдим,
Бироқ
Борардим ўлгани куй тинглаб бир дам.
Ўлим бир даҳшат-ку!.. Лекин мен кўпроқ,
Дўстларим, қўрқаман куйсиз умрдан.[1;67]"*

Shoir arxivida saqlanayotgan xatlar asosan krill yozuvida yozilgan, shuning uchun bu xatlar mazmunini berishda asliyatdagi yozuv turini ko'rsatdik. Mazkur xat mazmuni orqali shoir-tarjimon Abdulhakimov Matnazar bilan Omon Matjon o'rtasida ustoz-shogirdlik munosabatlari oydinlashadi. Xat mashinkada terilgan. Unda yosh shoir O.Matjonga ucta she'rini yozib jo'natar ekan, ("Abdulla Oripov g'azaliga muxammas", "Qo'shiq sehri" va "Bor mehrim-la seni ardoqlab") ijodi haqida fikr berishini so'raydi. Xat yozilgan sanasidan ma'lum bo'lyaptiki, Abdulhakim Matnazarning ilk ijodiy she'rlari shu davrda yozila boshlagan, chunki uning birinchi she'riy to'plami 1982-yilda "Tiniq tonglar" nomi bilan nashrdan chiqqan. Uning "Abdulla Oripov g'azaliga muxammas" she'ri O.Matjonning "Avvalg'ilariga

o'xshamas" muxammasi ta'sirida yozilgan desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Chunki she'r bandlari o'rtasidagi bog'lanish, radiflarning takrorlanishida, naqoratlarning o'zgachaligi bilan alohida o'xshashliklari bor. Lekin Abdulhakim Matnazarning she'riy kitoblarini ko'zdan kechirganimizda yuqoridagi she'rlarning birortasi ham ularning ichidan joy olmagan. Bu she'rlar ham shoir ijodining dastlabki namunasi sifatida shunday xatlarda saqlanib qolgan bo'lsa ajabmas. Bu xatlar bejiz Matnazar Abdulhakim tomonidan Omon Matjonga yozilmagan. Yosh shoir ruhiy-ma'naviy ustoz izlar ekan, Omon Matjonni o'ziga Ustoz sifatida uning ijodini ardoqlab, o'qib-o'rganib, unga shogirdlik maqomida turib xatlar yozgan.

Umuman olganda, O.Matjon shaxsiy arxivida A.Matnazar tomonidan jami ikkita xat saqlanib qolgan, ularning ikkinchisini ham e'tiboringizga havola qilmoqchimiz:

“Хурматли Омон ака!

Мана, топиригингизга қувона-қувона амал қилиб, Сизга хат ёзаётirman.

Ишлаб юрибман. Тез отпускка чиқамиз, шунда ўқиб чиқишни кўнглимга тугиб юрган китоблар бор, ўшаларни мутолаа қилмоқчиман. Ҳозир эса иш: ўқув машғулотлари, имтиҳонларга тайёргарлик, колхозга ёрдам, дегандай... хуллас, таиивиш етарли.

Шеърлар машқ қиляпман. Кам.

Қадрли Омон ака!

Сиздан бир ижодий маслаҳат сўрамоқчи эдим. Рус тилини ўргана бошлаганимдан бери шеърий таржимага қизиқаман. Назаримда муваффақиятлироқ чиққан таржималарни ҳукмингизга ҳавола қилган тўпламим “Тиниқ тонглар”гаям киритгандим. Шуларни ўқиб кўрган бўлсангиз, имкониятимни чамалаб, менга бир-иккита “тишим ўтадиган” авторни тавсия қила олмайсизми? Эҳтимол, бунақа масалани ҳар ким ўзи учун ҳал қилиши керакдир. Шундай бўлса-да, ҳеч кимга, хусусан, менингдек кам тажриба ҳаваскорларга устозлар йўл-йўриги ортиқчалик қилмас, деб ўйлайман.

Омон ака!

Шеърларимни кўздан кечиршига вақт орттира олдингизми? Агар ўқиб чиққан бўлсангиз ва андак фурсатингизни мендан аямасангиз натижасини, муҳими, танқидий фикр-мулоҳазаларингизни ёзиб юборсангиз.

Умуман, Омон ака, Сиз билан хатлашиб туришни жуда-жуда орзу қиламан.

Хайр

Самимий ва шогирдлик саломи билан Матназар.

Адресим: Хорезмская обл. Ургенчский р-н, к-з им.Карла Маркса, шк. Им. Мукими. Абдулхакимов М. [2;79]”

Shoir A.Matnazarning oldingi xatida ko'proq she'rlarining sujeti, ularning salohiyati, tuzilishi, g'oyaviy-badiiy unsurlariga e'tibor berishini so'ragan bo'lsa, ikkinchi maktubida esa tarjima janriga qo'l urgan shoir, yaxshi chiqqan tarjima she'rlari to'g'risida O.Matjondan fikrlar so'ragan va "tishi o'tadigan" shoirlarning she'rlarini tarjima qilish uchun tavsiya berishini so'rab yozganiga guvoh bo'lamiz.

Bizga yaxshi ma'lumki, O.Matjon tarjimon sifatida Shiller, Bodler, Yevgeniy Yevtishonko, Rasul Hamzatov, Ibroyim Yusupov kabi chet el va qardosh xalqlar adabiyotidan bir qancha she'rlarni o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. Albatta, bunday yetuk tajriba egasidan ijodiy maslahatlar, tanqidiy fikr-mulohazalar olish, ustozlardan yo'l-yo'rig' so'rash - tajribasi kam havaskorlar uchun bosib o'tiladigan ijodiy yo'ldir. Shu ma'noda, Omon Matjonning jahon she'riyatidan kimlardan va qaysi she'riyat durdonalarini tarjima qilish haqidagi maslahatlaridan so'ng, Matnazar Abdulhakim ijodida ham badiiy tarjimachilik ishlari boshlanib ketdi. Binobarin, M.Abdulhakimning tarjimonlik faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Bedil, Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Rojiy, Tabibiy, Xorazmiy, Shayx Majdiddin Bog'dodiy (fors tilidan); M.Dudin, N.Rubsov, R.Hamzatov, U.Ziedonis, Y.Yevtushenko, N.Dmitriyev (rus tilidan); O.Annadurdiyev, G.Zaripova, I.Xudoyberganov, O.Nazarov, M.Bobonazarov, Q.Qaqaboyev, O.Muhadov (turkman tilidan) ijodidan tarjimalarni amalga oshirgan. Shu bilan birga M.Abdulhakim o'zbek she'riyatidan ham rus tiliga M.Rajab, B.Bekmetov, Go'zal Begim she'rlarini rushchallashtirgan. Quyida tarjimon shoirning Y.Evtushenko va R.hamzatovdan qilgan ikki she'riy tarjimasini beramiz.

GIRYA

Yevgeniy Yevtushenkodan

Momiq patlarida qotgan laxta qon,

Ko'zlari chirt yumuq. Jim. Aftodahol.

Qayiqda chayqalib yotibdi bu on

Bitta g'oz — qoramtir bir kumush misol.

DARAXTIM

Rasul Hamzatovdan

Yaproqlaring musaffo ko'kda,

Qaro yerda sening ildizing.

Daraxtginam, sernovdalikda

Hayotga eng mos timsol o'zing.[3;91]

M.Abdulkhakim mazkur she'rlarni maromiga yetkazib tarjima qilgan. Har ikki shoir she'riyatidan Omon Matjon ham she'r tarjima qilgan. Rasul Hamzatov va Y.Evtushenko bilan shaxsan do'st-yoron bo'lib ijodiy hamkorliklar qilishganini katta adabiyotshunoslarimiz yaxshi bilishadi. O'zining shaxsiy tajribalari va badiiy tarjimachilikdagi to'plagan malakasi tufayli Omon Matjon shogirdi Matnazarga bu ikki shoir (R.Hamzatov va Y.Evtushenko) va boshqa shoirlar ijodi bilan tanishib, ular ijodidan tarjimalarni amalga oshirishni tavsiya etgan. Omon Matjon va M.Abdulhakimning ustoz-shogirdlik munosabatlari, ijodiy do'stona hamkorliklari tufayli yosh shoir ijodida badiiy tarjimonlik faoliyati ham boshlanib ketdi.

Darhaqiqat, *"Ijodkor tarjimai holini uning o'zi yaratgan asarlari bilan uzviy bog'lab o'rganish adabiyotshunoslikda masalaning biz shu kungacha e'tibor qilmagan jihatlarini anglashimizda muhim vosita vazifasini bajaradi."* [4;87] Yangi iste'dodlar uchun o'zidan oldingi katta iste'dodlar hamma davrlarda ham namuna timsoli bo'lgan, tabiiyki, shogirdlar ustozidan o'tishga harakat qiladi. Shoir A.Matnazar Xorazm adabiy muhitidan yetishib chiqqan zamonaviy o'zbek she'riyatida Omon Matjondan keyin paydo bo'lgan yorqin yulduzdir.

Bizning nazdimizda, bu ikki xorazmlik ulkan iste'dod vakillari butun hayoti va ijodini adabiyotga, yani she'riyatga bag'ishladi. Ular umr bo'yi, professional shoir bo'lishga, el-yurt orzusini kuylab o'tishga, yurt, vatan, millat taqdirini olg'a surishga intildi. O'zbek millatining ijodkor farzandlari sifatida yurtni yuksaklarga ko'tarish, uni ilmiy qilish kabi hislatlarni o'z asarlarida singdirishga harakat qildi. *Zero, har bir kishining madaniyati o'z yurtini, o'z xalqining tarixi, urf-odatlari, tili, san'at va adabiyotini bilish, hurmat qilish va sevishdan boshlanadi. Inson tarbiyasining bu alifbesi chetlab o'tilgan joyda nodonlar, johillar, xoinlar va zolimlar tug'iladi.*[5;76]

Omon Matjon shaxsiy arxividan aniqlanib, ilk bor e'tiboringizga havola etilayotgan ikki maktub ijodkor laboratoriyasi masalalarini hamda davr manzaralarini, ustoz-shogirdlik munosabatlarini yoritib beruvchi muhim tarixiy-adabiy hujjat sifatida ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov N. "Usmon Nosir" ma'rifiy-biografik roman. O'z.FA. "Fan nash. Tosh-2022. 52-B.
2. Omon Matjon. Xatlar papkasi.

3. Тўлаганова С. “Ижодкор шахсияти ва бадиий қаҳрамон муаммоси:Навоий шахсиятининг ўзига хослиги” 2018.2 В.
file:///C:/Users/User/Downloads/sokadaigakusilkroadkenkyu0_11_3%20(7).pdf
4. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/matnazar-abdulhakim-sherlar.html>
5. Абдулҳаким М. Танланган асарлар. I жилд. Шеърлар. Таржималар. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 328 б.
6. Абдулҳаким М. Танланган асарлар. II жилд. Шеърлар. Таржималар. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 304 б.

OMON MATCHON SHE'RLARIDA MILLIY RUH IFODASI

Matnazarova Saida Satimboy qizi,
UrDU o'qituvchi-stajori

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada she'riyatda milliy ruhning tutgan o'rni Omon Matchon ijodi misolida tahlil qilingan. Omon Matchon ijodidagi she'rlarda xalq milliy madaniyatini unutmaslik lozimligi, milliy o'zlikni saqlab qolish – millat o'zligini saqlab qolish ekanligi ko'rsatib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** She'riyat, milliy ruh, milliy madaniyat, tarix, millat farzandlari*

She'riyatda milliy ruh ifodasi hamisha yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Sababi, o'z so'ziga ega bo'lgan haqiqiy shoirni millatidan, milliyligidan ayro tasavvur qilish mushkul. Chunki shoirlar aytmoqchi bo'lgan fikrlar bir millatning o'tmishi va buguni qiyosi misolida yuzaga keladi. Nasrga nisbatan nazmda buni ifodalash ancha murakkab bo'lishiga qaramasdan, millat tarixidan xabardor bo'lgan, undan saboq olgan shoirlar buni kuchli dard bilan kuylaydi. Aslida barcha she'rlar darddan tug'iladi. Shunday ijtimoiy darddan yaralgan she'rlar Omon Matchon ijodining ham katta qismini tashkil qiladi.

Shoir bir she'ridan milliy ruhni shakllantiruvchi millatning asl farzandlarini eslab shunday yozadi:

Har kuni yangi kino, yangi kitoblar –
Qahramon ustiga yangi qahramon.
Negadir yo'q edi ular ichida
Alpomish, G'irotlar, Mahmud Pahlavon.(1)

Yuqoridagi baytda Omon Matchon millatning asl farzandlari nomini keltirish orqali ularning xalq milliy ma'naviyatida tutgan o'rnini ko'rsatib berish bilan birga xalqda milliy tuyg'ularni paydo qiluvchi adabiyot va san'atning o'z maqsadlaridan uzoqlashish holatidan ham ogoh qilayotganday. Rivojlanish, taraqqiyot, yangilanish kerak, ammo u milliy ruhdan uzoqlashadigan bo'lsa o'z oldiga qo'ygan maqsaddan uzoqlashishi mumkin. Fikrlarimizni modern she'riyat misolida dalillaydigan bo'lsak, tubandagicha xulosa chiqarishimiz mumkin. Bilamizki, bugungi kunda modern she'riyat ancha taraqqiy topgan. Ular ichida “yo'l- yo'lakay” yoziladiganlari ham bor, bu haqiqat. Ammo modernistik poeziya milliy ruhdan suv ichadigan bo'lsa, u shoh asarga ham aylanishi mumkin.

Omon Matchon “Urush yillari kinoxronikasini ko'rib” she'rida kitobxonlarga urush yillari tasvirini berish orqali yurt ozodligini qadriga yetishga chorlaydi:

Ul urushni ko'rdim shu tahlit:
Qo'li – miltiq, siyog'i – tahdid,
Ko'zlari – go'r, qirq million shahid...
Eh, qadimgi kinolentalar!

Shoirning "O'rtamizda birgina olma" to'plamidan joy olgan "Ey sen" deya boshlanuvchi she'rida wuning haqiqiy millatparvar shoir ekanligi namoyon bo'ladi. She'rdagi shoir millatning milliy-madaniy yodgorliklariga bugungi kun avlodlarining bo'lgan munosabatidan ranjiydi. Bu she'rning birinchi bandidayoq ko'rinadi:

Ey sen, Buxoroning aziz naqshlarin
Uvnatib, saqishga alishgan bola,
Nahotki, sezmading, shahar holidan
Hatto shu sayyohning ko'zida jola?!

Shoirning so'zlarini o'qigan har qanday kitobxon o'z Vataniga nisbatan bo'layotgan munosabatdan ogoh bo'lgach, kimdir g'azablanadi, kimdir xafa bo'ladi, asosiysi yana kimdirlar buni noto'g'ri ish ekanligini anglaydi.

Nahotki, sen uchun Ulug'bek qurgan
Ilm darvozasin buzasan o'zing,
Toleing ranglarin ko'ra olmasang,
Musulmon bo'lsang-da, ko'r bo'lsin ko'zing!

Bu aziz yurtga nisbatan qanchadan-qancha tazyiqlar, tahdidlar bo'lganligi tarixdan ma'lum. Millatni birlashtirish, taraqqiy topdirish uchun jadidlar, hatto o'z jonlarini qurbon ham qilishgan. Undan keyingi davrlarda mustaqillikka erishish ham oson bo'lgan emas. Shularni anglagan shoir millatdoshlarini Vatanni asrashga dadil chorlaydi. Aslida musulmonning musulmonga yomonlik ilinishi mumkin emas, lekin shoir vatan sotqinlari bo'lgan ba'zi musulmonlarga nisbatan "Musulmon bo'lsang-da, ko'r bo'lsin ko'zing!" deya hayqiradi.

Omon Matchonning "O'rtamizda birgina olma" to'plamidagi "Yig'lab kelayotganlar" she'rida ham vatan taqdiri haqida qayg'urish lozimligini ilgari suradi. She'r quyidagi satrlar bilan boshlangan

Ko'rdim kuni kecha bir anjumanga
Har yoqdan yig'ilib, yig'lab keldilar

She'rning bunday so'zlar bilan boshlanishining o'ziyoq unda hasrat, yurtning turli nuqtalarida sodir bo'layotgan ayanchli hollarni tasvirlashni maqsad qilganligini ifodalaydi. She'rdagi ham yurtning bugungi ahvolidan, qadimiy obida-yu qadamjolarining vayron ahvolidan, Orol muammosidan, Qodiriy tuxmat qilganlardan so'z ketadi. Samarqandning naqshinkor obidalari zaxlab, sho'rlab, potrab borayotganidan, islom dini markazi bo'lgan Buxoroning vayron holidan, Xiva kabi qadimiy shaharlarning nurab borayotganidan, Ko'hna Urganch, Dashnobod ahvolidan dili ranjiydi.

Ushbu she'rida butun dunyoda global muammoga aylangan Orol muammosi ham keltirilgan

Orol bo'ylarining xabarchisining

Lablari yorilgan, ko'zida yo'q nam..
"Ko'rib bir faylasuf yig'lab yubordi
Bormi Oroidan ham bo'lak ulkan g'am?!"

Shoirning ishi yomon gaplardan xabar berish emas, lekin bu vatan farzandining burchi ekanligini quyidagicha izohlaydi

Shoirning ishimas yomon gaplardan,
Noqis xabarlardan shajar tuzmoqlik.
Lekin ona yerni sotmoq bilan teng
O'z tuqqan joyingdan ko'ngil uzmaklik.

Omon Matchon ijod qilgan davrlarda mavzu ham, ijobiy fikrlash ham ancha cheklangan edi. Shunday bo'lishiga qaramasdan shoir o'z so'zlari dadil ayta olgan. Men uchun shoir o'z davrining haqiqiy jadidi hisoblanadi. Bir she'rida shunday yozadi:

Navoiy, Mashrabni o'qishni u payt
Eskilik, sarqit deb yozgan ekanlar.
Bir Johil so'zila butun bir xalqning
Og'ziga qora qulf osgan ekanlar

Bu she'rni yozish uchun shoirlarga o'sha davrda katta kuch, mardlik, jasorat zarur edi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yurt, millat, vatan tushunchalari Omon Matchon she'rlarining bosh mavzusidir. Shoirning vatan haqidagi she'rlarida vatan madhidan ko'ra millatning og'riqli nuqtalari, yurt dardlari ko'proq qalamga olinadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Omon Matchon "Tanlangan asarlar" Toshkent Adabiyot nashriyoti 2023

USMON NOSIR LIRIKASIDA DARD, IZTIROB VA KECHINMALAR IFODASI

Nozima Yuldasheva Solijonovna,
NamDU lingvistika(o'zbek tili)
2- kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadqiqotchi shoir asarlaridagi ishq, Vatanga, xalqqa bo'lgan muhabbat chizgilarini tahlil etishga uringan. «Geyne bilan o'rtoq tutindim, Lermontovdan ko'mak o'tindim» degan yosh shoir rus va jahon poeziyasining maftunkor fazilatlarini ijodiy talqin qilish bilan birga Sharq adabiyoti va og'zaki ijodining boyliklarini ham egallashga intilgani haqidagi fikrlar ifoda etilgan.

Kalit so'zlar: Usmon Nosir, lirika, tasvir, timsol

Abstract. In this article, the researcher tried to analyze the lines of love, love for the country, people in the works of the poet. "I made friends with Heine, I got help from Lermontov," the young poet tried to creatively interpret the charming qualities of Russian and world poetry, as well as to master the riches of Eastern literature and oral creativity.

Key words: Usman Nasir, lyric, image, symbol

Kirish. Haqiqiy shoirlar har qachon o'z yurtlarining timsoli bo'ladilar. Ular o'z yurtlarining daryolariga, o'z osmonlarining bulutlariga, o'z tog'larining mingashma cho'qqilariga, o'z yo'llarining karvonlariga va o'z onalarining chaqaloqlariga o'xshaydilar. Shular bilan birga haqiqiy shoirlar o'z millatining qalbiga o'xshaydilar. Geyne o'z xalqining qalbi edi. Pushkin o'z xalqining qalbi. Bayron — o'z xalqining qalbi. Bu qalblarni toptamoq shu xalqlarning hayot asoslarini toptash bilan barobardir. Usmon Nosiriyini so'zlarining miqyosi, kechinmalarining miqyoslariga ko'ra o'z xalqining qalbi deb aytsak, bunda mubolag'a yo'q. U tom ma'noda xalq timsoliga aylanish yo'liga kirgan edi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqotlar

Shoir haqida qancha ko'p gapirilsa, yozilsa, asarlari tahlil qilinib anglansa shuncha kam. Biz bugunga qadar qator adabiyotshunos olimlar, yozuvchi va shoirlarning Usmon Nosir haqidagi maqola va yodnomalarini o'qidik, o'rgandik. Xususan, taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim G'ofurovning "Qismatning ovozi" (Xurshid Davron sayti), O'zbekiston Qahramoni A. Oripov, Usmon Nosir haqida so'z, O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1983, Mirvaliyev, R. Shokirova. O'zbek adiblari. - Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 2016-yil. tadqiqotchi diyora Sanayevaning "Unutmas meni bog'im" maqolasi shular jumlasidan.

Asosiy qism

Usmon Nosir vatanni hech ikkilanmasdan sevadi. Vatan deb, xalq deb, o'zini har qanday sinovlarga hozirlagan. Ichdan nurlanish juda noyob xodisa. Insoniyatning kamdan-kam farzandlariga nasib bo'ladi. So'zning ichdan mo'jiza kasb etib

nurlanishini men Boboraqim Mashrabda, Mirzo G'olibda, Geyneda, Lorkada, Cho'lponda, Usmon Nosirda kuzatish mumkin. Usmon Nosirning she'rlari va dostonlari oralab bulutlar bilan olishayotgan va bulutlar orasidan yanada yaraqlab chiqayotgan va hissiyotli yuraklarni behad to'liqlarga soladigan nurafshon oy kezadi. Oy, shamol, bulut — go'zallik va hayot yaratishdek kodir tabiatli bulutlar Usmon Nosir she'rlariga fusunkorlik baxsh etadilar.¹ "Usmon Nosir deganda biz kimni tushunamiz? U shunday iste'dod egasiki, bamisoli tekkan joyini kuydirguvchi olovdur. Shoirning g'oyat qisqa umriga nazar slogan kishi juda uzoq o'ylarga tolisi shubhasizdir. Chunki bu chaqmoqdek umrda benihoya kata imkoniyatlar yonib ketganligini ko'rib va his qilib turasiz. Usmon Nosir ulug' va abadiy she'riyatning diydasidan oqib ulgurmagan shabnamdir, u hali qahqahaga aylanmay lablarimizda manguga qotib qolgan nim tabassumdir. Uning she'rlari ko'z kabi tirik, jonli, tutqich bermas hayot poralaridir", deganda mutlaqo haq edi O'zbekiston qahramoni, shoir Abdulla Oripov.²

Muhokama va natijalar

Holbuki, u erka shoir edi. She'rlari o'zbek zaminida tushgan, tim qora sochlari qaysar jingalaklangan olovli boshi uzra shuhrat yalovlari hilpirardi. Shunchalar yosh bo'lishiga qaramasdan, Samarqand dorilfununida talabalik chog'idayoq uni o'zbek she'riyatining eng talantli vakili sifatida Rossiyaga, Armanistonga, Tojikistonga adabiy anjumanlarga she'r o'qigani yuborardilar.

Usmon Nosirning jo'shqin yuragi kengliklarga chiqib, o'lkalarni ko'rib, taassurotlarga to'ldi. Hali go'daklik chog'laridayoq u taassurotlarga tashna edi. U olam tasvirlarini isyonkor yuragiga ko'chirishga oshiqardi. Yangi-yangi taassurotlarda yashash unga yoqar, behad zavq bag'ishlardi.

U hech narsaga beparvo qaray olmas va hech narsaning qoshidan beparvo, beg'am o'tolmasdi.

Usmon Nosir!.. Bu nom yigirmanchi yillarning oxirlaxidayoq o'quvchiga tanila boshladi. O'ttizinchi yillarda esa u, asarlarini kitobxonlar intiqlik bilan kutadigan shoirga aylandi. Endi uni «tabiatan shoir», «tug'ma shoir» deb ta'rifladilar. Ana o'shanda Usmon Nosir 20 yoshlarda edi. «Bo'ladigan bola boshidan ma'lum» deganlaridek, Usmon Nosir ham mashhur siymolarimiz kabi juda yoshligidan ko'p ijobiy xislatlarga ega bo'lgan edi. U nihoyatda ziyrak, idrokli, keng mushohadali, o'ta qiziquvchan, uquvli, bilimga chanqoq, mehnatkash edi. Shuning uchun ham Usmon Nosir ijodda yoshligidanoq iste'dodli, «tug'ma shoir» sifatida tanildi. Bu tanilish yosh shoirning shoirona tabiatidan tashqari, uning ijodga jon-dili bilan berilishi, ijod sirini bilishga urinishi, bu yo'lda o'rganishi va izlanishi samarasi edi.

¹ <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/ibrohim-gafurov-usmon-nosir>.

² <https://cyberleninka.ru/article/n/unutmas-meni-bog-im/viewer>

«Geyne bilan o'rtoq tutindim, Lermontovdan ko'mak o'tindim» degan yosh shoir rus va jahon poeziyasining maftunkor fazilatlarini ijodiy talqin qilish bilan birga Sharq adabiyoti va og'zaki ijodining boyliklarini ham egallashga intildi...³Uning barcha she'rlarida, tarjimalarida kismat tilga kirgan satrlar, bandlar bor! Balki qismat uning qalbida juda erta tilga kirgandir. Lekin she'rlarida qismatning ovozi o'ttiz uchinchi yildan to'xtovsiz eshitila boshladi.

«Yurak»dagi so'nggi satrlar:

«Yoril, chaqmoqqa aylan sen,

Yoril! Mayli tamom o'lsam!..» Men buni qismat ovozi deb bilaman. Shoir o'z taqdirini bashorat qilishga o'tgan edi. Yoki mashhur «Monolog»ni eslang. Bunda barcha o'tli satrlar — qismat ovozi. Va ayniqsa: «*Ehtimolki, tamom qilmasdan — Umrin tugar...»* Chamasi, «Nil va Rim» ham boshdan-oyoq qismat sasi. «*Lampam yonur... yaralangan qanotdek og'ir O'y bosadi. Yuragimda go'yo sel yog'ar...»* Usmon Nosirning bu sirli she'rda Homer bilan bahslashuvi ham, Rim sahnasida gladiator bilan yo'lbars olishuvi ham, xalqning bu qonli manzaradan zavqlanishlari ham va nihoyat, «*Rim — o'yindan o'lim kutgan jinni teatr»* satri ham bari-bari o'z taqdiriga bashoratlar edi.

Shoir she'rlari bashoratning anglashilmas ajib sirli tasvirlariga to'lgan. Uning har satridan bu buyuk insonning qismati ko'rinib turadi:

Jim!.. Ufqdagi botar quyoshni

Shart kesilgan boshga o'xshatdim.

Parcha-parcha kuygan shafaqlar

Tirqiragan qonni eslatdi!

Dahshatli Sibir o'rmonlarida yalang'och ko'ksini o'yib qonga botirgan Usmon Nosir!

Usmon Nosirning «1870» deb atalgan ajib po'rstanador, ohang tovlanishlariga to'la she'rini ko'plar biladi, ko'plar yodlab yuradi. Bunda birovlar Razinning boshini yumalab ketgan qirmizi quyoshga o'xshatilganidan mutaassir bo'ladi. Yana kimdir she'rda onaning hech qachon botmaydigan oyga, uning bag'ri oq yumshoq bulutga mengzalganidan ta'sirlanadi. Bu she'rda bog' timsoli ham yo'q emas, ona timsoli bog' timsoliga shu'la tashlab turadi. Oy ularga xayoliy suratlar bag'ishlaydi. Oy nuri esa sirlantiradi. Bir she'rdagi hamma obrazlar bir-birlariga o'zaro shu'la tashlab, bir-birlarini shu'lador qilib turadilar. Bunday tashbehtar va ohanglarda chinakam ilhomiylik jo'sh uradi.

Bunday hodisalar Navoiy, Hofiz, Bayron, Geyne singari daholardagina daho san'atining savqi tabiiyligi orqali namoyon bo'ladi.

³ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/usmon-nosir-2>

Aslini olganda, bu uchala so'z-tushuncha bir-biri bilan hech qanday bog'lanmagan. Ular qo'llangan satrlar va bandlar boshqa. Lekin Usmon Nosir yuragida she'r savqi tabiiylik qudratidan tug'ilgani bois u boyagi uch narsaning — tuyg'u, so'z va ohanglarning porloq garmoniyasi — uyg'unligiga erishadi.

Shoir ona uchun bola tarbiyalash mashaqqatini chizarkan:

Va azobga so'z bermaydi u.

Bu safar ham tog'day chidadi —

deb bir bandni yakunlaydi. So'ng shundan keyin she'rning oxirgi bandi keladi. 84-yil nashrida o'qiymiz:

O... bilmadi kimni tuqqanin,

Faqat har galgiday shod edi.

Shu xolos. Bunday qaraganda go'yo xech narsa o'zgarmagan. She'r tabiiy davom etyapti. Fikr oqimi va mazmun rivojida uzilish yo'q. Lekin xuddi shu yerda Usmon Nosirning go'zal san'atkorligi bilan chambarchas bog'liq bir muhim badiiyat tamomila yo'qolgan...

«Mehrim»ning birinchi nashrini qo'lga olamiz. Ne ko'z bilan ko'raylikki, unda shunday yozilgan:

Bu safar ham tog'day chidadi —

— Yu... bilmadi kimni tuqqanin.

Xulosa

Ha, haqiqatdan ham shoir bugun ham tirik, oramizda yurgandek. Zotan, uning asarlari o'qilmoqda, she'rlari yod olinmoqda, u haqda kitoblar, sahna asarlari yaratilmoqdaki, bularning barchasi yuqoridagi misralar nechog'lik asosli ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Iste'dodli shoir To'ra Mirzoning "Usmon Nosir" nomli badiyasi, yosh va qalami o'tkir yozuvchi Jovlon Jovliyevning "Usmon Nosir" kitobi va shu nomdagi sahna asari esa uning yosh avlod tassavvurida yangitdan kashf etdi, desak sira mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek, bu kabi asarlarni maktab darsliklariga kiritish va bu orqali aziz farzandlarimiz qalbida o'tmishga hamda ulug'ajdodlarimizga bo'lgan faxr va g'urur tuyg'ularini shakllantirmog'imiz, bugunning, kelajakning Usmon Nosirlarini yaratmog'imiz zarur va ayni chog'da dolzarb ham.

Usmon Nosirning adabiyotda paydo bo'lishi hammaning e'tiborini tortgan edi. Uning ijod maydoniga kirib kelishi, mislsiz kuchi bilan hammani o'ziga jalb qilgan notanish bir pahlavonning maydonga kirib kelishiga o'xshar edi. Ha, u ijod maydoniga yosh va kichkina jussasi bilan keldi-yu, juda katta yuk ko'tardi. «Usmon she'riyatimizga shamolday kirib keldi. Balki bo'ronday! U shunday to'polon va to'lqin bilan keldiki, uncha-muncha she'riy uslub va ijodni to's-to's qilib yubordi. Uni o'zimizda «O'zbekning Lermontovi», Moskva gazetalarida «Sharqda Pushkin paydo bo'ldi», deb yozishdi», — deydi shoir Turob To'la.

Usmon Nosir 1944-yil 23-martda (lager` arxivi hujjatlariga ko`ra 9 martda. Sayt izohi) 32 yoshida Uzoq Sharqda (Kemerevo viloyati Mariinsk rayonida Suslovo qishlog`i (hozir Pervomaysk posyolkasi) yaqinidagi lagerda) vafot etdi. Lekin, shoir o`zi aytganidek, uni Ona Vatani, xalqimiz, adabiyot unutmadi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/ibrohim-gafurov-usmon-nosir
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/unutmas-meni-bog-im/viewer>
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/usmon-nosir-2>

O'ZBEK SHOIRLARI IJODIDA LIRIK KECHINMA VA BADIY KO'CHIMLAR UYG'UNLIGI

Saitova Nilufar Djumaydillayevna,
*Denov tadbirkorlik va Pedagogika
instituti O'zbek tili va adabiyoti
kafedrasida o'qituvchisi*
E-mail: eyehdhue76@gmail.com

***Annotatsiya.** O'zbek shoirlari ijodidagi lirik kechinma va badiiy ko'chimlar uyg'unligi ulardagi shaxsiy ifoda, madaniy meros va ijodiy yangilikning jozibali uyg'unligini yaqqol ifodalaydi. Bu yetishib chiqayotgan iste'dod sohiblari o'zlarining ta'sirchan misralari orqali o'zbek adabiy an'analari va zamonaviy badiiy oqimlarning boy merosidan ilhom olish bilan birga, she'riyatiga chuqur hissiy chinlik tuyg'usini singdiradi. Maqolada biz yosh o'zbek adiblari she'riyatidagi lirik kechinma va badiiy harakatlar o'rtasidagi nozik o'zaro ta'sirlarni ko'rib chiqamiz, ularning she'riy ifodalarini belgilovchi mavzular, uslublar va ijtimoiy-madaniy jihatlariga chuqurroq kirib boramiz.*

***Kalit so'zlar:** yosh o'zbek adiblari, lirik kechinma, adabiyot, badiiy ko'chimlar, shoir.*

***Abstract.** Perception of reality and its artistic expression in young Uzbek poets and literature embody deeply connected relationships that reflect the multifaceted nuances of human experience and social dynamics. From classical times to the present, literature has served as a reflective prism through which the complexities of reality are refracted, interpreted, and imbued with artistic resonance. In this article, we examine the evolving perceptions of reality in literature, analyzing the trends and artistic expressions that shaped its narrative landscapes in cultural and temporal contexts.*

***Key words:** young Uzbek writers, lyrical experience, literature, artistic movements, poet.*

KIRISH

Har bir ulug' shoirning dunyoga kelishi alohida hodisa. Alohidaligi shundaki, chin shoir ijodiyoti millat ma'naviy hayotida yangi o'zgarishlar, tafakkurda esa yuksalishlar paydo etadi. Shuningdek, haqiqiy shoir har qanday sharoitda ham xalqining ishonchlarini oqlash bilan bir qatorda, uning qalb tayanchi ham bo'la oladi. Tarixiy ma'lumotlarning guvohlik berishicha, xalq qiyin ahvolda qolgani zamon Mavlono Jaloliddin Rumiya murojaat qilar, undan yordam va tasalli istar ekan. Bir kun hunarmandlar haqsizlik va zulmdan shikoyat etishganda Mavlono, «Qassob itni so'yanini hech ko'rganmisiz, albatta u qo'yni so'yar», degan ekanlar. Jaloliddin Rumiya eng tahlikali vaqtlarda ham mehnatkash xalqdan ajralmagan, o'zini aslo chetga tortmagan. Masalan, mo'g'ul lashkarboshisi Boychu qo'shinlarining Kunyo chegarasiga yaqinlashishi bilan hukumatdan umidini uzgan xalq Mavloning huzuriga intilishgan. Rumiya hazratlari o'sha kecha bola-chaqani tashlab bir o'zlari mo'g'ul lashkarboshisi qarorgohining yonidagi bir tepalikka borib, bosqinchilar ahvolini kuzatib, shu tepalikda tong ottirmishlar. Azonda Ko'nyoga qaytib, xaloyiqqa qo'rqmaslik va hech nima bo'lmaslikni bildirganlar. Yosh o'zbek shoirlari ijodidagi lirik tajriba va badiiy harakatlar uyg'unligi hissiyotlar, madaniy o'ziga xoslik va

jamiyat evolyutsiyasining ko'p qirrali izlanishlarini namoyish etadi. O'zbekiston yosh shoirlari, ayniqsa, yetishib chiqayotgan iste'dod egalari o'z shaxsiy tajribalarini badiiy, ijtimoiy va siyosiy manzaralarning keng konteksti bilan bog'lashda muhim rol o'ynadi va shu orqali ham mahalliy, ham jahon miqyosida tomoshabinlarda aks-sado beradigan boy adabiy ifoda gobelenini yaratdi. Ushbu muqaddimada biz yosh o'zbek adiblari she'riyatida lirik kechinma, badiiy harakatlar va ularning yaqinlashuvi ahamiyatini chuqurroq ochib, individual ijod va jamoaviy hikoyalar o'rtasidagi o'ziga xos o'zaro bog'liqlikni yoritib beramiz.¹

METODOLOGIYA

Lirik tajriba va hissiy ifoda. Lirik she'riyat ta'sirchan vosita bo'lib xizmat qiladi, bu orqali yozuvchilar o'zlarining ichki fikrlari, his-tuyg'ulari va kechinmalariga chuqurroq kirib boradilar, inson tuyg'ularining mohiyatini o'zida mujassam etgan misralar yaratadilar. Yosh o'zbek shoirlari ijodida muhabbat, sog'inch, sog'inch va matonat mavzularini o'z ichiga olgan shaxsiy sayohatlari bilan chuqur ishtiyoq aks etgan. Bu shoirlar o'z she'rlari orqali insonlar o'rtasidagi munosabatlarning nozik jihatlarini, o'z-o'zini kashf etishning nozik jihatlarini ifodalaydi. Lirik tajriba, bu paydo bo'lgan ovozlari she'riyatida namoyon bo'lganidek, lingvistik to'siqlarni engib o'tib, o'quvchilarni hissiy ifodaning xomligi va haqiqiylikiga sho'ng'ishga taklif qiladi.

Badiiy va madaniy harakatlar. Tarixiy va zamonaviy badiiy harakatlar O'zbekistonning bunyodkorlik manzarasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Mumtoz adabiyotning boy merosidan tortib, zamonaviy badiiy ifodalarning jadal oqimlarigacha bo'lgan shoirlar O'zbekistonning ijtimoiy tuzilishiga singib ketgan madaniy, badiiy va intellektual oqimlardan ilhom olganlar. Qolaversa, she'riyatning an'anaviy shakllarining avangard eksperimentlari bilan uyg'unlashuvi yosh o'zbek shoirlarining badiiy traektoriyasini belgilab, ularni madaniy davomiylik va zamonaviy innovatsiyalar chorrahasida joylashtirdi. Badiiy harakatlar va madaniy kontekst o'rtasidagi bu dinamik o'zaro ta'sir ularning ijodiga o'zbek jamiyatining doimiy rivojlanib borayotgan dinamikasini aks ettiruvchi jo'shqinlik va dolzarblik tuyg'usini uyg'otadi.

Identifikatsiya va ijtimoiy hikoyalarni o'rganish. Yosh o'zbek yozuvchilari she'riyati o'ziga xoslik va jamiyat hikoyalarni kengroq o'rganish uchun individual introspektsiyadan ustun turadi. Bu shoirlar o'z she'rlari orqali shaxsiy o'ziga xoslik, madaniy meros va jamiyatdagi o'zgarishlarning murakkab uyg'unligini yo'lga qo'yib, zamonaviy o'zbek yoshlarining ko'p qirrali kechinmalariga chuqur tushunchalar beradi. An'analar va zamonaviylik, meros va diaspora hamda

¹ Yo'lchiyev, Q. (2022). LIRIK JANR HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR. *Scientific journal of the Fergana State University*, (2), 27-27.

jamiyatdagi o'zgarishlar sharoitida barqarorlik mavzulari ularning ijodida keng tarqalgan bo'lib, bu o'zbek jamiyatining rivojlanayotgan axloqi bilan chuqur aloqadorlikni aks ettiradi. Demak, ularning she'riyati o'zbek o'zligining rang-barang va rivojlanib borayotgan gobelenlarining ko'zgusi bo'lib, an'ana va taraqqiyot chorrahalariida sayr qilayotgan avlod ma'naviyatini aks ettiradi.

MUHOKAMA

Global aks-sadolar va madaniyatlararo muloqot. O'zbekistonning madaniy va til merosidan ildiz otgan yosh o'zbek adiblarining she'riyati milliy chegaralardan tashqarida aks sado beradi, butun dunyo kitobxonlari bilan mazmunli madaniyatlararo muloqotni kuchaytiradi. Bu shoirlar o'zlarining ta'sirchan tasvirlari, nozik hikoyalari va hissiyotli aks sadolari orqali mahalliy va umumbashariy, geografik chegaralardan oshib ketadigan mavzu va tajribalar o'rtasidagi tafovutni bartaraf etadilar. Natijada, ularning ijodi global adabiy almashinuvning kengroq hikoyasiga hissa qo'shadi, turli madaniyatlarga ega bo'lgan o'quvchilarni ularning lirik ijodining asosini tashkil etuvchi sevgi, yo'qotish, umid va chidamlilik kabi universal mavzular bilan shug'ullanishga taklif qiladi.²

Yosh o'zbek adiblari she'riyatining zamirida lirik tajribaga chuqur kirishish – she'riyat orqali shaxsiy his-tuyg'ular, kechinmalar va ichki mushohadalarni o'rganish yotadi. Ularning she'riyati sevgi, sog'inch, sog'inch, chidamlilik kabi mavzularni insoniy tuyg'ularga nafis sezgirlik bilan uyg'unlashtirib, chuqur hissiy manzaralarni ifodalash uchun idish bo'lib xizmat qiladi. Bu shoirlar o'z tillarining ta'sirchan kuchi orqali o'quvchilarni o'z his-tuyg'ularining jonli manzaralarini kezib o'tishga, inson tajribasining xomligi va haqqoniyligiga chuqurroq kirib borishga chorlaydi. Ana shunday shoirlardan biri, keling, uni Amina deb qo'yaylik, o'zining lirik kechinmalarini shaxsiy judolikning o'tkir aks sadosi bilan nozik bog'laydi, misralariga g'am va xotiraning umumbashariy tilda so'zlovchi ta'sirchan go'zallik singdiradi. O'zining nafis kompozitsiyalari orqali u insoniy qayg'uning labirint tubida sayr qiladi, o'quvchilar bilan chuqur hissiy darajada aks-sado beradigan misralar yaratadi. Uning she'riyati lirik kechinmaning o'zgartiruvchi kuchidan dalolat berib, o'quvchilarga uning she'rlari orqali ochib bergan hissiyotli manzaralarga hamdard bo'lish va ularni o'z ichiga qamrab olish imkonini beradi.

Yosh o'zbek shoirlari lirik tajribani o'rganish bilan bir qatorda badiiy harakatlar va madaniy kontekstlarning boy gobelenidan kelib chiqib, o'z ijodiga an'analar aks-sadosi, zamonaviylik ritmi va jamiyat evolyutsiyasi to'qimalarini singdiradi. Bu shoirlar o'zbek adabiyotining mumtoz merosidan tortib, zamonaviy badiiy iboralar oqimigacha bo'lgan davrda o'zlarining badiiy merosi bilan faol shug'ullanadilar va

² Aralovna, M. S., & Abdulkadirovna, A. U. (2023). USMON AZIM LIRIKASIDA IJROVIYLIK XUSUSIYATLARI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(2), 266-271.

hozirgi O'zbekistonning ravon dinamikasi doirasida o'zlarining badiiy merosini qayta kontekstualashtiradilar. Masalan, she'riyatida o'zbek xalq og'zaki ijodi, tasavvuf an'analari aks-sadosi uyg'unlashgan yosh shoirlarning ijodini olaylik. Shoirlar o'zining an'anaviy shakllarni innovatsion hikoya usullari bilan uyg'unlashtirishi orqali o'zbek adabiy merosining boy merosini jonlantirib, unga zamonaviy dolzarblik va madaniy aks-sado beradi. Uning misralari o'zbek adabiy an'analari va zamonaviy ijodiy ifodasining dinamik davomiyligini o'zida mujassam etgan o'tgan yillardagi badiiy oqimlar bilan bugungi o'zgaruvchan kuchlar o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi.³

NATIJA

Yosh o'zbek shoirlari she'riyati shaxsiy introspektsiya va badiiy ta'sirlardan tashqari, shaxsiy va jamoaviy o'ziga xosliklarning ko'p qatlamli murakkabliklari hamda ular bilan chambarchas bog'langan ijtimoiy hikoyatlarga oyna bo'lib xizmat qiladi. Bu shoirlar o'z she'rlari orqali an'ana va zamonaviylik chorrahalarida, madaniy diasporaning tarangligini va jamiyatdagi o'zgarishlar oqimlarida suzayotgan avlodning o'sib borayotgan intilishlarini kezadi. Ko'plab shoirlar madaniy birdamlik, diaspora intizorligi va rivojlanayotgan jamiyatning barqarorligi haqidagi hikoyalarni birlashtirib, zamonaviy o'zbek yoshlari odob-axloqini mohirlik bilan tasvirlaydi. Uning she'riyati individual va jamoaviy o'ziga xosliklarni birlashtirgan chegaraviy bo'shliqlarni qamrab olgan bo'lib, zamonaviy o'zbek tajribasi tarixiy meroslar, global ta'sirlar va mahalliyashtirilgan intilishlar mozaikasi orqali qanday shakllanayotganining nozik tasvirini ifodalaydi. Bunda u o'zbek o'ziga xosligining doimiy o'zgarib borayotgan o'lchovlari va u tomonidan shakllantiriladigan va shakllantirilayotgan ijtimoiy hikoyalar haqida o'tkir mulohaza yuritadi.

Yosh o'zbek adiblari she'riyati milliy chegaralardan tashqarida ham aks-sado berib, til, geografik va ijtimoiy-siyosiy chegaralarni chetlab o'tgan boy madaniyatlararo muloqotni rivojlantirmoqda. Ushbu shoirlar o'zlarining nozik hikoyalari, hissiy aks sadolari va universal mavzuli izlanishlari orqali turli madaniy kelib chiqishi o'quvchilarini o'zlarining she'rlari orqali qamrab olgan hissiy manzaralar va ijtimoiy hikoyalar bilan shug'ullanishga taklif qiladilar. Yosh shoirlar sevgi, yo'qotish, umid va chidamlilik kabi umumbashariy mavzularga mohirlik bilan tayanadi va butun qit'alar o'quvchilarida aks-sado beradigan misralar yaratadi. O'z she'riyatining ajoyib kuchi orqali u mazmunli madaniyatlararo muloqotni osonlashtiradi va o'quvchilarni o'z ichiga olgan universal insoniy tajribalar bilan hamdard bo'lishga va mulohaza yuritishga taklif qiladi. uning o'zbek madaniy merosi. Ularning misralari turli madaniyatlar o'rtasida ko'prik bo'lib, jahon hamjamiyatlarida

³ Ergasheva, M. (2023). ZEBO MIRZO SHE'RIYATIDA POETIK OHANGDORLIKNING RANG-BARANGLIGI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(7), 103-106.

hamdardlik, tushunish va hamjihatlikni rag'batlantiradigan she'riyatning o'zgaruvchan salohiyatidan dalolat beradi.⁴

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yosh o'zbek shoirlari ijodida lirik tajriba va badiiy harakatlar uyg'unligi she'riyatning o'zgartiruvchi kuchidan chuqur dalolat beradi. O'zining ta'sirchan misralari orqali o'zining zamonaviy o'zbek adabiy iboralarini belgilab beruvchi hissiy manzaralar, madaniy rezonanslar va global dialoglarni bosib o'tadi. Ularning she'riyati lirik tajribaning doimiy dolzarbligidan, badiiy harakatlar dinamikligidan, she'riyatning individual va jamoaviy hikoyalar vositasi sifatidagi transsendent salohiyatidan dalolat beradi. Yosh o'zbek adiblari she'riyatida lirik tajriba va badiiy harakatlarning uyg'unlashuvi shaxsiyintrospektsiya, madaniy rezonans va global o'zaro bog'liqlikning jadal uyg'unligini ifodalaydi. O'zining she'riy ifodalari orqali yangi paydo bo'lgan ovozlari hissiy haqqoniylik, badiiy yangilik va madaniy muloqot uchun makon yaratadi, o'zbek adabiy merosining boy gobelenlarini qamrab oladi va ijodiy izlanishning yangi hududlarini belgilab beradi. Ushbu maqola yosh o'zbek shoirlari she'riyatida individual ifoda va jamoaviy hikoyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni har tomonlama o'rganishni taklif qilib, ular ijodining ko'p qirrali jihatlarini chuqurroq o'rganishga qaratilgan.⁵

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'lchiyev, Q. (2022). LIRIK JANR HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR. *Scientific journal of the Fergana State University*, (2), 27-27.
2. Aralovna, M. S., & Abdukadirovna, A. U. (2023). USMON AZIM LIRIKASIDA IJROVIYLIK XUSUSIYATLARI. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(2), 266-271.
3. Ergasheva, M. (2023). ZEBO MIRZO SHE'RIYATIDA POETIK OHANGDORLIKNING RANG-BARANGLIGI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(7), 103-106.
4. Mukhammadjonova, G. (2020, December). Artistic interpretation of the creative concept in world literature. *Конференции*.
5. Yo'lchiyev, Q. (2023). ANVAR OBIDJON LIRIKASIDA SEMIOTIK XUSUSIYATLAR. *Scientific journal of the Fergana State University*, (1), 80-80.

⁴Mukhammadjonova, G. (2020, December). Artistic interpretation of the creative concept in world literature. *Конференции*.

⁵ Yo'lchiyev, Q. (2023). ANVAR OBIDJON LIRIKASIDA SEMIOTIK XUSUSIYATLAR. *Scientific journal of the Fergana State University*, (1), 80-80.

ҚАДИМГИ ТУРКИЙ АДАБИЁТ НАМУНАЛАРИНИНГ ҒОЯВИЙ-
ЭСТЕТИК ХУСУСИЯТЛАРИ
(“ЧИСТОНИЙ ЭЛИК БЕГИНИНГ ҲИКОЯСИ” МИСОЛИДА)

Қодиржон Эргашев,
Ўз РФА Ўзбек тили,
адабиёти ва фольклори
институтининг етакчи
илмий ходими. Филология
фанлари доктори

Аннотация: мақола қадимги туркий адабиёт намуналарининг ғоявий-эстетик хусусиятларини тадқиқ этишига бағишланган. Муаллиф мавзунини “Чистоний Элик бегининг ҳикояси” асари мисолида ёритган. Ҳикояда буддавийлик қарашларининг ҳамда “Олтун ёруқ” асарининг таъсири мавжудлиги кўрсатилган, “Чистоний Элик беги ҳикояси”нинг адабий ёдгорлик сифатидаги хусусиятлари очиб берилган.

Калит сўзлар: қадимги туркий адабиёт, намуна, ғоявий-бадиий хусусиятлар, буддавийлик, қарашлар, таъсир, тасвир, Эликбек.

Аннотация: статья посвящена изучению идейно-эстетических особенностей образов древнетюркской литературы. Автор освещает данную проблему на примере “Рассказа Чистони Элик бека”. В статье при помощи конкретных примеров показаны влияние на рассказ буддийских воззрений и тюркоязычного источника “Золотое сияние”, раскрыты особенности рассказа как литературного памятника.

Ключевые слова: древнетюркская литература, образец, идейно-эстетические особенности, буддизм, воззрения, влияние, изображение, Эликбек.

Аждодларимиз томонидан қолдирилган маънавий мероснинг муайян қисмини қадимги ёзма ёдгорликлар ташкил этади. Узоқ ўтмишда яратилган бу асарларнинг мазмуни ва ғоясида, адабий ёдгорлик сифатидаги хусусиятларида ўша замонларда мавжуд бўлган, тарқалган турли қарашлар, диний, фалсафий таълимотларнинг, асарларнинг таъсирини кўриш мумкин [1 – 36]. Жумладан, тадқиқотчилар қадимги туркий адабиётда буддавийлик билан боғлиқ йўналиш юзага келганлигини кўрсатиб ўтганлар [2 – 83]. Бу жараёнда хитой тилида яратилган асарларнинг роли ва таъсири ҳам қайд қилинган [3 – 57]. Булар туркий тилдаги ўтмиш ёзма адабиёт намуналарининг ғоявий-эстетик хусусиятларини, адабий ёдгорлик сифатидаги ўзига хосликларини жиддий ўрганишни тақозо этади. Мақоламизда ушбу муаммо “Чистоний Элик бегининг ҳикояси” асари мисолида кўриб чиқилди.

Фитратнинг маълумот беришича, 1902 йилдан бошлаб немис шарқшунослари томонидан Шарқий Туркистонга илмий экспедициялар уюштирилган. Мазкур экспедициялар вақтида топилган ёзма ёдгорликлар орасида кичик-кичик ҳикоялар ҳам бўлган ва “Чистоний элик бегининг ҳикояси” шуларнинг биридир. Уни шарқшунос фон Лакук ўқиган ва нашр қилган. Фитрат ҳикояни VIII-IX асрларга оид деб ҳисоблайди. Ҳикоянинг

мазмуни ҳақида у алоҳида тўхталмаган, фақат экспедициялар давомида қўлга киритилган асарларнинг “кўбраки буддизм ва монийликқа оид диний асарлар, дуолардан иборат экани гумон қилинадир” деган тахминий фикрни билдирган[4 – 11].

Ҳикоя Эликбекнинг Чаёнбалиқ шаҳри яқинида турганда тўрт томонга айрилувчи йўл бошида яқлар (шайтонлар, ажиналар)ни учратгани ҳақидаги эпизод билан бошланади. Бу ёвузлар одамларни ўлдирар, уларнинг этини еб, қонини ичар, ичак-чавоқларини эса ўз таналарига ўраб олар эдилар:

“Арсланларнинг йўриғин йуру у Чаёнбалиқнинг кадинита туруб инару, бару йуриди ўтру. Элигбаг тўрт болтир йўлта йурию онинг орасинта сансиз, ўкуш яқларни кўрди. Ул йима яқлар йалигукларнинг атин йейу, қанин ичиб, бағор сукларин атузларинга йўрга йурлар арти”.

Яқлар сон-саноксиз, бунинг устига ташқи кўринишлари даҳшатли эканликларига қарамай Эликбек ҳеч бир кўрқувсиз уларнинг ораларига кириб боради. Яқлар Эликбекнинг ёлғиз эканлигини кўриб бундан фойдаланмоқчи бўладилар ва уни ҳар томондан ўраб оладилар, унинг кимлигини, нега ёлғиз ўзи уларнинг устига бостириб келганлигини суриштирадилар. Эликбек саволга савол билан жавоб беради ва яқлардан нега унинг шаҳридаги одамларни ўлдираётганликларини сўрайди, бундай ёвузликка қандай журъат қилаётганлари, қаердан куч олаётганликларини айтишни талаб қилади. У душманларга ўзининг ўткир қиличини кўрсатиб уларни қиймалаб ташлашини, зеро яқларнинг унинг улусига, шаҳрига нисбатан қилаётган ёвузликлари ҳақидаги хабарларни эшитишга ортиқ сабри қолмаганини айтади. Эликбекнинг бундай қатъий сўзларини эшитиб яқлар ғазабланадилар, қуролларини, тўқмоқларини қўлларига олиб, унга ташланмоқчи бўлиб, бир-бирларини тезлатиб. Эликбекка тиғ санчиш, уни бурдалаб ташлашга даъват қиладилар. Эликбек бор кучини тўплаб, бир сакраб яқлардан бирининг сочидан ушлаб олади ва бошини кесиш учун қилич уради. Унинг кучини, жасоратини кўрган яқларнинг шашти пасайиб, кўрқиб қоладилар. Эликбекка мулойим сўзлаб, уларни ўлдиргани билан унинг юртидан касалликлар аримаслигини айтадилар, шунингдек, бунинг сабабчиси кимлиги ҳақида ҳам ҳам хабар берадилар[4 –11-16].

Ҳикояда буддавийлик ақидаларининг таъсири, энг аввало, унинг бош қаҳрамони Эликбек тимсолида кўзга ташланади. Будда таълимотининг қонун-қоидалари баёнидан иборат бўлган “Олтун ёруғ” китобида ҳукмдорлар – эликхон ва эликбеклар кўп тилга олинадилар, эликхонларнинг масъулияти қайд қилинадилар, халқнинг яхши яшаши, юртнинг обод бўлиши уларга боғлиқ экани алоҳида таъкидланади, хусусан, уларнинг мамлакатни ҳимоя қилиш, уни турли

хавф-хатарлардан, душманлардан сақлашдаги ролига урғу берилади ва бунинг учун эликлар нўм қонунларига, яъни буддавийлик таълимотига риоя қилишлари лозимлиги уқтирилади. Ана шунда улар кучли, қудратли бўладилар, ёмон ниятли душманлар билан курашда ғолиб чиқадилар: “Агар қайси (бир) эликхонлар шу тариқа... иш тутсалар, кейин ўша эликхонлар ғоят муқаддас, улуғвор бўладилар... ёмон ниятли душманларнинг ҳаммасини оёқ ости қилиб... босқай, улардан ғолиб келгай”. “Чистоний Элик беги ҳикояси” мазмунида, Эликбекнинг ўз шаҳри ва халқини ёвуз яклардан ҳимоя қилиши, душманлар билан тўқнашувда ғолиб чиқиши тасвирларида юқоридаги қарашлар ўз ифодасини топган.

“Олтин ёруқ”нинг IX қисмида бир адолатли эликбекнинг ҳукмронлиги ҳақида сўз юритилади. У халққа ғамхўр бўлиб, одамларга худди меҳрибон ота-она ўз болаларига қарагандек қарар эди. Ўша вақтда ўша эликбекнинг юртида бир Удақатати номли аслзода яшаган. Удақатати тиббиёт илмини яхши билар, дори-дармонларнинг, касалликларнинг хусусиятлари ҳақида тушунчаларга эга бўлиб, касалларни яхши даволар, унинг олидига нажот истаб келган қанчадан қанча беморлар шифо топиб кетар эдилар. Унинг жуда яхши фазилатларга эга бўлга билимдон ва чиройли ўғли бор эди. Кутилмаганда эликбекнинг юртида юртида касаллик тарқалади “... эликбекнинг юртида касаллик тарқалиб, халқи ғоят азоб чекди. Бу (ахвол)дан ўша эликбек ниҳоятда ғамга ботиб, қайғурди”. Шу оғир аайтда юқорида тилга олинган аслзода Удақатати ва унинг ўғли эликбекнинг ва халқнинг жонига оро кирадилар. Удақататининг билими, ўғлининг саъй-ҳаракатлари туфайли мамлакатда тарқалган касаллик бартараф этилади[5 – 224-236] “Чистоний Элик беги ҳикояси”да ҳам Эликбекнинг шаҳрида, юртида касаллик тарқалгани ва Эликбек уни бартараф қилишга, сабабини аниқлашга интилгани ҳақида сўз боради. Эликбек якларни ўлдирмоқчи бўлганда улар шундай дейдилар:

“Йалингуқларнинг арслони... Бирак бизни ўлур сансан. Йима, нагу, санинг балиқтаги ик тўға кетгуси йўқ. Амта бизнинг исик ўзумизга азгу кўнгул турғузуб, умуғ, тиноғ бўлғил”(Инсонларнинг арслони, ... Бирдан бизни ўлдиришни истайсан. Яна шаҳрингдан касаллик ҳеч қандай кўтарилмайдир. Эмди яхши кўнгул кўтариб, бизнинг исик жонимизга умид, ишонч бўлғил”.

Эликбак инча теп теди: “Ай йаклар, таркин сўзланглар, начук манинг болиқимтақи ик туға кетмаз?! (Эликбек шундай деди: Ай яклар, тез сўзланглар, қандай қилиб менинг шаҳримдаги, улусимдаги касаллик кетмайдир?)

Ҳикояда туркий буддавийлик адабиётининг йирик намунаси “Олтун ёруқ” учун хос бўлган иборалар, сўзларнинг учрашини ҳам таъкидлаш зарур. Масалан, ” ёмон ўй” (ёки “ёмон ният”) ибораси:

“Олтун ёрук”да: Агар ўша жамики эликхонлар ... ёмон ният қилмаса ... ҳамма халқ тинч, шоду хуррам (бўлади);

Кўп турли яхши аломатлар... кўрунгай. Зоҳир бўлғай, ёмон ниятли душманларнинг ҳаммасини оёқ ости қилиб... голиб келгай;

Шунингдек, уларнинг юртида, қишлоғида душман, кулфат, ғам, ёмон ўй, яна бошқа хавф-хатар бўлмайди.

Ҳикояда: Анта овлақ сақинжлик рақшаш бўлур (У ерда ёмон ниятли рақшаш бўлур).

“Олтун ёрук”да ҳам аслият матнида бу ибора худди ҳикоядаги сингари қадимги туркий сўзлар билан “йовлақ сақинж” шаклида берилган.

Ҳикоядаги “яқлар”, “як”, “исик ўзи” (“иссиқ жон”). “ик тўға”(касаллик, фалокат) кабилар ҳам “Олтун ёрук” матнига хос сўз ва иборалар жумласидандир. Уларнинг ҳар бирига мисоллар келтириш мумкин. Биз бу ўринда “исик ўзи”(ёки “исик ўзу”) – иссиқ жон иборасига кетириш билан кифояланамиз:

“Олтун ёрук”да: ... худди ботир эр (ёлғиз ўзи) лашкарга хужум қилгандай, иссиқ жонимга ачинмай... нўм хазинасини эгалладим, (унга) риоя қилдим;

Эй акаларим, биз ҳаммамиз иссиқ жонимизга, танамизга ниҳоятда боғланганмиз, ёпишиб олганмиз;

Иссиқ жонимиздан кечиб, пок, самимий кўнглим билан таъзим қиламан, жамики бурхонларнинг... фазилатига.

Ҳикояда: Тақи нагу кўдарсизлар? Таркин муни санчинглар, бичинглар, исик ўзин узуб... қадинглар! (Яна нима кутяпсизлар? Бот буни санчинглар, тўғранглар, иссиқ жонини узуб... отиб юборинглар!);

Амти бизнинг исик ўзумузга азгу кўнгул турғузуб, умуғ, тиноғ бўлғил.(Эмди яхши кўнгул кўтариб, бизнинг иссиқ жонимизга умид, ишонч бўлғил).

“Чистоний Элик беги ҳикояси” туркий насрнинг қадимги намуналаридан бири ўлароқ ўзига яраша бадииятга ҳам эга. Ундаги тасвирда ўхшатиш, сифатлашлардан фойдаланилганини кўришимиз мумкин. Масалан, кўйидаги парчада Эликбек арслонларга ўхшатилади: “Арслонларнинг йўриғин йуруб у Чаёнбалиқнинг қадинита туруб инару, бару йўриди ўтру (Арслонларнинг юриши билан юриб у Чаёнбалиқ шахрининг кейинида туриб, кўниб, олдинга қараб юрди). Бошқа бир ўринда эса у йўлбарсга қиёс қилинади: ”Они кўруп Чистоний Элик баги юракин қатрунуб тўнгалар бак так ... кўрқинжсиз. аянжсиз кўнглин ул яқлар орасинта кируб борди (Уни кўриб Чистоний Элик беги юрагини маҳкам қилиб, йўлбарслар беги каби... кўрқувсиз, беаёв кўнгил билан яқлар орасига кириб борди).

Асарда яklarинг ташқи кўринишлари ва ҳатти-ҳаракатлари тасвирланган ўрин ҳам мароқли. Парча уларнинг кўрқинчли, хунук башаралари ва ёкимсиз атвори ҳақида тасаввур ҳосил қила олади: "Кўрқғу-так кўрк, мангиз тутуб ёвлак қатиғ унин қийқирису дизрул бодруқ иликларинта тутуб, қап-қара, улуғ бадук тоғ-так атузинунайу ўт ўнглук эшин сочларин ангинларинта тушуруб, оғулук йиланина турларин итиниб яраниб қов болтир сойу йурийур арти (Кўрқинчли қиёфа, юз тутиб, ўта қаттиқ товуш билан қичқиршиб, яроқларини қўлларига олиб, қоп-қора. катта, чўнг тоғдек гавдаларини кўтариб, ўт тусли, эшилган сочларини эгинларига тушириб, оғули илон танасидек суриниб, ялқовланиб, яқин йўл бошида юрар эди).

Шу билан бирга ҳикоядаги тасвир, персонажларнинг ташқи кўриниши, уларнинг воқеалар ривожига жараёнидаги ҳатти-ҳаракатлари уларга хос асосий хусусиятларни илғаб олиш имконини беради, Эликбекнинг қаҳрамон сифатидаги асосий жиҳати ҳам, яklar табиатининг асосий, бўртиб кўзга ташланувчи қирралари ҳам нималардан иборатлиги муайян даражада аён бўлади. Масалан, яklar ташқи кўринишлари кўрқинчли бўлишига, бошқаларни даҳшатга солувчи ҳаракатларни содир этишларига қарамай, аслида кўрқоқ ва ожиздирлар. Уларга хос бу хусусият Эликбек билан тўқнашув пайтида яққол кўринадилар. Яklar уни ўраб олиб, ўлдирмоқчи бўладилар, лекин Эликбек улардан бирига зарба бериши билан ҳаммалари кўрқиб қоладилар. Ҳикояда уларнинг бу ҳолати яхши тасвирланган. Яklarнинг ҳатто товушлари ҳам пасайиб қолади ва Эликбекка хушомад қила бошлайдилар. Шу ўринда бир нарсани таъкидлаб ўтиш лозим. Яқ сўзи шайтон, иблис, ажина маъноларин билдиради. Лекин ҳикояда тасвирланган яklarда ҳеч қандай ғайритабиий хусусиятлар йўқ. Уларнинг кучи, имкониятлари ҳам одамларникидан ортиқ эмас. Буни юқорида тилга олинган тўқнашув эпизодида ҳам кўриш мумкин. Бу ўринда уларнинг ҳатти-ҳаракатлари ҳам, гап-сўзлари ҳам кучсиз, ожиз ва кўрқоқ одамларникидан фарқ қилмайди. Тўғри, улар ёвуз ва раҳмсиз, қиёфалари хунук, одамларнинг этини ейди. Лекин уларда шайтон, иблисларга хос қобилиятлар мавжуд эмас. Кишиларнинг гўштини ейиш масаласига келсак, бу одат айрим худудларда одамлар орасида ҳам мавжуд бўлган (каннибализм). Ҳикояда яklar билан боғлиқ бирон-бир ғайритабиий воқеа юз бермайди, афсонавийлик мавжуд эмас. Шунга кўра бу ўринда мажозийлик бор ва асардаги яklar ёмон, ёвуз одамлар тимсоли деб ҳисоблаш ҳам мумкин.

Вазиятга қараб ўзгарувчи, журъатсиз яklarдан фарқли ўлароқ ҳикояда Эликбек қатъиятли, жасур, кўрқмас инсон, қаҳрамон сифатида кўрсатилган. Унинг ҳатти-ҳаракатлари тасвири, бунда қўлланган сўзлар, ўхшатишлар Эликбекнинг ана шундай қиёфасини яратишга хизмат қилади. Фақат тасвир,

таърифлар эмас, қахрамон тилидан айтилган сўзлар, унинг нутқи ҳам бекнинг шахсига, табиатига хос хусусиятларни очиб беради: Ай йаклар, таркин манга сўзланглар. Манинг балиқимтақи будунуғ бу қўнуғ нагулуғ ўлурусизлар?! Сизларға бу балиққа киргулук куч кўсун ким берди?! Бу манинг ити қиличимни кўрунглари. Атузунглари бичиб унги унги камшайин! Балиқимнинг, улусумнинг бу мунтоғ туд ужуз совларин кўруб саргум такармаз(Эй яқлар, менга тез айтинглар, менинг шаҳримдаги эл-халқни нега ўлдирасизлар?! Сизларга бу шаҳарга кирарлик куч-қувватни ким берди?! Бу менинг ўткир қиличимни кўринг. Таналарингизни қиймалаб, бошқа-бошқа (томонларга) ташлайин! Шаҳримнинг, улусимнинг бундай ёмон хабарини кўриб чидай олмайман).

Юқоридаги сўзлардан Эликбекнинг ботир, кучли инсонгина бўлиб қолмай, айна пайтда ўз юртини, халқини ўйлайдиган, улар учун қайғурадиган ҳукмдор эканлиги ҳам аён бўлади. Ҳикоя охирига етмай узилиб қолган. Шуундай бўлсада, ҳажман кичик бу асар қадимги туркий адабиётнинг ўзига хос намунаси сифатда аҳамиятлидир.

Адабиётлар рўйхати:

1. Абдурахмонов А. Туркий адабиётнинг қадимги даври(Энг қадимдан исломгача бўлган давр). Тошкент, 2005. Б.36.
2. Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд. Тошкент, 2003. Б.83.
3. Мирзагулова З. Идеино-эстетические особенности тюркских буддийских произведений средних веков. Туркология, 2017, №6. С.57.
4. Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. Тошкент, 2013. Б.11, 11-16.
5. Олтун ёруғ. 2-китоб. Тошкент, 2013. Б.224-23

РАҚАМ ВА ШЕЪРИЙ ТАЛҚИН

София Джумаева,
Филология фанлари номзоди,
доцент Тошкент амалий
фанлар университети

Аннотация: мақолада адабий мантларда учрайдиган рақамларнинг рамзийлиги, уларнинг мажозий хусусиятлари ҳақидаги илмий мулоҳазалар баён этилган бўлиб, рамзий рақамларнинг гоявий-бадиий талқинлари берилган. Шарқ шоирлари асарларида рақамга муносабат, рақам рамзи ва рақам моҳиятидан фойдаланиш масаласи бир ва тўрт рақамлари мисолида ёритилган.

Калит сўзлар: рақам, тасаввуф адабиёти, маволиди салоса, аносири арбаъа, хавоси хамса, шеш жиҳат, саъбойи самовот, ҳашт беҳишт ва нуҳ фалак.

Мумтоз шоирлармиз одатда ўз фикрлари, ҳис-туйғу ва кечинмаларини рамзий-мажозий йўл воситасида ифода этишган. Бунда рақамларга мурожаат қилиш, рақамлар воситасида фикрни ифода этиш, рақам рамзлари ва улар моҳиятидан фойдаланиш тажрибаси сезиларли даражада эътиборни тортади. Адабиёт тарихида шундай бир қарашлар, алоҳида диний фалсафий оқимлар юзага келганки, бу оқим вакиллари маълум бир ҳодиса ёки нарсаларга эътиқод қўйиб, шулар воситасида дунёга назар ташлашга ҳаракат қилишган. Ана шундай оқимлардан бири араб ҳарфларининг муқаддаслигини илгари сурган ва дунёнинг сир-асрорлари араб ҳарфлари замирида яшириндир, деган қарашларга таянган ҳуруфийликдир. Гарчи рақам рамзларидан фойдаланиш, рақамлар воситасида турли хил қарашларни илгари суриш маълум бир оқимни юзага келтирмаган бўлса-да, ўз фикрларини рақам рамзлари ёрдамида ифодалаш деярли ҳар бир шоир ижодида учрайди. Шунинг учун ҳам рақамлар билан боғлиқ ҳақиқатларни ўрганиш, уларнинг рамзий-мажозий сирларини очишга уриниш зарур, деб ўйлаймиз. Рақамлар замирида яширинган ҳақиқатларни ойдинлаштириш, тўғри талқин ва тадқиқ қилиш учун эса рақамларнинг мифология, дин, тасаввуф ва космогониядаги мавқе-моҳиятига эътибор қаратиш лозим.

Адабий асарларда бирдан ўнгача бўлган рақамлар рамзий-мажозий маъноларни ифодалашга хизмат қилган бўлса, юз ва минг рақамлар воситасида ясалган қўшма сонлардан таркиб топган рақамлар аниқ сон қийматини эмас, одатда кўплик маъносини англатиш учун хизмат қилган. Бир рақами билан боғлиқ маънолар кўпинча Мутлақ борлиқ мазмуни билан узвий алоқадорлигини аввалги ишларимизда қайд этиб ўтганмиз [Жумаева С. 5:7-9]. Бир рақами таъбир жоиз бўлса, рақамларнинг “подшоси”дир. Чунки ҳаммаси бирга қайтиб келади. Рақамлар ҳам ваҳдат ва кастарга бўлинганлиги сабабли Бир ваҳдатни, қолган барча рақамлар эса касрат англатиш учун хизмат қилади.

Пир бирдир, сирр бирдир, сирр ила бир бўлмаган,

Иккилик сизмас орада, сирр ила сирдор бир, - дейди Насимий

шеърларидан бирида. Иккилик Яратганнинг кудратини, сунъини инкор этиш ва яратилмишни Яратгандан айри кўриш ва билишдирки, бу аслида “ширк” ҳисобланади. Шунинг учун ҳам Шарқ шоирлари “иккилик”дан қочишга, “иккиликка майл қилмаслик”ка ҳаракат қилишган. “Кеч менлик даъвосидан, Сўзла сўзнинг хосидан”, – дея хитоб қилган Юнус Эмро “Иккилик пардаси йўқдур кўзимда, Бирликдир муродим, ўзим, сўзимда”, – дея “бирлик”ка интилганлигини баён этса, Насимий бу фикрларни янада давом эттириб, шундай ёзади:

Ошиққа бирдир азалдан севгили дилдор, бир,

Иккилик йўқдир орада ёр бирдир, ёр бир.

Араб алифбосидаги биринчи ҳарф ҳисобланган “Алиф”нинг абжад ҳисоби бўйича бирни ифодалаши, у тасаввуфда Зоти аҳадият, Оллоҳнинг мутлақ ёлғиз ва бирлигига ишора қилишини юқорида қайд этиб ўтдик.

Умар Хайёмнинг қуйидаги рубоийсида айна шу ҳақиқат ўз ифодасини топган:

“Илоҳиёт илмин ўргат” деди дил,

Агар ўзинг билсанг менга баён қил.

“Алиф” деган эдим “Бас” деди менга,

“Бир ҳарф ҳам етади” ким бўлса оқил.

Баъзи тасаввуф арбоблари “Оллоҳ” сўзидаги ҳар бир ҳарф маънога эга эканлигини таъкидлашган, яъни “Алиф” – Ҳақнинг зотига, биринчи “Лом” – ақлнинг суратига, иккинчи “Лом” – руҳнинг суратига, “Ҳойи ҳавваз” – нафснинг суратига далолатдир, деб қаралган. Аммо бизнинг эътиборимизни бошқа бир жиҳат – бу табаррук сўзнинг араб имлосида “Лола” сўзи сингари ёзилиши ўзига тортди. Ҳақиқатдан ҳам арабча матнларда бу иккала сўз ёзилиш жиҳатдан бири-бирига яқин. Бунинг сабаби фақатгина улар таркибидаги ҳарфларнинг бир хил эканлиги билангина эмас, балки иккала сўздаги ҳарфлар йиғиндиси Абжад ҳисоби билан олтмиш олти рақамини ҳосил қилишидир. “Лола” сўзи ҳам “Оллоҳ” сўзи сингари олтмиш олтини билдиради. Зеро, тасаввуфий шеърятда лола – Оллоҳнинг бирлиги, гўзаллигининг рамзи бўлиб келади. Агар эътибор берилса, мусулмон мамлакатларининг байроқларида янги чиққан ой – ҳилол тасвири жой олган. Буни қарангки, “Ҳилол” сўзини ёзишда иштирок этадиган ҳарфлар йиғиндиси ҳам олтмиш олтини бераркан.

“Алиф” Оллоҳга, “Бе” Муҳаммад (с.а.в.)га ишорадир. “Оллоҳ аввал менинг нурумни яратди, сўнгра бу нурдан бошқа ҳамма яратикларни яратди” ҳадиси шунга ишора қилиши, бундаги нурдан мақсад “Бе” эканлиги

тасаввуфий китобларда қайд этилган [Улудоғ С. 7:79]. Демак, “Алиф” ҳарфи Зотга, “Бе” эса Сифатга далолатдир. Шарқда бу иккала ҳарф ва уларнинг шарҳларига бағишланган махсус асарлар ҳам ёзилган. Ибн Арабийнинг “Китоб ул-Бе” асари ана шундай рисолалардан бири бўлиб, унда “Сўфийлар “Бе” ҳарфи билан илк мавжудликка ишора қиладилар. У борлиқнинг иккинчи мартабасидир. Кўклар, ер ва иккисининг орасида бўлган барча нарсалар унинг воситасида оёққа турарлар” – дейди. Диний маъно-моҳиятни англатган рақамлар ўзида Қуръони карим оятларида ишора қилинган мазмунни ташийдди. Бир рақами Оллоҳнинг яккаю ягоналигига, икки рақами оламдаги барча яратикларга, биринчи навбатда, пайғамбармиз Муҳаммад (с.а.в.)га ишора эканлиги, бир рақами ваҳдатни, икки рақами касратни рамзлаши муборак оятлар орқали англатилган.

Тасаввуф адабиётида коинот ва инсоннинг яратилиш жараёни билан алоқадор фикрлар баёнида рақамлар мажоз сифатида борлиқ фалсафасининг шарҳи учун хизмат қилдирилган. Тўғри, бундай фикр ва қарашларни ифода этишда санок системасидаги барча рақамларга эҳтиёж сезилмаган. Аммо маволиди салоса, аносири арбаъа, хавоси хамса, шеш жиҳат, саъбойи самовот, ҳашт беҳишт ва нуҳ фалак ифодаларини рақамларсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Борлиқнинг уч табақаси – жамодот, наботот, ҳайвонот; беш ҳис – кўриш, эшитиш, татиш, тегиш-ушлаш, ҳидлаш; олти жиҳат – жануб, шимол, шарқ, ғарб, баланд, паст; саккиз жаннат – фирдавс жаннати, адн жаннати, маъво жаннати, наъим, хулд, қарор, дорус-салом, дорул муқамо жаннатлари; тўққиз фалак – Ой, Уторуд, Зухра, Қуёш, Миррих, Муштарий, Зуҳал сингари етти сайёралар жойлашган осмонлар ҳамда буржлар осмони ва фалакул афлок деб аталган тўққиз осмон каби рақамли тушунчалар орасида тўрт унсур ёки аносири арбаъа кенг шаклда адабий матнлардан жой олган. Алишер Навоий бутун коинотнинг асосини тўрт унсур, олти жиҳат ва етти кўкда, деб билади:

Тўрт унсур, етти кўк, олти жиҳот -

Нодиру олий асоси коинот.

Тасаввуф адабиётининг баъзи вакиллари инсоннинг метафизик оламдан физик оламга келиш жараёнини тасвир этар эканлар, бу жараёни тўрт унсур, олти жиҳат ва тўққиз фалак билан боғлиқ ҳолда беришга ҳаракат қиладилар. Бир усмонли шоири яратилмасдан аввал тўрт унсурга, олти жиҳатга, тўққиз фалакка ошиқ эканлигини:

Aşık idüm ben ezelden yaradılmadan henüz

Şeş-cihetle çar-unsur nüh felekle vakt-i nec, - дея қайд этса, Ошиқ

Валех ўз вужудномасини инсоннинг яратилиши учун асос бўлган тўрт унсурни рамзлайдиган “Чаҳор аносир” ифодаси билан бошлайди:

Тўрт унсуру олти жиҳатдан,

Бир қатра маниъдан бўлибмиз пайдо.

Инсоннинг яратилиши учун асос бўлган тўрт унсур матнларда баъзан бошқа номлар билан юритилади: “Модда оламининг асосини ташкил этувчи тўрт унсур ифодаси айрим ўринларда “тўрт уммаҳот”, “тўрт она”, “аносири арбаъа”, “уммаҳоти арбаъа”, “маволиди арбаъа” шаклида ҳам ишлатилади” [Жумаева С. 5:24]. Тўрт унсур ҳақидаги илмий қарашлар дастлаб юнон олимлари томонидан илгари сурилган бўлса-да, туркий халқларнинг мифологик қарашларида, ислом файласуфларининг илмий мулоҳазаларида ҳам бу хусусдаги фикрлар талайгина. Тўрт унсур тушунчасининг туркий халқлар мифологик қарашларида акс этганлигини далиллаш мақсадида турк олими Байрам Дурбилмаз *бир мифнинг мазмуни баён этади*: “Турклар илк отасининг яратилиши ҳақидаги бир ривоятда тўрт унсурдан сўз боради: “Бу афсонага кўра қадимги даврларда кучли ёмғир ёғиб, селга айланади ва селлар балчикларни Қарадоғчи деган бир тоғдаги ғорга суриб келади, бу балчикларни инсон қалбига ўхшаган ёриқларга тўкади. Сув ва тупроқ бир муддат ана шу ёриқларда қолади. Қуёш саратон буржигга кириб ҳаддан ташқари кўп иссиқ бўлганидан бу тошмалар қизиб, пишади... **Сув, тупроқ** ва қуёшнинг ҳарорати(**оташ**)дан иборат бўлган бу йиғин устидан тўққиз ой муддатли **шамол** эсиб туради (таъкидлар бизники. Ж.С.). Шундай қилиб бу унсурлар бирлашади. Тўққиз ойдан кейин бу яратикдан инсон шаклидаги бир махлуқ чиқади. Бу инсонга турк тили билан “Ай Атам” дейилди. Бу “ай Атам” деган киши тоза ҳаволи, ширин сувли бир жойга жойлашди...” [Дурбелмаз Б. 3:73]. Мифда сув, тупроқ, олов ва шамол инсоннинг яратилиши учун асос бўлган унсурлар сифатида тилга олинади. Вужуднома муаллифлари инсоннинг яратилиши учун аввал сув, тупроқ ва қуёш (олов) асос бўлган бўлса-да, инсон қалбига тўртинчи унсур қўшилгандан кейин у инсон шаклига кирганлиги сабабидан бу тўртлик архитепида кўпинча 3+1 асос омил сифатида намоён бўлганлигини таъкидлашади [Fikrətqizi E. 4:147-148]. Демак, унсурларнинг даражалари бир хилда бўлмай, сув, тупроқ ва оловга нисбатан шамолнинг тутган ўрни юқориқдир. Чунки бу тўрт унсур орасидан шамол – ел руҳни тамсил этади. Юқоридаги мифда ҳам руҳнинг рамзи бўлган шамол инсон қалби устидан эсгандан кейин у жонланади.

Тўрт унсур хусусидаги фикрлар шарқ олимлари томонидан ҳам қўллаб-қувватланди, жумладан Ибн Синонинг “Тиб қонунлари” асарида инсонда тўрт унсурга мос равишда тўрт хил мижоз мавжудлиги ҳақидаги фикрлар илгари сурилди [Абу Али ибн Сино. 1:14-15]. “Тасаввуф арбоблари инсоннинг тўрт унсурдан яратилишига доир ақидаларга таяниб, унинг энг муҳим хислат ва

ҳаракатларини ёритувчи бир неча “тўрт”ликларни кашф этишган. Масалан, чор унсурга мувофиқ равишда инсон тўрт руҳга соҳиб бўлган: 1.Наботий руҳ. 2. Жисмоний руҳ. 3. Ҳайвоний руҳ. 4. Инсоний руҳ. Бу тўрт руҳга алоқадор тўрт аъзо берилган инсонга: кулоқ, бурун, кўз, оғиз. Бу тўрт аъзо учун тўрт вакил бор: нафси аммора, нафси лаввома, нафси мулҳама, нафси мутмаинна. Ушбу тўрт нафс учун тўрт олам мавжуд: шухуд, малакут, жабарут, лохут. Бу тўрт олам сайри учун тўрт малак, яъни қувват яралган: ҳис этиш, ҳидлаш, кўриш, татиш. Булардан биринчиси Жаброилни, иккинчиси Исрофилни, учинчиси Микоилни, тўртинчиси Азроилни тамсил этади. Уларнинг барини изофий руҳ қуршаб олгандир. Наботий руҳ сувга майл айласа, ҳайвоний руҳ тупроққа, жисмоний руҳ оловга, инсоний руҳ эса, асосан, шамолга майл кўрсатади” [Жумаева С. 5:24-25]. Йирик адабиётшунос олим Иброҳим Ҳаққул тўрт унсур хусусида сўз юритар экан, сўфийлар томонидан нафс мартабалари тўрт унсурга қиёс қилинганлигини таъкидлайди: “Нафснинг бу мартабаларини кейинчалик сўфийлар аносири арбаъага қиёслашган. Чунончи, нафси аммора оловга, нафси лаввома шамолга, нафси мулҳама сувга, нафси мутмаина тупроққа ўхшатишган. Буларнинг ҳар бирига ўн хусусият нисбат берилган – бундай моддийлаштирув эса нафсни, демакки, инсоннинг ўзлигини яқинроқдан англашга хизмат қилган” [Иброҳим Ҳаққул. 6:36-37]. Демак, тўрт унсур нафснинг тўрт мартабасига қиёс қилинар экан, инсон комилликка эришиш асносида ушбу унсурлар таъсирдан чиқишга ҳаракат қилади:

Тарк этурман нор ила хокни, боду парни аслида

Шаш жиҳатдан ман чиқам, бежон ўлам, бетан ўлам, - дейди Юнус Эмронинг лирик қаҳрамони. Алишер Навоий эса тўрт унсурни инсон руҳини ушлаб турган “чормих”га қиёс қилади ва имкон борича ундан қочишга ундайди:

Десанг, фалакка чиқай, фоний ўл аносирдин,

Нединки, руҳунгадур чормих бу тўртов.

XV асрнинг буюк олими Али Қушчи бутун оламдаги жисмларни фалакий жисмлар ва унсурий жисмлар, деб иккига ажратади. Фалакий жисмлар дейилганда, осмон ва ундаги жисмлар назарда тутилган бўлиб, улар “юқори олам” саналган. Унсурий жисмлар дейилганда эса тўрт унсур – тупроқ, сув, олов ва шамолдан иборат бўлган ҳамда уларнинг аслига тегишли жисмлар эътиборда тутилиб, улар “қуйи олам” дейилган [Али Қушчи. 2:34]. Моддий тузилиши жиҳатдан оламда мавжуд тўрт унсурни ўзида мужассамлаштирганлиги туфайли ҳам инсонга “олами суғро” (кичик олам) номи берилган. Навоийнинг “Лисон ут-тайр” достонидан олинган:

Сунъидин кўргилки мундоқ тўрт зид,

Бўлуб инсон хилқатида муттаҳид”, -

байтида ҳам “тўрт зид” – “аносири арбаъа” деб аталувчи тўрт унсурга ишора бор. Бу тўрт унсурдан бир-бирини рад этувчи, бир-бирига карама-қарши бўлган тўрт хусусият майдонга келган. “Тасаввуф фалсафасига биноан ушбу тўрт унсурнинг ҳар биридан тўрт хусусият, тўрт ҳолат, тўрт майл ва тўрт сифат юзага келтирилганмиш. 1.Тупроқдан – сабр, умид (худонинг марҳаматига), эзгу хулқ ва мурувват. 2. Сувдан – қувонч, саховат, назокат, бирлик. 3. Шамолдан – ёлғон, иккиюзламачилик, сабрсизлик, тантиқлик. 4. Оловдан нафс, кибр, таъма, ҳасад... тупроқ ва сув – жаннат мулки, шамол ва олов – дўзах ичидаги нарсалар” [Иброҳим Ҳаққул. 7:60]. Тасаввуф аҳли бу тўрт унсурнинг тўрт хил хусусият ва сифатларидан келиб чиққан ҳолда тариқат вакилларига таъриф беришган: Обид тупроқ узрадир, Ҳақдан келадиган ҳар нарсага сокин ўлур. Зоҳид ел узрадир, Ҳақдан келадиган нарсалар қаршисида яхшисига шод, ёмонига маҳзун бўлар. Ошиқ ўт (олов) узрадир, кўзини боққан ердан, кўлини қилаётган ишидан олмас. Муҳиб сув узрадир, маърифат билан каерга йўл кўрсатилса, ўша томонга юради.

Тасаввуф фалсафаси ва тасаввуфий адабиётда рақамларнинг ўрни алоҳидадир. Мутасаввиф ижодкорлар комил инсон хусусидаги фикр-қарашларини, олам ва одам муносабати ҳақидаги ғояларини акс эттиришда рақамлардан унумли фойдаланганлар ва рақам замиридаги моҳиятни ифода этишда маҳорат кўрсатганлар. Коинот ва инсоннинг яратилиши учун асос бўлган тўрт унур, олти жиҳат, етти кўк сингари рақамли ифодалар бевосита тасаввуф фалсафаси билан боғлиқ. Шунингдек, бу рақамлар инсоннинг яратилиши ва мавжудлигига дахлдор ҳақиқат шарҳига ҳам хизмат эттирилган, деса асло хато бўлмайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абу Али Ибн Сино. Тиб қонунлари. Тошкент, 1991. 1-жилд.
2. Али Қушчи. Астрономияга оид рисола. Тошкент., 1968.
3. *Durbilmez Bayram. Nahçıvan Türk Halk İnanışında Mitolojik Sayılar.* Istanbul, 2009. S 73.
4. Elmira Fikrətqizi. *Vücutnamələrdə mətənlərəsi əlaqə.* Bakı, 2018.
5. Жумаева С. Ўзбек мумтоз шеъриятида рақам рамзлари ва уларнинг маъно талқини. Тошкент, 2010.
6. Иброҳим Ҳаққул. Тасаввуф ва шеърият. Тошкент, 1991.
7. Иброҳим Ҳаққул. Аносири арбаъа: моҳият ва шеърий талқин / Навоийга қайтиш. 4-китоб. Тошкент, 2021.
8. Сулаймон Улудоғ. Тасаввуф терминлари сўзлуги. Истанбул, 1995.

НАВОИЙ ТАЛҚИНИДА КОМИЛ ИНСОН

Эргаш Очилов,
Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси
Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти
катта илмий ходими, филология фанлари
номзоди,
E-mail: e-ochilov@mail.ru. Тел: +998946204764
(Ўзбекистон)

Аннотация. Мақола Алишер Навоийнинг турли жанрдаги асарларида ўзининг кенг бадиий талқинини топган комил инсон ҳақидаги гоя ва қарашлари, у яратган комил инсон тимсоллари тадқиқига бағишланган. Мутафаккир шоирнинг инсон тарбияси билан боглиқ ўғит-насиҳатлари, фикр-мулоҳазалари, талаб-кўрсатмалари, орзу-истакларини бир ерга жамлаб, уларни тартиб билан жойлаштириб чиқса, инсоний камолотга эришиш йўллари кўрсатилган ўзига хос назмий дастур вужудга келиши ҳақидаги хулоса илгари сурилган.

Калит сўзлар: Алишер Навоий, комил инсон, адабиёт, тасаввуф, мавзу, гоя, талқин, тасвир, маҳорат.

Ҳар жиҳатдан етук, баркамол инсонни тарбиялаб етиштириш ҳамма даврларда ҳам асосий масала ҳисобланган. Инсонни қусурлардан халос этиш, унда эзгу фазилатларни камол топтиришда эса адабиётнинг хизматини ҳеч нарса билан тенглаштириб бўлмайди. Зеро, инсонни камолотга даъват этиш, инсоний комилликни улуғлаб, бани башардаги қусурларни танқид қилиш барча халқлар адабиёти, умуман, сўз санъатининг мазмун-моҳиятини ташкил этади. Айни жиҳатдан, Алишер Навоий мероси – маънавий-ахлоқий тарбиянинг кучли қуролидир бири. Инсон тарбияси, камолоти масалаларини ўзбек адабиётида ҳеч ким у каби ҳадди аълосида қўйламаган. Мутафаккир шоир инсонлик моҳиятини унинг ижтимоий фаолиятида – жамиятга фойдали касб билан шуғулланиши, халққа манфаати тегиши, одамларнинг оғирини енгил қилишида деб билади. Унинг халқ ғамини ўз ғами деб билмайдиган одамни одам қаторига қўшмаслиги бежиз эмас:

Одамий эрсанг, демагил одами

Ониким, йўқ халқ ғамидин ғами [Навоий А. 2:6,210].

Бу – Навоийнинг инсон ҳақидаги қарашлари тизимида энг муҳим нуқта. Зеро, шоирнинг ўзи ҳам халққа қанча кўп фойданг тегса, бу нарсанинг ўзингга фойдаси кўпроқ деган ақида билан яшаган:

Нафъинг агар халққа бешакдурур,

Билки, бу нафъ ўзунгга кўпракдурур [Навоий А. 2:2:6,205].

Алишер Навоий илк девони “Бадоеъ ул-бидоя”га ёзган дебчасидаёк адабиёт – тарбия воситаси эканлигига урғу бериб, ҳар қандай бадий асар маърифий фикрлар ва панд-насиҳатдан холи бўлмаслиги кераклигини қайд этиб, жумладан шундай ёзган эди: “Девон топилғайким, анда маърифатомиз бир ғазал топилмағай ва ғазал бўлғайким, анда мавъизатангиз бир байт бўлмағай. Мундоқ девон битилса, худ асру беҳуда заҳмат ва зоеъ машаққат тортилғон бўлғай” [Навоий А. 2:4,764]. Шундан кейин ўзининг ишқий ғазаллари ҳам маърифий ва фалсафий байтлардан холи эмаслигини алоҳида таъкидлаб ўтади. Айни жиҳатдан шоир мероси – маънавий-ахлоқий тарбиянинг кучли қуролларидан бири. Инсон тарбияси, камолоти масалаларини ўзбек адабиётида ҳеч ким Навоийдек ҳадди аълосида қуйламаган. Шоир орзу қилган комиллик йўли бу, биринчи навбатда, етук одоб-ахлоқ соҳиби бўлиш, жами инсоний эзгу фазилатларни эгаллаш, замонасининг барча илму ҳунарларини ўзлаштириш, илм ва ҳунарни бир-биридан ажратмаслик, нафақат маънавий, балки жисмоний жиҳатдан ҳам баркамолликка интилиш, ҳамиша элу юрт хизматига шай туриш, миллатнинг оғирини елкага олиш, Ватанга содиқ фарзанд бўлиш, бурч ва масъулият туйғусини ҳамма нарсдан баланд кўйиш ва ҳоказо.

Шоир “Фарҳод ва Ширин” достонидаги Фарҳод сиймосига бу қарашларини сингдириб юборади. Фарҳод образи Алишер Навоийнинг ижтимоий-фалсафий, маънавий-ахлоқий қарашларини англаш учун муҳим аҳамиятга эга. “Асарнинг бош қаҳрамони бўлган Фарҳодни Навоий комил бир инсон типига оладир, – деб ёзади Фитрат. – Илмда, истеъдодда, ботирликда, кучда жуда камолга етишганини унинг ҳар бир ҳаракати билан исбот этмакчи бўладир” [Фитрат А. 5:116–117]. Фарҳод сиймосида Сукрот эътиқоди, сулуқининг давомини кўргани каби, Алишер Навоий ҳам бу образ воситида ўз идеалидаги комил инсон тимсолини яратади.

Сукрот сиймоси дostonда тариқат босқичини ўтиб, комиллик мақомига етишган ва энди толибларга ҳақиқат йўлини кўрсатадиган йўлчи юлдуз, маънавий раҳнамо сифатида акс эттирилган бўлса, Фарҳод образи камолот сари ҳаракатда олиб тасвирланади: унинг интилишлари, муҳаббати, сидқу садоқати, фидойилиги орқали комил инсон бўлиш – Сукрот даражасига кўтарилиш йўллари кўрсатилади. Ёшлигидан халқни ўйлаши, унинг оғирини енгиллатишга уриниши, “кўнгли эл озоридан озор” топиши, “эл андуҳидан ғамнок” бўлиши, филдан ҳам кучлилига қарамай, чумолига ҳам озор бермаслиги, тақдир зарбаларини ўзига олиши, жонига қасд этган кишига ўзини қурбон қилиш даражасидаги дарвештабиат инсон бўлганлиги Фарҳоднинг ҳақиқий жавонмард эканлигини кўрсатади. Ўзининг фавқулodда хусусиятлари, алоҳида истеъдодига қарамай, у сира халқдан ажралмаган, таркидунё қилмаган, аксинча, “Дил ба ёру

даст ба кор!" ("Кўнглинг ёр – Худодаю кўлинг ишда бўлсин!") шиорини тутган қаҳрамон. У ҳамиша халқ хизматига камарбаста бўлишни, элга манфаат етказишни ўйлайди. Бу нарса, айниқса, Фарҳоднинг Ширинни излаб, Арманияга борганида тоғ қазувчиларнинг оғир ва самарасиз меҳнатини кўрганида намоён бўлади.

Хунарни асрабон неткумдур охир,

Олиб тупроққаму кеткумдур охир?! [Навоий А. 2:6,510] –

деб “мазлуми ситамкаш” халққа ёрдамга шошилади. Бугина эмас. У Ширинни кўргач, маъшуқаси учун қаср қуради, унинг атрофида ҳовуз ясайди. Буларнинг бари тоғнинг тошларини йўниб яратилганлигини ҳисобга олсак, Фарҳоднинг ёр йўлида қанчалик ранжу машаққат чекканлиги аён бўлади. Бу билан Алишер Навоий ёр учун, Ҳақ учун уларнинг ризосига сабаб бўладиган улуғ ишлар қилиш кераклиги ғоясини илгари сураётганлигини илғаб олиш қийин эмас. Шу тариқа, Фарҳодга жавонмардлик ғоялари сингдирилган: Фарҳод маъшуқаси учун машаққат чекиб, тоғдаги қалъага сув олиб келади. Бундан биргина Ширин эмас, балки бутун халқ баҳраманд бўлади. Ҳақ йўлида қилинган ишнинг халққа ҳам манфаати бисёр, демоқчи бу билан шоир.

Алишер Навоий маънавий гўзалликни жисмоний гўзалликдан ажратиб қарамагани сингари илм билан хунар ҳам ўзаро омукта бўлиши тарафдори. Яъни маънавий етук киши жисмоний жиҳатдан ҳам гўзал бўлса, бу – комил гўзаллик ҳисобланади. Шунга ўхшаб, илмли одамнинг хунари ҳам бўлса, ўз навбатида, хунарманд ҳам илму маърифатдан бохабар бўлса, бу – ҳақиқий баркамоллик ҳисобланади. Инсоннинг ҳам жисмонан, ҳам маънан, ҳам илмда, ҳам хунарда етук бўлиши мақсадга мувофиқ эканлигини шоир Ҳусайн Бойқаронинг ўғли Бадиуззамонга берган таърифида ҳам таъкидлайди: “... ҳусни сурат ва ҳусни сийрат била ораста ва жамоли зоҳирий ва камоли ботиний била пийроста йигитдур” [Навоий А. 2:9,415]. Фарҳодда айни жиҳатларнинг бари мужассам: у барча илмларни эгаллаш баробарида ҳамма хунарлардан ҳам хабардор, маънавий жиҳатдан етук бўлибгина қолмай, жисмоний томондан ҳам кучли ва гўзал.

Халқ билан ҳамнафаслиги, ҳамиша элу юрт хизматига камарбасталиги, ўз илму хунарини одамларнинг оғирини енгил қилиш, уларнинг фаровонлиги, бахт-саодатини таъмин этишга сарфлаши унинг жавонмардлиги ва нақшбандия тариқатига мансублигини кўрсатади. Нақшбандия Оллоҳга етишнинг энг тўғри ва самарали воситаси сифатида худди шу йўлни тадқиқ-ташвиқ этарди. Алишер Навоий Фарҳод тимсолида худди шу – тариқатга кирган пок ишқ соҳибининг

нақшбандия йўли билан комилликка эришиш – Ҳаққа етиш жараёнини кўрсатиб берган.

Маълумки, адабиёт қадим ул-айёмдан инсон хулқини гўзаллаштириш, уни камолотга етказишга даъват этиб келади, ахлоқий такомиллашув жараёнини акс эттиради ва ўз-ўзини тарбиялаш йўлига кирмаган, “яратилганича қолган”, нафсу ҳавога берилиб, тубанликка юз тутган кимсаларни мазаммат қилади. Тасаввуф таълимоти ана шу жараённи реал бир асосга қўйди, уни муайянлаштирди, ўзи ишлаб чиққан инсонни комилликка етказиш қонун-қоидаларига бўйсундирди.

Тасаввуф йўли – камолот йўли. Шариат, тариқат ва ҳақиқат босқичларини босиб ўтган, барча диний ва дунёвий илмларни эгаллаган, етук хулқу тийнат соҳиби бўлиб, ўзини олий мақомга етказган кишилар тасаввуфда комил инсон, деб аталади. Ирфоний адабиёт тўлалигича инсоннинг камолотга эришиш жараёни, бу йўлдаги ранжу машаққатлари, қувончу ташвишлари, тариқатнинг у ёки бу мақомидаги солиқнинг ўй-кечинмалари, муайян ҳолга етишган сўфийнинг изтироб ва жававалари, ҳақиқат босқичига юксалган ориф инсоннинг илоҳий махбубага бағишланган ҳис-туйғулари тасвирдан иборат. Комил инсонлар таърифи, бу нажиб зотларнинг қалб тебранишлари тасвири, камолот йўлида тўсиқ бўлган дунё ва нафс танқиди, ҳақиқий ишқ тараннуми, сўфиёна ғоялар тарғиб-ташвиқи мутасаввиф шоирлар ижодининг асосини ташкил этади.

Комил инсон таълимоти Муҳаммад алайҳиссаломга асосланиб, у камолот йўлини танлаган кишилар учун олий бир идеал ҳисобланган. Гарчи Расулуллоҳ мақомларига етиш имконсиз эса-да, аҳли муслим бу нажиб инсонни камолот йўлида маёқ билиб, у зот кўрсатган ҳидоят йўлидан юриш ва унга мансуб фазилатларни эгаллаш орқали мумкин бўлгани қадар комиллик касб этишга интиладилар.

“Навоий тасаввуфий моҳиятдаги шеърларида комил инсон образига хос фазилатлардан баҳс юритар экан, энг аввало, “моддий ва маънавий комилликни бир ерда мужассамлаштирган” ҳамда аҳли тасаввуфни ўз ортидан эргаштирган Муҳаммад пайғамбарни эътиборда тутган”лиги [Ҳаққулов И. 6:34] маълум. Наът ғазалларида шоир Муҳаммад алайҳиссаломни Оллоҳ томонидан танланган энг сўнгги ва мукамал пайғамбар, Ҳақ ва халқнинг маъшуғи, икки олам хожаси, барча илоҳий ва дунёвий илмлар соҳиби, жамики ҳамида ахлоқ ва шарифа фазилатлар эгаси, коинот сарвари, башарият хулосаси, пайғамбарлар хотами, комиллар комили сифатида улуғлайди. Расули ақрам кўрсатган мўъжизалардан сўз очади, хусусан, меърож воқеасини баланд пардаларда тараннум этади. Зеро, Муҳаммад алайҳиссаломнинг Оллоҳ ҳузурига

юксалишлари – инсон руҳининг ўз Яратувчиси билан учрашуви рамзи сифатида тасаввуф адабиётида ҳадди аълосида куйланган.

Расули акрам жисмоний-зоҳирий жиҳатдан ҳам инсонлар орасида мумтоз бўлганлар. Шунинг учун шоирлар ўз шеърларида Муҳаммад алайҳиссаломнинг нафақат маънавий-ахлоқий етуклигини, айти пайтда, жисмоний гўзаллигини ҳам таъриф-тавсиф этганлар. Сўфиёна адабиётдаги “ҳусн элининг шоҳи”, “гўзаллар гўзали” каби таърифлар асосан илоҳий маҳбубага ва унинг севиклиси Муҳаммад алайҳиссаломга қаратилган.

Оллоҳ таоло дастлаб Муҳаммад нурини, кейин шу нур туфайли оламни, ундаги нарсаларни ва одамни яратган экан, демак, куёш, ой ва юлдузлар ҳам ана шу нурдан вужудга келган. Бинобарин, мумтоз шеърятда: “Сен куёшдан ҳам, ойдан ҳам порлоқ ва гўзалсан”, “Куёш ва ой ҳам сенинг асиринг”, “Куёш ва ой сенинг ҳуснинг нуридан бир зарра” қабилдаги маъшуқа таърифида айтилган лутфлар фақат муболаға бўлибгина қолмай, шунинг баробарида, тасаввуфий ҳақиқат ҳамдир. Зеро, сўфиёна адабиётда маъно серқатлам бўлиб, маъшуқа деганда дунё гўзаллигина эмас, айти пайтда Оллоҳ таоло ҳам, Муҳаммад айлаҳиссалом ҳам, илму ахлоқда етук комил инсон ҳам, кўпинча уларнинг барчаси биргаликда ҳам назарда тутилади.

Оллоҳ таоло ўзининг сўнгги пайғамбарини ҳар жиҳатдан етук қилиб яратиш билан комил инсон қандай бўлиши кераклигини кўрсатди. Бошқалар у кўтарилган мақомга етишолмайдилар. Лекин унинг фазилатлари, камолотини эгаллаш орқали улар ҳам ижобий маънода пайғамбарга издошлик қилишга, унга ўхшашга интиладилар. Бу пайғамбарлик даъвоси эмас, балки комиллик орзуси. Ана шу орзуни амалга ошириш истаги ўлароқ тариқат ва унинг босқичлари ўйлаб топилди. Риёзат босқичларини босиб ўтиш орқали камолот касб этиш йўли танланди. Ўзи билан ўзи курашиб, ўз қусурларини маҳв этиш ва унинг ўрнига фазилатларга эга бўлиш натижасида инсон комиллик даражасига кўтарилади.

Гўзал одоб-ахлоқлардан иборат хислатлар ҳусни хулқ, дейилади. Расулуллоҳ бундай хислатларнинг тимсоли эдилар. У кишининг ҳусни хулқлари ҳам жиҳатдан камолга етган, мукаммал эди. Имом Термизий: “Саййиди олам саллаллоҳу алайҳи васалламнинг ахлоқи жамила ва одати шарифалари оламга машҳурдир. Дўст ҳам, душман ҳас эътироф қилур. Бутун коинот санохони хулқи Муҳаммадий эрур”, – деб таърифлайди. Навоий ҳам қуйидаги байтида Худованди карим сенга азалдан карам қилиб, барча хилқат ичида сени гўзал хулқлар соҳиби қилиб яратди, деб лутф этади:

Зиҳи, азалда карам айлабон санга Халлоқ

Карим хилқат ичинда макорими ахлоқ [Навойи А. 2:1,330].

“Пайғамбарни севмоқ Оллоҳни севмоқдир” [Румий Ж. 4:111], – дейди Жалолиддин Румий. Муҳаммад алайҳиссаломни Оллоҳнинг ва инсониятнинг суюклиси, икки олам маъшуғи, барча илоҳий ва дунёвий илмлар, эзгуликлар, гўзалликлар соҳиби сифатида улуғлаш орқали шоирлар айна пайтда Худованди каримга бўлган чексиз муҳаббатларини ҳам изҳор қиладилар. Чунончи, Навоий ёзади:

*Сенинг ишқинг Навоийга ики олам аро бастур,
Ҳабибуллоҳга ошиқлик анга гарчи ҳам эрмас, ваҳ* [Навойи А. 2:3,526].

Муҳаммад алайҳиссаломни жисмоний ва маънавий-ахлоқий гўзаллик, илму ҳикмат тимсоли сифатида таъриф-тавсиф этар экан, бунда шоирлар икки нарсани кўзда тутадилар: биринчиси – Оллоҳ таоло ўз пайғамбарини икки дунё саодатига ноил этган марҳаматидан бир заррасини зора ўзларига ҳам насиб этса; иккинчиси – Муҳаммад алайҳиссаломнинг шафоати. Маълумки, Расули акрамга шафоат ҳуқуқи берилган: у зот маҳшар куни Оллоҳ таолодан ўз умматларининг гуноҳини сўраб оладилар. Бандаи ожиз эса, ўзини айбу гуноҳлардан фориғ деёлмайди. Боязид Бистомий каби орифлар султони даражасидаги не-не улуғ пири комиллар, қанчадан-қанча сўфийлар ҳам имонининг бутлигидан гумонсирагани маълум. Шундай экан, барча ҳам шафоат қилинувчи уммат аҳлидан бўлишни истайди ва орзу қилади.

Комил инсонга дастлаб олий талаблар қўйилгани, бу рутбага ёлғиз Муҳаммад алайҳиссалом муносиб кўрилганидан у қандайдир илоҳий-кайҳоний зотга, комил инсон ҳақидаги назария эса мавҳум таълимотга айланиб қолган эди. Комил инсон таълимоти намояндаларидан Азизиддин Насафий (XIII аср) бу қарашларни ҳаётга яқинлаштирди. Натижада комил инсон реал одамга айланди. Унинг фикрича, тўрт нарса – яхши сўз, яхши иш, яхши хулқ ва маърифатда камолга етган ҳар қандай киши комил инсон аталишга муносиб [Насафий А. 3:51]. Бу фазилятларни эса, астойдил ҳаракат қилса, ҳар қандай одам ҳам эгаллаши мумкин. Демак, комил инсон бўлиш имконияти ҳаммада мавжуд. Муҳаммад алайҳиссалом эса, бу доиранинг марказида комиллар комили бўлиб қолаверди.

Навойи учун Муҳаммад алайҳиссалом мақоми – инсон зотининг қўли етмас юксаклик. Лекин камолотнинг Ҳақдан жазба бўлса, инсон саъй-ҳаракати билан эришса бўладиган мартабалари ҳам мавжуд. Бу – валийлар ва ориф инсонлар мақоми. Шундай рутбага эришган кишиларни шоир комил инсонлар сифатида ўз асарларида алоҳида ҳурмат ва эҳтиром билан тасвирлайди ва

Худодан ўзини ҳам ўша буюк зотларга насиб бўлган пояга кўтаришини сўрайди. Улар кўпчилик: Иброҳим Адҳам, Мансур Ҳаллож, Боязид Бистомий, Абусаид Абулхайр, Абулҳасан Харақоний, Абдуллоҳ Ансорий, Абу Туроб Нахшабий, Нажмиддин Кубро, Фаридиддин Аттор, Аҳмади Жом, Иброҳим Ироқий, Шаҳобиддин Сухравардий, Абдуллоҳ Муборак, Баҳоуддин Нақшбанд, Хожа Муҳаммад Порсо, Хожа Абу Наср Порсо, Хожа Аҳрор Вали, Абдурахмон Жомий ва бошқалар.

Навоий ва Муҳаммад алайҳиссаломни коинот гултожи, башар аҳлининг яғонаси сифатида ҳар қанча улуғласа-да, одам авлодидан ҳеч ким унга етишолмаслигини қайта-қайта таъкидласа-да, комил инсонга у эришиши мумкин бўлган талаблар билан ёндашади. “Навоий назарида комил инсон ҳаёлий бир нарса эмас, балки реал ҳаётлий одамлар, бироқ шуниси борки, бундай одам тариқат сулуқини қабул қилган чинакам дарвеш бўлиши керак. Бошқача айтганда, идеал инсон – бу камида гўзал ахлоқли, зоҳирий ва ботиний илмларни эгаллаган фанийтабиат фақир киши” [Комилов Н. 1:103]. Шоир наздида ўзидаги қусурларни маҳв эта ва янгидан-янги фазилатлар касб эта бориб, инсон маънавий-ахлоқий жиҳатдан шу даражада юксаладики, бу мақомга эришган кишиларни Муҳаммад алайҳиссаломнинг ворислари, пайғамбар ишининг давомчилари, дейиш мумкин. “Ҳукамо қавлининг таржимаси инсоният бобиди” сарлавҳали қитъасида эса тавозуъ, афв ва саховат соҳиби бўлган кишини комил инсон дейиш мумкин, деб ёзади:

*Ҳаким инсони комил дебтур они –
Ки, бўлғай зотида бу неча хислат* [Навоий А. 2:2,700].

Албатта, Навоийнинг комил инсон ҳақидаги қарашлари тасаввуф билан боғлиқ. Унингча, тариқат йўлига кирмай, риёзат чекмай, камолотга эришиш мумкин эмас. Қуёш бир томондан чиқиб, иккинчи тарафга бориб ботгани сингари камол касб этишни орзу қилган киши ҳам риёзат босиқчларини босиб ўтиши керак, дейди бу ҳақда шоир:

*Қуёшдек манозил тай этмак керак,
Не раҳравки, қилғай камол орзу* [Навоий А. 2:2,521].

Бу ерда раҳрав – йўл юрувчи, йўловчи, яъни солиқ, мурид: тариқатга кириб, риёзат босиқчларини босиб ўтиб, Худо сари сайр қилаётган киши.

Инсон онадан комил бўлиб туғилмайди ёки бирданига камолотга эришмайди – бунинг учун муттасил интилиб, бирма-бир муайян босиқчларни босиб ўтиш тақозо қилинадими, тасаввуфда бу босиқчлар мақомот – мақомлар

деб юритилади. Бу мақомлар 9 та бўлиб, биринчиси – тавба: ўз айбу қусурлари, дунё хирсу ҳаваслари, нафс истак-хоҳишлари, яъни инсонни камолот йўлидан чалғитадиган барча нарсалардан воз кечиш; иккинчиси – вараъ: барча ёмон, ҳаром, шубҳали, ножўя нарсалардан сақланиш, парҳез қилиш; учинчиси – зуҳд: дунёдан юз ўгириб, тоат-ибодат билан шуғулланиш, такводорлик, парҳезкорлик, порсолик; тўртинчиси – фақр: дунё неъматлари, вужуд эҳтиёжларини тарк этиб, фақат Ҳаққа муҳтож бўлиш; бешинчиси – сабр: замон ва одамлардан етадиган барча зулм, озор, кулфатлар, такдирдан юзланадиган балоларга сабр этиб, Худодан ўзгага нола-илтижо қилмаслик; олтинчиси – хавф: ҳамиша нафс васвасасига учишдан, шайтон макрига алданиб қолишдан, иймонни бой беришдан кўрқиб яшаш; еттинчиси – ражо: Оллоҳ марҳамати ва мурувватидан умидворлик; саккизинчиси – таваккул (таваккал): комил эътиқод ва тўла ишонч билан ўзини Яратганнинг ихтиёрига топшириб, дунё, тирикчилик ва нафс ташвишидан бутунлай фориғ бўлиш; тўққизинчиси – ризо: нафс ризосидан чиқиб, Ҳақ ризосига кириш, қазои қадарга бўйсунуш, таслим бўлиш, ҳамма нарсани Ҳақдан деб билиш.

Кўпгина ғазалларида Навоий пирсиз тариқат босқичини ўтиб бўлмаслиги, камолот йўли рааҳнамосиз амалга ошмаслигини таъкидлайди. Чунки риёзат йўли оғир ва мураккаб бўлиб, бу йўлга етук етакчи этагида кирмаган киши адашиши мумкин. Чунончи, “Мажолис ун-навоиф”да ўзига замондош шоир Камолиддин Биноийнинг табиатидаги қусурлардан қутулиш учун риёзат йўлига киргани, лекин бирор пирнинг этагидан тутмагани боис ҳеч бир натижага эришмаганини ёзади: “Бу сифати салбий учун фақр тариқин ихтиёр қилид ва риёзатлар ҳам тортти, чун пири ва муршиди йўқ эрди, ўз бошича қилгон учун ҳеч фойда бермади” [Навоий А. 2:9,341]. Шунинг учун ҳам тасаввуфда ҳар жиҳатдан комил муршидга мурид тушиб, бу маънавий раҳбарнинг азму иродасига бўйсунуш, ўз айбу нуқсонларини унинг кўрсатмаларига биноан тузатиш энг мақбул ва энг кенг тарқалган йўл ҳисобланади. Бу аслида Муҳаммад алайҳиссалом йўли бўлиб, Пайғамбаримиз саҳобаларни худди шундай суҳбат усули билан тарбиялаганлар. Шоирнинг ўзи ҳам 1476 йили Абдурахмон Жомийга қўл бериб, нақшбандия тариқатига кирган. “Иста комил хидматин ғафлатни рафъ айлай десанг” [Навоий А. 2:1,616], – деб ёзади бу ҳақда шоирнинг ўзи.

Инсонни камолот йўлидан бошлаб, уни тариқат босқичларидан олиб ўтадиган, ёмон одатлардан халос этиб, яхши фазилатларга ошно қиладиган, кўнглидан “ғайр нақшини кетказиб”, илоҳий маърифатга етказадиган, қисқаси, хом толибни риёзатлар ўтида пишириб, гўзал хулқ ва етук илм соҳибига айлантирадиган, комиллик мақомига кўтарадиган маънавий раҳбарни Навоий

пир, муршид, комил, ориф, соқий, пири майхона, пири майкада, пири дайр, пири ишқ, пири харобот, пири муғон, пири хаммор каби мажозий тимсол ва сифатлар билан улуғлайди. Шунга мувофиқ, майхона, майкада, дайр, дайри фано, харобот, бутхона сўзлари ана шундай комил инсонлар суҳбати, давраси ва йиғиладиган жойини англатади. Чунончи:

*Йўл қоронғудур, талаб ноқис – қадам не навъ урай,
Ёрумай комил дамидин машъали иршоднинг* [Навоий А. 2:1,376].

Бундай комили даврондан таълим олган киши камолда қуёшдан-да юксак бўлади:

*Давронда камол ичра қуёштин бийик ўлди,
Ҳар зарраки, бир комили давронга йўлуқти* [Навоий А. 2:3,625].

Зеро, пир таълими, ундан етган илоҳий файз кўнгилдан ғайр нақшини кетказади:

*Дайр пири қулименким, май ила
Ғайр нақшини кўнгулдин кеториб* [Навоий А. 2:2,70].

Навоийнинг ҳаётида нақшбандия тариқатининг уч буюк сиймоси – Баҳоуддин Нақшбанд, Хожа Аҳрор Валий ва Абдурахмон Жомийлар катта ўрин тутган. Шоир уларни бир умр ҳассос муҳаббат билан севди, бу нажиб инсонларга юксак эътиқодини деярли ҳар бир асаридан у ёки бу даражада таъкидлаб ўтди, алоҳида боб ва фаслларда таъриф-тавсиф этди. Навоий идеалидаги комил инсонлар биринчи навбатда худди шу уч буюк авлиё эди. Шоир ақидасига кўра ҳақиқий етук инсон худди шулар сингари бўлиши, камолотга интиланган киши улардан ўрнак олиши, уларга ўхшашга интилиши керак. Зеро, ҳам халқ, ҳам Ҳақ ризосига сазовор бўлган бу қудсий зотлар XV аср учун комиллик тимсоли эдилар. Улар йўлчи юлдуз каби одамларга камолот йўлини кўрсатиб турардилар. Албатта, Алишер Навоийнинг ўзини ҳам ана шу комиллар жумласига киритамиз. Зеро, у эътиқод қўйган, амал қилган ва талаб этган шарту қоидалардан келиб чиқадиган бўлсак, Навоийнинг ўзи ҳам том маънодаги комил инсон эканлиги аён бўлади.

Комил инсонлар бирор-бир замонда дунё тақдирига бефарқ бўлмаганлар, ҳаётни ижобий томонга ўзгартириб, адолатсизлик, тенгсизлик, зулм-зўрлик, қўйингки, ёвузликнинг барча шакллари, инсоний қусурларнинг жами кўринишларини илдизи билан маҳв этиш, аксинча, эзгулик дарахтининг гуллаб-яшнаши, фаровон турмуш ва идеал жамиятни барпо қилиш, башариятни

баркамол кўриш учун курашганлар. Инсоният жамияти уни иллатлардан фориғ этиб, фазилатларга ошно қилиш учун курашадиган ана шундай инсонлар туфайли пайдордир.

Навоий барчадан талаб этган ва ҳаммада бўлишини орзу қилган эзгуликларнинг мазмун-мундарижаси шунчалик кўпки, уларни бирма-бир санаб чиқиш учун ҳам лофи билан алоҳида китоб ёзиш керак бўлади. Аслида шоирнинг инсон тарбияси билан боғлиқ ўғит-насихатлари, фикр-мулоҳазалари, талаб-кўрсатмалари, орзу-истакларини бир ерга жамлаб, уларни тартиб билан жойлаштириб чиқса, инсоний камолотга эришиш йўллари кўрсатилган ўзига хос назмий дастур, қўлланма вужудга келади.

Ҳар жиҳатдан етук, баркамол инсонларни тарбиялаб етиштириш мустақил Ўзбекистонда давлат сиёсати даражасига кўтарилган ҳозирги даврда миллат куёши Алишер Навоийнинг комил инсон ҳақидаги қарашлари ўз аксини топган серқирра ижодини ўқиш ва ўрганиш ўқувчилар маънавиятини ўстириш, уларнинг мумтоз адабиёт ҳақидаги қарашларини кенгайтиришга хизмат қилади, ёш авлоднинг Алишер Навоий мезонидаги комил инсон қандай бўлиши кераклигини теран англашлари ва улуғ аждодларига муносиб ворислар бўлиб етишишлари учун илмий-маърифий жиҳатдан ёрдам беради.

Фодаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Комилов Н. Тавҳид асрори. – Тошкент, 1999.
2. Навоий А. Тўла асарлар тўплами, X жилдлик. – Тошкент, 2011.
3. Насафий А. Зубдат ул-хақойиқ (Н.Комилов таржимаси). – Тошкент, 1996.
4. Румий Ж. Ичингдаги ичингдадир (У.Абдуваҳоб таржимаси). – Тошкент, 1997.
5. Фитрат А. Танланган асарлар, V жилдли, 2-жилд. – Тошкент, 2000.
6. Ҳаққулов И. Ўзбек тасаввуф шеърятининг шаклланиши ва тараққиёти. Докторлик диссертацияси автореферати. – Тошкент, 1995.

NAJMIDDIN KUBRO VA TARIQAT ASOSLARI¹

Saidakbarova Muqaddas Muhammadrahimovna,
*Qo'qon DPI, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)*

Hamidova Iroda,
Qo'qon DPI, iqtidorli talaba

Annotatsiya. Maqolada buyuk mutasavvuf olim Najmiddin Kubro shaxsi va faoliyati, kubroviya tariqatiga asos solinishi, ushbu tariqatning nazariy asoslari, Najmiddin Kubro asarlari, asarlarida ko'tarilgan falsafiy g'oyalar haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: fiqh, aqida, tasavvuf, olami kubro, olami sug'ro, komil inson, irfon, vujud, qadim

Аннотация. В статье представлены сведения о личности и деятельности великого ученого-мистика Наджмиддина Кубро, основании Кубровианского ордена, теоретических основах этого ордена, трудах Наджмиддина Кубро и философских идеях, поднятых в его трудах.

Ключевые слова: юриспруденция, вера, мистика, мир Кубры, мир Сугро, совершенный человек, гнозис, существование, древний

Annotation. The article provides information about the personality and activities of the great mystic scientist Najmiddin Kubro, the founding of the Kubrovian order, the theoretical foundations of this order, the works of Najmiddin Kubro, and the philosophical ideas raised in his works.

Key words: jurisprudence, belief, mysticism, world of kubra, world of sugro, perfect human being, gnosis, existence, ancient

Xorazm qadim tamaddunning beshigi hisoblanadi. Bu maskan ma'rifat-ma'naviyat tamal toshini qo'ygan buyuk zotlar vatanidir. Shunday shaxsiyatlardan biri shayx Najmiddin Kubro (Ahmad ibn Umar ibn Muhammad al-Xeva'iqiy al-Xorazmiy) 1145-yili Xivada tavallud topganlar. Xalq va ilm ahllari orasida "Najmiddin", "Valiytarosh", "Kubro", "Abuljannob" kabi unvon va laqablar bilan mashhur bo'lganlar. Manbalarda yozilishicha, "Kubro (Eng katta)" laqabini berilishi sababi qilib u shaxsiyatning o'ta zukko, dono, olim ekanligi, so'ralgan har qanday savolga mukammal javob berganliklari, muammolarga yechim topishda mujtahid bo'lganlari, har qanday bahs va munozaralarda g'olib chiqishlari ko'rsatiladi. Shayx Najmiddin Kubro o'n ikkita shaxsni tarbiyalab shayx maqomiga yetkazganlar. Majididdin Bag'dodiy (Farididdin Attorning otasi), Bahouddin Valad (Jaloliddin Rumiyning otasi), Sa'diddin Hamaviy, Najmiddin Doya, Sayfiddin Boharziy shular jumlasidandir.

Najmiddin Kubro – Ahmad yoshligidan ilmga chanqoq, zukko va favqulodda qobiliyatli bola bo'lgan. Madrasa ta'limini tezlik bilan o'zlashtirib olgan, Xorazmda istiqomat qiluvchi olimlardan o'zib ketib, ilm majlislarida turli ilmiy muhohasalarda

¹ Бўри Қодиров.Нажмиддин Кубро. <https://oyina.uz/kiril/generation/135>

hammadan g'olib chiqadi. Shuning uchun u shaxsga "Tammat ul-kubaro (ulamolarning yetugi)" unvoni berilgan.

Yosh Ahmad ibn Umar (Najmiddin Kubro) Xorazm shahrida madrasani tugatib, Iroq, Shom. Eron mamlakatlariga borib, fiqh, aqida, hadis ilmlarini mukammal o'rgandi. Shu davrda aqida va fiqh ilmlarini o'rganish bilan bir qatorda tasavvuf ilmlarini ham o'rgana boshlanadi, darveshlar suhbatida ishtirok etdi, hilvatga chekindi, riyozat chekib nafs ijtihodi bilan mashg'ul bo'ldi. Ustozlari Abu Jafar Samoniy, Abul Makkorim Lubon, Abu Mansur Haft, Abu Tohir Salafiy, Ro'zbehon Misriy, Shayx Ammor Yasir, Shayx Ismoil Qasriydan hadis va tasavvuf ilmlaridan ta'lim oldi.

Najmiddin Kubroning tariqat yo'lidagi pirlarining ustozlari Shayx Abdunajib Suhraardiy faqirlik va futuvvatni (javonmardlik) birga qorishtirib tushuntiradi. Faqirlik deganda moddiy qashshoqlik emas, balki Alloh oldida o'zni yo'qotishni anglatadi. Kubroviya tariqati asoslarida futuvvat – javonmardlik nazariyasi yotadi, Hadisda aytilgan "Oluvchi qo'ldan beruvchi qo'l afzaldir" g'oyasini o'zida jamlagan javonmardlik boyligini qoralamaydi, saxovatni targ'ib qiladi.

Najmiddin Kubro qirq yoshga yetganda, 1185-yili Xorazmga qaytib keldi. U yerda katta xonaqoh qurdirdi, shu xonaqohda shogirdlarga ta'lim berib o'z maktabini yaratdi, kubroviya tariqatiga asos soldi. Kubro xonaqohida yuzlab shaxslar tarbiyalanib, islom, irfondan bahramand bo'ldi.

Kubroviya tariqatining ham asosi Qur'on va sunnatga asoslangan bo'lib, uning ta'limotidan insonni sharaflash birinchi o'ringa quyiladi. Shayx Najmiddin Kubro ko'plab irfoniy asarlar yaratgan:

1. "Fi-odobus solikin" ("Soliklar odobi haqida").
2. "Risola attul xayf ul-xoim an lavmat il - loim" ("Qo'rquvchi ovvoralar va malomat etuvchi malomatiylar haqida").
3. "Favoyihul jamol" ("Go'zallikni egallash").
4. "Ruboiylar to'plami".
5. "Favoyihul jamol va favotihul jalol" ("Jamol xushbo'yliklari va jalolning kashfi").
6. "Al-usul al – ashara" ("O'nta usul").
7. "Risola at-turuq" (Tariqatlar risolasi).

Najmiddin Kubro o'z asarlarida Alloh ma'rifatini anglash, ilm olish va ilm berish har bir muslim va musulmaning burchi ekanligini ta'kidlaydi. Najmiddin Kubroning "Ruboiylar to'plami" kitobi hali topilmagan. Sharqshunos olim E.Bertels turli bayoz va tazkiralardan Kubro qalamiga mansub deb taxmin qilgan 25 ta ruboiy ajratib olingan, hozircha ilm olmiga mana shu 26 ta (1 ta ruboiy Bertels jamlanmasiga kiritilmagan) ruboiy ma'lum.

Kubroviya tariqati o'z o'rnida naqshbandiya va mavlaviya tariqatlariga ham ta'sir qilgan. U asosan O'rta Osiyo, Rossiya, Eron mamlakatlarida keng tarqalgan. Kubroviya tariqatida chordona qurib, jahriy zikr majlislari tuziladi. Kubroviyadan mashhur quyidagi shahobchalar ajralib chiqqan: Firdavsi, bahoiyya, xilvatiya, rukniya, nuriya, nurbaxshiya, hamadoniya, barzanjiya.

Najmiddin Kubroning mo'g'ul bosqinchilariga qarshi mardonovor kurashi tarixda qolgan. Kubroviya tariqati asoschisi Shayx Najmiddin Kubro 1221-yilda Xorazmda mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda xalok bo'lgan.

Olami kubro va olami sug'ro nisbati. Xojagon tariqati va uning yaratilishi².

Tasavvufshunos olim N.Komilov buyuk mutafakkir Aziziddin Nasafiyning "Zubdat ul - haqoyiq" asarini tarjima qilgan. Ushbu asarda olami sug'ro va olami kubro haqida to'liq sharhlar berilgan. Biz shu asarga tayangan holda, olami sug'ro va olami kubro haqida fikrlar yuritimiz.

Aziziddin Nasafiyning aytishicha, Olam – zot (mohiyat) va sifatlar jamlanmasi bo'lib, zotning ham, sifatning ham alohida qismlari mavjuddir, ularni ham olam deyiladi. Olamni tushunishda ibtidoiy ilmlar tasnifiga binoan ikkiga bo'linadi:

1. Olami g'ayb – inson ko'zidan, sezgi organlaridan yashirilgan olam.
2. Olami shuhud – inson ko'zi va sezgi organlari bilan ko'ra oladigan, his qila oladigan olam.

Bu ikki olamni faylasuflar, so'fiylar turlicha nomlar bilan nomlaganlar. Quyida ikki olamning muqobil nomlanishlarini ko'rsati chiqdik.

OLAM

Olami G'ayb-

Amr
Malakut
Ruh
Shuur
Nur

Olami shuhud-

Amr
Mulk
Jism
Hislar
Soya

²Qarang. Aziziddin Nasafiy. Zubdatul haqoyiq. N.Komilov tarjimasi.
<https://m.facebook.com/groups/398490023689394/permalink/884779928393732/?mibextid=Nif5oz>

Olamni tushuntirishda yana ikki xil nomlash mavjudki, bu istiloh asosan tasavvuf ta'limotida keng qo'llaniladi.

1. Olami sug'ro (kichik olam)
2. Olami kubro (olami kubro).

Faylasuflarning aytishicha, Olami sug'ro – bu inson, olami kubro – bu borliq. Yunon faylasuflari olami kubroni makrokosmos (kosmos), insonni mikrokosmos deb ataganlar. Inson kubro va sug'ro olamning belgisi hisoblanib, katta olamdagi bor narsalar kichik olamda ham to'liq aks etadi, mavjuddir. Shu sababli Inson Olam mohiyatini anglashi uchun avval o'zini anglashi, o'zini tanishi lozimdir. Tasavvuf ta'limotida bu mashhur “man arafa nafsahu, faqod arafa robbahu” (kim o'zini anglasa, bas u Robbisini anglabdi) iborasi bilan talqin etiladi. Olami kubroning ham Olami sug'roning ham asosida javhar (falsafda substansiya deyiladi) turadi. Har ikki olamning boshlanishi shu javhar, zotdan boshlanadi. Har ikki olamda bor narsalar avval mana shu javharda – urug'da bo'lgan. Har ikki olam javhari – urug'i asli bir uru, ikalasi bir urug'dan bino bo'lgan. Olami sug'ro va olami kubroda sodir bo'ladigan har bir voqea – hodisa, avvalo, urug'larda – javharda sodir bo'lgan bo'ladi. Demakki, sodir bo'layotgan har bir voqea-hodisa tasodif emas.

Shariatda, aniqrog'i aqidada bu kabi nazariy qarashlarga munosabat bildirib o'tilgan. Shariat vakillari yuqorida bahs yuritayotgan masalamiz haqida “vujud” istilohi bilan qaraydi. Ular vujudni ikkiga bo'lib tushuntiradilar:

1. Vujudi qadim (qadim, azaliy vujud).
2. Vujudi hodis (keyin paydo bo'lgan vujud).

Bu qarashlar chindan ham mantiqqa to'g'ri keladigan tushunchalardir. Azaliy bo'lgan abadiy ham bo'ladi, boshlangan narsa intihoga ham egadir. Qadim bo'lgan vujud Haq taolo, hodis vujud esa dunyodir.

Shu yerda bir narsaga aniqlik kiritib ketishimiz lozimki, Alloh olam ichida emas, olamning har ikkisi – olami sug'ro va olami kubro aslida Xudoning yaratganlaridir. Xudo olamdan tashqarida, uning ismi, sifatleri va vujudi olamdan mutloq tashqarida va olam sifatlariga o'xshamagan, faqat o'zigagina xos, uning qanday ekanligi o'zidan o'zgaga ayon bo'lmagan Zotdir. Faqat Xudo haqida tafakkur yuritilganda, inson aqliga berilgan imkoniyatlar bilan tushuntirishga va tushunishga harakat qilinadi. Aslida Xudoning zoti va sifatlarini tushunishda nima tafakkuringizga kelsa, bilingki, u tushuncha xudo uchun mutlaq bo'hton. Inson bir obyekt haqida ilmga ega bo'lishi uchun Alloh insonga bergan imkoniyatlardan foydalana oladi xolos, undan tashqariga chiqib keta olmaydi.

Biz olami kubro deya borliqni, olami sug'ro deya insonni nazarda tutilishini tushunib yetdik. Tasavvuf ta'limotida shunday qarashlar mavjudki, insonga tuhfa etilgan qalb sababiyatidan, qalbini ifsho qilgan, komillikka erishgan shaxsiyatlarni

aksincha OLAMI KUBRO, komil shaxsiyatni o'rab turgan borliqni esa OLAMI SUG'RO deyiladi. Chunki insonga taqdim etilgan qalb butun borliq o'zida jamlagan informatsiyalar majmuasini his qila olishi, idrok eta olishi mumkin va bu hodisa Alloh taoloning inson qalbiga nazar tashlashi orqali sodir bo'ladi.

Адабиётлар рўйхати:

1. Komilov N. Tasavvuf, -T.: Movarounnahr-O'zbekiston, 2009
2. SHayx Najmiddin Kubro. Jamoling menga bas. T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 1994.
3. Usmon Turor. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlol, 1999.
4. Азизиддин Насафий. Зубдатул ҳақойиқ. Н.КОМИЛОВ таржимаси.. <https://m.facebook.com/groups/398490023689394/permalink/884779928393732/?mibextid=Nif5oz>
5. Бўри Қодиров.Нажмиддин Кубро. <https://oyina.uz/kiril/generation/135>
6. Muhammadrahimovna, Saidakbarova Muqaddas, and Kurbanova Feruza Azamovna. "FOLKLORE AND WRITTEN LITERATURE RELATIONS." International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022).
7. Saidakbarova, Muqaddas Muhammadrahimovna, and Ramziya Abdurahimovna Jo'Rayeva. "SHOH VAHROM: TARIXIY SHAXS VA BADI'Y OBRAZ." Academic research in educational sciences 4.Conference Proceedings 1 (2023): 168-173.
8. Саидакбарова, Муқаддас. "" TARIXI MULUKI AJAM"(" ИСТОРИЯ ИРАНСКИХ ЦАРЕЙ") КАК НАУЧНО-ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ИСТОЧНИК." Theoretical & Applied Science 12 (2018): 122-126.
9. SAIDAKBAROVA, M. "Historical facts and poetic fictions in the work of Alisher Navoi." Scientific Journal of Fergana State University 1 (2018): 106-108.
10. SAIDAKBAROVA, M. "Historical facts and poetic inventions in Alisher Navoiy's creative work." Scientific journal of the Fergana State University 1.4 (2018): 106-108.
11. Muqaddas, Saidakbarova. "INTERPRETATION OF ENLIGHTENMENT AND SPIRITUALITY." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 405-409.
12. Saidakbarova, M. M. "Tarixi muluki Ajam." The history of Iranian kings") as the scientific-artistic source. ISJ Theoretical & Applied Science 12.68 (2018): 122-126.
13. Tohirovna, Saidakbarova Mukaddas Muhammadrahimovna Mamatqulova Feruza. "The Bobur is the true of the Renaissance ruler..." Journal of Modern Educational Achievements 5.5 (2023): 442-447.
14. Yakhyokhanova, Oyzoda, and Saidakbarova Mukaddas Muhammadrahimovna. "Influence of the work of the Azeri poet in the works of representatives of the Kokand literary environment." Journal of Modern Educational Achievements 5.5 (2023): 448-457.

“AVESTO”DA IJROVIY LIRIKA BADIYATI

Umida Abdullayeva,
PhD, QarDu doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijroviy lirikaning genezisi, dastlabki yozma adabiy manbalarda qo'llanish uslubiyati, xususan, zardushtiylik dininining muqaddas kitobi bo'lgan "Avesto"da qo'llanish xususiyati haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Avesto, O'rxun-Enasoy obidalarini, genezis, motiv, lirika, voqelik.

Аннотация. В статье приводятся сведения о генезисе исполнительской лирики, методологии ее использования в ранних письменных литературных источниках, в частности, ее использовании в «Авесте» - священной книге зороастрийской религии.

Ключевые слова: Авеста, памятники Орхун-Енасыя, генезис, мотив, лирика, реальность.

Abstract. This article provides information on the genesis of performance lyrics, the methodology of its use in early written literary sources, in particular, its use in the "Avesta", the sacred book of the Zoroastrian religion.

Key words: Avesta, Orhun-Enasoy monuments, genesis, motive, lyrics, reality.

Ijroviy lirikaga oid ijod namunalarining paydo bo'lishi olis tarixga borib taqaladi. Ijroviy lirika genezisini o'rganish jarayonida jahon she'riyatida uning eng qadimiy shakllari Keoskiy Simonidning miloddan avvalgi 6-5 asrlarda "Danayning shikoyati" nomli asarida keltirilgan ayol nomidan rivoyat, shuningdek, "Avesto"ning ayrim nasklari, O'rxun – Enasoy obidalarining ayrim namunalari - "To'nyuquq", "Bilga Xoqon", "Kul Tegin" bitiktoshlari ham ijroviy lirika namunalari ekanligi aniqlandi.

Jahon adabiyotshunosligida ijroviy lirika nazariyasi mukammal o'rganilgan. Valzelning fikricha, ijroviy lirikada shoirning "men"i orqaga chekinib, boshqa obrazning hislari ochiladi. Ammo bizning fikrimizcha, ijroviy lirika namunalarida shoir o'z qarashlarini ham ifoda etadi. Ijroviy lirikada hikoya qilish mavzusi odatda ma'lum bir davr yoki janr an'alariga xos bo'lib, ularda qahramon xarakteri shartli ravishda ifodalanadi. Xususan, turkiy xalqlar adabiyotida xalq og'zaki ijodi namunalariga oid xalq qo'shiqlaridagi qo'shchi qo'shig'i, qiz qo'shig'i; podshohlar yoki sarkardalar ("To'nyuquq", "Kul Tegin", "Bilga Xoqon" bitiktoshlari, VI-VIII asr); mumtoz adabiyotda ijtimoiy hayotdagi muammolarni ifodalash maqsadida yozilgan g'azallar (XV-XIX asrlar); erksizlik qurbonlari ("Sharq qizi", 1922; "Qiz qo'shig'i", 1923, Cho'lpon); erksizlikka qarshi kurashuvchan shaxs ("Yurt qayg'usi" turkumidan "Bir o'zbek yigiti tilidan" 1917, Fitrat); shoir, davlat arboblari va badiiy asar qahramonlari ("Bayronning so'nggi safari", "Aleksandr Blok", "Siyovush faryodi" (Rauf Parfi), "Furqat nidosi", "Ulug'bek faryodi" (Abdulla Oripov) kabi she'rlar; jahon adabiyotidagi cho'pon yoki cho'pon ayol ("Amarillis", miloddan

avvalgi 3-asr, Feokrit); sargardon mahbus, u yoki bu ekzotik madaniyat vakili, romantizm va romantizmdan oldingi she'riyatdagi o'lik oshiq ("Bo'rondagi sargardon qo'shig'i", 1771-72, Gyote); mahbuslarning ko'plab lirik monologlari va asirlar ("Tutqun", Pushkin) kabi she'rlar bunga misol.

Adabiyotshunos Ulug'bek Hamdam o'zbek she'riyatida ijroviy lirikaning paydo bo'lish asosini shunday izohlaydi: "Jadid ijodkorlarning yangi adabiyot haqidagi tasavvurlari asosini "ro'monlar va tiyotru kitoblari" tashkil qilganining sababi – olam va odamni anglashga bo'lgan ehtiyoj edi. Mazkur hol lirikadan ham o'zgarishni talab etardiki, bu uning uchun yashab qolish va ravnaq topish sharti bo'lib qoldi. Aytmoqchimanki, she'riyatning ko'ngildan voqelikka yuz burishi eng avval shu obyektiv zarurat tufayli sodir bo'lgandir. Zero, davr shart-sharoitlari yuzaga keltirgan talabni qondirish uchun she'riyatning "ro'mon va tiyotru" kitoblari bilan (ya'ni lirikaning epos va drama bilan) raqobatga kirishishi, ularning imkon doirasidagi vazifalarni, qisman bo'lsa ham, zimmasiga olishi zarur edi. Buning uchun esa, she'riyat chuqur ichki struktur o'zgarishga uchrashi, eng avval, subyektiv tashkillanish nuqtayi nazaridan isloh qilinishi lozim edi. Asrlar davomida lirikaning obyekt ko'ngil bo'lib keldi, she'r shoirning – lirik "men"ning ko'ngil izhori sifatida tushunildi. Voqelikka yuz burgan she'riyat esa endi shoirninggina emas, o'zga odamning ko'ngliga nazar solmoqqa, dilidagini idrok qilmoq va ifodalamoqqa jazm etdi. Va bu holda endi o'sha o'zga odam she'rning lirik subyekt, shoir uchun bo'lsa badiiy idrok obyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqorida aytilganlar shoirning o'zga shaxsga evrilib olib uning ko'nglidagilarni izhor etishi voqelikni idrok qilish, davr ruh-kayfiyatini ifodalashga intilish natijasi, uning usullaridan biri degan fikrni tasdiqlaydi. Yangi o'zbek she'riyatida rus adabiyotshunoslari "rolevaya lirika" deb ataydigan, bizda "ijroviy lirika" deb atash urf bo'lgan bunday she'rlar Cho'lpondan keyin keng ommalashdi"¹. Bizning fikrimizcha, lirik subyekt o'zga shaxs ekanligini hisobga olib aytish mumkinki, turkiy xalqlar adabiyotida ijroviy lirika namunalari ancha avval paydo bo'lgan. Xususan, "Avesto" dagi Axura Mazda, Mitra, Axriman qo'shiqlari, bitiktoshlardagi yozuvlar buning dalilidir.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ijroviy lirikada lirik hikoya motivlari ijtimoiy voqelikka ham bog'liq bo'ladi. Tarixiy manbalardan ma'lumki, 6-8 asrlarda davlatchilik qurish muhim ustuvor vazifalardan sanalgan. Turkiy xalqlar Turk xoqonligi imperiyasiga birlashgan. Akademik Bartoldning qayd etishicha, u vaqtlarda turkiylar 2 ta toifaga bo'lingan. Birinchi toifa – bu xalq turkiy tilda "budun" – "qag'anliq budun", ya'ni xoqonligi, mustaqil davlat bo'lgan xalq deb atalgan.

¹ Hamdamov U. Yangi o'zbek she'riyati. – Toshkent: Adib, 2012. – B. 252-254.

Ikkinchi toifa – “eltabarlik budun”, ya’ni eltabar boshqargan xalq deb atalgan. Eltabarlarni xon tayinlagan. Ikkinchi Sharqiy Turkiy xoqonlikning donishmand maslahatchisi Bilga To’nyuquq Xitoyda, Xitoy shimolida ta’lim olgan juda bilimdon kishi bo’lib, ko’p mehnat qilgan hamda Xitoy ichki va tashqi siyosatining barcha taraflarini puxta o’rgangan mohir sarkarda bo’lgan. Sarkarda To’nyuquq sharafiga bitilgan bitiktoshlar ijroviy lirikaning dastlabki namunalaridan hisoblanadi. Bitiktosh matni To’nyuquq tilidan yozilgan bo’lib, adabiyotshunos olim B.Sarimsoqovga ko’ra, matnda nasriy qofiya (saj’)ni ko’ramiz. “Yodnomalar asosan erkin nasrda yozilgan bo’lib, ularda o’rni bilan saj’li nasrdan ham foydalanilgan”². “*Bilga To’nyuquq ban o’zum, Tabg’ach elinga qilintim*”³.

O’rxun – Enasoy bitiklari marsiya va madhiya janrlarining qadimgi turk adabiyotidagi ildizlari haqida tasavvur beradi. Shuningdek, mard va tanti xalqning avlodi ulardan kuch oladi va faxr hissini tuyadi. Bu haqda bir qancha she’rlar, badiiy asarlar bitilgan. “*Qog’oz yaramaydi mening kunimga, Qog’ozga ko’chmaydi yonayotgan yurak / Shalviragan qog’oz kerakmas menga, Dardimni bitgani menga tosh kerak*”⁴. (“Bitik toshlar orzusi” U.Azim)

Eramizdan avvalgi IX - VIII asrlarda Markaziy Osiyoda “Avesto” kitobi yozildi va u o’sha davrda insoniyat taraqqiyotiga o’zining sezilarli ta’sirini ko’rsatdi. Sharqiy Eron va Markaziy Osiyoda yashovchi qadimiy qabilalarning ijtimoiy tuzumi o’zgarayotgan va diniy qarashlari hamda jamiyatda ro’y berayotgan tabaqalanish davom etayotgan bir paytda Turon pasttekisligida –Amudaryo bo’ylarida yangi g’oya, yangi fikrlar va yangi ta’limot vujudga keldi. Bu ta’limotga amal qilgan inson “Ezgu fikr”, “Ezgu so’z”, “Ezgu amal”ni butun hayoti davomida qalbiga singdirishi lozim edi. Ushbu ta’limotning asoschisi Zardusht bo’lib, u o’z ta’limotini jamiyatda yashovchi har qanday sinf vakillari orasida qo’rqmasdan tarqatib o’zining haqligini isbotlay olgan. Beruniyning guvohlik berishicha, Zardusht makedoniyalik Aleksandrning Markaziy Osiyoga kelishidan 258 yil ilgari dunyoga kelgan. Zardusht faqat bitta xudoga, ya’ni Axura-mazdaga sig’inishni va uning ko’rsatmalari bo’lgan “Avesto”ga amal qilishni targ’ib qiladi: “*Uch kecha va uch kunduz Qilsin g’usl, tahorat / Va tazarru aylasin O’ttiz darra olgandek*” (Axuramazda, “Avesto”)⁵.

“Avesto”da podshohlar, oliy tabaqa vakillari, ruhoniylarga va diniy urf-odatlariga ham katta o’rin ajratilgan. Shuningdek, “Avesto”da tabiat, uni yovuz kuchlar (devlar)dan muhofaza qilish haqida ham qimmatli fikrlar aytib o’tilgan. Kitobdagi

² Sarimsoqov B. O’zbek adabiyotida saj’. – Toshkent: Fan, 1978. – B.91.

³To’xliyev B, Abdurahmonova B. Adabiyot. – Toshkent: Cho’lpon, 2012. – B.38.

⁴ Azimov U. Saylanma. –Toshkent: Sharq, 1995. – B.149.

⁵ Sharipova L. XX asrning 70-80- yillar o’zbek she’riyatida folklorizm. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 39-40.

gah (qo'shiq) lar obraz (xudo) lar tilidan aytilgan bo'lib, ijroviy lirika hisoblanadi. Jumladan, Mitraning so'zlari:

Ibodatini ijobat
Qilgumdir men albatta
Xoh faqir, xoh podshohning.
Xara osha uchgan kun
Kabi, o, Spitama,
Ibodatini men labbay,
Deb ijobat qilgayman⁶.

Yuqoridagi parchada insonlarni ibodatga chorlash va ibodat qilganlar, albatta, ajrini olishi Mitra tilidan aytiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ijroviy lirikaning genezisi xalq og'zaki ijodi namunalariga borib taqaladi va she'rning g'oyaviy-badiiy mazmunini ochish uchun har bir davr ijtimoiy voqeligiga mos ijroviy qahramonlar tanlanadi. Hozirgi o'zbek she'riyatida ham ijroviy lirikaning ko'plab namunalarini uchratish mumkinki, bu alohida tadqiqotlar doirasida o'rganishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azimov U. Saylanma. –Toshkent: Sharq, 1995. – B.149.
2. Sarimsoqov B. O'zbek adabiyotida saj'. – Toshkent: Fan, 1978. – B.91.
3. To'xliyev B, Abdurahmonova B. Adabiyot. – Toshkent: Cho'lpon, 2012. – B.38.
4. Sharipova L. XX asrning 70-80- yillar o'zbek she'riyatida folklorizm. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 39-40.
5. Hamdamov U. Yangi o'zbek she'riyati. – Toshkent: Adib , 2012 . – B .252-254.

⁶ To'xliyev B., Abdurahmonova B. Adabiyot. – Toshkent: Cho'lpon, 2012. – B.23.

**IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ARUZ VAZNINI INNOVATSION
USULLARDA O'RGANISH
(ALISHER NAVOIY ASARLARI ASOSIDA)**

Muyassar Boqixonova,

*Ibrat nomidagi xorijiy tillarga
ixtisoslashtirilgan maktabi-internati oliy
toifali o'qituvchisi.*

Tel: +998 94 1502701

Madina Mamadaliyeva,

*Ibrat nomli Namangan chet tillar
instituti arab tili bo'limi 1-kurs talabasi*

Ilmiy rahbar: Obitjon Karimov,

NamDU dotsenti, f.f.n.

***Annotatsiya.** Ushbu maqola umumta'lim va ijod maktablarida Alisher Navoiy shariyatini sodda va qulay o'zlashtirish uchun tavsiya etiladi. Aruz vaznini o'rganishni istovchilarga birmuncha yengilliklar tug'diradi. Bu vazinni o'zlashtirish orqali "Ijod maktablari" o'qituvchi va o'quvchilari Navoiy ijodini anglashadi.*

***Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, "Me'zon ul-avzon", Zahiriddin Muhammad Bobur, "Muxtasar", Fitrat "Aruz haqida risola", A. Xojiahmedov "Maktab darsliklarida aruz vaznini o'rganish".*

Aruz vaznini maktab o'quv yuklamasiga kiritilgani ko'p yillardan buyon norozichiliklarga sabab bo'lmoqda. Nega deganda, barcha oliy o'quv yurtlarida aruz vazni talab darajasida o'rgatilgan emas. 2018-yil "Munosabat ko'rsatuvi"da Quddus A'zamov professor Baxtiyor Nazarov hamda Ahmadali Asqarov bilan bevosita muloqot o'tkazganlarida viloyat o'qituvchilari internet orqali o'z qarshiliklarini bildirishdi, ya'ni aruz vazni maktab darsligidan chiqarib yuborilsin, degan taklif bilan chiqishdi. Shundan so'ng bizda bir fikr tug'ildi: aruz vaznini bilmaslik Navoiyni anglamaslikdir, shuning uchun bu masalani boshqacharoq yo'l bilan hal qilsak: yangi pedtexnologiyadan foydalanib, bu vazni o'rgatsak. Aruz vaznini yangi pedtexnologiya bilan o'rgatish birmuncha samaraliroq bo'lar ekan.

Aruz she'riy tizimi asrlar davomida arab, fors-tojik va turkiy she'riyatlarda amaliy jihatdan qo'llanib kelishi bilan bir vaqtda ushbu xalqlar adabiyotshunosliklarida nazariy jihatdan ham takomillashib bordi. Aruz maxsus ilm sifatida maktab va madrasalarda muttasil o'rgatildi, mazkur she'riy mezon nazariyasi va amaliyotiga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar yaratildi, risolalar bitildi. Halil ibn Ahmaddan so'ng Ibn Usmon Maziniy, Imom Ahmad Ibn Abdurabbih, Ibn al-Xatib at-Tabriziy, Ziyovuddin Abul Jaysh al-Hazrajiy kabi arab olimlari ushbu ilmga doir asarlar yaratib, aruz taraqqiyotiga hissa qo'shdilar.

An'anaviy aruz qoidalarini tushuntirishda bu kabi istilohlar qo'llanilgan bo'lib, mumtoz she'riyatdagi 19 bahr an'anaviy tartibda emas, balki tarixiylik tamoyili bilan saqlangan holda avval arab she'riyatida qo'llanilgan 5 bahrni, so'ng arab va fors she'riyatida barobar iste'molda bo'lgan 10 bahrni, undan so'ngra esa arab aruzshunosi Axfash tomonidan qo'shilgan 1 bahrni hamda fors aruziylari tomonidan kiritilgan 3 bahrni keltirgan. Natijada aruz vaznining tarixiy o'sishini ko'rsatadigan o'ziga xos shakl yuzaga kelgan. Risolada keltirilgan bu shakl uni aniqroq tasavvur qishiga yordam beradi. Fitrat o'zi yaratgan sxemaga shunday tushuntirish beradi: "...arab aruzida olti rukndan tuzilgan vaznlar eron aruzida sakkiz rukndan tuziladi; arab aruzi vaznlari sistemasiga ko'ra 15 bahr bo'lsa ham, so'ngra Axfashdan bir bahr olib, 16 bahrga chiqarilgan. Eron aruzi bulardan 5 bahrni chiqarib, yana uchta bahr qo'shib, 14 da to'xtatadi. Keyinchalik, mashhur chiqarilgan 5 bahrda ham she'r yozilib, Eron aruzi 19 bahrga chiqariladi". Aruz ilmi Markaziy Osiyoda Fitratga qadar ham mavjud bo'lganidek, uning qatlidan keyin ham bu sohada ilmiy izlanishlar olib borildi. Ayniqsa, o'tgan asrning 60-70-yillariga kelib aruzga doxil bir qancha asarlar e'lon qilindi. Bu sohada o'zbek olimlaridan A.Rustamovning "Aruz haqida suhbatlar" (1972), Ummat To'ychiyevning "O'zbek she'riyatida aruz sistemasi" (1979), Anvar Hojiahmedovning "Aruz nazariyasi asoslari" (1979), "Maktabda aruz vaznini o'rganish", Safarboy Ro'zimboyevning "Aruzdan saboqlar" kabi risola va metodik qo'llanmalari nashr qilindi. Shulardan akademik Alibek Rustamov ham Fitrat taklifini qo'llab, "chirmanda"ga o'xshash usulni aruzshunoslikka tatbiq qilishga harakat qildi. Alibek Rustamov tavsiya qilgan usul Fitratnikidan ham birmuncha soddaroq bo'lishiga qaramay, aruz amaliyotida ishlatilmadi. Bizningcha, Navoiy va Bobur aruzshunosligi, xususan, "Mezon ul-avzon" va "Muxtasar" asarlari o'z davrida, arab yozuvi asosidagi alifbo iste'molda ekanligi paytida juda katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etib, adabiyotshunoslar va aruznavis shoirlar uchun zarur qo'llanmalar sifatida ish bergan. Fitrat singari ularni arab va fors aruzshunosligi ta'siriga qattiq berilganlikda ayblash ham noto'g'ri harakat. Negaki, o'sha davrlarda iste'moldagi alifbo arabcha bo'lgach, uning fonetik qoidalari ham arablarnikiga yaqin edi.

Aruz vazni hijolarning cho'zilishi va qisqaligiga, ya'ni ularning sifatiga asoslanadi. Qisqa unli bilan tugallangan ochiq hijolar qisqa hijo sanaladi. Vafo, bozor, kitob, bezak, uzuk, o'roq so'zlarining birinchi hijosi ana shunday qisqa hijolar. Ular she'r chizmasida" V "belgisi bilan ifodalanadi. Cho'ziq unli bilan tugallangan (do-,no-,ze-,bo-,) ochiq hijolar, shuningdek, tarkibida qisqa unli bo'lgan (jan-nat,ul-fat kabi) yopiq hijolar cho'ziq hijolar deyiladi. Ular she'r chizmasida"____" belgisi bilan belgilanadi. Tarkibida cho'ziq unli bo'lgan (bog', yor, shod kabi), shuningdek, qo'sh undosh bilan tugallangan (jism, mehr, ilm kabi)yopiq hijolar o'ta cho'ziq hijo

sanaladi. Ular misra ichida «_V» , misra oxirida belgisi bilan ifodalanadi. Endi yuqoridagi ma`ruzani aniqroq ifodalash uchun jadval tuzamiz, chunki aruz vaznida qisqa hijo sabab cho`ziq hijo vatad, o`ta cho`ziq hijo fosila deb nomlanadi.

tg`r	Hijo nomlari	Belgilanishi	Misollar
	Sabab	V	-ba, hi-,va-,be-u-,na-,fi kabi
	Vatad	_____	<u>mak-tab jan-nat,kitob,</u> kabi
	Fosila	_____V	<u>Jism, mehr, ilm</u> kabi

M, Kecha kelgumdir debon ul sarvi gulru kelmadi...

Misrasidagi hijolarni aniqlashtirib chiqamiz. -cha, de-,vi,-ma qisqa hijolar ke-, kel-, gum-, -dir-, -bon-, -ul-, sar-, -gul,-;ro', kel ; di cho`ziq hijolar sanaladi. Bu yerda savol tug`ilishi mumkin: Nima uchun -di. Mumtoz adabiyotda -i tovushi 2 xil talaffuz qilinadi: qisqa holda tuzilgan. ki-tob – qisqa, A-li-she—cho`ziq. Demak, «kelmadi» so`zidagi -di xam cho`ziq talaffuz qilinadi. Qisqa, cho`ziq, o`ta cho`ziq hijolarning turlicha birikuvidan ruknlar deb atalgan ritmik bo`laklar tashkil topadi. Aruz ilmi sakkiz asl ruknga asoslanadi, ulardan beshtasi she`riyatimizda keng qo`llaniladi. Bular faulin, mafoiylun, failotun, mustaf`ilun, maf`ulotu ruknlaridir. Bularni uhbu jadval orqali namoyih etamiz :

tg`r	Bahrlar nomi	Taqte`si	Afoili (rukn)
	Hazaj	V - - -	Mafoiylun
	Ramal	- V - -	Foilatun
	Mutaqorib	V - -	Faulun
	Rajaz	- -V-	Mustaf`ilun
	Sare`	- VV -	maf`ulotu

O`zbek mumtoz adabiyotidagi she`rlar ,asosan, hazaj va ramal bahrida yoziladi. Endi amaliy mashg`ulotlarga qaytamiz:

Kecha kelgumdir de bon ul sarvi gulro' kelmadi
 V V V

Ko`zlarimga kecha tong otquncha uy qu kelmadi
 V V V

Chizmalar asosida ruknni topamiz:

- V - - - V - - - V - - - V -

foilatun foilatun foilatun foilatun

- V - - - V - - - V - - - V -

foilatun foilatun foilatun foilatun

Foilatun rukni ramal bahriniki ekanligini bilamiz. Endi ruknlar sonini sanaymiz (8 ta), ya'ni foilatun va foilun so'zi necha marta qatnashganini aniqlaymiz. 8 marta takrorlanibdi. Mumtoz adabiyotda sakkizlikni musamman deyiladi. Undan tashqari, foilatun misra oxirida foilun bo'lib qolgan. Bu kesilish, ya'ni mahzuf deyiladi. Demak, ushbu bayt aruz vaznining *ramali musammani mahzuf* bahrida yozilgan.

Endigi vazifamiz solim, mahzuf va maqsur so'zlarining ma'nosini tushunishdir.

Solim – to'liq

Mahzuf – kesilgan

Maqsur – qusurli

Agar ruknlar asllardan iborat bo'lsa (foilatun, foilatun, foilatun, foilatun kabi), vazn solim deyiladi. Agar ruknlarda kesilish bo'lsa (foilun kabi) mahzuf sanaladi. Agar bayt qofiyasida qusur bo'lsa, maqsur (bodponi-dilraboni, sori-shajuvori) maqsur deyiladi. Demak, buni ham jadval orqali ko'rsatishimiz mumkin:

g`r	Nomlanishi	Afoili	Taqte`si
	Asl rukn	solim	Mafoiylun foilatun maf`ilotun mustaf`ilun faulin
	Tarmoq rukn	mahzuf	mafoil foilun faul
	Ikki o'lchovli	maqsur	mafoil foilun fa`lon faul

Yana amaliy mashg`ulotga o'tamiz :

Mehr ko`p ko`rguzdim ammo mehribone topmadim

Jon base qildim fido oromijone topmadim

Ya'ni -di,- ri,-ma,-ba,-fi bular qisqa hijolar. Ko`p, ko`r-, -giz-, -man, mo-, -bo, ne-, top-; -dim, jon,-se, qil-; -dim,-do,-o;-ro bular cho`ziq hijolar. Mehr – o`ta cho`ziq hijo, shunga ko`ra she`r chizmasini chizamiz :

- V - - V - - V - - V -

foilatun foilatun foilatun foilun

- V - - V - - V - - g` - V - g`

foilatun foilatun foilatun foilun

Chizmadan bahrni aniqlaymiz va ruknlar sonini sanaymiz. *Ramali musammani mahzuf*. Mahzuf deyilishiga sabab qofiyada hech qanday qusur yo`q hamda rukn tarmoq rukn bo'lib, kesilib qolgan (foilun).

Endi A.Navoiyning "Deyin", "Bo'ldim sango", "Yordin ayru ko'ngil" g'azallari bahrini aniqlab chiqamiz vas hu tarzda g'azallarni bahrlarga solib chiqamiz.

Aruz vazniga oid she'rlar tahlilida quyidagilarga e'tiborli bo'ling!!!

a, e, i unlilari ochiq bo'g'in tarkibida kelganida, bu bo'g'in qisqa bo'g'in hisoblanadi va **V** belgisi orqali ifodalanadi;

a, e, i unlilari yopiq bo'g'in tarkibida kelganida, bu bo'g'in oddiy cho'ziq bo'g'in hisoblanadi va — belgisi orqali ifodalanadi;

o, u, o' unlilari ochiq bo'g'in tarkibida kelganida, bu bo'g'in oddiy cho'ziq bo'g'in hisoblanadi va — belgisi orqali ifodalanadi;

o, u, o' unlilari yopiq bo'g'in tarkibida kelganida, bu bo'g'in o'ta cho'ziq bo'g'in hisoblanadi va bu ham — belgisi orqali ifodalanadi (ayrim manbalarda ~ belgisi).

Endi quyidagilar orqali yuqoridagi qoidani tekshirib ko'ramiz:

FO-I-LO-TUN — V — —

MA-FO-IY-LUN V — — —

MUS-TAF'-I-LUN — — V —

Yuqoridagi qoida bo'yicha ularning chizmasi shunday va barchasi 4 bo'g'indan iborat. Ular quyidagi nomlar bilan ifodalanadi:

Foilotun Romal

Mafoiylun Hazaj

Mustaf'ilun Rajaz .

Nomlar va chizmalarni o'rganib oldik!

Endi boshqacha qoida!

Foilotun, mafoiylun, mustaf'ilun kabi atamalar 4 bo'g'indan iborat va she'r tahlilida 4 bo'g'in bir rukn hisoblanadi. Demak, siz har 4 bo'g'indan so'ng bir rukn (/ belgi) chizasiz:

Ke-cha-kel-gum/ dir-de-bon-ul/ sar-vi-gul-ro' / kel-ma-di =4 ta rukn

Ko'z-la-rim-g'a/ ke-cha-tong-ot/ gun-cha-uy-qu/ kel-ma-di =4 ta rukn.

Endi, bu ruknlardagi bo'g'inlar chizmasini chizamiz:

V V — — / — V — — / — V — — / — V V birinchi misra;

— V — V / V V — — / — V — — / — V V ikkinchi misra.

E'tibor bering, ushbu chizmalar ruknlarga ajratib berilmoqda va eslab qolingki— ruknlardagi bo'g'inlardan aynan nechinchi bo'g'in eng ko'p qisqa bo'g'in bo'lyapti!

1 misra:

1 qisqa 2 qisqa 3 cho'ziq 4 cho'ziq/


1 cho'ziq 2 qisqa 3 cho'ziq 4 cho'ziq/

1 cho'ziq 2 qisqa 3 cho'ziq 4 cho'ziq/

1 cho'ziq 2 qisqa 3 qisqa.

1-misradan bilish mumkin, eng ko'p qisqa bo'layotgan bo'g'in 2-bo'g'in va siz qolgan qisqa bo'g'inlarni cho'ziq bo'g'in qilib olasiz, bu esa foilotun chizmasiga tushmoqda (nomi esa Romal edi). Va tahlildagi ilk so'zni topdik

Endi biz aruz vaznini yangi pedtexnologiya asosida o'rganish bo'yicha yangi dastur yaratdik. Ushbu dastur orqali o'rganish o'qituvchi va o'quvchilarga qulaylik tug'diradi. Bu dasturga 5-11 sinflarning adabiyot darsliklaridagi mumtoz she'riyatni joylab chiqdik. O'quvchi o'zi uchun kerak bo'lgan mumtoz asarni osongina topadi, bahrini aniqlaydi, ma'nosini tushunadi.



Foydalangan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning almiy-nazariy asoslari. - Toshkent.: O'qituvchi, 1996.
2. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik, 2-jild. – Toshkent.:Fan, 1979.
3. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent.: O'qituvchi, 1980.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent.: O'zbekiston, 2002.
5. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent.: 2018.
6. To'xliyev B. Adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent.: O'qituvchi, 2013.
7. Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o'rganish. – Toshkent.: O'qituvchi, 1995.
8. Hojiahmedov A. O'zbek aruzi lug'ati. – Toshkent.: Sharq, 1998.
9. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent. 2019.
10. Husanboyeva Q.. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish. - Toshkent.: 2018.
11. Salayev F., Qurbaniyazov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi. – Toshkent.: Yangi asr avlodi. 2010.

Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz
2. www.ziyo.com
3. www.pedagog.uz
4. www.kitob.uz
5. www.e-adab.uz

ALISHER NAVOIY RUBOIYLARINING BADIYATI XUSUSIDA

Ganjayeva Ro'za Sardorovna,
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Maqolada Alisher Navoiyning "Navodir ush shabob" devonidagi bir qancha ruboiylar tahlilga tortilgan bo'lib, ulardagi she'riy san'atlarni ham sharhlashga harakat qildik.*

***Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, tasavvuf, tanosub, tazod, soqiy, ruboiy.*

***Абстрактный.** В статье были проанализированы несколько рубаев из книги Алишера Навои «Наводир уш шабоб» и предпринята попытка осмысления поэтического искусства в них.*

***Ключевые слова:** Алишер Навои, Суфизм, Таносуб, Тазод, Саки, Рубаи.*

***Abstract.** In the article, several rubai's from Alisher Navoi's "Navodir ush shabab" book were analyzed, and we tried to interpret the poetic arts in them.*

***Key words:** Alisher Navoi, Sufism, Tanosub, Tazad, Saqi, Rubai.*

O'zbek mumtoz adabiyotining ustunlaridan biri Hazrat Alisher Navoiy mumtoz she'riyatimizning ko'pgina janrlarida samarali ijod qilgan, biroq uning adabiy merosida ruboiy janri alohida o'ringa ega. Alisher Navoiy ruboiylari ilmda endi tadqiq qilinayotgani yo'q. Bu sohada navoiyshunos olimlarimiz anchagina ishlarni amalga oshirganlar. Ruboiy janrining Navoiy she'riyatida tutgan o'rni, shoir to'rtliklarining tematikasi, poetikasi bilan bog'liq bir qator masalalarga professor Hodi Zarifov, Ibrohim Haqqulov, navoiyshunoslardan Abduqodir Hayitmetov, Yoqubjon Is'hoqov, Natan Mallayev va boshqa bir qator olimlar darslik, maqola va monografiyalarida to'xtalib o'tganlar. Biz mazkur maqolada Navoiy ruboiylari badiiyati xususida so'z yuritamiz.

Alisher Navoiy ruboiylarida eng ko'p qo'llangan she'riy san'atlar sifatida tazod va tanosub san'atini ayatishimiz mumkin. Shoirning "Navodir ush shabob" devonidan joy olgan "aro" radifi asosiga qurilgan ruboiysida har ikki she'riy san'atni ham uchratishimiz mumkin:

Ishqingda necha zor bo'lay furqat aro,
Yetsam xush erur bazminga bir ishrat aro.
Ko'z ikki yuzingdin olmasam suhbat aro,
Ikki tobonindin uylakim xilvat aro¹.

Mazkur ruboiyda "furqat" va "ishrat" so'zlari o'zaro zidlanish asosida tazod she'riy san'atini shakllantirganini hamda "ko'z", "yuz", "tobon" so'zlari orqali esa tanosub san'atining yuzaga kelganini ko'rishimiz mumkin.

Bilamizki, Navoiy she'riyatini tasavvufsiz tasavvur etish mushkul ish. Shoirning har bir misrasida tasavvuf unsurlarini anglashimiz mumkin. Ruboiyning mazmuniga

¹ Alisher Navoiy, Xazoyin ul maoniy – Navodir ush shabob, Devon (Nashrga tayyorlovchi: Hamid Sulaymon, Ibrohim Haqqul). – Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011, 725-bet.

to'xtaladigan bo'lsak, bir qarashda ruboiyda oshiqning ma'shuqaga zorlanishining guvohi bo'lamiz, go'yo. Ya'ni, "ey go'zal yorim, sening ishqingda, sendan ayrolikda senga zor-intizor bo'ldim. Xursandchilik, shodlik bilan bazmingga yetsam xush bo'lar edi. Zero sen bilan suhbat asnosida ko'zimni ikki yuzingdan olmasdim, tanholikda ikki nurli yuzingdan ko'zimni uzmas edim" kabi sharhni yuzaga keltirishimiz mumkin. Biroq, bu ruboiyni tasavvufiy ma'nosini izohlaydigan bo'lsak quyidagicha anglashimiz maqsadga muvofiqdir: "Ey Alloh, sening ilohiy jamolingni ko'rish va senga yetish uchun ayriliqda zor bo'ldim. Jamolingga shodlik va xursandchilik bilan yetishsam edi, Suhbat aro – pir-u murshidlar suhbatini bilan sening ilohiy ishqing va jamolingdan voqif bo'lsam, yolg'izlik va tanholik aro ikki toboningdin, ko'zingdin – sening ishqingding uzilmasam, ilohiy jamolingni idrok etmoq uchun zikr va ibodatda qoyim bo'lsam edi".

Hazrat Navoiyning:

No'sh aylar emish qadahni jonona to'la,

Soqiy, manga tut jomi harifona to'la,

Quy, gar xud erur sipehr paymona to'la,

Har nechaki, xoliy etsam, et yona to'la².

Ruboiysida ham "qadah", "soqiy", "jom", "paymona" so'zlari tasavvufiy mavzu doirasida birlashganligi sabab tanosub san'atini shakllantirgan bo'lsa, "xoliy etmoq" va "to'la etmoq" so'zlari orqali esa tazod san'ati yuzaga kelyapti. Porso Shamsiyev tomonidan tuzilgan Alisher Navoiy asarlari lug'atiga yuzlanadigan bo'lsak, "xoliy etmoq – tugatmoq" degan ma'noni anglatishini ko'ramiz. Bundan tashqari, soqiyga murojaat etish orqali nido san'ati va buyruq shaklidagi fe'llarni qo'llash orqali yuzaga kelgan amr va nahiy she'riy san'atlari ruboiy badiiyatini yana ham boyitgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ruboiyni quyidagicha – tasavvufiy yo'sinda sharhlash mumkin: Bu yerda soqiy – may quyuvchi, ya'ni ko'ngilni Alloh ishqiga to'ldiruvchi bo'lsa, janona – pir-u murshidlar, ilohiy ishqdan ko'ngillarini to'ldirganlardir. Izoh shunday: "Pir ilohiy ishqdan bahramand bo'ldi. Menga ham ulfatchilik qadahini tut, ya'ni Allohga yaqinlik sirlarini menga ham o'rgat, bu dunyo o'tkinchi bo'lsa-da dilimga Haq ishqini jo qil. Zero, qalbim har qancha uning ishqini bilan to'liq bo'lsa ham, unga ana shu ishqni qayta-qayta singdiraver".

Bilamizki, Alisher Navoiy she'riyatida komil inson masalasi ustuvor sanaladi. Shu sababdan shoir lirikasida insoniy tuyg'ulardan bili – kamtarlik alohida mavqega ega. Xususan, quyidagi ruboiy yuqoridagi fikrlarimizning amaliy isoti desak noto'g'ri bo'lmaydi:

Masjidqa necha ahli riyodek yetayin,

² O'sha manba.

Yo rind kibi azimati dayr etayin,
Maqsud topilsa yaxshi, yo'qsa netayin,
Boshimni olib qay sori emdi ketayin?³

Ruboiyning 1-misrasiga diqqat qaratadigan bo'lsak, Navoiy bu o'rinda o'zini huddi masjidga borayotgan riyokorga qiyoslamoqda. Ahli riyo bu – riyokorlar, ya'ni ikkiyuzlamachilardir, masjid esa Allohning uyi. U yerga bu dunyoning tashvishlarini ko'tarib, havaslarga berilib emas, dilni Yaratganga topshirgan holda pok niyat ila bormoq kerak. Komillik g'oyalarini ilgari surgan Navoiy uchun bu misralarni kamtarlik o'rnida qabul qilmoq o'rindir.

2-misrada esa lirik qahramon yuqoridagi mazmunni davom ettirgan holda "yoki bir beg'am, beparvolardek bu dunyoni tark etsammi?" deya o'kinadi. Bu yerda "beg'am" kim? U – dunyoning yaxshi-yu yomonliklariga beparvo odamdir. Shu o'rinda aytish kerakki, 1-misradagi "ahli riyodek" va "rind kabi" so'zlari orqali tanosub she'riy san'atlari yuzaga kelganligi har ikki misrani shaklan va mazmunan birdek bog'lagan.

3 va 4-misrada shoir "maqsadim, niyatim aniq bo'lsa, topilsa edi. Ammo unday bo'lmasa nima qilaman? Endi boshimni olib qaysi tomonga borishim mumkin?" deya afsus chekadi. Inson hayotga keldimi, albatta, oldiga maqsad qo'ymog'i, nimagadir intilib yashamog'i va o'zidan yaxshilik-u yaxshi nom qoldirmog'i lozim. Aks holda, dunyoga kelishdan, yashashdan maqsad nima? Axir bu Yaratganning eng oliy yaratig'i bo'lgan Inson uchun xos emas.

Navoiy ruboiylarida soqiy, zohid, nosih obrazlariga murojaat ko'p o'rinlarda uchraydi. Xususan, quyidagi ruboiysi ham soqiyga murojaat bilan boshlanadi:

Soqiy, meni xor-xordin ayla xalos,
Gul-gul yuzing och, bahordin ayla xalos.
Yo may ber-u intizordin ayla xalos,
Yo o'lturubon xumordin ayla xalos⁴.

1-misradagi xor-xor so'zi tikan ma'nosida qo'llanilgan bo'lib, bu yerda esa dunyo ramzi sifatida keltirilgan. Ya'ni, shoir "ey soqiy, mening qalbimni ilohiy ishqqa to'ldir va bu tikanlardan (dunyo chigalliklaridan) meni xalos et. Ushbu mazmun 2-misrada ham davom etib boradi. 1-misrada tikan dunyo ramzi bo'lsa, 2-misradagi bahor ham dunyo o'rnida qo'llanilgan va mazmuniy aloqadorlik kasb etmoqda. 3 va 4-misralarda esa qahramon soqiyga qarata: "yoki Allohning ishqini qalbinga jo qilib bu intizorlikdan meni xalos et, yoki jonimni olib bu xumorlik

³ Alisher Navoiy, Xazoyin ul maoniy – Navodir ush shabob, Devon (Nashrga tayyorlovchi: Hamid Sulaymon, Ibrohim Haqqul). – Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011, 740-bet.

⁴ Alisher Navoiy, Xazoyin ul maoniy – Navodir ush shabob, Devon (Nashrga tayyorlovchi: Hamid Sulaymon, Ibrohim Haqqul). – Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011, 732-bet.

(ichkilikdan keyin bo'ladigan bosh og'rig'i, mazkur o'rinda ilohiy ishqdan mastlik va undan keyingi yanada kuchli intizorlik)dan ayla xalos"

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ruboiylarning mazmunan va poetic jihatdan mukammal bo'lishida hamda o'zaro mutanosiblik kasb etishida Navoiy mahorat bilan qo'llagan she'riy san'atlar, mantiqan kuchli qofiyalar shoir ruboiylarining o'qishli, ta'sirli bo'lishiga xizmat qilgan.

**ADABIYOT O`QITISHDA MUSIQADAN FOYDALANISH
(ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
ASARLARINI O`RGANISH MISOLIDA)**

Durdonaxon Dadajonova Botirjon qizi

Namangan Davlat universiteti

*Adabiyotshunoslik yo`nalishi I kurs
magistranti*

Dilnozaxon Dadajonova Botirjon qizi

Filologiya yo`nalishi I kurs talabasi

*Telefon raqami: +998 993976827
+998993936827*

Ilmiy rahbar: Filologiya fanlari nomzodi

Karimov Obidjon Yakubjonovich

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada adabiyot fanini o`qitishda musiqadan foydalanish Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarini o`rgatish mavzusi misolida ochib berilishiga va bu borada bir qancha metodlar ularning yutuqlari, muhim jihatlari yoritilishiga harakat qilingan.*

***Kalit so`zlar.** Adabiyot, musiqa, ritm, "Cho`li-iroq", "Munojot", Navoiy, Bobur, risola, kuy, "Karaoke", "Bu qaysi navo?", metod, o`yin, jonli ijro.*

***Abstract.** In this article, the use of music in the teaching of literature is tried to be revealed on the example of the topic of teaching the works of Alisher Navoi and Zahiriddin Muhammad Babur, and several methods of their achievements and important aspects are highlighted in this regard.*

***Key words.** Literature, music, rhythm, "Cho`li-iraq", "Munojot", Navoi, Babur, treatise, tune, "Karaoke", "Which navo is this?", method, game, live performance .*

Adabiyot va musiqa san'atning qornidan talashib tushgan bolalardir. Barcha zamonlarda ham biz bu ikkisini bir-biriga yondashib kelganligining guvohimiz. Musiqaning mahzani uning so'zlarida bo'lgani kabi, she'rning shakliy asosini ohangdorlik kasb etadi. Ikkovining ham ildizi bir-biriga tutashib ketgan bo'lib, biz buni, ayniqsa, aruz vaznida yozilgan asarlarda ko'rishimiz mumkin. Jumladan, buyuk mutaffakkir Alisher Navoiy, temuriy shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy-musiqiy merosiga nazar tashlasak, ular yozgan misralar o`z zamonasidan tortib hozirgi kungacha necha hofizlar ovozi qo`shiq bo`lib yangramadimi, odamlarning dil va tillariga jo bo`lib ketmadimi? Biz bugun kelajak avlodlarga saboq berar ekanmiz, albatta, ajdodlarimizning ham adabiyot, ham musiqa bilimdonlari bo`lganligini chambarchas holatda tushuntirishimiz kerak.

Dastavval, Navoiy va Bobur ijodini o`quvchiga tanishtish uchun ularning qalbidagi torlarni topib chertishimiz zarur deb hisoblayman. Buning uchun o`quvchini moziy tomon sayohatga chorlab, dars avvalida ming yillardan buyon chalib kelinayotgan "Cho`li-iroq", "Munojot" kabi o`zbek klassik namunalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yana Xondamir, Vosifiy, Bobur kabi mualliflar

tomonidan hazrat Navoiyning musiqadagi ilmiy-amaliy faoliyati, ya'ni risola bitib, o'zi ham ko'pgina kuylar bastalagani, ijrochilik mahorati hamda yosh sozandalarga murabbiy-ustoz bo'lgani, biroq ular ichida Alisher Navoiy bastalagan kuylardan hech birining nomi maxsus qayd etilmagani haqidagi ma'lumotlarni keltirib o'tishimiz joiz¹. Xususan Xondamirning "Xulosat ul-axbor" asarida "Oliyhazrat amir Alisher musiqa ilmida ham shu qadar mahorat hosil qilgan edilarki, agar Muallimi soniy Abu Nasr Farobiy hayot bo'lganlarida Navoiyga shogirdlik sirg'asini qulog'iga taqib olardi. Ular qonun² va udda³ zo'r ta'lim olgandilar"⁴ degan jummalari yuqoridagi fikrlarning isbotidir. Yoki tabiatan ijodkor Boburning musiqa ilmiga oid risolalar yozgani, bu haqida "Boburnoma" da aytib o'tilgani⁵, Bobur hayotining ayrim bosqichlariga bag'ishlangan, Primqul Qodirov tomonidan yozilgan "Yulduzli tunlar" asarida ham uning qalamiga mansub g'azallar ashulachilar tomonidan arboblarning bazmida kuylanganligi, "Chorgoh savti"⁶ deb atalgan kuyni o'zi bastalagani, farzandlari ham otasining ijodidan ibrat olishga havasi zo'rliigi to'g'risidagi manbalarni o'quvchilarga aytib o'tish darkor.

Mumtoz adabiyot vakillarining qo'shiq ilmiga qo'shgan hissalarini ko'zdan kechira turib, ularning ijod namunalarida aks etgan musiqa elementlarini o'quvchilarga chuqurroq o'rgatishimiz lozim. Chunki bu bir tomonlama o'quvchilarning qiziqishi yanada ortishiga xizmat qilsa, bir tomonlama lirik o'tmish durdonlarining o'rganuvchilar xotirasida tez va oson yod bo'lib qolishiga xizmat qiladi. Masalan, Navoiyning kuyga solingan "Qoshi yosinmu deyin" nomli g'azalida musiqaning asosiy unsurlaridan bo'lgan so'zlarda ritmlarning uyg'unlashuvi⁷ va kishilar yodida oson o'rnashishiga xizmat qiluvchi takroriy so'zlardan foydalanish usuli yaqqol ko'zga tashlanadi.

Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin,

Ko'ngluma har birining dard-u balosinmu deyin?

Ko'zi qahrinmu deyin, kirpiki zahrinmu deyin,

Bu kudurat aro ruxsori safosinmu deyin?⁸

Shoir go'yo she'rni qo'shiq qilib aytilishi uchun yozganday. Aynan aruz vaznining o'zi ham hijolarda ma'lum bir musiqiylik kasb etib, yaratilgan asarni uning

¹ Ziyoz.uz.com

² O'rta va Yaqin Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan torlitirnama cholg'u asbobi.

³ Arab, turk, Kavkaz va Markaziy Osiyo xalqlarida keng tarqagan noksimon torlimezrobli cholg'u asbobi.

⁴ Ismoil Bekjonov "Navoiy bastalagan kuy" maqolasi, "Ma'rifat" gazetasidan olindi.

⁵ Munisa Uzaqova "Alisher Navoiy va Boburning musiqaga oid qarashlari" maqolasi, Central Asian Academic Journal of Scientific Researchdan olindi.

⁶ Primqul Qodirov "Yulduzli tunlar" – "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti, Toshkent – 2018:232-233-betlar.

⁷ Gavhar Amanbayevna, Urmanova Lola "Musiqqa elementlar nazariyasi" – O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent – 2017:32-33-betlar.

⁸ <https://tafakkur.net/qoshi-yosinmu-deyin/alisher-navoiy.uz>

vaznida kuylash talab etiladi. Darsda ushbu g`azalning ichki ma`nolar olamiga sho`ng`ish uchun nafaqat zamonaviy texnik jihozlardan, balki jonli ijrodan ham foydalansa bo`ladi. Bunda o`quvchilarning tashabbuskorligi, ochilmagan iqtidorlari namoyon bo`lib, jarayonni maroqli tashkil etilishiga yordam beradi. Yana bir misol, Boburning qo`shiqqa aylangan "Mushkuldur" radifli g`azalidir. Unda shoir tinglovchilar ishtiyoqini qo`zg`atuvchi, ularning qalblarini junbushga keltirib, ichki kechinmalarini qitiqlovchi so`z, ibora va jummalarni topib yoza olgan. Bu ham musiqa ilmiga qo`yiladigan talablardan biridir.

Agarchi sensizin sabr aylamak, ey yor, mushkuldur,
Sening birla chiqishmoqlik dag'i bisyor mushkuldur.
Mizojing nozik-u sen tund, men bir beadab telba,
Sanga holimni qilmoq, ey pari, izhor mushkuldur.⁹

O`quvchilarning ongi va qalbiga ularning quloqlari orqali mavzuning dolzarbligini yetkazishdan tashqari dars jarayonida turli xil ko`ngilochar, noan'anaviy metodlarni qo`llash ham mumkin. "Karoke", "Bu qaysi navo?" kabi o`yinlar shu turga mansubdir. Ushbu qiziqarli o`yinlar davomida o`quvchilarning faollik darajasi oshishi, mavzuga kirishib ketishning tezlashishi, guruh bo`lib ishlashning osonlashishi kabilar kuzatiladi va bular orqali o`qituvchi ko`zlangan maqsadga qiyinchiliklarsiz erisha oladi. Yuqorida sanalgan metodlardan foydalanish uchun maqomchilik va zamonaviy-estrada yo`nalishlarida kuylangan Navoiy va Boburning nazmiy asarlariga murojaat qilinadi:

Xating aro uzoring– sabza ichinda lola,
Ul chashmi purxumoring loladagi g`azola.
Barcha parilar, ey jon, girdingda zor-u hayron,
Go'yo erur namoyon oy tegrasida hola.

Keltursa yuz baloni o'shal bevafo manga,
Kelsun agar yuzumni evursam, balo manga.
Netgayman ul rafiq bilakim, qilur base,
Mehr-u vafo raqibg'a, jabr-u jafo manga.

Bunda shartni bajarayotgan o`quvchilar o`sha mashhur shohbaytlarni taronaning ilk sadolaridan topib olishlari turgan gap. Natijada esa, ular adabiyot va musiqani bog`liq tarzda o`rganish, shu bilan birga, zehnni charxlash, fikrlashda tezlik ko`rsatgichini oshirish imkoniyatlarini qo`lga kiritishadi.

⁹ <https://tafakkur.net/mushkuldur-radifli-gazal/zahiriddin-muhammad-bobur.uz> keyingi keltirilgan misralar ham ushbu linkdan olingan.

Adabiyot fanidan saboq berishda musiqa ta'limidan foydalanish muvaffaqiyatli fanlararo integratsiyalashuvni amalga oshishiga, o'quvchilarning adabiy-estetik tafakkurini o'stirishga, zamonaviy pedagogik texnologiyalar foydalanish kabilarga keng yo'l ochadi. Shu qatorda pedagoglarni adabiy ta'limga yangicha yondashishga undaydi. Qolaversa, mumtoz adabiyot namunalarini o'rgatishda keng qamrovli manba vazifasini o'tay olgani bilan ham samaralidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. To'xta Boboyev "Adabiyotshunoslik asoslari" – Toshkent "O'zbekiston" – 2022;
2. Karimov Saxobjon "Musiqa darslarini adabiyot darslari bilan bog'liqlikda tashkil etishning o'ziga xos yo'llari" maqolasi – ziyo.uz.com;
3. Ismoil Bekjonov "Navoiy bastalagan kuy" maqolasi – "Ma'rifat" gazetasi;
4. Munisa Uzaqova "Alisher Navoiy va Boburning musiqaga oid qarashlari" maqolasi – Central Asian Academic Journal of Scientific;
5. Pirimqul Qodirov "Yulduzli tunlar" – "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti, Toshkent – 2018;
6. Gavhar Amanbayevna, Urmanova Lola "Musiqa elementlar nazariyasi" – O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent – 2017;
7. <https://tafakkur.net/qoshi-yosinmu-deyin/alisher-navoiy.uz>;
8. <https://tafakkur.net/mushkuldur-radifli-gazal/zahiriddin-muhammad-bobur.uz>.

**“MAVLUDI SHARIF”DA PAYG'AMBAR MUHAMMAD (S.A.V.)
MO'JIZALARINING BAYON ETILISHI**

Muxitdinova Gulbahor Rustamdjanovna,
Namangan davlat universiteti stajor o'qituvchisi
[Tel:90-279-73-79](tel:90-279-73-79)
[Telegram:91-342-45-31](https://t.me/913424531)

***Annotatsiya:** maqolada namanganlik shoir Mulla Yo'ldosh Xilvatiyning “Mavludi sharif” asarida hazrati Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) hayotlaridan hikoya qiluvchi ajoyib mo'jizalar haqidagi mulohazalar ifodalangan. Mazkur mo'jizalar qatorida “Mavlud” va “Me'roj” kechalarida yuz bergan voqealar ham tasvirlangan.*

***Kalit so'zlar:** Mo'jiza, payg'ambar, alam, ikki olam sarvari, mavlud, me'roj, islom, Jabroil, Buroq.*

***Аннотация:** в статье говорится о том, как в произведении наманганского поэта Муллы Юлдаша Хилвати «Мавлюди Шариф» выражаются мысли о чудесных чудесах, повествующих о жизни Пророка Мухаммада (мир ему и благословение Аллаха). Среди этих чудес описаны также события, произошедшие в ночи «Мавлюд» и «Мирадж».*

***Ключевые слова:** Чудо, пророк, флаг, правитель двух миров, рождение, мирадж, ислам, Габриил, Бурак.*

***Annotation:** the article talks about how the work of the Namangan poet Mulla Yuldash Khilvati “Mavludi Sharif” expresses thoughts about the wonderful miracles telling about the life of the Prophet Muhammad (peace and blessings of Allah be upon him). Among these miracles, the events that occurred on the nights of Mavlyud and Miraj are also described.*

***Key words:** Miracle, prophet, flag, ruler of two worlds, birth, mirage, Islam, Gabriel, Burak.*

“Mo'jiza” so'zi lug'atda “ojiz qoldiruvchi” degan ma'noni anglatadi. Ya'ni mo'jizani boshqalar qilishdan ojiz qolishadi. Bundan tushuniladiki, Allohning izniga ko'ra anbiyolarga, ya'ni payg'ambarlarga ularning payg'ambarligini tasdiqlash uchun berilgan, boshqalarning qo'lidan kelmaydigan g'ayritabiiy – odatdan tashqari ish mo'jiza hisoblanadi. Tarixdan ma'lumki, kofirlar, odatda, payg'ambarlarni inkor qilish bilan birga doimo o'z noma'qulchiliklarini haspo'shlash maqsadida turli bahona, takliflar qilib, mo'jiza ko'rsatishni talab qilishgan. Avvalgi o'tgan barcha payg'ambarlarga xuddi shunday takliflar qilingan. Alloh payg'ambarlarning haqligini tasdiqlash, kofirlarni ojiz qoldirish, mo'minlarning iymonini mustahkamlash uchun payg'ambarlarga o'z zamonasi va qavmiga mos mo'jizalar bergan: [Shayx M. Muhammad Yusuf. 6:1]. Boshqacha aytganda inson zotining qo'lidan kelmaydigan noodatiy, g'ayritabiiy hodisalar, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan voqealar mo'jiza sifatida tan olinadi va kishilarni hayratga solib, o'ziga jalb etadi.

Namanganlik shoir Mulla Yo'ldosh Xilvatiyning “Mavludi sharif” asarida islom dini payg'ambari Muhammad (s.a.v.) ga xos bo'lgan mo'jizalar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Mo'jizalarning avvali mavlud kechasida, ya'ni payg'ambar Muhammad (s.a.v.) tug'ilgan kechalarida sodir bo'ladi. Isro va Me'roj kechalarida sodir bo'lgan

voqealar ham g'ayritabiiy hodisalar bo'lib, mazkur kitobda chinakam mo'jiza sifatida talqin qilinadi. Asarda yozilishicha, Muhammadning onasi Omina farzand dunyoga keltirayotgan paytda tug'ilajak go'dak ikki olam sarvari bo'lishini, shu damda butun jahon ravshan bo'lib yorishib ketishini aytadi. Bu kechada Omina yotgan uyning tomiga bir qush uchib qo'nganligi, g'aybdan bir toifa ayollar paydo bo'lib, yordamga oshiqqanliklari bayon etiladi. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) ni dunyoga keltirgan ulug' zotga, ya'ni Omina onamizga ehtirom ko'rsatilib, sharbat tutilganligi, u kishiga doyalik qilishda nafaqat cho'ri bilan doya, balki boshqa notanish ayollar ham yordamga kelganligi tasvirlanadi. Ikki olam sarvari (s.a.v.) tug'ilajak paytda bu ayollar Omina onamiz atrofida parvona bo'lganliklari, shunday muborak kunda yolg'iz qo'ymay, ehtirom ko'rsatganliklari bayon qilinadi. Bu payt hech bir og'riq yoki biror dard bo'lmaganligi, Omina onamiz farzand dunyoga keltirayotgan chog'larida na bir horg'inlik, holsizlik yoki xastalikni sezmaganliklari aytiladi. Barchasi og'riqsiz, bir ajoyib hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Osmoni falakka oppoq parda tortiladi. Bu harir parda osmon qadar katta va keng edi. Bir to'da qushlar paydo bo'lib, go'dakni insu jonlar ko'rmasliklari uchun panoh bo'ladilar. Ko'kdan bir qizil yoqut rangli par uchib keladi. Bu paytda Rumu Chin, sharqdan g'arbga qadar nur taralib, jilva qiladi, bu jilvadan ko'zlar qamashadi. Nogahon shu joyda uch alam, ya'ni bayroq paydo bo'ladi. Birini mashriqqa, ikkinchisini mag'ribga, uchinchisini chaqaloq dunyoga kelgan haram tomiga tikadilar. Go'dak dunyoga kelishi bilanoq bir parcha bulut paydo bo'lib, chaqaloqni ko'tarib, ko'zdan g'oyib bo'ladi. Omina jon holatda bolani olib qolish uchun yig'lab dod soladilar, lekin onaning qulog'iga bir nido keladikim, u kishining g'am-g'ussaga botishlariga hojat yo'qligini, jigarbandining shaklu husnini jumla jahonga tabarruk qilib ko'rsatish maqsadida olib ketilganligini, bir zumda izlariga qaytishini xabar qilishadi. Oq harirga o'ralgan go'dak qaytib olib kelinadi. Endi katta bir bulut paydo bo'lib, undan odamlar nidosi, hayvonlar sadosi eshitiladi. Ular bu chaqaloqqa Alloh taolo Odamning sifatini, Nuhning riqqatini, Ibrohimning xil'atini, Zabihullohning lisonini, Yusufning husnini, Dovudning savtini, Masihning ehsonini, xullas, jami payg'ambarlarning sifatlarini jam etganligini aytadilar. Bulut qanday tez paydo bo'lgan bo'lsa, shu tariqa ko'zdan g'oyib bo'ladi. Bu kechada bir ayol uyqusi kelmay bedor o'tirgan bo'ladi. Osmon birdaniga yorishib, ravshanlashib ketganligini, hatto yulduzlar yerga yaqinlashib, zaminni o'pganligini o'z ko'zlari bilan ko'rib, hayratdan yoqa ushlab qoladi. Boshqa bir ayol o'sha kecha Ominaning xizmatida bo'lganligini, shu'ladan ko'zlari qamashib ketganligini, turli alomatlarini ko'rganligini bayon qiladi. Ya'ni birinchisi Xudodan bir nido eshilib, "La ilaha illalloh, man Rasulullohman" degan ovoz keladi. Ikkinchisi bir pokiza nur paydo bo'ladi. Tug'ilgan chaqaloq o'g'ilmi yo qizligini ko'raman desa, xatna qilingan holda o'g'il tug'ilganligini, pardaga olgan chog'da uning yelkasiga ko'zi tushib, yelkasidagi

nubuvvat muhrini ko'rib, yuzi munavvar bo'lganligini bayon qiladi. Xuddi shu kechada Abdulmuttalib (bobosi) Ka'ba atrofida toqatsizlanib kezib yurardi, tinmay Allohga tavof qilardi. Birdaniga Ka'badan ovoz eshitiladi va Omina o'g'il farzand ko'rganligi haqida xabar keladi. Ka'badagi barcha butlar yiqilib, chilparchin bo'ladi. Qariya kelinidan xabar olgani haramga boradi. Omina uni qarshi olib, Muhammad tug'ilganligini aytadi. Abdulmuttalib chaqaloqni ko'rish uchun oshiqadi. Ammo Omina uch kunga qadar bolani hech kimga ko'rsatish mumkinmasligi amr qilinganligini aytadi. Ominaning bu so'zlaridan achchiqlangan qariya qo'lga shamshir olgancha ichkariga yuguradi. Biroq bir kishini ko'radiki, u to maloiklar chaqaloqni tavof qilmagunlariga qadar odam zotiga ko'rsatib bo'lmasligini aytib, yo'lini to'sadi. Tig' ko'targancha tashqariga otilgan qariya quraysh qabilasiga xushxabarni yetkazish ilinjida og'iz juftlaganida zaboni gung bo'lib qolganligini, yetti kungacha gapirolmaganligi voqeasi keltiriladi. Mazkur muborak kechada yana shunday mo'jizalar sodir bo'ladiki, No'shiravonning ziynatlangan ayvoni qulab tushadi. Siymu zardan barpo qilingan bu imoratni podshoh juda qadrlar edi. Yuz ming yil tursa ham zarar yetmaydigan bu bino o'sha kechasi qulaydi, otashparastlarning ming yildan buyon yonib kelgan shu'lasi o'chib, kul bo'ladi. Soda daryosi mavj urib oqardi, u ham o'sha kechada yer qa'riga singib, yo'q bo'lib ketadi. Mo'jizalarning yana davomi bordurkim, o'sha mavlud kechasida jannatdagi barcha huru g'ilmonlar toqatsizlanadi. Chinakam to'y boshlanib, farishtalar ziynatlanadilar. Do'zax ahliga ehsonlar qiladilar. O'sha kecha do'zax ahliga hech bir aziyat yetkazilmaydi, azoblarning bari to'xtatiladi. Bu kecha shunday bir ajib kecha bo'ladiki, jannat ahli bundan rohatlanadilar. Xilvatiy "Mavludi sharif" da Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) ning mo'jizalari bayoniga to'xtalib o'tarkan, shunday deydi: Agar siz o'sha dildor (Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) ga ummat bo'lsangiz, Haq(Alloh)ning habibi(suyuklisi), chehrasi gulzorning oshig'i bo'lsangiz, ul zotning mo'jizalariga e'tibor bering, aql-hushingiz bilan fahmlang. Hayyu qadim, ya'ni Alloh taolo unga shuncha izzat-ikrom, mo'jizotlarni in'om etdi. [Xilvatiy M. 1:86]. Muhammad Mustafo (s.a.v.) shu qadar qudratli va sevikli ediki, u Alloh uchun maxsus edi, ya'ni unga hech bir payg'ambarga berilmagan mo'jizalar, sifatlar berildi. Mo'jizalarning avvali shuki, ul zoti sharifning tanlari, vujudlari, muborak jismlari nurdan yaratilgan. Yana biri yerga soyalarining tushmasligi edi. Odatda tabiatan odamning soyasi yurganda ham, turganda ham uning ortidan ergashib yuradi. Soya degan narsa zulmatda, ya'ni qorong'i joyda ko'rinadi. Shunday ekan, nurdan yaratilgan odamda soya nima qilsin? Bu muborak nur ul zot qaerga borsalar, boshlarida turadi, hamisha qoshlarida zohir bo'ladi. U kishining ko'zlari shunday mo'jizakor ediki, ular orqalarida turgan kishini ham ko'rardilar, oshkoru-pinhon narsalarni ham yaqqol ko'ra olardilar. Quloqlaridagi mo'jiza shundan iborat ediki,

hamma odamlar yaqinidagini eshitsu, ul zoti sharif uzoqdagi ovozni ham yaqqol eshitardilar. Lablari ham doim takallumda edi. Ul zotning mehrlari shu qadar kuchli va ko'p ediki, butun koinotda, falakda mehr qasri paydo bo'lgandi. Tishlari durdek oppoq va tiniq ediki, kechasi tishlarini ko'rsatsalar, ya'ni kulib, tabassum qilsalar, xuddi kunduzidek butun jahon ravshan bo'lib yorishib ketardi. Nubuvvat, ya'ni payg'ambarlik muhri ularning ko'rklariga ko'rk qo'shib turardi. Tun aro ravshan bo'lib, yaraqlab, nur sochib turardi. Zulfiga, ya'ni sochlariga shamol tegadigan bo'lsa, havo mushku anbarga to'lib ketardi. Agar terlari yerga dona-dona bo'lib to'kilgudek bo'lsa, har bir tomchisi gulga aylanardi. Agar zarracha tuproq sochilsa, risolat gavhariga aylanardi. Shu zamon barcha nobino bo'lardi, ya'ni yo'q bo'lardi. Agar Haqning mahbubi (Allohning suyuqlisi) barmoqlari bilan ishora qilsalar, qamar, ya'ni oy shu vaqtning o'zida ul zotga bo'ysunardi. Xilvatiy bu misrada "Shaqqi qamar" voqeasiga ishora qiladi. Manbalarning ko'pchiligida bu voqea betakror mo'jiza sifatida talqin etiladi. Faxri Koinot Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) mingga yaqin mo'jiza ko'rsatganlar. Ular insoniyat olamining oylari va yulduzlari bo'lib porlagan sahobalarning shunday ko'z o'ngida sodir etilgan va yolg'onchilikdan hazar etguvchi bu nuroniy jamoat ular haqida butun ikir-chikirlarigacha kelgusi nasllarga yetkazgan. Shunday sahobalar tilidan bizgacha yetib kelgan hadis va mo'jizalar bugun zamonaviy ilm tomonidan ham birma-bir tasdiqlanmoqda. Islom manbalarida "Shaqqi qamar" yoxud "Inshiqoqi qamar" deya ifodalangan "Oyning ikkiga bo'linishi" mo'jizasi ham shulardan biridir. Shaqqi qamar mo'jizasi Sarvari Olam (s.a.v.) payg'ambarlik bilan vazifalantirilganlaridan so'ng voqe' bo'ldi. Quraysh qabilasining peshvolaridan bir guruh mushriklar Allohning rasulidan payg'ambarligini isbotlaydigan bir mo'jiza ko'rsatishlarini so'rashga kelishib olishadi. Ular bir joyga to'planib, Rasuli akramni kutishadi. Kechaning ilk soatlarida Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) porlab turgan oyning yorug'i ostida Hazrati Ali, Huzayfa ibn Yamon, Abdulloh ibn Mas'ud, Anas ibn Molik, Abdulloh ibn Abbos, Jubayr ibn Mut'im va Abdulloh ibn Umar (r.a.) kabi sahobalar davrasida suhbat qurib o'tirar edilar. Mushriklar nurli halqa atrofini o'rab olib, Payg'ambardan mo'jiza ko'rsatishlarini so'raydilar va qayta-qayta talab etadilar. Nihoyat, Faxri Koinot (s.a.v.) o'rinlaridan turib, muborak qo'llarini osmonda nur sochib turgan oyga qaratdilar. Yaratilganidan beri vazifasidan bir soniya ham adashmagan oy koinotning yaratilishiga sabab bo'lgan u Zotning (s.a.v.) bir ishoratlari bilan shu zahoti qoq ikkiga bo'lindi. Mino tog'i oyning ikki parchasi o'rtasida qolib, muhtasham bir manzara yuzaga keldi.

Sarvari Koinot (s.a.v.) atroflaridagi sahobalariga "Shohid bo'linglar! Shohid bo'linglar!" deya takrorlar ekanlar, Quraysh kofirlari hayronlik bilan bir-biriga qarar, "Muhammad bizni sehrlab qo'ydi", der edi. Mushriklardan biri: "Muhammad (s.a.v.)

bizni sehrlab qo'ydi, xolos. U ko'zimizga oyni ikki parcha qilib ko'rsatdi. Bu hodisani atrofdan kelayotgan qabila va karvonlardan so'rash kerak", - dedi. Tabiiyki, bu taklif boshqalarga ham ma'qul bo'ldi. Ertasi kuni ertalab Yaman va boshqa taraflardan kelgan karvonlarga savollar yomg'irdek yog'ildi. Karvonlar asosan kechalari yo'l yurgani uchun Oyning ikkiga bo'linganiga ular ham guvoh bo'lgan edi. Qaysar mushriklar esa: "Abu Tolibning asrandisi ko'rsatgan sehr samoga ham ta'sirini o'tkazdi", deya gap tarqatishdi. Sayyidul Basharning (s.a.v.) yonlarida hozir bo'lishlariga qaramay, bu mo'jizani ko'rgan boshqa mushriklar kabi, kufrlarida sobit qoldilar. Shu asnoda Allohning kalomi nozil bo'ldi:

"(Qiyomat) soati yaqinlashib qoldi va Oy ham bo'lindi. Agar ular (Quraysh kofirlari Muhammad alayhissalomning haq Payg'ambar ekanliklariga dalolat qiladigan) biron oyat-mo'jiza ko'rsalar (ham, u Payg'ambarga iymon keltirish o'rniga) yuz o'girurlar va "(Bu) har doimgi sehr-ku!" derlar. Ular (Payg'ambarni) yolg'onchi qilib, havoyi nafslariga ergashdilar. Har bir ish o'z joyini topguvchidir (ya'ni, garchi kofirlar yuz o'girsalar-da, bu haqhdin Yer yuzida qaror topur)" [Shayx A.Mansur. 6:54].

Asarda payg'ambar Muhammad (s.a.v.) ning barcha mo'jizalari bayon etilgan bo'lib, ul zotning yuzlaridagi betakror, hech bir payg'ambarda uchramaydigan nurlari, muattar mushk-anbarlari, ya'ni yoqimli hidlari, orqani ham ko'radigan o'tkir ko'zlari, uzoq masofani ham eshitadigan quloqlari, durga o'xshagan tishlari, sertakallum lablari, soyasiz tanalari, gulga aylanadigan terlari, payg'ambarlik muhrlari, mehrga to'la qalblari, xullas, bu dunyoda biror inson zotiga xos bo'lmagan, hech bir payg'ambarda uchramaydigan go'zal bir qiyofalari haqida ma'lumotlar berilgan. Alloh taolo u kishini shunday betakror, shunday mukammal qilib yaratganligi shoir talqinida go'zal misralar bilan tasvirlangan.

Mulla Yo'ldosh Xilvatiyning mahorati shunda ko'rinadiki, uning tilidan bayon etilgan barcha mo'jizalar o'quvchining qalbiga mayin qo'shiq kabi singib boradi, o'ziga xos tarzda keltirilgan voqealar bayoni kishini o'yga toldiradi. Manbalarning aksariyatida inson ko'zi ko'rib, qulog'i eshitmagan ajabtovur voqea-hodisalar keltiriladiki, hayratdan yoqa ushlaysiz. Bunday voqealar chindan ham haqiqiy mo'jiza sifatida talqin qilinadi. Jumladan, "Me'roj kechasi" voqeasi ham aynan shunday mo'jizotlar sirasiga kiradi. Xilvatiy bu voqeani asarda alohida keltirar ekan, unga "Muhammad (s.a.v.) ning me'rojlarini bayoni" deya nom beradi. Kitob oxirida 92-betdan to 109-betgacha shu voqea bayoni keltirilgan bo'lib, shoir bu haqda batafsil ma'lumot beradi. Diniy manbalarda keltirilishicha, Ummu Honiy Rasuli akramning amakilarining qizi bo'lib, me'roj kechasida shu uyda mehmonda bo'lganlar. Xilvatiy bu voqea bayonida Muhammad alayhissalomga nisbatan juda go'zal tashbehlar qo'llaydi. "Rahmat gulistonining xushgo'y bulbuli", "rahmat bog'ining gul navrastasi,

guldestasi", "anbiyolar, ya'ni payg'ambarlarning toji", "izzat charxining nurli oyi" kabi nomlar bilan ataydi.

Ma'lumki, Muhammad alayhissalomga barcha xabar va mujdalar buyuk farishta Jabroil alayhissalom orqali yetkaziladi. Xuddi shu kechada ham Yaratgan Jabroilga jannatga borishni, u yerdan Buroqni topishni amr qiladi. Jannatdan Buroqni topgach, Habibi, ya'ni Muhammad alayhissalom yoniga borishni, ul zoti sharifga Arshi a'loga ko'tarilib, sayr qilish buyurilganligini yetkazishni aytadi. Shoir talqinicha, Yaratgan Jabroilga amr qilarkan, Habibi Arshi a'loga ko'tarilishini, u yerni sayr qilib, Allohga barcha arzlarini aytishini, eng asosiysi, Allohning visoliga yetishini, uning jamolini ko'rishga muyassar bo'lishini aytadi. Shu on hazrati Jabroil alayhissalom jannati Naimga yo'l oladi va Alloh buyurgan Buroqni topishga kirishadi. Jannati Naim ham juda go'zal, yashillikka burkangan, keng va mo'l sabzazordan iborat bir go'zal makon. Jabroil alayhissalom bu yerga qadam qo'ygani hamon yuz minglab Buroqlarning o'tlab yurganini ko'radi. Jannat shunday bir ajoyib joy ekanki, u yerda hamma jonzotlar baxtdan masrur, shod-xurram o'tlab yurardilar. Biroq shunday go'zal maskanda yuzlari g'amgin, ko'zlari mungli bir Buroq bor ekanki, u boshqalarga o'xshab barra o'tlarni yemas, miriqib o'ynamas, mazali suvlardan ichmas, hech bir narsaga mayl qilmay, betoqat bo'lgancha har yon boqardi. Bu jonzotga qaragan zahoti Jabroilning hayrati oshdi, uning tang ahvolidan taajjublanib, buning boisini so'radi. Nima sababdan barcha sheriklari qatori o'tlar yeb, suvlar ichmasligini, nega bundayin zor, notavon, xasta ekanligini bilgisi keldi. Shu on bezabon jonzotga, ya'ni Buroqqa zabon bitdi, u insonlar tilida ravon so'zlay boshladi. Ikki ko'zidagi yoshlarini artib, dardini dasturxon qildi. Maloiklar sarvarining savoliga javoban qirq ming yildan beri shunday ahvolda yashab kelayotganligini, buning boisi g'oyibdan Xudoning "Yo Muhammad!" degan nidosini eshitib qolganligini, eshitgani hamono o'shal muborak zoti sharif kim ekanligini bilolmay armonda ekanligini, bu pok nom qulog'iga chalingandan buyon bag'ri chok bo'lganligini, uning ishq bilan yonganligini, bu otash kuchliligidan yoshlari qon bo'lganligini, Jayhun daryosi kabi oqqanligini, o'sha zamondan beri o'voraliy, shu pok nom sohibini axtarib, azob chekayotganligini nola qildi.

Xilvatiy bayoni shunday aniq, ravon ifodalanadiki, o'qigan yoki eshitgan kishi unga sehrlanganday bog'lanib qoladi. Ayniqsa, bu afsonaviy voqea afsonaviy qahramonlar tilidan aytilgan go'zal iboralar o'quvchini o'ziga mahliyo qiladi. Shoir bu voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rmagan bo'lsada, juda batafsil yoritib, voqealar rivojini qiziqarli tarzda ifodalaydi. Jabroil alayhissalomning savoliga javoban Buroq tomonidan aytilgan gaplar ham shu tariqa ajoyib tarzda ifodalangan. Buroq zohiran behisht, ya'ni jannatda yashasada, botinan do'zax o'tida yonayotganligini, bu alanga, shiddatli otash uni kul qilib kuydirayotganligini, agar shu pok nom sohibining

visoliga yetmasa, jannat o'tlari unga harom ekanligini, yashashdan maqsadi faqatgina Muhammad (s.a.v.) ning muborak qiyofalarini ko'rish ekanligini yig'lab aytadi.

Xilvatiy jannatda oqadigan "Salsabil", "Kavsar" suvlari haqida ma'lumotlar berar ekan, Buroqning mana shunday ilohiy bir muborak suvlardanda voz kechganligini e'tirof etadi. Jabroil bilan Buroqning suhbatini yakunida shu ma'lum bo'ladiki, Xudo qirq ming yil avval aytgan o'sha go'zal ism sohibi Muhammad (s.a.v.) ning jamolini ko'rishdek buyuk bir baxt shuncha o'tlab yurgan yuz ming Buroqlar orasidan faqat ungagina nasib etganligini, Allohning amri bilan uzoq yillardan beri armon bo'lib kelayotgan go'zal voqea sodir bo'lishini, Buroq bu tunda ul muborak zotni ko'rish baxtiga muyassar bo'libgina qolmay, nainki visolini ko'rish, balki qizil yoqut la'l bilan bezatilgan egarni egarlab, o'ziga mindirgan holda Allohning Habibi bilan butun koinotni, Arshi a'loni sayr qilishi buyurilganligini aytib, suyunchi oladi. Jabroil Buroqni egarlab to'g'ri Ummu Honiyning uyi tomon uchadi. Yetib borgach, ichkariga kirish uchun izn so'raydi. Muhammad alayhissalom bilan ko'rishgach, Haqning salomini va amrini yetkazib, bu kecha Arshi a'loga ko'tarilib, yetti osmonni sayr qilish buyurilganligini, Alloh o'zining sevikli payg'ambari Muhammad alayhissalomni ko'rish niyatida ekanligini aytadi. Asarda Rizvon, Behisht kabi jannat nomlari keltirilarkan, shoir Muhammad alayhissalom qadamlari yetgach bu jannatlar yanada ko'rkamlashishini, undagi barcha huru-g'ilmonlar ul zotning xoki poylarini ko'zlariga surma qilib, to'tiyo qilish orzusida ekanliklarini ifodalaydi. Allohning vasliga yetish haqida ko'p diniy, tarixiy manbalarda turlicha fikrlar, mulohazalar keltiriladi. Xilvatiy qarashlari bu borada biroz boshqacharoq. U Allohni boshqalar qatori "yor" deb emas, balki "do'st" deb ataydi. Uning fikricha, Muhammad alayhissalom bilan Alloh do'st, ular orasida mustahkam do'stlik aloqalari o'rnatilgan bo'lib, ul zot osmonga ko'tarilgan chog'da, ya'ni me'rojda o'zining qiyomatli do'stini ko'rish baxtiga musharraf bo'ladi. Xilvatiy ta'rifi bilan aytganda, bu kecha shunday bir muqaddas kecha ediki, butun Arshi a'loda jonlanish boshlanadi, ya'ni hamma harakatga tushib qoladi. Sakkiz jannat ahli Alloh taoloning habibini munosib kutib olish taraddudiga tushib qoladilar. Sakkizta jannatning eshiklari lang ochiladi, yo'llariga durlar, javohirlar sochiladi. Ikki jahon shohining tashriflariga muntazir bo'lib, qulluq qilib, ming talakkuf, ta'zimlar ila mulozamat qilgan qarshi oladilar. Yo'lga chiqqanlaridan so'ng eng avvalo Baytul Muqaddasga qadam qo'yadilar. Jabrail masjidi Aqsoga borish lozimligini, Xudoning farmoni shu ekanligini ikki olam sarvariga yetkazdi. Shu tariqa Aqsoga borib, Buroqdan tushdilar. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, bu olamda jami 124 000 payg'ambarlar yashab o'tgan bo'lib, islom dini payg'ambari Muhammad (s.a.v.) ularning eng oxirgisi hisoblanadilar. Shoir me'roj kechasida Masjidul Aqsoga yetganlaridan so'ng shu o'tgan barcha 124 000 payg'ambarlarning ruhlari paydo bo'lganligini, islom dini payg'ambari Rasuli akramni

tavof qilganliklarini, ul zoti sharif masjidida, barcha payg'ambarlar hamrohligida ikki rakat namoz o'qib, o'zlari ularga imomlik qilganliklarini bayon etadi. Ikki rakat namozni ado etib, ibodat qilganlaridan so'ng anbiyolar bilan vidolashdilar va Buroqqa minib, Masjidul Aqsodagi Saxraning ustiga qaror topdilar. Shu yerda ularga nurdan narvon paydo qilindi va Buroq shu nur izidan uchib bordi. Saxra ham ularning ortidan ergashdi, biroq unga "Senga ijizat yo'q" deya javob aytilgach, o'sha yerda muallaq qoldi. Rasuli akram esa Buroqqa mingancha ko'kka parvoz etdilar. Osmonu falakka yo'l olishar ekan, uchchovlarini ham ter qopladi. Rasuli akram ham, ul zotning hamrohlari Jabroil alayhissalom ham, Buroq ham terladilar. Shunda yana bir mo'jiza ro'y berdi. Rasuli akramning muborak terlaridan oq gul, Jabroil alayhissalomnikidan qizil gul, Buroqning teridan esa ko'k gul paydo bo'lib, o'sib chiqdi. Aytishlaricha, bu uch gul ummatlarga yodgor bo'lib qoldi. Shu tariqa uch sayohatchi osmonga yetib keldilar. Charx avvalida Jabrail darbonlarga eshikni ochishni buyurdi. Shu on charx eshiklari ochilib, Muhammad (s.a.v.) ning boshlaridan gavharlar sochildi. Ular takallum bilan "Marhabo yo nuri Haq" deya aziz mehmonni qarshi oldilar. Kitobda keltirilishicha osmondagi farishtalarning barchasi doimo toat-ibodatda bo'ladilar. Mehmon ko'rdiki, biror farishta g'aflatda qolmagan, barchalari boshlarini egib, ba'zilar sajda qilib, boshqalari ruku' qilib, ayrimlari qiyom holatida o'tirardilar. Farishtalarning bir qismi tinmay taqdis va tamjid aytar, qolgan qismi tasbeh bilan tavhid o'qirdilar. Malaklar doimo Haq yodini zikr qilib sahardan to shomga qadar ibodat bilan mashg'ul edilar. Farishtalar Rasuli akramni qarshi olarkanlar "Ayo mahbub zot, Me'rojingiz qutlug' bo'lsin" deya tinmay muborakbod etardilar. Bu muborak kechada Haqning lufu karami kengligini o'z ko'zlari bilan ko'rishlari mumkinligini, har qanday muddaoni aytsalar, bari ro'yobga chiqishini, jami qavmlari mag'firat qilinishini aytib, suyunchi oldilar. Malaklar yana bundayin sharaf hali hech bir payg'ambarga in'om etilmaganligini Habibga bashorat qildilar. Boshqa manbalarda me'roj kechasidagi voqealar, ayniqsa, osmonning har bir qavatida payg'ambarlar bilan uchrashilgani bayon etiladi. Xilvatiyda esa bu biroz boshqacharoq tarzda talqin etiladi. Ya'ni shoir Muhammad alayhissalomning avval birinchi, keyin ikkinchi, so'ng uchinchi, to'rtinchi, xullas, yettinchi qavatgacha ko'tarilganliklarini keltiradi, biroq kimlar bilan uchrashganliklarini yozmaydi. Yettinchi osmonda Arsh, Kursi, Lavh, Qalam (olam yaratilishidan avval yaratilgan muqaddas jismlar) ni ko'radilar. Sidra degan joyga yetganlarida Jabrail bilan Buroq "Bizg'a shudur hukmi Jalil" deya yurishdan to'xtaydilar va Rafrat degan bir jonzot paydo bo'ladi. Bu joyda yetmish ming hijob (parda) ochiladi va na makon, na zamon, na subh, na shom mavjud bo'lmagan, na yurish, na turish, na o'tirish mumkin bo'lmagan bir xilvat joyga yetadilar. Shu joyda Xilvatiy Alloh bilan uning rasuli qay tariqa diydorlashganligini bilmasligini keltirib o'tadi.

Xilvatiy bayon etishicha, uchrashuv chog'ida quyidagi suhbat bo'lib o'tadi. Yaratgan Rasuli akramga qarab shunday deydi: Ey Habib, men senga Qur'on berib, seni ikki olam sarvari etib sayladim, sen menga oshiqsan, men senga lutfu karam qildim. Bu kecha shunday bir kechaki, sening har bir aytgan maqsuding ro'yobga oshadi. Nima talab qilsang, barchasini ato qilaman". Bu cheksiz marhamatdan Muhammad (s.a.v.) juda sevinadilar va shunday javob qiladilar: "Ummatlarim isyonini mag'fur qilsang, ya'ni mag'firat qilsang, ularning barchasini do'zax o'tidan panoq qilishingni so'rayman, mening ummatlarimni jannat ichra doxil qil, ya'ni jannatiylardan qil" deya so'rab, nola qiladilar. [Xilvatiy M. 1:105-106]. Shunda Xudo islom dinining barcha vakillari, Payg'ambar alayhissalomning ummatlari, ya'ni musulmonlarga Dorussalomga kirish tuhfa etilganligini amr qiladi. Muhammad alayhissalom Xudoga ikki hadya keltirganliklarini, ularning biri namoz va toat-ibodatlarini, ikkinchisi esa barcha ummatlarining gunohlari ekanligini, bundan o'zga tortiq qiladigan narsalari yo'qligini aytadilar. Shundan so'ng ularga yerga qaytish amr qilindi va lomakondan Sidraga borib, Ruhul amin va Buroq bilan qayta ko'rishdilar. Ko'z ochib yumgunchalik lahzada Buroq Saxradan uchib o'tib, Ummu Honiy uyiga qaytadi. Ichkariga kirsalar, eshik zanjiri buzilmagan, to'shaklari ham issiq ekan. Sayrdan qaytgan hazrati payg'ambar bir nafasda sodir bo'lgan voqeadan hayratga tushib, ko'zlaridan yosh oqadi. Uyquga yotolmay tong otgunga qadar ibodat qilib chiqadilar. Tong otganidan so'ng sahobalariga kechasi bo'lib o'tgan sirli voqeani so'zlab beradilar. Sahobalar xushnud bo'lib, ularni muborakbod etadilar va Xudoning amrini jon dillari bilan bajarishga shay ekanliklarini aytadilar.

Xulosa qilib aytganda, asarda bayon etilgan mavlud, me'roj kechalariga doir voqealar boshqa diniy manbalarda bo'lgani kabi mo'jizalarga boyligi bilan ahamiyatlidir. Xususan, me'roj kechasida barcha ummatlarga shafolat qilinishi, musulmon ahlining barcha gunohlari mag'firat qilinishi bashorat sifatida keltiriladi. "Mavludi sharif" da ifodalangan barcha mo'jizalar Mulla Yo'ldosh Xilvatiy tomonidan mohirona tasvirlangan. Asarni o'qir ekansiz, ko'z o'ngingizda xuddi o'sha zamon gavdalanganday tuyuladi va har bir mo'jizaga shak-shubhasiz ishonasiz. Biz hayotda islom dini payg'ambari Muhammad (s.a.v.) ni ko'rmagan bo'lsakda, ul zoti sharifni naqadar pok qalbli, toza imonli, mehribon, rahmdil, insonlarga g'amxo'rlik ko'rsatadigan bir muborak zot sifatida qabul qilganmiz. Mulla Yo'ldosh Xilvatiy kabi shoirlarning o'ziga xos, betakror ijod namunalari sabab ana shunday qimmatbaho ma'lumotlar bizga qadar yetib kelgan. Musulmon ahli borki, bunday asarlarni sevib mutolaa qiladi va u kishi bilan bog'liq barcha mo'jizotlarga ishonib, imon keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mulla Yo'ldosh Xilvatiy. Mavludi Sharif –Toshkent: Qamar media, 2021.
2. Navoiy asarlari qomusiy lug'ati. – Toshkent: Sharq, 2016.

3. O. Davlatov. Navoiy she'riyatida Muhammad payg'ambar (sav) siymosi. Toshkent, 2015.
4. Shamoilu mustafo. Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamga xos maqtalgan maqom va shafolat, Islom.uz, 2021.
5. Qomus.Info. Onlayn ensiklopediya. Xilvatiy, 2021
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi-Toshkent: 1-kitob.
7. Qur'oni Karim. Shayx Abdulaziz Mansur. - Toshkent: Sano-standart, 2021.

ЭПИТЕТЫ И ИХ ФУНКЦИИ В ПОЭЗИИ АВАЗА УТАРА

Турумова Т.Х.,
старший преподаватель;

Тангрибергенова Г.А.,
старший преподаватель;

Абдуллаева К.,
студентка 4 курса
Ургенчский государственный
университет (Узбекистан)

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek shoiri Avaz O'tar she'riyatida epitetlar qo'llanilishi masalasi yoritilgan. Jumladan, ularning semantik imkoniyatlari haqida so'z yuritilib, tasnifi keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** epitet, she'riyat, obraz, metaforik epitetlar, tasnif, badiiy san'atlar, epitetlarning funksiyalari.*

***Аннотация.** В данной статье на примере творчества узбекского поэта Аваза Утара рассмотрены особенности употребления эпитетов в его стихах, проанализированы их семантические возможности, их классификация и роль в поэзии.*

***Ключевые слова:** эпитет, поэтика, образ, метафорические эпитеты, классификация, художественные средства, функции эпитетов.*

Annotation. Th

is article, using the example of the work of the Uzbek poet Avaz Utar, examines the features of the use of epithets in his poems, analyzes their semantic capabilities, their classification and role in poetry.

***Keywords:** epithet, poetics, image, metaphorical epithets, constant epithets, classification, artistic means, functions of epithets.*

Аваз Утар – узбекский поэт, просветитель, демократ и патриот, глубоко сочувствующий трудовому народу. Многоплановость и многогранность – отличительные черты его поэтического творчества. Всем своим творчеством, проникнутым любовью к своему народу и тревогой о его судьбе, он пытается найти пути, чтобы помочь его народу быть свободным и счастливым, знать и развивать свою культуру. Наиболее известные его стихотворения «Язык», «Мусульманским учёным», «Воинствующие варвары», «Ханским чиновникам» и др. Поэтический язык был для Аваза Утара не только одной из форм распространения просветительских идей, но и средством для выражения своего мировоззрения. «Язык поэзии для Аваза Утара не только кладёзь мудрости, но и сама мудрость» [2]. В образной, красочной форме, используя все выразительные богатства языка, поэт показывает правдивую картину современного ему общества. В данной статье мы хотим остановиться на таком

образном средстве, как эпитет, которых в поэзии Аваза Утара представлено в большом количестве.

Эпитет – в литературоведении – одно из наиболее распространенных средств выразительности. Особенно часто он встречается в поэтической речи. Учитывая существенную роль эпитета для литературы, он всегда был в центре внимания литературоведов. Ими разработано множество концепций, связанных с данным понятием. Ещё Аристотель уделял ему большое внимание и называл его «Приложенным именем». До сих пор в лингвопоэтике обсуждается вопрос о роли эпитета в литературе. Важным представляется вопрос рассмотрения специфики употребления эпитета в поэзии, реализации его функций в рамках отдельного произведения, так как он многофункционален. По определению А.В.Глушковой «...эпитет-это атрибут, который дает определенную характеристику объекту, выражает свойства объекта, пропущенные через призму эмоционального видения мира» [3, с. 22].

С.Блинова и Н.А.Красавский выделяют следующие функции эпитета: художественно-эстетическая функция, служащая для выразительности речи, экспрессивная функция, выражающая эмоциональное, субъективное отношение к предмету, и оценочная функция эпитета, которая демонстрирует авторскую позицию о героях, окружающих их предметах, природных явлениях и т.д. К примеру, в следующих строках Аваз Утар выражает свое личное отношение к псевдоучёным, задача которых просвещать народ: «...целый народ обреченным кручине сделали вы!» ,» что **темный фанатизм** своим законом сделали («Мусульманским учёным»), в стихотворении «певец» поэт говорит о роли поэта и поэзии: «Мы рады **невучим стихам**» («Певец»). Пример оценочной функции эпитета можно проследить в строках: »Своею **целительной силой ты равен богам, певец**» («Певец»), »Таких **убийственных очей**, как у тебя, Нет ни в каком земном краю, краса моя».

Рассмотрим какие виды эпитетов использовал поэт в своих стихах. По принятой классификации эпитеты бывают общеязыковые и индивидуально-авторские. Прилагательные в прямом и переносном значении составляют группу общеязыковых эпитетов. Они могут быть стилистически нейтральными, стилистически окрашенными, характеризуются относительной устойчивостью между определением и определяемым словом, воспроизводимостью, неоднократным употреблением в произведениях: *Станет вам, как **родная, чужая страна** близка, Радостно черпать мудрость из **братского родника**, по речи чужой тоска* («Язык»); *народные сердца, **родную** землю, песен волшебных* («Певец»).

Группу индивидуально-авторских эпитетов составляют эпитеты, употребление которых окказионально, которые выражают неповторимые ассоциации и степень их воспроизводимости не так высока: *народ обреченный кручине, речам животворным, чертам неповторным, мукам и горестям вздорным, речам, убивающим смертных, трудам стихотворным («Певец»).*

Частеречная классификация эпитетов в лингвистике делит их на эпитеты-прилагательные, эпитеты-наречия, эпитеты-существительные и так далее. Анализируя язык стихов Аваза Утара, мы можем утверждать, что большинство эпитетов представлены прилагательными, охватывающими широкий круг признаков. Распределяя эпитеты в стихотворениях поэта по семантическим группам, можно выделить следующие категории: 1) определения признаков внешнего проявления объектов (цвета, материала, возраста, величины и др.): *очам твоим черным, в одеянье узорном, ты Лунолика, в безводной долине, ее тоненький луч, вершинам горным;* 2) оценочные эпитеты, дающие характеристики эмоционального, морально-этического плана: *светлый день, слепым рабом, мой край родной плененным сделали, скотом клейменым, темный фанатизм, речам животворным, целительной силой.* В стихах поэта преобладают эпитеты оценочного плана, что придает его произведениям яркий, выразительный характер, говорит о страстной душе поэта, полной любви к народу и ненависти к его угнетателям.

Также в творчестве Аваза Утара представлены эпитеты постоянные и ситуативные. Постоянные эпитеты не связаны с конкретной ситуацией, они используются вне логики контекста: *родной язык, родная страна, слава их велика, народные сердца, ночным облакам, вершинам горным, очи черные.* Они противостоят в тексте ситуативным эпитетам, не связанным с данным объектом на постоянной основе: *цепь рабства, жестокий друг, безводная долина, речам воскрешающим, слепым рабом, испепеленным краем.* Яркой приметой авторского стиля являются метафорические эпитеты:

трудам стихотворным, мукам и горестям вздорным, пальме живой, речам убивающим, песен волшебных, невучих песен, в одеянье узорном..

Эпитеты в поэзии Аваза Утара усиливают выразительность образов изображаемых явлений и предметов, выделяют их наиболее существенные признаки, создают контрастность, передают авторское отношение к изображаемому, выражают авторское восприятие мира и его оценку. На общем нейтральном языковом фоне они оказывают глубокое эмоциональное воздействие на читателя. Проблема этических характеристик творчества Аваза Утара нуждается в еще более глубоком осмыслении. Анализируя поэтическое

мастерство поэта, мы пытаемся понять его мировоззрение в той поэтической форме, в которой он его выражает.

Литература:

1. Аваз Утар. Избранное. – Т.: Укитувчи, 1972.
2. Атабаев Б. Социально-этические воззрения Аваза Утара: Автореф. диссертации канд. филос. Наук. – Т., 1991.
3. Глушкова А.В. Эпитет в художественной прозе С.Есина: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2000. – 22 с.
4. Ращупкина Д.А. Перевод цветowych эпитетов в поэзии Георга Тракля. – Санкт-Петербург, 2017.
5. Блинова И.С., Красавский Н.А. Функции эпитета в художественном тексте // Филологические науки в России и за рубежом: материалы III Междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, июль 2015). – СПб.: Свое издательство, 2015.

ZEBO MIRZO LIRIKASIDA PSIXOLOGIZMNING METAFORIKLASHUVI

Sh. Usmonov,

Qarshi davlat universiteti

Yangi o'zbek adabiyoti va

adabiyot nazariyasi kafedrası

mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada metafora-nutq hodisasi sifatida, biror leksema denotatining tashqi, zohiriy o'xshashligi asosida boshqa bir ma'noni ifodalashda qo'llanilishidir. Metaforalar til hodisasi sifatida tashqi o'xshashlikni anglatadi. Bu badiiy adabiyotda istiora, tashbeh, oksimoron kabi san'at turlarining hosil bo'lishida faol ishtirok etadi. Badiiy matnning nutqdagi emotsional-ekspressivligini ta'minlashda metaforizatsiya muhim rol oynaydi. Metaforizatsiyaning asosida qiyoslash oqibatida erishilgan o'xshatish g'oyasi yotadi.

Kalit so'zlar: mumtoz she'riyat, metafora, emotsional-ekspressivlig, o'rin jihatdan o'xshashlik, shakl jihatdan o'xshashlik, shakl jihatdan o'xshashlik, vazifa yoki harakat o'xshashligi.

Аннотация. В статье как метафорично-речевое явление денотат лексемы используется для выражения другого значения, основанного на ее внешнем, кажущемся сходстве. Метафоры как языковое явление означают внешнее сходство. Принимает активное участие в создании таких форм искусства, как метафора, аллегория и оксюморон в художественной литературе. Метафоризация играет важную роль в обеспечении эмоциональной выразительности художественного текста в речи. Метафоризация основана на идее сравнения.

Ключевые слова: классическая поэзия, метафора, эмоционально-выразительность, сходство по месту, сходство по форме, сходство по форме, сходство в задаче или действии.

Abstract. In the article, as a metaphor-speech phenomenon, the denotation of a lexeme is used to express another meaning based on its external, apparent similarity. Metaphors, as a linguistic phenomenon, mean an external similarity. It takes an active part in the creation of art forms such as metaphor, allegory, and oxymoron in fiction. Metaphorization plays an important role in ensuring the emotional expressiveness of the artistic text in speech. Metaphorization is based on the idea of comparison.

Key words: classical poetry, metaphor, emotional-expressiveness, similarity in place, similarity in form, similarity in form, similarity in task or action.

XX asr o'zbek she'riyatiga nazar tashlaganimizda metaforik obrazlarning tarkibiy xususiyatlari mumtoz she'riyatimiz an'alariga yaqinligi va ularni rivojlantirish yo'lidan borilganligining guvohi bo'lish mumkin.[1. 8]

Ma'lumki, Sharq poetikasida metafora "istiora" atamasi bilan qo'llanilgan bo'lib, u haqidagi nazariy qarashlar VIII-XV asrlarda mumtoz poetikada ilmi sanoe, ilmi badoe doirasida o'rganilgan. Sharqning ulug' she'rshunoslari Ibn Xaldun, Umar Roduèniy, Rashiddin Votvot, Shamsiddin Qays Roziy, Atoulloh Husayniy va Shayx Ahmad Taroziy asarlarida she'riy san'at turi sifatida istioraning asosiy xususiyatlari talqin qilingan. Jumladan, Rashiddin Votvot u haqida "Bu san'at hamma tillarda tez-tez uchrab turadi, qachonki yaqin va tabiiy (ikkinchi bir ma'no anglatga, bu bilan nutq ziynatlangan bo'ladi"[2. 259.] deb èzadi. Atoulloh Husayniy undagi boshqa jihatga

e'tibor qaratadi: "Istiora majozning bir navidur. Haqiqat lafzni, o'z yasog'i, ya'ni nimani mo'ljallab yasag'on bo'lsalar o'shul ma'noda qo'llamoqtin iborattur. Majoz lafzni o'z yasog'idin o'zga ma'noda yasog'u lafzu o'shal ma'no orasindag'i biror aloqa-yu munosabatga asoslanaroq qo'llamoqtin iborattur, o'z yasog'ida tushunmakka moni' bo'lg'uchi jumladoshi keltirmak sharti bila. Masalan, sher derlar andin yuraklig kishini ifoda etarlar... Istiora... so'zning mukammal ziyatidur va fasohatu balog'at arbobi qoshinda haqiqattin yaxshiroqtur"[3. B. 64] Shayx Ahmad Taroziy istiorani "... bir lafzini haqiqiy ma'nodan elitib, yana o'zga yerda oriyat tariqi birla keltururlar"¹ deb ta'riflaydi. Fitrat ta'rificha istiora "Bir so'zning o'z ma'nosidan boshqa bir ma'nosi uchun ishlatilmakidir, shul shart bilankim, u so'zning o'z ma'nosi bilan yangi ma'nosi o'rtasida bir turli o'xshashlik bo'lsun". [4. 68]

Metafora so'zi asli yunon tilidan olingan bo'lib, "ko'chish, ko'chirish" kabi ma'nolarni ifodalashi hammamizga ma'lum. Ushbu hodisa qadimgi davrlardan insonlarning diqqatini tortgan. Metafora-nutq hodisasi sifatida, biror leksema denotatining tashqi, zohiriy o'xshashligi asosida boshqa bir ma'noni ifodalashda qo'llanilishidir. Tilshunos olim S.Karimovning yozishicha metafora yashirin o'xshatish bo'lib, oddiy qiyoslashdan farq qiladi, agar oddiy o'xshatish har doim ikki asosdan tarkib topsa, metaforada faqat ikkinchi a'zo, faqatgina o'xshatilgan narsa qoladi, o'xshagan narsa esa tushib qoladi, uning uning mazmuni matn tarkibidan anglashilib turadi, bundan xulosa chiqarish mumkinki, metafora asosida ma'noning ko'chirilishida tasvirlanishi lozim bo'lgan a'zo boshqa bir tushuncha orqali idrik etiladi.[5 B. 64] Metaforalar til hodisasi sifatida tashqi o'xshashlikni anglatadi. Bu badiiy adabiyotda istiora, tashbeh, oksimoron kabi san'at turlarining hosil bo'lishida faol ishtirok etadi.

Badiiy matnning nutqdagi emotsional-ekspressivligini ta'minlashda metaforizatsiya muhim rol oynaydi. Metaforizatsiyaning asosida qiyoslash oqibatida erishilgan o'xshatish g'oyasi yotadi. Metaforada tashqi o'xshashlik to'rt jihatga qarab belgilanadi:

- 1)o'rin jihatdan o'xshashlik asosida metaforiklashuv;
- 2)shakl jihatdan o'xshashlik asosida ma'no ko'chishi;
- 3)belgi mutanosibligi asosida ma'no ko'cjishi;
- 4)vazifa yoki harakat o'xshashligi asosida ma'no ko'chishi.

Lirik psixologizmning tasvir obekti sifatida metaforalashuvning har to'rt jihatini she'riyatda kuzatish mumkin. Zebo Mirzo ishqiy she'rlarida lirik psixologizmning tasviri sifatida an'anaviy va individual(original, ohori to'kilmagan) metaforalar ham uchraydi.

Bilaman: men uning tengi emasdim,

Lekin sevdim tengsiz muhabbat bilan.

Hijron tunlarida bor edi qasdim,

Men uni o'qidim yoniq dard bilan.

Ushbu misradagi "yoniq darda" birikmasi an'anaviy metafora sifatida belgi o'xshashligi asosida lirik qahramonning alamli hijron qismatini yuqori rakurslarda boshidan o'tkazganligini ifodalab kelmoqda.

Keyingi misralarda esa hayotiy detal orqali ajoyi metaforiklashuv holatini bera olgan:

Yo'mg'irlar qo'lida titrab ezilgan

Bir xazon bargchalik sevilgandirman.

Inson qurigan xazon barglarni qo'lga olib ezsa, u qayta o'z shaklini ololmaydi, o'ziga kelolmayotgan, o'zligini topolmayotgan poetik qahramon psixologik holatida ham xuddi shunga o'xshagan holat hukmron.

Shoiraning "Intiqlik" nomli she'rida ikki qatlamli metaforani kuzatish mumkin:

Tuni bilan yog'gan yomg'irlar

Yuvib o'tdi tongning yuzini

Men izladim

o'zim uchun sir

bo'lgan baxtning yorug' izini... [6 B-12]

Odatda metaforalar tashqi o'xshashlikni ma'lum ko'rinib turuvchi xususiyatlar asosida beradi. Masalan, "yer yuzi, kitob yuzi" kabi, ammo "tong yuzi" va "baxtning yorug' izi" kabi birikmalarda kitobxon dastlab tashqi o'xshashlikni ko'z oldiga gavdalantirsa. Ikkinchida, psixologik tasvir obekt sifatida yuzaga chiqayotgan boshqa bir holatni his qiladi. Endigina yorishayotgan tong yuz ifodasi sifatida, oz-mos his qilinayotgan masrurlik baxtning yorug' izini ifodalab kelmoqda.

Boshqa bir o'rinda lirik psixologizmning metaforiklashuvi butun band boylab yoyilib ketgan:

Keldimi deb sendan xabarlar

Eshiklarni necha bor ochdim.

Daydi shamol bebosh boladay

Derazamni sindirib qochdi.

Tuni bilan qiynaldi yurak

Yeta olmay nur yo'llariga

Isming qo'ndi kapalak kabi

Goh tushimga,

goh qo'llarimga...

Mazkur misralarda an'anaviy insonning kutish holatini sodda, ravon holatda berish hukmron. Bizga ma'lumki, mumtoz adabiyotimizda ham bunday intizorlik

holatini tasvirlash juda ko'plab ijodkorlarning she'rlarida uchraydi. Chunonchi, Hazrat Alisher Navoiyning "Kecha kelgumdur debon..." misralari bilan boshlanuvchi ishqiy mavzudagi g'azalida tadrij san'ati yetakchilik qiladi. Unda ham oshiq ma'shuqasini kutadi, u kecha kelaman deb kelmagan, ko'zlariga qancha tonglar uyqu kelmay kutgan ham kelmagan, har lahza chiqib uning yo'liga intizor bo'lgan kelmagan. Chiqqan oshiq, albatta, eshikni ochadi, yopadi, yuqoridagi Zebo Mirzo misrasida ham xuddi shu tasvir ayni o'xshash. Hazrat Alisher Navoiy keying baytlarda joni og'ziga kelgani, undan so'ng esa hijrondan o'rtangan qalbning vaziyatini bosqichma-bosqich darajalab boradi. Shoiri Zebo Mirzo misralarida kelmagan, o'ngida ko'rmagan yorini endi tushlarida ko'rgisi keladi. Ma'shuq tushida yorini ko'rish bilan qanoatlana olmaydi, baribir uning kelishini istaydi, uning kelmaganidan yuragida yuksak qayg'u va alamli iztorob alanganadi:

Sen kelmading,

Biroq bu gal ham...

Men kunning qon yuziga boqib-

G'ijimlanib otilgan xatday-

Yuragimni yubordim yoqib!...

Ma'shuq oshiqni kechirmaydi, uning iztiroblariga yuragini aybdor biladi, unga shu uqubatni ro'baro' qilgan yuagidan goyokin alam oladi, uni yoqib yuboradi. Shoiraning nazdida unga inson sevgisi musibat keltirdi, u uni sitamli, qayg'uli, azoblar girdobiga tashladi, shuning uchun bu dardlar ovunchini boshqa bir odamdan topib bo'lmaydi va u tabiatga yuzlanadi:

...Tuni bilan yomg'irlar yog'di... Uning yuragidagi o'tni ona-tabiat bartaraf qilar, balki ko'zidan to'kilgan yoshlar so'ndirar... Demakki, ma'shuqa dardning shifosini tabiatdan yo o'zidan izlaydi. Bunday lirik psixologik holatni tasvirlashda ijodkor tomonidan qo'llangan an'anaviy va individual metaforalar muhim rol oynagan."Daydi shamol, "yurak qiynog'i", tushga qo'ngan kapalak", "kunning qon yuzi", "yurakni yoqish" bari birikmalardagi metaforalar ayni shu maqsadni amalga oshirishda xizmat qilgan. Kapalak obrazining metaforiklashuvi o'zbek adabiyotida an'anaviylik kasb etgan.

Shoiri ijodida an'anaviy metaforalarning metaforiklashuvi psixologik tasvirni tiniqlashtiradi, ta'sirini kuchaytiradi. "Hayotning go'zalligi", "oppoq nur", "yurak qoni" kabi metaforalardan obraz ichki dunyosining samimiyati, ochiq munosabati sezilib turadi:

Hayot qanday go'zal,

Yashash qanday baxt

Olam burkanganda oppoq nurlarga.

Yurak qonin ichib ko'rganmisan, ayt,

Kuning qolganida makri zo'rlarga?

Inson , gul yoki boshqa mavjud predmetlar go'zal bo'lishi mumkin, hayotning go'zalligi inson ruhiyatida sodir bo'layotgan kechinmalarga bog'liq. Chunonchi, inson kayfiyati yaxshi bo'lsa, uning siyratida sokinlik hukmronlik qilsa, goyoki tevarak-atrof ham go'zal ko'rinadi yoki aksincha. "Yurak qoni" birikmasidagi ma'ning ko'chishi, aslida, an'anaviy obraz sifatida qiynalgan, jabr chekkanlik ma'nolarini ifodalaydi, shoiraning "Ishq" she'rida shu an'anaviy metafora , individuallik hosil qiladi, ya'ni sabr-qanoat, chidam, sabot kabi semalarni ifodalab kelgan, bu bilan u qullikka, mutelikka ko'nish kerak demoqchi emas.

Senga aytish oson, o'zingni emas,
Elaysan o'zganing qiyl-u qolini.
Sen qaydan bilasan to'fonda qolgan
Ojiz odamlarning g'arib holini?!²

Mazkur misralarda birobning holiga achinmaydigan beparvo, beg'am , insonlar dardini o'zida tuyolmaydigan, ayni chog'da azoblarga duchor qilishi mumkin bo'lgan shaxslar obrazi "Elaysan o'zganing qiyl-qolini", "g'arib hol" kabi metaforalar orqali ifodalangan. Boshqalar boshiga tushgan tashvishga barmoq orasidan qaraydidan odamlar timsoli badiiy adabiyotda juda ko'plab uchraydi. Chunonchi, Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasidagi holatni eslash kifoY. Abay o'zining "Naqliya so'zlar" asarida to'rt narsa insonning aql va bilimiga putur yetkazishini ta'kidlaydi: beg'amlik, beparvolik, oyin-kulgi va ixlos qoymaslik. Beg'am, beparvo odam birovning mas'uliyatini o'z yelkasiga ololmaydi, uning dardida dardmand bo'lolmaydi. Bizning nazarimizda, oddiy maishiy hayotimizda tanbal, dangasa, ishyoqmas insonlar beparvo, beg'am kishilar sifatida talqin etiladi, aslida, birovning tashvisiga sherik bo'la olmaydigan, o'z manfaati uchun har narsaga tayyor bo'lgan, bu yo'lda boshqalarga musibat kelishiga parvo ham qilmaydiga nusxalar haqiqiy beg'am, beparvo odamlardir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзаева Н.Б. XX аср шеърлятида метафорик образ муаммоси (Гарсиа Лорка ва Шавкат Рахмон шеърляти мисолида): Филол. фан. докт...дисс. - Т., 2006.
2. Шарқ мумтоз поэтикаси. / Нашрга тайёр: Ҳ. Болтабоев.— Тошкент: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
3. Хусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ. – Тошкент: Гафур Гулом, 1981. – Б. 219.
4. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002. №-5. – Б. 68.
5. А.Фитрат. Танланган асарлар. Адабиёт қодалари. – Тошкент: Маънавият, 2006. IV Ж. – Б. 64.
6. Zebo Mirzo. Ishq. Toshkent, Akademnashr. 2011.

O'ZBEK ADABIYOTIDA MUXAMMAS JANRINING O'RGANILISHI

Fayziyeva Gulshan Hayitovna,
BuxDU mustaqil izlanuvchisi

***Anotatsiya.** Ushbu maqolada mustaqillik davri o'zbek adabiyoti va uning o'ziga xos jihatlari to'g'risida fikr yuritilib, mumtoz janrlar va ularning badiiy adabiyotga tutgan o'rni haqida ma'lumotlar beriladi. Istiqlol davri adabiyotida mumtoz janrlardan biri muxammaslar tahlil qilinib, ularning mohiyati ochib berishga harakat qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** istiqloldavri, mumtoz janrlar, muxammas, badiiy til, adabiyot.*

***Annotation.** In this article Uzbek literature of the period of independence and its specific aspects are considered, information about classical genres and the position of their fiction are given. One of the classical genres in the literature are analyzed and their essence is made to reveal.*

***Key words:** the period of independence, classical genres, artistic language, literature.*

Muxammas – lirik tur janrlaridan biri. Bizga ma'lumki, lirik turdagi asarlar quyidagicha tasnif qilinadi:

- 1) mazmun jihatdan lirik janrlar,
- 2) shakl jihatdan lirik janrlar,
- 3) misra va band tuzilishiga ko'ra tasnif qilinadigan janrlar.

Muxammas lirik tasnifning uchinchi turi, misra va band tuzilishiga ko'ra tasnif etiladigan janrlar sirasiga kiradi.

Lirikada misralar soni va band tuzilishiga qarab xillarga ajratiluvchi janrlar ham mavjudki, ularga mumtoz adabiyotdagi musammat turlari, hozirgi she'riyatdagi to'rtliklar kiradi. Lirik janrlarning biri ikkinchisiga o'xshab ketuvchi xususiyatlari bilan birga, bir janrni boshqalaridan farqlab turuvchi, o'ziga xos janriy belgisini ko'rsatib turuvchi "biografiyasini" tayin etuvchi yetakchi xususiyatlar bo'ladi. Shu yetakchi xususiyatlarga qarab ularning janri aniqlanadi [1].

Adabiyotshunoslik nazariyasi, adabiyotshunoslik lug'atlarda muxammaslar tarifi quyidagicha:

Muxammas (arabcha - beshlik) har bir bandi besh misradan iborat bo'lib, musammatning eng ko'p tarqalgan turi. Qofiyalanishi: a-a-a-a-a, b-b-b-b-a, d-d-d-d-a kabi shaklda bo'ladi. O'zbek mumtoz adabiyotida muxammasning dastlabki namunalari XV asrning birinchi yarmi shoirlari ijodida uchraydi [2].

Muxammas musammat turlaridan biri, besh misrali bandlardan tarkib topuvchi she'r shakli, besh misrali band. Muxammas she'r shaklida dastlabki band misralari o'zaro qofiyalanadi. Keyingi bandlarning avvalgi to'rt misrasi o'zaro, oxirgi misra esa birinchi band bilan qofiyalanadi. (a-a-a-a-), (b-b-b-b-a) kabi [3].

Muxammas – mumtoz adabiyotimizning go'zal janrlaridan biri hisoblanadi. Arab tilidan o'zlashgan ushbu so'z "beshlik" ma'nosini ifodalaydi. Nomidan ko'rinib

turganidek, har bandi "besh" misradan iborat bo'lgan she'rlarga muxammas atamasi qo'llaniladi. Muxammas she'riy janrining qofiyalanishi quyidagicha:

A-a-a-a-a

B-b-b-b-a

D-d-d-d-a

Yoki bo'lmasa:

A-a-a-a-a

B-b-b-a-a

D-d-d-a-a [4]

Demak, qofiyalanish tizimida ham o'ziga xos ko'rinishga ega muxammas janrida ko'plab ijodkorlar qalam tebratgan bo'lib, ularga misol sifatida Komil Xorazmiy, Dilkash, Feruz, Muazzamxon va shu kabilarni keltirishimiz mumkin. Badiiy adabiyotda muxammaslarning ikki turi manbalarda keltiriladi, ya'ni mustaqil (shoirning o'z g'oyalari asosida yuzaga kelgan muxammas) va tazmin (shoir biror ustoziga, zamondoshiga qiyosan yozilgan muxammas).

Muxammas janriga xos ilk namunalar Xorazmiy va Gadoiy devonlarida uchraydi. Navoiy davrida taxmis muxammaslar yaratilgan. Muxammaslarning o'rganilish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ilk muxammas haqida ma'lumotlar Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida uchraydi. O'zbek adabiyotidan muxammaslarning paydo bo'lishi Navoiy nomi bilan bog'liq. Undan keyin Turdi Farog'iyning hajviy muxammaslari, Mashrab, Ogahiyning mukammal muxammaslari, Ahmad Tabibiy kabi ijodkorlarning muxammaslari ushbu janr rivojiga salmoqli hissa qo'shdi.

Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida muxammasga quyidagicha ta'rif berilgan: "Musammati muxammas besh misra bo'lur. To'rt misraning oxirinda sab qilib beshinchi misrada asl qofiyaga ruju qilurlar.

Misoli bu nav erur:

G'amzang o'qina qildi huru pari jon,

Ko'k ahli bo'lur ko'rsa qoshing yosini qurbon.

La'ling g'amida ko'zdin oqar shomu sahar qon.

Bu javr-u jafo kim qiladur jonima hijron?

O'lmak bu tiriklikdin o'lubtur manga oson"[5].

Muxammas janri haqidagi ma'lumotlarni Rashididdin Vatvot, Qays Roziy, Tabriziy, Qabul Muhammad, Atoulloh Husayniy asarlarida ham uchratishimiz mumkin. Musammatalar tarkibiga kiruvchi muxammaslar haqida E.Bertels, A.Hayitmetov, R.Majidiy, O.Sharofiddinov, tojik adabiyot vakili M.Gulizoda, turkman adabiyot vakili A.Meredov kabi olimlar tadqiqotlarida ham ko'ramiz.

Muxammas musammat tarkibiga kiruvchi arab-fors she'riyati, aruz vazni orqali turkiy adabiyotga kirib kelgan lirik janr. Bizga ma'lumki, lirik janrlar tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi: kichik lirik janrlar va katta lirik janrlar. Kichik lirik janrlarga qit'a, fard, ruboiy, muammo kabi janrlar kirsa, katta lirik janrlarga g'azal, tarjiband, tarkiband, musammat kabilarni kiritishimiz mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, muxammaslar katta lirik janrlar sirasiga kiradi.

Adabiyot olamida lirik janrlarda mahorat ko'rsatib, uning rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan ijodkorlar bor. Misol uchun arab ijodkori Al-Xansa marsiyada, Rudakiy qasidada, Ibn Yamin, Anvariy qit'ada, Burxoniddin Ahmad turkiy tuyuqda, Monuchehri va Qatron Tabriziylar esa musammat janrining rivojiga katta hissa qo'shganlar.

Muxammas haqida Atoulloh Husayniy o'zining "Badoyyi us-sanoyi" asarida quyidagicha ma'lumotlarni bergan:

To'rt misrani bir qofiyada keltirib, beshinchisini o'zak qofiyada berurlar va muni muxammas derlar, andoqkim:

Gavharafshon shud bar atrof-i chaman dast-i saheb,
Vaz zumurrad sar birun zad g'uncha chun yoqut-i nob,
To tovoniy rav kunun chun lola shav jom-i sharob,
Varneh bore har shabe ro'poyi gul mastu xarob,
Bu surohiy ta sahargah dast dar og'ush kun![6]

O'zbek adabiyotida muxammas janrining rivojini Navoiy nomi bilan izohlash mumkin. G'azal va qasidalarining ta'siri natijasida muxammas janri paydo bo'ldi. Taxmis muxammaslarning vujudga kelishi Navoiy bilan bog'liq. Navoiydan so'ng bu janrning rivojiba Turdi Farog'iyning o'rni beqiyos. U muxammasning yangi shakli hajviy muxammaslarni yaratdi. Muxammas janrini yaratish Ahmad Tabibiy an'analari asosida paydo bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. O'sha davrda muxammas janriga asoslangan she'riy maktublar ham paydo bo'ldi. Turdi Farog'iydan so'ng bu janr rivojiga salmoqli hissa qo'shgan ijodkorlar sifatida Maxmur va Muqimiylarni aytish mumkin. Hajviy va yumoristik muxammaslarning yaratilishi ularning nomi bilan bog'liq. Shuningdek, bu janrning rivojiga Ogahiy katta hissa qo'shadi. Uning "Taviz-ul oshiqin" devonida 82 ta muxammas mavjud.

Hozirgi davr tadqiqotlariga asoslanadigan bo'lsak, musammatlarning eng keng tarqalgan shakli bu muxammaslardir. O.Sharafiddinov o'zining tadqiqotlarida musammatlar tarkibiga kiruvchi muxammas janri haqida to'xtalib, o'z fikrlarini bildiradi. Musammatlar ichki muayyanlik, qat'iy mavjudligini, uning uch banddan o'n bandgacha bo'lgan turli formasi bo'lib, texnik jihatdan, har bir turda birinchi strofa qofiyadosh bo'lib, keyingi strofalarning so'nggi misralari birinchi band bilan

qofiyadosh bo'lishi, keyingi strofalarning qolgan misralari o'zaro qofiyadosh bo'lishi shartligini ko'rsatib o'tgan[7].

Muxammasda bandlar muhim rol o'ynaydi. Har bir band o'zaro bog'liqlikda bo'ladi. Vazn, qofiya, ritmlar bilan birgalikda misralar ham asosiy o'rinni egallaydi. Muallif biror fikrni yuqori baytlarda bayon qilib, keyingi baytlarda shu fikrni rivojlantiradi.

Ahmad Tabibiy muxammaslardan iborat majmua yaratadi. To'rt yuzdan ortiq muxammaslar yozadi va muxammasga quyidagicha ta'rif beradi:

Muxammas yaxshiroq ash'ordur,
Tariki hammaga nomudordur...
Qo'shulg'onda chun ikki shoir so'zi,
Malohatlik o'lg'usi nuqta tuzi.
Qayu nazmnikim tuzi bor erur,
Hama somi'ga lazzat osor erur.
Muxammas chu lazzatlig ab'yot emish,
Degon oni shirin maqolot emish[8].

Ijodkor misra so'ngida uni go'zal maqolot deya ta'rif beradi.

Adabiyotshunos Nodira Afoqova o'zining "Jadid lirikasida musammat" risolasida muxammaslar haqida ma'lumotlar berib, jadid adabiyotida yaratilgan muxammaslar, ularning tuzilishi va badiiyatiga diqqat qaratadi.

Musammat turlari ichida muxammaslar nisbatan ko'p yaratildi. Jadid shoirlari tomonidan taxmislar asosan ishqiy, tasavvufiy, didaktik mavzudagi g'azallar asosida bitilgan bo'lib, bu holning sababi o'z-o'zidan tushunarlidir. Jadid taxmislarida ularning mualliflari yashagan zamon manzaralari ham qalamga olinadi.

Tabi' xud muxammaslarining ko'pchiligi jadid lirikasi uchun xarakterli bo'lgan mavzulardan bahs etadi. Bunday muxammaslarning ko'pchiligi sarlavhalangan. Sarlavhalar muallif poetik maqsadini ko'rsatuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi[9]

Ushbu risolada jadid muxammaslarining o'ziga xosligi, taxmis va mustaqil muxammaslar, muxammas sarlavhalari, mavzusi haqida ma'lumotlar beriladi. Ushbu ma'lumotlarni izohlash uchun Sidqiy-Xundayliqiy, Kamiy, Avloniy, Hamza, Ajziy, Majidiy kabi ijodkorlarning muxammaslari tahlil etiladi.

Muallifning tahlili davomida A.Majidiyning "Xushomadgo'y va maqtanchoq mudir" hajviy muxammasi sof diologik usulda, Hamzaning bir muxammasi ham savol-javob tarzida bitilgan bo'lib, garchand Hamza buni muxammas deb nomlagan bo'lsa ham, bu ijod namunasi dostonga o'xshashi ta'kidlanadi.

Muxammas 25 band, jami 125 misradan iborat. Boshqa manbalarni solishtiradigan bo'lsak, Hamzashunos olim Laziz Qayumov ham ushbu muxammas muhabbat haqida bitilgan doston ekanligini aytadi. Bunday hajmdorlik bilan

muxammas janri dostonga ham o'xshab ketadi. Balki, doston janrining rivojiga aynan shu janr sababchi bo'lgandir.

Siddiqiy-Ajziyning "Faxriya" muxammasida muxammaslarda deyarli uchramaydigan misra takrori uchraydi. Har bir bandeda oxirgi misra takror keltiriladi.

Bizda bing durlu hunar anvoyi hikmat vordur,
Bing chashid tadbiru yuz bing rangi san'at vordur,
Sayimiz maydondadur ma'lum va himmat vordur,
Qayda bizdek zumrayi ag'yora g'ayrat vordur?
Mo'minimiz, hikmat bizimdur, bizda hikmat vordur [10].

Ushbu muxammasda "Mo'minimiz, hikmat bizimdir, bizda hikmat vordur" misrasi har bir bandeda takror kelgan. Abdulhamid Majidiyning "Istar ko'ngil" muxammasi hikoyaga solishtirilgan. Ushbu nazira izohi mohirona ochib berilgan.

Gulnoz Xalliyeva o'zining "Ogahiy musammatlari" monografiyasida muxammas haqida ham mulohazalarini bildiradi. Ogahiy muxammaslari, muxammaslarning yaratilishi haqida alohida to'xtaladi. O'zbek adabiyotida Hofiz Xorazmiy ijodi bilan boshlangan muxammas yaratish an'anasi Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Nodira, Uvaysiy, Furqat, Zavqiy, Muqimiy kabi ijodkorlar ijodida davom ettirilgani, Ogahiy ijodida esa taraqqiy etganini alohida ta'kidlaydi.

Rahmat Majidiy ham Ogahiy muxammas rivojiga samarali hissa qo'shganini o'z tadqiqotlarida qayd etib o'tadi.

Majidiy o'zining "Ogahiy lirikasi" nomli monografiyasida Ogahiy musammatlarni tahlil qiladi. Ogahiyning o'zbek va fors tilidagi muxammaslari sanog'ini qiyosiy holda o'rganadi. Ogahiyning ilk taxmislari, o'z va boshqa shoirlar g'azallariga taxmislari tahlilini ham keltirib o'tadi.

Taxmischilik mavjud fikrni kengaytirish, rivoj toptirish, to'laroq his qilish imkonini beruvchi nayob tuhfadir. Adabiyotshunos A.Abdug'afforov ta'kidlaganidek, "Musammatlarni g'azallar hajmini zo'rma-zo'raki sun'iy kengaytirish yo'lida shunchaki qilingan oddiy mashqlardan, deb hisoblash xato bo'ladi. Aksincha, boshqa shoirlar va o'z g'azallari asosida muxammas yaratish to'la ma'nodagi ongli ijodiy faoliyat bo'lib, aniq zarurat va imkoniyatni his qilgan holda kirishiladi" degan g'oyalarni ilgari suradi [11].

Y.E.Bertelsning qarashlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ushbu janr avval fors-tojik adabiyotida paydo bo'lib, Manuchehr va Qatron Tabriziylar ijodida uchrashini aytib o'tadi. Ammo muxammaslarning kelib chiqishi ancha oldin, xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarida ushbu janr ildizlarining mavjudligi fikrimizni asoslaydi.

O'zbek adabiyotida muxammas janri haqida gap ketganda, uning rivojiga alohida to'xtalgan zot Alisher Navoiyni tilga olmaslik xatodir. Alisher Navoiy

muxammaslar yaratish bilan birgalikda, adabiyotshunoslik masalasida ham ancha ishlarni amalga oshirgani ma'lum. Xususan, uning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida bu janr haqidagi fikrlari bayon etilgan [12].

Muxammaslar yaratilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

- 1) tabi xud ya'ni mustaqil muxammaslar;
- 2) taxmis ya'ni ergashish yo'li asosida yaratilgan muxammaslar.

Mustaqil muxammaslarning misralari bir shoir qalamiga mansub bo'ladi. Muxammaslarning bu turida Hofiz Xorazmiy, Alisher Navoiy, Mashrab, Ogahiy kabi ijodkorlar samarali ijod qilishgan. She'riyatimizda Muxammasning birinchi band oxiridagi bir yoki ikki misra keyingi bandlar so'ngida tarje' sifatida takrorlanuvchi xili ham uchraydi. Bir misra tarje' qilingan muxammasda qofiyalanish odatdagi tartibda bo'lsa, ikki misra tarje' qilingan muxammaslarda qofiyalanish a-a-a-a-a, b-b-b-a-a, v-v-v-a-a, d-d-d-a-a shaklida bo'ladi. Masalan, Mashrabning "Ey safobaxsh bahorim, bo'stonim qaydasan" misrasi bilan boshlanuvchi muxammasida har bir band oxirida "volidam, makkam, mehribonim, qaydasan?" misrasi tarje' qilingan [13].

Boshqa shoir g'azaliga bog'langan muxammaslar taxmis deb yuritiladi. Bunda taxmisch shoir o'zga kishining g'azalidan misralarni olib, o'zining misralari bilan to'ldiradi. Ammo vazn, qofiya, radiflar ikki ijodkorda ham mos bo'lishi zarur. Bunday taxmis muxammaslarni mumtoz adabiyotimiz vakillaridan Alisher Navoy, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira, Habibiy, Chustiy kabilarning ijodida uchratsak, yangi o'zbek adabiyotida esa Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon, Jamol Kamol kabilarning she'riyatida kuzatamiz.

Soyai durmanki boqmas oftobim kim desun?

Bora- bora ketdi qadrim, intixobim kim desun?

Bir o'qitmaydur bitib bergan kitobim kim desun?

Ul tag'oful peshaga holi xarobim kim desun?

Hajrida mundog' meni ko'rgan azobim kim desun?

Oshnosidin kechib, begonalarga yor-yor,

Bu alamlarga chidolmay, ko'z yoshimdir shashqator,

Hech dushman bo'lmasun ko'yida mendek xor-u zor

Kunduzi bir yerda bir dam olmay orom-u qaror,

Lahzaye yo'q kechalar ko'zlarda xobim kim desun ?

Yuqorida muxammaslarning ikki turi mavjudligi haqida so'z yuritdik. Muqimiy qalamiga mansub ushbu muxammas "tab'i xud" ya'ni shoirning o'z muxammasidir.

Necha muddat, kecha-kunduz ko'rganing ag'yori edi,

Shu sababdin har tukum jismimda go'yo mor edi,

Shom vaqtidek, Muqimiy, ro'zg'orim tor edi.

Shukr, Furqat furqatingda xasta-yu bemor edi,
Bir boqishda ayladi dardimg'a darmon ko'zlaring[14] .

Bu beshlik band – Muqimiyning muxammasi, taxmis usulida yozilgan “Ko'zlaring” radifli g'azalining so'nggi bandi. Bu bandning dastlabki uch misrasi Furqatga tegishli. Har ikkala shoir misralari mavzu va g'oya jihatidan bir butunlikka ega.

Hozirgi she'riyatimizda ham beshlik band usulida she'r yozish keng tarqalgan. G'afur G'ulom, Oybek, Uyg'un, Usmon Nosir, Ramz Bobojon, Mirtemir, Hamid G'ulom va boshqa bir qator shoirlar beshlik band usulida barakali ijod qilganlar.

Professor V.Abdullayev ham ushbu janr haqida o'z qarashlarini bayon etib, tazmin muxammaslari haqida to'xtaladi. Olim tazmin muxammaslar an'ana shaklida davom etib, yangi ijodiy yutuqlarga erishganligini alohida ta'kidlaydi. Ammo bu musobaqa ba'zan kamchiliklarga ham yuz tutadi. Bunday muxammaslarning yaratilishida talantning o'zi yetarli bo'lmaydi. Balki ijodkorlarning fikrlari uyg'unligi ham muhim rol o'ynaydi[15] . Olim Nishotiyning ayrim muxammaslarida bu hol kuzatilganligini aytadi. Nishotiyning Alisher Navoiy g'azallariga bog'lagan muxammaslari tor doirada chegaralanganligi, mavzu to'liq ochib berilmaganligini aytadi. Tazmin muxammaslarning bir sharti har ikki ijodkor ijodi xuddi bir shoirning ijodi kabi ko'rinishidir. Aynan Nishotiy muxammaslarida ana shunday uyg'unlik yo'qligi ta'kidlanadi.

Bugungi kunda ham muxammas janrini o'rganishi borasida ancha ishlar olib borilmoqda. Masalan, Dilshod G'oyipov “Navoiy g'azallariga xorazmlik shoirlarning muxammaslari” maqolasida Xorazm yurtidan chiqqan, Navoiy g'azallariga taxmis bog'lagan ijodkorlar haqida o'z fikrini bildirib o'tadi. Maqolada Alisher Navoiy g'azallariga bog'langan taxmislarning mukammalligida Munisning o'rni beqiyosligi alohida ta'kidlanadi.

Munis Alisher Navoiyning bir qancha g'azallariga taxmis bog'lagan. Munisning “Bir kecha sahni gulistonda bizning jononadur” deb boshlanuvchi taxmisi mukammal darajada yozilgan. Ushbu taxmis ishqiy mavzuda bo'lib, rindona ohanglar ham singdirib borilgan:

Bu kecha sahni gulistonda bizning jononadur,
Ilkida jom-u surohiy, shevasi mastonadur,
Boda tobidin yuzi har lahza gul-gul yonadur,
Shu'lai ruxsorig'a ko'nglim qushi aylonadur,
Tong emas gul shamig'a bubul agar parvonadur .

Munis misralari Alisher Navoiy misralari bilan go'zal uyg'unlikni hosil qilgan. Ushbu maqolada Ogahiyning Navoiy g'azallariga bitgan muxammaslari ichida

ijtimoiy-falsafiy mavzuda yozilgan, shohmuxammas sifatida e'tirof etishga arzigulik "Birla" radifli taxmisi tahlili mohirona ochib berilgan.

Ahli dunyokim erurlar odamiylikdan yiroq,
Peshasi ozor-u minnat, odati kin-u nifoq,
Xushing o'lsa bu so'zimga sidq ila tutg'il quloq,
Bo'lmoq itlar mun'imi tan to'ma aylab yaxshiroq,
Tanni qilguncha semiz nokaslar in'omi birla [15].

Ikki shoirning musobaqalashuvi asosida yozilgan ushbu muxammas ijtimoiy hayotning ayrim qirralari mohirona ochib berilgan.

2021-yilda taniqli shoir, jurnalist Oshiq Erkin tomonidan "Avvalgilarga o'xshamas" nomli muxammaslar to'plami yaratildi. Unda ijodkorning jami 114 muxammasi kiritilgan. Barcha muxammaslar Alisher Navoiy g'azallariga bitilgandir. Buxoro adabiyotida Samandar Vohidov ham qariyb 50 ga yaqin muxammaslar bitgan. Muxammaslarning ko'p qismi tazmin shaklida bitilgandir. Ammo bu to'plamga Samandar Vohidovning muxammaslari kiritilmagan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ayon bo'ladiki, muxammas janri faqat musammatlar tarkibida o'rganilgan, alohida janr sifatida o'rganilmagan. Bugungi kunda muxammaslar musammatlar tarkibiga kirgan holda emas, balki alohida olib o'rganilmoqda va tahlil qilinmoqda. Xususan, Dilnavoz Yusupovning "Alisher Navoiy taxmislar", Dilshod G'oyipovning "Navoiy g'azallariga Xorazmlik shoirlarning muxammaslari xususida ba'zi mulohazalar", Nodirjon Jamolovning "Ogahiy muxammaslari va g'azallari", Mirzabek Xodjiyevning "Navoiyning taxmis yaratish mahoratini ilg'or xorijiy texnologiyalardan foydalanib o'rganish usullari", Dildora Nazarovanning "Jamol Kamol muxammaslarida uslub va tasvir", Dilmurod Asqarovning "Amiriyning Navoiyga muxammasi", Habibullo Jo'rayev, Madina Nuriddinovalarning "Furqat muxammaslarining badiiyati", Shahnoza Rahmonovanning "XX asr ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatida muxammaslar va ularning vazni" kabi maqola va tadqiqotlari fikrimizni asoslaydi.

Faydalanilgan adabiyotlar:

1. Orzibekov R. O'zbek lirik poeziyasida g'azal va musammatlar. – T., 1976. –B.71.
2. Холиқова Г. Ўзбек мумтоз шеърлятида жанрлар. – Самарқанд, 2017. –Б.56.
3. Куронов Д., Мамажонов З. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. –Т.: Akadernashr, 2010. –Б. 196.
4. Sarimsoqov B., Ochilov E. Hozirgi o'zbek she'riyatining taraqqiyot tamoyillari // O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2007-yil, 3-son.
5. Шайх Аҳмад ибн Худайдод Тарозий. Фунун ул-балоға. – Т.: Хазина, 1996, 55-бет.
6. Атоуллоҳ Хусайний. Бадойи ус – санойиъ. – Тошкент, 1981, 73-бет.

7. Sharafiddinov O. Alisher Navoiy poetikasining ba'zi bir xususiyatlari \ O'zbek tili va adabiyoti 1968, 4-son, 54-bet.
8. Orzibekov R. O'zbek lirik poeziyasida g'azal va musammatlar. – T., 1976. – B.96.
9. Афоқова Н. Жадид лирикасида мусаммат. – Т.: Фан, 2005. – 9-б.
10. Афоқова Н. Жадид лирикасида мусаммат. – Т.: Фан, 2005. – 14-б.
11. Orzibekov R. O'zbek lirik poeziyasida g'azal va musammatlar. –T., 1976. –Б. 98.
12. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. O'n to'rtinchi tom. – Toshkent, 1967.
13. Orzibekov R. O'zbek lirik poeziyasida g'azal va musammatlar. – T., 1976. –Б 93-94.
14. Obidjon Karimov. Mumtoz she'riy janrlar. – Namangan, 2015, 22-bet.
15. Nosirov O. O'zbek klassik she'riyati janrlari. – T., 1979. – 116-1 G'oyipov D.,
16. Navoiy g'azallariga Xorazmlik shoirlarning muxammaslari xususida ba'zi mulohazalar. <https://tai.uz17-b>.

ABDURAHMON GO'ZAL – YASSAVIYSHUNOS

Dilshoda Xaqqulova,
Urganch davlat
universiteti mustaqil
tadqiqotchisi

***Annotatsiya.** Yassaviyshunoslik katta tarixga ega. Ammo Abdurahmon Go'zal yassaviyshunoslikning yangi qirralariga asos solgan olim. Maqolada olimning tadqiq uslubi, tahlillaridagi tayanch manbalardan bahs yuritilgan. Olim izlanishlarining yassaviyshunoslikdagi o'rni ochib berishga harakat qilingan.*

***Kalit so'zlar:** shariat, tariqat, irfon, ishq, uslub, talqin, yassaviyshunoslik, tasavvuf, nafs*

***Аннотация.** Физиология имеет давнюю историю. Но Абдурахман Гозал – учёный, заложивший основы новых аспектов филологии. В статье рассматривается метод исследования учёного и источники в его анализе. Делается попытка раскрыть роль исследований учёного в филологии.*

***Ключевые слова:** шариат, тарикат, ирфан, любовь, стиль, толкование, юриспруденция, мистика, нафс.*

***Abstract.** Physiology has a long history. But Abdurahman Gozal is a scientist who laid the foundations of new aspects of philology. The article discusses the scientist's research method and sources in his analysis. An attempt is made to reveal the role of the scientist's research in philology.*

***Key words:** sharia, tariqat, irfan, love, style, interpretation, jurisprudence, mysticism, nafs*

Ilmda, jumladan, adabiyotshunoslikda ham uslubning o'ziga xos tamal tasniflari bo'lsa-da, ammo tadqiqotlarda har bir olimning o'ziga xos yondashuvi, uslubi ham namoyon bo'ladi. Chunki tafakkur sarhadi, irfon tasviri har bir ijodkorda o'ziga xosdir. Mana shu ma'rifat bayoni, mushohada kengligi olimning salohiyatini, ilm darajasini belgilaydi. Abdurahmon Go'zal - mana shunday o'ziga xos, akademik uslub yaratgan olim. Ma'lumki, olim bir mavzuda tadqiqot olib borarkan, avvalo, o'sha mavzuga xos bo'lgan ma'lumotlar bilan chegaralanib qolmasdan tarixiy ildizlariga ham chuqur nazar tashlab sinchiklab o'rganadi. Jamlangan ma'lumotlarni turli xil manbalarga murojaat qilib ular orasidagi o'xshash va farqli jihatlar orqali qiyoslaydi. Xususan, adabiyotshunos, tilshunos, turk adabiyotining yetuk olimi Abdurahmon Go'zal Xoja Ahmad Yassaviyning ilmiy ijodiy merosini o'rganar ekan, bu merosning vujudga kelish sabablari va asos manbalarini aniqlaydi. Olim o'tmishga nazar tashlab, tasavvuf ahliga o'rnak bo'lgan, tariqatlarning ilhom manbayi hisoblangan ulug' symo payg'ambarimiz hazrati Muhammad bo'lganliklarini,

hikmatlardagi ilohiy bayonning bosh qahramoni Rasululloh ekanliklarini e'tirof etadi. Ahmad Yassaviy o'z ulus arkoniga ega, dunyoga mashhur yassaviya nomli tariqatga asos soldi. Uning tariqat asoschisi haqida so'zlashdan avval, Abdurahmon Go'zal tasavvuf tarixi hamda tariqat asoschilari haqida ma'lumotlar keltiradi. Xususan, olim Muhammad s.a.v. zamonlarida yagona muassasa masjid bo'lganligiga diqqatini qaratadi. Chunki o'sha davrning ta'lim-tarbiya va ruhiy tarbiya maskani jome-masjid bo'lib, barcha masalalar shu yerda hal etilganligi xususida mulohaza yuritadi. Keyingi davrlarda talqin va sharhlarda ayrim muammolar tug'ilganligi tufayli bir toifa vakillar paydo bo'la boshlaganini va bu vakillar so'fiylar ekanligini e'tirof etadi. Birinchi so'fiy deb tan olingan shaxs Abu Hoshim al-Kufiy bo'lib Shomda o'z nomi bilan xonaqo barpo etganligini va keyinchalik atoqli mutasavviflar Zunnuni Misriy, Boyazid Bistomiy, Junayd Bag'dodiy Mansur Xalloy singari ulug'lar unga ergashganlari xususida fikr yuritadi. Olim tasavvuf tarixiga nazar tashlar ekan, quyidagi uch muhim jihatlarga e'tibor qaratadi:

1. Vahdati vujud nazariyasining tasavvufga olib kirilishiga;
2. Tasavvufning turkiy zaminda keng tarqalishiga ;
3. Tasavvuf tarmog'i vakillarining faoliyat yuritishiga;

Tasavvuf ta'limotiga eng muammoli, ko'p bahslarga sabab bo'lgan "Vahdati vujud" nazariyasidir. Shu bois yetuk olim bu to'g'risida o'zining chuqur bilimlariga tayanib mulohazalarini bayon qiladi. Mazkur ta'limotni birinchilardan bo'lib, Muhyiddin ibn Arabiy olib kirganligini ta'kidlaydi. Keyinchalik tasavvuf tushunchasiga asoslangan toifalar, maslak va fikr-qarashlari bir-birida farq qilib ajrala boshlagan. Shundan so'ng yo'l ma'nosini aks ettiradigan tariqatlar ham ko'payib ketgan.

Olim turkiy zaminda tasavvufning paydo bo'lishi islomning kirib kelishi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Piri Turkistonning hikmatlarining nashri, g'oyaviy-badiiy jihatlari, obrazlar olami kabi masalalarda o'zbek olimlari salmoqli natijalarga erishgan. O'zbek yassaviyshunosligi dunyo yassaviyshunosligida o'ziga xos o'ringa ega, hatto tamal toshini qo'yganlardan ekanligini ta'kidlash joiz. Ammo shayxning tariqat asoschisi ekanligi, tariqatining dasturi hamda uning izdoshlari xususidagi ilmiy izlanishlar yetarli emas. Bu ma'lumotlarni kengaytirishda Abdurahmon Go'zal tadqiqotlarining ahamiyati katta. Olimning fikricha, o'sha davrda Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Marv kabi musulmon o'lkalarida birin-ketin shayxlarning chiqa boshlaganiga ham diqqatini qaratadi. Xususan, Yassaviyga qadar Muhammad Ma'shuq Tursiy, Amir Ali Abu Xolis kabi turkiy mutasavvufklar yetishib chiqqanligi alohida e'tirofga ega. Olim turkiylar orasida Ahmad Yassaviy bilan birga tasavvuf harakati maxsus bir tasavvuf tarmog'i shaklini olganligi xususida aytib o'tadi. Dastlab Turkistonda, keyinchalik Onado'li va Bolqon zaminida Mansur Ota, Said

ota, Sulaymon Ota, Sulaymon Hakim Ota, Sadr Ota, So 'fiy Muhammad Donishmand Zarnuqiy kabi xalifalarni va minglab muridlarni voyaga yetkazib turli o'lkalarga yuborilishi Yassaviy asos solgan tariqat keng quloch yozganligidandir.

Abdurahmon Go'zal Ahmad Yassaviyning o'ziga xosligini islomiy tushuncha va talqinga qaratilgan ifodalarni mutasavvifona fikrlar bilan uyg'unlashtirgan deb biladi va boshqa mutasavviflar bilan Yassaviydagi jihatlarni farqlab beradi: "Boshqa mutasavviflarda ochiq ko'zga tashlangan bu dunyodan shikoyat holi Yassaviyda yo'q hisobi. Uning hikmatlaridan o'rin egallagan bosh mavzulardan biri esa ilohiy ishqdir. Unga ko'ra ilohiy ishq borliqning tub sababi va ma'nosidir. Insonning vazifasi esa o'zining Allohga qullik burchini ado aylab diydorga vosil bo'lmoq"¹. Zero, "Obid bo'lma, zohid bo'lma, oshiq bo'lg'il" degan Yassaviy hazratlari hikmatlarida asosiy g'oya ishqdir:

Malaklardin oshiqlar ko'b, ey bexabar,
Bir oh ursa, olam bo'lur zeru zabar,
Zohid, obid, soliklardin ishq mo'tabar,
Ishqsiz odam, valloh, yo'lda qolar ermish.

Mana shu kabi tariqatda ildamlashning bosh omili ishq ekanligi hikmatlarda qayta-qayta urg'ulangan. Olim ham shayxning hikmatlari, "Faqrnoma"si va tariqatidagi ta'lim usullarini mushtarak holda o'rganib ilmiy xulosalarni o'rta tashlaydi.

Abdurahmon Go'zal – tom ma'noda tasavvufshunos. U qalb ilmi sanalmish tasavvuf haqida ko'plab kitoblar mutolaa qilgan, chuqur diniy bilimlari ham tariqat hollarini anglashda asos bo'lgan. Olimning nafs tarbiyasi haqida to'laqonli tasavvuri bu ilmlarni chuqur o'rganganligini tasdiqlaydi, shaxsiyatidagi hurlik, fitratidagi millat qayg'usi mukammal ravishda to'ldirgan. Olim shayxning nafi ammoradan shikoyati aks etgan manzumalaridan parcha keltirib, insonni yo'ldan chalg'ituvchi yagona narsa bu nafs ekanligini va nafs tog'idan oshib nafs tog'idan qutulishi lozimligi haqida fikr yuritadi. Xususan, Abdurahmon Go'zal Yassaviyga xos ikki jihatga e'tiborini qaratadi. Bular Yassaviyning shaxsiyati va she'riyatiga xos xususiyatlardir. Yassaviy shaxsiyatida shariat va tariqatga doir unsurlar o'zaro birlashgan bo'lsa, ayrim she'rlarida esa tasavvufiy nuqtai nazar ustunlik qiladi. Diydor-haqiqiy ishdan ko'zlangan maqsaddir. Yassaviy haqiqiy oshiq haqida bayon qilarkan uning nazdida, Haqning oshig'i hech qachon zuhd va taqvo ahliga o'xshab Jannat ilinjida yashamasligini, chinakam oshiq mutlaqo Haqdan g'ofil qolmasligiga va g'ofillik bilan oshiqlikning hech bir bog'liqlik joyi yo'qligini baytlarida aks ettirganligini olim

¹ Abdurahmon Go'zal "Yassaviy Faqrnomasi". Toshkent "Navro'z" nashriyoti. 2014-y. 36-bet

ta'kidlaydi. Shuningdek, inson ishq yo'lida Layli va Majnun, Farhod-u Shirin, Vomiq-u Uzro kabi sodiq bo'lmog'ini quyidagi bayti misolida ko'rish mumkin.

*"Qul Xoja Ahmad zohid bo'lma, oshiq bo'lg'il
Bu yo'llarda bebok yurma, sodiq bo'lg'il,
Layli Majnun, Farhod Shirin, Vomiq bo'lg'il,
Oshiq bo'lmay Haq diydorin ko'rsa bo'lmas"*²

Abdurahmon Go'zal hamisha baadiiy matn bilan ishlaydi. Uning har qanday ilmiy-nazariy xulosalarida, talqinlarida matn asos bo'ladi. U har bir ijodkorning shaxsiyati va ijodiy merosi haqidagi tahlillarida tarixiy ma'umotlarga va ijodiy merosiga tayanadi. Shuning uch olimning yondashuvi har doim o'zini oqlaydi. Har bir ulug' insonlar o'ziga xos haqiqatni teran his qiladi. Insonning o'zini bilishi bevosita Haqni bilishi bilan bog'liqligiga tasavvufning tamal g'oyasi, mutasavvifning yagona va haqiqiy borliq bo'lgan Allohning ilohiy borlig'iga qovusha olishi va vuslatga erishmog'i ekanligini va Ollohga manzur qul va hazrati payg'ambarimizga loyiq ummat saodatiga erishmog'ini olim e'tirof etib, quyidagi baytlaridan keltirib o'tadi:

*O'zini bildi ersa Haqni bildi
Xudodan qo'rqitivu insofa keldi.*

Yassaviyni olim tasavvuf tomoni ustunlik qilgan hikmatlarida shariat arbobi deb biladi va Yassaviyga ko'ra, shariatga tayanmagan tariqat botildir deya ta'kidlaydi. Zero, hikmatlar shayxning maslak matlabini aniq ochiqalaydi.

*O'tti umrum – shariatga yetolmadim,
Shariatsiz tariqatga o'tolmadim.*

Abdurahmon Go'zalning nafaqat Yassaaviy, balki mumtoz adabiyotdagi faqrnomalar bilan tanishligi uning tahlillaridagi teranlikka xolislikni ta'minlagan. "Imonning po'sti shariat bo'lsa, mag'zi tariqatdir" degan fikrga muvofiq ravishda Yassaviydagi tasavvufiy tushunchalar keng ravishda "Faqrnoma" asarida batafsil yoritilganligini bayon qiladi.

Abdurahmon Go'zal Yassaviy ijodi tadqiqida shayxdan oldingi davrdagi tasavvuf va uning vakillari xususida kirish ma'lumotlarni berib, so'ngra Ahmad Yassaviy shaxsiyati, tariqati va ijodi masalasiga o'tishi olimning ilmiy mushohadasi

² Abdurahmon Go'zal "Yassaviy Faqrnomasi". Toshkent "Navro'z" nashriyoti. 2014-y. 37-bet

kengligi, tizimli talqinlarga egaligini isbotlaydi. Yassaviy davrida tasavvufning keng ko'lamliligini batafsil yoritib berishi ham yetuk tasavvufshunos ekanligini ko'rsatadi. Olim tadqiqotida turli va keng qamrovli ma'lumotlarga duch kelinadi. Yassaviyning shaxsiyati va she'riyatiga xos bo'lgan tushunchalarni irfoniy-badiiy jihatdan batafsil yoritib beradi. Yassaviyshunoslik ulkan bir tarixga ega. Ammo olimning tadqiqotlarida Turkiston piri shaxsi va ijodining hech qayerda uchramagan tomonlariga e'tibor qaratilishi diqqatga sazovordir.

NISHOTIY G'AZALI: BADIYYAT VA NASHRLAR ARO TAFOVUTLAR

Shomurodova Marjona,
Qarshi davlat universiteti
Talaba
+99890 871 63 66

***Annotatsiya.** Maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyondasi Muhammadniyoz Nishotiy qalamiga mansub bir g'azalning matniy tadqiqi va badiiyati tahlili amalga oshirilgan. Xususan, g'azalning devon qo'lyozmasi va nashrdagi matnlari o'zaro qiyoslanib, ular o'rtasidagi sezilarli tafovutlar tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** nashr, g'azal, bayt, she'riy san'at, matniy tadqiq, badiiy tahlil.*

***Annotation.** The article provides a textual research and artistic analysis of the ghazal written by the great representative of Uzbek classical poetry Muhammadniyaz Nishoti. In particular, the Devan manuscript and the published text of the ghazal were compared and the significant differences between them were analyzed.*

***Key words:** publication, ghazal, beit, poetic art, textual research, artistic analysis.*

O'zbek mumtoz she'riyatining yorqin vakili Muhammadniyoz Nishotiy ijodi XVIII asr o'zbek mumtoz adabiyotida, xususan, Xorazm adabiy muhiti doirasida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shoir hayoti va ijodi haqida fikr yuritilgan eng eski asar bu Muhammadyusuf Bayoniyning "Tavorix-i Xorazm" ("Xorazm tarixi") asaridir. Asarda Muhammadyusuf Bayoniy, Pahlavonquli Ravnaq va Muhammadniyoz Nishotiyning aynan bir paytda, aniqrog'i Xiva xoni Sherg'ozixonning jiyani Temurg'ozixon davrida yashab ijod qilganlari aytiladi. Shoirning hayoti va asarlari xususida qilingan ilk muhim ilmiy tadqiqotlar XX asrning birinchi yarmiga oiddir. Xususan, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi a'zosi, adabiyotshunos olim Vohid Abdullayevning ilmiy izlanishlari Muhammadniyoz Nishotiyning adabiy jamoatchilik o'rtasida yaxshi tanitdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, Nishotiy qalamiga mansub "Husn-u Dil" dostonining tarixiy va badiiy qiymatini belgilashda olimning qo'shgan hissasi beqiyos. Vohid Abdullayev ta'biri bilan aytganda, "Nishotiy lirikasi XVIII asrdagi o'zbek poeziyasining go'zal namunasi"[Abdullayev V. 1:193].

Bizgacha shoirning nisbatan kichik, ammo yuqori badiiy qiymatga ega "Devon"i yetib kelgan. Shoir nomi keltirilgan qo'lyozmalarning bir qismi O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar bo'limida, Samarqand davlat universiteti kutubxonasida va Alisher Navoiy nomidagi davlat Adabiyot muzeyida saqlanmoqda. 156\II raqam bilan qayd etilgan mazkur asar 38 g'azal, 14 musammat (1 musaddas, 13 muxammas) va bitta qasidadan iboratdir. Nishotiyning "Devon"i sifatida qabul qilinayotgan ushbu to'plam salkam 3500 baytlik hajmga ega[Kiziltunç R. 5:8].

“Devoni Nishotiy” dan joy olgan g’azallardan biri “G’ariqi bahri alam bo’lg’aning’a men mamnun...” deya boshlanib, g’azalda oshiq va ma’shuqa timsoli yuksak badiiy mahorat bilan tasvir etiladi.

Mazkur g’azal matla’si quyidagicha:

G’ariqi bahri alam bo’lg’aning’a men *majnun*,

Ne shikva, dashti farog’atda o’ylakim Majnun[Nishotiy. 3:408].

Dastavval, g’azal matniga to’xtaladigan bo’lsak, ushbu lirik asar shoir devonining Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi fondida 156-raqam bilan saqlanuvchi qo’lyozma matnida keltirilgan bo’lib, biz quyida ana shu qo’lyozma hamda u orqali turli yillarda chop qilingan “Nishotiy. Tanlangan asarlar”(1960), “Nishotiy. Husn-u Dil. Doston. She’rlar.”(1967) kabi nashrlari aro taqqoslashga va g’azalni ma’no-mazmunijihatdan tahlil qilishga harakat qilamiz.

Mazkur baytda shoir lirik qahramon bo’lmish oshiq holida o’zining alam “bahr”(dengiz)iga g’arq bo’lganidan mamnun ekanini o’zi uchun cho’l-u dashtda kezishni farog’at deb bilgan Majnunga qiyos etadi. Baytda tazod (“bahri alam”, “dashti farog’at”), talmeh (Majnun) singari badiiy san’atlardan foydalanilgan.

Birinchi misrada keltirilgan “mamnun” so’zi nashrlarda “majnun” tarzida xato tabdil qilingan. Bu esa baytning ma’noviy butunligiga putur yetkazadi.

Keyingi baytda ma’shuqaning yuzidagi xol shunday tasvirlanadi:

Xat-u labi yuqori-yu quyidag’i xoli,

Erur chu nuqta-i jon, anglag’il, anga mazmun[Nishotiy. 3:408].

Mazmuni:

Yorning “xat”(lab ustidagi mayin tuklar) va labi yuqori-yu xoli undan quyida bo’lib, uni “anga”(yor yuziga) mazmun berib turgan “nuqta-i jon” deb anglagil.

Baytda “Xat”, “lab”, “xol” so’zlari tanosub, “yuqori”, “quyi” so’zlari esa tazod san’atini yuzaga keltirgan. G’azalning quyidagi baytini yuqoridagi yuqoridagi ikki misraning ayni mazmunij davomi deyish mumkin. Sababi ushbu baytda ham yor yuzidagi xol tasviri ustida so’z boradi:

Labi ziloli uza nuqta qo’ydi kilki qazo,

Yo’q ersa la’l uza yo’q nuqta aylamak qonun[Nishotiy. 3:408].

Mazmuni:

“La’l” (lab) ustiga “nuqta aylamak” (xol qo’ymoq) rasm bo’lmasa-da, “kilki qazo” (taqdir qalami) yorning “labi ziloli” (toza labi) ustiga “nuqta” (xol) qo’ydi.

Baytda “lab” so’zi o’rnida “la’l” (qizil qimmatbaho tosh) so’zi qo’llanishi mumtoz adabiyotda an’anaviy holat bo’lib, bu istiora san’atining yaqqol bir ko’rinishidir.

Yuzing oq, ey, g’am-u mehnatki ko’rguzub nayrang,

Yuzimni *goh* etib, ashkim aylading gulgun[Nishotiy. 3:408].

Baytning birinchi misrasida oshiq ma'shuqasiga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilib, yorning unga(oshiqqa) g'am-u mashaqqat bilan nayrang ko'rsatib turib, lekin yuzi oq (hech qanday ifodasiz yuz ma'nosida) ekanida shikoyat qiladi. Ikkinchi misraga keladigan bo'lsak, nashrlarda yuqori baytdagi kabi mazmunga nomuvofiq tarzda "koh"(somon) so'zi o'rnida "goh" so'zi xato qo'llangan. Lekin misra asliyatda: "yuzimni "koh"(somon; sariq rangga ishora) qilib, ko'z yoshlarimni "gulgun" (gulrang, qizil) aylading," demakdir.

Keyingi baytda shoir yor firoqida qolgan oshiq ahvolini yanada ta'sirliroq ifodalaydi:

Firoq shomida ko'r holim, ey qamarsiymo,

Boshing'a *anjumi* toshini yog'durur gardun[Nishotiy. 3:408].

Mazmuni:

Ey qamarsiymo (yor), firoq (hajr) shomidagi holimni ko'rginki, falak "anjumi tosh"(yulduzlar qadar ko'p toshlar)ini boshing'a yog'durur.

Baytning 2-misrasida keltirilgan "anjum" so'zi nashrlarda "anjam" tarzida berilgan bo'lib[Nishotiy.4:39], nisbatan ahamiyatsiz ko'rinsa-da, shaklan xato hisoblanadi. Mazkur baytda nido(ey qamarsiymo), tanosub(shom, anjum, gardun), tashbeh (qamarsiymo) kabi badiiy san'atlardan unumli foydalanilgan.

Qoshing xayoli boshida gar o'lmas ersa mudom,

Nedin Nishotiy, boshi uzra jo tutubdur "*nun*"? [Nishotiy. 3:408]

Mazkur g'azalning so'nggi, yakunlovchi baytida ham nashrlar aro ayrim farqli jihatlar borki, bayt mazmuniga anchagina ta'sir ko'rsatgan. Xususan, 2-misrada oxirida qo'llangan "nun" (arab harfi) so'zi, qo'lyozma va "Nishotiy. Husn-u Dil. Doston. She'rlar." nashridan farqli o'laroq, "Nishotiy. Tanlangan asarlar"ida "tun" shaklida xato beriladi[Nishotiy.4:39]. Bu esa bayt mazmuniy tahlili jarayonining qiyinlashishiga olib keladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, fikrimizcha, baytning umumiy mazmuni quyidagicha bo'lishi lozim:

Agar boshida doim qoshing xayoli bo'lmagan bo'lsa, nima uchun Nishotiy boshi uzra "nun" joy olgandir?

Izoh: Mumtoz adabiyotda yor qoshining shakli "nun" arab harfi ko'rinishiga qiyoslanadi. "Nishotiy" so'zi ham arab harflari bilan ifodalanganda so'z boshi "nun" harfi bilan boshlanadi. Shoir "boshida yor qoshining xayoli joylashgani" va shoir taxallusi (Nishotiy)ning "nun" harfi bilan boshlanishini shunday moslashtirganki, natijada baytda "Husni ta'lil" (chiroyli dalillash) san'atining go'zal namunasi vujudga kelgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mumtoz adabiyotda ijodkorning poetik mahoratini bor bo'y-basti bilan ko'rsatib beruvchi janr bu, albatta, g'azaldir. Mumtoz adabiyot vakillari, xususan Muhammadniyoz Nishotiy lirik merosi doirasida ham

g'azallar muhim ahamiyat kasb etadi. Shoirning mavjud nashrlardagi, qolaversa, qo'lyozma matnlardagi g'azallarini adabiyotshunoslik doirasida o'rganish, tahlil va tadqiq qilish zarur vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob. – Toshkent: O'qituvchi, 1967.
2. Devoni Nishotiy. Qo'lyozma. Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi Qo'lyozmalar fondi. No.156.
3. Nishotiy. Husn va dil. Doston. She'rlar. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967.
4. Nishotiy. Tanlangan asarlar. - Toshkent: O'z.SSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960.
5. Recai Kiziltunç. Muhammed Niyaz Nisati. DIVAN. – Ankara: Fenomen yayincilik, 2019.

XOTIRALARDA ADIBLAR SIYMOSI

Xolmatova Nigora Yakubovna
QDPI katta o'qituvchisi, f.f.b.f.d. (PhD)

Annotasiya: *Эркин Аъзамнинг “Эрталабки хаёллар” тўпламидан ўрин олган устозлари, замондошлари тўғрисидаги хотиралари ва адабий портретлари “Ёндошлар, замондошлар” фаслига киритилган. Мазкур фаслга 19 та хотира ва адабий портрет жамланган. Мақолادا Erkin A`zam o`ziga ustoz deb bilgan A.Qahhor, A.Muxtor haqidagi bir nechta xotira maqolalari tahlilga tortilgan.*

Kalit soʻz: *Adabiy-estetik, maqola, tamoyil, shakllanishi, adabiy-estetik dunyo.*

Adib oʻz ijodiy uslubini yaratish uchun oʻzidan oldin oʻtgan salaflari A.Qodiriy, A.Qahhor, Oybek, G.Gʻulom, A.Muxtor, S.Ahmad, Sh.Xolmirzayev ijodini va ularning individual badiiy mahoratini chuqur oʻzlashtirdi. Oʻziga ustoz sanagan oʻzbek realistik hikoyachiligining asoschilaridan biri A.Qahhor haqida bir nechta xotira maqolalar bagʻishladi. Bular “Halollik va shijoat” (1987), “Jasur posbon” (2007) deb nomlanadi. Erkin Aʼzam A.Qahhorni hayotda koʻrgan va uning suhbatini olgan inson. Muallifning bu ikki maqolasida hayotda boshdan kechirilgan va yurakdan his etilgan xotiralar hikoya qilinadi. Maqolalarda Erkin Aʼzamning adabiy-estetik dunyosida chuqur iz qoldirgan Abdulla Qahhorning “Haqiqatgoʻy”, “Jasur”, “Matonatli shaxs”, “Halol”, “Adabiyot jonkuyari” sifatidagi siymosi gavdalantiriladi. Jumladan, Erkin Aʼzam A.Qahhor haqidagi xotiralarini eslab shunday yozadi: “Men Abdulla Qahhor siymosida haqiqatning timsolini, timsol ne, haqiqatning oʻzini koʻrgandek boʻlaman. Ul zot hayotda ham, ijodda ham adlu insof uchun ogʻishmay kurashgan, soʻnggi nafasiga qadar birovga na egilgan, na bukilishni bilgan jasur, matonatli inson sifatida har bir ijodkorga ibrat boʻlgusidir” [1.292]. Erkin Aʼzam oʻz adabiy-estetik dunyosini shakllantirishda A.Qodiriy, A.Qahhor siymosida mujassamlashgan “Haqiqatgoʻylik”, “Jasurlik”, “Matonatlilik” fazilatlarini oʻziga yuqtirdi. Muallif ustoz Qahhor haqidagi maqolalarida bu yozuvchining ijodiga boʻlgan shaxsiy munosabatini ham ifodalaydi. Jumladan, tilga olganimiz maqolada A.Qahhorning “Sarob” romani va bu asarning Erkin Aʼzam hayotida tutgan oʻrni haqida alohida toʻxtaladi: “Sarob” – hozir mening eng sevimli kitoblarimdan, oʻqib toʻymayman, necha qaytalab oʻqiganimu yana necha bor oʻqiyajagimni ham aytolmayman. Uni ziddiyatli yigirmancha yillar ziyolilari hayotining maʼlum sabablarga koʻra bizga qorongʻi jihatlarini haqqoniy aks ettirgan nodir, ilhombaxsh asar deb bilaman. Haqgoʻy tanqidchimiz Ozod Sharafiddinov bu asarni Abdulla Qodiriy romanlaridan keyin adabiyotimizdagi “ikkinchi choʻqqi” deb ataganda ming bora haq! Ammo oʻshanda “Sarob”ning badiiy qadriyu Salimxondek murakkab obrazning chinakam talqini nima ekanini menga oʻxshagan bir gʻoʻr bola qayoqdan bilsin!”[2.292].

Erkin A'zam A.Qahhorga bag'ishlangan ikkinchi maqolasida ustoz adibning beshafqat realizmi, halol aytilgan mardona so'zlariga yuqori baho beradi: "Abdulla Qahhor hech vaqt farishtalik da'vosida bo'lmagan. Bugun biz xayol qilganimizdek u kishi mudom sodiq shogirdlari qurshovidayu oqibatli safdoshlar ardog'ida ham emas edi. Bandalik, bir zamonlar adibga badxohlik qilgan, tanasidagi dard, yuziga ertachi ajin solganlarning hammasi ham endi hayotda yo'q. Biroq hamon uning "dushman" lari kam emas. Adib ularga shaxsan bir yomonlik qilmagan, aksariyatini hatto ko'rmagan ham. Shunga qaramay, shunga qaramay...

Abdulla Qahhorning "yomonligi" – uning beshafqat qalami, yozgan asarlaridagi ayrim nusxalarga murosasiz nafrati, hayotning, adabiyotning sofligi yo'lida halol turib aytgan mardona so'zlari, xolos!"[2.296].

"Oramizdagi odamlar" ko'rsatuvining bir sonida Erkin A'zam bilan jurnalist va yosh yozuvchi Sarvar To'rayev suhbatida adib Surxon voxasidan yetishib chiqqan 70-yillar adabiy avlodi va ulug' yozuvchi A.Qahhorning 60-yillar adabiy avlodidan bo'lgan Sh.Xolmirzayev ijodiga bergan bahosini shunday eslaydi: "Bundan chamasi ko'p yil burun, 67-yillar, biz Usmonboy, Muhammad Rahmon bilan Abdulla Qahhorni suhbatida bo'lganmiz, u kishi bir gapni aytgani esimda, o'shanday joylardan ham yozuvchi chiqyapti, mana Shukurlarni qarang" deb. U paytda yosh bola edik, shu gap qulog'imizda qolgan, buni har kim har xil tahlil qiladi. Bilishimcha, Abdulla Qahhor Surxondaryoga kelmagan, ko'rmagan, u kishining nazdida, bir dashtu sahro bo'lib tuyilgan bo'lsa kerak. Ko'pchilik, vodiy ahli, poytaxt ahli ham Surxondaryoni shunday sahro joy deb biladi. Surxondaryo juda olis voha, dashtlar, tog'lardan iborat. Abdulla Qahhor "o'shanday joylar" deganida, maqtov ma'nosida aytganmi yoki taajjub ma'nosidami, biroz mubham. U paytda bashorat ham qilib bo'lmadi. Endi bizning elimizning qo'shig'i bor, do'mbira, baxshilari bor, yirik asarlari kam. Garchi Surxondaryodan Termiziy, olimlar, shoirlar chiqqan. Shuningdek, Surxondaryoda baxshichilik yaxshi rivojlangan. Surxondaryo vohasidan sho'ro davri adabiyotida birinchi bo'lib, Shukur Xolmirzayev yozuvchi bo'lib yetishib chiqdi va u kishi o'zbek prozasini bir pog'ona ko'tardi. Men yoshroq paytimda Boysundan Shukur Xolmirzayev degan chiqqanini bilmaganman ekanman. Mening bola tasavvurimda Boysundan shoir, yozuvchi chiqmagan edi. "Alpomish"dagi cho'l, dashti Qolmoq eli, "Farhod va Shirin"dagi "Bibishirin", "Ketmon chopdi" kabi muqaddas joylar, Boysundagi xilvat joylar, tog'lar, dashtlar, xullas, go'zal tabiat, o'zgacha iqlim sharoiti bizni yozishga undadi. Hech kim bizga "sen yozuvchi bo'lasan", "shoir bo'lasan", "to'garakka bor" demagan.

Bizning davrimizda kitob o'qish urf edi. Tog'ay Murod, Usmon Azim, Nodir Normatov, Eshqobil Shukur, Muhammad Rahmonlar adabiyotga kirib keldi, birdan o'zbek adabiyotida ko'tarilish bo'ldi, natijada, 70-yillar o'zbek prozasida, poeziyasida Katta adabiyotga qadam tashlandi. Surxondaryo katta buyuk adabiyotga qadam qo'ydi" [5].

Erkin A'zam ijodi va uning asosiy estetik tamoyillarining shakllanishida A.Qodiriy, A.Qahhor, G'.G'ulom, Oybek kabi ustoz ijodkorlar qatorida A.Muxtor hayoti va ijodining ham alohida o'rni bor. Asqad Muxtor tom ma'noda Erkin A'zamga badiiy va muharrirlik, jurnalistik sohada katta ustoz bo'la oldi. Shu bois adibning badiiy publisistikasida A.Muxtorga bag'ishlangan uchta xotira maqolalar yaraldi. Muallif ustozining hayotini va ijodini o'zi uchun va avlodlar uchun ibrat namunasi qilib ko'rsatadi, hamda A.Muxtor haqidagi hayotiy voqealarni maqolaga muxrlaydi. Jumladan, maqolanavis shunday yozadi: "Odatda, bosh muharrir deganlari vaqti-vaqti bilan xodimlarni huzuriga chorlab siyosat qilib turadi, "yuqori"ning ko'rsatmalarini xalqqa yetkazadi. Bizda esa tartib boshqacha edi. Asqad aka hech kimni behuda chaqirmas, ishlari bo'lsa, o'zlari bo'limga chiqar edilar. Biror yumush bilan xonalariga kirib qolsangiz – muttasil kimningdir qo'lyozmasini ishlab o'tirgan holda ko'rardingiz. U yerdan quruq chiqmasdingiz: qandaydir yangi fikr bilanmi, kutilmagan mulohazalarni eshitibmi...

Ibrat!".[3.302] Erkin A'zam maqola matnida ustoz A.Muxtorning beshta ibratli fazilatini hayotiy voqealar asosida asoslab beradi. Yozuvchining ko'z o'ngida A.Muxtor mehnatkash, yangicha fikrlashdan charchamaydigan uyg'oq qalbli ijodkor, yoshlarga mehribon ustoz, tanti va kamsuqum, muruvvatli inson, donishmand, zukko faylasuf adib qiyofasida namoyon bo'ladi.

Adibning ustoz A.Muxtorga bag'ishlab yozilgan ikkinchi maqolasi "Asqad Muxtor zamondoshlari xotirasida" to'plamiga kiritilgan. Bu maqolada Erkin A'zamning Asqad Muxtor bilan bog'liq xotiralari, ustoz-shogird o'rtasidagi munosabatlar, ustoz haqidagi iliq xotiralar, hayotiy voqealar bayon etilgan. Maqolaga Asqad Muxtorning "Qaydan qaygacha u, mening hayotim" she'riy misrasi iqtibos qilingan. Erkin A'zam maqolaning boshlanma qismida ilk bor Asqad Muxtorni shoir sifatida Boysun markaziga o'rnatilgan radiokarnay orqali taniganini yozadi. Maqolanavis o'quvchilik yillarida yozuvchining "Tug'ilish" romani haqida kitobxonlar konferensiyasida ma'ruza qilganini hikoya qiladi. Maqolaning davomida Erkin A'zam "Guliston" jurnalida birga ishlagani, tahririyatda kechgan qizg'in ish jarayonlari haqida ham ixchamgina hayotiy va hissiy kechinmali o'ylarini bayon qiladi. Maqolaning eng qiziqarli, ta'sirchan o'rni ustoz adibning kasalxonada yotganida undan xabar olishga borgan Erkin A'zamga qog'ozga tobut rasmini chizib bergan lavhadir.

Yana bir ta'sirchan voqealardan biri Asqad Muxtorning shogirdiga yozgan xati haqida: "Bu maktubni men ko'p kishiga ko'rsatdim, ko'plarga o'qib

berdim. Biror joyga tashlab qo'yishga ko'nglim bo'lmadimi, negadir irim qilibmi, doimiy hamrohim - papkamga solib oldim. Qog'oz titilib ketguncha, uch yilmi-to'rt yil yonimda yurdi". [4.313.] Mana shu ustozidan kelgan bir maktub taqdiri haqidagi mazkur hayotiy voqealar kitobxonni qattiq mutaasir qiladi. Erkin A'zam butun umri sho'ro tuzumida kechgan va socialistik realistik ijodiy metodda ijod qilgan Asqad Muxtorning tuzumlar va mafkuraviy g'oyalar ta'siriga mutlaqo bo'ysunmaydigan yozuvchining yetuk badiiy mahorati va shirali badiiy tiliga yuqori baho beradi: "Bu - adibning "nazarnogirroq" asarlaridan hisoblanadi. Ajabo, uni o'qiganim sari hayratim oshardi. Shirali tiliyu tiniq tasvirlarini ko'rsangiz! Manaman degan qoraqalpoq yozuvchisi ham havas qiladigan pishiq-puxta asar. "Qizil" roq o'rinlarini olib qo'ysangiz, qirq-qirq besh yil burun yozilgan bu qissadagi fojiviy holatlar jahon adabiyoti darajasidagi asarlarga asos bo'lgulik!

Qani edi, ijodiy hasbi holingizda loaqal shunday bir asar bo'lsa!". Bu fikrlar "Qoraqalpoq qissasi" asariga berilgan bahodir.

Erkin A'zamning ustozini haqidagi uchinchi maqolasi "Og'ir qog'oz zargari" deb ataladi. Adabiyotshunoslikda Asqad Muxtor tinimsiz ijod jarayonida ko'plab romanlar, qissalar, hikoyalar, dramalar, badiiy publisistika namunalari hatto badiiy tarjimachilikda ham katta zahmat chekkani uchun bir buyuk fransuz yozuvchisiga nisbat berilgan "doimiy harakatdagi qo'l" bahosi unga ham berilgan. Aynan shu mehnatkashlik va mudom ijodiy mehnat qo'ynida yashagan Asqad Muxtor hayotiga chizgilar berishda davom etgan shogird E.A'zam "Og'ir qog'oz zargari" ta'rifini beradi: "Chinakam ijodkor anchayin bir xatni ham qo'l uchida yozmaydi. Yozaolmaydi. Ijodiy vijdoni bunga yo'l bermaydi. Qog'ozga biror nima yozib-chizish lozim bo'lganda uni hamisha astoydil, bor imkon, tajribasini ishga solib bajaradi. Har qancha tajribakor, har qancha ulkan iste'dod egasi bo'lmasin, koru a'moli shu! Biladiki, ko'nglining tarjimoni mana shu oq qog'oz, uni ko'ngil buyurmagan noshoyista so'zlar bilan naridan-beri to'ldirmoq - gunoh. Yozuv mashg'uloti, ayniqsa, ijod ishi esa hamisha mashaqqattalab, negaki "hammasidan og'iri - qog'oz..." (Asqad Muxtor ta'biri).

Ustozning o'zi-da so'z mehnati - yozuvchilikka mudom ana shunday zo'r mas'uliyat bilan yondashgan". [4.316] Erkin A'zam o'zining "Kechikayotgan odam" to'plamining ilk sahifasiga ustozining "Sobirman" she'rini ilova qiladi. Bu ham muallifning ustozini A.Muxtorga ko'rsatayotgan katta hurmati va ehtiromidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A'zam E. Halollik va shijoat / Ertalabki xayollar. – Toshkent. O'zbekiston, 2015. – B. 292
2. A'zam E. Jasur posbon / Ertalabki xayollar. – Toshkent. O'zbekiston, 2015. – B. 297.
3. A'zam E. Ibrat / Ertalabki xayollar. – Toshkent. O'zbekiston, 2015. – B. 302.
4. A'zam E. Butunlarning butuni / Ertalabki xayollar. – Toshkent. O'zbekiston, 2015. – B. 313.
5. <https://www.youtube.com/c/sirojiddinibrohim> // Erkin A'zam "Oramizdagi odamlar" ko'rsatuvi mehmoni. Cuhbatdosh Sarvar To'rayev, TerDU arxeologiya yo'nalishi magistranti, jurnalist va yosh yozuvchi

GULOM HUSEYN ALIYEV O'ZBEK ADABIYOTI TARG'IBOTCHISI

Gulnoz Sattorova,
O'zbekiston Fanlar akademiyasi
O'zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti katta ilmiy xodimi,
filologiya fanlari nomzodi.
noza1969@mail.ru,
+998909471761

Аннотация. Научно-исследовательская работа Гуломхусейна Алиева "Азербайджанско-узбекские литературные отношения (1920-1960)" была переведена на узбекский язык в 2019 году и представлена в Узбекистане. Размышляет о литературных и культурных связях в начале 20 века, нововведениях в области прессы. Эта статья посвящена изучению этой книги

Ключевые слова: литература, культура, литературные отношения, Низами, Навои, тюркский мир.

Annotation. The research work of Gulomhuseyn Aliyev "Azerbaijan-Uzbek Literary Relations (1920-1960)" was translated into Uzbek in 2019 and presented in Uzbekistan. Reflects on literary and cultural ties at the beginning of the 20th century, innovations in the field of the press. This article is devoted to the study of this book

Keywords: literature, culture, literary relations, Nizami, Navoi, Turkic world.

O'zbek va ozarbayjon xalqlari ildizlari, tarixi, madaniyatlari bir xalqlardir. Necha asrlarki bu ikki xalqning adabiy va madaniy aloqalari davom etib kelmoqda. Ozarbayjon, deganda avvalo o'zbek xalqi ko'z o'ngida Nizomiy Ganjaviy g'aldalanadi-yu Fuzuliy g'azallari quloqqa chalinadi. Bu qadim va betakror adabiyotning vorislari ijodi bugun ham ikkala xalqni bevosita bog'lab turibdi. Xalqlarimiz ko'p asrlardan buyon do'stu qardoSh bo'lib yaShab keladi. Ayniqsa, ikki davlat mustaqillikka eriShganidan keyin hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi. Adabiyot va san'at esa asrlar mobaynida xalqlarimiz o'rtasida ma'naviy ko'priklar bo'lib kelgan. O'zbek kitobxonlari bugun ozar adabiyotida dunyoga kelayotgan har bir asardan, u xoh she'riy xoh nasriy bo'lsin xabardor. Adabiyotlarning bu qadar yaqin va muShtarakligida adabiyotshunoslikning o'rni beqiyosdir. Ozarbayjon-o'zbek adabiyotshunosligi borasida bir qator ilmiy tadqiqotlar yaratilgan bo'lsada, aynan bu mavzuda monografik tadqiqotlar sanoqli. Ozarbayjon farzandi, tom ma'noda ozarbayjon-o'zbek adabiy aloqalari borasida ilmiy izlanishlarni boshlab bergan filologiya fanlari nomzodi Gulomhusayn Alievning "Ozarbayjon – O'zbek adabiy aloqalari (1920 – 1960-yillar)" nomli tadqiqoti bu yo'naliShdagi yirik monografik tadqiqotlardan biridir. Bu tadqiqot qadim o'zbek va Ozarbayjon adabiyotlarining o'zaro tadqiqi va tahliliga bag'isShlangan. Gulomhusayn Alievning "bu tadqiqoti har ikki mamlakat olimlari tomonidan e'tirof etilgan.

Tadqiqotda olim Nizomiy va Navoiy davridan bo'klangan ozarbayjon va o'zbek klassiklarining boy merosiga asoslangan holda ikki xalqning adabiy-madaniy aloqalarining tarixiy ildizlarini hassos olim tasavvuri ila o'rgangan. Alohida ta'kidlashni istardimki, olim ilmiy tadqiqotining ob'ekti sifatida ishlari tahlilga tortilgan mualliflar bilan shaxsan ijodiy muloqotda bo'lgan. Qayta-qayta O'zbekistonga kelib, bu erda arxiv va kutubxonalarda tinim bilmay ishlab, g'oyat boy ilmiy faktlar to'play olgan. Zahmatkashligi oqibatida o'zbek tilini o'rgangan olim ilmiy manbalarni aslyatdan o'qigan. Va shu bilan birga fors tilini nihoyatda teran biliShi G'ulomhusayn Alievga har ikki xalqning fors tilli adabiyotini chuqur tadqiq qiliSh uchun zamin yaratganligi tadqiqotning ahamiyatini yana ham oShirgan.

G'ulomhusayn Alievning "Ozarbayjon-o'zbek adabiy aloqalari (1920 – 1960-yillar)" ilmiy-tadqiqot asarida mavzuning tadqiqi bir necha yo'naliShlarda olib borilgan. Har xil adiblar ijodi namunalariga asoslangan holda mavzuga, janrga yondashish, til-uslublarning o'ziga xos prinsiplari xususiyatlarini ko'rsatiSh bilan birga ham Ozarbayjon hamda o'zbek adabiy tafakkurining o'ziga xos poetik xususiyatlarini ham o'rgangan.

Tadqiqotda o'zbek adabiyotshunos olimlari Laziz Qayumov, Ozod Sharafiddinov, Mamajon Rahmonov, Mahbuba Qodirova, Suyima G'anieva, G'affor Mo'minov, Muhammad Sharipov, Botirxon Valixo'jaev, Shavkat Shukurov, Sattor Haydarov, Ahmad Alievlarning ilmiy tadqiqotlariga tez-tez murojaat qilgan.

"Ozarbayjon – o'zbek adabiy aloqalarining tarixiy ildizlari", deb nomlangan qismida 20 asrning boshlaridagi adabiy-madaniy aloqalar, matbuot sohasidagi yangilanishlar haqida fikr yuritadi.

ISHda o'zbek shoiri Asiriyning Nasimiy haqida doston yozganligi haqidagi ma'lumotning o'zi ham Ozarbayjon – o'zbek adabiy aloqalari uchun qiziqarli faktdir.

Ikkinchi bob sovet davri Ozarbayjon va o'zbek adabiy aloqalari (1920 – 1960) ga bag'iShlanadi. 1931-yilda G'afur G'ulomning "Hikoyalar" va "Sohibkorlar erlarni egalladilar" kitobi, Hamid Olimjonning "Xumor sochlar", G'ayratiyning "Xoin yuraklar", Oydin Sobirovaning "Shahar qo'shig'i", 1933 yilda esa Abdulla Qahhorning "Qotilning tug'iliShi", Maqsud Shayxzodaning "O'n she'r" va boshqa ko'plab adiblarning asarlari Bokuda o'zbek tilida nashr etildi.

Ikki xalq adabiy aloqalari haqida o'zbek adabiyotshunoslari ham yirik tadqiqotlar olib bordilar. O'zbek-ozarbayjon olimlari orasida Navoiy, Furqat, Muqimiy, Sadridin Ayniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, G'afur G'ulom, Oybek kabi sevib o'qiladigan Nizomiy, Fuzuliy, Nasimiy, Mirza Fatali Oxundzoda, Jalil Mammadqulizoda, Mirza Alakbar Sobir, Uzayir Hojibekov, Samad Vurg'un haqida nazariy jihatdan etuk ilmiy maqolalar yozildi.

Fuzuliyning o'zbek adabiyotiga ta'siri Ozarbayjon va o'zbek adabiy aloqalari tarixiy bosqichi haqida olib borilgan tadqiqotlari shunisi bilan qimmatliki, o'zbek adabiyotida Fuzuliy ta'sirida asar yaratganshoirlar haqida gapirib, o'zbek adabiyotshunosi Po'latjon Qayumovning Fuzuliy ta'sirida g'azallar yozgan 300 ga yaqin o'zbek shoirlari asarlarini to'plaganligi, uning ishlarini keyinchalik farzandlari, taniqli o'zbek adabiyotshunoslari Aziz va Laziz Qayumovlar davom ettirishganligi haqida ma'lumot beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, G'ulomhusayn Aliev Qo'qon adabiy muhiti bilan ham yaxshi tanish bo'lgan.

Muallif Shu bilan birga Ozarbayjon ijodkorlarining Alisher Navoiy ijodiy merosdan ruhlanganligiga ham alohida ta'kidlab Mirza Fatali Oxundzoda tadqiqotlariga to'xtaladi.

Hamza Hakmzoda Niyoziy va uning teatr sohasidagi faoliyatiga ham tadqiqotda alohida to'xtalib o'tiladi. Unda dramaturgning istanbul, Baku, va Qo'qondagi faoliyatlari keng yoritilib, Hamza bilan Sidqiy Ruhulloning taniShligi va ikki o'lka teatr sohasi rivoji uchun olib borilgan xizmatlari e'tirof etiladi. Undan tashqari o'zbek yozuvchisi Asqad Muxtorning: "Men Hamzaning Mirza Fatali Oxundov ijodi bilan yaqindan tanish bo'lganiga Shubha etmayman", degan fikrlari orqali ikki ijodkor hamkorligini dalillaydi.

"Ozarbayjon va o'zbek adabiy aloqalari (1920 – 1960)" qismida o'zbek-ozarbayjon aloqalarining o'tgan asrning 20-60 yillari haqida bahs yuritiladi. Bu davrdagi adabiy aloqalar bilan birga madaniy aloqalarning rivojiga ham to'xtaladi.

Unda Bakuda nashr etilgan "Mulla Nasriddin" jurnali faoliyati, Sharq xalqlari II festivali va unda ishtirok etgan o'zbek san'atkorlari haqida batafsil tanishish mumkin.

1920 – 30 yillarda o'zbek yozuvchilaridan G'afur G'ulomning "Hikoyalar" va "Sohibkorlar erlarini egalladilar" kitobi, Hamid Olimjonning "Xumor sochlar", G'ayratyning "Xoin yuraklar", Oydin Sobirovaning "Shahar qo'shig'i", 1933 yilda esa Abdulla Qahhorning "Qotilning tug'ilishi", Maqsud Shayxzodaning "O'n she'r" va boShqa adiblarning asarlari Bokuda o'zbek tilida nashr etilganligi uShbu tadqiqotda keltiriladi.

Ozarbayjon adabiyotshunosligida o'zbek adabiyotining o'rganiliShi masalalariga ham tadqiqotda keng o'rin beriladi. Unda professor Bakir Cho'ponzodaning "Amir Alisher Navoiy", "Navoiyning tili va tilshunosligi haqida", "Boyqaro va uning devoni haqida" kabi qator qimmatli maqolalari tahlilga tortiladi.

Ozarbayjon – o'zbek adabiy aloqalarining rivojida, ushbu aloqalarning hozirga qadar davom etishida Hamid Oraslining ulkan xizmatlari borligini alohida ta'kidlab uning bir qator tadqiqotlariga murojaat qiladi.

Tadqiqotda keltirilgan yana bir qimmatli ma'lumot borki, bu nafaqat filologlar, balki biliograflar uchun ham juda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ozarbayjon

adabiyotshunoslaridan akademik Mammad Orif DadaShzoda, filologiya fanlari doktori Mirzoga Qulizoda, dotsent Habibulla Samadzoda, professor Muboriz Alizoda, dotsent Yusuf Ziyov Shirvoniy, professor Panoh Xalilov va boshqalarning o'zbek adabiyoti haqida yozgan maqolalarini sanab o'tadiki, bu katta bir bibliografik ma'lumot sifatida ham ahamiyatlidir.

G'ulomhusayn Aliev bu mafolalarni sanaSh va e'tirof etish bilan cheklanib qolmasdan, ba'zi maqolalarda yanglish faktlar, dalillanmagan fikrlar borligini ham ta'kidlab o'tadi.

Bir necha o'rinda o'zbek va ozarbayjon adabiyotida yaratilgan asarlarning qiyosiy tahliliga o'rin ajratadi. Jumladan, Hamza Hakimzoda, G'afur G'ulom, Samad Vurg'un, Hamid Olijon asarlarini keltirib o'tiSh mumkin.

Samad Vurg'un va Maqsud Shayxzodaning tarixiy mavzularga yondaShiSh metodlari haqida gapirib ularning farqli jihatlarini ko'rsatiShga harakat qilarkan, ijodkordan hech qachon tarixiy faktlarni sanalar asosida aks ettirishning talab qilish noo'rin, degan xulosaga keladi. Tadqiqotchi o'z fikrlarini dalillarkan, rus adabiyotining buyuk namoyondalari PuShkin, Gogol, Tolstoy asarlari ustida ham to'xtalib o'tadi. Maqsud Shayxzoda va Voqifning tarixiy asarlarini qiyosiy tahlil qilarkan "*San'atkorlar Ozarbayjon va o'zbek xalqining o'tmishiga hozirgi zamon talablari darajasidan kelib chiqqan holda yondashib, tarixiy taraqqiyotning hal etuvchi kuchini tashkil qilgan xalqni bor qudrati bilan tasvirlay olishgan*", degan xulosaga keladi. Tadqiqotchi bu iShda badiiy asar mualliflarining o'zaro ta'sirlarini asar qahramonlari orqali ham ko'rsatib beradi. Masalan, Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romani qahramonlari Otabek va Kumushlarning Fuzuliy g'azallarini o'qiSh tasvirlarini keltiriliShi fikrimizning dalilidir.

Adabiy aloqalar rivojida adabiyotshunoslik bilan birga badiiy tarjimaning ham o'ziga xos o'rni mavjud. Ikki xalq adabiyotining gullab yaShnaShi uchun badiiy tarjimaning o'ziga xos o'rnini ko'rsatib berarkan "... badiiy tarjimalar ham milliy tillarning boyiShiga sabab bo'ladi. Sovet hokimiyati milliy Shakllar va milliy tillarga katta rivoj berdi, ularning boy ichki imkoniyatlarga ega bo'lgan milliy madaniyatlarini yaShnatdi, tillarini soflaShtirdi", deydi. Shu bilan birga bu ikki til bir-biriga juda yafin bo'lsa-da, tarjimalardagi ba'zi muvaffaqiyatsizliklarni tanqid qilib: "Adabiyotshunos Bakir Nabiev "O'zbek She'riyati"ning tarjimasini haqida Shunday deb yozadi: "Mirtemirning "Onaginam" She'rining Ismoil Sulton tomonidan, Sobir Abdullaning "O'zbekiston" She'rining esa I.Qobil tomonidan qilingan tarjimalarini muvaffaqiyatli deb bo'lmaydi", deb yozadi tadqiqotchi. Shu o'rinda o'zbek olimi, professor Izzat Sultonning "Ozarbayjon va o'zbek tillarini bir-biriga tarjima qiliSh u qadar murakkab masala emas. Tushunarsiz so'zlar juda kam topiladi. Yozuvchi yozuvchini shaxsan tanimog'i lozim. Bu tarjimaning yuqori

saviyada bo'lishini ta'minlaydi", degan fikrlarini ham keltiradi. Bu esa olimning ikki til go'zalliklaridan birdek boxabar ekanligidan dalolat beradi.

G'ulomhusayn Aliev tadqiqoti keng qamrovli bo'lib, bu nafaqat o'zbek-ozarbayjon adabiy aloqalarini adabiyotshunoslik, tarjima sohasidagi yutuqlariga to'xtaladi, balki madaniy tadbirlar, teatr, kino sohasidagi faoliyatiga ham keng to'xtaladi. A.Fitratning "Hind ixtilolchilari", Abdulla Qahhorning "Shohi so'zana" pesalarining Ozarbayjon teatrida, Mehdi Husaynning "Olov" pesasini o'zbek drama teatrida sahnalashtirilganligi va bu filmlar ham aloqalarning mustahkamlanishi uchun xizmat qilganligini ta'kidlaydi.

Tadqiqotchi o'z tadqiqotida o'tgan asrning boshlaridan 60-yillarigacha bo'lgan davr o'zbek-ozarbayjon adabiy aloqalarini bir erga jamlab tadqiq etishga harakat qiladi. Tarjima, adabiyotshunoslik, teatrshunoslik, san'at sohasidagi ilmiy va ma'rifiy manbalarni chuqur o'rganadi. Eng muhimi, olim o'zbek tilini mukammal o'rganadi. O'zbekistonning turli shaharlarida bo'lib, to'plangan manbalarida qayd etilgan asar mualliflari, olimlar, shoir va yozuvchilar bilan uchraadi. Oliy o'quv yurti talabalari bilan dars jarayonlarida muloqotga kirishadi. Bir qancha vaqt Samarqand va Qo'qon shaharlarida mahalliy aholi bilan birga yashaydi. Tinib-tinchimagan olimning bu harakatlari o'zbek-ozarbayjon adabiy aloqalari xususidagi yirik fundamental tadqiqotning yuzaga keliishiga xizmat qiladi. Tadqiqot sovet davrida yaratilgan bo'lsada, unda to'plangan manbalar bugungi adabiyotimiz va adabiyotshunosligimiz uchun ham qimmatli manba sifatida uzoq yashab qoladi.

G'ulomhusayn Alievning "Ozarbayjon-o'zbek adabiy aloqalari (1920 – 1960-yillar)" ilmiy-tadqiqot asari 2019 yilda o'zbek tiliga o'girildi va O'zbekistonda taqdimot marosimi o'tkazildi. Uchbu maqola Shu kitobning mazmuni va uning yaratilishi haqida.

Maqolada o'zbek adabiyotshunos olimlari Laziz Qayumov, Ozod Sharafiddinov, Mamajon Rahmonov, Mahbuba Qodirova, Suyima G'anieva, G'affor Mo'minov, Muhammad Sharipov, Botirxon Valixo'jaev, Shavkat Shukurov, Sattor Haydarov, Ahmad Alievlarning ilmiy ishlari haqida G'Alievning qaraglari haqida fikr yuritiladi. 20 asrning boshlaridagi adabiy-madaniy aloqalar, matbuot sohasidagi yangilanishlar haqida fikr yuritadi.

**“PADARKUSH” XORIJLIK OLIMLAR TALQINIDA
(TEMUR KO‘JAO‘G‘LI VA EDVARD OLVORT TADQIQOTLARI ASOSIDA)**

Qo‘chqorova Marhabo,

filologiya fanlari doktori

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti yetakchi ilmiy xodimi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” milliy fojiasining ikki xorijlik olim Temur Ko‘jao‘g‘li (turk olimi) hamda Edvard Olvort (amerika olimi) tomonidan yaratilgan tadqiqotlarga to‘xtalindi. Ularning o‘ziga hos tahlillari tadqiq etildi.

Kalit so‘zlar: Jadid dramaturgiyasi, Temur Ko‘jao‘g‘li, Edvard Olvort, turk olimi, amerikalik o‘zbekshunos, milliy fojia, sotsiologik tadqiq.

Annotation: In this article, “Padarkush (The Killer of Father)” national tragedy of Mahmudhoja Behbudi, was focused on research created by two foreigner scientists Temur Kozhaugli (Turkish scientist) and Edward Allworth (American scientist). Their unique analyzes were studied.

Key words: Jadid dramaturgy, Temur Kozhaugli, Edward Alworth, Turkish scientist, American Uzbek scholar, national tragedy, sociological research.

O‘zbek jadid adabiyotining “karvonboshisi” Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” milliy fojiasi nafaqat o‘zbek adabiyotshunoslari tomonidan, balki, o‘nlab xorijlik turkolog olimlarning tadqiqotlarida tadqiq etilgan. Jumladan, “Padarkush” milliy fojiasi va ilk o‘zbek dramaturgiyasi haqida Zaki Validiy To‘g‘on, Tohir Chag‘atoy, Ibrohim Yorqin, Mehmet Saroy, Nodir Davlat, Temur Ko‘jao‘g‘li, Germaniyada Johannas Benzing, Boymirza Hayit, Ingeborg Baldauf, Amerikada Edvard Olvort, Rossiyada A.N.Samaylovichlar ijobiy fikrlar bildirishgan. Mazkur tadqiqotchilar ichida Amerikalik o‘zbekshunos E.Olvortning “Ilk O‘rta Osiy dramasi “Padarkush”da metafora” nomli tadqiqoti e‘tiborga molik tadqiqotlardan sanaladi. Shuningdek, turkiyalik turkolog olim Temur Ko‘jao‘g‘lining “Turkistonda turkcha ilk teatr asari: Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” (Baba katili) pyesasi (1913)” maqolasi ham ana shunaytadqiqotlardan biridir. Olimning bu maqolasi “Türklük Araştırmaları Dergisi” da 2004-yil, 15-sonida chop etilgan.

Temur Ko‘jao‘g‘lining mazkur maqolasi “Kirish”, “Turkistonda Teatr va Padarkush”, “Padarkush” so‘zining aytilishi va yozilishi”, “Padarkush”dan oldin Turkistonda modern teatr”, “Padarkush”ning sahnalashtirilishi”, “Padarkush” pyesasining ta’siri”, “Padarkush”ning mazmuni va Metafora (majoz)”, “Chorlik va Sovet davrida “Padarkush” dramasi ijobiy-salbiy munosabatlar”, “Turkiya, Yevropa va ABDda “Padarkush” pyesasiga ijobiy bahslar”, “Padarkush” pyesasining nashrlari”, “Padarkush”ning tili va yozilishi” deb nomlangan jami “Kirish” bilan hisoblaganda o‘n bir qismdan iborat. Shuningdek, maqola so‘nggida Temur Ko‘jao‘g‘li tarjimasida “Padarkush” milliy fojiasi “Baba katili” nomi bilan Turkiya turkchasiga tarjima qilgan.

Olimning Mahmudxo‘ja Behbudi adabiy shaxsiyati hamda “Padarkush” milliy fojiasi haqida bildirilgan ba’zi bir original fikrlariga diqqat qaratamiz: “Gaspıralı İsmail Bey (1851-1914)’in öncügünde 19. yüzyılın sonlarına doğru bütün

Türk Dünyasını sarmış olan yenileşme (Ceditcilik) hareketinin Türkistan'daki en önde gelen önderlerinden biri Mahmud Hoca Behbudı (1875-1919)dir" [1. Temur Ko'jao'g'li, S. 1].

"... Avrupa örneğindeki modern tiatronun doğuşu ise, ancak Türkistan'daki Cedit (yenileşme) döneminde mümkün olabilmıştır. İşte, kendisi Türkistan'daki Ceditcilik akımının babası sayılan Mahmud Hoca Behbudı'nın Avrupa örneğindeki ilk modern tiatro örneğini de yazmışsa da olmasına bu yüzden şaşmamak gerekir" [1. Temur Ko'jao'g'li, S. 2].

*"İşte bu öğeleri gözönünde neden bulunduran Edward Allworth **Pederküş** (Baba katili) piyesindeki "öz babasının ölümüne neden olma" motifini edebiyatta metafor (mecaz)un kullanılışı olarak yorumlamaktadır" [1. Temur Ko'jao'g'li, S. 7].*

*"Allworth bu piyesi aynı zamanda alegorik bir eser olarakda bitemler. Gerçekten, bup piesteki kişilerin adları da Allworth' un işaret ettiği alegoriyi desteklemektedir: Piyesin olumsuz tipi olan **Bay** (Zengin, Bey) "eğitim-öğretim'i dışlayan zenginleğin (Bay'in) bir gün nasıl yok olacağını gösteren "tanrisal adeletin yalnızca bir uygulayıcısı"dır, yani Allah'ın buyrugunu yerine getirer. Piesteki başka kişilerden etme görevini Taşmurat ve Tanrikul'a verir" [1. Temur Ko'jao'g'li, S. 7].*

Xullas, Temur Ko'jao'g'li mazkur tadqiqotida o'zbek behbudiyshunoslari va jadidshunoslaridan B.Qosimov, Sh.Rizayevlarning tadqiqotlaridan nihoyatda unumli foydalangan. Shuningdek, B.Qosimov nashrga to'plab, tayyorlagan, kirish so'zi bilan chop etilgan "Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar"iga suyanadi.

Muhimi, katta turkolog olim Temur Kojao'g'li o'zidan oldin Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodi bo'yicha tadqiqot yaratgan o'zbekshunos olim Edvard Olvortning o'nlab tadqiqotlariga suyanib mulohaza yuritadi. Tadqiqotchi Z.Mirzayeva o'zbek jadid adabiyotining Amerikada o'rganilishi bo'yicha tadqiqot yaratib, Edvard Olvortning "Murder as Metaphor in the First Central Asian Drama" tadqiqotiga ham to'xtalib, hatto mazkur maqolani ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girib, "Jahon adabiyoti" jurnalida chop ettirdi. [2. Jahon adabiyoti, 107-113.]

Z.Mirzayeva tarjimasidagi E.Olvortning "Birinchi o'zbek dramasi" maqolasidan foydalanamiz. "Pyesaning "Padarkush" deb nomlanishiga e'tiroz bildirishi mumkin. Chunki Behbudiyning tasvirlashicha, Boyning asosiy qotili uning o'g'li emas, balki Tangriqul, lekin ikkinchi jihatdan o'g'il bu jinoyatning asosiy ishtirokchisi ekanligiga hech kim shubha qilmaydi. Demak, chuqurroq qaralganda, dramaning bunday nomlanishi asosli e'tiroz uyg'otmaydi. Jinoyatchini mavhum bir kimsa sifatida ko'rsatilishida ham muallifning o'z masadi bor. U dramada faqat otaning fojiali taqdiri misolida majoziy ravishda ota-ona. Ona Vatan va Turkiston musulmonlarining qismatiga hamishora qiladi. Agar jamiyat mustamlaka zanjiri ostida yashasa, jaholat, nodonlik avj olsa, buning uchun kim aybdor bo'ladi? Muallif bu savolni tomoshabinlar hukmiga havola etadi.

Fikrni allegoriya, metafora va aniq jonli obrazlar vositasida ifodalash Turkiston adabiyotida azaldan mavjud bo'lgan va XX asr boshlarida ham qo'llanib kelinayotgan badiiy tasvir vosita (adabiy an'ana) lari hisoblanadi" [2. Jahon adabiyoti, 112.]

Har ikki olim birinchi o'zbek tragediyasi "Padarkush"ni nihoyatda batafsil va katta nigoh bilan tahlil etib berishgan. Xususan, E.Olvort tragediyada "o'lim" metaforasini atroflicha badiiy-estetik tahlil etib bergan. Olim shunday yozadi: *"Ma'lum bo'ladiki, "Padarkush"da aynan va ramziy ma'noda turli darajadagi o'lim sabablari metafora sifatida ko'rinadi. U oila boshlig'i (fransuzcha Patrie – patriarx – birinchi qabila va urug' boshlig'i)ning o'limini aks ettirish bilan bevosita madaniy qoloqlik tufayli asriy Turkiston inqirozga uchraganini, endi bunday yashab bo'lmasligini oldindan bashorat qiladi. Bir vaqtning o'zida muallif jamiyatning baxtsizlik, qoloqlik tomon ketishini ko'rsatish bilan birga, 1900-yillarda tuzilgan Markaziy Osiyo musulmonlari jamiyatining faol a'zolari parokanda bo'lib ketganligiga ishora qiladi. O'z davrining peshqadam adibi, birinchi dramaturgi yuqoridagi nozik mushohadalari orqali turkistonlik yoshlarga millat, jamiyat uchun nihoyatda dolzarb bo'lgan muhim va jiddiy muammolarni o'rtaga tashlaydi"* [2. Jahon adabiyoti, 112.]

E'tiborlisi shundaki, E.Olvortning "Padarkush" tragediyasi yuzasidan qilingan badiiy-estetik tahlillari sotsiologik tahlil bilan birlashib ketgan.

Xorijda Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodini tadqiq etgan tadqiqotlar orasida ikki olim Edvard Olvort hamda Temur Ko'jao'g'li yaratgan ilmiy izlanishlar alohida ajralib turadi. Bu tadqiqotlar Xorijdagi behbudiyshunoslikning yorqin manzarasi sifatida bugungi o'zbek adabiy tanqidchiligi hamda behbudiyshunoslik sohasida katta ahamiyatga molik sanaladi. Bugungi o'zbek behbudiyshunoslari xorijlik olimlarni mutassil qiziqtirib kelayotgan jadid ma'rifatparvari Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodini o'rganishdan to'xtamadi. Yaqin yillar ichida akademik N.Karimov hamda Z.Abdurashidxonovlar yangi ilmiy tadqiqot va monografiyalar yaratishdi.

Xulosa shuki, xorijiy behbudiyshunoslik sohasi ham alohida monografik tadqiqot sifatida o'rganilishga muhtojdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Timur Kocaoğlu. Türkistan'da türkçe ilk tiatro eseri:Mahmud Hoca Behbudi'nin "Pederküş" (Baba katili) piesi (1913) // *Türklük Araştırmaları Dergisi* 2004-yil, Sayi 15. – S. 177-262.
2. Olvort E. Birinchi o'zbek dramasi // *Jahon adabiyoti*. 2009. №8.-B. 107-113.
3. Karimov N. Mahmudxo'ja Behbudiy. Hayoti. Faoliyati. Taqdiri. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 320 b.
4. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi, to'plovchi, so'z boshi va izohlar muallifi – B.Qosimov. – Toshkent6 Ma'naviyat, 232 b.
5. Rizayev Sh. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq, 1997. – 320 b.
6. Mirzayeva Z. XX asr O'zbek adabiyotining Amerikada o'rganilishi. – Toshkent, 2011.

"JAMILA" QISSASIDA MUHABBAT VA ADOLAT ZIDDIYATI

Allambergenov Anvar Erkabayevich,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti katta ilmiy xodimi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Chingiz Aytmatovning "Jamila" qissasidagi muhabbat va adolat ziddiyati masalalari tahlilga tortilgan. Tahlillar davomida obrazlar munosabati, vaziyat, holat va detallar borasida so'z yuritilgan. Yozuvchining tasvir mahorati, uslubiy o'ziga xosligi, talqin qirralari haqida qisqacha bayon qilingan. Maqolada bahs etilayotgan mavzuga monand fikrlardan uzundilar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** mavzu, muhabbat, adolat, ziddiyat, uslubiy o'ziga xoslik, talqin, tahlil, tasvir, vaziyat, holat, mahorat.*

***Аннотация.** В данной статье анализируется конфликт между любовью и справедливостью в рассказе Чингиза Айтматова «Джамиля». В ходе анализа обсуждалось соотношение образов, ситуации, и деталей. Кратко обсуждались имиджевое мастерство автора, стилистическое своеобразие и аспекты интерпретации. В статье содержится ряд мнений, близких к обсуждаемой в статье теме.*

***Ключевые слова:** тема, любовь, справедливость, конфликт, стилистическое своеобразие, интерпретация, анализ, образ, ситуация, состояние, мастерство.*

***Abstract.** In this article, the conflict between love and justice in Chingiz Aitmatov's short story "Jamila" is analyzed. During the analysis, the relation of images, situation, and details were discussed. The author's image skills, stylistic uniqueness, and interpretation aspects were briefly discussed. The article contains a number of similar opinions to the topic discussed in the article.*

***Key words:** theme, love, justice, conflict, stylistic originality, interpretation, analysis, image, situation, state, skill.*

Atoqli qirg'iz yozuvchisi, jahon adabiyotining yorqin siymolaridan biri Chingiz Aytmatovning "Jamila" qissasini o'qimagan o'zbek kitobxonlari deyarli yo'q bo'lsa kerak. Shu sababli ham qissa voqealariga batafsil to'xtalib o'tirmasdan to'g'ridan to'g'ri tahlillarga o'tmoqdamiz. Qissani o'qigan har bir kitobxonda Jamila haqiqatdan ham Sodiqni sevganmidi? Sevgan bo'lsa nega unga xiyonat qildi? Nega uni kutmadi? Jamilaning bu qilmishini oqlash mumkinmi yoki yo'q? Degan bir talay savollar tug'ilgan bo'lishi tabiiy. Shunday savollar qarshisida qolgan o'quvchi qissaning dastlabki voqealari bayoniga e'tibor qaratishi kerak. Ovulga aravakashlar zarurati borligi uchun Jamilani ham ular safiga qo'shish kerak edi. Buning uchun qaynona va qaynotadan ruxsat olish lozim. Muallif tilidan bayon qilinadiki, qaynota oiladagi barcha ishlar ixtiyorini qaynonga topshirgan. Shu sababli Jamilaning arava haydashiga ham ruxsat qaynonadan olinadi. "Jamila" qissasidagi voqealar asosan roviy ya'ni Seit tilidan beriladi "O'shanda bu ishning oqibati nima bilan tugashini oyim ham, men ham bilmagan edik. Jamilaning ikki ot qo'shilgan aravani bemalol haydab ketishiga hech ham shubha qilganim yo'q. Chunki u yoshligidan yilqichilar orasida o'sib, katta bo'lgan, tog' etagiga joylashgan Baqayir ovulidagi yilqichining

qizi edi, Sodiq akam ham chavandoz bo'lgan ekan, u bir kuni yaylovdagi chorvadorlar to'yi munosabati bilan o'tkazilgan poygada Jamilaga yetolmay qolgan ekan. Shundan keyin izza bo'lib, uni olib qochib ketganligini bilardim."¹ Bu maqolamizga mavzuni qissadagi muhabbat va adolat ziddiyati deb nomlaganmiz. Asardan olganimiz ilk uzundida bir qizga adolatsizlik bo'lganini dalolatlovchi qisgagina jumla berilgan. Umumiy voqealar fonida ko'pchilik bu jumalarni eslayvermaydi. Sodiq qo'shni ovuldagi bir qizdan ot chopishda ortda qolib ketadi "shundan keyin izza bo'lib, uni olib qochib ketgan". O'zining obro'si, hurmati va qadr-qimmatini yo'qotmaslik, qaytanga uni ko'tarish, yanada mustahkamlash uchun sevmasa ham Jamilani olib qochadi. O'zida qizga nisbatan muhabbat bo'lmagandan keyin Jamiladan unga nisbatan nimadir kutish adolatdanmi?! Bu gaplar bilan Jamilaning harakatlarini oqlayotganimiz yo'q. Lekin uni buzuqlikda ayblashimiz noto'g'ri. U nafi yetovida Doniyorga ergashib ketdi desak ham xato bo'ladi.

Ba'zi sabablarga ko'ra urushga bormay, ovulda qolgan yigitlarning ayrimlari Jamilaga shilqimlik qilishganda u qattiq qarshilik qilgan. Shulardan biri Usmon. U salbiy obraz sifatida qissa sahnida bo'y ko'rsatadi. U oldin Jamilaga shilqimlik qiladi. Jamiladan unga nisbatan ro'yxushlik bo'lmay, faol qarshilik ko'rsatgandan keyin unga yuzlanib quyidagi gaplarni aytadi. "G'aram ostida taltayib yotgan Usmon qalin lablarini nafrat bilan burushtirib to'ng'illadi:

– Ol-a, mushukning bo'yi shiftga osig'liq turgan go'shtga yetmay, puf sassiq degan ekan... Shunga o'xshab, ko'p noz qilaverma. Ichingda jon-jon deb turibsanu, yana..."²

Aslida Usmon Jamilaning eri Sodiqning uzoq qarindoshi. U qandaydir bir sabab bilan urush maydonida emas, ovulda qolgan. Bu savolning javobi kitobxon uchun qorong'u. Haqiqiy erlar jang maydonida jon olib, jon berib yurgan bir paytda, Usmonga o'xshaganlar o'z ahvoliga qaramay sherlikni da'vo qilayotgan bir paytda Jamiladek qat'iyatli, ot chopishda uncha munch odamni oldiga o'tkazmaydigan, Usmon kabi sonda bor, sanoqda yo'qlarga o'zini xafa qildirib qo'ymaydigan qiz unga munosib javob qaytaradi. "Jamila unga yalt etib qaradi-da:

– Jon jon deb tursam turgandirman. Lekin peshonamga yozilgani shu ekan. Ey, ahmoq, buning kuladigan joyi bormi? Jon-jon deyish u yoqda tursin, ming yil toq o'tsam ham senga o'xshagan shumshuklarga nazarimni solmayman. Ahmoqsan. Ilgarigidek tinch zamon bo'lganda shunday deb bo'psan edi! –dedi."³ Bir juvondan yengilish, jisman va ma'nan mag'lub bo'lish alami Usmonni g'alati bir ahvolga soladi. Muallif Usmonning hamiyatsiz bir inson ekanligini qissadagi obrazlar tilidan

¹ Aytmatov Ch. Jamila 8-9-betlar

² Aytmatov Ch. Jamila. "Yangi asr avlodi" T.: 2022-yil 12-bet

³ Aytmatov Ch. Jamila. "Yangi asr avlodi" T.: 2022-yil 12-bet.

quyidagi iqrornlarni keltirib o'tadi. 1) Usmon ham odammi? It ham bir, u ham bir. 2) Xudo bilsin, bunday erkaklar dunyoda yo'qdir ham! 3) Ha, Usmon o'zi kimu uning so'zi nima bo'lardi. Bundan tashqari uzoq bo'lsada qarindosh urug'chilikning, bir ovulning bulog'idan suv ichib, bir so'qmoqdan yurganlarining, ertaga Sodiq eson omon qaytib kelsa uning ko'ziga, qarindosh urug'larning yuziga qanday qarayman degan istiholaning yo'qligi, Usmonning naqadar tuban kishi ekanligini ko'rsatadi. Yana ta'kidlash kerakki, yosh bo'lsada Seitning shu yerda borligiga qaramasdan o'zining qabih niyatini amalga oshirish uchun harakat qilganligi ham u haqda tasavvur hosil qilishga yetarli tasvir deb bemalol aytish mumkin. Usmonning bu harakatlarini hech bir qo'rquvsiz, hadiksiz amalga oshirishga urinishining bir nechta omillarni sanab o'tishga harakat qilamiz.

Birinchidan, shaxvoniy nafs qutqusiga tushub qolgan Usmonning xayoliga hech narsa kelmagan va nafsini qondirish yo'lida hech narsa ko'ziga ko'rinmaganligida;

Ikkinchidan, Sodiq Jamilani, Jamila esa Sodiqni haqiqiy ma'noda, chin ma'noda sevmaydi. Qirg'izlarning an'analari bo'yicha yigit qizni olib qochganligi munosabati bilan urfga binoan shunchaki er xotin bo'lib yashayotganligida;

Uchinchidan, muhabbat ustiga qurilmagan oila rasmiyatchilik kasb etishidan boshqa narsa emasligini bilib, shaxvoniy taklifga so'zsiz ko'nishiga astoydil amin bo'lib, shu ishga qo'l urganligida;

To'rtinchidan, yosh juvonning uzoq vaqtdan beri yolg'iz yashayotganligi sababli bu taklif unga ham ma'qul keladi deb o'ylaganligida;

Yana shu kabi katta-kichik sabablarni qator sanash mumkin. Lekin shuncha sabablar bo'lishiga qaramasdan Jamila Usmonni rad etadi. Nafaqat rad etadi, balki uning bu ishiga, muomalasiga, gap so'ziga yarasha munosib javob qaytaradi. Buni kutmagan Usmon Jamiladan qasd olishni ko'ngliga tugib qo'yadi. Usmonning bu niyati qissada ochiqlanmaydi, biroq asar yakunidagi vaziyatdan (Doniyor bilan Jamilaning birgalashib qochib ketishidan) ustalik bilan foydalanganligining o'zi bu niyat Usmonning ko'nglida ildiz otib ulgurganligidan darak beradi. Usmon uzoq bo'lsada qarindoshiga, uning toptalgan or-nomusiga achingan kishi qiyofasiga kirishi o'quvchida kuchli nafrat uyg'otadi. Usmonning ikkiyuzlamachiligiga uning quyidagi gaplarini yaqqol misoli tariqasida ko'rsatishimiz mumkin. Voqea bayoni roviy Seit tilidan berilyapti. "Qorong'unda timirskilanib uyga kelganimda hovlimizda shovqin-suron avjida edi: it egasini tanimasdi. Kimdir otga egar urardi. Bezori Usmon bo'lsa, har kungidek mast, otini gijinglatib, ovozining boricha baqirardi:

– Aytmaganmidim, mana, oqibati nima bo'ldi. Yo'lchiboy ota sharmandayi sharmisor bo'ldi. Qani ketdik, bu sayoq it, chala qozoqni ushlab bo'ynini uzmasam, otimni boshqa qo'yaman. O'n yilga kesilsam, kesilamanu, lekin har qanday yalangoyoqning xotinlarimizni olib ketishiga yo'l qo'ymayman. Qani kettik,

yigitlar!"⁴ Vaziyatdan foydalanish, ovul aholisiga va Sodiqqa o'zini chin do'st deb ko'rsatish, shuning barobarida Jamiladan qing'ir taklifiga keskin rad javobini olganligi, uning ustiga o'zini yer bilan bir qilganligi uchun Jamiladan, qolaversa, o'ziga zimdan raqib deb bilgani, o'zi ta'riflagandek chala qozoq, sayoq it va hech vaqosi yo'q (shu holda Jamilaning e'tiborini qozongan) Doniyordan qasd olishni ko'zlagan Usmon o'quvchi ko'z o'ngida butun yovuzligi, chirkinligi bilan namoyon bo'ladi. Usmon kabilar har qanday vaziyatda, har qanday holatda, hayotda ham adabiyotning turli xil janrlarida ham salbiy obraz sifatida gavdalanaveradi. Usmon obrazi har qanaqasiga muhabbat uchligidagi ortiqcha uchinchi shaxs ro'lini bajaradi. Sodiq, Jamila, Usmon bu uchlik qissada Doniyor obrazi harakatlana boshlagunicha shu tarzda bo'y ko'rsatadi. Doniyor va Jamila o'rtasida yaqinlik paydo bo'lganidan keyin esa, Sodiq, Jamila, Doniyor uchligi maydonga keladi. Usmonning ismi bu safar uchlikda qayd etilmagan bo'lsada, bu uchlik mojarosida faol ishtirok etuvchi obraz sifatida baholanadi.

Sodiq nohaqlik qurboni(mi)? Qissada eng kam harakatlangan, ammo voqealar markazida bo'lgan, ko'pchilik nazarida asosiy jabrdiyda, nohaqlik ko'rgan va g'ururi toptalgan obraz Sodiq haqidagi tahlillarga kirishsak. Sodiq qirg'iz ovullarining birida katta bo'lgan, chavondo, dehqon yigit. Qo'shni ovullarning birida uloq choptirishda Jamiladan ortda qolib ketgan Sodiq izza bo'lganligi boisidan qizni olib qochadi. Shu yo'l bilan o'zini uyatli holatdan (ot chopishda qiz boladan ortda qolishini o'ziga nomus deb bilgan va shu ishni obrosini tiklashning yagona yo'li sifatida amalga oshirgan) chiqargan. Sodiq uylanishi bilan bir paytda urush boshlanib qoladi. U urushga ketadi. Asosiy voqealar Sodiqning urushdalik vaqtida sodir bo'ladi. Obrazlar tilidan retrospektiv syujet yordamida o'tgan hodisalar eslanadi. Aslida qissaning o'zi syujetning aynan shu turi ustiga qurilgan desak ham yanglishmagan bo'lamiz. Asosiy roviy Seit gaplari bilan qissa shunday boshlanadi. "Har gal safarga chiqishim oldidan kichkina yog'och ramkaga solingan surat oldida turish menga odat bo'lib qolgandi. Ertaga ovulga jo'nashim kerak. Mana, hozir ham o'sha suratga tikilib, go'yo undan oq yo'l tilayotgandek ko'zimni uzlomay, uzoq termilib qoldim."⁵ Kitobxonning qissaga bo'lgan qiziqishi shu boshlamadanoq ortib boradi. Voqealar shu tariqa surat chizilishining olis tarixiga qarab evriladi. Aslida Seit bilan Sodiq otasi ham onasi ham boshqa boshqa, lekin aka-uka ekanligining murakkab va chigal sabablari bayon etiladi. Ammo, Sodiq haqida deyarli gapirilmaydi.

Voqealar davomida goh urush maydonlaridan, gohida gospitaldan siyrak bo'lsada Sodiqning nomidan ovulga xatlar kelib turadi. "Darvoqe, xat yozishda bizning o'zimizga xos bir taomilimiz bor. Harbiydagi akalarim xatni otamning

⁴ Aytmatov Ch. Jamila. "Yangi asr avlodi" T.: 2022-yil 64-bet

⁵ Aytmatov Ch. Jamila. "Yangi asr avlodi" T.: 2022-yil 3-bet

nomiga yozishardi, pochta bo'lsa ularni onamga berardi, ularga javob yozish mening vazifam edi. Xatni o'qiy boshlashim bilan unda nimalar yozilganini darrov bilib olardim. Chunki hamma xatlar egiz qo'zilardek bir-biriga o'xshardi. Sodiq akam har doim xatni "Sog'inchli salom xat" degan so'zdan boshlardi. Keyin: "Yetib ma'lum bo'lsinki, u tomonda, ya'ni gullab-yashnayotgan Tolosning salqin havosida sog'-salomat, o'ynab-kulib yurgan jondan aziz, mehribon otajonim Yo'lchiboyga", – deb salomni otamdan boshlardi, keyin katta oyimni, so'ngra ishchan oyimni, ana undan keyin qavm-qarindoshlarimizning sog'ligini so'rab, eng oxirida "shuningdek xotinim Jamila ham eson-omon yuribdimi?" – deb bir og'iz qistirib o'tardi."⁶ Ko'chirmadan ko'rinyaptiki, Jamila eng oxirgi o'rinlarda eslangan, so'ralgan. Bu borada Sodiqni ayblash qiyin. Negaki, bunday holatda ota-onadan, qarindosh-urug'lardan oldin xotining ahvoli bilan qiziqish turkiy xalqlar tarbiyasiga to'g'ri kelmaydigan odobsizlik hisoblanadi. Ammo izlagan imkon topadi deganlaridek Sodiq ham bir yo'lini topib Jamilaning ko'nglini olishi kerak edi. Sababi o'zi yaxshi bilmagan, tanimagan odamlari orasida faqat Sodiq uchun yurgan, ixtiyorsiz bo'lsada ungagina bog'langanini unutmasligi lozim edi. Shularni inobatga olgan holda Jamila uchun alohida xat yozishi mumkin edi. Nazarimizda bunday e'tiborsizlik qisqa bo'lsada birga yashagan davrlarida ham muttassil davom etgan. Shu kabi katta kichik sabablar oqibati nima bo'lganligini qissa yakunida ayonlashadi. Xatlar o'zi siyrak kelganligi, shu to'rt enlik xatni olish ham bayram bo'lishi alohida masala. Jamilaning ham intizorlik bilan xat kutishini, kutganda ham faqatgina xat bilan kifoyalanmasdan uning ichidagi mazmuni bilan nihoyatda qiziqishini quyidagi parchadan ham anglab olishimiz qiyin emas. "Jamila har safar xatni qo'lga olishi bilan o'z-o'zidan qizarib ketar, uni harislik bilan tez-tez o'qiy boshlardi. Lekin xatning oxiriga yaqinlashgani sayin yuzidagi quvonch alangalari so'nib, rangi o'chib, qoshlari yana chimrilib qolardi. Ba'zida xatni oxirigacha o'qib chiqishga ham sabri chidamay, hafsalasi pir bo'ladi-yu, g'ing demasdan, go'yo qarz olgan narsasini qaytarib berayotgandek bo'shshib xatni oyimning qo'lga tutqazardi."⁷ Jamilaning kutgan narsasi, kutgan gapi yoki kutgan odami xatda o'z belgisini, o'z aksini ko'rsatmaganligidan hafsalasi pir bo'ladi. Undagi kutush, ishonch, umid tuyg'ulariga zaha yetayotganligining bosh sabablaridan biri u xatlarda kutgan odamining zohirini ko'rolmayotganidan edi.

Shunday xatlardan yana birini Jamilaning uzoq qarindoshi va hamqishlog'i Karim ismli frontdan qaytayotgan yigit olib keladi. Qissada bu xatning Jamilaga yetib kelish tarixi qiziqarli tarzda tasvirlangan. Bu voqeaning asosiy nuqtalardan biri quyidagi parchada o'z aksini topgan.

⁶ Aytmatov Ch. Jamila. "Yangi asr avlodi" T.: 2022-yil 15-bet

⁷ Aytmatov Ch. Jamila. "Yangi asr avlodi" T.: 2022-yil 16-bet

“– Buni qara, xuddi bilgandek shu yoqqa qayrilibman-a! – dedi u hayajon bilan. – Sodiqning yonidan chiqqanimga atiga besh kun bo‘ldi, gospitalda u bilan birga yotdik, Xudo xohlasa, u ham bir ikki oyda kelib qoladi. Men ketayotganimda xotiningga xat yozib ber, o‘z qo‘lim bilan topshiray, deb xat yozdirib olganman... Juda yaxshi qilgan ekanman-da, mana, omonatingni ol! – deb xursand bo‘lib, askar shinelining ichidan uchburchak xatni olib, Jamilaga uzatdi.”⁸ Undan keyin xatni olgan Jamilaning holati tasvirlanadi. Xat matni qissada keltirilmaydi. Lekin, parchada diqqat qaratishimiz zarur bo‘lgan bir o‘rinlar mavjud. U ham bo‘lsa Karimning gospitaldan ketayotgan paytida Sodiqqa xotiningga xat yozib ber, o‘z qo‘lim bilan topshiray deb xat yozdirib olishida. O‘quvchida (nazarimizda Jamilada ham shunday) savol tug‘iladi. Nega xat yozib berish tashabbusi Sodiqdan chiqmadi? Nega xat yozib bo‘lib Karimga xatni aynan Jamilaga yetkazish kerakligini iltimos qilmadi. Jamilaning qat’iy qaror qabul qilishida ham aynan shu xatning yozilish tarixi, jarayoni va xat (o‘quvchiga ochiqlanmagan bo‘lsada) mazmuni ham asosiy sabab bo‘lishi shubhasiz. Shu xat voqealarning yangi to‘lqiniga sabab bo‘ladi. Tabir joiz bo‘lsa, aynan, shu xat voqealarni tezlashtirib, ularni yangi o‘zanga burib yuboradi.

Sodiqning xotininga nisbatan e‘tiborsizligini, balki o‘zining nazdida yetarlicha e‘tibor qaratganman deb hisoblar. Aniqrog‘i xotini kutgan e‘tiborni bermaganligining o‘zi Jamilaga nisbatan nohaqlik bo‘lgandir. Sodiqqa nisbatan nohaqlik bo‘ldimi degan savolni o‘rtaga qo‘yar ekanmiz oldin Jamilaga nisbatan bo‘lgan nohaqliklarni, adolatsizliklarni bir o‘ylab ko‘rish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ochig‘ini aytishimiz lozimki, qissada Jamilaga nisbatan qilingan haqsizliklar qabarib, bo‘rtib ko‘rinmaydi. Qaytanga elga kelgan to‘y qabilida baholanadi, hatto shu vaj bilan bu e‘tiborsizlik harakatlari oqlanadi ham. Jamilaning esa, birgina harakati uni ayblashga bemalol yetadi. Voqeaga baho berish, sharhlash yoki tahlilga tortishdan oldin unga qaysi nazar bilan qarashlik juda muhim sanaladi. Balki, Sodiq qon kechib, jon olib, jon berib, Vatan oldidagi burchini bajarayotgan bir paytda Jamila unga ikkilamchi masala bo‘lib ko‘ringan bo‘lishi ham ehtimolligi bor, albatta. O‘zbekning bobodehqon shoiri Mirtemir qalamiga mansub “Surat” dostonidan olingan uzundidagi lirik qahramon bilan Sodiqning kechinmalari aynan bir xil bo‘lishi mumkin emas deb kim qat’iy ayta oladi.

Gunohim ne? Jangda bo‘lganim,
Qon kechganim, yuz bor o‘lganim?
Diydoringni unutmayin,
O‘limlardan hatlab kelganim?⁹

⁸ Aytmatov Ch. Jamila. “Yangi asr avlodi” T.: 2022-yil 56-bet

⁹ Mirtemir. Surat doston www.kh-davron.uz

Nima bo'lganda ham Jamilaning qarori qat'iylashishida Sodiqning harakatlari, xatlari hal qiluvchi vosita vazifasini bajargan bo'lsa ne ajab. Bu yerda yozuvchi umumiy voqealar oqibatlarining sababi sifatida kichik bir detal o'laroq xat vositasidan mohirona foydalanganiga guvoh bo'lamiz.

Jamila obrazi ham qissadagi boshqa barcha obrazlar kabi (Seit obrazidan tashqari, albatta) tashqaridan kuzatiladi. Shu qatori Jamila ham qissaning boshidan to Doniyor bilan birgalikda bosh olib ketguniga qadar Seit nigohi (aslida muallif nigohi) bilan kuzatiladi, tasvirlanadi. Yuqorida tahlilga tortganimiz Usmon va Sodiq obrazlari bilan teng ravishda o'z-o'zidan Jamila obrazi ham bor edi. Ularning bir butunligisiz qissani yaxlit asar sifatida tasavvur qilishimiz qiyin bo'ladi. Jamila haqida bir yoqlama tasavvur qilishimiz qiyin. Negaki, muallif bu obrazni salbiy yoki ijobiy jihatlarini qabartirib ko'rsatmaydi. O'quvchini biryoqlama yo'naltirmaydi. O'quvchi faqat tashqi kuzatuv asosida gavdalanitirilgan obrazni tafakkuri, dunyoqarashi va saviyasidan kelib chiqqan holda baholaydi. Jamilani qilmishi uchun oqlaydiganlar ham, qoralaydiganlar ham talaygina. Ularning o'ziga yarasha izohlari, sharhlari, sabablari bor, albatta. Jamilaning harakatlariga ikki xil sabab ko'rsatish mumkin. Va shularning bittasi haqiqat bo'lib chiqadi. Bu dunyoda mutloq haqiqat yo'qligini inobatga oladigan bo'lsak shu bittasi ham mutloqlik kasb etmaydi. Shunday bo'lsada Jamilaning haraktlarini ikki xil tarzda izohlashga urinamiz.

Birinchisi, Jamila xato qildi. Xatosi shuki, el boshiga kelgan to'yda el qatori bo'lmadi. Eliga, eriga, yaqinlariyu butun ovul odamlari yuziga oyoq qo'ydi. Sharq ayoliga, musulima ayolga, turkiy ayollarga zid bo'lgan ishni qildi. Milliy qadriyatlar nuqtayi nazaridan qaralganda uyat, diniy qadriyatlar nuqtayi nazaridan qaralganda og'ir gunoh sanaladigan, yuqoridagi qadriyatlarning ikkalasiga ham mutlaqo zid bo'lgan, ayol shani, iffati, nomusiga yarashmagan ishni qildi. Urushda ko'plar turmush o'rtog'idan ayrildi, ko'plar umr yo'ldoshining bedarak yo'qolgan degan xabarini olib ularning tirigi yoki o'ligining (kutuvchilarning ko'plari bir tasodif bilan qaytib kelsa degan umid bilan yashaganligi ham ayon haqiqat) xabari kelishiga maqtal edi. Jamila ahyon-ahyonda bo'lsada erining xabarini bilib turardi. Boshqalarning intizor kutganlari kelmasayu urushdan qon kechib kelgan vatanning bir mard o'g'loniga ayol bo'lish sharafini toptash qaysi haqiqatga to'g'ri keladi?!

Jamilaning o'z haqiqatlari bor bo'lishi shubhasiz. Va shuning bilan birgalikda u haqiqatlarni yoqlaydiganlar, mustahkamlaydiganlar, himoya qiladiganlar ham topilishi aniq. Usmon obrazi tahlili davomida bir eslab o'tgan edik. Agar Jamila faqatgina ko'ngilxushlik, vaqtichog'lik uchun Doniyorga ilakishib qolgan bo'lsa, shuning natijasida u bilan birga qochishga majbur bo'lgan bo'lsa, Doniyordan oldin Usmondan bu jirkanchlik uchun dastlabki qadam tashlangan edi. Jamilaning keskin qarshiligiga Seit guvoh.

Bundan tashqari, Jamila so'nggi vaqtlarda Doniyor bilan munosabati murakkablashib, o'zi xohlamagan o'zanga burilib ketishini taxmin qilgan holda u bilan tutashishi mumkin bo'lgan yo'llarni tark etishni xohlaydi va arava haydash ishga mas'ul qilib qo'ygan O'rozmat oqsoqolning oldiga boradi va deydi ...

– Aravangizni oling! Qayoqqa yuborsangiz ham mayli, lekin stansiyaga g'alla tashimayman!

– Ie, senga nima bo'ldi, Jamilaxon, jin tegdimi? – dedi O'rozmat hazillashib.

– Jin tekkani yo'g'-u, lekin bormayman dedimmi, bormayman.

O'rozmatning jahli chiqdi:

– Bu gapingni qo'y, g'alla tashiysan, vassalom. Dedi u qo'ltiqtayog'ini yerga do'q etkazib urib. – Agar biron xafa qilgan bo'lsa, ayt, mana shu tayog'im bilan gardaniga bir tushiray. Bo'lmasa, ishingga jo'na. G'alla menga emas, frontga kerak, ering ham frontda-ku."¹⁰

Tavba ostonasida turgan Jamila bir qarorga kelgan bo'lishi, xayoliga kelgan fikrlarni haydab Sodiqqa sodiq rafiqqa, el yurt oldida iffatli kelin bo'lish uning qat'iy ahdi bo'lgandir. Bu ahdida sobit turishi uchun Doniyorni ko'rmasam bo'ldi degan yechimga kelgandir. Ammo, lekin, biroq unday bo'lmadi. Afsuski, unday bo'lmadi. "Shunday qilib, gapga chechanlik cho'rtkesarlik, xushchaqchqlik xarakteri chekka qirg'iz ovulida qudratli bir kuchni yuzaga keltiradi. Biroq ko'pchilik bu kuchning taftini, mohiyatini sezmas, anglamas yoki e'tibor qilmadi. Unga o'zlarining saviyasi, fikrlash darajasidan kelib chiqib baho berardi."¹¹ Bahoki, biz uni qissadagi obrazlarning va shu vaqtgacha uni o'qiganlarning va aynan Jamilani ayblaydiganlarning fikrlarini yuqorida umumlashma tarzida berib o'tgandik. Nima bo'lganda ham Jamilaning bir qarorga kelishida uning atrofida gilar ham asosiy omil bo'lganligi shubhasiz. Bular sirasiga qaynota, qaynona, er, qayin uka, ovul ahli, oqsoqollar-u, kampirlar hamma-hammasi sababchilar ichida bor.

Muallif maqsadidan kelib chiqqan holda Jamila haqida to'liq tasavvurga ega bo'la olmaganimiz kabi, Doniyor haqida ham to'kis tushunchaga ega bo'la olmaymiz. Doniyordagi sirlilik uni tushunishga bo'lgan harakatlarimizni ikki karra murakkablashtiradi. Jangda yaralanib ovulga kelgan tub ildizi shu yerlik bo'lgan "Doniyor qiyofasida o'ziga xos izalyatsiyalangan, katta ishlarga qodir sirli vujud paydo bo'lib, odamlarda hayart tuyg'usini uyg'otdi."¹² U bilan ancha vaqt birga yurib ham uning fel atvori haqida tayinli bir fikr, aniq bir gap aytish ham atrofida gilar uchun mahol bir yumush.

¹⁰ Aytmatov Ch. Jamila. "Yangi asr avlodi" T.: 2022-yil 52-bet

¹¹ G'aniyev I., Ibrogimov R. Chingiz Aytmatov va XXI asr. "Akademnashr" 2013-yil 87-bet

¹² G'aniyev I., Ibrogimov R. Chingiz Aytmatov va XXI asr. "Akademnashr" 2013-yil 89-bet

Doniyor obrazida ham bir vaqtning o'zida ikki qiyofa ko'rinada. Bu ikki qiyofani ikkiyuzlamachilik bilan bir tushunish umuman noto'g'ri bo'ladi. Ikki qiyofaki, birisida mardlik, jasurlik, botirlik, ishiga puxtalik, mehribonlik, vatanparvarlik kabi tushunchalari balq urib tursa, ikkinchisida pismiqlik, ichidan pishganlik, ayyorlik kabi birlamchi taassurot yuzaki tushunchalar turadi. Bu ikki qiyofaga sababchi bo'lgan har bir jihatga alohida-alohida sharh berish mumkin. Masalan, Doniyorning vatanparvarligi nimalarda yaqqol ko'rinadi? Uning vatanparvarligi eng avvalo, vatan uchun jang qilganida. Jangadan keyin yana kindik qoni tomgan ovuliga qaytganida. Vatan sog'inchi bilan yongan yuragini ohsta ohangga solib Olatog'ni alqab qo'shiq aytganida.

Eh, Olatog', Olatog',

Ota-bobom o'sgan yer

deb kuylab yubordi. Biroq u yana to'xtab, yo'talib qo'ydi, lekin keyingi ikki misrani yurakdan chiqarib zavq bilan aytdi:

Ey, Olatog', Olatog',

Oq bulut qalqib ko'chgan yer!¹³

Bu uzundini o'qigan kishi ikki-uch jumlaning bir-biriga qofiya qilishning nimasi vatanparvarlik degan fikrga kelishi mumkin. Lekin qissaning o'zini asarning ruhiga kirib o'qigan o'quvchida boshqacha talqin bo'lishi tabiiy. Bu misralarning aytuvchisi vatanga bo'lgan mehrini, vatanga bo'lgan muhabbatini, so'zlar, ohanglar bilan yurak-yuragidan vulqondek otilib chiqayotganini his qiladi. "Oltin donalari kabi keksa xirmonchilarning panshaxalaridan sachrab tushayotgan bug'doy donalarining mayin shildirashida ham, ko'kda parvoz qilib yurgan yolg'iz kalxatning qanot qoqishidan ham, xullas, ko'rib, uqib, sezib yurgan narsalarimning hammasidan Doniyorning kuyi eshitilayotgandek bo'lardi."¹⁴ Doniyorning kuyi shu qadar jozib ediki, uning ohangidan sevgi, sog'inch, muhabbat, hijron tuyg'ularining qorishiq nafasi ufurib turardi.

Ishchanlik, mehnatkashlik, mehnatdan qochmaslik borasidagi fikrlar tasdig'ini uning ikki-uch kishi birgalashib ko'taradigan katta qopni bir o'zi aravadan olib ko'rsatilgan manzilgacha yerga qo'ymasdan, boshqalardan yordam olmasdan, kerak bo'lsa hayotini xavf ostiga qo'yib olib borganida ko'rishimiz mumkin. Mehribonligi borasidagi fikrlarga ham talay misol keltirish mumkin. Va amin bo'lish kerakki, mehrni so'zsiz ham izhor etish, ma'lum bir harakatlar yoki nigohlar orqali ham namoyon qilish mumkinligiga. "Men ham o'zimni to'xtata olmay qotib-qotib kulardim. Bu safar yangamni qo'riqlash esimga ham kelmabdi. Birgina Doniyor indamay, qovog'ini solib o'tirardi. Unga ko'zim tushishi bilan men ham jim bo'ldim.

¹³ Aytmatov Ch. Jamila. "Yangi asr avlodi" T.: 2022-yil 36-bet

¹⁴ G'aniyev I., Ibrogimov R. Chingiz Aytmatov va XXI asr. "Akademnashr" 2013-yil 40-bet

U xirmonning bir chekkasida yolg'iz o'zi o'tirgan ekan. Doniyor yigitlarga yeb qo'ygudek o'qrayib qarar, vajohatidan go'yo hozir yugurib borib Jamilani ularning qo'lidan ajratib oladigandek edi."¹⁵ Ko'chirmadagi oddiygina bir misoldan mehr va qahr ifodalaniyotganligini anglash qiyin emas. Bu lavhada Jamilaga hazil-huzil qilayotgan yigitlarga nisbatan kuchli g'azab zohiran ko'rinayotgan bo'lsa, botinan Jamilani qizg'onish, lekin uni oshkor eta olmaslik alami, o'z mehrini hech bo'lmasa shular kabi hazil-huzil orqali namoyon eta olmayotganligidan qiynalish tuyg'ulari Doniyorni o'rtayotganligi uning portretidan ayon bo'lib turibdi. G'alla dalasidan stansiyaga butun mavsum davomida g'alla tashish asnosida Doniyor Jamilani pinhona sevdi, pinhona ayadi, pinhona erkalatdi. Sinchiklab qaralsa izhorlarning barisi ramzlar bilan oshkor qilingan Jamila ham buni dastlabki, bosqichlardayoq sezib kuni mensimagan, hazillashish asnosida kamsitgandi. "Hoy yigit, isming nima, Doniyormidi, ko'rinishdan erkakka o'xshaysan-ku, qani yo'l boshla!"¹⁶ Jamila tomonidan Doniyorga nisbatan e'tiborsizlik, gap orasida yuqoridagi qabilda pichinglar, kesatiqlar, kamsitishlar bu kabi munosabatlar boshida hazil-mazax gaplar bo'lsa, keyinchalik Doniyorni kuzatish, yaqindan bilish natijasida o'zgaradi. "Kunlardan birida biz stansiyadan ovulga qaytib kelayotgan edik. Qosh qorayib qolgandi. Ko'kda yulduzlar jimirlardi, atrof jimjit, bu sukunatni Doniyorning vodiy bo'ylab yangragan ashulasigina buzardi. Jamila ikkimiz uning orqasidan borardik. Doniyorning ashulasi bu safar negadir yolg'izlik dard alamlarini ifoda qilgandek juda mungli eshitilib, tomog'imga bir barsa tiqilgandek bo'ldi. Jamila bu safar qo'llarini Doniyor tomon uzatib, unga yaqin bordi-da, aravaga suyanib, boshini quyi solganicha indamay ketaverdi. Doniyorning ovozi tobora kuchayib, tungi dashtda yangidan to'lqinlana boshlaganda, Jamila qaddini rostlaganicha aravaga sakrab chiqib oldi."¹⁷ O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning har bandi "U qo'shiq kuyladi yor shaniga mast..." deb boshlanuvchi go'zal she'ri nazarimizda aynan Doniyorning ovulga kelganidan boshlab to Jamila bilan u yerni tark etgunicha bo'lgan voqealarni o'zida aks ettirgandek taassurot qoldiradi.

U qo'shiq kuyladi yor sha'niga mast, Na kuldi, na qatra to'kdi yoshini.
U kuyladi mag'rur, qiz bo'lsa shu vaqt Huzuriga keldi egib boshini.¹⁸

Doniyor Jamilaning sevgisini qozonish uchun unga ortiqcha va'dalar bergani yo'q. Yolg'on gapirgani yo'q. Doniyorda na uy, na boshpana, na qora tortib boradigan biror yaqin insoni bor edi. Lekin unda sevgi to'la yurak bor, mehr bor muhabbat bor! Doniyor uylanmagan yigit edi, u xohlasa onasi o'pmagan qizga uylanishi, shu ovulning o'zida oila qurib bola chaqali bo'lishi mumkin edi. Nega aynan birovning

¹⁵ Aytmatov Ch. Jamila. "Yangi asr avlodi" T.: 2022-yil 45-bet

¹⁶ Aytmatov Ch. Jamila. "Yangi asr avlodi" T.: 2022-yil 24-bet

¹⁷ Aytmatov Ch. Jamila. "Yangi asr avlodi" T.: 2022-yil 49-bet

¹⁸ Oripov A. U qo'shiq kuyladi... www.ziyouz.com

hasmini, jufti halolini tanladi. Muhabbat deb atalmish bir tuyg'u Doniyorni shu ishlarga undadimi? Muhabbat atalmish tuyg'u Jamiladek sho'x shaddod ayolni yuvoshgina bir tarzda ko'nglida muhabbat va adolatning olishuvlari bilan Doniyorning yetovida ketishga sabab bo'ldimi? Xuddi shu olishuv Doniyorning ham qalbini o'rtamagan deb kim ayta oladi?!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Aytmatov Ch. Jamila "Yangi asr avlodi" T.: 2022-yil.
2. G'aniyev I., Ibrogimov R. Chingiz Aytmatov va XXI asr. "Akademnashr" T.: 2013-yil.
3. www.ziyouz.com
4. www.kh-davron.uz

ANNA AXMATOVA SHE'RIYATI: KECHA VA BUGUN, O'XSHASH NUQTALAR VA TAFOVUTLAR

Xosiyat Rustamova,
*O'zbekiston Respublikasi Fanlar
Akademiyasi
O'zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotasiya. Ushbu maqolada bugungi kunda zamonaviy adabiyotshunoslikda Anna Ahmatova she'riyatining o'ziga xos yo'nalishi bo'lgan avtobiografik xususiyati haqida so'z boradi. Shu jumladan, mazkur maqola mavzusi doirasida rasmiy va ilmiy adabiyotlar o'rganilib shoir she'riyatining avtobiografik xususiyatlari ochib berildi. Xususan, ijodkor tabiatidagi davr muammolariga nisbatan ichki isyon she'rlari misolida tahlil qilindi. Maqolaning xulosa qismida shoir ijodiga doir fikrlar umumlashtirilib she'riyatini o'rganishda tegishli taklif va tavsiyalar keltirildi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy adabiyot, avtobiografik xususiyat, she'riyat, ijod olami.

Abstract. This article talks about the autobiographical feature of Anna Akhmatova's poetry, which is a specific direction in modern literary studies today. Including, within the scope of this article, official and scientific literature was studied and the autobiographical features of the poet's poetry were revealed. In particular, it was analyzed on the example of the poet's internal rebellion against the problems of the time in the nature of the creator. In the concluding part of the article, thoughts on the work of the poetess were summarized and relevant suggestions and recommendations were given for the study of her poetry.

Key words: Modern literature, autobiographical feature, poetry, creative world.

Аннотация. В данной статье говорится об автобиографичности поэзии Анны Ахматовой, которая сегодня является специфическим направлением в современном литературоведении. В том числе в рамках данной статьи была изучена официальная и научная литература и выявлены автобиографические черты поэзии поэта. В частности, анализируется на примере внутреннего бунта поэта против проблем времени в характере творца. В заключительной части статьи были обобщены мысли о творчестве поэтессы и даны соответствующие предложения и рекомендации по изучению ее поэзии.

Ключевые слова: современная литература, автобиографичность, поэзия, творческий мир.

KIRISH

Adabiyotda modernizmning kirib kelishi har jihatdan badiiy adabiyotga doir haqiqiy kashfiyotlarning ahamiyatini anglash imkonini yaratdi. Yu. Ayxenvald, I. Annenskiy, V. Bryusov, V. Jirmunskiy, V. Ivanov, S. Makovskiy, O. Mandelshtam, N. Osup, I. Severyanin, B. Eyxenbaum singari ijodkorlar qatorida modernizmning eng ko'zga ko'ringan vakillaridan sanaladilar. Axmatovaning og'ir va iztirobli kechinmalardan iborat ijodi shoir shaxsiyatining o'ziga xosligi, betakrorligi va jozibadorligini ko'rsatib turadi. Erkak va ayol ruhiyatidagi mushtarakligu nomutanosibliklar ijodining asosini tashkil qiladi. "Men ayollarni so'zlashga o'rgatdim", deydi shoirning o'zi bir murojaatida. Bunday demoqlikka shoirning

yetarlicha asosi bor edi. Chunki uning adabiyotini o'z davrida tuzum tomonidan toptaldi va uning adabiyotida zo'ravonlikka qarshi kuchli isyon o'z aksini topdi. Anna Axmatova hayoti ayol bardoshi va matonatining inson idrok eta olmaydigan asrorlaridan biriga o'xshaydi. Shoiraning chekiga o'ta og'ir, ziddiyatli va dolg'ali zamonda yashash mas'uliyati tushdi. Ikkita jahon urushi... inqilob ko'plab taqdiralar qatorida uning ham hayotini ag'dar-to'ntar qilib yubordi. Yaqinlarining o'limi, qamoq, yo'qotish, ta'qib va tazyiqlar shoira qalbida o'chmas jarohatlarni soldi. Shu o'rinda bu ijodkor hayotida ro'y bergan bir fojiani keltirishni lozim, deb topdik.

Anna Axmatova XX asr rus she'riyatining yorqin vakillaridan biridir. U 1889 yilning 11 iyunida Odessada tug'ildi. Anna yoshiga yetay deb qolganida, uning oilasi shimolga — bizga Pushkin she'rlari orqali tanish bo'lgan mashhur Sarskoye Seloga ko'chib keladi. Bo'lg'usi shoiraning bolalik va o'smirlik yillari shu makon bilan bog'liq. Anna Axmatovaning ilk she'rlarida Sarskoye Selo manzaralari bor bo'y-basti bilan namoyon bo'lgan.

Anna Axmatova she'riyatini o'ziga xos xususiyatlarini bir qator olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan bo'lib, Kudrikova A., Kochetkova N., Basinskiy P., Fedyakin S., Pankeyev I., Gumilev N., Smirnova L. singari tadqiqotchilar o'zlarining maqolalarida shoira ijodini atroflicha tahlil etib gendir xususiyatlariga alohida to'xtalib o'tadi.

Anna Andreyevna Axmatova tarixiy fojialarni aks ettirgan she'rlaridan birida: «Erim go'rda, o'g'lim turmada — meni duo qiling», deb odamlardan iltijoli so'ragan. Chunki shoiraning faqat go'zal his-tuyg'ulari emas, balki nozik vujudi ham zo'ravon zamon poshnalari ostida ayovsiz toptaladi: eri Nikolay Gumilyovni 1921 yilda bolsheviklar otib tashlaydi [1].

Urushdan keyingi yillarda ham shoiraga oson kechgani yo'q. "Znamya" jurnalida e'lon qilingan turkum she'rlari uchun 1946 yili kommunistik partiya markaziy qo'mitasining qarori bilan siyosiy jihatdan qoralanib, Yozuvchilar uyushmasi a'zolidan o'chirildi. She'rlari, kitoblari ta'qiqlandi[2].

Tuzum uning o'g'li Lev Gumilyovni ham ayamadi, taqdir hazilini qarangki, yosh yigit bolsheviklar tomonidan avaxtaga tashlandi... 1949 yilning 6 noyabr kuni (ataylab bayramdan bir kun avval!) tergovchi mayin kekirib, Anna Axmatovaning xonadoniga tashrif buyurdi va: «Xonim, uyingizni tintuv qilamiz va o'g'lingizni qamoqqa olib ketamiz», deydi, so'ng charm papkasidan orderni chiqarib ko'rsatdi. Tintuv boshlandi. «Grajdanka Axmatova»ning shaxsiy buyumlari, latta-puttalari obdan titkilab ko'riladi. Xo'rlangan, haqoratlangan Anna Axmatovaning asab torlari chirs-chirs uzildi. Ular tilab-tilab olgan yolg'izgina o'g'lini oldiga solib haydab ketgach, shoira jamiki qo'lyozmalarini, hali e'lon qilinmagan she'rlarini, dostonlarini bitta qoldirmasdan yoqib yubordi! [3]

Lev Gumilyov bu gal o'n yil muddatga ozodlikdan mahrum etiladi. «Dohiy»ning 70 yillik yubileyi yaqinlasha boshlaydi. To'kilibgina, abgorgina bo'lib qolgan Anna Axmatovaga «ba'zi bir o'rtoqlar do'stona» maslahat beradi: «Iltimos, madhiya yozing! Axir, o'tmishda ham shoirlar podsholar nomiga qasidalar yozgan!» deyishib, yo'l-yo'riq ko'rsatadi... Axmatova umrida ilk bora ijodiy prinsipidan chekinib, Stalinni madh etib ikkita she'r yozdi (o'sha she'rlari zudlik bilan «Ogonyok» jurnalida e'lon qilingan turkumiga ilakishib dunyo yuzini ko'radi). O'n-o'n besh yil mobaynida bitta ham she'ri sho'ro matbuotida e'lon qilinmagan Axmatovaning turkumlari «Ogonyok» jurnalida ketma-ket potirlab chiqib ketganining boisi, albatta, «ijtimoiy zakaz» juda yuqoridan tushganini anglatadi. Biroq Stalin baribir shoirning o'g'li, taqdirning shuncha azoblariga qaramay atoqli turkiyshunos olim Lev Gumilyov ozodlikka chiqarmaydi... Mag'rur shoirni bu ham sindirolmadi. 1951 yili uyushma a'zoliciga tiklandi. Hali-hanuz darbadar shoirga, nihoyat, 1955 yili Komarovo shaharchasidan dala-uy berildi.

Shu tariqa shoir qalbida ayolni xo'rlaydigan jamiyatga isyon uyg'ondi. Anna Axmatova o'zini shoira (poetessa) emas, aksincha, shoir deb atashlarini istagan, deya ishontiradi biograflar. Ayol shoirlarning ana shu talablari tufayli talantning buyukligi, vazifasining masshtabi va o'zidan kechib yashashning naqadar muhimligi o'rganila boshlangan [4]. Bunday prinsipiiallik qayerdan keldi? XX asr ayollar she'riyati jiddiy qabul qilinmagani 1910-yillarda ayollar asarlariga quyidagicha tanqidiy fikrlar bilan yondashganlar: «Ayollar qalamiga mansub», «Muhabbat va gumon» va ularga eldan «tugal emas» degan tamg'a yopishtirilardi. Shu bois «poetessa» (shoira) so'zi go'yo masxaraomuz so'zday eshitilardi. Zinaida Gippius, masalan, o'z asarlarini erkaklar nomidan yozardi, birdan bir maqsadi – uni jiddiy qabul qilishlarini istardi. Ko'pgina ayollar erkakcha taxallus bilan she'rlarini chop qilishgan. Aslida shu muammo tufayli adabiyot, tilshunoslik, san'at, falsafada jamiyatda erkak va ayolning rollari o'rganila boshlandi. Ijodiy tajriba yangi uslublarni yuzaga keltirdi, ayniqsa, haqiqatni ifoda etish uchun modernistik yondashuvlar paydo bo'ldi. Keyingi yillarda tadqiqotchilar uchun ayol va erkak mualliflarning asarlaridagi o'ziga xos stillarni o'rganish ishlari keyingi yillarda ko'zga tashlanib qoldi [5]. Aytish joizki, adabiyot rivojiga psixoanalitik metodlar o'zining hissasini qo'shdi. Gender masalasini o'rgangani tadqiq qiluvchilarning ta'kidlashicha, bu masalaning vakillari shaxsiy hayotga katta ahamiyat qaratisharkan. Bunday misollar rus adabiyotida ham uchraydi.

Feministik qarashlar mohiyatini o'rganayotganda, gender farqlar, muallif biografiyasi, uning ijodiga ta'sir ko'rsatgan boshqa yozuvchilar, shuningdek, ijodkor yashagan davrning ijtimoiy-madaniy vaziyatni o'rganishni ham esdan chiqarmaslik kerak[6]. Masalan, Anna Axmatova davrida temir siyosat, ko'plarni tazyiq ostiga olgandi, sir emaski, Stalin davrida asosan ziyolilar qatlami ta'qib etildi, ular bundan

azob chekardilar va adolatsizliklar bilan ro'para keldilar. Nima qilganda ham, tuzumning qaqshatqich zarbalari shoir va adiblar ijodida katta rol o'ynagan va ijodiy shaxsni tarbiyalagan. Ayni shu shu ayovsiz zulm yulduzni tundan ajratib oldi, desak yanglishmaymiz. Quyidagi satrlarda shoirning iztiroblarini qanchalar quyuq ekanligini sezish qiyin emas.

От странной лирики,
Где каждый шаг - секрет,
Где пропасти налево и направо,
Где под ногой, как лист увядший, слава,
По-видимому, мне спасенья нет [7].

(G'ayritabiiy lirikadan, har bir qadam yashirin, chapda ham, o'ngda ham shuhratni olib ketguvchi bargday, jarliklar bor. Aftidan menga omonlik yo'qqa o'xshaydi.) Shoirning bir muddat tushkunlik ichra yozgan she'rdan ham zamon uni nechog'li azoblarga giriftor etganini ko'rish mumkin, u ayol edi, shu bois jamiyatda qanchalik azob tortdi. Istasa, istamasa bu vaziyatda hayotining qora sahifalari asarlarining satrlarida ko'rinish beradi. Uning she'rlaridagi dard ko'p hollarda biografik faktorlar bilan asoslangan.

Axmatova butun ijodida "shoir bo'lish ayol kishi uchun ahmoqlik" degan fikr noto'g'riligini isbotlashga urindi [8]. Shoir bu urinishida haq edi, chunki uch asrni hisobga olsa, rus adabiyotida ayollarning ismi qo'l bilan sanoqli, ularning birortasi Anna Axmatova fikrlarining quyuqligi, poetik talanti, tuyg'ularining kuchi bilan solishtirganda, unga tenglasholmaydi ham. Ammo shoir degan haq-huquqini qo'lga kiritish uchun uning uzoq kurashishiga to'g'ri keldi [9]:

Нет, царевич, я не та,
Кем меня ты видеть хочешь,
И давно мои уста
Не целуют, а пророчат.
(Yo'q, shahzodam, men emas,
Ko'rishni istaganingiz,
Lablarim anchadan buyon
Bo'sa hadya etmaydi, balki bashorat qiladi.)

Bu satrlar orqali Anna Axmatova oddiy ayollik baxtidan kechib, umrini shoirlikka bag'ishlaganini sezdirishga harakat qilayotganini bildirmoqda. Marinadan farqli o'laroq, Axmatova o'z ilhomini ayol qiyofasida tasavvur qila oladi, Muza xabar olmay qo'yganida, undan baxtiqaro odam dunyoda yo'q edi:

И - я не могу взлететь,
А с детства была крылатой.

(Bolalikdan qanotli bo'lib tug'ilganimga qaramay, uchib ketolmayapman). Bu zamonasining zo'ravonliklaridan toliqqan, qafasga tiqib qo'yishganidan siqilib ketgan, tutqun shoirning nolasi aslida.

Bir xil hayot, bir xil dard iskanjasidagi o'yovlarga boy hayotdan toliqqan shoirni ilhomsizlik dardi tamoman xarob qilardi. U bir satrida "Muza ushla po doroge", - deb yozadi, Axmatova: Ilhom parisi ketib qolganida shoir uchun yer yuzi haddan ortiq tor, go'yo nafas olib bo'lmas qabrga o'xshab tuyuladi va "jizn, kajetsya, visit na voloske" (hayot go'yo soch tolasiga osilib turganday tuyuladi), samolardan yog'ilishi kutilgan marhamatga intiq holda Anna Axmatova hamma shuhratni, ozodlikni, yoshligini, zavqini unutadi, hayotning har bir kuni zahar-zaqqum edi, buni shoir shu tariqa e'lon qiladi:

*Как и жить мне с этой обузой,
А еще называют Музой,
Говорят: "Ты с ней на лугу..."
Говорят: "Божественный лепет..."
Жестче, чем лихорадка, оттреплет,
И опять весь год ни гу-гу.*

(Bu yuk bilan qanday yashasam ekan, aytadilar: sen u bilan adirdasan, aytadilar: bu ilohiy shivirlar, Isitmadan og'irdir azobi, va yana bir yil jimjitlik.)

She'riyat odamlar qalbida ezguligu haqiqat urug'ini qadash uchun xizmat qilishi kerak, Anna Axmatova buni yaxshi anglagan va o'zining g'oyalari bilan "Hayot va muhabbat qisqa, she'riyat – abadiydir", degan Pushkinu Nekrasovga rosa yaqin bo'lgan. Buni quyidagi satrlari isbotlaydi:

*Позволь мне миру подарить
То, что любви нетленней.*

(Imkon ber dunyoga, abadiy muhabbatni taqdim qilayin).

Uning dunyoga muhabbati she'r tarzida edi. Axmatovaning "Veчер" (Oqshom), "Chetki" (Tasbeh) singari bir qator she'riy to'plamlardagi she'rlardan ular naqadar avtobiografik xarakterga egaligi seziladi. Bir qancha she'rlar o'zlari haqda o'zlari so'zlaydi. Bu saylanmalar Anna Axmatovaning shoir Gumilyov bilan turmush qurgan vaqtlarida yozilgan [10], u kunlab rafiqasini tashlab, Sarskoye Selodan ketar, yarim kechgacha qorasini ko'rsatmasdi, hatto Annadan o'zining "g'alaba"larini yashirmasdi. Garchand shoir bo'lsa-da, ich-ichidan baribir ayol edi. Anna Axmatova chuqur iztirob chekardi, ularda tashlab ketilganlik, yolg'izlik va rashk seziladi:

*Жгу до зари на окошке свечу
И ни о ком не тоскую,
Но не хочу, не хочу, не хочу,
Знать как целуют другую.*

*(Tongga qadar sham yoqib chiqaman,
Hech kimni sog'inmayman,
Istamayman, istamayman, istamayman
Boshqani o'pishlarini bilishni ham.)*

Bunday iztirobni xiyonat ta'mini totganlar biladi. Anna Andreyevna chindanam erini jonidan ortiq ko'rardi, lekin uchi? Ehtimol, sevgandir... Biroq she'rlarining shuhrati va omadidan mast bo'lgan Gumilyov Annani qafasga tiqib qo'ydi va hamisha jamiyatda erning ustunligini pesh qilib, uning iste'dodini tan olishni istamasdi. Bundan shoir qalbi zada bo'lgan edi. Quyidagi satrlardan u ayol sifatida qanchalar sabrli bo'lishga to'g'ri kelganini ko'rish mumkin. Bunday holatlar ko'pgina ayollarga begona emas. Chunki ayol tabiati, jamiyat shakllantirgan qarashlar, ba'zan o'zimiz beixtiyor amal qilamiz va bu yetarli darajada azobli tugaydi. Anna hayotidagi fojealar zulmdan azob chekkan hech bir qalbni befarq qoldirmaydi:

*Мне не надо счастья малого,
Мужа к милой провожу
И довольного, усталого,
Спать ребенка уложу.*

(Menga yarim baxt kerak emas, erimni ma'shuqasinikiga jo'natyapman, va charchagan bolamni uxlatmoqqa kirishaman).

*Но вдруг последняя сила
В синих глазах ожила:
"Хорошо, что ты отпустила,
Не всегда ты доброй была".*

(Biroq so'nggi kuch, ko'zlarda yaltiradi: "Yaxshiyam uni yubording, axir har doim ham mehribon bo'lmagansan) deya o'ziga o'zi taskin beradi va butun dardi satrlarga ko'chadi.

Xorligu haqorat Annani zulmga qarshi chiqarishga majburladi, axir zulm bor joyda hamisha isyon ko'tarilishini erkak zoti unutib qo'yadi negadir. Ikki shoirning zamondoshlaridan biri S. Makovskiy o'z xotiralarida shunday fikrlarni bitgan ekan: Muhabbatni Gumilev mutloq hokimlik deb tushunardi, Axmatovaga she'rlarini chop qilishga ijozat etmasdi. Uning ijodiga bepisand nazar tashlar, lekin rafiqasini yo'qotganidan keyin uni eng iste'dodli shogirdi, deb sanadi, ammo shunisi aniq ediki, Annaning she'riyati aslo ustozga muhtoj emasdi".

Xullas, "Erkak – jangchi, ayol – jangchiga ruh baxshida etuvchi ne'mat", singari Nisshega xos qarashlarga ergashgan Gumilyov, jamiyat, tuzum Anna Axmatovada haqiqiy jangchi ruhini tarbiyaladi.

Anna Axmatova urush yillari Toshkentda yashagan. Jurnalist Svetlana Somova o'z xotiralarida mashhur shoir haqida quyidagi fikrlarni bitib qo'ygan ekan: "Bu voqea yoz boshida, ehtimol, 1944 yil mayida bo'lgan edi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi binosi koridoridan bo'zrang kostyum, past poshnali tuflida Axmatova yurib kelardi. Shoira qarshisidan G'afur G'ulom chiqib, Axmatovaga murojaat qildi: "Sizning nomingiz Anna, o'zbekchada bu Ena – Ona degani. Men bilan qishloqqa, Yangiyerga yuring", dedi. Axmatova bu iltimosni rad etdi. Lekin G'afur Anna Andreyevnaning tirsagidan ushladi-da: "Ona sifatida, siz, albatta, borishingiz kerak", dedi. O'sha vaqtlarda Anna Axmatova garchand siyosiy tazyiqlarga uchragan bo'lsa-da, uni ona deya e'zozlashardi. Biroq Anna Axmatova o'zini bunday hisoblamasdi.

*Буду тихо на погосте
Под доской дубовой спать,
Будешь, милый, к маме в гости
В воскресенье прибежать -
Через речку и по горке,
Так что взрослым не догнать,
Издадека, мальчик зоркий,
Будешь крест мой узнавать.
Знаю, милый, можешь мало
Обо мне припоминать:
Не бранила, не ласкала,
Не водила причащать. (1915)*

O'g'lining qamoqqa tushishi bilan bog'liq iztiroblar uning ijodida qandaydir fazoviy mantiq baxsh etardi, bu uning yuqoridagi "Iltijo" she'rida aks etgan edi.

Ma'lumki, mamlakatimizda shoir ijodiga qiziqish hamisha kuchli bo'lgan. Uning she'rlarini Oybek, Zulfiya, Aziz Abdurazzoq kabi katta avlod vakillari hamda zamondoshlarimiz Gulchehra Nurullayeva, Abdulla Sher, Xurshid Davron, Mirpo'lat Mirzo, Zebo Mirzo, Gulnoz Mo'minova o'zbek tiliga o'g'irgan. 2000 yili O'zbekistondagi Rus madaniyat markazi va Rossiya ilm fan va madaniyat markazi hamkorligida Toshkentda Anna Axmatovaning "Manqalli hovli" klub-muzeyi ochildi. O'tgan yili "O'zbekiston" NMIUda "Rus adabiyoti durdonalari" turkumida chop etilgan 100 jildlik to'plamdan shoirning ham kitobi o'rin oldi [11].

Ikkinchi jahon urushi yillarida Toshkentga ko'chirilgan rus adabiyoti va san'atining atoqli arboblari – Aleksey Tolstoy, Konstantin Simonov, Korney Chukovskiy, Faina Ranevskayalar orasida Anna Axmatova ham bor edi. U qamalda qolgan Leningraddan 1941 yil noyabrida Toshkentga keldi. Dastlab Karl Marks ko'chasi (hozirgi Maxtumquli) 3-uyga joylashdi. Keyinchalik Jukovskiy (hozirgi Sodiq Azimov) ko'chasi 54-uyga ko'chdi. Abdulla Qahhor, Temur Fattoh, Vladimir

Lugovskoy, Kseniya Nekrasova kabi ijodkorlar bilan baqamti yashadi.. Manqalli hovliga qaragan ikkita derazadan ulkan tut va o'rik daraxti, tunlari "kumush oy" ko'rinib turardi. Umr bo'yi NKVD josuslari ta'qibida, ochlik va xor-zorlikda yashagan shoirga Toshkent bir muddat halovat va xotirjamlik topgan.

Anna Axmatovaning mana bu she'ri orqali Sharqni boshqatdan, boshqa nigohda seva boshlaydi odam. Bu Axmatova qalami va yuragiga xosdir:

*Я не была здесь лет семьсот,
Но ничего не изменилось...
Всё так же льётся Божья милость
С непрекаемых высот,
Всё те же хоры звёзд и вод,
Все так же своды неба чёрны,
И так же ветер носит зёрна,
И ту же песню мать поёт.
Он прочен, мой азийский дом,
И беспокоиться не надо...
Ещё приду. Цвети, ограда,
Будь полон, чистый водоём.*

XULOSA

Anna Axmatova adabiyot uchun tug'ildi. Eng og'ir vaziyatlarda she'rdan yupanch topdi. Shu yupanch tufayli umrining so'nggi yillarida ushbu so'zlarni qog'ozga tushira oldi: "Men hech qachon she'r yozishdan to'xtamadim. Nazarimda, she'rlarim mustahkam rishtalar kabi meni vaqt bilan, xalqim bilan bog'lab turadi". Anna Axmatova ijodi har jihatdan zulm, zo'ravonlikka qarshi ko'tarilgan qaynoq tuyg'yonlardan iborat isyon, zulmatdan otilib chiqqan nur, tundan ayrilgan yorqin yulduz kabi edi, u taratayotgan ziyo hanuz adabiyotdan o'chgan emas. Bugungi kunda shoira ijodini o'rganishda avtobiografik xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga she'r qurilishidagi pragmatik, kompozitsiyon detallar bevosita gendr masalalariga ishora qiladi. Bu esa o'z navbatida shoira nuqtaiy nazarida zamonlar osha dolzarb ahamiyat kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azimov Abdumajid . Umr bo'yi NKVD josuslari ta'qibida, ochlik va xor-zorlikda yashagan Axmatovaning Toshkentdagi halovatli yillari.
<https://oyina.uz/kiril/article/880>
2. Nidolardan yaralgan tarix. <https://e-tarix.uz/maqolalar/435-nidolar-yaralgan-tarix.html>
3. Кочеткова Н. Поэтессы объявляют войну «поэтессам»
<https://iz.ru/news/334609>

4. Басинский П., Федякин С. Издательство центра «Академия».
5. Кон И.С. Психология половых различий // Вопросы психологии. 1981. №2. С.
6. Ахматова. А. Избранное. М.: Просвещение, 1993 г. «Русская литература конца XIX начала XX века и первой эмиграции».
7. Кудрикова А. Н. Гендерные различия в поэзии А. Ахматовой и Н. Гумилева. // Первое сентября. 2011. № 6.
8. Панкеев И.А. Гумилев Н.. Поэзия XX века. М. Профиздат 1982.
9. Смирнова Л.А. «Русская литература конца XIX начала XX века» М.: Просвещение, 1993.
10. Azimov Abdumajid . Umr bo‘yi NKVD josuslari ta’qibida, ochlik va xor-zorlikda yashagan Axmatovaning Toshkentdagi halovatli yillari. <https://oyina.uz/kiril/article/880>
11. Михайлова. М.В. Писательницы Серебряного века в литературном контексте эпохи. / Вестник Московского Университета, серия 9: “Филология” 2011 №1 стр.49.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОВЕСТЕЙ А.И.КУПРИНА 1890-1910 ГОДАХ

Аликулова Муштарий,
стажёр-преподаватель
университета Экономики
и Педагогики

Аннотация. Творчество А. И. Куприна - одна из самых интересных страниц в истории русской литературы. В своих произведениях он затрагивает различные темы, касающиеся различных сторон жизни человека.

Ключевые слова: литература, повесть, лингвистика, речь, эпитеты.

На раннем этапе творчества Куприн испытал сильное влияние Достоевского. Оно проявилось в рассказах “Впотьмах”, “Лунной ночью”, “Безумие”. Он пишет о роковых мгновениях, роли случая в жизни человека, анализирует психологию страстей человека. В некоторых рассказах того периода говорится о том, что человеческая воля беспомощна перед стихийной случайностью, что разум не может познать таинственные законы, которые управляют человеком. Решающую роль в преодолении литературных штампов, идущих от Достоевского, сыграло непосредственное знакомство с жизнью людей, с реальной русской действительностью. Он начинает писать очерки. Их особенность в том, что писатель обычно вел неспешную беседу с читателем. В них были хорошо видны четкие сюжетные линии, простое и детализированное изображение действительности. Наибольшее влияние на Куприна-очеркиста оказал Г. Успенский. Первые творческие искания Куприна завершились наиболее крупной вещью, которая отражала реальность. Это была повесть “Молох”. В ней писатель показывает противоречия между капиталом и подневольным трудом человека. Он сумел уловить социальные особенности новейших форм капиталистического производства. Гневный протест против чудовищного насилия над человеком, на чем основан в мире “Молоха” промышленный расцвет, сатирический показ новых хозяев жизни, разоблачение беззастенчивого хищничества в стране чужеземного капитала - все это ставило под сомнение теории буржуазного прогресса. После очерков и рассказов повесть была важным этапом в творчестве писателя.

В 1898 году Куприн пишет повесть “Олеся”. Схема повести традиционна: интеллигент, человек обыкновенный и городской, в глухом углу Полесья встречается девушку, которая выросла вне общества и цивилизации. Олеся отличается непосредственностью, цельностью натуры, душевным богатством. Поэтизируя жизнь, неограниченную современными социальными культурными рамками. Куприн стремился показать явные преимущества “естественного

человека”, в котором он видел духовные качества, утраченные в цивилизованном обществе. 1901 году Куприн приезжает в Петербург, где сближается со многими писателями. В этот период появляется его рассказ “Ночная смена”, где главный герой -простой солдат. Герой - не отстраненная личность, не лесная Олеся, а вполне реальный человек. От образа этого солдата тянутся нити к другим героям. Именно в это время в его творчестве появляется новый жанр: новелла.

В 1902 году Куприн задумывает повесть “Поединок”. В этом произведении он расшатывал один из главных устоев самодержавия - военную касту, в чертах разложения и нравственного упадка которой он показал признаки разложения всего социального строя. В повести нашли отражение прогрессивные стороны творчества Куприна. Основа сюжета - судьба честного русского офицера, которого условия армейской казарменной жизни заставили ощутить неправомерность социальных отношений людей. Вновь Куприн говорит не о выдающейся личности, а о простом русском офицере Ромашове. Полковая атмосфера томит его, он не желает находиться в армейском гарнизоне. Он разочаровался в армейской службе. Он начинает бороться за себя и свою любовь. И гибель Ромашова - протест против социальной и нравственной бесчеловечности среды. В 1909 году из-под пера Куприна выходит повесть “Яма”. Здесь Куприн отдает дань натурализму. Он показывает обитательниц публичного дома. Вся повесть состоит из сцен, портретов и отчетливо распадается на отдельные детали быта.

Однако в ряде рассказов, написанных в те же годы, Куприн попытался указать и на реальные приметы высоких духовных и нравственных ценностей в самой действительности. “Гранатовый браслет” - рассказ о любви. Так отозвался о нем Паустовский: это один из самых “благоуханных” рассказов о любви. Продолжая и развивая традиции русской классики - Тургенева, Чехова (а также устного народного творчества), писатель огромное внимание уделял пейзажу, который не «отчужден» от героя, не изолирован, а воспринимается его глазами. Пейзаж в «Поединке» всегда с подтекстом, соотнесен с душевным состоянием персонажей. Природа, обстановка, детали быта конкретно осязаемы, реалистичны, но в то же время они не самоцель, а служат дополнительным художественным средством, помогающим воссоздать внешний и внутренний облик героя.

Анализ языка художественного произведения очень важен для понимания его в целом, особенно, когда речь идет о таком тонком стилисте, как Куприн, в творчестве которого используются образные средства всех языковых уровней, начиная с фонетики (что традиционно для прозы) и заканчивая синтаксисом.

Куприн добивался звучности, музыкальности фразы. Аллитерация, ассонансы, анафоры встречаются в «Поединке» часто, как если бы перед нами была не повесть, а произведение лиро-эпического жанра (и это относится не только к «Поединку»). Так, путем частого повторения шипящих и свистящих звуков передается лесной шорох, треск веток и шелест платья Шурочки в сцене ее вечерней встречи с Ромашовым в саду: «Он остановился. Сзади него послышался легкий треск веток, потом быстрые шаги и шелест шелковой нижней юбки. Шурочка поспешила к нему - легкая и стройная, мелькая, точно светлый лесной дух, своим белым платьем между темными стволами огромных деревьев. Ромашов пошел ей навстречу и без слов обнял ее. Шурочка тяжело дышала от поспешной ходьбы. Ее дыхание тепло и часто касалось щеки и губ Ромашова, и он ощущал, как под его рукой бьется ее сердце». У писателя отменный художественный вкус, который проявляется и в умелом использовании тропов, в частности, в подборе эпитетов. Двухсложные, составные эпитеты в языке прозы встречаются нечасто. Куприн же широко использует их возможности. Две части такого эпитета соединяются по принципу синонимии (чудно-приятный), либо как оксюмороны (ярко-бледный). Эпитеты, характеризующие любовь: всеобъемлющая, всепоглощающая, влекущая, всетворящая, всепобеждающая, безответная, чистая, светлая, божественная, бескорыстная, страстная и платоническая, уничтожающая, смертельная, безнадежная, громадное счастье, величайший дар. Куприн тщательно отбирает сравнения, избегая близорукости, эмоциональной нейтральности. Его сравнения лаконичны, ёмки по мыслям, точны и всегда оценочны. Их отличает неординарность, неожиданная образность. ("И вот среди разговора взгляды наши встретились, между нами пробежала **искра, подобная электрической**, и я почувствовал, что влюбился сразу -- пламенно и бесповоротно." Любовь бескорыстная, самоотверженная, не ждущая награды. Та, про которую сказано - "сильна, как смерть"). Зримость создаваемого образа, чувственно воспринимаемого, лежит в основе купринских метафор. Как и большинство тропов, метафоры у писателя не вычурны, они конкретны и ясны.

Список использованной литературы:

1. Бабичева Ю. В. А. Н. Куприн. // История русской литературы в 4-х т.М., Наука, 1983
2. Берков П. Н. Александр Иванович Куприн. М., Л., Изд. Академии наук, 1953
3. Волков А. Творчество Куприна. М., 1981
4. Михайлов О. Жизнь Куприна. М., Центрполиграф, 2001.

TARIXIY FAKT VA UNI BADIY IDROK ETISHNING MUHIM JIHLTLARI

Mamatvaliyev Muhammad Qo'ymurodovich,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
adabiyotshunos
+99893 402-48-78, @Muhammad_Vali

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarixiy-badiiy asarlarni tahlil qilish bilan bog'liq nazariy masalalar "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi va "Jaloliddin Manguberdi" dramasi matni asosida o'rganilgan. So'nggi yillarda zamonaviy o'zbek adabiyotida tarixiy mavzudagi ko'plab badiiy asarlar yaratilmoqda. Bu jarayon ijodkorning tarixiy ma'lumotlarga qanday munosabatda bo'lishi lozimligini jiddiy tarzda kun tartibiga qo'yimoqda. Maqolada ayni shu mavzuga alohida e'tibor qaratilgan va tarixiy ma'lumotlarni badiiy idrok etishning ikki ko'rinishi tadqiqot doirasiga tortilgan.

Kalit so'zlar: *tragediya, drama, tarixiy fakt, badiiy haqiqat, badiiy idrok, sahna spetsifikasi, vaziyat va tasvir jarayoni.*

Mustaqillikka erishgunga qadar xalqimiz yurtimiz tarixini "Chingizxon" (Vasiliy Yan), "Samarqand osmonida yulduzlar" (Sergey Borodin), "Navoiy" (Oybek), "So'g'diyona" (Yavdat Ilyosov), "Sariq ajdar hamlisi" (Mannop Egamberdiyev), "Ulug'bek xazinasi" (Odil Yoqubov), "Yulduzli tunlar" (Pirimqul Qodirov), "O'tror" (Mirkarim Osim), "Shiroq" (Mirkarim Osim), "To'maris" (Mirkarim Osim) kabi asarlar orqali o'qib-o'rgandi. Ta'lim muassasalarida O'zbekiston tarixini o'qitishga mutlaqo e'tibor qaratilmadi. Natijada nomlari tilga olingan asarlarda tasvirlangan voqelik kitobxon ko'z o'ngida tarixiy haqiqat sifatida bo'y rosladi. Xalqimiz ong-u shuurida badiiy asarlardagi voqea-hodisalarni tarixiy haqiqat o'rnida qabul qilish an'anasi shakllandi. Aslida bundan boshqacha bo'lishini tasavvur ham qilib bo'lmasdi. Zero, mustabid sho'ro tuzumi davrida O'zbekiston tarixiga daxldor ilmiy-ommabop asarlar yaratilmadi.

1988-yil ToshDU (hozirgi O'zMU) o'zbek filologiyasi fakultetini bitirish arafasida "Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramasi tarixiy haqiqat va badiiy to'qima" mavzusida diplom ishimni yozar ekanman, universitet fundamental kutubxonasi arxividan Shahobiddin An-Nasaviyning "Siyrat as-sulton Jaloliddin Mengkburni" va Ziyo Bunyodovning "Istoriya Xorezmshaxov Anushteginidov" nomli kitoblarini qidirib topdim. Diplom ishim manbasi bo'lmish kitoblarni ko'rib, ilmiy rahbarim, professor Umarali Normatov g'oyat hayajonlangandilar va kaminani olqishlagandilar. Shundan ham bilsa bo'ladiki, o'sha davrlarda tariximizni o'rganish nochor ahvolda edi va bu bo'shliqni tarixiy badiiy asarlar evaziga qoplanardi. Holbuki, tarixiy va badiiy haqiqatlarni bir-biriga qorishtirib yuborish ilm-fan taraqqiyotiga to'siq hisoblanishini ziyolilar yaxshi tushunib turishardi.

Yillar o'tdi, ammo bu masala hamon dolzarbligini yo'qotmadi. Aksincha, bugun tarixiy va badiiy haqiqatlarni mushtarak yoki farqli jihatlarini bilish har doimgidan ham ko'ra muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Chunki so'nggi yillarda Isajon Sultonning "Bilga xoqon", "Abu Rayhon Beruniy", "Alisher Navoiy", Shahodat Isaxonovanning "Jaloliddin Manguberdi", "Bibixonim", "Nodirayi davron", Luqmon Bo'rixon "Imom Moturudiy", Baxtiyor Abdug'ofurning "Jaloliddin Manguberdi", "Madaminbek: Qonli gullar vodiysi", "Kazbek: Osiyo arsloni" kabi tarixiy-badiiy asarlari o'quvchilar qo'liga yetib bordi. Ayni chog'da O'zbekiston tarixining barcha davrlariga taalluqli ilmiy-ommabop kitoblar soni ham ko'paydi. Har qancha quvonarli bo'lmasin, mazkur ikki yo'nalishdagi kitoblar mutolaasi oqibatida o'quvchi tafakkurida bir-biriga muvofiq tushmaydigan ma'lumotlar to'qnashuvi kuzatilmoqda. Boshqacha aytganda, kitobxon tarixiy va badiiy haqiqatlarni bir-biriga aralashdirib yuboryapti, ularni bir-biridan farqlay olmayapti. Shunday vaziyatda tarixiy faktni badiiy idrok qilish jarayoni xususida yana ham ko'proq tadqiqot olib borishga zarurat tug'ilmoqda, ehtiyoj kuchaymoqda.

Biz ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi va "Jaloliddin Manguberdi" dramasiidagi xalqimiz tafakkuridan mustahkam o'rin olgan tarixiy faktlar haqida mulohaza yuritimiz. Mulohaza yuritish jarayonida tarixiy va badiiy haqiqatlarning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilishga urinamiz.

Ma'lumki, xalqimiz buyuk astronom Mirzo Ulug'bek qatl etilganidan, qotillar uning boshini tanidan juda qilishganidan yaxshi xabardor. Ardoqli shoirimiz Abdulla Oripovning "O'zbekiston" qasidasidan o'rin olgan "Qotil qo'li qilich soldi mast, Quyosh bo'lib uchdi tilla bosh. Do'stlar, ko'kda yulduzlar emas, U – Ulug'bek ko'zidagi yosh" misralari har bir o'quvchiga tanish. 1941-yil 18-iyunda Mirzo Ulug'bek qabri ochilganda ham ayni tarixiy ma'lumot tasdiqlangan. "Qabr ichida Ulug'bek jasadining qoldiqlari quyidagi tartibda yotar edi: jasad chalqancha qilib, chap yelkasining tagiga ozgina tuproq uyib ko'tarilgan, yuzi esa Makka tomonga qaragan holatda yotqizilgan. Boshining tagida esa qizil gazlamadan tiqilgan xaltachaga tuproq solib qo'yilgan. Uning boshi tanasidan nariroqda, yuzi yerga qaratilgan holda qo'yilgan bo'lib, bosh chanog'i bilan birga uchta bo'yin umurtqasi yopishib turardi. Uchinchi umurtqada o'tkir tig'ning izi yaqqol ko'rinadi". [Berdimurodov A. 1:18]

Yuqorida keltirilgan mudhish tarixiy fakt "Ulug'bek xazinasini" romanida shunday tasvirlangan: "Mirzo Ulug'bek o'pkasi to'lib, kalima keltira boshladi, lekin ko'z yoshi aralash tepasiga kelib to'xtagan Sayid Abbosning qora quzg'un vajohatini, boshi uzra ko'targan qilichini ko'rди, ko'rди-yu, ijirg'anib ko'zlarini yumarkan: "Alvido, Ali! Umidim yolg'iz sendan! Ilohim, mening boshimga tushgan bu savdolar sening boshingga tushmagay!... Yo rab, yozug'im nedur manim?"- deb pichirladi".

[Yoqubov O. 2:14] Ko'rinib turibdiki, har ikki ko'chirmada tasvirlangan tarixiy va badiiy haqiqat bir-biriga uyg'un, ya'ni biri ikkinchisini inkor etmaydi. Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida esa e'tibor qaratilayotgan tarixiy fakt boshqacharoq tarzda o'z ifodasini topgan:

Ulug'bek

Jalldlarning malayisan, badbaxt kushanda!

Bir zarba bilan urib, Abbasni yiqitadi. Abbas o'rnidan turib sipohlarga ishora qiladi. Sipohlar Ulug'bek navkarlariga hujum qilganda bittasi qochadi. Yigitali esa qilichini sug'urib, ularni yaqinlatmaydi. Ota Murod: "Musulmonlar", "voydod", "bosqin" deb qichqirib qishloq tomonga qochadi.

Yigitali, qilichimni bergin, ko'ray-chi,

Qilichbozlik bilarmikan bu nobakorlar!

Yigitali Ulug'bekka qilich beradi. O'zi ham qilich tutib, Ulug'bekning chap tomonida turadi.

Yo'q, bo'shshagan emas hali Ulug'bek qo'li,

Men qilichni olmaslikka qasam ichgandim,

Ammo bunga sen haromi majbur etasan.

Goho kerak bo'lar ekan bobo merosi.

Ulug'bek fonus orqasida turib hujum qilayotganlarni ravshan ko'rgani uchun Abbas va sheriklarining hamlalariga raddi-badal berib yaqinlatmaydi. U o'zini ham, Firuzani ham himoya qiladi. Yigitali jarohat yeb, yiqiladi.

Abbos

(sipohlarga)

Fonusni ur! Yo'qsa, unga bas kelolmaymiz!

Bir necha sipohi fonusni urib tushiradilar. O'rtaga qorong'ulik cho'kadi.

Ulug'bek

Eh, nomardlar, yapaloqlar, ko'rshapalaklar,

Qorong'ida faqat sizning ishingiz unar!

To'rt sipohi qorong'idan foydalanib, Ulug'bekka orqadan hujum qiladilar, o'ng qo'lidan yaralaydilar, qilich Ulug'bek qo'lidan tushib ketadi.

Abbos

Darhol bog'lang! O'chni o'zim olmog'im kerak.

Sipohlar arqon tashlab Ulug'bekni daraxtga bog'laydilar.

Firuza

Sen azozil... O'sha ablah, o'sha g'arazgo'y!

Sen tufayli boshim ko'rdi ne-ne balolar!

Abbos

Xo'ja Eshon buyruqlari: barcha ayollar yettidan to yetmishgacha yopinib yurgay... Oling, jadal!

Ulug'bek

O'lim meni qo'rqitmaydi. Lekin, afsuski,
Men do'stlarni hasrat ichra qo'yib ketaman.
Firuza, sen mendan ko'rgan jafongni unut,
Asl sevgi hurmatiga meni esda tut!

Firuzani olib ketadilar.

Abbos

Hukmi-shar'iy bajarilur. Ayting vasiyat!

Ulug'bek

Vasiyatim, vasiyatim! Kim ham eshitgay.
Mulkim yo'qki, birovlariga meros qoldirsam,
Xazinam yo'q, birovni boyitib qo'ysam.
Merosimdir kitoblarim va jadvallarim.
Bir meroski, zamon uni mahv etolmaydi,
Bir meroski, vorislari bu Vatan ahli,
Bir meroski, bahra topar undan yer yuzi.
Esiz, esiz vatanimga so'ng xitobimni
Na birovlar eshitadi va na yozmoqqa –
Bu boylovliq va yarador qo'lim qodirdir.
Yovuz dushman oldida men boylovliq qo'lim,
Parvardigor, bundan ortiq bormikan zulm?
Qayerdasan, dastyorim, sodiq navkarim,
Hay, Berdiyori, nega yo'qsan shu damda o'zing?
Nega seni men jo'natdim o'zimdan yiroq?
Sen bo'lmasang ketar ekan omadim har choq.
Sen qaydasan, hay Berdiyori, Chotqol shunqori!

Sahna orqasidan Berdiyori tovushi eshitiladi.

Berdiyori

Labbay, hazrat, sadongizdan aylanay, hazrat!
Hozir keldim, hay, nomardlar!

Abbos

(cho'chib sipohlarga)

Jadal bo'ling, tez otlaning, darhol ketamiz,
Mana qasos, mana sizga otamning xuni!

Ulug'bek ko'ksiga xanjar tiqadi. [Shayxzoda M. 3:249-252]

O'quvchida o'rinli savol tug'ilishi tabiiy: xo'sh, Maqsud Shayxzoda nima sababdan tarixiy fakti o'zgartirdi, ya'ni qatl jarayoni tasvirida qilich emas, xanjardan foydalandi? Dramaturg tomonidan bu kabi o'zgarishga qo'l urilishi tarixiy haqiqatga xilof hisoblanmaydimi? Umuman olganda, tarixiy fakti badiiy idrok qilish jarayonida ijodkor qanday yo'l tutishi zarur? Jahon adabiyoti durdonasi darajasiga ko'tarilgan tarixiy-badiiy asarlarni tadqiq etish natijasida bu borada tegishli adabiy xulosalar chiqarilgan, ma'lum adabiy qonuniyatlar yuzaga kelgan. Ularga ko'ra, tarixiy fakti badiiy idrok qilish chog'i ijodkorga voqea yakunini buzmaslik sharti qo'yiladi. Yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, Mirzo Ulug'bekning Sayid Abbas tomonidan o'ldirilishi tarixiy fakt sifatida hech bir o'zgarishsiz tasvirlanadi, biroq qatl jarayoni qilich yoki xanjar vositasida amalga oshirilishi – ijodkor ixtiyoridagi ish. Bunda dramaturg asarning janr xususiyatlari, sahna spetsifikasi va asar sahnalashtirilayotgan teatr imkoniyatlarini hisobga oladi. Shuning uchun ham, "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida bosh qahramon tomoshabin ko'z o'ngida qilich bilan boshini tanidan judo qilinmaydi, aksincha, sahna imkoniyatlaridan kelib chiqib, xanjar vositasida o'ldiriladi. Dramaturg uchun bosh qahramonning qilich yoki xanjar vositasida o'ldirilishi muhim emas. U bu jarayonni tarixiy fakti buzmaslik uchun tasvirlaydi, xolos. Uning uchun muhimi – o'z davriga sig'magan buyuk tarixiy shaxsning fojiasini, o'zi yashagan jamiyatning unga ayanchli munosabatini ko'rsatish. Spektakl tomoshasi chog'i tomoshabin faqat shu to'g'rida o'ylaydi va qilich yoki xanjar elementini unutib ham yuboradi.

"Jaloliddin Manguberdi" dramasi tarixiy faktga o'zgacha yondashuvning yana bir varianti ko'zga tashlanadi. Sir emaski, Sind daryosi bo'yidagi jang yakunida Jaloliddin Manguberdi o'z onasi va haramini suvga cho'ktirgani haqidagi ma'lumot xalqimiz o'rtasida keng tarqalgan. "Jaloliddin Manguberdi" dramasi bu voqea quyidagicha tasvirlanadi:

Ona

(kirib keladi)

Buni bergin og'angga, aytgin, bu ma'jun.

(bir shisha beradi)

Bilmasin, tomirimdan olingan sof xun!

U ochlikka yo'liqsa safarda agar,

Buning bitta yutumi unga jonparvar.

Endi sizlar boringiz g'urbat ellarga,

Tutqun vatan dardini chertib dillarga.

Qaytib kelgach go'rlarga soling bir nazar,

Balki unda sunbul-u rayhonlar o'sar.

Mo'g'ullarga bir oqsoch bo'lishdan ko'ra

Baliqlarga yem bo'lsam – afzal ming karra.

Dunyoga oldin kelgan, oldin ham ketar

Yashashim yetar!

O'zini suvga tashlaydi. Sultonbegim yugurib sohilga yiqiladi. [Shayxzoda M. 4:411-412]

Keltirilgan parchada ikki jihatga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, ona ixtiyoriy ravishda o'zini daryoga tashlamoqda – uni Jaloliddin yoki uning navkarlari suvga cho'ktirishmayapti. Ikkinchidan, ona qizi Sultonbegimning ko'z o'ngida o'zini suvga tashlamoqda. Xo'sh, har ikki badiiy faktning tarixiy haqiqatga mosligi qay darajada?

“Jaloliddin holdan toygan holda Sind daryosi bo'yiga keldi, shunda u onasi, xotini (qatl etilgan o'g'lining onasi) va haramidagi boshqa ayollarning: “Olloh nomi bilan sendan yolvorib so'raymiz, bizlarni o'ldir va shu tariqa asir tushishdan qutqar!” degan ayanchli faryodlarini eshitdi. Shunda u buyruq berdi, ularning hammasi daryoga cho'ktirildi”. [Shihobiddin Muhammad An-Nasaviy. 5:108-109]

“Sulton ko'z yoshi va lablari qurigan holda shon-shuhratni bir tomonga surib, orqaga chekinishga qaror qildi. Tog'asining o'g'li Akosh Malik oti jilovini tutib tushishiga yordam berdi. U yerda turgan bolalari, farzandlari va yongan yuragi, yig'lagan ko'zlari bilan vidolashdi. Keyin zahiradagi otini olib keldilar. U otga minib, yana bir maromda xuddi timsohdek balo dengiziga tashlandi. Oldindagi mo'g'ul askarlarini chetga surib tashlab, otidan tushib uning jilovini chiqarib, tashladi va zirhini ustidan otib yubordi. Otga bir qamchi urib, o'zini o'n besh, yigirma metrcha pastlikdagi daryoga tashladi”. [Alouddin Atomalik Juvayniy. 6:374].

Har ikki ko'chirmadagi ma'lumotlardan ayon bo'lmoqdaki, Jaloliddin Manguberding onasi ixtiyoriy ravishda o'zini suvga tashlamagan. Maqsud Shayxzoda tasviridagi ona esa bu ishni o'z xohishi bilan amalga oshiradi. Ayonki, Maqsud Shayxzoda kabi Jaloliddin Manguberdi tarixining bilimdoni bejiz bu ishga qo'l urmagan. U tarixiy faktga shunchaki o'zgartirish kiritmaydi, balki o'zi qo'l urayotgan o'zgartirish vositasida ko'zda tutilgan ijodiy rejani ro'yobga chiqaradi. Ikkinchi jahon urushi avj nuqtasiga ko'tarilgan bir paytda ma'lum tarixiy faktga kichik o'zgartirish kiritishdan qanday maqsad ko'zda tutilgan bo'lishi mumkin? Savolning javobi juda oddiy: frontga jo'nayotgan o'zbek jangchilari Hamza nomidagi teatrda “Jaloliddin Manguberdi” spektaklini ommaviy tarzda tomosha qilishgan. Ixtiyoriga xilof ravishda bo'lsa-da, o'z onasini suvga cho'ktirgan Jaloliddin frontga jo'nayotgan jangchilar uchun ibrat, o'rnak bo'lolmasdi, aniqrog'i, Jaloliddinning boshiga tushgan musibat harchand qayg'uli bo'lmasin, onani suvga cho'ktirish sahnasi tomoshabinga singmasdi. Vaziyat va tasvir jarayoni o'ta nozik yondashuvni talab etardi muallifdan. Yuqorida ta'kidlangan adabiy qonuniyatga ko'ra, ona suvga

cho'kishi kerak va bu tarixiy fakti buzish yoki uni drama syujetiga qo'shmaslik mumkin emas. Shunday murakkab holatda Maqsud Shayxzoda oqilona yo'l topadi va ona ixtiyoriy ravishda o'zini suvga otadi. Farzandini qiyin ahvolga solmaslik uchun o'zini qurbon qilgan ona tomoshabin bo'lmish o'zbek jangchisi nazdida buyuk qahramonga aylanadi. Spektakl tomoshasidan so'ng frontga jo'nayotgan jangchilar shunday fidoyi onalar hurmati uchun ham muqaddas jangga o'tlanishadi, o'z onalari himoyasi uchun jang qilishga ont ichishadi. Dramaturgning mahorati va yutug'i shunda.

"Hilotni qamal qilish paytida Jaloliddin singlisi Xonsultondan xat oldi, u Chingizxonning o'g'li Jo'jining xotini bo'lgan edi. Xat o'z ma'nosi bo'yicha Alovuddin Qayqubod I ning maktubi bilan hamohang edi. Singlisi Jaloliddinga bunday yozgan edi: "Sening kuching, qudrating va mulklaringning ulkanligi haqidagi xabar xoqonga yetdi. Shuning uchun u sen bilan qarindosh bo'lishga qaror qilib, mulklaringiz chegarasini Jayhun daryosi bo'yicha o'tkazish haqida kelishib olmoqchi; senga – daryogacha bo'lgan, unga – daryodan naridagi yerlar. Shuning uchun, agar sen ularga qarshi turishga kuch yig'a olsang, qasos ol; ular bilan jang qil. Agar yengsang, xohlaganingcha ish tutasan. Agar yengolmasang, fursatdan foydalanib, ularning istagi bo'yicha sulh tuz!" (Bunyodov Ziyov. 7:227]

Xonsulton, ya'ni Sul-tonbegimning Jo'jiga turmushga chiqqani boshqa tarixiy manbalarda [8,9] ham uchraydi. Sind daryosi bo'yidagi jangda u Jaloliddin Manguberdi yonida bo'lmagani tarixiy fakt. Maqsud Shayxzoda barchaga ma'lum tarixiy faktga ijodiy yondashgan. Ona ixtiyoriy ravishda o'zini suvga tashlash sahnasida Sul-tonbegimning paydo bo'lishi ma'lum dramatik yechim vazifasini bajargan. O'sha epizodda Jaloliddin onasi yonida bo'lganda dramaturgning ijodiy rejasi amalga oshmay qolardi, tarixiy fakt ham buzilardi. Shuning uchun u Sul-tonbegimni ona va Jaloliddinni bog'lovchi obraz sifatida voqealar rivojiga aralashtiradi. Voqealar rivojida Sul-tonbegimning paydo bo'lishi tomoshabinni ajablantirmaydi. Zero oqila va jasoratli qizning o'z onasi va ukasi oldida bo'lishi – tabiiy holat. Muallifda onaning niyati va vasiyatini tasvirlash uchun Sul-tonbegimdan boshqa jo'yaliroq variant yo'q edi va u o'zining ijodiy konsepsiyasini amalga oshirish uchun tarixiy faktlarga ijobiy ma'noda o'zgartirish kiritish yo'lidan bordi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tarixiy mavzuda asar yozayotgan muallif ma'lum ma'noda o'zi yashab turgan davr farzandi ekanligini unutilmaydi va uning talablari doirasida qalam tebratadi. Maqsud Shayxzoda sovet davri adabiyotining vakili edi va o'zi yashab turgan jamiyat qonunlaridan ustun turolmasdi. Lekin uning dramaturgik mahorati mustabid tuzum qonunlarini nari surib, o'zini namoyon qilishga erishdi! Bu – ham adabiy, ham abadiy fakt!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Berdimurodov Amriddin. Go'ri Amir maqbarasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1996. – 80 b.
2. Yoqubov Odil. Ulug'bek xazinasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994. – 335 b.
3. Shayxzoda Maqsud. Mirzo Ulug'bek. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. – 272 b.
4. Shayxzoda Maqsud. Dunyo Boqiy. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. – 424 b.
5. Shihobiddin Muhammad An-Nasaviy. Sulton Jaloliddin hayoti tafsiloti. – Toshkent: O'zbekiston, 2006. – 384 b.
6. Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi Jahongusho. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2015. – 504 b.
7. Bunyodov Ziyo. Anushtagin Xorazmshohlar davlati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1998. – 372 b.
8. Masharipov Quadrat. Jaloliddin Manguberding jahon siyosiy va harbiy tarixidagi o'rni. – Toshkent: Yoshlar media print, 2021. – 256 b.
9. Mirxondning „Ravzat us-safo“ asarida Jalodiddin Manguberdi zikri. – Toshkent: Fan, 1999. – 32 b.

O'ZBEK FOLKLORIDA QUSHLAR TALQINI

Komiljonov Jahongir Komiljon o'g'li
Namangan davlat universiteti
Mustaqil tadqiqotchi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodi bo'lmish ertaklardagi qushlar: qaldirg'och, burgut, kabutar, oqqush, lochin, chumchuq, boyo'g'li, bulbul timsollari bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, ertak, afsona, qaldirg'och, burgut, kabutar, oqqush, lochin, chumchuq, boyo'g'li, bulbul.*

***Аннотация.** В данной статье описаны персонажи птиц в узбекских народных сказках: ласточка, орел, голубь, лебедь, сокол, воробей, сова, соловей.*

***Ключевые слова:** фольклор, сказка, легенда, ласточка, орел, голубь, лебедь, сокол, воробей, сова, соловей.*

***Annotation.** In this article, the characters of birds in Uzbek folk tales: swallow, eagle, dove, swan, falcon, sparrow, owl, nightingale are described.*

***Keywords:** folklore, fairy tale, legend, swallow, eagle, dove, swan, falcon, sparrow, owl, nightingale.*

Xalq og'zaki ijodida qushlar erkinlik va baxt orzusi talqinini berishda muhim sanalgan. O'zbek folklorida biz qushlar haqidagi ko'plab qo'shiqlar, ertaklar, afsonalar va topishmoqlarni ko'rishimiz mumkin.

“Bir vaqtlar qushlar umumiy tushunarli she'riy obraz sifatida olingan bo'lib, ular ostida shamollar, bulutlar, chaqmoqlar, quyosh nurlari tasvirlangan, qushlarning xususiyatlari ushbu elementlarga, asosan, kuzatuvchi inson ongini parvoz tezligi va hayratga soladigan narsalarga bog'langan. ta'sir kuchi va aksincha: qushlar bilan tabiat hodisalaridan olingan afsonaviy g'oyalar uyg'unlashgan, fantaziya samoviy momaqaldiraq va bo'ronlarni aks ettiruvchi o'zining ajoyib qushlarini yaratgan”[2.85].

Qushlar ko'pincha yovuz kuchlarga qarshilik ko'rsatadi, o'z ona Yerining chegaralarini qo'riqlaydi, yo'lni ko'rsatadi va ob-havo belgilarini ko'rsatadi. Qorong'u qushlar yomon xabarlarini olib keladi, qorong'u kuchlarga hamroh bo'ladi, kasallik va hatto o'limga olib keladi.

Xalq og'zaki ijodida qushlar o'ziga xos ma'juziy ma'noga ega.

Burgut - Xudoning qushi, podshoh, osmon egasiga tegishli. Burgut qushlar orasida eng keksa va eng muhim hisoblanadi. Afsonaga ko'ra, barcha burgutlar shohlardan kelib chiqqan[7.61]. Burgut, osmon xo'jayini sifatida, kim osmonda bo'lishi va kim bo'lmasligi kerakligini hal qiladi. Burgut samoviy elementlar bilan bog'langan va ularni boshqaradi. Burgut do'l bulutlarini dalalardan uzoqlashtiradi va hosilni saqlab qoladi, degan fikr bor. Shuning uchun burgutni o'ldirish taqiqlangan. U boshqa barcha qushlarga qaraganda ko'proq yashaydi va yoshartirish qobiliyatiga ega: keksalik boshlanganda u dunyoning chekkalariga uchib ketadi. Burgut zulmat,

kasallik va o'lim kuchlariga qarshi faol himoyachidir. Sanskrit tilida burgut - tez, tezkor.

Afsonalarga ko'ra, yerga olov olib kelgan lochin qushi - quyoshdan uchqun paydo bo'lgan va daraxtning yoritilishidan yer yuzida samoviy olov paydo bo'lgan. Lochin ko'proq ruhiy qush bo'lib, odamga, ayniqsa jangchiga yordam beradi.

Qarg'a - jahon mifologiyasidagi iblis qahramoni. U hamma narsaning eng dono qushi hisoblangan. Ertaklarda u o'lik va tirik suvni ishlab chiqaradi va shamolni ifodalaydi. Xristian an'alariga ko'ra, bu qush shayton kuchlarining ramziga aylandi[2.147].

Qarg'a uch yuz yil yashaydi va sirlari bor: u o'limni, dushmanlarning hujumlarini bashorat qiladi, qahramonlarga maslahat beradi, xazinaga ishora qiladi va yangiliklar keltiradi. Yomon xarakter qora rang tufayli qarg'aga tegishli va mehribon, muloyim qushlarga qarama-qarshidir. Har qanday yovuz ruh qarg'aga aylanishi mumkin degan fikr bor. Ular qarg'a qiyofasidagi shaytonlar uchib, o'layotgan sehrgarning uyi ustidan aylanib yurishiga ishonishadi. Yovuz odamlarning ruhlari ham qarg'alar bilan ifodalanadi. Jodugarni uning tomida o'tirgan qarg'a tomonidan aniqlash mumkin, deb ishoniladi. O'lim uyga qarg'a qiyofasida kirib kelishi aytiladi. Injil afsonasida aytilishicha, Nuh to'fon tugaganmi yoki yo'qligini bilish uchun qarg'ani qanday qilib yuborgan, lekin u hech qachon qaytib kelmagan. Buning jazosi sifatida bir paytlar kaptarday oppoq, yuvosh bo'lgan qarg'a qorayib, qonxo'r bo'lib, o'lik bilan boqishga mahkum edi.

KAPTAR - muqaddas qush, mehribonlik va go'zallik timsoli. "Hatto kaptar ham yomon odamga uchmaydi. Kabutar, kaptar" deydi xalqimiz oshiq bo'lganda. Baxt va sevgi g'oyasi kaptar bilan bog'liq[7.92]. Bu qushning tinchlikparvarlik roli uzoq vaqtdan beri ma'lum. Kabutar ham qush bo'lishi mumkin. Agar u kulbaga uchib ketsa, o'lim yoki olov bo'ladi. Kabutar sevgi sehrida ham ishlatilgan. Kabutarning yuragi sevgiga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi, deb ishonishgan.

Oq oqqush kunduzning timsolidir. Ertaklardagi oqqush o'zining donoligi, yorug'ligi va go'zalligi bilan qahramonlarning o'z maqsadlariga erishishi, baxt topishiga yordam beradi. Oq oqqush sevgi va go'zallikni, qora oqqush esa zulmat, o'lim va xafagarchilikni anglatadi. Oqqush xalq ko'zida hikoyachi va qo'shiqchi sifatida eng she'riy va nozik tarzda namoyon bo'ladi.

Qaldirg'och - ayollik fazilatlarini bilan ta'minlangan sof, muqaddas qush. Qaldirg'ochlarning erta kelishi hosilni bashorat qiladi, deb ishoniladi. Qaldirg'och oilaning homiysi, uni "uy Bekasi"[8.11] deb bejiz aytishmagan. Qaldirg'ochning uyasi baxt va inoyat bilan ta'minladi. Qaldirg'och uyasini tashlab ketsa, qadimgi kunlarda aytganidek, "butun oila nobud bo'ladi". Va agar qaldirg'och uyga uchib

kirsa yoki tez-tez deraza yonida uchib ketsa, unda to'y bo'ladi. Qaldirg'och bahorning xabarchisi.

Chumchuq- xalq e'tiqodlarida juftlash ramzi, epchillik va chaqqonlik ramzi bilan ajralib turadigan qush. Folklorda yomon belgilar chumchuq bilan bog'liq: tepada uchayotgan chumchuq chiyillashi, derazaga uchib ketgan chumchuq omadsizlikni yoki o'lik odamni anglatadi.

Boyo'g'li - beva, aqlli kichkina bosh, o'rmon bekasi. Donolik g'oyasi doimo u bilan bog'langan. U chuqur o'rmonda yashashni yaxshi ko'radi, xazinalarni qo'riqlaydi va donishmandlar bilan do'stdir.

O'zbek xalqi doimo qushlarga murojaat qilishdi. Ana shu obrazlardan biri bulbul obrazidir. Bulbul – bu qush chumchuqsimonlar oilasiga mansub bo'lib, o'zi ko'rimsizgina bo'lsa-da ovozi dillarni yayratuvchi, dillarga orom beruvchi hisoblanadi. Sharq va g'arbda u bilan bog'liq turli xil ertaklar tarqalgan. Uning xonishi hatto imperatorlarni ham jonini saqlab qolganini ertaklardan bilishimiz mumkin. U bilan bog'liq voqealarni Navoiy asarlarida ham uchratishimiz mumkin. Bu maqolada biz, asosan, ertaklar, "Qisasi Rabg'uziy", Navoiy asarlarida bu obrazning qanday gavdalanganini ko'rib chiqamiz[5.116].

"Bulbulgo'yo" ertagida bulbul podshohning oltin-u kumushlardan yasatgan chinoridagi bargni olib ketadi. Podshoh esa bu ishni kim qilganini topishni uch o'g'liga topshiradi. Kenja o'g'li navbatchiligida u uchib kelib kuylayotganida u bulbulga qarata o'q otadi otasi qarasa uning pati tilladan ekanini ko'radi. Podshoh kimda kim shu qushni olib kelsa davlatimga sherik qilaman deb aytadi. Agar hech kim topib kela olmasa, u butun shahar aholisini o'ldirishini aytadi. Kenja shahzoda qushni olib kelish jarayonida turli xil to'siqlarga uchraydi. Safardan qaytishda u oltin bulbul bilan birga go'zal malika hamda Qoraqaldirg'och nomli uchar otni ham olib keladi. Bu ertakda kenja shaxzodaga maymun qiyofasidagi parilar malikasi yordam beradi. Ertagimizda bulbulgo'yoga erishish ortida shahzoda go'zal hayotga ham erishadi. Xalqning va otasining orzularini amalga oshiradi. Bulbulning donoligini "Bulbul va savdogar" ertagida ham uchratishimiz mumkin. Ertakda bulbulga barcha narsalar tayyor ekanligi, ammo uning qafasdan qutilib o'z qarondoshlari oldiga borolmasligi tasvirlangan. Savdogar doim uni ardoqlab eng noyob meva-yu donlarni berishi lekin qushga nimadir yetishmayotgandek bo'ladi.

Savdogar qushning yurtiga borib bulbul haqida qarindoshlariga xabar berganida ulardan biri o'lganga o'xshab yerga qulaydi. Savdogar qush o'ldi deya uni chetga qo'yaman degandida u uchib ketadi. U yurtiga qaytgach bo'lgan voqeani aytadi. Qush o'zini o'lganga o'xshab yotganda savdogar uni ko'rib uni olib chiqib tashlashlarini buyuradi, qafas ochilganda esa u o'z ona yurtiga uchib ketadi.

Bulbulning donoligini ko'ring-ki, u qarindoshlarining qilgan ishini qo'llash orqali qafasdan qutulib o'z yurtiga uchib ketadi.

“Bog‘bon va bulbul” ertagida inson taqdiridan qochib qutula olmasligi haqida so‘z boradi. Bog‘bon bog‘da ishlab yurgan ekan. Bir bulbul kelib hadeb sayrayveribdi. Shunda tuzoqni ko‘rmagan bulbul daraxtga uchib kelib qo‘nibdi va tuzoqqa ilinib qolibdi. Buni ko‘rgai bog‘bon, uni olib tushibdi. Qafas topib kelib, bulbulni solib qo‘yibdi. Bir kuni bulbul tilga kirib, odamga o‘xshab so‘zlabdi:— Ey, bog‘bon, meni qo‘yib yuborsang, bir gapni aytardim. Bog‘bon hayron qolibdi. Chunki hech kim bulbulning gapirganini eshitmagan ekan. Bog‘bon bulbulni qo‘yib yuboribdi. Ozod bo‘lgan bulbul bog‘bonga qarab shunday debdi:

— Ey, bog‘bon, o‘sha gulning tagini kovlasang, bir xumcha oltin chiqadi. Bog‘bon bulbul aytgan gulning tagini kovlabdi. U yerdan bir xumcha oltin chiqibdi. Bulbulning aytgani rost chiqqanini ko‘rib, bog‘bon taajjublebdi:— Ey, bulbul, shuncha yerning tagidagini ko‘rar ekansan-u, ammo ko‘zingni ro‘parasidagi tuzoqni ko‘rmay ilinganingga hayron qolaman, — debdi.

Buni eshitgan bulbul shunday debdi:

— Bu ko‘rchilik, kulfatni tortishim azaldan yozilgan ekan. Bunga donolik kor qilmaydi. Ko‘rib turibmizki bu ertakda insonlar ba‘zida oldida turgan omadlari oldida ikkilanib qoladi. Keyin esa shu ishni qilsam bo‘lar ekan deya afsuslanadilar. Keyingi pushaymon o‘zinga dushman deya xalqimiz bekorga aytmagan[6.77].

Jahon adabiyotining durdona ertaklaridan hisoblanuvchi Xans Kristian Andersenning “Bulbul” ertagi barchamizga ma‘lum. Asarning asosiy g‘oyasi soxta hayrat hech narsaga arzimasligi va haqiqiy his-tuyg‘ular esa hamma narsadan qimmatroq bo‘lishi hisoblanadi. Bu ertak bizni tabiatning go‘zalligini, betak-roligini sevishga, qadrlashga o‘rgatadi, tabiatdagi ajoyibotlarni anglashga o‘rgatadi, inson qo‘li bilan yaratilgan hech bir mukammal mashina hech qachon tabiat asarlarining o‘rnini bosa olmasligini o‘rgatadi. Bu ertak ham minnatdor-chilikni o‘rgatadi.

“Bulbul” ertagining bosh qahramonlari va ularning xususiyatlari quyidagilar edi: Bulbul – kichik bo‘lishiga, xunukroq bo‘lishiga qaramay ovozing sevrli go‘zalligiga ega bo‘lgan, doimo erkinlikni sevuvchi qushdir. Qush faqat samimiylikni qadrlashini aytadi. Imperator, u go‘zal hamma narsani yaxshi ko‘rardi, lekin sun‘iy bulbuldan tirik bulbul yaxshiroq ekanligini tushunmaganligi oqibatida o‘lim yoqasigacha boradi. O‘lim, barchaning jonini oluvchi farishta hisoblanadi. U bir qarashda, shafqatsiz, ammo bulbulning qo‘shig‘ini eshitib, hissiyotli bo‘lib chiqadi va imperatorni jonini olmasdan ortga qaytadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Зумрад ва Қиммат. Адабиёт ва санъат нашриёти. 1988. 79-83 betlar
2. Мифы древного мира. Москва. Просвещение. 1991.
3. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. –Toshkent. Fan.2002 yil. 10-12 betlar
4. Каскабосов С. Казаская волшебная сказка. Алмата. 1990. стр – 100.
5. Олтин бешик. Ўзбек халқ эртаклари.-Тошкент. Адабиёт ва санъат нашриёти. 1985 йил. 115-117 бетлар.
6. Чалпак ёққан кун. Ўзбек халқ эртаклари.-Тошкент. Чўлпон. 1987 йил.79-81 бетлар.
7. Саримсақов Б. Эпик жанрлар диффузияси.// Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. Тошкент. 1981.113-бет
8. Жўраев М., Пиримқулова М., Миф, фольклор ва адабиёт. -Тошкент. А.Навой номдаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2006 йил. 16-бет.

5-SINF "ADABIYOT" DARSLIGIDAGI MAQOLLAR MAVZUSINI O'RGANISH

Sabrina Hayitova
Qarshi DU talabasi

Ilmiy rahbar: **D.Bazarova** (Qarshi DU)

***Annotatsiya.** Maqolada 5-sinf "Adabiyot" darsligidagi maqollar mavzusining naqadar ahamiyatli ekanligi, o'quvchilar nutq boyligini oshirishdagi o'rni, maqol o'qitish metodikasi hamda maqollarda yashirilgan ma'no haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** maqol, hikmat, ma'no-mazmun, o'quvchilar, adabiyot, nutq boyligi, xalq og'zaki ijodi.*

***Аннотация.** В статье говорится о значении темы пословиц в учебнике «Литература» для 5 класса, ее роли в совершенствовании речи учащихся, методике преподавания пословиц, а также смысле, скрытом в пословицах.*

***Ключевые слова:** пословицы, мудрость, смысл, чтецы, литература, лексика, народное творчество.*

***Abstract.** The article talks about the importance of the topic of proverbs in the 5th grade "Literature" textbook, its role in improving students' speech, the methodology of teaching proverbs, and the meaning hidden in proverbs.*

***Key words:** proverbs, wisdom, meaning, readers, literature, vocabulary, folk art.*

Bilamizki, xalq og'zaki ijodi o'sha xalqning turmush tarzi, urf-odatlarini, orzu-intilishlarini, maqsadlarini, tabiatga va insonga munosabatini ochib beradi. Biz xalq og'zaki ijodi namunalari orqali o'tmishimizni, ajdodlarimizning ezgu niyatlarini, g'azabini, nafratini ko'ra olamiz. Xalq og'zaki ijodi qadim moziy va bugungi kelajak orasidagi vasila— ko'prik vazifasini o'taydi¹.

Maqol xalq og'zaki ijodi namunalaridan biri hisoblanadi. Maqol turmush tajribalari zaminida tug'ilgan va xalq donoligini ifodalagan qisqa, ko'pincha she'riy shakldagi hikmatli so'zlar, chuqur ma'noli iboralardir. Maqollar turli xil mavzularda bo'lib, hayotiy masalalarini qamrab oladi. Ko'p hollarda maqollar o'git, nasihat xarakterida bo'ladi: „Rejasiz ish — qolipsiz g'isht“, „Yer haydasang — kuz hayda, Kuz haydamasang yuz hayda“, „Hunari yo'q kishining, mazasi yo'q ishining“ kabi².

“Maqol“ so'zi arab tilidan olingan bo'lib, “so'z” degan ma'noni bildiradi. Uni «otalar so'zi» ham deydilar. Maqolda mazmun aniq, xulosa tugal, ifoda ravon bo'ladi. Bunda fikr rad etib bo'lmaydigan hukm shaklida keltiriladi. Maqollar ham nasriy, she'riy shaklda bo'ladi. Ularda asosan ohangdosh so'zlar takrori uchraydi.

¹ O. Madayev, T. Sobitova. Xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent. –2010 y.

² K.Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent.–2009.

Maqollar nutqimizga o'zgacha jilo beradi, ohangdorligini boyitadi. Fikrini osonroq tushuntiradi, ta'sirchanligini oshiradi. Maqollardan badiiy adabiyotda ham keng foydalaniladi. Xususan, she'r, roman va qissalarda ko'p uchraydi.

Maqollarni o'qitish savod o'rgatish davridanoq boshlanadi. Savod o'rgatish davri maqol o'rganishning tayyorlov bosqichi hisoblanadi. Maqol o'rganishning birinchi bosqichi 1-2 sinflarga to'g'ri keladi. Boshlang'ich sinflarda olingan bilimlarni mustahkamlash va boyitish maqsadida 5-sinf „Adabiyot“ darsligida maqollar alohida mavzu sifatida kiritilgan. O'quvchilarga maqollarni o'qitish orqali ularning yozma va og'zaki nutqi shakllantiriladi, so'z boyligi oshiriladi, so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari farqi bilan tanishtiriladi. Xususan, „Vataning tinch – sen tinch!“, „Er yigit – elda aziz“ kabi maqollarda so'zlar o'z ma'nosida qo'llangan bo'lsa, „Otalar so'zi – aqlning ko'zi“, „Olmaning tagiga olma tushadi“, „Yetti o'lchab, bir kes“ kabi maqollarda so'zlar ko'chma ma'noda qo'llangan. Agar o'quvchilar maqollardagi ko'chma ma'nodagi so'zlarni o'z ma'nosida tushunsalar, maqolning mazmunini to'g'ri chaqa olmaydilar. Buning oldini olish uchun maqollarni o'qitishda samarali metodlarni qo'llash lozim.

Birinchi usul o'quvchilarga maqolni o'qitish va izohlab berishini aytish. Bunda o'quvchilarning omma oldida nutq so'zlash ko'nikmalari shakllanadi, so'zlarni o'rnida qo'llashga urinishi orqali gaplarida uzviylik paydo bo'ladi. Bu usul, asosan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga mos keladi, lekin 5-6 sinf o'quvchilariga ham bemalol qo'llash mumkin.

Ikkinchi samarali usul „*Maqolni davom ettiring*“ bo'lib, bu o'quvchilarda topqirlik ko'nikmalarini shakllantirish, tezkorligini oshirish, diqqatini jamlash va maqollarni tezkor yod olishiga yordam beradi. Bu metodni ham guruhlariga bo'lib, ham bo'lmasdan amalga oshirsa bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarni guruhlariga ajratadi va doskaga maqollarning yarmini yozadi. Qaysi guruh a'zosi maqolning qolgan yarmini topsa doskaga yozadi hamda o'sha guruhga ball qo'yiladi. Masalan: „*Qunt bilan o'rgan hunar...*“ deb doskaga yoziladi, o'quvchilar uning ikkinchi yarmini topishlari lozim bo'ladi.

Uchinchi usul „*Moslashtiring*“ deb nomlanadi. Bunda doska ikki qismga bo'linadi. Birinchi qismida maqollarning boshi, ikkinchi qismida oxiri yoziladi. O'quvchilarning vazifasi birinchi va ikkinchi qismni to'g'ri topib birlashtirish hisoblanadi.

<i>Vaqting ketdi</i>	<i>xor bo'lmas</i>
<i>Bugungi ishni</i>	<i>ko'pga boq!</i>
<i>Xalqqa xizmat</i>	<i>ertaga qo'yma!</i>
<i>Ko'kka boqma,</i>	<i>oliy himmat</i>

Hunarli kishi

naqding ketdi

Bulardan tashqari o'quvchilarni maqol janri bo'yicha bilimlarini oshirish uchun „Asar g'oyasiga oid maqol ayting“, „Maqollar asosida krossvord tuzing, rebus yarating“ kabi topshiriqlar beriladi, „Maqollar aytish musobaqasi“, „Maqollar mushoirasi“ kabilar tashkil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, maqol — xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda, obrazli va obrazsiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do'stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati kabi mavzularda, shuningdek, salbiy hislatlar xususida rang-barang maqollar yaratilgan.

Xalq maqollari – bizning bebaho boyligimiz. Ota-bobolarimizning siz bilan bizga qoldirgan xazinalaridan biri. Ularni izlab topish, o'quvchilarga kerak o'rinlarda foydalanishni o'rgatish bizning vazifamiz. Qolaversa, maqollar o'quvchilar nutq boyligini sermazmun, ta'sirchan, keskir qiladi. El orasida obro'yini yuksaltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. K.Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent.–2009.
2. O.Madayev, T. Sobitova. Xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent. –2010.
3. S. Ahmedov, B. Qosimov, R. Qo'chqorov, Sh.Rizayev. Adabiyot darsligi.
4. 5-sinf. Toshkent. "Sharq". — 2020.

ADIB BAYONIDA BADIY NUTQ IMKONIYATLARI

Mohira Yuldasheva,
*mustaqil izlanuvchi,
Urganch davlat universiteti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'tkir Hoshimov romanlaridagi obrazlar tilida qo'llanilgan folklorizmlar, aforizmlar, matallar haqida fikr yuritiladi. Adib bayonidagi badiiy nutq imkoniyatlaritahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Folklorizm, janr, xarakter, badiiy-tasviriy qurol, aforizm, matal.

Annotation: This article discusses folklorisms, aphorisms, matals used in the figurative language of O'tkir Hoshimov's novels. The possibilities of artistic speech in the literary narrative are analyzed.

Key words: Folklorism, genre, character, artistic-visual weapon, aphorism, material.

O'zbek adabiyoti nodir iste'dod sohiblariga, favqulodda talant egalariga boy adabiyotdir. Shunday yozuvchilar borki, ular qanday mavzuda qalam tebratmasinlar, barchaga birday manzur asarlar yarata oladilar. Ana shunday yozuvchilarning asarlarida xalq ichki hayotining tasviri bor murakkabligi bilan ifodalanadi. Demak ular yaratgan asarlar boqiy yashaydi va kishi ongiga ta'sir, jamiyatdagi illatlarga qarshi kurashishga chorlayveradi. O'tkir Hoshimov o'zbek adabiyotining ana shunday ko'p qirrali, nozikta'b adibi edi. Adabiyotimizga "Vaqti kelib kitobxon o'sha kitobni yana qo'liga olganida qaytadan hayajonga tushsa." Yozuvchining "Ikki eshik orasi", "Nur borki, soya bor", "Dunyoning ishlari", "Tushda kechgan umrlar" kabi qator asarlari hayajon va qalb titrog'i bilan o'qiladigan asarlar sanalib, kitobxonlar yuragidan chuqur joy olgan. O'.Hoshimov umumiy g'oyaga bog'langan voqealar tizimini rivojlantiradigan manzara, holat, situatsiya, tafsilotlarning xarakterli jihatlarini tanlaydi hamda hayotiy materialga aylantira oladi.

Adibning badiiy mahorati shundaki, u jonli insonlarni tasvirlaydi, o'zi bilgan va mohiyatini chuqur anglagan mavzularni qalamga oladi. "Qaysi asarda xalq ichki hayotining tasviri butun murakkabligi bilan o'z ifodasini topsa, u asar yashaydi va kishi shuuriga ta'sir qilib, jamiyat illatlariga qarshi kurashga da'vat etadi, faoliyatini ezgulik sari yo'naltiradi. O'tkir Hoshimov asarlari ana shunday xususiyatga ega. Buni "Nur borki, soya bor" romanida yaqqol ko'ramiz".[1:287]

Ma'lumki, har bir janr o'z tiliga, o'ziga xos vosita va imkoniyatlariga ega. Nasr hajm jihatdan keng va so'zlashuv tiliga juda yaqin bo'lganligi sababli unda ko'plab folklorizm namunalari adabiyotning boshqa janrlariga qaraganda katta o'rin tutadi.

O'.Hoshimov nasrida Abdulla Qahhor singari so'zga katta yuk orta bilish jihati mujassamdir. Adib ilk hikoyalaridayoq folklorizmlardan unumli foydalanib, ularni mahorat bilan qo'llagan. Natijada o'sha maqol, matal va qisqa hikmatli so'zlar barcha asarlarining boshdan oyoq butun mazmunini o'z ichiga qamrab olgan.

O'.Hoshimov maqol, matal, umuman hikmatli so'zlardan uch yo'nalishda foydalanadi:

- 1) folklorizmlarni xalqda keng tarqalgan shaklda o'zgarishsiz, o'z holicha;
- 2) ularni qisman o'zgargan, muayyan qo'shimchalar bilan boyitgan holda;
- 3) yangi individual, hikmatli so'z va iboralarni yaratadi.

"Nur borki, soya bor" romani O'.Hoshimov ijodining yutug'i, tarjimai holining nurli nuqtasi bo'lishi bilan bir qatorda, ayni vaqtda bu roman yetmishinchi yillar sho'ro adabiyotining yorqin namunasi hamdir. Roman ruhida, bosh qahramon xarakterida kommunistik dunyoqarash, onglilik yaqqol ko'rinib turadi. Bundan tashqari asarda quyidagi individual va xalq hikmatlari ham mavjud:

I. Adib yaratgan:

1. Hayotdan nolisang go'ristonni ziyorat qil.
2. Tashvish har doim qo'shaloq bo'lib yuradi.
3. Birovning ovqatlanishiga nazar solish uyat.
4. Yomon shifokorning qotildan farqi yo'q.
5. Kechagi kun bilan bugungi kunni qo'shmasangiz chetga chiqib qolasiz.
6. Odam uchun uyqusizlikdan ortiq azob bo'lmasa kerak.
7. Cho'ntakda pul bo'lsa kallaga aql ham kelaveradi.
8. Dunyoning ishlari qiziq – musht ketdiga o'xshaydi.
9. Yer tagidagi odam yer yuzidagilarni ko'rmaydi.
10. Ko'pchilikning haqi yetim haqidan yomon.
11. Tobelik bor joyda ijod o'ladi.
12. Eng yaxshi yo'l– o'zing bilgan yo'l.
13. Odam uchun eng qimmatli narsa– hayot.
14. Aziyat chekma, qasos ol.
15. Ot topadi, eshak yeydi.
16. Chigallik bor joyda asabiylik bor.
17. Odamzodning xoki yeti qavat yerning tagigacha qoplab yotarmish.
18. Bir luqmadan bersa to'ydiradi, bir mushtdan ursa o'ldiradi.
19. Dunyoda hamma narsa takrorlanadi.
20. Odamning boshi– Oллоhning toshi.
21. Palakat qosh bilan qovoqning o'rtasida turadi.
22. Aziyat chekma, qasos ol.

II. Keng ommalashgan:

1. Ustoz otangdan ulug'.
2. Ilm– ninada quduq qazish bilan teng.
3. Och bo'lsang berolmaydi. to'q bo'lsang ko'rolmaydi.

4. Dunyoda yo zaring bo'lsin, yo zo'ring.
5. Odamga libos, eshakka to'qim.
6. Hisobli do'st ayrilmas.
7. O'zi yo'qning ko'zi yo'q.
8. Tez yongan, bot soviydi.
9. Ko'rmaganning ko'rgani qursin
10. Qo'li sinsa yengining ichiga yashirmoq.
11. Odamga libos, eshakka to'qim

“Tushda kechgan umrlar” romanida ishlatilgan individual hamda xalq hikmatlarini ham yuqoridagi kabi guruhlaymiz:

I. Adib yaratgan:

1. Donolar hayotni kuzaturlar jim.
2. Ilonning bolasi– ilon, chayonning bolasi– chayon.
3. Bandasining boshi–Ollohning toshi.
4. Dard ketidan quvonch keladi.
5. Tish og'rig'i – ko'z og'rig'i – qutlug' dard.
6. Tor qoringa sig'gan keng uyga sig'maydimi?
7. Arslon qarisa kuni sichqon tutishga qoladi.
8. Ikki orzuni bir yetkazmas ekan.
9. Kafan kiygan ketadi, kapalak kiygan keladi.
10. O'ladigan ho'kiz boltadan to'ymaydi.

II. Keng ommalashgan:

1. Qadamingni bilib bos.
2. Sen shoxida yursang biz bargida yuramiz.
3. Xotin kishining makri qirq eshakka yuk bo'ladi
4. Bir boshga bir o'lim.
5. Qirq yil qirg'in kelsa ham ajali yetgan o'ladi.
6. Dardni bergan Xudo davosiniyam beradi.
7. Yozig'i shu bo'lsa nima qilsin.
8. Itdan bo'lgan qurbonlikka yaramaydi.
9. Qush uyasida ko'rganini qiladi.
10. Bosh omon bo'lsa do'ppi topiladi.
11. Mehmon otangdan ulug'.
12. Yurt boshiga tushgan to'y.

Yuqoridagi talqinlardan ma'lum bo'ladiki, “Yozuvchi umumxalq tili asosida badiiy obraz va xarakter yaratadi. Obraz va xarakterlarning tipik va individual bo'lishi uchun turli-tuman tasviriy vositalar, shu jumladan, jonli tilning qaymog'i bo'lgan

xalq aforizmlari – maqol, matal, hikmatli soʻzlar, iboralar badiiy-tasviriy qurol boʻlib xizmat qiladi”.[2:22]

Oʻ.Hoshimov oʻz asarlarida qahramonlar tilini ular qiyofalarining xususiyatlaridan kelib chiqib, sodda, ixcham, obrazli va sermazmun jumlar tuzar ekan, bunda u asarlari mazmuniga, qahramonlar xarakteriga monand jonli xalq tili boyliklaridan, xalq maqollari, xalq iboralari va turli tasvir vositalaridan unumli foydalanadi.

Maqollar fikrni loʻnda, aniq va obrazli qilib ifodalashga nutqimiz uchun juda ham zarur boʻlgan vositadir. Binobarin, xalqning koʻp asrlik ijtimoiy tajribasida ming martalab tasdiqlanib kelgan ibratli fikrlar har kun, har soat nutqimizga mazmuniy salmoq, oʻziga xos jilo baxsh etib kelmoqda.

Adib asarlarida xalq maqollari magʻziga ularni yaratgan xalqning asriy hayoti, dunyoqarashi, urf-odatlarini singib ketgan. Masalan: Xalqda “Qarisan qartasan asl zotingga tortasan” degan maqolning bir varianti “Tushda kechgan umrlar” romanida “Ilonning bolasi – ilon, chayonning bolasi– chayon” shaklida berilgan. Yozuvchi bu xalq maqolini qoʻllash orqali quyidagi fikrni bildirmoqchi: “Kishi hamma narsani oilada ota-onasidan koʻrib, oʻrganib ularning koʻzgisiga aylana boradi”. Bu hayot haqiqati. Xalq orasida bu maqolning varianti sifatida shunday hikmatli soʻzlar yuradi: “Qush uyasida koʻrganini qiladi”. Bu maqol ham yuqoridagi maqol mazmuniga mos holda qoʻllanilgan.

“Nur borki, soya bor” va “Tushda kechgan umrlar” romanlarida keltirilgan maqollarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Fikr ixchamligi, taʼsirchanligi va aniqligiga xizmat qiluvchi maqollar: “Dardni bergan Xudo davosiniyam beradi”, “Bosh omon boʻlsa doʻppi topiladi”.
2. Oʻzbek xalqi hayoti, turmush tarzi va dunyoqarashi bilan bogʻliq maqollar: “Ilonning bolasi– ilon, chayonning bolasi– chayon”, “Itidan boʻlgan quvonlikka yaramaydi”, “Qush uyasida koʻrganini qiladi”.
3. Ruhiiy holat va kechinmalarni ifodalovchi maqollar: “Dard ketidan quvonch keladi”, “Ikki orzuni bir yetkazmas ekan”.
4. Ijtimoiy hayotning nochorligi, xalq orzu-istaklari, ayrim norozilik kayfiyatlari ifodalangan maqollar: “Och boʻlsang berolmaydigan, toʻq boʻlsang koʻrolmaydigan”, “Hayotdan nolisang goʻristonni ziyorat qil”
5. Qahramonning tashqi qiyofasini tasvirlashda qoʻllanilgan maqollar: “Arslon qarisa kuni sichqon tutishga qoladi”, “Oʻladigan hoʻkiz boltadan toʻymaydi”.

Oʻtkir Hoshimov ijod etgan folklorizmlar oʻzining ixcham va maʼnodorligi bilan ajralib turadi. Yangi aforizmlar yozuvchining oʻz soʻzlab koʻp maʼno anglatishidan darak beradi. Adibning romanlaridagi aforizmlar tilning oʻtkir va keskinligini, tasvirlanayotgan voqealarning haqqoniylikini taʼminlagan.

Yozuvchi romanlarida matallarga ham murojaat etgan. Jumladan, "Tushda kechgan umrlar" romanida "Itिंगni ko'chaga chiqarishni ravo ko'rmaydigan havo", "Sichqonning inini ming tangaga sotib olmoq", "Nur borki, soya bor" romanida esa, Sayfi Soqiyevich holatini tasvirlashda "To'yda so'yilgan qo'y qassobga shunday tikiladi" matalidan, Shoira holatini tasvirlashda esa "Tomga chiqaman deb o'raga tushib qoldi" kabi matallardan ma'lum bir vaziyatlarda o'rinli foydalanilgan.

O'.Hoshimov ijodiy uslubining o'ziga xosligi folklorizmlardan unumli foydalanishida namoyon bo'ladi. Epik tasvirga asos qilib olingan hayotiy material, hajm, kompozitsion yaxlitlik lirik ifodaga xos shakliy uyg'unlik bilan munosabatga kirishadi. Tasvir usul va vositalarining rang- barangligi muallif qarashlarining maqsadga yo'naltirilganlik hamda uyushiq tabiatiga xalal bermaydi, aksincha, uzilgan fikr- tuyg'ular doimiy ravishda g'oyaviy butunlikka intiladi, bir- birini to'ldiradigan, izohlaydigan hamda tartibga soladigan belgilarga aylanadi. Asarlarda harakat qiladigan qahramonlar xarakteri va ularning rivojiga ta'sir o'tkazadigan holat ifodasi aksar nuqtalarda o'zaro uyg'unlashib ketadi. Adib mayda tafsilotlarda ham aniqlik va yorqinlikka erishishga intiladi. Asarda qahramonlar ruhiy olamini yoritishda folklorizmlardan mahorat bilan foydalanilgan. Qolaversa, o'rinli qo'llanilgan aforizmlar ham asar badiyatini yuqori o'rinda bo'lishiga xizmat qilgan. Nafaqat xalq tomonidan yaratilgan folklor namunalari, balki yozuvchi qalami bilan yaralgan hikmatlar ham asarga ko'rk bag'ishlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov H. Adabiy portretlar. –Toshkent, "Yanginashr". 2017. B. 287.
2. Hakimov M. Yozuvchi va xalq tili.-Toshkent.1972.B.22.

ПРОФЕССОР НЎМОН РАХИМЖОНОВ ТАДҚИҚОТЛАРИДАГИ МУҲИМ ЙЎНАЛИШЛАР

Тоҳир Қаххор,

Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган
маданият ходими, ЎзДЖТУ доценти

1

Нўмон Раҳимжонов – таниқли адабиётшунос олим, профессор; яъни, йигирмадан ортиқ илмий китоблар, 400 дан зиёд мақолалар муаллифи.*¹

Нўмон Раҳимжонов – моҳир таржимон. У русчадан ўзбекчага ўгирган, 1967 йилдан бошлаб нашриётларимизда неча юз минглаб ададда босилган йигирмадан ортиқ қиссалар, романлар, илмий асарлар бугунгача халқимизга хизмат қилмоқда.

Нўмон Раҳимжонов – истеъдодли журналист; яни, атоқли давлат арбоби Нуриддин Муҳиддинов, машҳур ижодкорларимиз Асқад Мухтор, Иззат Султон, Рауф Парфи, шунингдек, неча юзлаб замондош шоир, ёзувчи ва олимларимизнинг элимизга танилишида биографик асарлари, китоблари билан ўзига хос ҳисса қўшган.

Нўмон Раҳимжоновнинг 1979-90 йиллар орасида босилган “Давр ва ўзбек лирикаси”, “Шоир ва давр”, “Ўзбек совет адабиётида поэма”, “XX аср ўзбек поэмасининг тараққиёт жараёни” “Шеър сеҳри”, “Фалсафий лирика”, “Ўзбек адабиётшунослиги ҳозирги босқичда”, “Ўзбек поэмасининг ривожланиш хусусиятлари”, “Илмий тафаккур жилolari” каби китобларида, шунингдек, сўнгги ўттиз йилда нашрдан чиққан “Мустақиллик даври ўзбек шеърияти”, “Истиқлол ва бугунги адабиёт”, “Бадий асар биографияси”, “Қодирийшунослик қирралари”, “Бадий сўз эстетикаси”, “Асқад Мухтор поэтикаси”, “Адабиёт – миллат виждони” каби асарлари асосан шеърият таҳлиliga, талқинига, бадий ижод сирларини очишга қаратилгани билан ажралиб туради.

2

Нўмон Раҳимжонов тадқиқотларидаги муҳим, ўзига хос йўналишлар, менимча, қуйидаги уч йўналишда яққол кўринади. Биринчиси – шеърларни олимона-шоирона қалам билан таҳлил ва талқин этишда. Иккинчиси –

¹ *ЎзФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институтида Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими, филология фанлари доктори, профессор Нўмон Раҳимжонов таваллудининг 80 йиллигига бағишланган “Ўзбек адабиётшунослигининг долзарб муаммолари” мавзусидаги халқаро хотира илмий-назарий конференциясида ўқилган маъруза (31 май, 2024).

олимлар, шоирлар, ёзувчилар ижодий лабораториясини олимона ва журналистона ўрганишда. Учунчиси – ғоявий йўналишда, яъни, мустақилликдан олдинги ва кейинги даврда яратилган асарлардаги Ватан, Миллат, Истиқлол, Туркистон мавзуларини тадқиқ қилишда.

Биринчи йўналишдаги тадқиқотларга “Асқад Мухтор поэтикаси” асаридаги қуйидаги парчалар мисол бўла олади: “Шоирнинг “Жимлик сурони”, “Тун ўй сурар”... сингари ўнлаб шеърлари туннинг табиатини идрок этишга йўналтирилган.

Бизнинг боғда оқшом пайтлари
Йиғиб олганида кун шуъласини,
Ўтлар орасида яшил чигиртка
Бошлайди тинимсиз ашуласини...
“Ҳаёт бор!..” – тун бўйи ўжар бир таъкид,
Катта сукунатнинг жонли бўлаги.

Боғ – муаззам ҳаёт. Ҳаёт ўзининг шомлари, тунлари ва тонглари ила нажиб. Баҳрил муҳитнинг энг катта кўзи – офтоб бир зумгина пинакка кетаркан, нурнинг ўрнини тун, ёруғлик ўрнини қоронғулик эгаллагандек бўлади. Аслида ҳам шундаймикан? Аслида ҳам туннинг палаги шунчалар кенгми? Туннинг кўнгли шунчалар қаттиқми, қоронғуми? Туннинг кўзлари ҳам тошми, басирми? Ҳар қандай тонглар ўз йўлининг охирида тунга пешонасини уриб олаверадими? Бошини эгиб, кўзларини юмиб, бу очун оғушига ботиб кетаверадими? Қоронғулик – йўқлик қаърига сингиб йўқолаверадими?.. Аслида ҳам умрлар шоми, вужуд-вужудлардаги шамнинг сўниши йўқликка маҳкумми? Тирикликнинг охиратими?.. Тонгларнинг тунлар билан, ёруғликнинг зулумот билан тўқнашуви, олишуви муқаррарми? Аслида ҳам тун шунчалар қорами, кўмирми? Шундай экан, нега энди туннинг ўрнини бошқа бирон ўзига маъқул ранг билан алмаштириб қўя олмайди, ахир инсонни жудаям улуғ, жудаям қудратли деймиз-ку. Нега энди биттагина тунга шунча таъриф, тавсиф беришга, тунни тушунишга ақл-идроки етган бандаи мўъмин ўз умрини ёлғиз ёруғ тонглардан иборат қилиб ололмайди?..

Миттигина капалакнинг учиши учун ҳам бутун бошли осмон керак. Ҳайҳотдек тунни увокдек чигиртканинг бийрон овози кўтариб туради. У йиғи ёки нола, изтироб ёки қўққув товуши эмас... У – тириклик рамзи.”²

Олимимиз Асқад Мухтор шеърларини таҳлил ва тадқиқ этаркан, ўзи ҳам шоир бўлиб кетади. Бунчалик чуқур фалсафаю ҳайқириқли ҳаяжонлар

² Нўъмон Раҳимжонов. “Асқад Мухтор поэтикаси” – рисола, Ғ. Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, Тошкент 2003, 3-4 б.

ифодаси, албатта, ўқувчини ром этади.

Нўмон Раҳимжонов тадқиқотларидаги яна бир ўзига хос жиҳат ғоявий йўналишда, яъни, мустақилликдан олдинги ва кейинги даврда яратилган асарлардаги Ватан, Миллат, Истиклол, Туркистон мавзуларини тадқиқ қилишда намоён бўлади. Ўзбекистон халқ шоири Рауф Парфининг 2013 йилда босилган “Сакина” (тўпловчи, тузувчи, сўзбоши ва изоҳлар муалифи Нўмон Раҳимжонов) номли сайланмасида “Энг гўзал сир” деб аталган 45 бетли сўзбоши бор. У Рауф Парфи билан ўтказилган суҳбатга, шоирдан эшитилган гапларга суянилгани билан ажралиб туради. Маълумки, Рауф Парфига халқ шоири унвони берилганига қарамай, бу нодир истеъдод эгаси унвонига лойиқ муносабат кўрмади. Нўмон Раҳимжонов шоир ҳаётлик йилларида у билан бир неча бор суҳбатлар ўтказган; Лимонарий тарафдаги катта боғига чақириб, овозини магнитофонига ёзиб олганига ўзим гувоҳман. Рауф Парфи биографиясини яратишда ўша суҳбатлардан фойдаланилгани аниқ, бу тадқиқотнинг ишончилигини орттиради, албатта. Олим шоирга шундай баҳо беради: “XX аср ўзбек адабиётининг ёрқин намоёндаларидан Рауф Парфи – Сир шоири, унвони соҳир шеърият соҳибидир. Рауф Парфи шеъриятининг асосий мавзуси – бу шахс эрки, Ватан мустақиллиги ва Туркистон, Турк дунёсининг бирлигидир; XX аср турк одамининг абадий шуурини, кескин фоже руҳиятини муқаддас туркий тилда ифодалашга жазм этган ва муродига етган жасоратли шеъриятдир... Ўзбек шоирлари томонидан унга бағишланган шеърларнинг ўзи бир китоб бўлади. Рауф Парфи ўзбек адабиётида мутлақо ўзига хос мактаб яратган шоир. У ўзбекнинг юксак миллий руҳиятини ўз шеърияти орқали таниш ва танитиш учун олис йўлга чиққан, хормай-толмай бораётган Йўл Аҳлидандир. Рауф Парфи эстетикасида Турон- Туркистон мавзуи алоҳида саҳифани ташкил этади. “Турон-Туркистон мавзуи милоддан аввалги ёзма адабиётларда юз кўрсатиб келади, – деб ёзади Рауф Парфи, – Миср, Бобил, Хитой, Ҳиндистон, Рум, Эрон, Оврўпа, Америка сингари Турон-Туркистон, Турк дунёси жаҳон илму фани, маданияти, адабиёти ва санъати хазинасига ўзининг муносиб меросини берди ва беражакдир”. “Сўзлар” шеърида ёзади: “Яна тун қўйнида бўшлиқнинг темир қўллари кўксимни қисаркан, ёрдам беринг, ухлаб ётаверманг, дея ҳайқираман. Шундай уйғотаман қадимий Сўзларни – Туркистонимни”. Шоир “Юрак” шеърида “Мен фақат Туркистон аталган ёрқин, Бир бутун юртимни истайман холос”, дейди.³

Ҳақиқатан ҳам, юз эллик йилдирки, чорлик Русияси мустамлакасига айланган Туркистонда яшаган барча элсевар шоирлар бу фикрни таъкидлаб

³ Рауф Парфи. “Сакина”, шеърлар, сайланма – “Мухаррир” нашриёти, Тошкент 2013, 5, 35-36 б.

келган. Туркистон миллий матбуотининг бошловчиси “Тараққий” муаллифларининг йўлбошчиси Мунавварқори хазрат ўша газетанинг илк сонларида, 1906 йилда ёзган “Она ватанамиз Туркистондир, ҳукуратимиз Русия ҳукуратидир” деган теран сўзлар бекорга айтилмаган. Чор ҳукурати 1870 йилдан чиқарган “Туркестанское ведомости”, “Туркистон вилоятининг газити” каби расмий нашрлардаги Туркистон атамаси ўша даврда Эрон, Ҳиндистон, Русия, Буюк Британия каби давлатлар атамаси каби расмий мақомга эга эди. Яъни, биринчи жаҳон уруши натижасида чўкиб, йўқолган империялар қаторида Русия ҳам бор эди ва унинг ўрнида давлат яратган болшевиклар ҳам бирданига Туркистонни йўқота олмаган; Туркистон мухтор совет республикасини қурган (аммо Қўқонда тузилган миллий Туркистон ҳукуратини ёқиб-йўқотган) ва дунёдаги ягона давлат тили –турк тили дея конституциясида қайд этилган бу республиканинг расмий нашри ҳам “Туркистон” газетаси бўлган (1924 йилгача). Ундан кейин Туркистон парчаланиб, ўрнига бир неча қардош республикалар яратилди. Шўро мустамлакачилик сиёсати жон узаётган йилларда – ўша Мунавварқори ва барча жадиждлар ғоясини тиклаш учун, истиқлолга одим отароқ – “Ёш ленинчи” газетаси номини “Туркистон” деб янгиланди. Ҳамза, Чўлпон, Элбек, Фитратлар қуйлаган Туркистонни нега Рауф Парфи, унинг тенгдошлари, издошдари қуйламасин? Қуйлайди, тинмай қуйлаймиз. Бу бизнинг табиий ҳаққимиз, яшаш тарзимизнинг ажралмас бир қаноти. Туркистонда энг сўнгги турк тирик экан, бу қуй тинмайди, ёвларга қарши кураш давом этади (бу – менинг ўйларим). Зотан, бугунда янги Ўзбекистон, ислохотлар руҳи билан яшамоқдамиз. Турк давлатлари кенгаши худди Европа парламенти каби иш юритиши имкони яралган бир замон йўлчиларимиз, йўлбошчиларимиз. Бир Ҳиндистон ҳиндларнинг ватани, бир Русия русларнинг ватани бўлгани каби бир Туркистон унинг ворислари бўлган Туркистон туркийларининг ҳам расмий ватани бўлиши мумкинлигини ҳеч кимса рад этолмайди. Рауф Парфи Мен фақат Туркистон аталган ёрқин, Бир бутун юртимни истаيمان холос, дейишга ҳақли. АҚШ – қўшма штатлардан тузилган бир давлат, Россия федератив республикаси ҳам шунга ўхшаш бирлашган республикалардан иборат бир тузум. Мен юқоридаги фикрларни яқунлаб шундай дейман: 1924 йилда мустамлакачилик сиёсатини юритиш мақсадида парчаланган бир бутун Туркистон ерларидаги барча қардош, қўшни республикалар ўзаро келишиб, ТБР –Туркистон Бирлашган Республикаларини кура оладилар. Зотан, бу менинг бугунги ўйларим эмас, юз йиллик бир жараён ҳақидаги дунё сиёсатчиларининг хулосаси, Фурқат, Дукчи Эшон, Мунавварқори, Бухбудий, Авлоний, Қодирий, Ҳамза, Фитрат, Чўлпонларнинг инончидир –демак, ўқувчи

шоир Рауф Парфининг юқоридаги сатрларидан илҳомланиб, шундай улкан ижтимоий тушунчага толиши ҳам мумкин.

..Юқорида Нўъмон Раҳимжонов тадқиқотларидаги ўзига хос йўналишлардан бири ижодкор лабораториясини, яратилган асарлар сирини очишда кўринади, дедик. Бу фикримизга олимнинг “Бадий асар биографияси”, “Қодирийшунослик қирралари” китоблари мисол бўла олади. Муаллиф таъкидлашича, “Иззат Султон эстетикасида давр, воқелик ва сиёсат масаласи етакчи мавқега эга. Бу борада жамият ва миллат манфаатлари нуқтаи назаридан хоҳ тарихий ёки хоҳ замонавий мавзу бўладими, воқеликка ёндошиш зарурати ва маънавий интеллектуал эҳтиёжини устувор вазифа деб билади.” Ана шу масалани ўқувчига тушунтириш учун муаллиф Иззат Султон билан ўтказган суҳбатидан парчалар келтиради. Иззат Султоннинг айтишича, “Ўтган кунлар” романи 1921 йилда “Инқилоб” журналида босилган. Ўша йилларда “жамиятимиз учун қайси масала муҳим эди? Россия билан бирга бўлишимиз шартми ёки Россиядан ажрашимиз керакми? Маҳмудхўжа Бехбудий, Фитрат, Мунавварқори бошлиқ жадидчилик ва сиёсий ҳаракат, Закий Валидий иштироки билан бўлган интилишлар Россиядан ажралиш ҳаракати эди. Ижтимоий воқелик марказида ана шу масала турарди. У миллий мустақиллик масаласи эди. Сиртдан қараганда, романнинг бу воқеаларга сира ҳам алоқаси йўқдек туюлади...” деркан, Иззат Султон роман воқеасини таҳлил қилиб, ишқий можаронинг охирида Отабек ўлкага босиб келаётган мустамлакачиларга қарши урушда ҳалок бўлганини таъкидлайди ва ўта нодир фикрни айтади: аммо ана шу охириги ҳолат романнинг кейинги даврлардаги нашрларидан олиб ташланган.

Аслида, бутун бошли роман ана шу “бир энлик хабар учун учун ёзилган.” Яъни, ўқувчининг, омманинг севимли қаҳрамонига айланган Отабек босқинчиларга қарши жангда ҳалок бўлади, демак, роман халқимизни босқинчиларга қарши курашга чорлайди. “Қалбимизда Отабек қолади. Ватан учун қурбон бўлган Отабек яшайди. У қанақа одам? Замонанинг энг яхши одами. Абдулла Қодирий айтяптики, халқимизнинг энг яхши одамлари миллий мустақиллик йўлида ҳалок бўляпти. Мана сизга намуна, деяпти... Бундан ортиқ сиёсат бўлиши мумкинми? Буюк ёзувчининг маҳорати шунда. Шу сиёсатни, сиз билан бизга сезилмаган ҳолда, қалбимизга олиб киради... Шу, сиёсатдан нари тур, деган гап адабиётга зарар етказиши мумкин.

Энди бизнинг мезонларимиз қанақа? Ҳар бир даврда ва бугунги кунда ҳам адабиётимизнинг бош вазифаси – инсонни ҳимоя қилиш. Агар сиёсат инсонга жабр қилаётган бўлса, адабиёт исён кўтариши керак. Сиёсат инсонни азиз-мўътабар кўраётган бўлса, унга мадад бериш лозим. Лекин бу нарсанинг

ўз йўли бор. Абдулла Қодирий амалга оширгандек, бадий йўл билан адо этиш керак.”⁴

Ана академик Иззат Султон, ана унинг шогирди профессор Нўмон Раҳимжонов; бизнингча, агар муаллиф шу суҳбатни уюштирмаса, И. Султон ижодий оламини ўрганмаса ва юқоридаги гапларни ёзиб қолдирмаса, “Ўтган кунлар” романининг моҳиятини ҳамма ҳам англаб етавермасди. Н. Раҳимжоновнинг юқорида тилга олинган китоблари Ойбекнинг “Навойи”, А. Қодирийнинг “Ўтган кунлар” романларини теран тушунишга, кадрлашга йўналтирувчи асарлар ўлароқ биз учун кадрлидир, албатта.

Нўмон Раҳимжонов ижодида кўзга ташланадиган яна бир хусусият илмий жасоратдир. Муҳитдаги адабий ва сиёсий муаммоларни, нуқсонларни фақат ўзи ҳам, сўзи ҳам ўткир қаламлар очик ёза олади. Мурасасоз машҳурлар эса сохта донглари ва мунофиқ онглари, қарашларини ҳимоя қилиш учун ҳақиқатни бўяб кўрсатишда давом этадилар. Н. Раҳимжонов “Тафаккур жилolari” рисоласида асосан ўтган асрнинг етмишинчи йилларидан кейинги адабий жараён борасида фикр юритади; Миртемир, Асқад Мухтор, Шукрулло, Одил Ёқубов Пиримқул Қодиров, Эркин Воҳидов, Абдулла Орипов, Рауф Парфи, Омон Матжон, Халима Худойбердиевалар ижодидаги долзарб нуқталарни очиб беради. Муаллиф “Шеърят – шоир – жамият” бобида 70-йилларнинг иккинчи ярмида адабиётимизга Усмон Азим, Шавкат Раҳмон, Тоҳир Қаҳҳор, Хуршид Даврон, Азим Суюн, Хайриддин Султонов, Йўлдош Эшбек, Тоғай Мурод сингари янги авлод вакиллари кириб келганини таъкидлаб, “улар тарихни, бугунги воқеликни, замон муаммоларини кўриш, тушуниш, ўрганиш ва эстетик баҳолашдаги мутлақо ўзига хослиги билан аввалги авлодлар нуқтаи назарларидан кескин фарқ қилади” дейди ва бу қарашини исботловчи қарашларини баён этади. Адабий муҳитдаги ютуқлар билан бир қаторда айрим нуқсонлар ҳам мавжудлигини тилга оларкан, жамиятни турғунлик ботқоғига ботиришда, иқтисодий ва ижтимоий турғунликни қўллаб қувватлашда хизмат қилган маънавий турғунликнинг бир кўриниши – маддоҳликни ҳам ўққа тутди. Жумладан, “70-йиллар шеърятимизда нафақат партия арбоблари, балки маҳаллий партия ва совет раҳбар ходимларига бағишланган, маддоҳликдан иборат дифирамбалар кучайиб кетди. Ҳатто таниқли шоир А. Ориповнинг “Нажот қалъаси” (1980) тўпламидаги бир қатор шеърлар (“Нажот қалъаси”, “Дўстларимга айтганларим”, “Зиё”) бугунги кунда ном-нишонсиз унутилган обком секретарларига, вазирларга бағишланган.

⁴ Нўмон Раҳимжонов. “Қодирийшунослик қирралари”, эсселар – “Наврўз нашриёти, Тошкент 2015 й., 40-43.

Бунинг боиси нимада? Турғунлик йиллари аксарият шоирларимиз ҳаёт ҳақиқатларини, жамият нуқсонларини айтишдан кўра замонасозликка берилиб кетдилар. Даврнинг ижтимоий иллатларини фош этиш эмас, даврга мослашиш, ҳаётни бўяб кўрсатиш авж олди. Орденлар, мукофотлар, турли хил унвонлар шоирларимизнинг кўзини қамаштириб қўйди. Яъни, шеърятда “ватанни сев”, “партияга садоқатли бўл”... қабилида хитоблар, чақириқлар авж олди; ватанпарварлик юзаки талқин қилинди; ғоявийликни тушуниш ва тушунтиришда бир ёқламалик, чекланганлик кўзга ташланди,” дейди.⁵

Бу фикрлар ўттиз уч йил айtilган, бироқ кечагина айtilгандай одамга таъсир қилади. Тўғри сўз ҳар замон тўғри-да, мақбул-да, ёқимли-да, дўстлар.

Менимча, ижодкорлар ва бошқарувчилар бир-бирларига самимий бўлсалар, мунофиқлик қилмасаларгина халқнинг ишончи ва меҳрини қозонадилар, давлат ва миллатни юксалтирадилар. Давлат арбоби сифатида дунёдаги юз буюқдан бири Мустафо Камол Отатурк “Мен Туркия Республикасининг вужудини курдим, жонини эса Зиё Кўкалп яратди” деркан, миллий мафқуранинг жон қаби энг қимматли эканини, туркчилик асосларини давлат биносининг тамалига айлантирган шоир ва олим Кўкалпнинг, адабиётнинг куч-қудратини таъкидлаган. Замонамизда янги Ўзбекистон учун ислохотлар бошлангани, Туркистон мустақиллигини бош ғоясига айлантирган жаидлар байроғи қайта кўтарилгани, ўттизинчи йилгача юксалиш йўналиши белгилангани, бунда адабиётимиз ва адиблар елкасига шарафли юк юклангани ҳам бечиз эмас. Бу йўлда барча соҳа ижодкорлари самимий фаолият юритиши, юқорида Нўмон Раҳимжонов қоралаган иллат – маддоҳликдан йироқлашиб, бу эски ўлатдан қутилиши, албатта, жамиятимизни соғломлаштиради, деб ўйлайман.

3

Профессор Нўмон Раҳимжонов тақаллудининг 80 йиллигига бағишланган халқаро хотира илмий-назарий конференциясида кўпчилик у инсон ҳақидаги ибратли хотираларини айтиб ўтишди. Айтишларича, олимимиз йигирмадан ортиқ шогирд етиштирган (иккитаси Ўзбекистон Республикаси Олий мажлис қонунчилик палатаси депутати): Хуршид Дўстмуҳаммад, Марҳабо Қўчқорова, Дилрабо Қувватова қаби профессорлар, Қобил Кўбаев, Гулбаҳор Саидғаниева, Бекпошша Раҳимова шулар жумласидандир. Улар кўп йиллардан бери Ўзбекистон Фанлар академиясида, олий таълим муассасаларида самарали хизмат қилиб келмоқда. Мен ҳам Нўмонжон аканинг шогирдларидан бириман. “Шарқ юлдузи” журналида

⁵. Нўмон Раҳимжонов. “Тафаккур жилolari”, рисола - “Фан” нашриёти, Тошкент 1991 й., 48, 57-558 б.

ишлаётганим йилларда жуда кўп ижодкорлар ва олимлар билан танишганман, жумладан, наср бўлимида, сўнгра публицистика бўлимида мудирлик қилган таниқли ёзувчимиз Зоҳир Аъламнинг курсдош дўстлари – Рауф Парфи, Бахтиёр Назаров, Нўмон Раҳимжонов, Ортиқ Абдуллаев, Сафар Барно, Акрам Каттабеков, Умрзоқ Ўлжабоев каби ижодкорлар, олимлар тез-тез журналга келишарди; суҳбатлашардик, шахмат ўйнардик. Давраимиз ишхонадан гоҳ “Дўстлик”, гоҳ “Ўзбекистон” меҳмонхонаси ресторанларига, гоҳо Тил ва адабиёт институтига, гоҳида Зоҳир ака ёки Нўмонжон аканинг Лимонарий мавзесидаги ҳовлиларига қадар кўчиб борар, риндона суҳбатлар, тортишувлар давом этарди. Бу ўтиришларда дунёнинг бор гапи кўрқмасдан айтиларди; инсонлар бир-бирининг фикрини, қаламини чархларди, менимча.

Бир гал, ўша Лимонарий тарафда, таниқли олим Эрик Каримов боғида ош қилиб, суҳбатлашиб ўтиргандик, гап айланиб, менинг яқинда нашрдан чиққан “Хур Туркистон учун” деган китобимга тақалди ва Бахтиёр Назаров “бу китоб номзодликка, сал кенгайтирса, докторлик ишига арзийди” дея мактаб юборди; устозлардан Тўра Мирзаев, Гаффор Мўминов, Наим Каримов, Нўмон Раҳимжоновлар ҳам бу фикрни қўллаб-қувватлашди, қадаҳлар жаранглади. Мен ичимда, ҳа энди бундай ўтиришларда шунақа гаплар бўлади-да, деб қўя қолдим. Аммо уч-тўрт кун ўтгач, Бахтиёр ака телефон қилиб, Тоҳир палон- палон ҳужжатларни олиб, институтга келинг, номзодлик ишингизни расмийлаштирамиз, деб қолди. “Муҳожир Туркистон матбуотида миллий истиқлол ғояларининг ёритилиши” деб расмийлаштирилди ва ўша китобим ва қўлимдаги бошқа манбаалар асосида диссертация ёза бошладим. Афсуски, тўқсон тўққизинчи йилдаги воқеалар сабаблими ё бошқами, билмадим, бу мавзу ўтмайди, деган қарорга келинди ва ишни тўхтатдим. Икки минггинчими, икки минг бирими, Нўмонжон ака телефон қилиб қолдилар: “Тоҳир, табриклайман, илмий ишингиз мавзуси тасдиқлангани ҳақида журналда эъон чикди”. Ҳайрон бўлдим, ўша эски мавзуми, дея сўрадим. “Уйга келақолинг, шахмат ўйнаб ўтириб, бафуржа гаплашамиз”, дедилар. Хуллас, “20-30 йиллар ўзбек адабиётининг Туркияда ўрганилиши масалалари” деган мавзуда, устоз раҳбарлигида ишни бошладим. Режа тузишда, манбага ёндошувларда, имтихонларда, ҳужжатларни тайёрлашда ҳар доим устоз ёрдам берди, йўл кўрсатди. Уч-тўрт йил ўтгач ҳимоя қилдим. Дипломни олгач, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университетининг Халқаро журналистика факултетида ишга киришдим, ҳозирда ҳам фаолиятимни давом эттиряпман. Ижодий ва илмий ҳаётимнинг шаклланишида Бахтиёр Назаров, Нўмон Раҳимжонов каби устозларнинг меҳрибона хизмати каттадир, мен улардан доим миннатдорман.

O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MUAMMOLARI mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya		
№	Paper Title	Page №
1-SHO'BA. ADABIYOTSHUNOS NO'MONJON RAHIMJONOV ZAMONDOSHLARI XOTIRASIDA		
1.	БАДИЙ МАҲОРАТ ЖОЗИБАСИГА ДОИР Курдош Қахрамонов	5-9
2.	ШЕЪРИЯТ ИДРОК ЭЛАГИДА (Профессор Н. Раҳимжоновнинг “Мустақиллик даври ўзбек шеърияти” номли китоби бўйича) Улугбек ҲАМДАМ	10-15
3.	ЎЗБЕК ШЕЪРШУНОСЛИГИНИНГ ГАВҲАРИ ДОНАСИ Дилрабо Қувватова	16-23
4.	АДАБИЁТШУНОСЛИКДАГИ ЯНГИЧА ЁНДОШУВ Шоира Ахмедова	24-32
5.	NU'MON RAHIMJONOV HAQIDA XOTIRALARIM Rahmatulla Barakayev	33-35
6.	ҚИБРАЙДАН ЧИҚҚАН ЯГОНА АДАБИЁТШУНОС ОЛИМ Мархабо Қўчқорова	36-39
7.	“ЖИМЖИТ ЖОЛАЛАР” ДАН ТОМҒАН ИНЖУЛАР Дармоной Ўраева	40-45
8.	ИЛМНИНГ ҚҰЙНИДА ЯШАГАН ИНСОН Кубаев Қобил Умарович	46-53
9.	USTOZ IZIDAN ZIYO ISTAGAN SHOGIRDLAR Qo'uliyeva Gulchehra Nazarqulovna	54-56
10.	ЭЗГУЛИКНИНГ КЕЧИ ЙЎҚ Гулбахор Саидганиева	57-58
11.	УСТОЗЛАР ЁДИ: ИБРАТ МАКТАБИ Обитжон Каримов	59-61
12.	NO'MONJON RAHIMJONOV ADABIY SUHBATLARI XUSUSIDA Rahimova Bekposhsha Bahodirovna	62-66
13.	BADIIY ASAR VOIGRAFIYASI BILIMDONI To'rayeva Dilnoza Nematullaevna	67-70
14.	NEVARA SHOGIRDLIKDAN TUYILGAN FAXR O'roqova Nafosat Yoriyevna	71-72
15.	СЕРМУЛОЗАМАТ УСТОЗ ҚИЁФАСИГА ЧИЗГИЛАР Шоира Ахмедова	73-74
16.	ОТА ҚАДРДОН НЎМОНЖОН РАҲИМЖОНОВНИ ХОТИРЛАБ Абдусаттор Муминов, Алишер Муминов, Нозим Муминов	75-76
17.	НЎМОНЖОН РАҲИМЖОНОВНИНГ 80-ЙИЛЛАРДАГИ ЙИРИК ТАДҚИҚОТИ Дехқонова Махсума Шавкатовна	77-80
18.	УСТОЗНИНГ ИЛМ ВА ҲАЁТ МАКТАБИ Дилрабо Қувватова	81-84
19.	NO'MON RAHIMJONOV DILBITIKLARIGA XOS XUSUSIYATLAR Qodirova Ro'zigul Sadulloyevna	85-92
20.	USTOZIMNING USTOZI Xolmatova Nigora Yakubovna	93-94
21.	БАДИЙ-БИОГРАФИК АСАРЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ Абдуғафур Расулов, Умида Расулова	95-101
22.	NO'MON RAHIMJONOV – RAUF PARFI IJODI TADQIQOTCHISI Obidaxon Fayzullayeva	102-107

23.	YUKSAK INSONIY FAZILATLAR SOHIBI Hamidova Muhayyoxon Obidovna	108-110
2-SHO'BA. ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI		
24.	НАВОИЙ ВА ЧЎЛПОН: КЎК – ЕР КОНЦЕПТИ (Бир рубоий ва тўртлик мисолида) Сувон Мели	111-123
25.	HAMZA IJODIY MEROSI VA UNGA MUNOSABAT QANDAY BO'LISHI KERAK? Ulug'bek Hamdamov	124-135
26.	JADID MATBUOTIDA MA'RIFIY ISLOHOT MUAMMOSI Sanobar To'laganova	136-140
27.	SHE'RIYATIDA MUNAVVARLIKNING SURATLARI BOR... Sharipova Laylo Frunzeyevna	141-145
28.	ХАТЛАР – ДЎСТОНА ИЖОДИЙ АЛОҚАЛАР ВОСИТАСИ (<i>Омон Матжон ва Матназар Абдулҳаким</i>) Мархабо Қўчқорова Худойбергановна	146-149
29.	TURSUNBOY ADASHBOYEV IJODIDA TABIAT TASVIRINING BA'ZI O'ZIGA XOSLIKLARI Rahmatulla Barakayev, Baxshillo Ashurov	150-157
30.	АБДУЛЛА ОРИПОВ ТАЛҚИНИДА ИНСОН Эргаш Очилов	158-168
31.	ҚЎҚОН АДАБИЙ МУҲИТИ ИЖОДКОРЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЛИРИКА РИВОЖИДАГИ ЎРНИ (Шухрат Неймат ижодига чизгилар) Саидганиева Гулбахор	169-174
32.	ESSEDA ADABIY MUAMMOLARNING BADIY-PUBLITSISTIK TALQINI Kurbanova Saida Bekchanovna	175-178
33.	ASQAR MAHKAM SHE'RIYATIDA RAMZIY-MAJOZIY OBRAZLAR TAQINI Djumaniyazova Nasiba	179-181
34.	USMON NOSIRNING BADIY OBRAZ YARATISH MAHORATI Obitjon Karimov	182-187
35.	ЎЗБЕК ТАРИХИЙ ҚИССАЧИЛИГИ Кубаев Қобил Умарович	188-194
36.	NASRIY ASARLARDA OBRAZLAR TABIATI TAHLILI Hamidova Muhayyoxon Obidovna	195-200
37.	CHO'LPONNING "KO'NGIL" SHE'RIGA RAUF PARFI TAXMISI Boltayeva Gulchehra Shokirovna	201-205
38.	ESTETIK KATEGORIYALAR TIZIMINING SHE'RIYATDAGI IFODASI Manzura Pirnazarova	206-209
39.	NODIRA AFOQOVA SHE'RLARIDA ONA TIMSOLI S.Muminova	210-213
40.	MUSTAQILLIK SHE'RIYATI VA ARUZGA MUNOSABATNINGO'ZGARISHI Nazarova Dildora Ilhomovna	214-218
41.	YULDUZLAR OBRAZINING PEYZAJ YARATISHDAGI O'RNI (<i>Abdulla Oripov ijodi misolida</i>) Zarnigor Sohibova	219-222
42.	ZAMONAVIY SHE'RIYATDA LOLA VA LOLAQIZG'ALDOQ OBRAZLARINING RAMZIY IFODALARI O'roqova Nafosat Yoriyevna	223-228
43.	СОФОКЛ ВА УНИНГ "ШОҲ ЭДИП"И Барно Ҳасанова	229-234

	ТАРЖИМАСИ ХУСУСИДА Барно Ҳасанова	
44.	HAMID OLIMJON IJODIDA TABIAT RAMZLARINING BADIY TALQINI R.M.Sharipova	235-240
45.	МЕТАФОРИК ТАФАККУР: БИР ШЕЪР ТАҲЛИЛИ Дадахон Муҳаммадиев	241-247
46.	ABDULLA O'RIPOVNING "SOHIBQIRON" SHE'RIY DRAMASIDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIY TALQINI G'ulomjon Atadjanov	248-252
47.	HIKOYADA MAVZU VA G'OYA TADRIJI (Abduqayum Yo'ldoshning "Parim bo'lsa..." hikoyasi misolida) Zumradxon Teshaboyeva	253-255
48.	POETIK TAFAKKUR TADRIJIDA AN'ANAVIYLIK VA IZDOSHLIK MASALASI Matluba Ulkanboyeva Hasanboy qizi	256-261
49.	POETIKADA OBRAZ MUAMMOSI Nishonova Xurshida Yusufjanovna	262-272
50.	ABDUVALI QUTBIDDIN SHE'RIYATIDA TASAVVUFONA RAMZLAR TALQINI Shahodat Isakjanova	273-277
51.	ADABIYOTDA ONA OBRAZINING TARIXIY ILDIZLARI Abdullayeva Madina Madaminovna	278-283
52.	"ЖАНОБ ГОЛОВЛЁВЛАР" ВА "УТАШАН" РОМАНЛАРИДА ШАЙТОН ҚИЁФАЛИ ОДАМ ОБРАЗИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ Абдуллаева Шоҳиста	284-288
53.	ZIYOVIDDIN MANSUR DOSTONLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI AN'ANALARI Aliyeva Guljahon	289-296
54.	"BOQIY DARBADAR" ROMANIDA MIFOLOGIK MODEL Aliyeva Dilshoda	297-303
55.	SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDA OBRAZLARNING TASNIFI Orzigul Aliyeva	304-310
56.	HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYATIDA IJROVIY LIRIKA Berdiyeva Dilnavoz Orif qizi	311-314
57.	"BOBURIYNOMA" MA'RIFIY ROMANIDA MUALLIF MUNOSABATI G'ofurova Shahnoza Alimovna	315-319
58.	ПОЛВОН ОБРАЗИ БАДИИЙ КОНЦЕПТ СИФАТИДА Махбуба Исмоналиева	320-326
59.	URUSH MOTIVI VA YO'QOTILGAN AVLOD FOJIASI Ro'zimurodova Norbibi Chorixo'jayevna	327-330
60.	MILLIY UYG'ONISH DAVRI QO'QON ADABIY MUHITIDAGI ILMGA DA'VAT ETUVCHI AYRIM TURKUM SHE'RLAR TAHLILI Sayfiddinova Gulnoza Ulug'bek qizi	331-335
61.	ABDULLA O'RIPOV IJODIDA TARIXGA MUNOSABAT VA TARIXIY SHAXSLAR TASVIRI Mohinur To'rayeva	336-340
62.	LIRIK MOTIV VA UNING POETIK TIZIMDAGI O'RNI LYRICAL MOTIF AND ITS PLACE IN THE POETIC SYSTEM Hakimjonova Ra'no	341-344
63.	ДОСТОН ҚАҲРАМОНИ – ҚАДРИЯТЛАР «ҚАЛҚОН»И Мунисжон Ҳақимов	345-354
64.	O'ZBEK LIRIKASIDA TABIAT MAVZUSI VA FALSAFIYLIK MASALASINING YORITILISHI Yuldasheva Quvonchoy	355-361
65.	ЎЗБЕК ВА ТУРК ҲИКОЯЛАРИДА МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНИЙ	362-365

	ҚАДРИЯТЛАР ТАЛҚИНИ Барчин Шукурова	
66.	OMON MATJON SHAHSIY ARXIVIDAGI XATLAR XUSUSIDA Shohista Axmedova	366-373
67.	OMON MATCHON SHE'RLARIDA MILLIY RUH IFODASI Matnazarova Saida Satimboy qizi	374-376
68.	USMON NOSIR LIRIKASIDA DARD, IZTIROB VA KECHINMALAR IFODASI Nozima Yuldasheva Solijonovna	377-381
69.	O'ZBEK SHOIRLARI IJODIDA LIRIK KECHINMA VA BADIY KO'CHIMLAR UYG'UNLIGI Saitova Nilufar Djumaydillayevna	382-386
3-SHO'BA. O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI MASALALARI		
70.	ҚАДИМГИ ТУРКИЙ АДАБИЁТ НАМУНАЛАРИНИНГ ҒОЯВИЙ-ЭСТЕТИК ХУСУСИЯТЛАРИ (“ЧИСТОНИЙ ЭЛИК БЕГИНИНГ ҲИКОЯСИ” МИСОЛИДА) Қодиржон Эргашев	387-392
71.	РАҚАМ ВА ШЕЪРИЙ ТАЛҚИН София Джумаева	393-398
72.	НАВОИЙ ТАЛҚИНИДА КОМИЛ ИНСОН Эргаш Очиллов	399-408
73.	NAJMIDDIN KUBRO VA TARIQAT ASOSLARI Saidakbarova Muqaddas Muhammadrahimovna, Hamidova Iroda	409-413
74.	“AVESTO”DA IJROVIY LIRIKA BADIYATI Umida Abdullayeva	414-417
75.	IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ARUZ VAZNINI INNOVATSION USULLARDA O'RGANISH (ALISHER NAVOIY ASARLARI ASOSIDA) Muyassar Boqixonova, Madina Mamadaliyeva, Obitjon Karimov	418-423
76.	ALISHER NAVOIY RUBOIYLARINING BADIYATI XUSUSIDA Ganjayeva Ro'za Sardorovna	424-427
77.	ADABIYOT O'QITISHDA MUSIQADAN FOYDALANISH (ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ASARLARINI O'RGANISH MISOLIDA) Durdonaxon Dadajonova Botirjon qizi, Dilnozaxon Dadajonova Botirjon qizi, Karimov Obidjon Yakubjonovich	428-431
78.	“MAVLUDI SHARIF”DA PAYG'AMBAR MUHAMMAD (S.A.V.) MO'JIZALARINING BAYON ETILISHI Muxitdinova Gulbahor Rustamdjanovna	432-441
79.	ЭПИТЕТЫ И ИХ ФУНКЦИИ В ПОЭЗИИ АВАЗА УТАРА Турумова Т.Х., Тангрибергенова Г.А., Абдуллаева К.	442-445
80.	ZEBO MIRZO LIRIKASIDA PSIXOLOGIZMNING METAFORIKLASHUVI Sh. Usmonov	446-450
81.	O'ZBEK ADABIYOTIDA MUXAMMAS JANRINING O'RGANILISHI Fayziyeva Gulshan Hayitovna	451-459
82.	ABDURAHMON GO'ZAL – YASSAVIYSHUNOS Dilshoda Haqqulova	460-464
83.	NISHOTIY G'AZALI: BADIYAT VA NASHRLAR ARO TAFOVUTLAR Shomurodova Marjona	465-468
84.	XOTIRALARDA ADIBLAR SIYMOSI Xolmatova Nigora Yakubovna	469-473

**NO'MONJON RAHIMJONOV TAVALLUDINING 80 YILLIGI MUNOSABATI BILAN
"O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI"**
mavzusida xotira xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

4-SHO'BA. ADABIY ALOQALAR VA ADABIYOT NAZARIYASI MUAMMOLARI		
85.	GULOM HUSEYN ALIYEV O'ZBEK ADABIYOTI TARG'IBOTCHISI Gulnoz Sattorova	474-478
86.	"PADARKUSH" XORIJLIK OLIMLAR TALQINIDA (TEMUR KO'JAO'G'LI VA EDVARD OLVORT TADQIQOTLARI ASOSIDA) Qo'chqorova Marhabo	479-481
87.	"JAMILA" QISSASIDA MUHABBAT VA ADOLAT ZIDDIYATI Allambergenov Anvar Erkabayevich	482-492
88.	ANNA AXMATOVA SHE'RIYATI: KECHA VA BUGUN, O'XSHASH NUQTALAR VA TAFOVUTLAR Xosiyat Rustamova	493-501
89.	ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОВЕСТЕЙ А.И.КУПРИНА 1890-1910 ГОДАХ Аликулова Муштарий	502-504
90.	TARIXIY FAKT VA UNI BADIY IDROK ETISHNING MUHIM JIHATLARI Mamatvaliyev Muhammad Qo'yurodovich	505-512
5-SHO'BA. FOLKLORSHUNOSLIK VA ADABIYOT O'QITISH METODIKASI MASALALARI		
91.	O'ZBEK FOLKLORIDA QUSHLAR TALQINI Komiljonov Jahongir Komiljon o'g'li	513-517
92.	5-SINF "ADABIYOT" DARSLIGIDAGI MAQOLLAR MAVZUSINI O'RGANISH Sabrina Hayitova	518-520
93.	ADIB BAYONIDA BADIY NUTQ IMKONIYATLARI Mohira Yuldasheva	521-525
94.	ПРОФЕССОР НҶЪМОН РАҲИМЖОНОВ ТАДҚИҚОТЛАРИДАГИ МУҲИМ ЙЎНАЛИШЛАР Тоҳир Қаххор	526-533